TAHLIL VA NATIJALAR. O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki yillarida tadbirkorlik uchun keng imkoniyatlar yaratildi, yangi ish uslublari joriy etildi. Mavjud imkoniyatlardan unumli va to‘laqonli foydalanishga harakat qilindi. 1994-yilgacha viloyat bo‘yicha 9 ta sohada mulklarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish asosan tugallandi. Bularga mahalliy sanoatning 23 ta korxonasi, maishiy xizmatning 963 ta shoxobchasi, davlat savdosining 337 ta do‘koni va 7 ta bazasi, matlubot jamiyatlari uyushmasining 512 ta do‘koni va Urganch savdo bazasi, viloyat “Qoptayyorlovsavdo” birlashmasining 385 ta savdo shoxobchasi, viloyat “Mevasabzavotuzumsanoat” birlashmasining 79 ta savdo shoxobchasi, “Minavtotrans”ning 4 ta korxonasi, viloyat bo‘yicha jami 2325 ta mulk aksionerlik jamiyatlari, jamoa mulklari va xususiy mulkka aylantirildi. Bu viloyatda xususiylashtirish bo‘yicha belgilangan vazifalar 114 foizga ado etildi demakdir[10].

Respublikada amalga oshirilayotgan islohotlar iqtisodiyotning makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, yalpi ichki mahsulotning 104,5 foiz miqdorida o‘sishi, sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning 7,6 foizga, qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtirishning 6,2 foizga, chakana savdo tovar aylanmasining 8,7 foizga, aholiga pulli xizmatlar ko‘rsatishning 14,2 foizga ko‘payishi imkonini berdi[11].

Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 13-maydagi “1999-2001 yillarda Xorazm viloyatida bozor islohotlarini chuqurlashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni jadallashtirish dasturi to‘g‘risida”gi qarori[7] asosida uch yil davomida viloyatning yillik o‘rtacha yalpi mahsuloti 1998-yilga nisbatan 13 foizga o‘sdi. O‘rta va kichik biznes taraqqiyoti uchun bu davrda byudjetdan tashqari jamg‘armalar va tijorat banklaridan 4,0 milliard so‘m kredit resurslari yo‘naltirildi. Yangi ish o‘rinlari yaratilgani natijasida ushbu sektorda qo‘shimcha ravishda 20 ming nafarga yaqin odam ish bilan ta’minlandi[12].

2002-yilda mamlakatda faoliyat ko‘rsatayotgan kichik va o‘rta biznes korxonalari soni 200 mingdan oshib ketdi, ulardan 168,6 mingtasini mikrofirmalar tashkil etdi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka kreditlar ajratish tizimi ancha yaxshilandi, ajratilgan mikrokreditlar hajmi 2,5 barobarga ko‘payib, 18 milliard so‘mni tashkil etdi. Kichik va o‘rta biznes korxonalarining yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishdagi ulushi 31,6 foizdan 33 foizga o‘sdi[13].

2002-yili korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish, kichik va o‘rta biznesni, tadbirkorlikni rivojlantirish yuzasidan muayyan ishlar olib borildi. Shu o‘rinda bir yilda 2250 ta turli mikrofirmalar, kichik va o‘rta korxonalar tashkil etilganligini aytib o‘tish lozim[14].

2005-yilda BMT Taraqqiyot dasturining “Barqaror daromad manbaini shakllantirish” yo‘nalishi bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyati hududiy vakolatxonasi mas’ul xodimi T.Torebayev viloyatda biznes inkubatorlar tarmog‘i orqali grant mablag‘larini kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga yo‘naltirish istiqbollarini hamda bu boradagi mavjud muammolarni o‘rganishga va o‘z navbatida viloyat

iqtisodiyotiga Xalqaro donor tashkilotlarining mablag‘larini jalb qilishda hamda kichik va xususiy biznes subyektlarini qo‘llab-quvvatlashda amaliy yordam berish maqsadida tashrif buyurdi[15].

Viloyatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida belgilangan reja asosida harakat qilayotgan ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani, shu jumladan, kasanachilikni rivojlantirish hisobiga yangi ish o‘rinlari tashkil etish uchun intilayotgan fuqarolarga kreditlar va mikrokreditlar yaratish borasida amaliy yordam ko‘rsatildi. 2008-yili viloyatdagi bank bo‘limlari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash uchun ajratilgan kreditlar miqdori 47,1 mlrd so‘mni tashkil qilib, 2007-yilga nisbatan 56,7 foizga oshdi. Mazkur o‘sish ko‘rsatkichlari vohada tadbirkorlikning investitsiya faoliyatini rivojlantirishda banklarning roli tobora oshib borayotganligidan darak beradi. Ushbu tadbirlar natijasida viloyatda tadbirkorlar tomonidan yaratilgan yangi ish o‘rinlari soni 57,2 foizga ko‘paydi[16].

Rivojlangan mamlakatlarda ham, O‘zbekistonda ham har yili yaratilayotgan yangi ish o‘rinlarining yarmidan ortig‘i kichik va xususiy tadbirkorlikka to‘g‘ri keladi[9]. Respublika va viloyat statistika idoralari ma’lumotlariga ko‘ra 2008-yili mamlakatda yangi tashkil qilingan barcha ish o‘rnidan 374 mingtasini ya’ni 56,7 foizi kichik biznes ulushiga to‘g‘ri kelsa, aholi nisbatan tig‘iz yashaydigan hududlardan bo‘lgan Xorazm viloyatida 371000 ish o‘rnidan 21,2 mingga, ya’ni 57,1 foizga kichik biznes hisobidan ochilgan[17]. Mamlakat yalpi ichki mahsulotida 1991-yildan 2009-yilgacha sanoat ulushi 2 barobar, ya’ni 11 foizdan 23,6 foizga, xizmat ko‘rsatish sektorining ulushi 16,3 foizdan 47,2 foizga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 1,5 foizidan 50,1ga o‘sdi.

“Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili davlat dasturi to‘g‘risida”gi qarorda[6] kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini axborot bilan ta’minlash, shuningdek, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish masalalarida ularga konsultativ ko‘mak berish tizimini yanada rivojlantirish alohida ta’kidlangan. Ana shu maqsadda respublika miqyosida, shu jumladan, Xorazm viloyatida mutasaddi tashkilotlar tomonidan tadbirkorlikni har tomonlama rivojlantirish, belgilangan dasturlarni bajarish maqsadida nazariy-amaliy jihatdan tushuntirish ishlari namunaviy yo‘lga qo‘yildi. Qonunlar, qarorlar va tadbirkor uchun muhim bo‘lgan qoidalar mujassamlashgan maxsus kitoblar, o‘quv qo‘llanmalari, bukletlar tayyorlanib ularga havola etildi. Savdo-sanoat palatasi, hunarmand boshqarmasi va qator tashkilotlar o‘tkazgan tadbirlarda tadbirkorlar faoliyatlarida muhim bo‘lgan tavsiya, maslahatlarni olishdi. Adliya tizimi tomonidan har haftada joylarda tashkil qilingan ochiq eshiklar kunidagi muloqotlar tadbirkorlarning huquqiy-iqtisodiy savodxonligini oshirish imkonini berdi.

Yagona oyna tizimi nafakat kichik biznes subyektlari ishbilarmonlar, balki fuqarolarning ham tadbirkorlik bo‘yicha qiziqtirgan savollarga javob berib, aynan Urganch shahri va Gurlan tumanida ushbu tizim faoliyati sezilarli takomillashdi[18]. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 56,3 foizga yetkazildi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili davlat dasturi tadbirlarini amalga oshirish uchun 50,2 milliard so‘m miqdorida mablag‘lar sarflandi. Viloyatda 3 oy mobaynida 14196 ta yangi ish o‘rinlari tashkil etildi, ularning 87,2 foizi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga to‘g‘ri keldi[19].

2012-yilga kelib kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga tijorat banklari tomonidan 2011-yilga nisbatan 1,4 barobar ko‘p hajmda kredit va mikrokreditlar ajratildi. Umuman olganda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishni rag‘batlantirish borasidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi[20].

“2013-2015 yillarda Xorazm viloyatini kompleks rivojlantirish dasturi” doirasida ishbilarmonlik muhitini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan tadbirlar natijasida 879 ta yangi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tashkil etildi. Tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga 230,7 mlrd so‘m yoki 2012-yilga nisbatan 65,2 mlrd so‘m 39,4 foizga ko‘p kredit mablag‘lari ajratildi[21].

Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–5242-son[1], 2018-yil 26-apreldagi “Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi

PQ-3680-son[2], 2018-yil 7-iyundagi “Har bir oila – tadbirkor” dasturini amalga oshirish to‘g‘risida”gi PQ–3777-son[3] , 2018-yil 27-iyundagi “Yoshlar –

Kelajagimiz” Davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF–5466-son[4] Farmonlari va 2018-yil 14-iyuldagi “Aholi bandligini ta’minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3856-son[5] qarorlari asosida imtiyozli kreditlar tadbirkorlarga ajratildi. Tadbirkorlik sohasi nafaqat iqtisodiyotning o‘sish sur’atlarini jadallashtirishda, balki mamlakat uchun nihoyatda muhim bo‘lgan bandlik va aholi daromadlarini oshirish masalalarini hal etishda ham yetakchi o‘rin tutadi. Shu sababli, kichik biznes subyektlari faoliyatining samaradorligini oshirish muhim hisoblanadi.

XULOSA. Muxtasar qilib aytganda, mustaqillik yillarida mamlakatda, ayniqsa, 2018-2021-yillar davomida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning tizimli chora-tadbirlari ko‘rilishi va aholini tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish, hunarmandchilik, kasanachilik, tadbirkorlik faoliyatining boshqa sohalarida bandligini ta’minlash, ularning barqaror daromad manbalari shakllanishiga shart-sharoitlar yaratish borasida dasturiy chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida aholining, asosan, chekka hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy himoyaga muhtoj oilalarning holati yaxshilanishiga ko‘maklashdi.

Bundan tashqari, kichik biznes, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash, xotin-qizlar va yosh avlod tashabbuslari dasturlari bo‘yicha o‘tkazilgan izchil islohotlarning samarasi o‘laroq bugungi kunda respublika milliy iqtisodiyotida band bo‘lgan aholining yarmidan ko‘pi shu sohada mehnat qilib, yildan-yilga yangi yaratilayotgan ish o‘rinlarining uchdan bir qismi ushbu soha hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Bu hodisa jamiyatda yangicha dunyoqarashga ega, harakatchan avlodni, ya’ni tadbirkorlar, mulkdorlar toifasining paydo bo‘lishiga olib keladi. Bunday qatlam mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti asosi hamda ijtimoiy tayanchi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.11.2017-y., 06/17/5242/0280-son.
2. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 27.04.2018-y., 07/18/3680/1110-son.
3. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 08.06.2018-y., 07/18/3777/1325-son.
4. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 28.06.2018-y., 06/18/5466/1527-son.
5. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 17.07.2018-y., 07/18/3856/1515-son.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 07.02.2011-yil, 1474-son. //https://lex.uz/docs/-1745082.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 13.05.1999-yil, 243-son. //https://lex.uz/docs/-1559245?ONDATE=13.05.1999.
8. Abdullayev A. va boshqalar. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik: tashkil etish, rejalashtirish, boshqarish. T., 2005. –B. 18.
9. Hamroyev H. Tadbirkorlik asoslari. T., 2010. –B.32.
10. Хоразм ҳақиқати газетаси, 1994 йил 15 февраль.
11. Хоразм ҳақиқати газетаси, 2001 йил 17 октябрь.
12. Хоразм ҳақиқати газетаси, 2002 йил 2 февраль.
13. Хоразм ҳақиқати газетаси, 2002 йил 20 июль.
14. Хоразм ҳақиқати газетаси, 2003 йил 24 февраль.
15. Хоразм ҳақиқати газетаси, 2005 йил 5 февраль.
16. Хоразм ҳақиқати газетаси, 2009 йил 11 март.
17. Хоразм ҳақиқати газетаси, 2009 йил 16 май.
18. Хоразм ҳақиқати газетаси, 2011 йил 18 июнь.
19. Хоразм ҳақиқати газетаси, 2011 йил 27 апрель.
20. Хоразм ҳақиқати газетаси, 2012 йил 28 июль.
21. Хоразм ҳақиқати газетаси, 2013 йил 6 ноябрь.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK:159.923:364.08

СОЦИАЛЬНАЯ ПРИРОДА ЮМОРА

Довлетов Шукурулла Атаназарович, самостоятельный соискатель УрГу

YUMORNING IJTIMOIY TABIATI

Dovletov Shukurulla Atanazarovich, UrDu mustaqil izlanuvchi

SOCIAL NATURE OF HUMOR

Dovletov Shukurulla Atanazarovich, Independent Researcher UrSu

https://orcid.org/0009-0003-4745-4288
e-mail: shdovletoff@proton.me

Аннотация: Статья посвящена исследованию роли юмора как социокультурного явления, которое формируется и развивается в контексте социальных взаимодействий и структур. В работе анализируется концептуальная природа юмора, его функции в обществе и особенности восприятия различных типов анекдотов в зависимости от культурных, гендерных и возрастных факторов. Исследуя юмор как инструмент социальной связи, автор рассматривает его влияние на взаимодействие между группами, а также его роль в социальной трансформации и адаптации.

Ключевые слова: анекдот, юмор, культура, социология, восприятие, интерпретация.

Annotatsiya: Maqola ijtimoiy aloqalar va tuzilmalar kontekstida shakllanadigan va rivojlanadigan ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida hazilning rolini o‘rganishga bag‘ishlangan. Ishda hazilning konseptual tabiati, uning jamiyatdagi funksiyalari va hazilning turli turlarini qabul qilish xususiyatlari madaniy, gender va yosh omillariga bog‘liq holda tahlil qilinadi. Hazilni ijtimoiy bog‘lanish vositasi sifatida o‘rganib, muallif uning guruhlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirga ta’siri hamda ijtimoiy o‘zgarishlar va moslashuvdagi rolini ko‘rib chiqadi.

Kalit so‘zlar: latifa, hazil, madaniyat, sotsiologiya, qabul qilish, talqin.

Abstract: The article is dedicated to the study of humor as a sociocultural phenomenon, which is formed and developed in the context of social interactions and structures. The paper analyzes the conceptual nature of humor, its functions in society, and the perception of different types of humor depending on cultural, gender, and age factors. By exploring humor as a tool of social connection, the author examines its influence on group interactions, as well as its role in social transformation and adaptation.

Key words: anecdote, humor, culture, sociology, perception, interpretation.

ВВЕДЕНИЕ. Анекдот, будучи частью фольклорной традиции, воплощает собой форму вернакулярного дискурса, выполняющую также функции социального взаимодействия, как разновидность гетероглоссного жанра. Анекдоты, имея низкую регистровую классификацию, направлены на удовлетворение опосредованных социальных потребностей. При этом они реализуют две ключевые прагматические функции: сброс или снижение психоэмоционального напряжения, а также изобличение, выявление и осмеяние социальных пороков и явлений.

ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД. В исследовании особое внимание уделяется соотношению юмора с социальными нормами и ожиданиями, а также его способности отражать и комментировать текущие общественные проблемы. На основе эмпирических данных и теоретического анализа мы предлагаем новые подходы к пониманию юмора как динамичного элемента социальных структур, способствующего как сплочению, так и конфронтации в обществе. Данная работа вносит вклад в область социологии юмора и может стать основой для дальнейших исследований, направленных на анализ взаимосвязи между юмором и социальными изменениями.

При исследовании природы анекдотических традиций в контексте особенностей восприятия, возникает очевидная проблема их интерпретации, изучение которой поможет объяснить феномен смешных и несмешных анекдотов. Вопросами в данной области занимались Т.В.Артемьева, Я.Г.Гаранина[1,с.173-180], Н.Г.Беретарь[2], Ю.И.Ульянова [4].

ОБСУЖДЕНИЕ. Так чем же обусловлено понимание анекдотов? Предлагаем рассмотреть основные варианты, лежащие на поверхности: возрастные, гендерные и социокультурные отличия в понимании юмора и на основании этого – проанализировать, как каждое из этих различий формирует уникальные перспективы и ожидания в отношении анекдотов, составить полное и объективное представление о влиянии данных факторов на восприятие комических ситуаций. Обратим внимание, что из предложенных трёх целевых групп, лишь одна – возрастная, имеет тенденцию к изменениям, тогда как гендерная и социокультурная остаются постоянными.

Для систематизации нашего исследования (таблица №1), мы применим парадигму профессора С.В.Савельева, который утверждает, что коммуникативное и любое другое поведение гоминидов предопределяется тремя эволюционно значимыми целями: «Пища, размножение и доминантность остаются залогом биологического процветания любых организмов на планете» [3,с.31]. Применив данную парадигму к концепции, что жанровая дифференциация анекдотов может быть структурирована по этим трём основным тематическим категориям, коррелирующиеся с базовыми человеческими потребностями, мы можем заключить, что каждый анекдот или комическая ситуация направлена на удовлетворение одной или нескольких из этих ключевых эволюционных целей.

Таблица №1

ЕДА	**РАЗМНОЖЕНИЕ**	**ДОМИНАНТНОСТЬ**
	Темы анекдотов	
О водке ГАИ Врачи Дети Коррупция Свадьба Тёща	Об изменах Муж и жена Секс Пошлые Поручик Ржевский О гусарах Матерные	Армия Армянское радио Про блондинку Британские учёные Про Вовочку Учёба Политика

Данная выборка составлена по облаку тегов наиболее популярных анекдотов в сети на 03.06.2024 года.

Для определения тенденции вкусовых предпочтений в анекдотах по возрастам, проследим за тем, какие типы анекдотов циркулируют в группах людей разных возрастных категорий. Для этого будет проведен сбор и анализ анекдотов, распространённых в следующих возрастных группах: дети (до 12 лет), подростки (13-17 лет), молодёжь (18-25 лет), взрослые (26-59 лет) и пожилые люди (60 лет и старше). Данный подход позволяет выявить специфические типологии юмора,

TAMADDUN NURI

предпочтительные для каждой возрастной группы, и оценить, как эти предпочтения могут изменяться со временем.

РЕЗУЛЬТАТЫ. Для каждого возрастного сегмента будут отобраны наиболее часто встречающиеся в этой среде анекдоты. Затем они по присущим им характеристикам будут классифицированы по типам. Выбор соответствующих критериев классификации, разработанных на основе литературных и фольклорных подходов, позволяет более точно сопоставить результаты.

Далее производится количественный анализ частотности появления заданных тематических категорий в каждом возрастном сегменте. Полученные данные помогают выявить доминирующие темы и формы юмористического повествования, характерные для каждой группы. Кроме того, качественный анализ содержания анекдотов в различных возрастных категориях позволит понять, какие общественные и психологические факторы влияют на вкусовые предпочтения в юморе.

Детский юмор (до 12 лет). В основном в данной категории используются словесные игры, антропоморфизмы и нелепые ситуации – абсурд.

***

- Пап, а у тебя в детстве был планшет?
- Нет, тогда и компьютеров-то и не было.
- А на чём ты тогда играл?
- На улице.

***

Ребёнок на детской площадке находит дохлую летучую мышь, подбирает ее и бежит к маме с криками:

- Мама, мама, я ангела нашёл!!!

***

Мой младший брат-первоклассник каждое утро сам ездит на 19-автобусе в 28-школу, где его учат считать до десяти.

Подростковый юмор (13-17 лет) связан, прежде всего, с изменениями, происходящими в пубертатный период, такими как – становление личности и самоутверждение. Особенностями юмора этого периода будут обилие сарказма, анекдоты, связанные с неловкими ситуациями, а также насмешки над взрослыми авторитетами.

***

- Алло! Три часа ночи! Кто вы?
- Это папа вашего ученика, Елена Васильевна! Спите?
-Конечно!
- А мы тут каштаны пилим, желуди протыкаем – готовим поделку на конкурс «Прощай, осень»…

***

Мальчик Петя ударил молотком по пальцам трудовика и получил пять. По
крайней мере, ему так послышалось.

***

-Звонок для учителя!
- Женщина, мне всё равно, кто вы такая! Верните звонок обратно на мой велосипед!

Молодёжный юмор (18-25 лет), в основном характеризуется экспериментальностью и нетрадиционными формами комедии, в этой возрастной группе преобладает чёрный, а также ситуативный юмор.

***

- Как его там звали? Мультиокунь? Гиперлещ?
- Поликарп.
- Точно!

***

-Ура, я поступила в автошколу, скоро будет на одного пешехода меньше!
- А может, и не на одного...

***

- Висит груша, нельзя скушать. Что это?
- Загадка.

Взрослые (26-59 лет). Обычно это иронический, ностальгический юмор про работу, семью и хобби.

***

Прожить жизнь просто. Вначале надо делать то, что говорят родители, затем то, что говорит жена, затем внуки и сиделка.

***

Первые 25 лет зубы работают на тебя, а потом ты работаешь на зубы.

***

TAMADDUN NURI

Хочешь быть счастливым? Будь им! Главное, чтоб жена не узнала.

В пожилом возрасте (60 лет и старше) анекдоты в большинстве своем классические – это иронические шутки над возрастом внуками и жизнью на пенсии.

***

Пенсионный фонд – это большая финансовая пирамида. Деньги вкладывают все, а получают лишь выжившие.

***

Является ли достижение пенсионного возраста экстремизмом?

***

Наконец-то выяснилось, кто пишет на дверях Пенсионного фонда «Цой жив». Это делает пенсионер Иван Иванович Цой, которому вот уже третий месяц не выплачивают пенсию.

Таблица № 2

Возраст	Игра слов	Сарказм, неловкие ситуации, насмешки над взрослыми	Экспериментальный, нестандартный юмор	Ирония, ностальгия	Классические шутки, ностальгия
до 12 лет	+	-	-	-	-
13-17 лет	+	+	-	-	-
18-25 лет	+	+	+	-	-
26-59 лет	+	+	+	+	-
60+ лет	+	+	+	+	+

Данный подход обеспечивает объективное понимание динамики вкусового восприятия анекдотов в контексте возрастной дифференциации. По таблице № 2 мы можем наблюдать, что анекдоты, функционируя как средство внутригрупповой коммуникации в социуме, представляют собой дискурсивные элементы, которые передают культурную и опытную информацию в юмористическом формате. Например, если субъект не обладает антецедентными знаниями в какой-либо области, то вероятность понимания им юмора по этой теме значительно снижается. Переходя через этапы взросления в социальной среде, человек накапливает соответствующий данному обществу опыт. С возрастом знаний у человека становится всё больше, соответственно увеличивается и диапазон воспринимаемого юмора. Данная ситуация наглядно обыгрывается в примере общения двух подруг:

- Поразительная разница в общении с молодыми и взрослыми мужчинами. Если 22-летние готовы общаться с тобой до глубокой ночи, то мужчины за 36 в 22:00 уже спешат ко сну.
- Просто экран телефона светит в глаза жене.

Также, в этой таблице показано, что пиковое значение восприятия достигается в группе 60+, другое дело – реакция на юмор. Как мы уже отмечали – существуют возрастные, гендерные и культурные отличия в понимании юмора. Если гендерный юмор условно воспринимается обеими полами практически одинаково, за исключением особенных реакций, то культурные аспекты менее податливы в этом плане, поскольку различия затрагивают более глубокие слои идентичности и восприятия. Юмор, основанный на культурных особенностях и реалиях, может варьироваться в зависимости от исторического и социального контекста, в котором он возникает.

TAMADDUN NURI

Если же соотносить анекдоты с таблицей № 1, то они распределяются по темам на основании сферы интересов, которая в свою очередь формируется из возрастных групп, что коррелируется с социокультурными особенностями этих групп. Это предполагает прямую взаимосвязь с тремя вышеуказанными константами.

Категория еды или жизненного обеспечения, представлена в анекдотах, где основным мотивом являются повседневные материальные потребности. Такие анекдоты отображают бытовые заботы и радости.

Тема отношений между полами, партнерства и различных аспектов любовной жизни, часто встречаются в анекдотах. Эти сюжеты включают шутки о браке, свиданиях, ревности и других аспектах отношений, которые в конечном итоге связаны с продолжением рода и выбором партнера.

Доминантность находит своё отражение в шутках, связанных с социальной иерархией, властью, престижем и статусом. Анекдоты на эту тему могут высмеивать представителей власти, демонстрировать конфликты на рабочем месте, или же наоборот, показывать триумф «маленького человека» над системой.

Попробуем разложить анекдоты по жанровым типам и посмотреть, в какой возрастной группе они циркулируют, где в качестве расчётной единицы дисперсионного анализа будем использовать шаблон – анекдоты про…

Таблица № 3

Размножение	Общее кол-во запросов	Доля всех запросов %	Аффинити-индекс %
Об изменах	484	0,00000577	98,33
Муж и жена	2147	0,0000255	102,68
Секс	4163	0,0000496	100,04
Пошлые	17257	0,000205	98,64
Поручик Ржевский	2838	0,0000338	101,9
О гусарах	186	0,00000221	103,29
Матерные	4085	0,0000487	99,95
ВСЕГО	**31160**	**0,00037058**	**704,83**

Доминантность	Общее кол-во запросов	Доля всех запросов %	Аффинити-индекс %
Армия	2270	0,0000270	99,92
Армянское радио	156	0,00000193	96,62

TAMADDUN NURI

Про блондинку	1172	0,0000139	103,48
Британские учёные	23	0,00000027	112,73
Про Вовочку	16737	0,0001995	102,31
Учёба	50	0,00000059	96,91
Политика	391	0,0000046	103,22
ВСЕГО	**20799**	**0,00024779**	**715,19**

Еда	Общее кол-во запросов	Доля всех запросов %	Аффинити-индекс %
О водке	772	0,0000092	104,30
ГАИ	124	0,00000147	100,77
Врачи	2206	0,0000263	101,13
Дети	4460	0,0000531	102,47
Коррупция	43	0,00000051	95,4
Свадьба	813	0,0000096	103,29
Тёща	2568	0,0000306	101,13
ВСЕГО	**10986**	**0,00013078**	**708,49**

Таблица №3 даёт возможность наблюдать, что на период исследования – июнь-август 2024 года, наиболее высокими показателями аффинити-индекса обладает категория – Доминантность (715,19%). Таким образом, через призму утверждений профессора С.В.Савельева, жанровая классификация анекдотов не только становится более понятной и упорядоченной, но и даёт возможность глубже понять природу человеческого юмора и его связь с эволюционными механизмами. Более того, систематизация юмористического контента по данным трем эволюционно значимым направлениям позволяет открыть новые горизонты в исследовании когнитивных и социальных аспектов человеческой психики.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ. Основная генерация анекдотов происходит в среднем возрастном сегменте 18-59 лет. В зависимости от условий жизни и идеологических установок, пиковое значение жанровой тематики анекдотов в обществе может меняться. Несмотря на универсальные темы анекдотов (еда, размножение, доминантность), их восприятие и понимание определяются культурным и социальным контекстами, а также личными особенностями слушателей. Анекдоты служат зеркалом, отражающим как биологическую природу человека, так и его социокультурные

TAMADDUN NURI

реалии. Понимание юмора требует учета универсальных тем и индивидуального, социального контекста, в котором эти темы рассматриваются.

Таким образом, анекдоты, несмотря на их базовую, биологически обусловленную тематику, воспринимаются через призму личного, социального и культурного опыта, что делает юмор многогранным и субъективным феноменом.

Автор выражает благодарность своему научному руководителю, (DSc) Чупонову Отаназару Отажоновичу за ценные советы и рекомендации в создании статьи.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Артемьева Т.В., Гаранина Я.Г. Серия Философия. Психология. Педагогика. Вестник Удмуртского университета. – № 173. – Т. 30, 2020. – С. 173-180 /373.
2. Беретарь Н.Г. Социокультурные особенности юмора в ценностной системе этноса: на материале адыгейской культуры: Дис. канд социол. н. – Майкоп, 2006. – 170 с.
3. С.В.Савельев. Церебральный сортинг. – М. Въди. 2016. – 233 с.
4. Ю.И.Ульянова. Индивидуально-психологические особенности чувства юмора в профессиональной деятельности социальных работников: Дис. канд. психол. н. – М. 2012. – 182 с.
5. Курбанбаева, М. (2024). Использование русских народных сказок в процессе изучения языка и формирования гуманизма у детей. Tamaddun nuri jurnali, 5(56), 520-522.
6. Курбанбаева, М. (2023). Важность формирования навыков самостоятельного мышления при подготовке конкурентоспособных кадров. Tamaddun nuri jurnali, 5(44), 95-96.
7. Курбанбаева, М. (2023). Влияние современного жаргонизма на изучение русского литературного языка иноязычной молодежью. Tamaddun nuri jurnali, 4(43), 52-55.
8. Курбанбаева, М. (2023). Пословицы и поговорки со схожим значением в русском и узбекском языках и общность народной мудрости. Tamaddun nuri jurnali, 4(43), 15-18.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 323.342.71

FUQAROLAR VATANPARVARLIGI - FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI SHAKLLANISHIDA MUHIM OMIL

Kurbanbayeva Munavvara Kozibayevna, UrDU o‘qituvchisi, QMU “Milliy g‘oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi” kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi

PATRIOTISM OF CITIZENS - AN IMPORTANT FACTOR IN THE FORMATION OF CIVIL SOCIETY INSTITUTIONS

Kurbanbaeva Munavvara Kozibaevna, teacher of UrSU, independent researcher of the department “National idea, foundations of spirituality and legal education” of QSU

ПАТРИОТИЗМ ГРАЖДАН - ВАЖНЫЙ ФАКТОР В ФОРМИРОВАНИИ ИНСТИТУТОВ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА

Курбанбаева Мунаввара Козибаевна, преподаватель УрГУ, независимый научный исследователь кафедры «Национальная идея, основы духовности и правового воспитания» КГУ

https://orcid.org/0009-0002-6202-2064

e-mail: tamaddunnuri1@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada fuqarolik jamiyati shakllanishining tarixiy, siyosiy ahamiyati va bu jarayonda fuqarolarning hal qiluvchi roli tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: vatanparvarlik, jamiyat, davlat, fuqarolik jamiyati, huquq, huquqiy tenglik, adolatli jamiyat, sog‘lom siyosiy dunyoqarash.

Abstract: This article analyzes the historical and political significance of the formation of civil society institutions and the decisive role of citizens in this process.

Key words: patriotism, society, state, civil society, law, legal equality, just society, healthy political outlook.

Аннотация: В данной статье анализируется историческое и политическое значение формирования гражданского общества и решающая роль граждан в этом процессе.

Ключевые слова: патриотизм, общество, государство, гражданское общество, право, юридическое равенство, справедливое общество, здоровое политическое мировоззрение.

KIRISH. Insoniyat juda qadimgi, miloddan avvalgi ming yilliklardan boshlab, urug‘-jamoachilik davrlaridanoq muayyan tutumlar asosida yashaganlar. Lekin u davrlarda, ma’lumki, avvalboshdan urug‘-jamoani boshqarishni aksariyat hollarda jismoniy jihatdan kuchli odamlar o‘z qo‘liga olgan. Taraqqiyotning keyingi bosqichi – quldorlik tuzumi davrida ayniqsa bu yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ya’ni, jismoniy, harbiy, ishlab chiqarish vositalari, qurollari, moliyaviy-iqtisodiy kuchlar kimlarning qo‘lida to‘plangan bo‘lsa, boshqaruv shularga tegishli bo‘lgan. Bu davrda ishlab chiqarish hamda ortiqcha mahsulotning vujudga kelishi davlat paydo bo‘lishiga sharoit yaratgan. Ko‘rib turganimizday, jamiyat davlatdan qadimiyroqdir.

Feodalizm davrida ham kuchlar ustuvorligi tendensiyasi davom etsa-da, insoniyatning huquqiy jamiyatga sari bir qadam yaqinlashuvi ro‘y bergan, ya’ni qullikka barham berilgan. Lekin, bu hali barcha insonlarning bir xil haq-huquqlarga ega bo‘ldi, degani emas edi, albatta. Jamiyat taraqqiyotining keyingi bosqichlarida ham adolatli jamiyat sari siljishlar sodir bo‘ldi, insoniyatning huquqiy jamiyat barpo etish borasidagi orzu-intilishlari, jarayon o‘laroq uzluksiz davom etdi. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning tobora o‘sib borishi natijasida insoniyat keyingi rivojlanish bosqichlariga ko‘tarilib boraverdi. Iqtisodiy yuksalish ijtimoiy-madaniy yuksalishlarga yo‘l ochdi. Endi jamiyatning progressiv qatlamlarida barcha insonlarning teng huquqliligi g‘oyasi kurtak ota boshladi. Insonlarning huquqiy, siyosiy, ijtimoiy jihatdan tengligi g‘oyasi ayrim mutafakkirlar asarlarida o‘z aksini topdi. Inson teng huquqliligi – bu fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Fuqarolik jamiyatining nazariy va amaliy jihatlari qadimgi davrlardanoq G‘arb va Sharq mutafakkirlari diqqatini o‘ziga qaratib, ular uchun o‘rganish obyekti bo‘lib kelgan. Jumladan, G‘arbda Suqrot, Platon, Aristotel, Sitseron, Sharqda Konfutsiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Nizomulmulk, Alisher Navoiy, Amir Temur[1] kabi mutafakkirlar va davlat arboblarining davlat boshqaruvida adolat, haqiqat, qonun ustuvorligi, jamiyat farovonligi, el-yurt tinchligi kabi kategoriyalar ko‘tarilgan, ularning tabiati, qaror topish va rivojlanish qonuniyatlari o‘rganilgan. O‘rta asrlar va undan keyingi davrlarda ham G‘arb va Sharq mutafakkirlari adolatli jamiyat konsepsiyasini takomillashtirib borganlar. Jumladan, o‘rta asrlardagi N.Makiavelli, J.Boden, T.Gobbs, Sh.Monteskyo kabi olimlarning ishlarida fuqarolik jamiyati konsepsiyasi ancha takomillashtirilgan.

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy-madaniy, falsafiy jihatlarini M.Qirg‘izboyev, F.Musayev, S.Abduxoliqov, B.Aliyev, S.Mamashakirov, E.Yusupov, A.Fayzullayev, B.To‘ychiyev, A.Fayzullayev, E.Yusupov, N.Shermuhamedova, D.Norqulov, X.Shayxova, T.Qo‘yliyev, Q.Nazarov, G.Najimov, Q.Xonazarov, U.Qoraboyev kabi olimlar o‘rgandilar.

Maqolada ilmiy bilishning dialektik, tarixiylik, kompleks yondashuv, kontent-analiz, mantiqiylik, analiz va sintez kabi usullariga tayanildi.

MUHOKAMA. Fuqarolik jamiyati institutlari haqida gap borar ekan, fuqarolik jamiyati nima, degan savol tug‘ilishi tabiiy. Yuqorida aytganimizdek, fuqarolik jamiyati haqida eng qadigi davrlardan tortib to shu kungacha bahs-munozaralar tingan emas. “Masalan, T.Peyn, T.Xodjinks, J.E.Sizys, V.Fon Gumboldt kabi faylasuflar fuqarolik jamiyatini davlatga qarshi qo‘yadi. XVIII-XIX asrlarda G‘arbda davlatning zulm va zo‘ravonlikka asoslangan mustabid ko‘rinishlari bu mutafakkirlarni ana shunday xulosaga olib kelgan. ... Yana bir qator G‘arb faylasuflari – J.Lokk, A.Fergyuson, S.Pufendorf, I.Kant, G.F.gegel esa davlat va jamiyat manfaatlarini uyg‘unlashtirish, davlatni jamiyatga xizmat qildirishga e’tibor qaratgan”[2].

Z.M.Islomovning ta’kidlashicha, “Fuqarolik jamiyati” kategoriyasi tarixan insoniyat taraqqiyotining, har bir davr mutafakkirlarining aql-idrok, erkinlik, farovonlik va adolat hukm suradigan ideal ijtimoiy tuzum modelini yaratish yo‘lidagi intilishlari bilan tavsiflanadigan alohida bir davrini aks ettiradi”[3].

Ushbu “Davlat va jamiyat manfaatlarini uyg‘unlashtirish, davlatni jamiyatga xizmat qildirish” g‘oyasi O‘zbekistonning bugungi ijtimoiy-iqtisodiy siyosatiga juda yaqin. Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev ko‘plagan ma’ruza va chiqishlarida bu haqda gapirib, “Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak”, degan g‘oyani ilgari surdi. Bu borada islohotlar izchil amalga oshirilib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ham fuqarolik jamiyatini shakllantirish borasida o‘z fikrlarini bildirgan. “Ma’rifatli dunyoda “fuqarolar davlati” deb gapirilmaydi. “Fuqarolik jamiyati” deyiladi. Davlat – boshqa narsa, fuqarolik jamiyati boshqa narsa. Bunday jamiyatda davlat tashkilotlaridan ko‘ra jamoat tashkilotlarining qadri balandroq turadi. Kuch ishlatuvchi tuzilmalar, vazirliklar, mahalliy hokimiyat davlat tashkilotlari tizimiga kiradi. Jamoat tashkilotlari esa fuqarolarning ixtiyoriy birlashishi asosida tashkil topadi. Biz bunga erishishga harakat qilmog‘imiz lozim”[4]. Islom Karimov tomonidan asoslab berilgan “Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat

sari” konsepsiyasi huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati dialektik munosabatini har tomonlama to‘g‘ri ifoda etadi.

Mamlakat Prezidenti bo‘lib ish boshlashi bilanoq, Sh.M.Mirziyoyev fuqarolik jamiyatini shakllantirish borasidagi ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish, bu boradagi islohotlarni jadallashtirishga jiddiy kirishdi. Jumladan, “Bizga, birinchi navbatda, kuchli fuqarolik jamiyati zarur, chunki har qanday islohot har birimizning yuragimizdan, ongimizdan boshlanishi lozim. Adolatli qonunlar bo‘yicha vijdonan yashashga tayyor bo‘lishimiz, mamlakat kelajagi uchun bir yoqadan bosh chiqarib, olg‘a qadam bosmog‘imiz kerak”, dedi u O‘zbekiston mustaqilligining 32 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda nutqida. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish ishlarini yanada takomillashtirish maqsadida “2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni qabul qilindi[5], yangi tahrirdagi Konstitutsiyada davlat qurilishining yangi strategik maqsadi – ijtimoiy davlat qurish ekanligi belgilab berildi, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari joriy etildi, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlarini nazarda tutuvchi konstitutsiyaviy asoslar mustahkamlandi: Konstitutsiyaning XIII bobi “Fuqarolik jamiyati institutlari” deb nomlanib, 69, 70, 71, 72, 73, 74, 75-moddalarda aynan shu institutga oid normalar qayd etildi. Fuqarolik jamiyati institutlari maqomi konstitutsiyaviy darajada mustahkamlangani huquqiy-demokratik davlat qurish yo‘lidagi eng muhim zalvorli qadam bo‘lgani shubhasiz.

NATIJALAR. Aytish kerakki, fuqarolik jamiyati kategoriyasining biron-bir qotib qolgan ta’rifi, u haqda uzil-kesil shakllangan postulat yo‘q. Chunki, zamon kesimida ham, makon kesimida ham fuqarolik jamiyatiga ko‘z qarash aynan bir xil emas[6]. Lekin, fuqarolik jamiyati tushunchasiga umumiy bo‘lgan va o‘zgarmas jihatlar bor. Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, fuqarolik jamiyati insonlarning millatidan, qanday guruh yoki elatga tegishli bo‘lishidan qat’iy nazar teng huquqliligi, erki, qadri, sha’ni daxlsiz bo‘lgan, qonun ustuvorligi ta’minlangan, har bir fuqaroning o‘zini namoyon etishiga imkon beruvchi, davlat bilan jamiyatning o‘zaro adolat prinsiplari va qonuniy asosdagi munosabatlari o‘rnatilgan jamiyatdir.

XULOSA. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari shakllanishi uchun to‘la ijtimoiy-huquqiy sharoit yaratildi. Hatto Konstitutsiya bilan mustahkamlab qo‘yildi. Endilikdagi muhim vazifa qonun bilan belgilangan normalarni hayotga to‘laqonli tatbiq etish. Buning uchun, albatta, aholining huquqiy madaniyatini, qonunlardan xabardorlik darajasini oshirish, fuqarolik jamiyati institutlarini imkon qadar to‘laqonli shakllantirish va davlat bilan munosabatlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiqdir. Bunda, fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantiruvchi asosiy kuch xalq, fuqarolar ekanligini hisobga olgan holda, xalqimiz ayrim vakillariga xos bo‘lgan faqat moddiyatni qayg‘urish, uni birinchi o‘ringa qo‘yish illatlariga barham berib, ilm-ma’rifat, ma’naviyat, vatanparvarlikni ulug‘laydigan, sog‘lom siyosiy, diniy va dunyoviy dunyoqarash, sog‘lom siyosiy tafakkurga ega bo‘lgan ma’rifiy-siyosiy millat darajasiga olib chiqish lozim bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Kurbanbayeva, M.K. Fuqarolik jamiyati g‘oyalarining milliy davlatchiligimizdagi o‘rni. //Tamaddun nuri. 2024-y, 7-son. https://doi.org/10.69691/23z46z25
2. Musayev F.A. O‘zbekistonda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurishning falsafiy-huquqiy asoslari. 2008 y. 09.00.12.- Falsafa. Shifr: Dis- 579/2009. 59-60 betlar.
3. Islamov Z.M. Fuqarolik jamiyati: kecha, bugun, ertaga. –T.: 2002. 8-bet.
4. Karimov I.A. Maqsadimiz – tinchlik, barqarorlik, hamkorlik. //Bunyodkorlik yo‘lidan. 4-jild. –T.: O‘zbekiston, 1996. 80-bet.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 4 martdagi PF-6181-son farmoni. https://lex.uz/docs/5319756

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 39 (=512.1)

ЧАП ҚИРҒОҚ КАТ ҚАЛЪА ТАРИХИДА ШАЙХ АББОС ВАЛИ СИЙМОСИНИНГ ЎРНИ

Садуллаев Бахрам Пулатович, Хоразм Маъмун академияси ижтимоий-гуманитар фанлар бўлими катта илмий ходими, тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

THE PLACE OF SHEIKH ABBAS VALI IN THE HISTORY OF THE LEFT-BANK KYAT QALA

Sadullaev Bakhram Pulatovich, Senior Researcher, Social and Humanitarian Department, Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy on Historical Sciences (PhD)

МЕСТО ШЕЙХ АББАСА ВАЛИ В ИСТОРИИ ЛЕВОБЕРЕЖНОЙ КЯТ КАЛЫ

Садуллаев Бахрам Пулатович, старший научный сотрудник социально-гуманитарного отдела Хорезмской академии Мамуна, доктор философии по историческим наукам (PhD)

https://orcid.org/0000-0001-9053-3385
e-mail: bakhram76@gmail.com

Аннотация: Мазкур мақола Шайх Аббос вали сиймосининг Чап қирғоқ Кат-қалъа тарихида тутган муҳим ўрнига бағишланган. Г.П.Снесаревнинг XX асрнинг ўрталарида ёдгорлик атрофи ва Амударёнинг ўнг соҳилидаги Шоббоз шаҳрида (ҳозирги Беруний тумани) маҳаллий аҳоли вакиллари билан олиб борган суҳбатлари Чап қирғоқ Кат қалъа тарихи бевосита қадимий пойтахт Кат билан боғланганлигидан далолат беради. Айниқса, тадқиқотларда Шайх Аббос вали тимсолидаги сиймо билан боғлиқ афсона ва ривоятларнинг Амударё иккала соҳилида кенг тарқалганлиги ушбу ёдгорликлар тарихида бу шахснинг қанчалик катта аҳамият касб этганлигига ишора беради.

Калит сўзлар: Г.П.Снесарев, Шоббоз бобо, Шайх Аббос вали, қадимий пойтахт Кат, Чап қирғоқ Кат қалъа, Хоразм афсоналари, Шовот.

Abstract: This article is dedicated to the important role of Sheikh Abbas Wali in the history of the left bank of Kat-Kala. The researches, conducted by G.P.Snesarev with the representatives of the local population near this monument and in Beruni city on the right bank of the Amudarya river, testifies the relation direct of the history of the left-bank Kyat-qala with the the ancient capital Kyat. In particular, the abundance of the myths and legends associated with Sheikh Abbas Vali in studies indicates how important this character was in the history of these monuments.

Key words: G.P.Snesarev, Shabbaz Baba, Sheikh Abbas Vali, the ancient capital Kyat, left-bank Kyat-qala, Khorezm legends, Shavat.

Аннотация: Данная статья посвящена важной роли шейх Аббаса Вали в истории левобережной Кат Калы. Исследования Г.П.Снесарева проведенные в середине XX века с местным населениям данного памятника и города Шаббаза (ныне город Беруни), на правом берегу Амударьи, свидетельствует о связи истории левобережного Кята с древней столицей Кат. В частности, обилие мифов и легенд, связанных с шейхом Аббаса Вали в исследованиях, свидетельствует о том, насколько важной был этот персонаж в истории этих памятников.

Ключевые слова: Г.П.Снесарев, Шаббаз баба, Шейх Аббас вали, древняя столица Кят, левобережный Кят, Хорезмские легенды, Шават.

КИРИШ. Бизга маълумки, ҳар бир тарихий ёдгорликни тадқиқ қилиш жараёнида унинг номи ёки барпо этилиш тарихи билан боғлиқ халқ оғзаки мероси, жумладан ривоят ва афсоналарга дуч келамиз. Ушбу тадқиқот XVII аср охирида қуйи Амударё ҳавзасининг чап қирғоғидаги Кат қалъа ёдгорлигининг барпо бўлишида муҳим омиллардан бири сифатида қаралган Шайх Аббос Вали сиймоси ҳақидаги маълумотларни қамраб олади. Мазкур ёдгорлик Урганч шаҳридан 25 км шимоли-ғарбда, Шовот тумани Кат қалъа маҳалла фуқаролар йиғини ҳудудида жойлашган. Ушбу қалъа ҳаётининг сўнгги тарихида муҳим ўрин эгаллаган Шайх Аббос Вали сиймосига доир ривоят ва афсоналар алоҳида мавзу сифатида ўрганилмаган ва тадқиқот объекти сифатида умумлаштирилмаган. Чап қирғоқ Кат қалъа билан боғлиқ афсона ва ривоятлар жуда қисқа ва бир-бири билан боғланмайди. Уларни умумлаштириш мушкул. Шундай бўлса-да, этнографик тадқиқотлар жараёнида тўпланган афсона ва ривоятларни ёдгорлик тарихининг ажралмас бир қисми сифатида келтириб ўтамиз.

Ёдгорлик тарихи учун бу маълумотларнинг аҳамияти жуда катта бўлиб, қалъа тарихининг асосан кейинги 300 йиллик тарихи билан боғлиқ жараёнларни қамраб олади. Тадқиқ қилинаётган Чап қирғоқ (янги) Кат шаҳри қадимий пойтахт ўнг қирғоқдаги эски Кат тарихи билан бевосита боғлиқ эканлигини кўрсатади. Бу борада Хоразм археология-этнография экспедициясининг Хоразм вилояти ҳудудида Г.П.Снесарев бошчилигида олиб борилган этнографик тадқиқотлар натижалари жуда муҳимдир[8,22;1,233-234].

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ. Ёдгорлик тарихи билан боғлиқ аксарият маълумотлар қисқа бўлса-да, асосан Г.П.Снесарев изланишларида ўз аксини топган. Чап қирғоқ Кат қалъа тарихига алоқадор афсона ва ривоятлар, унинг илмий монографияларида, шу жумладан, “Хоразм ўзбекларининг исломгача бўлган эътиқодлари ва удумлари”[6], “Хоразм афсоналари Ўрта Осиё диний эътиқодлари тарихи бўйича манба сифатида”[7] номли асарларида келтирилади. Афсона ва ривоятларни тадқиқ қилиш жараёнида ёдгорлик номи ва тарихига тааллуқли маълумотлар “Хоразмнинг суғорилиш тарихи”[4], “Тўқ-қалъа”[3], “Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари”[9] ва “Тазкиратул авлиё, ёхуд Хоразм диёрида мадфун бўлган авлиёлар зикри”[5,6-7] асарларидаги манбалар билан қиёсий таҳлил қилиб ўрганилади.

ТАДҚИҚОТ МАТЕРИАЛИ. Г.П.Снесаревнинг ёдгорлик тарихига оид илк тадқиқотлари 1958-1960 йиллар давомида амалга оширилган. Тадқиқотчи бошчилигидаги ўзбек этнографик гуруҳи Хоразм вилояти Шовот тумани ҳудудида изланишлар олиб бориш жараёнида Чап қирғоқ Кат қалъа атрофидаги аҳоли вакиллари билан ҳам суҳбатлашиб ёдгорликка алоқадор бир қанча маълумотларни тўплайди [7,58,126-129; 6,30,284].

Г.П.Снесаревнинг этнографик дала тадқиқотларида ўнг соҳилдаги эски Кат билан боғлиқ ривоят, афсоналар аксарият ҳолларда чап соҳилдаги Кат билан бевосита боғлиқ ҳолда ўрганилади[7,125-129]. Айниқса, сўнгги юз йилликларда шаклланган афсона ва ривоятлардан қадимий Кат шаҳри билан алоқадор Шоббоз бобо билан боғлиқ ҳикоялар ўта муҳимдир.

Шуни қайд қилиш лозимки, ўнг соҳилдаги пойтахт Кат ўз тарихи давомида кўп марталаб Амударё тошқинларига дучор бўлиши натижасида аҳолининг бошқа жойларга кўчиши ҳам тез-тез содир бўлиб турган. Бу тошқинлардан бири ҳақида Абу Райҳон Беруний ўзининг “Ўтмиш халқлардан қолган ёдгорликлар” асарида ҳам эслатиб ўтади. Анушахон даврида ҳам навбатдаги тошқинлар унинг аҳолисининг янги жойга кўчирилишига сабаб бўлган. Ривоятларга қараганда, эски Кат аҳолиси Шоббоз бобо қарғишига учраган экан. Шу сабабдан ҳам Кат шаҳри тез-тез сув тошқинларига дучор бўлиб турган.

Бундан кўринадики, маҳаллий аҳолининг бундай офатларга тез-тез дучор бўлиши, тошқинларнинг сабабини аниқлай билмаслик, бу офатлар олдида инсоннинг ожизлиги, гўё бу воқеалар авлиё қарғиши билан боғлиқ турли афсона ва ривоятлар тўқилишига асос бўлган.

Ҳозирги кунда бу қадимий шаҳар буюк аждодимиз қомусий олим Абу Райҳон Беруний номи билан аталиб келинмоқда. Бу ном шаҳарга 1973 йилда олимнинг минг йиллик юбилейи тантаналарида дунё илм-фанига қўшган ҳиссаси

ва қолаверса, унинг шу шаҳар атрофида туғилиб ўсганлиги учун берилган.

Шаҳарнинг кейинги ўрта асрлардаги, яъни хонлик давридаги номи Шайх Аббос Вали деб номланиб, халқ тилида “Шоббоз” атамаси кенг тарқалган. XVIII–XIX аср рус манбаларидаги хариталарда айнан мана шу ном учрайди.

Шайх Аббос Вали – авлиёнинг номи, шаҳар ҳомийси ҳисобланади. Айнан мана шу авлиё билан боғлиқ афсона, Г.П.Снесарев томонидан маҳаллий аҳоли вакили Пиржонов Беким билан суҳбат асосида ёзиб олинган.

Афсонага кўра, “Шайх Аббос Валига қадар Катда зулмкор подшоҳ Даҳи-Юнус ҳукмронлик қилган экан. Бу ердаги барча ер-мулклар унинг шахсий мулки ҳисобланган. Даҳи-Юнус хизматида қуллар ҳам бўлган. Ҳозирги кунда ҳам қалъа деворларида тик ҳолатда учрайдиган скелетлар – Даҳи-Юнуснинг қуллари экан. Девор қурилиши даврида вафот этган қулларни шу заҳотиёқ девор орасига суваб (шуваб) ташалар эди.

Шайх Аббос Вали маҳаллий аҳоли вакили бўлган. У қуллар билан ўзаро келишиб Даҳи-Юнусга қарши қўзғолон кўтаришга ундаган. Улар бу зулмкор подшони тутиб олиб, уни тиканли ўсимликлар устида судраб ўз алам-ситамлари учун қасос олишибди. Даҳи-Юнус бу азобларга чидай олмай вафот этибди.

Шундан кейин давлатни Шайх Аббос бошқара бошлабди. У ерларни қулларга бўлиб берибди, сувнинг тақсимланишини қаттиқ назоратга олибди. Бу ишда унга укаси Кечирмас бобо ёрдам бериб, ҳар қандай қоидабузарликларни қаттиқ жазолар экан. Шайх Аббос Вали вафотидан кейин маҳаллий халқ уни авлиё сифатида қадрлай бошлади ва кўплаб одамлар унинг қабрини зиёрат қилардилар”[7,126].

Г.П.Снесарев авлиё ҳақидаги маълумотларни тўплар экан, уларнинг турлича мазмунда эканлигига эътибор қаратади. Шайх Аббос Валининг келиб чиқиши ҳақида шоббозлик қария Насрулло махсумдан қуйидаги маълумотларни келтирган: “Шайх Аббос Вали маҳаллий аҳоли вакили бўлмаган, балки Туркиядан келган. Унинг отаси бўлмаган, онаси эса оғир касал ҳолда ётган. Бир куни у ўғлини чақириб, унга шу сўзларни айтади: “Мен бугун ўламан, сен мени дафн қилиб, ўзинг Хоразмга равона бўл. Сен у ерда бирор мулкнинг подшоҳи бўласан”. Онасини дафн қилиб, Шоббоз бобо Хоразмга келибди. Бироз вақтгача бу ерда ҳукмронлик қилибди. Кейин ҳаммасини тарк этиб, сўфийлик йўлига ўтибди ва катта шайх бўлиб етишибди”[7,126-127].

Г.П.Снесарев информаторлар билан суҳбатлар асосидаги ҳисоб-китобларга таяниб, Шайх Аббос Вали тахминан 1188 йилда вафот этган, деган фикрни билдиради. Шунингдек, Г.П.Снесаревнинг Қурамбой махсум томонидан авлиёнинг мўъжизакор фазилатлари ҳақидаги олган маълумотлари ҳам қизиқарлидир: “Бир пайтлар бу жойларда уруш бўлган. Душман бостириб келган. Ана шунда уларга Шоббоз бобо қарши чиққан. У ўзининг тўнида бир уюм тошларни тўплаб туриб, уларни душман устига ёғдирган. Шоббоз бобо савдойи, мажнун бўлган”[7,127].

Шусиз ҳам бир-бирига қарама-қарши бўлган авлиё Шоббоз бобо ҳақидаги маълумотлар Амударёнинг чап соҳилидаги Кат қалъа (Шовот тумани) атрофидан олинган ҳикоялар асосида янада чуқурлашади.

1958-1960 йилларда Г.П Снесарев Хоразм вилоятининг Шовот тумани ҳудудида этнографик маълумотларни тўплар экан, чап соҳил Кат қалъа ва унинг атрофини обдон тадқиқ қилади. “Ўша йилларда бу ёдгорлик деворлар билан ўралган ярим вайрона ҳолда кўзга ташланарди. Аҳолиси асосан атрофдаги қишлоқларга кўчиб ўтган эди. Қалъа ичида фақат 2-3та оила истиқомат қиларди”[7,127].

Г.П.Снесарев бу ердаги маҳаллий аҳолидан эшитган ривоятлари асосида Чап қирғоқ Кат қалъанинг тарихи ва аҳолисининг келиб чиқиши ҳақида маълумотлар тўплайди.

Чап қирғоқ Катнинг тақдири Шоббоз бобо афсоналари билан чамбарчас боғлиқдир. Г.П.Снесарев тадқиқот олиб борган вақтда Хоразмнинг қадимий пойтахти ўнг қирғоқ Кат (Шоббоз) аҳолисининг чап қирғоқдаги янги Катга кўчирилиши ҳақидаги бир қанча ривоятлар ўша пайтдаги катта авлод вакиллари хотираларидан ҳали кўтарилмаган эди.

Қадимий пойтахт Кат аҳолисининг янги жойларга кўчиш масаласи Амударё оқимининг йўналиши ва тошқинлар билан алоқадор табиий офатларга боғлиқдир. Бу борада, албатта, бир қанча манбаларда, шу жумладан Абу Райҳон Беруниийнинг “Қадимги халқлардан қолган

ёдгорликлар” асарида ҳам маълумотлар келтирилади: “Ал-Фир 10 милча ва ундан ҳам кўпроқ масофадан кўринар эди. Уни Жайҳун ҳар йили оз-оздан қирғоқларини ювиб кетарди ва Искандар тарихининг 1305 йилида ундан ҳеч нарса қолмади”[2,71].

Ўнг қирғоқ Кат қалъанинг Амударё билан боғлиқ яна бир маълумоти хивалик тарихчи Шермуҳаммад Мунисининг XVII аср воқеаларини баён қилиш жараёнида эслатилади: “Анушахон (1663-1683) ҳукмронлиги даврида ўнг соҳилдаги Кат сувсиз қолади. Шу сабабдан Амударёнинг чап соҳилида янги Ёрмиш қаналини қаздириб, унинг ёнида қалъа қурдиради ва аҳолини мана шу янги шаҳарга кўчиради. Бу қалъа янги Кат номини олади”[4,200].

Афтидан, Кат-Шоббознинг сув тошқинларига дучор бўлиши ўрта асрларда ҳам, янги даврда ҳам тез-тез кузатилган. Шоббоз қарияларининг шунга ўхшаш офатнинг 1902 йилда содир бўлганлигини Г.П.Снесарев ҳам ёзиб олган [7,128].

Ҳамма вақт Кат-Шоббоздан кўчирилган аҳоли ҳақида суҳбат кетадиган бўлса, доимо Шоббоз бобо авлиё ҳақида ҳикоя бошланарди. Шаҳар ва унинг аҳолисининг бошига тушган турли офатларга сабаб, уларнинг Шоббоз бобо авлиёнинг қарғишига учраганлиги эмиш. Ушбу ҳақдаги афсона ва ривоятлар узуқ-юлуқ ва чалкаш-чулкаш, уларни бир-бирига боғлаш жуда мушкул.

Бироқ уларнинг мазмуни қуйидаги фикрларни юзага келтиради: “Кат-Шоббоз шаҳрида аҳоли икки гуруҳга ажратилган: “катли” ва “шотли”. Бу бўлиниш нимани англатиши ҳозиргача номаълум. Афтидан, шаҳарнинг икки маҳаллага бўлиниши назарда тутилган бўлса керак. Кунлардан бир куни “катли”лар авлиёни қаттиқ ҳақорат қиладилар, яъни уни похол бош кийимини ёқиб юборадилар ва бунинг учун шайх уларни лаънатлайди. Баъзи ривоятларга қараганда, айнан мана шу “катли”лар чап қирғоққа кўчиб ўтишган. Бу борада Г.П.Снесаревнинг Чап қирғоқ Кат атрофидаги 54 ёшли Жамол хўжадан олган маълумоти жуда қизиқарли: бу ерларга келганлардан бири Шайх Аббос Валининг дўпписини ёқиб юборган. Шоббозликлар биз ҳақимизда “Шоббознинг дўпписига ўт қўйган катли” дейишади. Агар кимдир Чап қирғоқ Катдан ўнг қирғоққа ўтадиган бўлса, уни қувиб ҳайдаб солганлар” [7,128-129].

Демак, Шайх Аббос Вали ўнг қирғоқдан қадимий Катнинг пири-ҳомийси-ҳимоячиси бўлган. Ҳатто у ҳақида қуйидаги мақол ҳам шаклланган: “Иш бошинда Шайх аббос, ош бошинда – минг шоввоз”. Ушбу мақолни келтирган ахборотчи ўз навбатида авлиё исмининг маъноси тўғрисида ҳам маълумот келтиради: “Аббос” сўзи “сув кўтарувчи, берувчи” маъносини англатади ва бу билан ерларни суғоришда баланд жойларга чиғир ёрдамида сув чиқарилганлигига ишора қилади. Бинобарин, бу ахборотчи авлиёнинг исми Хоразмда кенг тарқалган, инсонларни энг муҳим манба сув билан таъминловчи авлиёларнинг вазифалари билан боғлиқ деб ҳисоблайди [7,129].

Шоббозликларнинг пири-ҳомийси Шайх Аббос Валининг яшаган даври, унинг туғилиши ва ўлими ҳақида аниқ далилларни келтириш анча мушкулдир. Фақатгина унинг вафоти билан боғлиқ маълумотлар мавжуд. Юқорида таъкидланганидек, у 1188 йилда [7,127], баъзи маълумотларга кўра XIII асрда вафот этган [4,212].

Шу аснода биз Қамариддин Эшон Муҳаммад Карим Эшон ўғли ҳамда Комилжон Дурди Қилич ўғли томонидан ёзилган “Тазкиратул авлиё, ёхуд Хоразм диёрида мадфун бўлган авлиёлар зикри” рисоласида Шайх Аббос валий ҳақида қизиқарли яна бир манбага дуч келамиз:

“Ул Ҳазрат баъзи ривоятларга қараганда, мутассаввуф имом, ҳужжатул ислом Муҳаммад Ғаззолий билан қариндош ҳамда ҳамсабоқ эканлар; Хоразм диёринда сужжоданишин [1] бўлиб шайхлик тариқин ошкора қилиб, халойиққа тасаввуфни билдирган киши ҳам ул зот эканлар.

Ул зоти шариф Жайҳун (Аму) дарёсининг шимол тарафинда Кўҳна Кат деган ерда мадфундурлар.

Нақлдурким, ул азиз ул мавзега келиб деҳқончилик қилган эрмишлар. Ул мавзенинг

[1] “Сужжоданишин”, аниқроғи “сажжоданишин” (سجاده نشين) – “сажжода” (سجاده) - жой намоз, “нишин” (نشين) - ўтирмоқ, яъни жой намоз устида ўтириб доимий ибодатда бўладиган киши.

одамлари гоҳо озор берар эканлар. Ул азиз айтар эканлар: “Ўз элимиздан ҳақорат кўрмак бизларга суннат”, - деб. Зероки, Султони анбиё Муҳаммад алайҳиссаломни ҳам қурайшийлар кўп озорлаган эканлар. Гоҳо ул азиз бошларига хас-чўпдан соябон қилиб, иссиқда экин ўрар эканлар.

Бир куни шул дастурда ўтоғ ўтаб, ҳориб ётган эканлар, бошларидаги чўпдан бўлган соябонни бир бемаъни ўтга ташлабди. Ул ҳазратнинг диллари қаттиқ оғриб турур. Дили оғриганлари соябон ўтда ёнганига эмас, балки шул мавзеда яшаётганларнинг беҳурмат ва беандишалиги учундир. Шунинг учун соҳил халқининг катталарига бебошларини ёмон йўлдан қайтармаганлари учун бад дуо қилган дейишади. Ривоятларга қараганда вафоти тарихлари “Соҳиби замон”дур. – 784 ҳижрий” [5, 6-7][2]. Ушбу тарихдан кўринадики, Шайх Аббос валининг вафотлари милоднинг 1382 йилига тўғри келади ва бундан кўринадики, бу сиймонинг ҳаёт фаолияти асосан, XIV асрда содир бўлганлигини кўрсатади.

Шундай қилиб, XX аср ўрталарида Шайх Аббос Вали ҳақидаги афсоналар асосан, ўнг қирғоқ Кат, яъни Шоббоз аҳолисининг эсдаликларида учраса-да, қадимий пойтахт билан боғлиқ хотиралар ҳали чап қирғоқ Кат қалъа аҳолисининг ёши улуғ вакиллари орасида узуқ-юлуқ шаклда бўлса ҳам сақланиб қолган эди.

ХУЛОСА. Хоразм археология-этнография экспедицияси ўзбек этнографик гуруҳининг Г.П.Снесарев раҳбарлигидаги тадқиқотлари Чап қирғоқ Кат қалъа тарихига алоқадор турли мазмундаги бир-бирига қарама-қарши ва бир-биридан қизиқарли ривоят ва афсоналарни тақдим қилган. Тадқиқотлар Чап қирғоқ Кат қалъанинг номи бевосита ўнг қирғоқдаги қадимий Кат билан боғлиқ эканлигини кўрсатади. Бу қадимий шаҳар аҳолисининг Анушахон даврида янги жойга кўчирилиши асносидаги тарихий жараёнларда акс этган. Ўз навбатида, Шайх Аббос Вали ҳақидаги афсоналарнинг иккала соҳилдаги шаҳарликлар аҳоли вакиллари орасида кенг тарқалганлиги ҳам улар ўртасидаги алоқадорликни тасдиқлайди.

Ёдгорликнинг маданий қатламлари 2500 йиллик тарихий даврни қамраб олса-да, унинг тарихи билан боғлиқ афсона ва ривоятлар шаҳарнинг сўнгги 300 йиллик босқичини ўз ичига олади. Унинг қадимий номи масаласи ҳали етарлича тадқиқ қилинган эмас. Ёдгорликда ҳаёт мўғуллар истилосидан кейин бутунлай тўхтайди ва Анушахон (1664-1686 йй) давригача ҳувиллаб қолади. Афтидан, ёдгорлик атрофи ҳам узоқ вақт ташландиқ ҳолатда бўлган. Амударёнинг ўнг соҳилидаги қадимий Катдан кўчиб келган аҳоли эса, асосан ўзларининг қадимий шаҳарлари билан боғлиқ эсдаликларини ҳам шу ерга кўчириб келтиради. Ушбу маълумотлар ёдгорликнинг кейинги даври билан боғлиқ бўлса-да, қалъа тарихининг XVII–XIX асрларга оид даврини тўлақонли ёритишга хизмат қилувчи манба сифатида катта аҳамият касб этади.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Аржанцева И.Н. 2016. Хорезм история открытий и исследований. Этнографический альбом. – Ульяновск: Изд-во ООО Артишок.
2. Беруний Абу Райҳон, 1968. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. // Танланган асарлар. I-том. Тошкент: ЎзССР, ФАН нашриёти.
3. Гудкова А.В. 1964. Ток-кала. Ташкент: Изд-во Наука.
4. Ғуломов Я.Ғ. 1959. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. Тошкент: ЎзССР ФА нашриёти.
5. Қамариддин Эшон Муҳаммад Карим Эшон ўғли, Комилжон Дурди Қилич ўғли. 1997. Тазкиратул авлиё, ёхуд Хоразм диёрида мадфун бўлган авлиёлар зикри. Хонқа: Хонқа туман нашриёти.
6. Снесарев Г.П. 1969. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. Москва: Изд-во Наука.
7. Снесарев Г.П. 1983. Хорезмские легенды как источник по истории религиозных культов Средней Азии. Москва: Изд-во Наука.
8. Толстов С.П., Жданко Т.А., Итина М.А. 1963. Работы Хорезмской археолого-этнографической экспедиции АН СССР в 1958 – 1960 гг. – МХЭ, вып. 6. Москва: Изд-во АН СССР.
9. Ходжаниёзов Ғ. 2007. Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари. Тошкент: Ўзбекистон нашриёти.

[2] Ушбу маълумотларни тўплашда муаллифлар Фаридиддин Атторнинг “Тазкираул алвиё”, Абдураҳмон Жомийнинг “Нафаҳот ул-унс” ва Фаҳриддин Али Воизнинг “Рашаҳоти айн ал-ҳаёт” асарларига мурожаат қилганлигини келтириб ўтадилар.

Qabul qilindi: 05.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 37.378

TALABALAR AXBOROT KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA TAJRIBA-SINOV ISHLARINI TASHKIL ETISH VA O‘TKAZISH

Rajabova Gulrux Yusufboy qizi, Urganch innovatsion universiteti o‘qituvchisi

ORGANIZING AND CONDUCTING EXPERIMENTAL WORK IN FORMING STUDENTS' INFORMATION COMPETENCE

Rajabova Gulrukh Yusufboy qizi, Teacher of Urganch Innovation University

ОРГАНИЗАЦИЯ И ПРОВЕДЕНИЕ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЙ РАБОТЫ ПО ФОРМИРОВАНИЮ ИНФОРМАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ

Раджабова Гулрух Юсуфбой кызы, преподаватель Ургенчского инновационного университета

https://orcid.org/0009-0007-6420-8707

e-mail: rajabovagulrux@uriu-edu.uz

Annotatsiya: ushbu maqolada tajriba-sinov ishlari, ularni tashkil etishning mazmun-mohiyati hamda talabalar axborot kompetensiyasini shakllantirishga doir tadqiqot ishlari to‘g‘risida fikr-mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: talaba, axborot kompetensiyasi, tajriba-sinov, tadqiqot dasturi, matematik-statistik tahlil, eksperiment, natija.

Abstract: This article provides feedback on experimental work, the essence of their organization, and research work on the formation of students' information competence.

Key words: student, information competence, experiment-test, research program, mathematical-statistical analysis, experiment, result.

Аннотация: в данной статье приводятся отзывы об экспериментальной работе, сущности их организации, а также научно-исследовательской работе по формированию информационной компетентности студентов.

Ключевые слова: студент, информационная компетентность, эксперимент-тест, программа исследования, математико-статистический анализ, эксперимент, результат.

KIRISH. Tajriba-sinov bu biror-bir sohaga (jumladan, ta’lim sohasiga) olib kirilayotgan yangilikni (yondashuv, metodika, o‘quv-metodik majmualarni) sinovdan o‘tkazish va dastlabki xulosalarga ega bo‘lish jarayonidir. Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish o‘ziga xos murakkab va mas’uliyatli jarayondir. Inson, predmetida, ayniqsa, tajriba-sinov o‘tkazish aniq dastur asosida tashkil etilishini, dastur har tomonlama pedagogik-psixologik qonuniyatlar, shart-sharoitni hisobga oladi. Ilmiy tadqiqot dasturi tajriba-sinov ishlarini maqsadli, izchil amalga oshirish mazmunini belgilaydi. Pedagogik tajriba-sinov dasturi mavzuning dolzarbligi, ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini aniqlash, ilmiy farazning haqqoniyligini asoslash qo‘llanmasidir. Tadqiqot nazariyasining amalda sinab ko‘rish; tadqiqot ilmiy-amaliy imkoniyatini joriy etish, umumlashtirish; bir

necha variantda har xil sharoitda tadqiqot natijasini tekshirib ko‘rish; matematik statistik tahlil qilish va baholash kabi yo‘nalishlardan iborat bo‘ladi. Ilmiy-tadqiqot ishi bevosita oliy ta’lim talabalarining axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirish to‘g‘risida borar ekan, bu ishni amalga oshirishda tajriba-sinov ishlariga tayanamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. Ilmiy tadqiqot fanning istiqbolini belgilovchi, mumtoz qonuniyatlarni yorituvchi yoki vaqtinchalik bo‘lishi, ba’zan takror bo‘lishi ham mumkin. Shuning uchun tajriba-sinov ishlari ana shu imkoniyatlarni hayotda o‘z ifodasini aniqlashdan iborat bo‘ladi.

Dastlabki xulosalarga ko‘ra, shu yangilikni (yondashuv, metodika, o‘quv metodik majmualarni) joriy etish yoki joriy etmaslik bo‘yicha qaror qabul qilinadi. Tajriba-sinov ishlari odatda uzoq muddat davom etganligi tufayli u muayyan bosqichlarga ajratilgan holda amalga oshiriladi. Tajriba-sinov ishlarining (muddati, o‘quv materialini hajmiga ko‘ra bir qancha mavzular, chorak, o‘quv yili, bir necha yil qamrab olinishi) va tajriba-sinov ishlarining barcha bosqichlari o‘zining aniq maqsad va vazifalari belgilanib olinadi. Tajriba-sinov ishlarining samaradorligi ko‘proq tarbiya jarayonida qo‘yilgan maqsad, vazifalar va erishilgan natija o‘rtasidagi tafovut qancha kam bo‘lsa, ta’lim shuncha samaradorlikka ko‘proq erishadi. Pedagogik tajriba-sinovning asosiy bosqichida o‘quvchilarning tadbirkorlik, tejamkorlik va iqtisodiy tarbiya tushunchalarini shakllantirishda oila bilan hamkorlik texnologiyalarini aniqlashda tajriba-sinov obyektlari tanlanib olinib, ularda ta’kidlovchi, shakllantiruvchi hamda nazorat qiluvchi testlar, savolnomalar tayyorlanib, o‘quvchilar uchun alohida topshiriqlar ishlab chiqiladi. Pedagogik tajriba ham bir qator shartlarga amal qilgan holda tashkil etiladi. Xususan:

1. Tajribaning maqbul loyiha asosida uyushtirilishi;
2. Tadqiqot ilmiy farazining puxta asoslanishi;
3. Tadqiqot obyektlari va usullarining to‘g‘ri tanlanishi;
4. Tajriba o‘tkazilishi vaqti hamda davomiyligining aniqlanishi;
5. Zarur pedagogik shart-sharoitlar (asbob-uskuna, jihozlar, vositalar)ning yaratilganligi;
6. Tajriba ma’lumotlarini umumlashtirish, tahlil qilish va natijalarni qayta ishlash [1].

MUHOKAMA. Dastlab tajriba-sinov ishlarining dasturi ishlab chiqilishi, unda tajriba-sinovga oid tadbirlar rejasi, kutilayotgan natijalar, unga erishilganlik darajasini belgilash usullari aks ettirilishi lozim. Tajriba-sinovning ajratiladigan bosqichlarida (respublika, viloyat yoki shahar va tuman darajasida, maktablararo, maktab darajasida, tajriba-sinov maydoni) o‘tkazilishi mumkin. Tajriba-sinov ishining muayyan davri yakunlariga ko‘ra hisobotlar, ma’lumotnomalar, tahlillar o‘tkazib borilishi lozim.

Talabalar axborot kompetensiyasini shakllantirishda ham tajriba-sinov ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Tajriba-sinov ishlari uch bosqich: ta’kidlovchi, shakllantiruvchi, yakunlovchi jarayonlardan iborat bo‘ladi. Ilmiy pedagogik tadqiqot davomida tajriba va nazorat guruhlarida ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligi hamda o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajalari aniqlandi. Tajriba ilmiy tavsiyalar asosida tashkil etildi. Tajriba-sinov ishlarining statistik tahlili oliy ta’lim muassasalari tajriba-sinov maydonlarida o‘tkazilgan pedagogik tajriba natijalari asosida olib boriladi. Ularning ishonchliligiga hamda samaradorligi matematik-statistik usullar yordamida aniqlanadi.

Tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish 3 bosqichda amalga oshiriladi:

1. Dastlabki bosqich: talabalar eksperiment va nazorat guruhlariga ajratiladi. Eksperiment guruhlarda axborot va axborot kompetensiyasi yuzasidan hech qanday ma’lumot bermasdan so‘rovnoma o‘tkaziladi. Nazorat guruhlarida esa dastlab mavzu doirasida talabalar bilimi shakllantiriladi. Keyin so‘rovnoma olinadi. Bunda talabalar savollarga faqat o‘z nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda javob berishadi. So‘rovnomadagi savollarga faqatgina “Ha” va “Yo‘q” tarzida qisqacha javob bermasdan, to‘liqroq javob berish lozimligi tushuntirildi. Negaki, qisqa javob yordamida talabaning nuqtayi nazarini to‘liq bilib bo‘lmaydi.

2. Shakllantiruvchi bosqichda eksperiment guruhi talabalariga mavzu yuzasidan tushunchalar berildi hamda bu boradagi bilimlari oshishiga erishiladi.

TAMADDUN NURI

3. Nazorat bosqichida talabalardan qayta so‘rovnoma o‘tkaziladi. So‘rovnoma natijalari tekshirilib, tahlil qilinadi[2].

Olingan natijalar asosida ilmiy farazga ega bo‘lamiz. Jumladan, ilmiy faraz umumiy yoki xususiy, intuitiv va mantiqiy asoslangan bo‘lib, ilmiy faraz quyidagi tuzilish tartibiga ega bo‘ladi: “agar … bo‘lsa …ga erishiladi”

NATIJALAR. Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil qilish va uni o‘tkazish dasturida quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

- tajriba-sinov ishlari tadqiqotimizning ilmiy-pedagogik asosi bo‘lib uning haqqoniy o‘tishiga;
- tajriba sinov ishlarini olib borishda turli metodlarni (kuzatish, taqqoslash, qiyoslash, anketa, test, tajriba) vaqtida qo‘llay olish mahoratiga egaligiga;
- amaliyot jarayonida ishtirok etayotgan pedagoglar faoliyati oldida turgan muammolarni aniq ko‘rsatishga va uni bartaraf etish yo‘llari yuzasidan metodik tavsiyalarimizni berishga;
- tadqiqot davomida tajribali o‘z kasbining fidoyisi va mahoratli pedagoglarning ish faoliyatini kengroq o‘rganib, tajriba orttirib, targ‘ib qilishga;
- ta’limda kerakli sifat va samaraga erishish uchun zaruriy chora-tadbirlar ishlab chiqishga va qo‘llay olishga;
- oldimizga qo‘yilgan maqsad va vazifalarni tezkor va puxta amalga oshirish usullarini o‘ylab topishga va amalga oshirishga;
- tadqiqotning kerakli qismida tegishli o‘zgartirishlar hamda tuzatishlar kirita olish kabi maxsus bilim va ko‘nikmalar tizimiga har ikkala tomon tadqiqotchi va amaliyotchi pedagoglar ega bo‘lishligiga va hokazo. Yuqorida keltirilgan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar amalga oshirilgandagina pedagogik tajriba-sinov ishlari muvaffaqiyatli bo‘ladi.

Talabalar axborot kompetensiyasi rivojlanishi tajriba-sinov ishlaridan olingan natijalar sarhisob qilinadi. Matematik-statistik metod yordamida natijalar tahlil qilinadi. Eksperiment davomida olingan natijalar tadqiqotimizning kelgusidagi vazifalarini belgilab beradi.

XULOSA. Tajriba-sinov ishlarining sifat hamda samarasiga oid bir qancha obyektiv va subyektiv sabab va omillar mavjud. Ya’ni tajriba-sinov o‘tkazuvchi tadqiqotchining talablari, xohish va istaklari uning harakat va intiluvchanlik darajasi subyektiv sabab va omillar qatoriga kiritsak, tajriba-sinov ishlariga qo‘yiladigan me’yoriy va huquqiy mezonlar, pedagogik va psixologik talablar esa tajriba-sinov ishining obyektiv omil va sabablar qatoriga kiritsak bo‘ladi. O‘tkazilayotgan tajriba-sinov ishlari to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilsa, tadqiqotchi ko‘zlagan maqsadiga erisha oladi. Tadqiqotda amalga oshiriladigan tajriba-sinov ishlarining yana bir muhim jihati kutiladigan natijalarni baholash mezoni bilan bog‘liq. Agar mezonlar to‘g‘ri va aniq tanlanmasa, ilgari surilgan ilmiy farazning haqqoniy yoki noto‘g‘riligini, taklif etilayotgan metodik tavsiyalarning samaradorlik darajasini obyektiv tarzda baholab bo‘lmaydi. Talabalarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirishda tajriba-sinov ishlari davomida olingan natijalar muhim ahamiyat kasb etadi. Eksperiment natijalari axborotlar bilan ishlash ko‘nikmalarini yanada rivojlantirish lozimligini ko‘rsatdi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. S.Abduraimov, D.Xudoyqulova. Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va unga qo‘yiladigan talablar. International online conferences 2023.
2. A.Z.Po‘latova. Ta’lim jarayonida tajriba-sinov ishlarining ilk bosqichini tashkil etish va o‘tkazish metodikasi. Inter education&global study, 2024.
3. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. O‘quv uslubiy majmua. T-2024.
4. Курбанбаева, М. (2023). Важность формирования навыков самостоятельного мышления при подготовке конкурентоспособных кадров. Tamaddun nuri jurnali, 5(44), 95-96.

Qabul qilindi: 05.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UO'K: 94(575.171)

QAYTA QURISH DAVRIDA XORAZM VILOYATIDA ICHKI ISHLAR ORGANLARINING FAOLIYATI

Xamdamova Yulduz Ravshanbek qizi, Xorazm viloyati IIB xodimi

ACTIVITIES OF THE INTERNAL AFFAIRS BODIES OF THE KHOREZM REGION DURING THE PERESTROIKA PERIOD

Khamdamova Yulduz Ravshanbek kizi, employee of the Internal Affairs Department of the Khorezm Region

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ В ПЕРИОД ПЕРЕСТРОЙКИ

Хамдамова Юлдуз Равшанбек кызы, сотрудник УВД Хорезмской области

https://orcid.org/0009-0004-2824-8339

e-mail: yuxamdamova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm viloyati ichki ishlar organlarining Qayta qurish siyosati davridagi faoliyati va mazkur davrdagi murakkab jarayonlarda amalga oshirilgan ishlar tahlil qilinadi. Unda tahlil qilinayotgan davrda kechgan tarixiy jarayonlar asnosida ichki ishlar organlarining faoliyatida ham o'zgarishlar yuz berganligi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: qayta qurish, O'zbekiston, Xorazm viloyati, militsiya, jinoyatchilik, huquq-tartibot.

Abstract: This article analyzes the activities of the internal affairs bodies of the Khorezm region during the Perestroyka policy and the work carried out during the complex processes of this period. It mentions that during the historical processes that took place during the analyzed period, changes occurred in the activities of the internal affairs bodies.

Keywords: perestroyka, Uzbekistan, Khorezm region, police, crime, law and order.

Аннотация: В данной статье анализируется деятельность органов внутренних дел Хорезмской области в период политики Перестройки и работы проводимые в ходе сложных процессов этого периода. В нем упоминается, что в ходе исторических процессов, происходивших в анализируемый период, также произошли изменения в деятельности органов внутренних дел.

Ключевые слова: перестройка, Узбекистан, Хорезмская область, милиция, преступность, правопорядок.

KIRISH. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida Uchinchi Renessansga poydevor qo‘yilayotgani dunyoviy e’tirof etilmoqda. Bu jarayonda prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan, xalqqa ma’naviy ozuqa beruvchi omil sifatida tariximizni xolis va haqqoniy o‘rganishga imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Ushbu bunyodkorliklar jarayonida ichki ishlar organlari xodimlarining ham o‘ziga xos o‘rni mavjud. Jamiyatda qonun ustuvorligi va adolat, tinchlik va osoyishtalikni ta’minlash, jinoyatchilikning oldini olish, aholining huquqiy savodxonligini oshirish borasida qilinayotgan ishlar e’tiborga molik.

Mamlakatimizda zamonaviy yondashuvlar asosida olib borilayotgan tarixiy tadqiqotlar doirasida O‘zbekistonda sovet hokimiyatining o‘rnatilishi va mustahkamlanishi, davlat boshqaruvi shakli, nazorat va jazo organlarining tashkil etilishi va faoliyati, shuningdek, ichki ishlar organlarining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlardagi ishtiroki kabi masalalar o‘rganilmoqda.

Sovet jamiyatida boshlangan qayta qurish va oshkoralik siyosati barcha sohalarda to‘planib qolgan muammolarni hal qilish o‘rniga shoshma-shosharlik bilan qabul qilingan turli qarorlar, hukumat dasturlari va boshqa tadbirlar natijasida ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi inqirozni yanada tezlashtirdi. Sovet davrida shakllangan boshqaruv elitasi va kommunistlar o‘z mavqeidan voz kechishni istamay, hukmronlik siyosatini davom ettirdilar.

Ushbu davrdagi tarixiy voqealar, siyosiy vaziyat va jamiyatdagi ziddiyatlar tufayli ichki ishlar organlarining faoliyati doimiy ravishda o‘zgarib turgan. Shu sababli, sovet davrida O‘zbekistondagi ichki ishlar organlarining faoliyatini hududiy nuqtayi nazardan ham o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. Tadqiq qilinayotgan davrga oid tarixiy jarayonlar yuzasidan mustaqillik yillarida tarixchilar tomonidan yangicha metodologik uslubda yozilgan tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega. Xususan, N.Jo‘rayev, D.Bobojonova, T.Fayzullayev va boshqalarning tadqiqotlarida qayta qurish yillaridagi qator muammolar atroflicha tahlil etilgan[2]. O‘zbekiston tarixiga oid fundamental tadqiqotlarda ham bu masalaning ayrim jihatlari ko‘rsatilgan [3]. H.Abuyev O‘zbekistonda sovet hokimiyatining qayta qurish siyosati va uning oqibatlarini tahlil qilgan[4].

Bevosita ichki ishlar tarixiga oid izlanishlar doirasida A.Yermetovning “XX asrning 80-yillarida O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy muammolarning ichki ishlar organlari faoliyatiga ta’siri” maqolasi O‘zbekistonning 1980-yillardagi siyosiy vaziyati va ichki ishlar organlarining faoliyati haqida muhim ma’lumotlarni taqdim etadi[5].

Q.Qodirovning “O‘zbekistonda ichki ishlar organlari tizimining shakllanishi va rivojlanishi bosqichlari” nomli maqolasida O‘zbekistonda ichki ishlar organlari tizimining shakllanish va rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. Muallif maqolaning asosiy diqqat markaziga tarixiy jarayonlarda jamiyatning xavfsizligini ta’minlash masalasini qo‘yadi [6].

Mazkur tadqiqot tarixiy tahlil usuliga asoslanib, arxiv hujjatlari, ommaviy axborot vositalari, huquq-tartibot organlarining rasmiy hisobotlari, shuningdek, ilmiy adabiyotlardan foydalangan holda amalga oshirildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Sovet jamiyatining rivojlanish jarayonlarini tahlil qilish asoslangan qonuniyatlar, uning so‘nggi o‘n yillikda tanglik holatiga keltirgan bir qator muhim ziddiyatlarni tushunish imkonini yaratadi. Bu ziddiyatlarning asl sababi sotsialistik rejali iqtisodiyotning ishlab chiqarish munosabatlari xususiyatiga mos kelmasligida bo‘lib, bu muammo vaqt o‘tishi bilan tobora kuchayib bordi. Shu davrda iqtisodiyot o‘z jo‘shqinligini asta-sekin yo‘qotib, bu yo‘qotishni qoplash uchun esa katta sarf-xarajatlar qilinishiga sabab bo‘ldi.

Sovet rahbariyati 1985-yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan tezkor rivojlantirish maqsadida tuzgan rejalarini amalga oshirishga qaratilgan dastlabki qadamlariyoq kutilgan natijani bermadi. Qayta qurish siyosati davomida qilingan xatoliklar, mamlakat mintaqalari o‘rtasidagi munosabatlarning izdan chiqishi va siyosiy vaziyatning yomonlashuvi tufayli ko‘zlangan maqsadlar amalga oshirilmadi.

Bu davrda ichki ishlar organlarida byurokratiyani qisqartirish va korrupsiyaga qarshi kurash asosiy vazifalardan biri sifatida belgilandi. Shu bilan birga, ichki ishlar organlari oshkoralikni ta’minlash va jamoatchilik bilan hamkorlikni mustahkamlashga alohida e’tibor qaratdi. Ikkinchi

tomondan, ichki ishlar tizimida fuqarolarning huquqlarini himoya qilish ustuvor vazifa sifatida ko‘rildi. Ba’zi holatlarda ichki ishlar xodimlari inson huquqlarini buzganliklari uchun javobgarlikka tortildi va ichki nazorat kuchaytirildi.

1980-yillarda Xorazm viloyatidagi ichki ishlar organlari ham Sovet Ittifoqida amalga oshirilgan umumiy siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlar ta’sirida katta sinovlarga duchor bo‘ldi. Bu davrda huquq-tartibotni ta’minlashdagi asosiy masalalar xodimlarning kasbiy tayyorgarligini yaxshilash, insonlarning xavfsizligini ta’minlash borasidagi jiddiy muammolar edi[7] .

Viloyatda bu sohalarning tezkorligini oshirish maqsadida yangi bo‘linmalar tashkil etish, xodimlarning bilimini oshirish ishlari amalga oshirildi. Shu bilan birga davlat avtomobil nazorati, yong‘inga qarshi kurash, pasport, iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurash va boshqa bo‘limlar faoliyatini ham rivojlantirish chora-tadbirlari belgilandi[8].

Qayta qurish davrida ham ichki ishlar organlari faoliyatida katta o‘zgarishlar bo‘ldi. Ammo markazdan to‘liq bog‘liq bo‘lganligi tufayli, respublika militsiyasi mustaqil ravishda rivojlana olmadi. Ko‘plab mahalliy xodimlar ishdan bo‘shatildi. Bu davrdagi ichki ishlar organlari asosan davlat hokimiyatini mustahkamlash, jamoat tartibini saqlash va jinoyatlarga qarshi kurashda faol ishtirok etgan [6]. Iqtisodiy nazorat doirasida ichki ishlar organlari paxta yetishtirish kabi qishloq xo‘jaligi siyosatini amalga oshirishda ham faol ishtirok etgandi.

Qayta qurish siyosati davrida ichki ishlar tizimida bir qator qiyinchiliklar ham yuzaga keldi. Ishning ko‘lami va chegarasi aniq belgilanmagani tufayli, xodimlar faoliyatida ziddiyatli holatlar kuzatildi. Ijtimoiy muammolarning kuchayishi, iqtisodiy holatning yomonlashishi va jinoyatchilikning o‘sishi ichki ishlar organlarining faoliyatini qiyinlashtirdi. Ayniqsa, uyushgan jinoyatchilik va iqtisodiy jinoyatlar bilan bog‘liq muammolar o‘zini namoyon qildi[7].

Sobiq ittifoq davridagi kadrlar siyosatining jiddiy xatolaridan biri markaz tomonidan milliy respublikalarga, jumladan, O‘zbekistonga mahalliy sharoitni bilmagan kadrlarning yuborilishi bilan bog‘liq edi.

Masalan, 1984-1989-yillarda “O‘zbekistonda sotsialistik qonunchilikni tiklash” shiori ostida Ichki ishlar vazirligiga sobiq sovetlar mamlakatidan hammasi bo‘lib 150 nafar xodim jo‘natiladi[5].

Bu davrda O‘zbekistonda faoliyat olib borgan sobiq ittifoq Bosh prokuraturasining T.Gdlyan va N.Ivanov boshchiligidagi alohida muhim ishlar bo‘yicha tergov guruhi tomonidan to‘qib chiqarilgan “Paxta ishi” deb nomlangan uydirmalari asosida turli soha vakillari qatori respublika ichki ishlar organlarining qator rahbar va xodimlarining nohaq hibsga olinishi holati achinarli holdir.

Jumladan, Xorazm viloyatida ham kechgan girdobiga nafaqat begunoh viloyat, rayonlar, xo‘jaliklar rahbarlari va mutaxassislari, balki ichki ishlar organlari rahbar xodimlari ham tushgan edi.

Xususan, Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi, qator davlat mukofotlariga ega bo‘lgan general-mayor S.Z.Sobirov ham gdlyanchilar qurboni bo‘ldi. 1984-yilda ishdan chetlatilib, turli tuhmatlar bilan qamoqqa olindi. Xayriyat, haqiqat qaror topib, u oqlandi, biroq qamoqdagi qiynoqlar oqibatida og‘ir kasalliklar orttirgani sabab general-mayor Salim Zokirovich Sobirov 2008-yil 28-martda vafot etdi[9].

1984-yilda S.Z.Sobirovdan so‘ng viloyat Ichki ishlar boshqarmasi boshlig‘i lavozimiga boshqarma boshlig‘ining tezkor xizmat bo‘yicha o‘rinbosari bo‘lib ishlab kelayotgan mayor Valeriy Ivanovich Lesnix tayinlandi. Polkovnik V.Lesnix boshqarmaga 1992-yilgacha rahbarlik qildi.

Qayta qurish va sobiq ittifoqning tarqab ketishi davrida yuz bergan parokandalik, qonun-qoidalarning zamon talablariga javob bermasligi oqibatida tezkor vaziyat og‘irlashib borardi. Shunga qaramasdan, V.Lesnix shaxsiy tarkibning kuch-vositalarini vaziyatni barqarorlashtirishga hamda viloyat aholisining osoyishtaligini ta’minlashga qarata oldi.

1985-yilda boshlangan qayta qurish siyosati davrida rahbarlar tomonidan xalqqa ko‘plab va’dalar berilsa-da, jamiyatdagi biror sohada ham, jumladan, jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida ham rejalar amalga oshmadi. Aksincha, jinoyatchilikning ko‘rinishlari ochiqdan-ochiq, g‘arazli ta’magirlik tusini oldi. Talonchilik, o‘g‘rilik, bosqinchilik jinoyatning eng ko‘p tarqalgan turiga aylandi. Respublika Ichki ishlar organlariga yurtimiz mustaqilligi arafasida ana shunday meros qoldi.

Yuqoridagi kabi holatlar favqulodda choralar ko‘rishni talab etdi. Natijada hududda

jinoyatchilikka qarshi kurash bo‘yicha Muvaqqat qo‘mita tashkil etildi. Ushbu qo‘mitaning 1989-yil 26-sentabrdagi 214/12-sonli qaroriga asosan huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi faoliyatini keng yoritib borish maqsadida “Xorazm haqiqati” va “Хорезмская правда” gazetalariga ilova tarzida muvaqqat komitetning “Osoyishtalik uchun – За правопорядок” deb nomlangan axborot varaqasini o‘zbek va rus tillarida nashr etish belgilandi.

Bu davrda ayrim respublikalarda, jumladan, Boltiqbo‘yi, Gruziya, Ozarboyjonda ziddiyatlar yuz berdi. Respublikamizning Farg‘ona viloyati va Andijonda ham ommaviy tartibsizliklar sodir etildi. 1990-yil 2-mayda Andijonda ro‘y bergan shunday jarayonlar Xorazmda jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligi, huquqi va mol-mulkini muhofaza qilish borasida qo‘shni viloyatlar ichki ishlar organlari tomonidan ko‘mak berilishini taqozo etdi. Xorazm viloyat IIB boshlig‘i militsiya polkovnigi V.Lesnixning buyrug‘iga asosan 100 nafar militsiya xodimlari Andijonga safarbar qilindi. Militsiya terma otryadiga viloyat IIB JTSB boshlig‘i militsiya mayori Baxtiyor Jumaniyozov komandir, siyosiy xodim militsiya kapitani Kamil Tajiyev o‘rinbosar qilib tayinlangan[10].

Mamlakatda vujudga kelgan ahvolni e’tiborga olib va respublika manfaatlarini himoya qilish maqsadida O‘zbekiston Prezidentining 1991-yil 25-avgustdagi PF-237-son farmoni qabul qilindi. Unga muvofiq, Respublika Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizligi komiteti O‘zbekistonning qonuniy tasarrufiga olindi[1].

Sovet Ittifoqi tuzumi davrida turli yillarda ichki ishlar organlari tizimida ko‘plab strukturaviy o‘zgarishlar qilingan bo‘lsa-da, ammo mohiyat o‘zgarmagan, respublika ichki ishlar vazirligi mustaqil harakat qilolmas, Ittifoq ichki ishlar vazirligining hududiy organi sifatida faoliyat olib borar edi. Natijada, oddiy xalq ichki ishlar organlariga ishonchsizlik bilan qarar, ichki ishlar organlari sovet tuzumining majburlov va jazo organiga aylanib qolgan edi[11].

XULOSA. Qayta qurish siyosati davrida Xorazm viloyati ichki ishlar organlari o‘zgarishlarga moslashish va huquq-tartibotni ta’minlashda muhim rol o‘ynadi. Lekin byurokratiya va korrupsiya bilan bog‘liq muammolarni batamom hal qilish mumkin bo‘lmadi. Shunga qaramay, Qayta qurish siyosati ichki ishlar organlari uchun yangi sinovlar bilan birga, islohotlar jarayonida ayrim ijobiy o‘zgarishlarga ham sabab bo‘ldi. Xorazm viloyati ichki ishlar organlarining islohotlar jarayonidagi ishtiroki umumiy huquq-tartibot tizimini rivojlantirishga hissa qo‘shdi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1991-y., 10-son, 218-modda. https://lex.uz/ru/docs/188475.
2. O‘zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. Ilmiy muharrir: N.Jo‘rayev – Toshkent: Sharq, 2000; Bobojonova D. O‘zbekistonda ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlar. – Toshkent: Sharq, 1999; Tarix shohidligi va saboqlari. Ilmiy muharrir: D. Alimova. – Toshkent: Sharq, 2001.
3. O‘zbekiston tarixi (1917-1991-yillar). Ikkinchi kitob. 1939-1991-yillar. Mas’ul muharrirlar: R.Abdullaev, M.Rahimov, Q.Rajabov. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019.
4. Abuev H. Sovet hokimiyatining qayta qurish siyosati va uning O‘zbekistonga ta’siri (1985-1991-y): Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2020.
5. Yermetov A.A. XX asrning 80-yillarida O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy muammolarning ichki ishlar organlari faoliyatiga ta’siri // O‘zbekistonning mustaqillikka erishish tarixi: 1980-1990-yillardagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy omillar. Toshkent: TURON-IQBOL, 2019. – B. 100-105.
6. Qodirov Q. O‘zbekistonda ichki ishlar organlari tizimining shakllanishi va rivojlanishi bosqichlari // Jamiyat va innovatsiyalar (Society and Innovations), Issue – 4 №3, 2023. – B. 138-149.
7. Yermetov A.A. O‘zbekistonda ichki ishlar organlari faoliyati (1925-1991-yy). Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2019.
8. Xorazm viloyati ichki ishlar organlarining tashkil etilishi va rivojlanish tarixidan qisqacha ma’lumotlar //https://xviib.uz/uz/menu/iib-tarihi.
9. Tajiev K., Matyakubov M. Osoyishtalik yo‘lida bir asr. T.: Azmin nashr print, 2022. – B. 131.
10. Komiljon Tojiyev intervyusi, Urganch, 25-avgust 2022-yil.
11. IIV tarixi // https://qriiv.uz/uz/menu/iiv-tarihi

Qabul qilindi: 27.07.2024 Chop etildi: 30.08.2024 UDK: 9.94

NAVOIY VILOYATIDA ONALIK VA BOLALIKNI MUHOFAZA QILISH BORASIDAGI O‘ZARO TASHQI ALOQALAR

Tuyev Fazliddin Erkinovich, Buxoro davlat pedagogika instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti, mustaqil izlanuvchi

EXTERNAL RELATIONS ON THE PROTECTION OF MATERNITY AND CHILDHOOD IN NAVOI REGION

Tuyev Fazliddin Erkinovich, Bukhara State Pedagogical Institute, associate professor of “Social Sciences” department, independent researcher

ВНЕШНИЕ СВЯЗИ ПО ОХРАНЕ МАТЕРИНСТВА И ДЕТСТВА В НАВОИЙСКОЙ ОБЛАСТИ

Туев Фазлиддин Еркинович, Бухарский государственный педагогический институт, доцент кафедры «Общественные науки», самостоятельный соискатель

https://orcid.org/0008-9582-2598

e-mail: fazli1820bek@gmail.com

Annotatsiya: *Maskur maqolada Navoiy viloyatida sog‘liqni saqlash borasida o‘zaro tashqi hamkorlik aloqalari rivojlanib borganligi hamkorlik natijasida viloyatida oila, onalik va bolalikni muhofaza qilish, nogironligi bo‘lganlarga va ijtimoiy muhtoj oila farzandlariga ijtimoiy ko‘maklar ko‘rsatilgan. Shifoxonalar ta’mirlanib, bir qator dori-darmonlar bilan ta’minlangan. Viloyatdagi shifoxonalarda faoliyat olib boradigan shifokorlar xorijiy tajriba almashlash maqsadida bir qator xorij davlatlarida malaka oshirib qaytganligi bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Navoiy viloyatida, AQSh dollari, Finlandiya, AQShning “Counterpart International”, “Dori-darmon”, shifoxona, “Ona va bola”, Rossiya, AQSH, Ukraina, Angliya, Gollandiya, Hindiston, Fransiya, Estoniya.*

Abstract: *This article shows that mutual external cooperation in the field of health care has developed in the Navoi region as a result of cooperation, protection of the family, motherhood and childhood, social assistance to the disabled and children from socially needy families of the region. Hospitals were renovated and supplied with a number of medicines. It was noted that doctors working in regional hospitals returned from internships in a number of foreign countries in order to exchange foreign experience.*

Key words*: in Navoi region, US dollar, Finland, US "Counterpart International", "Dory-Darmon", hospital, "Mother and child", Russia, USA, Ukraine, England, Holland, India, France, Estonia.*

Аннотация: *В данной статье показано, что взаимное внешнее сотрудничество в сфере здравоохранения сложилось в Навоийской области в результате сотрудничества, защиты семьи, материнства и детства, социальной помощи инвалидам и детям из социально нуждающихся семей региона. Больницы были отремонтированы и снабжены рядом медикаментов. Было отмечено, что врачи, работающие в областных больницах, вернулись со стажировок в ряде зарубежных стран с целью обмена зарубежным опытом.*

Ключевые слова: *в Навоийской области, доллар США, Финляндия, США «Каунтерпарт Интернэшнл», «Дори-Дармон», больница «Мать и дитя», Россия, США, Украина, Англия, Голландия, Индия, Франция, Эстония.*

KIRISH. Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab O‘zbekiston Respublikasi viloyatlari qatori Navoiy viloyatida ham ijtimoiy sohani rivojlantirishning muhim omili sifatida tashqi aloqalarga alohida e’tibor bera boshlandi. Ijtimoiy sohaga sog‘liqni saqlash, turar joyga ega bo‘lish, shahar infratuzilmasi, qishloq infratuzilmasi, aholini ish bilan ta’minlash, ekologik vaziyatni saqlash va shu kabi boshqa sohalar kiradi. Viloyatda chorak asr davomida ushbu sohalarni rivojlantirish va modernizatsiyalashtirish maqsadida xorijiy davlatlar bilan hamkorlik aloqalarining olib borilganligi tadqiqot jarayonida tarixiy tahlil qilindi.

MUAMMONING O‘RGANILGANLIK DARAJASI. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston tashqi aloqalari tarixiga tegishli bir qator asarlar yaratilib, ularda xorijiy davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy va diplomatik aloqalarga yo‘naltirilgan jihatlar ochib berildi. O‘zbekistonning xalqaro aloqalari tarixiga bag‘ishlab yozilgan ishlarga A.Alimov, A.Kasmov, I.Vaskin, M.Boboxo‘jayev, N.To‘xliyev, A.Toqsanov, A.Rasulov, Z.Nuriddinov, A.Qirg‘izboyev, S.Jo‘rayev, M.Raximov, X.G‘ulomov, L.Boboxodjayeva, Q.Rajabovlarning[1] kitoblarini kiritish mumkin.

TADQIQOT USULLARI. Tadqiqot mavzusini yoritishda tizimli-xronologik va tarixiy-tipologik yondashuv, sinxron, dioxron, analiz va sintez, qiyosiy tahlil kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

MUHOKAMA. Navoiy viloyatining yer maydoni 111,1 ming kvadrat kilometr bo‘lib, mamlakatimiz hududining to‘rtdan bir qismini tashkil etadi. Dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2024-yil 1-yanvar holatiga viloyatda doimiy aholi soni 1075268 kishini tashkil etdi va yil boshidan 19811 kishiga yoki 1,9 foizga ko‘paydi. Tug‘ilish darajasi. 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida tug‘ilganlar soni 26805 kishini tashkil qildi va 2022-yilning yanvar-dekabr oylariga (26274 kishi) nisbatan 531 taga ko‘paygan.

Tug‘ilish koeffitsiyenti mos ravishda 25,2 promilleni tashkil qildi va 2022-yilning yanvar-dekabr oylariga (25,2 promille) nisbatan o‘zgarmaganini ko‘rsatmoqda. Tug‘ilish koeffitsiyenti viloyatning G‘ozg‘on shahrida (18,8 dan 21,5 promillega), Nurota tumanida (25,0 dan 27,0 promillega), Konimex tumanida (20,1 dan 22,1 promillega), Zarafshon shahrida (23,7 dan 24,8 promillega), Navbahor tumanida (23,4 dan 24,1 promillega) va Qiziltepa tumanida (22,4 dan 23,6 promillega) oshgan bo‘lib, Navoiy shahrida (31,3 dan 28,0 promillega), Tomdi tumanida (17,3 dan 15,8 promillega) va Uchquduq tumanida (23,9 dan 23,8 promillega) kamayish kuzatildi.

O‘lim darajasi. 2023-yilning yanvar- dekabr oylarida o‘lganlar soni 4588 kishini tashkil qildi va 2022-yilning shu davriga (4156 kishi) nisbatan 432 taga ko‘paydi. O‘lim koeffitsienti mos tartibda 4,3 promilleni tashkil qildi (2022-yil yanvar-dekabr oylarida 4,0 promillega) nisbatan 0,3 promillega o‘zgarganini ko‘rsatmoqda. O‘lganlar soni G‘ozg‘on shahrida (1,8 dan 3,9 promillega), Nurota tumanida (4,4 dan 5,5 promillega), Konimex tumanida (4,7 dan 5,3 promillega), Xatirchi tumanida (3,5 dan 3,9 promillega), Navbahor tumanida (3,9 dan 4,3 promillega), Navoiy shahrida (5,0 dan 5,2 promillega) va Tomdi tumanida (4,0 dan 4,2 promillega) oshgan bo‘lsa, Uchquduq tumanida (3,3 dan 2,9 promillega) kamayish kuzatildi[2].

Viloyat sog‘liqni saqlash tizimida 40ta shifoxona, shu jumladan 11 dispanser, 16ta qishloq uchastka shifoxonasi, 106 ta qishloq vrachlik punkti, 19ta qishloq vrachlik ambulatoriyasi, 116ta feldsher akusherlik punkti onalar va bolalarga kafolatlangan bepul tibbiy xizmat ko‘rsatadi. Onalik va bolalikni muhofaza qilish yo‘nalishida muqaddam aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirilishiga qaramay, bu sohada o‘z yechimini topmagan muammolar mavjud edi. 2004-yilning 9 oyida zuriyod yoshidagi ayollarning 144169 nafari, ya’ni 77,3 foizida turli ekstragenital xastaliklar mavjudligi aniqlanib, aksariyatini kamqonlik, yurak, qon-tomir va buyrak yetishmovchiligi, hazm sistemasi kasalliklari tashkil etgan[3].

2004-yilning o‘tgan davri mobaynida ultratovush tekshirishidan 14485 nafar yoki 91,7 foiz homilador ayollar o‘tkazilib, 63 nafarida nuqsonli homila topilib, ularda sun’iy ravishda homiladorlik to‘xtatilgan. Joriy yilda viloyat kadrlar bo‘yicha akusher-ginekologlarga bo‘lgan ehtiyoj ko‘rsatkichi 136 ta o‘rinni tashkil etib, shu davr holatida 15 ta kadrlar o‘rni to‘ldirilmagan. Xususan, Uchquduqda 4 ta, Konimexda 2 ta, Nurotada 2 ta, Qiziltepada 2 ta, Navbahorda 2 ta va Tomdi tumanida 3 ta akusher ginekologlar yetishmagandi. Akusher-ginekologlar

ayrimlarining malakasizligi onalar hayoti va sog‘ligini muhofaza qilish bilan bog‘liq vaziyatga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Patronaj xizmatidagi kamchiliklar sababli oxirgi bir yarim yil mobaynida 117 nafar onalar uylarida tuqqan. Keyingi uch yil mobaynida o‘lgan 27 nafar ayollarning 18 nafari, ya’ni 66,7 foizi homiladorlikning 3-oyigacha, 9 nafari, ya’ni 33,3 foizi 5 oylikkacha homiladorlik bilan hisobga olingan. 2004-yilning o‘tgan davri mobaynida ekstragenital kasalligi aniqlangan ayollardan jami 6 nafarida o‘lim qayd etilgan. Shundan 4 nafarida tug‘ishga mutloq monelik bo‘lishiga qaramasdan homiladorlikka yo‘l qo‘yilganligi natijadasi ona o‘limi ro‘y bergan. O‘lim holatlarining salmog‘i Nurota, Xatirchi va Qiziltepa tumanlarida yuqoriligi kuzatilgan. Ona o‘limi 2 holatda birinchi tug‘ruq jarayonida, 4 holatda qayta tug‘ayotgan ayollarda qayd etilgan. Tug‘ruq jarayonida vafot etgan ayollardan 3 nafarida patalogoanatomik tekshiruvlari o‘tkazilmagan[4].

Yuqorida qayd etilgan onalar o‘limi sog‘liqni saqlash boshqarmasi bosh mutaxassislari, Respublika sog‘liqni saqlash vazirligining yetuk mutaxassislari tomonidan tahlil qilinib, yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklar yuzasidan uchastka akusher-ginekologi hamda statsionarda qatnashgan barcha mutaxassislarga nisbatan intizomiy chora ko‘rilgan. Viloyatda 229 ta pediatr o‘rinlarining 218 tasi qoplangan bo‘lib, 2004-yil holatida 11 nafar pediatrga ehtiyoj mavjud bo‘lgan. Jumladan, Uchquduqda 3ta, Tomdida 2ta, Konimexda 3ta, Xatirchida 1ta va Nurotada 2tadan pediatr yetishmagan. 2003-yilda 190 nafar, 2004-yilning 14-oktyabr davriga qadar 143 nafar bolalar o‘limi hodisalari qayd etilgan bo‘lib, o‘lim sabablarini aniqlash maqsadida 31 nafarida patalogoanatomik tekshiruvlar o‘tkazilishi ta’minlanmagan. 1 yoshgacha go‘daklar o‘limi darajasi Navoiy shahrida, Uchquduq va Xatirchi tumanlarida viloyat ko‘rsatkichidan yuqoriligicha qolgandi. Tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilgan 6 yoshli bolalarning 72,8 foizida kasallik aniqlangan bo‘lib, ularning 12 foizi o‘z vaqtida sog‘lomlashtirilmagan. Bolalar o‘limining qariyb 40 foizi nafas organlari kasalliklari, 28,6 foizi yuqumli kasalliklar, 17,8 foizi tug‘ma nuqsonlar hisobiga ro‘y bergan bo‘lib, bu boradagi ko‘rsatkichlar yuqori bo‘lib qolayotganligi tashvishlidir.

Viloyatda mavjud bo‘lgan jami 1042 ta fizioterapevtik apparatlardan 132 tasi 2004-yil holatida ishlash darajasi pasayib yaroqsiz holatga kelib qolgandi. Xatirchi va Uchquduq tumanlaridagi onalar va bolalar shifoxonasi mukammal ta’mirga muhtoj bo‘lsa-da, Xatirchi tumanidagi markaziy shifoxona joriy ta’mirlangandi. Sog‘liqni saqlash muassasalari tomonidan nogiron voyaga yetmaganlarni o‘z vaqtida aniqlash hamda ularni sog‘ligini tiklash borasida sustkashlikka yo‘l qo‘yilib kelingan edi. Birgina, Navoiy shahrida 13 ta, Nurota tumanida 10 ta holatda voyaga yetmaganlar tug‘ma nogiron bo‘lsa-da Sog‘liqni saqlash muassasalarining e’tiborsizligi tufayli ularga nogironlik 1 yildan 10 yilgacha kech tayinlanib sog‘ligini saqlash va ijtimoiy himoyalash asossiz ravishda kechiktirib kelingan[5].

Yuqorida qayd qilingan kamchiliklarni yildan yilga oldi olinishi natijasida 2006-yil 1-yanvar holatida Navoiy viloyatida bir yilda go‘daklar o‘limi ko‘rsatkichini 3,6taga kamaytirishga erishildi. Homiylar va shifokorlar yilida tizimdagi ishlar yana ham jonlandi. O‘zaro hamkorlik va tashqi aloqalar natijasida Navoiy viloyat bolalar shifoxonasi Yaponiyada ishlab chiqarilgan eng zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlangan edi[6].

2007-yil Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazining viloyat filiali 700 ming AQSh dollarilik xorijiy sarmoya hisobidan statsionar, partativ roentgen uskunalari hamda so‘nggi rusumdagi ultratovush apparatlari bilan jihozlantirilgandi. Shuningdek, “Ona va bola” skrining markaziga 167 million so‘mlik “Defina-Viktor” laboratoriya tekshiruv majmuasi, perinatal ultratovush tekshiruv apparati o‘rnatilgandi. Natijada markazda 1512ta perinatal, 16520 ta neonatal tekshiruvlar o‘tkazildi. Oltmish holatda esa homiladorlik kechishidagi o‘zgarishlar aniqlanib, tegishli muolajalar tavsiyalar o‘z vaqtida beriladigan bo‘ldi. Bu bilan ko‘plab irsiy kasalliklarning oldini olishga erishildi. Aytish joizki, bunday xayrli chora-tadbirlar yosh avlodning sog‘lom va barkamol inson bo‘lib voyaga yetishini ta’minlashga xizmat qilmoqda[7].

2009-yilga kelib Navoiy viloyati el salomatligi muhofazasi yo‘lida yanada ko‘plab ibratli ishlar amalga oshirish yo‘lida xorijiy davlatlar bilan o‘zaro hamkorlik ishlarini jadallashtirish oqibati o‘laroq, joylardagi qishloq vrachlik punktlari hamda poliklinikalarda birlamchi davolash-profilaktika ishlari sifatli darajaga olib chiqilgan edi. Bu ishlarni namunali tashkil etish maqsadida tibbiyot

xodimlari Rossiya, AQSh, Ukraina, Angliya, Gollandiya, Hindiston, Fransiya, Estoniya, Turkiya mamlakatlarida malaka oshirib qaytgandilar[8].

O‘zbek va hind xalqlari o‘rtasidagi do‘stlik aloqalari uzoq tarixga ega. O‘zbekiston ham, Hindiston ham qadim sivilizatsiya beshiklaridandir. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, ikki mamlakat o‘rtasidagi munosabatlar yangi mazmun bilan boyidi, hamkorlik izchil taraqqiyot yo‘liga tushdi. Hindiston birinchilar qatori O‘zbekiston mustaqilligini tan olganini alohida ta’kidlash joizdir.

Toshkentda 1992-yil 18-mart kuni Diplomatik munosabatlarni o‘rnatish to‘g‘risidagi protokol imzolanishi bilan ikki davlat o‘rtasida diplomatik munosabatlarda yangi sahifalar ochildi. Ikki mamlakat o‘rtasidagi hamkorlik ko‘lami va qamrovi yildan yilga tobora kengayib, jadallik kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil aprel oyida Hindistonga amalga oshirgan davlat tashrifi ikki tomonlama hamkorlik rivojidagi g‘oyat muhim voqea bo‘ldi[9]. Uchrashuv chog‘ida davlatlar o‘rtasidagi munosabatlar izchil rivojlanib borishi, 2015-yilga kelib O‘zbekiston va Hindiston hamkorlikni rivojlantirishning yangi imkoniyatlariga erishdi. Tashqi aloqalarning taraqqiy topishi natijasida, Hindistonning yetakchi kompaniyalari bilan hamkorlikda “Novafarm”, “Bravo Farm”, “Ultra Xels Kear”[10] va Buxoroda “Gufik Avitsenna”[11] qo‘shma korxonalari farmatsevtika sohasida faoliyat ko‘rsatayotir.

Sog‘liqni saqlash sohasidagi hamkorlik ham izchil rivojlanmoqda. Toshkent, Buxoro, Samarqand, Navoiy, Farg‘ona kabi shaharlarda hindistonlik shifokorlar kardiojarrohlik, neyrojarrohlik, nevrologiya, onkologiya, gepatologiya, ortopediya va boshqa yo‘nalishlarda doimiy tibbiy ko‘riklar o‘tkazmoqda, bemorlarga zarur maslahatlar bermoqda[12]. Tibbiyot xodimlari ikki mamlakat klinikalarida o‘zaro tajriba almashmoqda.

Respublikada sog‘liqni saqlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar tibbiyot muassasalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, Navoiy viloyati aholisiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmat ko‘lami va sifatini oshirish, reproduktiv salomatlikni ta’minlashga xizmat qilmoqda. Bu jarayonda aholi o‘rtasida tibbiy ko‘riklarni tashkil etish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, tibbiy madaniyatni oshirish yuzasidan olib borilayotgan chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etayotir.

Ana shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tashabbusi bilan Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya markazining bir guruh malakali shifokorlari Navoiy viloyatida sog‘lomlashtirish haftaligini o‘tkazdi. Kardiolog, terapevt, nevropatolog va yana bir qator mutaxassislar haftalik davomida viloyat, shahar hamda tumanlarning eng chekka hududlarida bo‘lib, aholi salomatligini mustahkamlashga ko‘maklashdi. Tadbirning dastlabki kunida Navoiy shahri va Karmana tumani aholisi uchun tibbiy ko‘rik tashkil qilindi. Navoiy shahridagi 4-son oilaviy poliklinikada ellik nafardan ortiq bemor kishilar salomatligi ko‘rikdan o‘tkazildi. Bunday tadbirlar aholi salomatligini asrash yo‘lida yurtimizda amalga oshirilayotgan ishlar samarasini yanada oshirishga xizmat qilishi, shubhasiz[13].

XULOSA. Bir so‘z bilan aytganda, Navoiy viloyatida ijtimoiy sohani rivojlantirish maqsadida tashqi aloqalarga alohida e’tibor qaratildi, samarali ishlar yo‘lga qo‘yildi. Viloyatda mustaqillikning dastlabki yillarida sog‘liqni saqlash tizimida vujudga kelgan muammolarni bartaraf etish va uni yuksaltirish uchun Navoiy viloyat shifokorlari malakasini oshirish, zamonaviy tibbiyot uskunalari bilan ta’minlangan shifoxonalar qurish, aholiga sifatli tibbiy xizmatlar ko‘rsatish maqsadida xorijiy davlat kompaniyalari, shifoxonalari, o‘quv markazlari bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yildi. Viloyatda infratuzilmani rivojlantirish maqsadida xorijiy davlat tajribasi qo‘llandi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Алимов А. Внешнеэкономическая деятельность Республики Узбекистан: взгляд в будущее. –Ташкент: “Узбекистан”, 1992; Касымов А., Васькин И. Основные направления внешней политики Республики Узбекистана. –Ташкент: “Узбекистан”, 1994; Бабахаджаев М. Республика Узбекистан: очерки межнациональных и межкомфессиональных отношений, внешнеэкономических связей. –Ташкент, 1996.; Тўхлиев Н., Тоқсанов А. Национальная экономическая модель Узбекистана. –Ташкент., 1998; Расулов А., Бедринцев А., Акилов А. Узбекистан: внешнеэкономическая деятельность и

интеграция в мировое хозяйство. –Ташкент, 1996; Нуриддинов З. Международное сотрудничество Узбекистана со странами Европы. –Ташкент: “Чўлпон”, 2002; Қирғизбоев А. Ўзбекистон Республикасининг Осиё мамлакатлари билан халқаро ҳамкорлиги. –Тошкент: Фан, 2004; Жўраев С. Ўзбекистон ва жаҳон ҳамжамияти. –Тошкент: Академия, 2005; Раҳимов М. Международное соотрудничество Узбекистана в контексте обеспечения стабильности в устойчивого развития в Центральной Азии с ведушими государствами мира. –Ташкент: Адабиёт учқунлари, 2016; Ғуломов Х., Холлиев А. Международные связи Республики Узбекистан с Великобртанией и США. –Ташкент, Университет, 2002; Бобохаджаев Л. Международное культурно-гуманитарное сотрудничество Республики Узбекистана. –Ташкент: Фан, 2011; Ражабов Қ., Бекмуратов Х. Ўзбекистон билан Туркия ўртасидаги иқтисодий ва маданий ҳамкорлик тарихидан. –Т.: “Тафаккур”, 2017.

2. Navoiy viloyat statistika boshqarmasi joriy arxivi, 2024-yil boshidagi hsoboti.

3. Navoiy viloyati davlat arxivi. 100-fond, 1-ro‘yxat, 667-yig‘ma jild, 40-varaq.

4. Navoiy viloyati davlat arxivi. 100-fond, 1-ro‘yxat, 667-yig‘ma jild, 40-41-varaq.

5. Navoiy viloyati davlat arxivi. 100-fond, 1-ro‘yxat, 667-yig‘ma jild, 41-42-varaq.

6. Ражаб Жуманиёзов. Барханлар бағридаги бўстон. // Халқ сўзи. 2006-йил 28-июн, №-123. б-2.

7. Эшонқулов Ҳ. Малакали тиббий хизмат. // Халқ сўзи. 2009-йил 11-июн, №-117. б.-4.

8. Эшонқулов Ҳ. Малакали тиббий хизмат. // Халқ сўзи. 2009-йил 11-июн, №-117. б.-4.

9. “Жаҳон” А.А. Ўзбекистон-Ҳиндистон: Ўзаро манфаатли ҳамкорликнинг янги истиқболлари. // Халқ сўзи. 2011-йил 14-май, №-95. б.-1.

10. Анвар Самадов. Ўзбекистон-Ҳиндистон: ҳамкорликни ривожлантиришнинг янги имкониятлари. // Халқ сўзи. 2015-йил 7-июл, №-132 (6315). б.-1.

11. Бухоро вилоят давлат архиви, 1459-фонд, 1-рўйхат, 290-йиғма жилд, 87-варақ; Бухоро вилоят ҳокимлиги соғлиқни сақлаш бош бошқармаси жорий архиви, 1993 йил ҳисоботи, 5-йиғма жилд, 196-варақ; “Жаҳон” А.А. Ўзбекистон-Ҳиндистон: Ўзаро манфаатли ҳамкорликнинг янги истиқболлари. // Халқ сўзи. 2011-йил 14-май, №-95. б.-1; Анвар Самадов. Ўзбекистон-Ҳиндистон: ҳамкорликни ривожлантиришнинг янги имкониятлари. // Халқ сўзи. 2015-йил 7-июл, №-132 (6315). б.-1.

12. Анвар Самадов. Ўзбекистон-Ҳиндистон: ҳамкорликни ривожлантиришнинг янги имкониятлари. // Халқ сўзи. 2015-йил 7-июл, №-132 (6315). б.-1.

13. Ёрқул Умар. Навоийда тиббиёт ҳафталиги. // Халқ сўзи. 2011-йил 20-июл, №-141 (538) б.-1-2.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.08.2024 Nashr qilindi: 30.09.2024 UOK: 372.3

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA RAQAMLASHTIRISHDA O‘QITISHNING SIFATINI OSHIRISH OMILI

Farxodova Dilnoza Qudrat qizi, Buxoro davlat universitetining “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta’lim)” kafedrasi tayanch doktaranti

ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ПРЕПОДАВАНИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Фарходова Дильноза Қудрат кызы, докторант кафедры теории и методики образования и обучения (начальное образование) Бухарского государственного университета

A FACTOR FOR IMPROVING THE QUALITY OF TEACHING IN DIGITIZATION IN PRIMARY EDUCATION

Farkhodova Dilnoza Qudrat qizi, Doctoral candidate of Theory and Methodology of Education and Training (primary education) of Bukhara State University

https://orcid.org/0009-0008-5824-7811

e-mail: d.q.farxodova@buxdu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limda raqamlashtirish o‘qitish sifatini oshirishda muhim rol o‘ynashi, shuningdek raqamli texnologiyalar yordamida ta’lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilish mumkinligi haqida gapiriladi. Raqamlashtirishning asosiy afzalliklari va boshlang‘ich ta’limda raqamlashtirish orqali ta’lim sifatini oshirishi, shuningdek, kelajak avlodni zamonaviy talablar darajasida tayyorlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu jarayonda muammolar ham yuzaga kelishi mumkin, masalan, texnologiya bilan bog‘liq muammolar yoki barcha o‘quvchilarning bir xil imkoniyatlarga ega emasligi kabi masalalarni hal etishga ehtiyoj bor.

Kalit so‘zlar: raqamli resurslar, interaktiv ta’lim, o‘qituvchi malakasi, texnologik infratuzilma, o‘qitish metodlari, differensiyalashgan yondashuv, kooperativ ta’lim, raqamli kompetensiyalar.

Abstract: In this article, digitization in primary education can play an important role in improving the quality of teaching, and the educational process can be made more effective and interesting with the help of digital technologies. The main advantages of digitization and the improvement of the quality of education through digitization in primary education also serve to prepare the next generation at the level of modern requirements. However, challenges may arise in this process, such as technology issues or the need to address issues such as the fact that not all students have the same opportunities.

Key words: digital resources, interactive education, teacher qualification, technological infrastructure, teaching methods, differentiated approach, cooperative education, digital competencies.

Аннотация: Цифровизация в начальном образовании может сыграть важную роль в повышении качества преподавания, а образовательный процесс можно сделать более эффективным и интересным с помощью цифровых технологий. Основные преимущества цифровизации и повышение качества образования за счет цифровизации начального образования также служат подготовке следующего поколения на уровне современных требований. Однако в этом процессе могут возникнуть

проблемы, такие как технологические проблемы или необходимость решения таких проблем, как тот факт, что не все учащиеся имеют одинаковые возможности.

Ключевые слова: цифровые ресурсы, интерактивное образование, квалификация учителя, технологическая инфраструктура, методы обучения, дифференцированный подход, кооперативное обучение, цифровые компетенции.

KIRISH. Boshlang‘ich ta’limda raqamlashtirish, o‘qitish jarayonini yanada samarali va sifatli qilishda muhim rol o‘ynaydi. Raqamli texnologiyalarni ta’limga joriy etish, o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada qiziqarli va interaktiv qiladi. Bu esa o‘qituvchilar uchun ham yangi imkoniyatlar yaratadi.

Kirish sifatida, raqamlashtirishning bir qator asosiy afzalliklarini ko‘rib chiqish mumkin:

1. **Interaktivlik**: Raqamli vositalar yordamida ta’lim jarayoni interaktiv bo‘ladi. O‘quvchilar dars davomida turli xil multimedia materiallar, onlayn testlar va simulyatsiyalar orqali faol ishtirok etishlari mumkin.

2. **Shaxsiylashtirish**: Raqamli texnologiyalar yordamida har bir o‘quvchining individual ehtiyojlari va qobiliyatlariga mos keladigan o‘qitish usullarini tanlash imkoniyati paydo bo‘ladi.

3. **Resurslarga kirish**: Internet orqali keng ko‘lamdagi ma’lumot va ta’lim resurslariga kirish imkoniyati mavjud bo‘ladi, bu esa o‘quvchilarning bilim doirasini kengaytiradi.

4. **O‘qituvchilarning professional rivojlanishi**: Raqamli texnologiyalar o‘qituvchilar uchun yangi pedagogik yondashuvlarni sinab ko‘rish va malakalarni oshirish imkonini beradi.

5. **Monitoring va baholash**: Raqamlashtirilgan tizimlar yordamida o‘quvchilarning rivojlanishini kuzatish va baholash jarayonlari yanada samarali amalga oshirilishi mumkin.

Shu tariqa, boshlang‘ich ta’limda raqamlashtirish nafaqat o‘qitish sifatini oshiradi, balki yosh avlodning zamonaviy talablarga javob beruvchi bilimlarni egallashiga ham xizmat qiladi. Bunda muhim vazifa – raqamli texnologiyalarni to‘g‘ri va maqsadga muvofiq qo‘llashdir.

ASOSIY QISM. Boshlang‘ich ta’limda raqamlashtirish – bu zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas qismi bo‘lib, u o‘qitish sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Raqamli texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi. Ushbu mavzuning dolzarbligi bir necha omillar bilan belgilanadi:

1. O‘qitish jarayonini diversifikatsiya qilish: raqamli vositalar yordamida o‘qituvchilar darslarni turli formatlarda (video, interaktiv mashqlar, gamifikatsiya) taqdim etishi mumkin. Bu esa, o‘quvchilarning diqqatini jalb qiladi va ularning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

2. Shaxsiylashtirilgan o‘qitish: raqamli platformalar yordamida har bir o‘quvchining ehtiyojlariga mos keladigan individual o‘quv rejalarini ishlab chiqish mumkin. Bu, o‘z navbatida, har bir bolaga uning shaxsiy imkoniyatlari va tezligiga qarab ta’lim olish imkoniyatini beradi.

3. Resurslarga kirishni oshirish: raqamlashtirish orqali o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun keng ko‘lamdagi taqdimot materiallari, darsliklar va qo‘shimcha resurslarga kirish imkoniyati yaratiladi. Bu esa ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

4. Hamkorlik va muloqotni rivojlantirish: raqamli texnologiyalar yordamida masofaviy hamkorlikni amalga oshirish mumkin. O‘quvchilar bir-birlari bilan muloqot qilib, jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

5. Tahlil va monitoring: raqamli vositalar orqali o‘quvchilarning muvaffaqiyatlarini real vaqt rejimida kuzatish imkoniyati mavjud bo‘ladi. Bu esa muammolarni tezda aniqlash va ularga samarali yechimlar topishga yordam beradi.

6. Kelajak uchun tayyorgarlik: zamonaviy dunyo raqamlashtirilgan bo‘lib, bolalarni kelajakdagi mehnat bozoriga tayyorlash zarurati bor. Ularni raqamli ko‘nikmalarga ega bo‘lishga yo‘naltirish muhimdir.

Umuman olganda, boshlang‘ich ta’limda raqamlashtirish nafaqat pedagogik jarayonlarni yangilaydi, balki bolaning umumiy rivojlanishi uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, ushbu mavzu dolzarb hisoblanadi va uni tadqiq qilish amaliyotga kirita olish potentsiali yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Boshlang‘ich ta’limda raqamlashtirish o‘qitish sifatini oshirishda

TAMADDUN NURI

muhim omil hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar o‘quv jarayonini yanada samarali va interaktiv qilish imkonini beradi. Ushbu jarayonni tahlil qilib, quyidagi xulosalar va takliflarni keltirib o‘tish mumkin:

Xulosalar:

1. Interaktivlik: raqamli vositalar yordamida darslar yanada interaktiv bo‘ladi, bu esa o‘quvchilarning diqqatini jalb qiladi va bilimni yaxshiroq egallashlariga yordam beradi.

2. Individualizatsiya: raqamli platformalar orqali har bir o‘quvchining ehtiyojlariga mos ravishda ta’lim berish imkoniyatlari paydo bo‘ladi. O‘quvchilar o‘z sur’atida rivojlanishi mumkin.

3. Resurslar mavjudligi: Internet va raqamli kutubxonalar orqali keng ko‘lamdagi ta’lim resurslariga kirish mumkin, bu esa darslarni boyitishga xizmat qiladi.

4. O‘zaro hamkorlik: raqamli vositalar yordamida o‘quvchilar orasida hamkorlikni rag‘batlantirish mumkin, bu esa jamoa ishini rivojlantiradi.

5. Muhokama va fikr almashish: Onlayn platformalarda muhokama qilish imkoniyati mavjud bo‘lib, bu o‘quvchilarning fikrlarini erkin ifoda etishga yordam beradi.

Takliflar:

1. O‘qituvchilarni tayyorlash: o‘qituvchilarni raqamli texnologiyalar bilan ishlashga tayyorlash uchun muntazam treninglar o‘tkazilishi kerak.

2. Texnologik infratuzilmani yaxshilash: maktablarni zamonaviy texnologiyalar (kompyuterlar, proyektorlar, internet) bilan ta’minlash lozim.

3. Dars dasturlarini yangilash: Ta’lim dasturlariga raqamli ta’lim elementlarini qo‘shish zarur, shu jumladan multimedia materiallaridan foydalanish.

4. Ota-onalar bilan hamkorlik: Ota-onalarga raqamli ta’limning foydalari haqida ma’lumot berib, ularni jarayonga jalb qilish kerak.

5. Innovatsion yondashuvlar: ta’lim jarayonida innovatsion metodlarni sinab ko‘rish va ularni amalga oshirish muhimdir.

Raqamlashtirish orqali boshlang‘ich ta’limda sifatni oshirishga erishish uchun yuqoridagi takliflarning amalga oshirilishi alohida ahamiyatga ega bo‘ladi. Bu jarayon nafaqat o‘quvchilarning bilim darajasini oshiradi, balki ularning qiziqishini yanada kuchaytiradi va kelajakda muvaffaqiyatli shaxslar bo‘lishlariga yo‘l ochadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Kozlov, A.P., & Ivanov, S.V. (2020). Raqamli ta’lim: nazariya va amaliyot. - 2. Gulomova, M., & Turayev, A. (2021). Boshlang‘ich ta’limda raqamlashtirish jarayonlari. Ta’lim tizimidagi innovatsiyalar jurnali.

3. Mamatova, D., & Rahimov, E. (2019). O‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Ta’lim va tarbiya masalalari jurnali.

4. Shodmonov, S., & Qodirova, Z. (2022). Raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirish. Pedagogika yutuqlari jurnali.

5. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge.

6. Ertmer, P. A., & Ottenbreit-Leftwich, A. T. (2010). Teacher Technology Change: How Knowledge, Confidence, Beliefs, and Culture Intersect.

7. Buckingham, D., & Willett, R. (2006). Digital Generations: Children, Young People and New Media.

8. Livingstone, S., & Haddon, L. (2009). Kids Online: Opportunities and Risks for Children.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UO'K: 811'512.133'282.2

SHAXSNING FE'L-ATVORIGA ISHORA QILADIGAN LAQABLAR

Qodirova Xurshida Marselovna, Urganch davlat universiteti "O'zbek tilshunosligi" kafedrasi dotsent v.b., (PhD)

https://orcid.org/0000-0002-1783-7435

e-mail: xurshidamarselovna@gmail.com

NICKNAMES THAT REFER TO THE PERSON'S CHARACTER

Kadirova Khurshida Marselovna, associate professor of Uzbek Linguistics Department of Urganch State University, (PhD)

ПРОЗВАНИЯ, ОТНОСЯЩИЕСЯ К ХАРАКТЕРУ ЧЕЛОВЕКА

Кадирова Хуршида Марселовна, доцент кафедры узбекского языкознания Ургенчского государственного университета, (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxsning fe'l-atvoriga ishora qiladigan laqablar nazariy jihatdan izohlangan va tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: laqab, asliy laqab, nisbiy laqab, shaxsning fe'l-atvoriga ishora qiladigan laqablar, salbiy ma'no ifodalovchi laqablar, ijobiy ma'no ifodalovchi laqablar.

Abstract: In this article, nicknames that refer to a person's character are theoretically explained and analyzed.

Key words: nickname, original nickname, relative nickname, nicknames referring to a person's character, nicknames expressing a negative meaning, nicknames expressing a positive meaning.

Аннотация: В данной статье теоретически объяснены и проанализированы прозвища, относящиеся к характеру человека.

Ключевые слова: прозвище, оригинальное прозвище, относительное прозвище, прозвища, относящиеся к характеру человека, прозвища, выражающие отрицательный смысл, прозвища, выражающие положительный смысл.

KIRISH. Tilshunoslar butun dunyoda tilni tadqiq etishning eng maqbul yo'llarini hamisha izlab kelgan. Bu jarayonlarda jiddiy muvaffaqiyatlarga ham erishilgan. Hozircha ana shunday muvaffiqiyatlardan biri, shubhasiz, tilshunoslikda antropotsentrik paradigmaning yuzaga kelganligi va uning turli ko'rinish hamda yo'nalishlarda jadal rivojlanib borayotganligidir [8.16.].

Onomastikaga oid tadqiqotlarning yuzaga kelishi 1960-yillardan boshlangan bo'lib, bunda antroponimlarning alohida o'rni bor. Antroponimik ko'lamning tarkibiy qismi sifatida laqablarni o'rganish va ularni tahlil qilish har bir xalqning madaniyatini va uning jonli tildagi ahvolini ko'rsatib berishga xizmat qiladi. Bugungi kunda laqablarning bitta kishiga, bir necha kishiga, butun bir jamoaga tegishli turlari borligi aniqlandi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Ayrim tadqiqotchilar laqablarni semantik turlarga ajratishdan oldin asliy

va nisbiy laqablarga to‘xtalishadi [3.57-58;10.33-34]. Asliy laqablar shaxsning asliyati bilan bog‘liq bo‘lib, laqablanuvchining tashqi ko‘rinishi, xarakteri, kasalligi va shu kabi jihatlar asosida paydo bo‘ladi. Nisbiy laqablar esa shaxsning ijtimoiy kelib chiqishi, millati, kasb-kori asosida shakllangan laqablar deb qaraladi. Biz o‘z tadqiqotimizda laqablarni asliy va nisbiy kabi turlarga ajratmadik. Chunki bir necha antroponim tarkibida keladigan laqablarda ushbu qarash noto‘g‘ri hisoblanadi.

Laqablarning mukammal tasnifi va semantik guruhini yaratish murakkabdir. Chunki har bir mutaxassis o‘zida mavjud materiallardan kelib chiqqan holda laqablarni guruhlaydi va tasniflaydi. Bunga E.Begmatov [3.59-75] va M.Rashidova [10.41-45] larning tasnifini misol qilish mumkin.

Laqab egasining salbiy xarakter va harakatini, yurish-turishidagi salbiy tomonni, xotin-qizlarga bo‘lgan salbiy munosabatini va kishilarning shu kabi salbiy mashg‘ulotini ko‘rsatuvchi laqablar kishining xarakteri va harakatidagi tipik xususiyatlarga ishora qiladigan laqablardir. Laqablarning bu turida ijobiy xarakter juda kam ifodalanadi, ijobiy ma’noda qo‘llangan laqablarning ham aksariyati teskari ma’noni ifodalashga xizmat qiladi. Ushbu maqolada shaxsning fe’l-atvoriga asoslangan laqablarni shakllanishi va leksik ma’nosi nuqtayi nazaridan tahlilga tortdik.

MUHOKAMA. Laqablarning ushbu turini quyidagi kichik guruhlarga ajratamiz:

1. Laqab egasining salbiy xarakter va harakatiga ishora qiladi:

Qoqïr – gerdaygan, mag‘rur [2.62]. Maqtanchoq, hech kimni nazariga ilmaydi, boshqalarni burni bilan ko‘rsatadigan shaxslar ismiga tirkaladigan laqab: Šerïp qoqïr (Sherip qo‘qir, Yangiariq t.).

Qo‘qir so‘zining yana bir fonetik varianti “qo‘qqi” so‘zidir. Qoqqï – o‘zini juda katta tutgani, hech kimni nazar-pisand qilmay, kekkayib yurgani uchun shu laqabni olgan: Atavaj qoqqï (Otaboy qo‘qqi, Qo‘shko‘pir t.).

Qomaj – manman, gerdaygan, maqtanchoq [5.130]; laqab egalarining aytishicha, ularning ota-bobolari qo‘nimgohlari (qishlog‘i)ning eng faol va hammaga gap-so‘zi o‘tadigan shaxslardan bo‘lishgan: Xäsän qomaj, Sapar qomaj, Öktäm qomaj (Hasan qo‘may, Safarboy qo‘may, O‘ktam qo‘may. Hazorasp t., Pitnak sh.).

Gűbïrdï – maqtanchoq, yolg‘onchi odam bo‘lgani uchun shu laqabni olgan: Xusin gűbïrdï (Husin guburdi, Qo‘shko‘pir t.). Gupur – “jo‘sh ur”. Bu fe’l asli “do‘ng”, “ko‘tarilgan holat” ma’nosini anglatadigan “köp” otidan – (ű)r qo‘shimchasi bilan yasalgan. Keyinchalik ö harfi u ga, g esa k ga almashgan: köp + űr = köpűr – göpűr – gűpűr – gupur. Turkiy tillarga xos bo‘lgan undoshlar o‘zgarishida b-p, unlilar o‘zgarishida u-i larning mavjudligiga[1.36] asoslanib, bugungi kunda Xorazm shevalarida maqtanib so‘zlashni xush ko‘ruvchilarga nisbatan faol qo‘llanuvchi “gubirdi” so‘zi “gupurdi” so‘zining o‘zgargan shakli deyish mumkin. “Gűbïrdï” so‘zi haqida Go‘ro‘g‘li turkum dostonlarida ham ma’lumot berilgan bo‘lib, o‘zbeklar dastlab gubernator so‘zini to‘g‘ri talaffuz qila olmay gubir tarzda aytilgani haqidagi qarashlar ham bor.

Ǯöŋqï – “kekkayma”, “o‘zini baland tutadigan” ma’nosini anglatadi. Ayrim shaxslar juda maqtanchoq bo‘lgani uchun shu laqabni olgan: Jäŋŋï ǯöŋqï (Yangiboy jo‘nqi, Qo‘shko‘pir t.).

2. Yurish-turishi, xarakteridagi salbiy tomonga ishora qiladi.

Bäŋŋï – hovlisi ko‘zdan ancha chekkada bo‘lgani sabab chekuvchi kishilar uning uyiga ko‘p yig‘ilganidan: Tolï bäŋŋï (To‘li bangi, Urganch sh.); ko‘p choy ichgan: Atavaj bäŋŋï (Otavoy bangi, Hazorasp t.); choyni ko‘p damlab qo‘yib ichgan: Ešǯan bäŋŋï (Eshjon bangi, Qo‘shko‘pir t.); chilim chekib yuradigan: Mäträsűl bäŋŋï (Matrasul bangi, Urganch sh.) shaxslarga laqab sifatida qo‘llaniladi. Bundan tashqari, ishchi bo‘lgan, qazuvda ishlab kelib choyga chiqqanda unga choy yetmagan, keyin yangidan choy quyib, urishib hech kimga bermagan, shundan mazax qilib unga shu laqab berilgan: Jaqïp bäŋŋï (Yoqub bangi, Bog‘ot t.).

Käpäläk – odatda, qo‘nimsiz, goh uni, goh buni yaxshi ko‘raveradigan, bir qancha erkak bilan intim munosabatda bo‘laveradigan[7.108.] shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi: Mïqqï käpäläk (Muqaddas kapalak, Urganch t.)

Apakï – ayollarga o‘xshatish. Turkiy tillarni o‘zaro qiyoslash asnosida tadqiqot olib borgan K.Musayev turkiy tillarining ko‘pchiligida qatin so‘zi turli fonetik variantlarda uchrashi, bulardan mustasno shaklda qrim-tatar tilida apaqay tarzida [9.265.] ishlatilishi haqida ma’lumot bergan. Bu shevalarimizda qo‘llanadigan opaki so‘zi qrim-tatar tilida mavjud apaqay so‘zi bilan bog‘liq degan

qarashga asos bo‘ladi. Laqab egasining uyida ayolining gapi o‘tadi. Sinfdoshlarining aytishicha, u maktabni tugatganiga 10 yildan oshgan bo‘lsa ham, biron marta sinfdoshlari bilan ziyofatlarda o‘tirmagan ekan, unga “u yerda qizlar ham bo‘ladi” deb ayoli ruxsat bermas ekan. Shuning uchun uni o‘rtoqlari erkak kishining nomiga isnod keltirganligi uchun shu nom bilan atashadi: Attï apäkï (Otavoy opaki, Hazorasp t.).

3. Jinsiy xususiyatlariga qarab berilgan laqablar.

Kötänäk – bu laqab egasi yoqtirib qolgan ayollarining turmushini buzgan va unga o‘zi uylangan, 5 marta oila qurgan, ayollarga suyagi yo‘q. Ularning yonida o‘zini yo‘qotib qo‘yganidan o‘rtoqlari “Arkaka o‘xsha, o‘zingni xotinladin tutmin” deb doim tergashgan va shu laqabni berishgan: Ŭmmï kötänäk (Umrbek ko‘tanak, Bog‘ot t.).

Sujïq – bu laqab ko‘chma ma’noda “fahsh yo‘liga kirgan”, “buzuq” [11.3-jild.600] shaxslarga nisbatan qo‘llanadi. Ularda ota-bobolarining ham, farzandlarining ham ayollarga suyagi yo‘q. Odamlar ulardagi bu holatni “qoni orqali o‘tadi” deyishadi: Häsän sujïq (Hasan suyuq, Xiva t.).

Xatïnäk – xotinday, ayollarga xos sifatlarga ega, ularga xos harakat qiluvchi erkak [7.241.]; xotinchalish, xotin-qizlarni juda yaxshi ko‘rganidan hamisha ularning yonida yuradi, ayolining ham gapidan chiqmaydi. Bu munosabatlarini ochiq aytadi, erkaklar shu sabab uni “xotinak” deb atashadi. O‘zi ham ushbu laqabini biladi va erkaklar davrasi zerikarli bo‘lgani uchun ayollar davrasida bo‘lishini aytadi: Šellï xatïnäk (Sherali xotanak, Xonqa t.).

Xumsa – so‘kish (iflos, yaramas); xunasa; ham erkak, ham ayollik jinsiy belgilari bo‘lgan odam [11.4-jild.424]. Ushbu so‘zning so‘kish ma’nosidan ham keng foydalanilib, uni badiiy asarlarda ham uchratamiz: “... xotun-qizlarning sochlari uzun, aqllari qisqa, bu haqiqat. Ammo o‘zlari Xudoyi taoloning shirin qilub yaratqan maxluqlaridandirki, bu gap ham to‘g‘ri. Binobarin, ularning o‘ynab-kulishlariga rozi bo‘lmag‘an odam xumsadir”[4.2]. Laqablanuvchining bepusht ekanligi sabab uni orqavarotdan (ko‘nglini og‘ritmaslik uchun) shunday chaqirishadi: Ämin xumsa (Amin xumsa, Urganch t.) Bepushtlikka ishora sifatida ba’zan qiz so‘zidan ham foydalanishadi va erkaklik belgilari mavjud bo‘lmaganlikni ifodalaydi: Qadïr qi:z (Qodir qiz, Urganch t.)

4. Shaxslarning salbiy mashg‘uloti asosida shakllangan laqablar.

Aqtujaq – ushbu birikmadagi “oq” so‘zi “bo‘ysunmas”, “itoatsiz”, “so‘zga kirmaydigan”, “itoat qilishni bilmaydigan” [11.3-jild.176.] kabi ma’nolarni ifodalagan. Oyoq so‘zi hayvonga qiyoslanib, tuyoq deb olingan. Ushbu laqab o‘z o‘rnida laqablanuvchiga nisbatan xalqning munosabatini ko‘rsatib, bu urug‘ vakillarining deyarli barchasi o‘g‘ri, aldoqchi, firibgar ekanligiga, hatto o‘z kasbiga ega bo‘lganlarining ham nopok ishlarga aralashib yurishlariga ishora qiladi: Oloy aqtujaq (Oloy oq tuyoq, Xonqa t.). Ushbu birikmaning oq oyoq varianti ham bor.

Āčamančï – firibgar. Bunday laqabli kishi qaysidir ma’lumotni aniqlash, kimningdir soxta ishlarini ochish uchun odamlardan pul oladi va hech ish qilmaydi. Egri yo‘llarni shu darajada yaxshi biladiki, uni jazolash uchun asos qoldirmaydi: Bātïr āčaman (Botir ochamonchi, Bog‘ot t.).

Jarγaq – yozuvchilik (ko‘chma ma’nosi “ig‘vogar, oraga nifoq soluvchi”[11.2-jild.29.]) bilan shug‘ullanadi, qalami o‘tkir. “Hammasini yorib tashlayman” jumlasini ko‘p ishlatgani sabab shu laqabni olgan. O‘zi janjalkash, faqat o‘z manfaati uchungina harakat qiladigan baxil inson. Qo‘shnilari va hatto, yaqinlari qimmatbaho narsa, uy olsa, yaxshilab o‘rganib chiqadi va gumonlansa, poraxo‘rlik, o‘zgalarning mulkiga ko‘z olaytirishda ayblab ustidan “yumaloq xat” yozadi: Sapa jarγaq (Sapayoz yorg‘oq, Qo‘shko‘pir t.).

5. Ijobiy ma’no asosida shakllangan va uslubiy bo‘yoqqa ega bo‘lmagan laqablar.

Bajlä – bayramlarda hamisha qishloqdagi og‘ir sharoitda yashovchi shaxslarga oziq-ovqat va boshqa mahsulotlarini tayyorlab tarqatgani uchun shu laqabni berishgan: Mädä:min bajlä, Bekǯan bajlä (Madamin boylar, Bekchon boylar, Qo‘shko‘pir t.).

Löttï – quyqa [6.123.]; yog‘ singari suyuqliklar tagida qolgan quyqum [5.135] ma’nolarini ifodalab, quyuq (salomlashish jarayonida tanigan-tanimagan yaqinlarigacha hammaning ahvolini) so‘rashadigan odamlarga nisbatan beriladi. Bu butun bir urug‘ga berilgan, avloddan avlodga o‘tib yuruvchi laqabdir: Räǯäb löttï, Polat löttï, Narmät löttï (Rajabboy lo‘tti, Po‘lat lo‘tti, Normamat lo‘tti, Urganch sh.).

XULOSA. Laqablarning ushbu turini ajratganda salbiy va ijobiy mashg‘ulot turini ham

kiritib o‘tdik. Ammo jamiyatda mavjud laqablarning asosiy qismi salbiy ma’no ifodalaydi, ayrimlarigina ijobiy ma’noga ega. Ayrim ijobiy jihat asosida shakllangan laqablarning ham ko‘chma ma’noga asoslangan salbiy jihati mavjud bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Dadaboyev X.A., Xolmanova Z.T. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. – Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2015.
2. Абдуллаев Ф.А. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. – Тошкент: ЎзФА, 1964.
3. Бегматов Э.А. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013.
4. Жулқунбой. Ҳой, ер юткур. // “Муштум”, 1924 йил, 8 март, 24-сон.
5. Ишаев А. Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1977.
6. Мадраҳимов О. Ўзбек тили ўғуз лаҳжасининг Хива шеваси. – Урганч: Хоразм, 1999.
7. Маҳмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013.
8. Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. № 5. – Тошкент, 2012. – Б. 16.
9. Мусаев К.М. Лексика тюркских языков в сравнительном освещении. – Москва: Наука, 1975.
10. Рашидова М. Ўзбек тилидаги лақабларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари. – Тошкент: Иқтисод-Молия, 2008.
11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2, 3, 4-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2020.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 81-13

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI LUG‘ATLARDA SINONIMLARNING LEKSIKOGRAFIK TALQINI

Dildora Husanova, Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

LEXICOGRAPHIC INTERPRETATION OF SYNONYMS IN ENGLISH AND UZBEK DICTIONARIES

Dildora Husanova, Doctoral student of termiz state university

ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ СИНОНИМОВ В АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ СЛОВАРЯХ

Дилдора Хусанова, докторант термезского государственного университета

https://orcid.org/0009-0007-2243-8678
e-mail:
dildora.husanova1@icloud.com

Annotatsiya: *Ma’nodosh so‘zlar inson nutqini ifodali va ravon qilish uchun juda muhim omil hisoblanadi. Nutqda sinonimlardan foydalanish uchun esa albatta ular o‘trasidagi ma’no nozikliklarni anglash va to‘g‘ri qo‘llay olish muhimdir. Quyida sinonimlarning so‘zlashuvchilar tomonidan foydalnilishi uchun mo‘ljallangan lug‘atlardan misollar va ulardagi ma’nodosh so‘zlarning leksikografik talqinlari haqida so‘z bordi. Ushbu sinonimlarning ifodalanilishida ingliz va o‘zbek tilidagi bir nechta lug‘atlar va ulardagi misollardan foydalanildi.*

Kalit so‘zlar: *sinonimlar, lug‘at, ta’rif, otlar.*

Abstract: *Synonyms are a very important factor for making human speech expressive and fluent. In order to use synonyms in speech, it is important to understand the nuances of meaning behind them and be able to use them correctly. Below are examples of synonyms from dictionaries compiled for use by speakers and lexicographic interpretations of synonyms in them. Several english and uzbek dictionaries and examples from them were used to express these synonyms.*

Key words: *synonyms, vocabulary, definition, nouns.*

Аннотация: *Синонимы являются очень важным фактором для того, чтобы сделать человеческую речь выразительной и беглой. Чтобы использовать синонимы в речи, важно понимать стоящие за ними смысловые нюансы и уметь правильно их использовать. Ниже приведены примеры синонимов из словарей, составленных для использования носителями языка, и лексикографические интерпретации синонимов в них. Для выражения этих синонимов были использованы несколько английских и узбекских словарей и примеры из них.*

Ключевые слова: *синонимы, словарный запас, определение, существительные.*

KIRISH. Tilshunoslik sohasida leksikologiya boshqa sohalar kabi o‘zining muhim ahamiyatiga ega soha hisoblandi. Leksikologiyada sinonim so‘zlar, ularning o‘rni beqiyosdir. Leksikologiyaning yana bir tarmog‘i lug‘atchilikda sinonim so‘zlar uchun ham alohida lug‘atlar mavjudligi barchaga ayon. Sinonimlarning o‘zaro o‘xshashliklarini va farqlarini ko‘rsatadigan maxsus lug‘atlar mavjud. Bu lug‘atlar so‘zlarning ma’nolarini, ularning o‘zaro bog‘liqligini va qaysi kontekstlarda foydalanilishini tushuntiradi. Sinonimlarni lug‘atlarda keltirishida ularning ma’no

shakillari muhim ahamiyat kasb etadi. Bir so‘zning turli xil sinonimlari mavjud bo‘lib, ularning har biri ma’lumot beruvchi bo‘lishi mumkin, masalan, so‘zning umumiy yoki maxsus ma’nolari. Jahon tilshunosligida sinonim lug‘atlarning turlari juda ham ko‘plab mavjud. Umumiy sinonim lug‘atlarining bir biridan asosiy farqlari bu sinonim so‘zliklarni berilish jihatidir. Ba’zi lug‘atlarda so‘zlarning eng ko‘p ishlatiladigan yoki eng mos keladigan sinonimlari keltiriladi va ayrim lug‘atlarda ushbu sinonimlarga kontekstdagi ma’nolarini ochib berish maqsadida misollar ham beriladi. Bu kabi ma’lumotlar yordamida so‘zlovchi so‘zlar orasida to‘g‘ri tanlov qilishni o‘rganib oladi. Bundan tashqari shunday sinonim lug‘atlar ham mavjudki, bu lug‘atlarda sinonim so‘zlarning tarixiy o‘zgarishlari va mintaqaviy ishlatilish holatlari keltirib o‘tiladi, bu kabi lug‘atlar yordamida so‘zlarning qaysi regionda qaysi so‘zlar bilan ma’no o‘xshashliklari mavjud ekanligini bilib olish mumkin. Quyida shu kabi lug‘atlarda sinonimlarning turli xildagi leksikografik talqinlarini o‘rganib chiqamiz.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI. Umuman jahon leksikografiyasida sinonim lug‘atlarning o‘rni beqiyos hisoblanadi. Misol uchun ingliz leksikografiyasida ham sinonim lug‘atlar talaygina bo‘lib, ularda sinonimlarning leksikografik talqini turlicha. Ingliz olimi Jhon Sinclair korpus lingvistikasi va leksikografiya sohasida juda ko‘plab ilmiy ishlar amalga oshirgan. Ushbu olimning “*Collins cobuild dictionary”* nomli lug‘atida shunchaki sinonimlar sanab o‘tilimasdan, kontekstdagi ishlatilish holatlari bilan yoritib berilgan. U sinonimlarning kontekstlar orqali o‘rganilishi muhim ekanligini ta’kidlab o‘tgan va bu aniq tarjima uchun muhim ekanligini aytgan[1].

“Oxford english dictionary” lug‘atida so‘zliklarga keng qamrovli ta’riflar va tarixiy qo‘llanilishlari berilgan. Ushbu sinonim lug‘atda ma’nodosh so‘zlar orasidagi nyuans (eng nozik farqlar)lar, kontekstlar, tarixiy qo‘llanilishi va konnotatsiyalar bilan ochib berilgan. Lug‘atda bu farqlar asosan ushbu ma’nodosh so‘zlarning gaplar orqali nutqdagi holatini ko‘rsatish orqali ko‘rsatilgan. Undan tashqari *oxford english dictionary* lug‘atida so‘zlarning etimologiyasi va tarixiy rivojlanishi haqida ham ma’lumotlar keltirilgan va bu orqali sinonim so‘zlarning turli xil ma’no farqlari ifodalangan. Bu esa, o‘z navbatida, nima uchun bir kontekstda bir so‘z boshqa ma’nodosh ekvivalentlaridan afzalroq ekanligini ochib bera olgan.

Yana bir lug‘at – bu “*Cambridge dictionary”*. Ushbu lug‘at *“Oxford english dictionary”*dan farqli o‘laroq aniq va qisqa ta’riflarni o‘z ichiga oladi. Bosh so‘zga asosiy ma’no jihatdan ma’nodosh so‘zlar ro‘yxati keltirilib, ularga qisqacha ma’lumotlar berib ketilgan. *Cambridge dictionary*da ham misol sifatida gaplar keltirilib, sinonimlarning kontekstlardagi nozik farqlari ochib berilgan. Gaplardan tashqari ushbu lug‘atda kunlik ishlatiladigan collocation (so‘z birikma)lar ham berilgan.

O‘zbek tili lug‘atlarida ham sinonimlarning leksikografik talqinlarini ko‘rib chiqsak. 2023-yilda Nizomiddin Mahmudov tahriri ostida chop etilgan “*O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati”*da hozirgi o‘zbek tili uchun muhim bo‘lgan sinonimik qatorlar qamrab olingan. Mazkur lug‘atda leksik sinonimlar, ularning leksikografik izohlari, sinonimik qatordagi so‘zlarning ma’no nozikliklari, bu ma’noviy farqlanishlarni dalillovchi, ijobiy-salbiy bahosi hamda uslubiy o‘ziga xoslikni ko‘rsatuvchi illyustrativ misollar kiritilgan[2]. Ushbu ma’nodosh so‘zlarning izohli lug‘atida bosh so‘z berilib, ushbu so‘zga sinonimik qatorlar keltirilgan, ushbu qatordagi sinonimlarning barchasi uchun umumiy ma’noga izoh berilgan, agar zarur bo‘lsa, har bir so‘zning alohida ma’no nozikligi ifodalangan. Undan tashqari nutqdagi darajasi, nutqiy uslubga aloqadorligi va lingvokultrologik jihati ham keltirilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Ushbu maqolani yozishda bir nechta ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Mavzuimizning obyekti sinonim so‘zlar bo‘lsa, predmeti ularning lug‘atlardagi leksikografik talqinlari hisoblanadi. Ushbu predmetni yoritib berish maqsadida bir nechta ingliz va o‘zbek tillaridagi lug‘atlar saralab olindi. Shu o‘rinda induksiya metodidan foydalanildi, ya’ni umumiy lug‘atlar haqidagi ma’lumotlarni spetsifiklashtirib (xususiylashtirib), aynan ikkita tildagi lug‘atlarda misollar bilan ko‘rib chiqildi.

[1] Jhon Sinclair. *Collins COBUILD Dictionary*. HarperCollins Canada. 2010.

[2] O’zbek tili sinonimlarining izohli lug’ati.-T.:G’afur G’ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2023.

Ma'nodosh so'zlarning lug'atlardagi ifodalanilishini o'rganish maqsadida turli xil lug'atlarda ularning ifodalanilishi o'rganilib, ushbu leksikografik ifodalar taqqoslanildi. Bu qiyoslash orqali sinonimlarning lug'atlarda ifodalanishi ularning maqsadiga va amaliy jihatiga qanday ta'sir o'tkazishini ko'rish mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR. Ingliz tilidagi lug'atlarda ma'nodosh so'zlarning berilishini ikkita lug'atdan misol olgan holda ko'rib chiqsak. Birinchi lug'atimiz 2002-yilda nashr qilingan *"Collins thesaurus: the ultimate wordfinder"* lug'atidir. Ikkinchi lug'atimiz esa, 2008-yilda nashr qilingan *"Oxford learner's thesaurus"* lug'atidir. Ushbu lug'atlardan *cut* so'zini olib, ushbu so'zning ma'nodoshlarining ifodalanishini ko'rib chiqamiz. "*Cut"* so'zi ko'pma'noli so'z hisoblanilib, uning har xil ma'nolari jihatidan unga ma'nodosh bo'lgan so'zlar alohida saralanib olingan.

"Collins thesaurus: the ultimate wordfinder" lug'atida berilishini ko'rib chiqsak.

Cut verb **1** = slit, saw, score, nick, slice, slash, pierce, hack, penetrate, notch… *thieves cut a hole in the fence … … you can hear a saw as it cuts through the bone …*

2 = chop, split, divide, slice, segment, dissect, cleave, part … *cut the tomatoes into small pieces …*

3 = carve, slice … *mr long was cutting himself a piece of cake …*

4 = sever, cut into two, sunder … *i cut the rope with the scissors …*

5 = shape, carve, engrave, chisel, form, score, fashion, chip, sculpture, whittle, sculpt, inscribe, hew …. *Geometric motifs are cut into the stone walls …*

6 = slash, nick, wound, lance, gash, lacerate, incise … *i cut myself shaving*[3].

Ushbu lug'atda sinonimlarning ma'no nozikliklariga e'tibor berilgan. So'zliklar qatorlari turli xil sinonimlarni o'z ichiga olgan va ushbu sinonimlar bosh so'zga turli xil ma'nolar bilan bog'langan. Ammo, bosh so'zning ma'nodoshlari shunchaki berilgan, ular o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar haqida ma'lumotlar berilmagan. Sinonimlar qatorlaridagi bosh so'zlarning ma'nolari misol tariqasida keltirilgan bitta gaplar orqali sal aniqlashtirilgan, ammo ta'riflar berilmagan[4].

Keyingi lug'at – bu *"Oxford learner's thesaurus".*

Cut *verb.*

Cut.chop.slice.carve.dice

Cut [t] remove smth or part of smth, or divide smth into two or more pieces with a knife, to make or form smth by removing material with a knife: *he cut four slices from the loaf.*

Chop [t] to make smaller pieces of smth using smth sharp such as knife: *he was chopping logs of firewood.*

Slice [t, i] to cut smth into slices, to cut smth easyly with, or as if with a sharp blade: *slice the cucumber thinly.*

Carve [t, i] to cut a large piece of cooked meat into smaller pieces for eating: *she taught me how to cavre a lag of lamb.*

Dice [t] to cut meat, vegetables, etc. Into small square pieces: *diced carrots/lamb.*

Birinchi keltirilgan lug'atdan farqli o'laroq ushbu lug'atda sinonimlarga ko'proq ma'lumotlar keltirilgan, misol sifatida berilgan gaplar orqali ta'riflar berilgan va ma'nosi juda yaqin sinonimlar o'rtasidagi farqlar ham ochib berilgan[5].

XULOSA VA TAKLIFLAR. Ma'nodosh so'zlar lug'atlarda shunchaki sinonimlar qatorini berish orqali yoki ular orasidagi ma'no nozikliklari va boshqa bir nechta jihatlarni ochib berish orqali ifodalanadi. Sinonim lug'atlarda quyidagi jihatlarni ham qamrab olish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Ma'nodosh so'zlarning konnotatsiyalari, chunki konnotatsiyalar emotsional va madaniy ma'no nozikliklarini ifoda etadi.
2. Ma'nodosh so'zlarning kontekstlardagi ifodasi. Chunki sinonimlar situatsiyalarga ko'ra turli xil ma'nolarni ifoda etadi va ushbu ma'no farqlarni ochib berilishi ularni nutqda to'g'ri qo'llashda muhim hisoblanadi.
3. Sinonimlar orasida nutq jarayonida rasmiy va norasmiy holatda qo'llash

[3] *Collins English Dictionary.* Accessed on 1 November 2019. https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english

[4] Jiang G., Q.Chen. A micro exploration into learner's dictionaries: A prototype theoretical perspective. International Jurnal of lexicography. 2017.

[5] The Oxford guide to practical lexicography. Oxford, New York: Oxford University Press. 2008.

masalasida ham farqlar mavjud. Ushbu farqlar ham nutqning to‘g‘ri ifodasida muhim hisoblanadi.

Yuqorida ko‘rib o‘tganimiz *“Oxford english dictionary”* va *“Cambridge dictionary”*larida sinonimlarning berilishi ikki xil, birinchi lug‘atda ko‘proq batafsil ma’lumotlar, so‘zlarning etimologiyasi va kengroq amaliy qo‘llanilishiga doir misollar keltirilgan. Ikkinchi lug‘atda esa qisqa, oddiy ta’riflar berilgan. Shuning uchun ham *“Oxford english dictionary”* ko‘proq olimlar, tilni chuqurroq o‘rganmoqchi bo‘lgan izlanuvchilar tomonidan foydalinilsa, *“Cambridge dictionary”*ni umumiy foydalanuvchilar va shunchaki amaliy qo‘llash uchun tilni o‘rganayotgan insonlar foydalanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. *Collins english dictionary.* Accessed on 1 november 2019. Https://www.collinsdictionary.com /dictionary/english.
2. Jhon Sinclair. *Collins cobuild dictionary.* Harpercollins canada. 2010.
3. Jiang g., q.chen. A micro exploration into learner’s dictionaries: a prototype theoretical perspective. International jurnal of lexicography. 2017.
4. The Oxford guide to practical lexicography. Oxford, new york: Oxford university press. 2008.
5. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati.-t.:g‘afur g‘ulom nomidagi nashriyot manba ijodiy uyi, 2023.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 1751

MEDIA DISKURSDA KO‘CHIM VA ULARNING TURLARI

Rajabbayeva Feruza Rajabbayevna, Urganch innovatsion universiteti “O‘zbek va xorijiy filologiya” kafedrasi o‘qituvchisi

TROPS AND THEIR TYPES IN MEDIA DISCOURSE

Rajabbaeva Feruza Rajabbayevna, Urganch Innovation University Teacher of the department “Uzbek and Foreign Languages”

ТРОПЫ И ИХ ТИПЫ В МЕДИА-ДИСКУРСЕ

Раджаббаева Феруза Раджаббаевна, Ургенчский инновационный университет, преподаватель кафедры «Узбекская и иностранная филология»

https://orcid.org/0009-0002-8471-415X
e-mail: feruza.rajabboyeva@mail.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada media diskursda ko‘chimning roli va uning turlari tahlil qilinadi. Ko‘chim tilning biror tushunchani yoki ma’noni boshqa bir tushunchaga yoki ma’noga ko‘chirish vositasi ekanligi ta’kidlanadi. Maqolada metafora, metonimiya, sinekdoxa va personifikatsiya kabi ko‘chim turlari misol keltirib tushuntiriladi. Bundan tashqari, ko‘chimning media diskursda xabarni ta’sirliroq qilish, ijodiylikni oshirish va xabarni esda qolishga yordam berishdagi ahamiyati ta’kidlanadi. Maqolada yangiliklar, reklamalar va filmlarda ko‘chim qanday qo‘llanilishi misollar bilan ko‘rsatiladi.*

Kalit so‘zlar: *ko‘chim (transfer), media diskurs, metafora, stilistik vositalar, metonimiya, sinekdoxa, til vositalari.*

Abstract: *This article examines the role and types of transfer in media discourse. It emphasizes that transfer is a means of conveying a concept or meaning to another concept or meaning. The article explains types of transfer such as metaphor, metonymy, synecdoche, and personification with examples. Furthermore, it highlights the importance of transfer in media discourse for enhancing the impact, creativity, and memorability of messages. The article demonstrates how transfer is used in news, advertising, and films with examples.*

Key words: *transfer, media discourse, metaphor, stylistic devices, metonymy, synecdoche, linguistic devices.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается роль и типы переноса в медиа-дискурсе. Подчеркивается, что перенос является средством передачи понятия или значения другому понятию или значению. В статье с примерами объясняются типы переноса, такие как метафора, метонимия, синекдоха и персонификация. Кроме того, подчеркивается важность переноса в медиа-дискурсе для усиления воздействия, креативности и запоминаемости сообщений. В статье демонстрируется, как перенос используется в новостях, рекламе и фильмах с помощью примеров.*

Ключевые слова: *медиа-дискурс, метафора, стилистические средства, метонимия, синекдоха, языковые средства.*

TAMADDUN NURI

KIRISH. Til – insoniyatning eng kuchli qurollaridan biridir. U bilan biz o‘y-fikrimizni ifoda etamiz, boshqalar bilan aloqa o‘rnatamiz va dunyoni tushunamiz. Tilning o‘ziga xos xususiyatlari orqali biz xabarni ta’sirli va esda qolishli qilamiz. Bu xususiyatlardan biri ham “ko‘chim”dir. Ko‘chim – bu tilning ijodkorlik va ta’sirchanlikni oshirish uchun ishlatiladigan qimmatli vositasi. U biror tushunchani yoki ma’noni boshqa bir tushunchaga yoki ma’noga ko‘chirish orqali xabarni boyitishga yordam beradi. Media diskursda, ayniqsa reklamalar, yangiliklar va badiiy asarlarda ko‘chim keng qo‘llaniladi va u orqali xabar ko‘proq ijodiy va esda qolarli bo‘ladi[6].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. Ushbu sohada bir qancha mediashunoslar ko‘chim va uning turlari haqidagi tadqiqotlarga katta hissa qo‘shgan. Jumladan, Roman Jakobsonning “Til to‘g‘risidagi asoslar” kabi asarlari tilshunoslikda muhim o‘rin egallaydi. Jakobson ko‘chim haqida yozgan bo‘lsa ham, uning asosiy hissasi ko‘proq tilning funksional tomoniga bag‘ishlangan. U tilning kommunikativ vazifalari, ya’ni til orqali qanday ma’lumotlar uzatilishini va til orqali qanday his-tuyg‘ular ifodalanganini o‘rganishga katta e’tibor qaratdi[7].

Shuningdek, Teun van Dijk “Ideologiya va diskurs” kabi asarlarda tilning ijtimoiy va siyosiy kontekstdagi roli haqida yozgan. Uning tadqiqotlari media diskursda ko‘chimning ahamiyatini tushunishga yordam beradi. Van Dijk bu asarida tilning siyosiy ideologiyalar va g‘oyalarni shakllantirishda qanday rol o‘ynashini o‘rganadi. Uning fikricha, til faqat ma’lumot uzatish vositasi emas, balki dunyo haqida bizning tushunchamizni shakllantirishga yordam beruvchi qudratli quroldir. U o‘zining tadqiqotlarida tilning “kuch” tomoniga e’tibor qaratadi va til orqali qanday qilib biror guruhning manfaati himoya qilinishi mumkinligi haqida o‘ylaydi. Uning fikricha, ko‘chim bu “kuch”ni ko‘rsatish va to‘plashning muhim vositalaridan biridir.

Faircloughning fikricha, til faqat ma’lumot uzatish vositasi emas, balki ijtimoiy va siyosiy kuchlarni shakllantirish va o‘zgartirishda muhim rol o‘ynaydi. U tilning “kuch” tomoniga e’tibor qaratadi va til orqali qanday qilib g‘oyalar, ideologiyalar va siyosiy manfaatalar himoya qilinishi mumkinligini tahlil qiladi. Fairclough media diskursni o‘rganishda tilning turli xildagi xususiyatlariga e’tibor qaratadi, jumladan: Uning fikricha, media diskursda ko‘chim ham “kuch”ni ko‘rsatish va to‘plashning muhim vositalaridan biridir. Ko‘chim orqali g‘oyalar, ideologiyalar va manfaatalarni himoya qilish yoki tanqid qilish mumkin.

Jorj Lakoff – tilshunoslik va kognitiv fanlarda metaforaning ahamiyatini chuqur tahlil qilgan olimlardan biri. Uning “Metaforalarni tushunish” asari bu sohada muhim o‘rin egallaydi. Lakoffning fikricha, metafora faqat tilning badiiy vositasi emas, balki bizning dunyo haqida fikrlash tarzimizning asosiy qismi. U biz kundalik hayotda ko‘pgina metaforalarni ishlatishimizni ta’kidlaydi va bu metaforalar bizning tushunchamiz va xulq-atvorimizni shakllantirishga yordam beradi. U o‘z tadqiqotlarida metaforaning “kuch” tomoniga e’tibor qaratadi. Uning fikricha, metafora orqali biz abstrakt tushunchalarni tushunish uchun konkret va tanish obrazlardan foydalanamiz. Masalan, “vaqt puldir” kabi metafora vaqtni tang deb tushunishga va uni tejamli ishlatishga yordam beradi[8].

Quyidagi maqolada biz matn tahlilidan, ya’ni Media diskursdagi xabarlarni tahlil qilishda ko‘chimning turli xillari qanday ishlatilganini, kontent tahlili qanday ma’nolar ko‘chirilganini va ta’sirning tahlili ko‘chimning tomoshabinlarga qanday ta’sir qilishini tahlil qilish haqida ko‘rib chiqdik.

MUHOKAMA. Media diskursda ko‘chim tildagi biror tushunchani yoki ma’noni boshqa bir tushunchaga yoki ma’noga ko‘chirish vositasi hisoblanadi. Shuningdek, bugungi kunda media diskursda ko‘chim keng qo‘llaniladi va uning turlari orqali xabarni ta’sirliroq, ijodiyroq va esda qolarliroq qilish mumkin. Media diskursda tilning ijodiyligi ko‘chim orqali tilning imkoniyatlari kengaytiriladi va xabarni ko‘proq ijodiy qilishi mumkin. Media diskursda ta’sirchanlik ko‘chim xabarga hissiy rang beradi va tomoshabinlar diqqatini jalb qiladi. Esda qolish: Ko‘chim xabarning esda qolishiga yordam beradi, chunki u xabarni o‘ziga xos va esda qolishli qiladi[1].

Ko‘chimning turlari:

- Metafora: bir tushunchani boshqa tushunchaga qiyoslash orqali uning xususiyatlarini ko‘chirish. Masalan, “Uning ovozi to‘fon kabi kuchli edi”, deb aytishda ovoz to‘fon bilan qiyoslanib, uning kuchli ekanligi ta’kidlanadi. Metafora – so‘z

san'atining eng keng tarqalgan va samarali vositalaridan biri bo'lib, undagi qiyoslash asosida yangi ma'nolarni ochib berish mumkin. Metafora orqali badiiy tasvirni kuchaytirish, ifodalilikni oshirish kabi maqsadlar amalga oshiriladi.

- Metonimiya: bir tushunchani uning bilan bog'liq bo'lgan boshqa tushuncha bilan almashtirish. Masalan, "Toshkent kabi shaharlar rivojlanmoqda", deb aytishda Toshkent o'rniga uning xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan "shaharlar" so'zi ishlatilgan. Metonimiya badiiy nutqni boyitish, uning ta'sirchanligi va obrazliligini oshirish uchun keng qo'llanadi. U tafakkur, fikrlash usullarining mantiqiy xususiyatlarini ifodalab, real hayotiy aloqadorliklarni namoyon etadi.

- Sinekdoxa: bir tushunchani uning bir qismi yoki to'plamining bir qismi bilan almashtirish. Masalan, "Uning qalbida to'fon bor edi" deb aytishda qalb butun his-tuyg'ularni ifodalaydi. Sinekdoxa ham metonimiya kabi badiiy ifodalilikni oshirish, fikrni qisqaroq va ta'sirli ifodalash uchun qo'llanadi. U tilning metaforik va obrazli xususiyatlarini namoyon etadi.

- Personifikatsiya: Jonsiz narsalarga jon berish. Masalan, "Shamol shivirladi" yoki "Daraxtlar qichqirdi", deb aytishda shamol va daraxtlar jonli mavjudotlardek tasvirlangan[3]. Personifikatsiya badiiy adabiyotda keng qo'llaniladi. U tasvirni yanada jonli va ifodali qilish, abstrakt tushunchalar yoki jonsiz narsa-hodisalarga hayot berish uchun xizmat qiladi. Personifikatsiya orqali badiiy obrazlar yaratiladi, asarning ta'sirchanligini oshirish mumkin.

Media diskursda ko'chimning roli:

- Ta'sirchanlik: ko'chim xabarni ta'sirli qilishga yordam beradi, chunki u xabarni ijodiyroq va esda qolishliroq qiladi. Ko'chimlarning asosiy vazifalaridan biri xabarni kuchli va ta'sirli qilishdir. Chunki ular real voqelikning yangi, g'ayritabiiy, ko'p qirrali obrazlarini yaratish orqali odamlarning diqqatini tortadi, xotiraga mustahkam o'rnatadi.

Odatiy, to'g'ridan-to'g'ri ifodalangan tushunchalar o'rniga ko'chimlardan foydalanish xabarni yanada ta'sirchan, hayotiy va yorqin qiladi. Bu esa matnning esda qolishiga, unga emosional kuchlanish kiritishga xizmat qiladi. Shuning uchun ko'chimlar badiiy, publitsistik va elokvent nutqning muhim vositasi hisoblanadi. Ular muloqotni mazmunli va ijodiy qilish, adresatning xabarni chuqur idrok etishi va esda saqlab qolishiga yordam beradi.

- Ijodiylik: ko'chim tilning imkoniyatlarini kengaytiradi va xabarni ko'proq ijodiy qilishga yordam beradi. Ko'chimlardan foydalanish quyidagi yo'llar bilan xabarning ijodiyligiga xizmat qiladi: yangi, nostandart obrazlar yaratish. Ko'chimlar real narsalarni yangicha, nostandart tarzda tasvirlashga imkon beradi.

Tasvirni yanada jonli va tasviriy qilish. Personifikatsiya, sinekdoxa kabi ko'chimlar predmetlar, hodisalarni jonli mavjudotlar sifatida gavdalantirish orqali tasvirni yanada jonli qiladi.

Mavhum tushunchalarni ifodalashda yangi yo'llar topish. Ko'chimlar orqali abstrakt tushunchalar yangi, ko'rglanar obrazlar orqali ifodalanadi.

Xabarni yanada ko'chma, obrazli qilish. Ko'chimlar tufayli xabar oddiy ifodalashdan chiqib, ko'chma, yangicha ifoda kasb etadi. Shu tarzda ko'chimlar tilning ijodiy va badiiy imkoniyatlarini oshirib, nutqni yanada ta'sirli, esda qoluvchi va badiiy qilishga xizmat qiladi.

- Esda qolish: Ko'chim xabarni esda qolishga yordam beradi, chunki u xabarni o'ziga xos va ijodiy qilishga yordam beradi[4].

Ko'chim media diskursda turli xildagi xabarlarni ta'sirli qilish uchun ishlatiladi:

- Yangiliklar: "To'fon shaharni surib ketdi" deb aytish o'rniga "To'fon shaharni yutib yubordi" deb aytish ko'proq ta'sirli bo'ladi.

- Reklamalar: "Bu mahsulot sizni xursand qiladi" deb aytish o'rniga "Bu mahsulot sizning hayotingizni yorqinroq qiladi" deb aytish ko'proq ijodiy bo'ladi.

- Film va seriallardagi dialoglar: "Men juda xursandman" deb aytish o'rniga "Men uchib ketayotgandek xursandman" deb aytish ko'proq esda qolishli bo'ladi.

Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ko'chim media diskursda muhim rol o'ynaydi, xabarni ta'sirliroq, ijodiyroq va esda qolishliroq qilishga yordam beradi.

- Ko'chimning turlari: media diskursda metafora, metonimiya, sinekdoxa va personifikatsiya kabi ko'chimning turli xillari keng qo'llaniladi.

- Ko'chimning ta'siri: ko'chim xabarga hissiy rang berish, ijodiylik va esda qolishni oshirish,

TAMADDUN NURI

ma’lum g‘oyalarni himoya qilish yoki tanqid qilish kabi turli maqsadlarga xizmat qiladi.

- Media diskursda ko‘chimning roli: media diskursda ko‘chim xabarni ijodiyroq va esda qolishliroq qilishga yordam beradi[2].

NATIJALAR. Ushbu tadqiqot media diskursda ko‘chimning roli va uning ahamiyatini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Shuningdek, media xabarlarni tanqidiy ravishda tahlil qilishga, tilning ijodkorlik quvvati haqida chuqurroq tushuncha olishga yordam beradi.

Kelajakdagi tadqiqotlar:

- Media diskursda ko‘chimning turli xillari qanday ishlatilishi haqida chuqurroq tahlil qilish.

- Ko‘chimning tomoshabinlarga ta’siri haqida o‘rganish.

- Ko‘chimning siyosiy va ijtimoiy kontekstdagi rolini tadqiq qilish[5].

XULOSA. Media diskursda ko‘chim tilning muhim vositasi ekanligini tushunish muhimdir. U orqali xabarlarni ijodiy, ta’sirli va esda qolishli qilish mumkin. Metafora, metonimiya, sinekdoxa va personifikatsiya kabi turli xil ko‘chim turlari media diskursda keng qo‘llaniladi.

Ushbu tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, ko‘chim media diskursda xabarni boyitish, hissiy ta’sirni kuchaytirish va tomoshabinlar diqqatini jalb qilish kabi vazifalarni bajaradi.

Shuningdek, media xabarlarni tanqidiy ravishda tahlil qilish uchun ko‘chim haqida ma’lumot olish muhimdir. Bu xabarlar ortidagi g‘oyalar, manfaatalar va strategiyalarni tushunishga yordam beradi. Media diskursda ko‘chimning roli haqida chuqurroq tushuncha olish bizga tilning ijodkorlik quvvati haqida ko‘proq ma’lumot olishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Roman Jakobson. Til to‘g‘risidagi asoslar. (1960).
2. Norman Fairclough. Til va power. (1989). Teun van Dijk. Ideologiya va diskurs. (1998).
3. Norman Fairclough. Til va power. (1989).
4. George Lakoff. Metaforalarni tushunish. (1980).
5. Галперин И.З. Стилистика английского языка. – Москва, Высшая школа, 1981.
6. Ортега-и-Гассет. Две великие метафоры. - Москва: Прогресс, 1990.
7. Лакофф Г., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живём. – Москва: URSS, 2004.
8. kochimlar — Яндекс: нашлось 264 результата (yandex.ru).

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 1751

KOMIL XORAZMIY SHE'RIYATIDA ONOMASTIK BIRLIKLAR LINGVOPOETIKASI XUSUSIDA

Yuldashev Elyor, UrDU mustaqil izlanuvchisi

К ЛИНГВОПОЭТИКЕ ОНОМАСТИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В ПОЭЗИИ КОМИЛ ХОРАЗМИ

Юлдашев Элёр, независимый научный исследователь УрГУ

ON THE LINGUOPOETICS OF ONOMASTIC UNITS IN POETRY OF KAMIL KHOREZMI

Yuldashev Elyor, independent researcher of UrSU

yuldashevelyor@urgiu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada Komil Xorazmiy ijodida qo'llangan onomastik birliklarning lingvopoetik imkoniyatlari, badiiyati va ularning matn badiiy-estetik butunligini ta'minlashdagi o'rnini aniqlash xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Komil Xorazmiy, poetik onomastika, lingvopoetika, pretsedent birlik, nominativ vazifa, emotsional-ekspressivlik, antropoetonim, allyuziv nom.

Abstract: This article deals with the linguopoetic possibilities, artistry of the onomastic units used in the works of Komil Khorazmi and their place in ensuring the artistic-aesthetic integrity of the text.

Key words: Kamil Khorezmi, poetic onomastics, linguopoetics, precedent unit, nominative function, emotional-expressiveness, anthropoethonym, allusive name.

Аннотация: В данной статье рассматриваются лингвопоэтические возможности, художественность ономастических единиц, используемых в произведениях Комила Хорезми, и их место в обеспечении художественно-эстетической целостности текста.

Ключевые слова: Комил Хоразми, поэтическая ономастика, лингвопоэтика, прецедентная единица, номинативная функция, эмоционально-выразительность, антропоэтоним, аллюзивное имя.

KIRISH. Bugungi kunda jahon tilshunosligida ham, o'zbek tilshunosligida ham antroposentrik paradigma asosida onomastik tizimga yangicha yondashuv paydo bo'lmoqda. Badiiy asarlardagi onomastik birliklarning emotsional-ekspressiv o'ziga xosliklari dastlab "onomapoetika" termini ostida o'rganilgan bo'lib, bu yo'nalishdagi dastlabki izlanishlar V.N.Mixaylov, E.B.Magazanik, L.I.Kolokolova, S.I.Zinin kabi rus tilshunoslarining 1950–1970-yillardagi ilmiy tadqiqotlari bilan bog'liq [13,9,8]. Ushbu ishlarda ko'tarilgan masalalar XX asrning 90-yillaridan "poetik onomastika" termini ostida o'rganila boshlandi. Jumladan, V.M.Kalinkinning doktorlik dissertatsiyasi[7] poetonimlar tadqiqiga oid bugungi aksariyat tadqiqotlarga nazariy manba vazifasini o'tamoqda.

O'zbek tilshunosligidagi badiiy matnda qo'llangan til birliklarining lingvopoetik xususiyatlarini tadqiq va tahlil qilishga doir

tadqiqotlar bevosita N.Mahmudov, I.Mirzayev, M.Yo‘ldoshev, D.Xudoyberganova, D.Andaniyazova kabi olim-olimalar nomi bilan bog‘liq [10,11,12,6,16,5]. Ammo, mumtoz adiblarimiz durdona asarlarida qo‘llangan onomastik birliklarning lingvopoetik tahlil tamoyillari asosida maxsus tadqiqi yuzasidan hali deyarli ish qilinmaganligi ham ayni haqiqat. Mumtoz ijodkorlar asarlarida qo‘llangan har bir poetonim muallifning aqliy salohiyati, badiiy tafakkuri, madaniyatini rivojlantirishdagi hissasini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Komil Xorazmiy devonidagi onomastik birliklarning lingvopoetik tadqiqi haqida ham shu fikrni aytishimiz mumkin. Holbuki, ushbu shoir ijodida onomastik metafora, allyuziv nom, “so‘zlovchi” nom kabi lingvopoetik vazifalarda kelgan antroponim, toponim, umuman, onomalar yetarlicha topiladi.

METODOLOGIYA. Har qanday badiiy matnda ishlatilgan onomalar o‘sha asar muallifi bo‘lgan yozuvchi yoki shoirning til lug‘at boyligining tarkibiy qismi sanaluvchi nomlardan biror maqsadni ko‘zlagan holda, samarali va o‘rinli foydalanish qobiliyatini, o‘ziga xos individual uslubini hamda ana shu onomalarlar bilan bog‘liq diniy, tarixiy, etnografik va umuman, ensiklopedik bilimlari darajasini baholashda muhim hisoblanuvchi omillardan biri sifatida qaraladi. Xususan, “badiiy matnning onomastik ko‘lami masalasi bevosita onomastik birliklarning lingvopoetik tadqiqi bilan bog‘liq hodisadir. Bunda badiiy matndagi antroponim, toponim, zoonim, biblionim kabi onomastik birliklar jamligining asar g‘oyaviy-badiiy yaxlitligiga ta’sir qilishi barobarida, matn butunligiga ham birdek xizmat qilishiga diqqat qilinadi. Qolaversa, badiiy matndagi onomastik birliklar matn ko‘lamini, mazmun va uslubini shakllantiruvchi muhim vosita hisoblanadi [5,39]”. Lekin shuni unutmaslik kerakki, badiiy matndagi har qanday onomastik birlik onomapoetikaning o‘rganish obyekti bo‘lavermaydi, ya’ni lingvopoetik tahlil jarayonida poetik aktuallashgan – poetik mazmun bilan to‘yintirilgan, badiiy-estetik ifoda nuqtayi nazaridan xarakterli bo‘lgan va muallif tomonidan maqsadli qo‘llangan onomastik birliklargina onomapoetik tadqiq obyekti bo‘la oladi. Badiiy matndagi bunday birliklar antropoetonim, topopoetonim, zoopoetonim va shu kabi terminlar bilan ifodalanadi [7,14].

Ma’lumki, onomalar uzoq yillik tarixiy jarayon sifatida inson faoliyati, uning tadrijiy taraqqiyoti ko‘zgusi hamda jamiyat haqida yetarli darajada tasavvur bera olish quvvatiga ega bo‘lib, jamiyat hayotining turli qirralarini aks ettiruvchi o‘ziga xos tizim hisoblanadi. Ayniqsa, antroponim va toponimlar nihoyatda rang-barang bo‘lib, ular millat tafakkurining, muayyan xalq turmush tarzining, turli xil orzu va istaklarining tarjimoni sanaladi. Ya’ni antroponim va toponimlar shaxs va biror hududni nomlash, boshqalaridan farqlash vazifasidan tashqari ism sohibi va nominator(lar)ga munosabatni ham o‘zida aks ettiradi. Ularning badiiy matndagi vazifasi faqatgina nomlash emas, balki ijodkorning “yashirin” yoki “oshkora” badiiy maqsadlarini ifodalashdir. Aytish mumkinki, nasriy yoki nazmiy asarlardagi “nomning tilsimini ochish, ma’nolarini belgilab berish katta amaliy ahamiyatga ega [15,286]”. Onomastik birliklarga lingvopoetik yondashuv esa ijodkor maqsadli qo‘llagan onomalarning matn (asar) badiiy-estetik butunligini ta’minlashdagi o‘rnini aniqlash uchun xizmat qilishi lozim.

NATIJALAR. Komil Xorazmiy nazmida real, tarixiy va mifologik antroponimlardan badiiy maqsadda foydalanish holati ko‘p kuzatiladi. Bunday nomlar orqali, asosan, intertekstuallik yuzaga keladi. Jumladan, shoir nazmining onomastik ko‘lamidan o‘rin olgan poetonimlar Qur’on, hadislarda tilga olingan payg‘ambarlar, sahobalar, pirlar – diniy ahamiyatga molik shaxslar hayoti, karomati-yu faoliyatiga; xalq og‘zaki ijodida ko‘p uchrovchi qahramonlar taqdiriga, qolaversa, Sharq mumtoz adabiyoti (“Shohnoma”, “Qobusnoma”, “Guliston”, “Bo‘ston”, “Xamsa” kabi), madaniyati va tarixiga oid faktlarga ishora qilib, g‘azallarning mazmun jihatidan to‘laqonli, badiiyat jihatidan yuksak bo‘lishini ta’minlagan. Jumladan, shoirning birgina G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyotida 1975-yil nashr qilingan “Devon”ida 100 dan ortiq onomastik birlik qo‘llangan. Albatta, muayyan bir devonda qo‘llangan nomlar miqdori hal qiluvchi ahamiyatga ega emas. Muhimi shundaki, devonning turli janrlarida badiiy matnning asosiy qatlami bilan uyg‘unlik hosil qilgan, uning ajralmas unsuriga aylangan onomastik birliklar miqdoridir. “Devon”da qo‘llangan nomlar turli g‘oyaviy-badiiy vazifalarda kelib, onomastik birliklarning o‘ziga xos “rangli tizim”ini tashkil qilgan. Bu o‘rinda poetonim darajasiga ko‘tarilgan, ya’ni badiiy niyatni yoritishga xizmat qilgan onomastik birliklar sifatida Masih

TAMADDUN NURI

(Masiho), Halil kabi laqablarni; Iskandar, Sulaymon, Farhod, Layli kabi o‘nlagan antroponimlarni; Xo‘tan, Adan, Yaman, Makka, Zamzam, Xivoq kabi ko‘plab toponimlarni; Birjis, Bahrom, Zuhra kabi kosmonimlarni, Buroq zoonimini misol qilish mumkin.

Bunday poetonimlar ayrim ilmiy manbalarda “pretsedent birliklar” termini bilan izohlangan. Jumladan, D.Xudoyberganova bunday birliklarni “Muayyan til egalariga yaxshi tanish bo‘lgan va ularning lisoniy xotirasida saqlanadigan, nutqiy faoliyatda qayta-qayta murojaat qilinadigan shaxs nomlari, barqaror so‘z birikmalari, jumlalar hamda matnlar” sifatida ta’riflab, ushbu termin birinchi marta Y.N.Karaulov tomonidan tilshunoslikda qo‘llanganini qayd qiladi [16,87], shu bilan birga, bunday birliklar ichida “pretsedent nomlar”ning alohida o‘rin tutishini va ular ijodkor badiiy niyatini yoritishda muhim vosita bo‘la olishini ta’kidlaydi.

MUHOKAMA. Komil Xorazmiy devonidagi badiiy tasvirning asosiy vositalaridan biri bo‘lgan poetonimlarning o‘rni va xususiyatlarini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Ma’lumki, adabiy matnlarda, xususan, nazmiy asarlarda boshqa so‘zlar kabi poetonimlar ham ekspressiv-uslubiy funksiyani bajarib keladi. Shu tufayli ularning badiiy adabiyotdagi lingvopoetik xususiyatini o‘rganish alohida nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Aytish mumkinki, har qanday asardagi poetonimlarning lingvopoetik xususiyatini o‘rganmasdan turib, asarning asl qiymatini va ahamiyatini belgilab bo‘lmaydi.

Komil Xorazmiy devonida poetonimlarning turli ko‘rinishlari – teopoetonimlar (Allog, Ezid kabi), antropoetonimlar (Iso, Sulaymon, Layli, Komil kabi), topopoetonimlar (Ka’ba, Xo‘tan, Adan, Jayhun kabi), mifopoetonimlar (Axraman, Jamshud kabi), fitopoetonimlar (Tubi – Tubo kabi), zoopoetonimlar (Buroq, Anqo kabi), kosmopoetonimlar (Bahrom, Birjis, Zuhra, Mezon burji kabi), hatto xronopoetonlar (Qizilboshlar kabi), shuningdek, geneologik jihatdan sof turkiy, arabiy, forsiy, qadimgi yunoncha, qadimgi yahudiycha apellyativlarga asoslanuvchi poetonimlar; tuzilishiga ko‘ra sodda va qo‘shma (murakkab) poetonimlar; semantik xususiyatlariga ko‘ra diniy, badiiy va real poetonimlar; uslubiy xoslanishiga ko‘ra nominativ vazifada kelgan va qo‘shimcha ma’no, ya’ni emotsional-ekspressiv ma’no yaratgan poetonimlar uchraydi.

Ma’lumki, badiiy asarda, xususan she’riy asarda qo‘llanilgan barcha so‘z o‘ziga xos tasviriy vosita hisoblanadi. Ammo, bu birliklarning semantik va uslubiy ma’no ifodalash darajasi har xil bo‘ladi: neytral ekspressiv-emotsional ma’no va qo‘shimcha ma’no.

Komil devonidagi antroponimlarni lingvopoetik xususiyatiga ko‘ra ikki guruhga ajratish mumkin: 1) nominativ vazifada keluvchi antroponimlar; 2) ma’lum bir kontekstda o‘ziga xos qo‘shimcha ma’noni, ekspressiv-emotsional ma’noni yaratuvchi antroponimlar.

Devonda nominativ vazifada qo‘llanilib, o‘ziga xos vazifani bajaruvchi antroponimlar talaygina. Masalan: **Falotun (Aflotun), Luqmon, Nishotiy, Mutrib, Rojiy** va boshqalar. Lekin ko‘pchilik antroponimlar har bir matnda o‘ziga xos uslubiy ma’noni ifodalab keladi. Jumladan, diniy va an’anaviy antroponimlarning ko‘pchiligi kontekstda alohida va o‘ziga xos ma’noni ifodalab keladi. Bu qo‘shimcha ma’no antroponimning nominativ vazifasida sezilmaydi, bayt mazmuniga chuqur e’tibor berilsagina uning mohiyati namoyon bo‘ladi. Bu holat shoirning so‘z qo‘llashdagi mahoratiga bog‘liq holda yuzaga keladi, albatta. Ba’zi bir antroponimlar devonda bir qancha lingvopoetik (uslubiy) ma’noni ifodalaydi. Ushbu ma’no ma’lum matnga tegishli bo‘lib, ismning lug‘aviy ma’nosidan o‘zaro farqlanadi va qahramonning obrazini, xususiyatini, xarakterini, ko‘rinishini ifodali tasvirlashga yordam beradi. Masalan: **Xizr, Farhod, Jamshid (Jam)** kabilar.

Komil Xorazmiy nazmida Sharqning mashhur “Xamsa” dostonlaridagi **Shirin, Layli, Farhod, Majnun, Dilorom, Bahrom, Xusrav** kabi qahramonlarning nomlari birinchi navbatda, allyuziv nom sifatida qo‘llanilib, dostonlardagi ma’lum bir syujetlarga yoki ularning ishq-muhabbatiga ishora qilib, hosil bo‘lgan intertekstuallik vositasida badiiy mazmun serqatlamligi, qabariqligi ta’minlagan. Ikkinchi tomondan, bu poetonimlar ideal oshiq-ma’shuqlik etaloni sifatida onomastik metaforani hosil qilishga xizmat qilgan. Quyidagi baytlarda ana shu holatlar kuzatiladi:

Men ne sifat tark aylay ul Shirin shamoyil ishqini,

G‘am Besutunin qozg‘oli ko‘nglumni Farhod aylamish… [18.78]

Shirin-u Layli vasfidin hargiz dam urmaslar edi,

Ko‘rsa xirom aylar chog‘i Farhodi shaydo qomating… [18, 107]

Ba’zan bu poetonimlar qatoriga “Yusuf va Zulayho”, “Vomiq va Uzro” dostonlarining qahramonlari – **Yusuf, Zulayho, Vomiq, Uzro**lar ham qo‘shilib, baytdagi mazmun qabariqligi va emotsionalligi yanada oshirilgan:

Shirin ila Layli sanga Farhod ila Majnun,

Uzro-u Zulayho sango qurboni malohat… [18, 32]

Necha Shirin-u Layli kokiling ag‘lolig‘a mag‘lul,

Zanaxdoning chahi ichra base Yusuf erur masjun[18, 137].

Uchinchi tomondan, ushbu poetonimlar o‘xshatish etaloni sifatida qo‘llanilib, o‘xshatish asosidan anglashilgan ma’noni bo‘rttirib ta’kidlashga xizmat qilgan. Bunda bu poetonimlar Laylivash, go‘yo Majnun, Shirinsifat, Zulayhodek, Uzro kibi, Yusufoso kabi ko‘rinishlarda qo‘llangan.

Demak, bu antroponimlarning mumtoz adabiyotda poetonim sifatida shakllanishi va allyuziv nom, onomastik metafora, o‘xshatish etaloni kabi lingvopoetik vazifalarda qo‘llanishi bevosita “Xamsa”chilik an’analari bilan bog‘liq. Masalan, **Farhoh** ismi ham Komil Xorazmiy ijodida “ishqdan devona, jinni bo‘lgan oshiq”, “muhabbat qissasining qahramoni”, “tog‘ qazuvchi” kabi o‘ziga xos uslubiy-lingvopoetik ma’nolarni ifodalab kelgan:

Topdi ne Farhod oning Shirin labidin choshne,

Yotti ul Layli nechuk Majnun dil afgor ila… [18, 50] kabi.

Layli “ilohiyat mahzari”, “bemisl go‘zallik sohibasi”, Majnunning vafodor ma’shuqasi”, “ishq dardida o‘rtangan lirik qahramon uchun o‘xshatish etimoni” kabi lingvopoetik imkoniyatlar vositasi bo‘lib kelgan:

Sud yo‘q ishq-u junun daf’ig‘a tafvizning.

Toqmasa laylivashim bo‘ynumg‘a tumori hadis… [18, 37]

Komil Xorazmiy g‘azallaridagi **Vomiq, Uzro** poetonimlari shakllanishi Unsuriyning mashhur “Vomiq va Uzro” dostoniga yoki shu nomdagi Xorazm xalq dostoniga bog‘lanadi. Mumtoz adabiyotda **Vomiq** – sadoqatli oshiq, **Uzro** – go‘zal mahbubaning timsoli sifatida qo‘llaniladi. Bu nomlar ham, odatda, **Farhod, Shirin, Layli, Majnun** kabi poetonimlar bilan bir qatorda kelib, metoforik ma’noda “sadoqatli oshq-ma’shuqalar” timsoli sifatida mumtoz asarlarda allyuziv nom sifatida faol qatnashadi:

Bo‘lur hasratda oning makridin Farhod ila Shirin,

Jahondin bordilar yuz ming g‘am ila Vomiq-u Uzro… [18.184]

Yuqoridagi fikrlarni quyidagi misollardagi poetonimlar tahlili ham dalillaydi:

Meni ishq dashtida Majnun qilan,

Nek-u nomlardur, nek-u nomlar…[18,200] – mumtoz Sharq badiiy tafakkurida “ideal oshiq” timsoli **Majnun** qiyofasida tajassum etgan. Ishq-muhabbat mavzulariga bag‘ishlangan she’rlarda **Majnun** ismi eng ko‘p kuzatiladigan antroponimlardan hisoblanadi. Komil ijodida ham bu poetonim goh Farhod va Vomiq bilan birgalikda intertekstuallik yaratuvchi vosita, goh o‘xshatish va qiyos etimoni, goh “ishq yo‘lida o‘zini unutgan, telba oshiq yigit” ma’nosidagi metaforik allyuziv nom sifatida qo‘llaniladi:

Domi muhabbatingg‘a to poybast bo‘ldum,

Layli yo‘lida go‘yo Majnuni mast bo‘ldum, … [18, 175].

Eyki bir Layli g‘ami ko‘nglingda tutmishdur qaror,

Fosh etib bo‘lma oni devona-u Majnun shior… [18, 204].

Shuningdek, **Layli** va **Majnun** nomlari she’riy matnlarda o‘xshatish etaloni vazifasida kelib, badiiy mazmun ekspressivligi, ta’sirchanligi uchun xizmat qilgan. Jumladan, ishqiy mavzudagi she’rlarda bu antropoetonimlar nomlari ta’riflanayotgan sevgining behad teranligini yoritishda lingvopoetik vosita bo‘lgan. Bunda o‘zbek lingvomadaniyatida bu poetonimlarning ideal oshiqlik etaloni sifatida qabul qilinganligi ham muayyan ahamiyatga ega:

Ishqing ichra Majnundek subh-u shom, ey Layli,

Yig‘lag‘uchi holimg‘a borcha shayx-u shob o‘lmish… [18, 79]

Shoir ayrim baytda **Shirin** va **Xusrav** allyuziv nomlar – poetonimlardan o‘xshatish etimoni sifatida foydalanib, badiiylikni oshirishga va shu bilan birga, intertekstuallik (“Xusrav va Shirin” dostonidagi bir epizodga ishora) orqali mazmun qabariqligiga erishgan:

Yuz karashma bila g‘amxorlig‘ aylar erdi,

Misli Shirin, ki qilur Xisravi solor ila bazm… [18, 206]

Komil Xorazmiy nazmida diniy poetonimlar salmog‘i ham anchagina:

Luqmon – qadimgi Eronning kayyoniylar sulolasiga mansub shoh Kayqubod davrida yashab o‘tgan, Sharq xalqlari orasida buyuk hakim sifatida

TAMADDUN NURI

mashhur bo‘lib, Qur’oni karimda ham donishmand sifatida tilga olingan. “Qisasi Rabg‘uziy”da keltirilishicha, Luqmon Dovud alayhissalom davrida yashagan habashiy bir qul edi. Uning ming, hatto 1600 yil yashagani naql qilinadi. U Ollohdan o‘ziga uzoq umr so‘raganida Olloh taolo unga yetti burgutning umrini bag‘ishlagan ekan. Alloh taolo Luqmondan: “Payg‘ambarlik beraymi yoki hikmat?” – deb so‘raganida u hikmatni tanlagan, shunda Alloh taolo hikmatni ato etgan ekanki, barcha payg‘ambarlar ham uning nasihatlariga muhtoj bo‘lgan ekanlar [17, 74]. Quyidagi baytdagi **Luqmon, Aflotun** poetonimlaridan maqsad haqiqiy ishq dardining ilojini (shifosini) eng kuchli hakimlar ham, eng buyuk ahli donishlar ham bilmasligini hissiy-ta’siriy bo‘rttirib kuchaytirishdir:

Xirad ishqingda bo‘ldi ul sifat devonai majnun,

Ki bilmaslar ilojin emdi yuz Luqmon, ming Aflotun… [18, 137]

Har nabzi noshunos muqallidning ilgidin,

Qutqor berib bu xastag‘a Luqmon bashoratin... [18,132]

Shoirning quyidagi baytida esa Luqmoni hakim, ya’ni kayoniy shoh Kayqubod davrida yashab o‘tgan mashhur tabib va donishmand hakimlik-donishmandlik etimoni sifatida allyuziv nom tariqasida “oshiq dardiga malham bo‘luvchi ma’shuqa”ga ishora qilish orqali emotsional-ekspressivlikni oshirgan:

Ne til birla qilay holi dilim arz etgali jur’at,

Shahi donishpanohim, ilmi hikmat ichra Luqmonim… [18, 172]

Masih \\ Masiho antroponimlari “G‘iyos ul-lug‘at”da keltirilishicha, “do‘st va ko‘p sayr qiluvchi” ma’nosini bildiradi. Chunki u zot Haqning do‘sti bo‘lgan va yolg‘izligi uchun yer yuzini ko‘p kezgan. Shu ikki ma’nosi bilan Iso alayhissalomning laqabiga aylangan. Iso a.s.ni anglatib, uning ismi oldidan qo‘yiladi yoki alohida qo‘llanadi [14,260]. Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida yozishicha: “ul o‘likkim, Iso a.s. tirguzdi, Inb ul-A’juz erdi. Va sharhi budurkim, sayr asnosida bir ajuzani ko‘rdikim, bir qabr boshida muassir navha qiladur. Kayfiyatin so‘rdi. Dedikim, o‘g‘lum erdi va firoqidin betoqatmen. Iso a.s. duo qilib, Tengri taolo ul mayyitqa ruh kiyurdi va o‘luk tirilgach, iltimos qildikim, duo qilg‘ayki, burung‘i holig‘a borg‘ay va mavt saqaroti bo‘lmag‘ay. Ruhulloh duosi bila bu ish ham bo‘ldi...” [3, 590-591] U xalq talabiga ko‘ra o‘lganiga 4 ming yil bo‘lgan Som ibn Nuhni ham tiriltiradi. Balchiqdan ko‘rshapalak yasab, nafasi bilan unga jon ato etadi. Demak, Iso nafasi, Iso dami, Masih anfosi kabi iboralar shu bilan bog‘liq. Bu poetonim Komil Xorazmiyda ham, xuddi mumtoz adabiyot namunalaridagidek, ma’shuqaning “tiriltiruvchi” la’li (labi), kalomi, dami (nafasi) sifatida ba’zan intertekstuallik – talmeh (Jon berur o‘lg‘on badanlarga Masih anfosi, Zohir etsa la’li ruhafsozidin e’jozlar… [18, 58]), ba’zan sifatlash (Yo‘q, g‘amim ishq ichra o‘lmoqdin nechunkim yorg‘a – Qilg‘usi hardam Masiho mo‘jizin izhor til… [18, 204]), ba’zan metafora (Chu bergung non ila osh, ey Masih, sidq ahlig‘a bergil! Nifoq-u naxvat ahli non ila oshingdin aylansun… [18,191]), ba’zan o‘xshatish etimoni (Bo‘l tajarrudpesha, qat’ aylab taalluq rishtasin, Gar chiqay desang Masihodek samuvot ustina... [18,151], Hayoti toza topsam tong emas fayzi qudumidin, Boshim uzra Masiho yonglig‘ ul mo‘jizbayon keldi… [18,159]) tarzida satrlarga go‘zal badiiylik olib kiradi va lirik qahramon xarakterini bir lahzada tavsiflashga erishadi. Ushbu antropoetonim bilan shakllangan bunday baytlarni “Devon”ning o‘nlagan o‘rnida uchratish mumkin.

Qorun – Muso payg‘ambar zamonida yashagan shaxs, bu ism Qur’oni karimda 4 marta (“Qasas” – 76,79; “Ankabut” – 39; “Mu’minun” – 24) tilga olingan [2,200]. Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo”sida keltirilishicha, Bani Isroil qavmining donishmandlaridan hamda Muso alayhissalomning amakivachchasi bo‘lgan, takabburligi va xasisligi bilan nom chiqargan shaxs [4, 216]. Aysu Ata izohicha, “Firavin’in naziri ve Musa peygamberin teyzesinin og‘lu [1, 791]”. Mumtoz nazmda, xususan, Komil g‘azallarida ham bu poetonim “juda ham boy, ammo baxil podsho” timsoli sifatida “ganj, maxzan” kabi ishora birliklari bilan qo‘llanadi, yuqoridagi misollarda ham intertekstuallik va o‘xshatish etaloni sifatida ishtirok etgan hamda “bu dunyo boyligi arzimas narsa va har qancha boy bo‘lsang ham, behuda shodlanma, havolanma”, degan fikrni kuchaytirish, emotsionalligini oshirish uchun ishlatilgan:

Javhari jon ul mato‘ ermaski sotg‘un olg‘osen,

Ne osig‘ gar hosil etsang ganji Qorun, ey ko‘ngul… [18, 120].

Shodlig‘ ko‘rguzmagil Qorundek o‘lsa maxzaning,

Bo‘lma g‘amgin faqr ko‘yi ichra bo‘lsa ma’maning… [18, 207]

5. XULOSA. Xulosa sifatida aytish mumkinki, ushbu qaydlar Komil Xorazmiy yashagan davrning til xususiyatlarini sharhlashda poetonimlarning ham o‘ziga xos ahamiyati borligini dalillay oladi. Har bir poetonim badiiy matn tarkibida emotsional-ekspressivlilikni oshiradi. Shunisi aniqki, shoir she‘riyatida qo‘llangan poetonimlar shunchaki ishlatilmagan, ular shoirning til lug‘at boyligining tarkibiy qismi sanaluvchi nomlardan muayyan maqsadni ko‘zlagan holda, samarali va o‘rinli foydalanish qobiliyatini, o‘ziga xos individual uslubini hamda ana shu onomalar bilan bog‘liq tarixiy, adabiy, diniy, etnografik va umuman, ensiklopedik bilimlari darajasini baholashda muhim hisoblanuvchi omillardan biridir. Bu vositalar Komil Xorazmiy nazmining musiqiy ohangdorligi, ta’sirchanligi, nutqiy ravonligi, jarangdorligi va umuman, badiiy qimmatining yanada oshishini ta’minlagan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Aysu Ata. Kisasu’l enbiya. – Ankara, 1997.
2. Alisher Navoiy. Qomusiy lug‘at. Ikkinchi jild. – Toshkent: Sharq, 2016.
3. Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис \\ Тўла асарлар тўплами, 8-жилд.
4. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. XV том. – Тошкент, 1999.
5. Анданиязова. Д. Бадиий матнда ономастик бирликлар лингвопоэтикаси: Филол. фан. фалсафа док. (PhD) ...дисс. – Т, 2017.
6. Йўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2009.
7. Калинкин В.М. Теоретические основы поэтической ономастики: Автореф. дисс. докт. филол. наук. – Киев, 2000.
8. Колоколова Л.И. Ономастика в художественной речи А.П.Чехова: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Киев, 1970.
9. Магазаник Э.Б. Поэтика имен собственных в русской классической литературе: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Самарканд, 1967.
10. Маҳмудов Н. Ойбек шеъриятидаги ўхшатишларнинг лингвопоэтикаси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1985. – № 6.
11. Маҳмудов Н. Шайхзода сўзининг лингвопоэтикасига чизгилар // Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. Илмий-назарий анжуман материаллари. – Тошкент, 2009.
12. Мирзаев И.К. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста: Автореф. дисс. докт. филол. наук. – Ташкент, 1992.
13. Михайлов В.Н. Собственные имена персонажей русской художественной литературы XVIII и первой половины XIX в., их функции и словообразование: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1956.
14. Муҳаммад Ғиёсиддин. Ғиёс ул-луғот. Жилди 2. – Душанбе: Адиб, 1988.
15. Нурмонов А. Танланган асарлар. III жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012.
16. Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013.
17. Қисаси Рабғузий. Иккинчи китоб. Нашрга тайёрловчилар: Э.Фозилов, А.Юнусов, Ҳ.Дадабоев. – Тошкент: Ёзувчи, 1991.
18. Комил. Девон. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 27.07.2024 Chop etildi: 30.08.2024 UDK: 811.92.871

КАШФИЙ ТЕРМИЗИЙНИНГ “МАНОҚИБИ МУРТАЗОВИЙ” АСАРИ ПОЭТИК ХОССАЛАРИ

Алиев Шокир
Термиз давлат университети таянч докторанти

ПОЭТИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ПРОИЗВЕДЕНИЯ КАШФИ ТЕРМИЗИ «МАНОКИБИ МУРТАЗОВИ»

Алиев Шокир
Докторант Термезского государственного университета

POETIC PROPERTIES OF THE WORK OF DISCOVERY TERMIZI “MANOKIBI MURTAZOVI”

Aliev Shokir
Doctoral student of Termez State University

Тел: +998 99 421 32 90
e-mail: shokiraliyev@mail.ru
Orcid: 0009-0006-0720-3873

Аннотация. Ушбу мақолада шоир ва мутафаккир Кашфий Термизийнинг илмий фаолияти борасида фикр-мулоҳазалар келтирилган. Шунингдек, унинг “Маноқиби Муртазавий” асари адабий нуқтаи назардан таҳлил қилинган.
Калит сўзлар: Кашфий Термизий, “Маноқиби Муртазавий”, адабиёт, дин, ақида, шоир.
Аннотация. В данной статье содержатся комментарии к научной деятельности поэта и мыслителя Кашфи Термизи. Также с литературной точки зрения анализируется его произведение «Манокиби Муртазави».
Ключевые слова: Кашфи Термизи, «Манокиби Муртазави», литература, религия, вера, поэт.
Abstract. This article contains comments on the scientific work of the poet and thinker Kashfi Termizi. Also, from a literary point of view, his work “Manokibi Murtazavi” is analyzed.
Key words: Kashfi Termizi, "Manokibi Murtazavi", literature, religion, faith, poet.

КИРИШ (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Муҳаммад Солиҳ Кашфий Термизийнинг ижоди баъзи шоирлардан фарқли ўлароқ кўплаб соҳаларни қамраб олганини таъкидлаш жоиз. Бу борада Кашфийшунос олим Куруший Мансур “Маноқиби Муртазовий" асарининг муқаддима қисмида қуйидагиларни айтиб ўтган. “Юзи нурли, олий даражалар соҳиби, диний ва дунёвий илмларда беназир, каромат ва ғаройиб ишлар билан машҳур эди. Тариқат хирқасини Шоҳ Неъматулоҳ Валийдан олганди. Қодирия тариқатига мурид бўлганди. Бошқа тариқатлардан ҳам санадли устозлар орқали ижоза олганди. Сукр, шавқу завқ ҳолатида “обдор” (мазмуни баланд) ва “дақоиқ” (диққатга сазовор) шеърлар ёзарди”. [3] Бу фикрни Ғулом Сурур ҳам ўзининг “Хазинатул асфиё” асарида келтирганини кўриш мумкин.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОД (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Эътибор берадиган бўлсак, Кашфийнинг ҳаёт тарзи, ижодий фаолияти, индивидуал характери, шеърлари тавсифи ҳақида аниқ маълумотни бериб ўтган. Ижодкорнинг руҳияти ва шахсий хислатлари шеърлари ва ёзган асарларига таъсир кўрсатмай қолиши имконсиз. Дастлаб, Кашфийнинг характери ва ижодий ёндашувини билмасдан унинг асарларига баҳо бериш ва мазмуни ҳақида гапириш илмий этиканинг принципига тўғри келмайди назаримизда. Бинобарин, мутафаккирнинг ҳаёти ва ижодий ёндашувини баён қилганимиздан сўнг Кашфийнинг асарлари

маъно-мазмуни, бадиияти ва услубий хоссаларига тўхталишни жоиз деб топдик. Ушбу мавзуда шоирнинг девонидан ташқари тасаввуф ва бошқа фан соҳалари бўйича ёзилган асарлари ҳақида илмий мулоҳаза юритилади. “Маноқиби Муртазовий” асарининг тили равонлиги, мавзуларнинг тизимли тартиб билан баён этилганлиги, муаллиф ҳар бир фикрини Қуръон оятлари, ҳадиси шариф, олимлар қавли билан шарҳ беришга интилган. Муаллиф асарни наср ва назм услубида ёзиб, кўплаб ўринларда мавзунинг ҳиссий таъсирчанлигини ошириш учун назмдан фойдаланган. Шуни айтиб ўтиш лозимки, Кашфий “Маноқиб” асаридаги асосий маълумотлар “Саҳиҳи Бухори”, “Муснади Абу Довуд”, “Сунан Термизий”, “Аворифул маориф”и Шиҳобуддин Суҳравардий, “Малфузот”и Хожа Абдуллоҳ Ансорий, “Муснади Аҳмад ибн Ҳанбал”, “Саҳиҳи Муслим”, “Мишкотул Масобиҳ”и Валиюддин Табрезий, “Маноқиб”и Хатиб, “Фаслул хитоб”и Хожа Муҳаммад Порсо, “Тафсири Ҳофизий”, “Тафсир”и Али ибн Иброҳим, “Мавоҳиби Алия”и Ҳусайн Воиз Кошифий, “Баҳрул маноқиб”и Мурдавайҳ ва отаси – Мушкин Қалам Васфийдан кўплаб мисоллар келтиради. Бундан келиб чиқадики, мутафаккир “Маноқиб” асарида “дарж”, “иқтибос” санъатидан моҳирона фойдаланиб, шахсий кечинмаларни салафи солиҳ олимларнинг фактлари асосида тўлдиради.

МУҲОКАМА(ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION)

. Атоуллоҳ Ҳусайний фикрича, иқтибос оят ва ҳадисларни тўғридан тўғри, яъни уларнинг оят ва ҳадис эканлигига ишора қилинмаган ҳолда келтириш лозим. Иқтибос икки хил бўлади. 1. Оят ёки ҳадисда айнан келтирилган иқтибос “дарж” дейилади. 2. Агар оят ва ҳадиснинг таржимаси ёки мазмуни келтирилса, бундай иқтибосни Доий Жавод “ҳалл” усули деб атайди [1]. Кашфий адабий меросида ҳар икки усул иқтибоси, яъни дарж ва ҳалл ҳам мавжуд.

Кашфий “Маноқиб” асарида 50 дан ортиқ диний-маърифий, илмий-фалсафий, тарихий ва адабий манбалар орқали ўз фикр мулоҳазаларини бойитади. Энг кўп фойданилган асарлари Жалолиддин Румийнинг “Маснавий маънавий”, “Девони кабир”, Саъдийнинг “Куллиёт”и, Шоҳқосми Анворнинг “Девон”и, Фаридуддин Атторнинг “Куллиёт”и, Саноий Ғазнавийнинг “Ҳадиқатул ҳақиқа” ва “Девон”и, Низомий Ганжавийнинг “Махзанул асрор” достони, Амир Хусрав Деҳлавийнинг “Куллиёт”и каби бир қанча назмий асарлар шоир ижодида фойдаланилган.

Тасаввуф йўналиши бўйича ёзилган Мовароуннаҳрлик мутасаввиф олимларнинг асарларидан Абу Бакр Калободийнниг “ат-Таъарруф ли мазҳабит тасаввуф”, Мустамлий Бухорийнинг Калобдий асарига ёзган “Шарҳи ат-Таъарруф ли мазҳабит тасаввуф” каби тасаввуф назариясининг она асарлари ўрин олган.

Мовароуннаҳрлик муҳаддис олимларнанг асарларидан “Саҳиҳ Бухорий,” “Сунан Термизий”, “Сунани Насоий” ва хуросонликлардан “Сунани ибн Можа”, “Саҳиҳи Муслим”, “Сунани Абу Довуд” каби ноёб манбалардан фойланганини кўриш мумкин.

Шунингдек, отаси Саййид Абдуллоҳ Мушкин қалам Термизийнниг бой меросидан “Маноқиб”да кўплаб мисоллар келтиради. Асарда отасидан қачон иқтибос келтирса “ли волидий” (Отамдан) деб бошлайди:

Баҳсу жадал пеш маёвар ба кас,
Баҳс куни, саҳл шавий ҳамчу хас. [3]

Мазмуни: Ҳеч ким билан баҳс қилиб ҳуда-беҳуда тортишмагин, агар тортишсанг, худди сув устидаги хас-хашак каби қадринг оз бўлиб қолади.

Юқорида биз таъкидлаганимиздек, Кашфий Термизий саййидлар хонадонидан бўлган. Бунинг бир мисоли сифатида Жалолиддин Румий “Маснавий” асарида келган ҳазрат Али билан боғлиқ тарихий воқеани келтирдик. Энди ушбу воқеанинг баёни бошқа Термизий мутасаввифлар асарида борлигини текширганимизда асли Термизлик саййидлардан бўлган мутафаккир, Жалолиддин Румийнинг устози – Саййид Бурҳониддин Термизий “Маориф” асарининг дастлабки фаслларида келтиргани Кашфийнинг ушбу асари нечоғли муҳим манба бўлганидан далолат беради. Саййид Бурҳониддин Термизий ушбу воқеани шундай тасвирлайди:

Ҳазрати Али розияллоҳу анҳу майдонда эди, бир бошқа дин вакили у кишига ҳужум қилди. Али розияллоҳу анҳунинг юзига туфлади, тупукдан унинг муборак юзи тўлди. Шу ҳолда Али розияллоҳу анҳу қиличини ташлади. Ён атрофдаги одамларнинг овози кўтарилди:

“Эй мўминларнинг халифаси! Бу қилич Аллоҳнинг қиличи эмасми? Бу қилич Аллоҳнинг Зулфиқори эмасми? Бу эса Аллоҳнинг душмани эмасми? У гарчи сенга ботиллик ва жаҳл билан ҳамла қилган бўлса ҳам, нега шундай ҳаракат қилдинг? Агар ўзингни ҳимоя қилмаганингда у шундай муомала қилармиди? Сен нега Ҳақ қиличини ерга ташладинг?” – деб айтишардилар. Али розияллоҳу анҳу эса:

– Ҳа, тўғри айтяпсизлар, бу қилич Аллоҳнинг қиличидир. Аллоҳнинг зулфиқоридир. Душман билан жанг қилиш эса Аллоҳнинг амридир, фақат у менинг юзимга тупурганида нафсим жунбишга келди. Аллоҳнинг қиличи нафсим ва жаҳлим билан бирлашди. Шу ҳолда бошқа дин вакили киши бармоғини кўтариб: *“Менга иймонни арза қил”,* – деди ва шу сабаб билан унинг қабиласидан ўн саккиз киши мусулмон бўлишди [4].

Демак бу далил шуни исботлайдики, Термизий саййидлар аҳли байтга бўлган эҳтиром бошқача бўлган. Кашфий эса ҳар бир воқеа китобхонга манзур бўлиши учун бошқа шоирларнинг шеърлари билан бирга ўз ижодидан ҳам намуна келтириб, асарнинг ҳиссий таъсирчанлигни оширади. Ўз ижодий меросидан қачон назмий парча келтирса “ли муаллифиҳи” (муаллифдан) деб бошлайди: Бир айтадики, ким бу каби таснифларни кўп этган бўлса, бу каби асар ёзиш машаққат эмас, - дейди:

Ҳар ки кардаст борҳо тасниф,
Нест душвор пеши таълиф. [3]

Кашфий бу асарни шиаликни тарғиб қилиш, ёки қанақадир нотўғри эътиқодни талқин қилишдан йироқ бўлган, балки салаф шоирлар каби анъанавийликка таяниб, улуғ бир зотни тавсифига бағишлаб, адабий-тарихий, диний мазмундаги асарни таълиф этади.

То жон ба тан аст, роҳи Ҳайдар пўям,
То чашм ба сар, роҳи Ҳайдар жўям. [3]

Мазмуни: Токи жон бор экан, Али (р.а.)нинг йўлига эргашаман, токи кўз бор экан, бу улуғ зотнинг йўлига интиламан.

Кашфий ушбу байт орқали дил изҳорини очиқ ойдин баён этган. Шоир учун аҳли байтни севиш, улуғ бир иш эканлигини асарларида доимо такрорлаб ўтади. “Маноқиби Муртазовий” асари бошқа асарларидан фарқли жиҳати шундаки, бу асар тўлиқ аҳли байт ҳаёти, сийрати, суратига бағишланган тарихий ва адабий асардир.

ХУЛОСА(ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION).

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, Кашфий ушбу асари орқали башариятнинг энг афзали ва акмали бўлмиш – Пайғамбаримиз Муҳаммад (с.а.в.)нинг жияни Али ибн Абу Толиб (р.а.), қизи Фотимаи Заҳро (р.а.), неваралари Ҳасан ва Ҳусайн (р.а.)ларнинг ибратга бой ҳаётини Қуръон карим оятлари, Ҳадиси шариф намуналари, муҳаддислар қавли, мутасаввиф зотлар асарлари ва салаф шоирлар ижоди билан асослантириб, ўзини дил изҳорлари билан биргаликда назму насрда баён этади. Кашфий Термизий ўз асарлари билан нафақат форс шеъриятининг Ҳиндистон адабий мактабига кириб борди, балки ўз илмий салоҳияти ва сўфиёна руҳдаги асарлари орқали Термизий мутасаввиф зотларнинг бой меросини Ҳиндистонгача ёйишди. “Маноқиб Муртазовий” асари гарчи тарихий-диний мазмунда ёзилган бўлса-да, бироқ унинг адабий аҳамияти шундаки, шоир ҳар бир насрий ва назмий баёнларни лафзий ва маънавий санъатлари билан бойитиб, асарнинг таъсирчанлигини ошириш мақсадида жозибали тасвирлардан фойдаланиб, тасаввуфий мотивлардан моҳирона мисол келтиради. “Маноқиби Муртазовий” асари нафақат адабий асар, балки тарихий шахслар маноқибини ёритиб, комил инсон ахлоқни тараннум этувчи, ёшларни ватанпарварлик ва маърифатпарварликка тарғиб этувчи ахлоқий мазмундаги асарлар сирасига киради.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Исҳоқов Ё. Сўз санъатининг санъатлиги. – Т:. “O‘zbekiston”, 2014. – Б. 57-58.
2. Муҳаммад Солиҳ Кашфий Термизий. Девон. Ҳиндистон Девон кутубхонасининг 456 рақамли нусхаси.
3. Муҳаммад Солиҳ Кашфий Термизий. Маноқиби Муртазовий /бо тасҳеҳи Куруши Мансур. – Теҳрон: Интишороти Равзана, 1923.
4. Саййид Бурҳониддин Термизий. Маориф/таржимон, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи К. Жамаҳматов. – Термиз: Китоб нашр, 2024.

Qabul qilindi: 05.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 811.512.133

O‘ZBEK VA QORAQALPOQ ADABIY TILLARIDA UCH KOMPONENTLI SINONIM FRAZEMALAR

Xaytbayev Oybek Allambergenovich, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti assistent o‘qituvchisi

THREE-COMPONENT SYNONYMOUS PHRASES IN UZBEK AND KARAKALPAK LITERARY LANGUAGES

Haitbayev Oybek Allambergenovich, assistant teacher of Nukus State Pedagogical Institute named after Ajinyoz

ТРЕХКОМПОНЕНТНЫЕ СИНОНИМИЧЕСКИЕ ФРАЗЕМЫ В УЗБЕКСКОМ И КАРАКАЛПАКСКОМ ЛИТЕРАТУРНЫХ ЯЗЫКАХ

Хайтбаев Ойбек Алламбергенович, ассистент-преподаватель Нукусского государственного педагогического института имени Ажинияза

https://orcid.org/0009-0000-0875-1552
e-mail:
xaytbayev_oybek@mail.ru

Annotatsiya: *Maqolada hozirgi o‘zbek va qoraqalpoq adabiy tillaridagi uch komponentli sinonim frazemalarning tayanch komponentini fe’l, fe’lning sifatdosh shakli, sifat, ko‘makchi, bog‘lovchi, ot so‘z turkumlari notayanch komponentini boshqa so‘z turkumlari tashkil qilib, ular uch komponentli bo‘lishi nazariy ham amaliy jihatdan misollar asosida isbotlangan.*

Kalit so‘zlar: *sinonim frazemalar, fe’l frazema, tayanch komponent, notayanch komponent, frazeologik sinonimiya, frazema, frazeologizm.*

Abstract: *In the article, the main component of the three-component synonymous phrases in the modern Uzbek and Karakalpak literary languages is the verb, the adjective form of the verb, adjective, auxiliary, conjunction, noun word groups, and the non-basic component is made up of other word groups. Thus, it has been proven theoretically and practically based on examples that they have three components.*

Key words: *synonymous idioms, verb idiom, basic component, non-basic component, phraseological synonymy, idiom, phraseologism.*

Аннотация: *В статье теоретически и практически на примерах обоснованы, что базовым компонентом трехкомпонентных синонимических фразем в современных узбекском и каракалпакском литературных языках составляет слова относящиеся глаголу, особой форме глагола причастию, прилагательному, предлогу, союзу, имени существительному, небазовым компонентом служат слова других частей речи, наличие в них трех компонентов.*

Ключевые слова: *синонимические фраземы, глагольная фразема, базовый компонент, небазовый компонент, фразеологическая синонимия, фразема, фразеологизм.*

KIRISH. Hozirgi o‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi uch komponentli sinonim frazemalarning ko‘pchiligini fe’l frazemalar tashkil qilishi o‘z isbotini topdi. Bunday frazemalar tayanch komponentini fe’llar, notayanch komponentini boshqa so‘z turkumlari tashkil qilib, ular ikki, uch, to‘rt va hokazo komponentli bo‘lishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati”, Q.Paxratdinov, Q.Bekniyazovlarning “Qaraqalpaq tiliniń frazeologizmler sózligi”, G.Aynazarovaning “Qaraqalpaq tilinde teńles eki komponentli frazeologizmler sózligi”, shuningdek, tilshunos olimlarning olib borilgan tadqiqotlariga tayanildi.

Tahlil va natijalar. Ot+ot+fe’l komponentli sinonim frazemalar.

Mazkur tipdagi frazemalarning tayanch komponenti fe’l bilan, notayanch birinchi komponenti ot bilan, ikkinchi komponenti chiqish kelishigida kelgan atoqli ot bilan ifodalanadi.

Ona-(si)-ni uchqo‘rg‘ondan ko‘rsatmoq 1. *kim? kimning?* do‘q qilishni, qo‘rqitishni ifodalaydi (bunda ikkinchi shaxs tuslovchisi va birinchi shaxs egalik qo‘shimchasi bilan kelmaydi). Varianti: **ona-(si)-ni Uchqo‘rg‘ondan ko‘rmoq** *kim? [o‘zining],* **acha-(si)-ni Uchqo‘rg‘ondan ko‘rsatoq; ona-(si)-ni ko‘rsatmoq; ko‘rsat [ib qo‘ya]man!** *kim? kimga? nimani?* Sinonimi: **ota-(si)-ning molini ko‘rsatib qo‘ymoq** *kim? kimga? [uning].*

U nomardga onasini Uchqo‘rg‘ondan ko‘rsataman! (S.Anorboyev. “Oqsoy”). *Ana shu “innaykeyin”ga javob topib bera olmasangiz,* ***onangizni Uchqo‘rg‘ondan ko‘rasiz*** (G‘.G‘ulom. “Shum bola”).

2. *kimdir? uning* qo‘rqishni, hadiksirashni ifodalaydi (bunda birinchi shaxs tuslovchisi va ikkinchi shaxs egalik qo‘shimchasi bilan kelmaydi).

Qani, kimga olma? Ha, birovga og‘iz ocha ko‘rmalaring. Komandir ***onamni Uchqo‘rg‘ondan ko‘rsatadi!*** (Oybek. “Quyosh qoraymas” [O‘TFL, 340-341].

Son +ot+fe’l tipidagi fe’l frazemalar.

Mazkur tipdagi frazemalarning tayanch komponenti fe’l bilan, notayanch komponentlarining birinchisi son bilan, ikkinchisi ot bilan ifodalanadi.

Bir balo bo‘ldi (*kimga?* yoki *nimaga?)* Biror ta’sir natijasida o‘zgarish yuz berdi. Sinonimi: **bir gap bo‘ldi (***kimga?* yoki *nimaga?)*

Nahotki miyangni yeb, mana shundoq qo‘l qovushtirib o‘tirsang? Senga ***bir balo bo‘ldimi?*** (Mirmuhsin. Jamila). *“Bu qushga* ***bir balo bo‘ldi****, bu odamni toza tanib oldi”,– deb yana qushni olib qaytdi.* “Murodxon”. [O‘TFL,79].

Qoraqalpoq tilida ham mazkur tipdagi frazemalarning tayanch komponenti fe’l bilan, notayanch komponentlarining birinchisi son bilan, ikkinchisi ot bilan ifodalanadi. Misollar: **Eki júzlilik etiw** – jaǵımpazlıq etiw, jaramsaqlanıw. *–Juwas, qudaydan tilegen tuwrı sózli adamlar kóbirek azar shegetuǵının, tilin jalap* ***eki júzlilik etetuǵınlardıń*** *ómiri anaǵurlım jeńil ótetuǵınlıǵına hayran* (Sh.Usnatdinov).

Eki kózi jawdıraw – quwanıw, shad bolıw. *Endi ketiwge múmkin shıǵar dep oǵan qarap qullıq etip, onnan eki kózimdi ayırmastan dalaǵa shıqtım, jolbarıs balasın ólimnen qutqarǵanıma más bolǵanday* ***eki kózi jawdırap*** *qala berdi* (A.Shamuratov).

Ot+ot+sifatdosh komponentli sifat frazemalar. Mazkur tipdagi frazemalarning tayanch komponenti fe’lning sifatdosh shakli bilan, notayanch komponentlari ot bilan ifodalangan bo‘ladi. “***Burganing dumini ko‘rgan, bo‘sag‘asi odam ko‘rmagan”*** kabi.

“Burganing dumini ko‘rgan” – juda ham shum, ayyor, uddaburon. Varianti: “**Burganing ko‘zini ko‘rgan”.**

Gavhar yaxshi qiz. Lekin anavi iblis burganing ko‘zini ko‘rgan (O‘.Hoshimov. “Qalbingga quloq sol”). (O‘TFL, 113). Mazkur frazemaga “***Iloning yog‘ini yalagan”*** frazemasi sinonim bo‘ladi.

Ilonning yog‘ini yalagan – juda ayyor, mug‘ombir, quv. Varianti: **ilonning yog‘ini yegan.**

Ey, qanaqa go‘l odamsan o‘zing. Bektemirov ***ilonning yog‘ini yalagan*** *odam. Kaltak yeb indamay ketaveradi deb o‘ylaysanmi? (*S.Ahmad. “Hukm”). (O‘TFL, 198).

Son+ot+sifat komponentli sifat frazemalar. Mazkur tipdagi frazemalarning tayanch komponenti sifat bilan, notayanch komponentlarining birinchisi son, ikkinchisi ot bilan ifodalanadi:

To‘rt ishkal(i) but (*kimning?)* – Hamma zarur narsasi bor, sira yetishmovchiligi yo‘q.

Bu odamlar ***to‘rt ishkali but****, dunyoni suv bossa, to‘pig‘iga chiqmaydigan, bahuzur yonboshlab yotib, faqat xursandchilik bilan mashg‘ul bo‘lgan kishilarday bamaylixotir, huzur qilib kulishar edi.* (A.Qahhor. “Qo‘shchinor chiroqlari”). (O‘TFL, 518).

Qoraqalpoq tilida ham mazkur tipdagi frazemalarning tayanch komponenti sifat bilan, notayanch komponentlarining birinchisi son, ikkinchisi ot bilan ifodalanadi:

Tórt túligi say – bay, qurǵın.

–Bir zamanda Uzaq degen bay bolıp,
*Ótken eken **tórt túligi say** bolıp.*
Qamshı tawlap, adam awlap, el awlap,
Oǵan hesh kim kelmeptimis tay bolıp (I.Yusupov).
Inilerim óz kúnine saw bolǵay,
Ósip ónip, arqa súyer taw bolǵay,
Baǵım janıp, ózgerse de órisim,
*Tilekshimen **tórt túligi say** bolǵay,*
Irazı bolıń Gúlash qızdan, anajan (G.Dáwletova).
Qara tawdı jaylaǵan,
Toǵız túlik mal aydaǵan,
Mıńna tulpar baylaǵan,
Laqabım xalıqtı jaylaǵan,
Men ataqlı bay edim,
***Tórt túligim say** edim* (Qaraqalpaq folkloru).
Jigitler bar úyin, dúzin jay etken,
*Omırawlap **tórt túligin say** etken.*
Tikken nálin nárwan etken baǵmanday,
Qara qızdı aymalaǵan, ay etken (G.Dáwletova). (QTSMKFS, 62).

Ot+ot+ko'makchi tipidagi ravish frazemalar.

Mazkur tipdagi frazemalarning tayanch komponenti ko'makchi bilan, notayanch komponenti esa otlar bilan ifodalanadi. "***Jon qulog'i bilan"*** kabi.

Jon qulog'i bilan – o'ta darajada diqqat bilan va qiziqib.

*Hamma boy nima shartlar qo'yarkin deb **jon qulog'i bilan** tinglar edi.* (M.Ismoiliy. "Farg'ona tong otguncha"). (O'TFL, 224).

Son+ot+bog'lovchi tipidagi ravish frazema. Mazkur tipdagi frazemalarning tayanch komponenti bog'lovchi, notayanch komponentlari son va ot bilan ifodalanadi. "***Ikki duyoda ham"*** kabi.

Ikki dunyoda ham – hech qachon. Varianti: **ikki dunyoda; ikkala dunyoda ham.** Sinonimi: **u dunyo-yu bu dunyo.**

***Ikki dunyoda ham** o'g'lingiz yorilib, "Xotin olib ber" demaydi.* (M.Ismoiliy. "Farg'ona tong otguncha"). (O'TFL, 195).

Ot+ravishdosh+ravish tipidagi ravish frazemalar. Mazkur tipdagi frazemalarning tayanch komponenti ravish bilan, notayanch komponentlarining birinchisi ot bilan, ikkinchisi fe'lning ravishdosh shakli bilan ifodalanadi. "***Ko'z ochib yumguncha"*** kabi.

Ko'z ochib yumguncha – juda qisqa muddatda, tezda. Sinonimi: **"hash-pash" deguncha, "ha-hu" deguncha.**

*Umr degan narsa **ko'z ochib yumguncha** o'tib ketar ekan.* (Mirmuhsin "Jamila"). (O'TFL, 253).

"Ha-hu" deguncha – juda qisqa muddatda, tezda. Sinonimi: **"g'ash-pash" deguncha, ko'z ochib yumguncha.**

*Odamning umri qanday tez o'tib ketadi. **"Ha-hu" deguncha** mana ko'klam ham kelib qolibdi.* (G'.G'ulom. "Tirilgan murda").

"Hash-pash" deguncha juda qisqa muddatda, tezda. Sinonimi: **"ha-hu" deguncha, ko'z ochib yumguncha.**

*Kech tushib qoldi, **"hash-pash" deguncha** tunning qora chodiri qoplaydi har yoqni.* (Oybek. "Oltin vodiydan shabadalar"). (O'TFL, 180).

Qoraqalpoq tilida ham mazkur tipdagi frazemalarning tayanch komponenti ravish bilan, notayanch komponentlarining birinchisi ot bilan, ikkinchisi fe'lning ravishdosh shakli bilan ifodalanadi. "***Kózdi ashıp jumǵansha"*** kabi:

***Kózdi ashıp jumǵansha** qolında qos awız mıltıǵı menen payda boldı.* (K.Allambergenov "Dárya tartılǵan jıllar"). *Jırtqısh kimnendur uyalǵanday, basın tómen alıp, kóz astınan nárestege názer tasladı, soń izine aynaldı, quyrıǵın qıypańlatıp toǵayǵa ketti, **kózdi ashıp jumǵansha** saǵımǵa sińip, kórinbey qaldı.* (K.Karimov "Zardusht").

Qoraqalpoq tilida mazkur frazemaga ***qas penen kózdiń arasında, há degende, háp zamatta*** kabi frazemalar sinonim bo'ladi: *– Súyinshi ber, ene! Súyinshi! Balańnan xat keldi ene! Xat! – dep dawısladı Ilaxiyda, tap úyiniń aldın da, bir jelimdey salını shigininen ayırıp, kepshik ekshep atırǵan Uzildikke. Enesi **qas penen kózdiń arasında** sam-saz boldı da qaldı. Birde jaqsı, birde jaman xabardı esitken waqıtları onıń usınday bolıp qalatuǵın ádeti burınan bar edi.* (U.Pirjanov. "Qarda qalg'an izler"). ***Qas penen kózdıń arasında** tórt kóz túwellenip, degendey, salmanıń ırashında jıynalıs baslandı da ketti.* (Sh.Seyitov. "Xalqabad"). *Kútilmegen soqqı kapitandı albıratıp tasladı, ol ornınan ushıp turdı da bası meń-zeń ketkenlikten qayaqtıń-qayaq ekenin **há degende** áńǵara almadı, basın sıypadı, qan joq.* (K.Raxmanov. "Aqıbet"). *Nashar qısına-qımırıla kóyleginiń kókiregindegi sádeplerin sheshti. Bir qaptalǵa burılıp, shep anarın*

shıǵarıp edi, náreste demde onı tawıp alıp, qulshına sorıy basladı. ***Háp zamatta*** *vagon ishi tıp-tınısh boldı. Tap bir uzaq urıstan keyin pútkil dúnyada paraxatshılıq ornaǵanı sıyaqlı!* (K.Karimov "Zardusht").

Son+ot+ot tipidagi ot frazemalar. Mazkur tipdagi frazemalarning tayanch komponenti ot bilan, notayanch komponentlari birinchisi son bilan, ikkinchisi ot bilan ifodalanadi. ***To'rt tarafi qibla*** kabi.

To'rt taraf(i) qibla (*kimning?)* Qayoqqa xohlasang(iz) ketaver(ing). Varianti: **to'rt tomon(i) qibla.** Sinonimi: **katta ko'cha.**

Eshikka chiqing, ***to'rt tarafingiz qibla.*** *Balki o'sha boyvuchcha xotinga yo'liqib qolarsiz.* (G'.G'ulom. "Tirilgan murda"). (O'TFL, 518).

Qoraqalpoq tilidagi mazkur tipdagi frazemalarning tayanch komponenti ot bilan, notayanch komponentlari birinchisi son bilan, ikkinchisi ot bilan ifodalanadi. Masalan: **Tórt tamanıń qubla –** erkinlik, ǵárezsizlik.

– Ornaǵan soń árman etken zamanı,
Qarekeńniń gúl jaynadı jamalı.
Umıt boldıtar jol, tayǵaq keshiwler,
Qubla *boldı búgin kórseńiz* ***tórt tamanı,***
Qundız bórik, qamqa tonlı Qarataw (G.Dáwletova).

Varianti: **tórt jaǵıń qubla; tórt tárepi qubla.**

–Ul kórgende quwanar xalqım,
Tórt tárepim qubla *boldı dep.*
Ulım, narım, jalǵasım, dańqım,
*Áwladlarım jáne toldı dep. (*A. Óteniyazova).

– Oho, usı jurtlardıń ***tórt tárepiń qubla*** *bolıp ayı ońınan tuwa qaladı-áy, – dedi jańaǵı jigit qolın súlgi menen sıpırıp atırıp* (E.Ermanov). (QTSMKFS, 62).

XULOSA. Umuman olganda, o'zbek va qoraqalpoq tillaridagi sinonim frazemalarning ko'pchiligini fe'l frazemalar tashkil qilishi o'z isbotini topdi. Bunday frazemalar tayanch komponentini fe'llar, notayanch komponentini boshqa so'z turkumlari tashkil qilib, ular ikki, uch, to'rt va undan ortiq komponentli bo'lishi keltirilgan misollarimizda o'z isbotini topdi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Vafoyeva M.Y. O'zbek tilida frazeologik sinonimlar va ularning struktural-semantik tahlili. Filol. fan. nomz. ...diss. avtoref. –Toshkent, 2009. – 26 s.
2. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. – Toshkent: Qomuslar Bosh tahririyati, 1992. – 379 b.
3. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O'razova I., Rixsiyeva K., O'zbek tilining frazeologik lug'ati. – Toshkent: G'G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022 – 458 b.
4. Eshbaev J. Qaraqalpaq tiliniń qısqasha frazeologiyalıq sózligi. – Nókis: Qaraqalpaqstan, 1985. – 158 b.
5. Paxratdinov Q., Bekniyazov Q. Qaraqalpaq tiliniń frazeologizmler sózligi. – Nókis: Qaraqalpaqstan, 2018. – 160 b.
6. Aynazarova G. Qaraqalpaq tilinde teńles eki komponentli frazeologizmler sózligi. – Nókis: Ilimpaz, 2023. – 80 b.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 303.72

BOSHLANG‘ICH TA’LIM YO‘NALISHI TALABALARIDA INNOVATSION KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Saburov Erkin Gulimbayevich, Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

THEORETICAL BASIS OF THE DEVELOPMENT OF INNOVATIVE PROFESSIONAL COMPETENCE IN PRIMARY EDUCATION STUDENTS

Saburov Erkin Gulimbaevich, Independent researcher of Urganch State University

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У ОБУЧАЮЩИХСЯ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Сабуров Эркин Гулимбаевич, независимый исследователь Ургенчского государственного университета

https://orcid.org/0000-0002-8571-3653
e-mail: saburoverkin42@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarining innovatsion kasbiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari yoritilgan. Mazkur kompetentlikni shakllantirish zamonaviy ta’lim jarayonlarida dolzarb vazifalardan biri bo‘lib, pedagogik faoliyatning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Maqolada innovatsion metodlarning ta’rifi, ahamiyati va ta’limda qo‘llanilishi, shuningdek, bu jarayonning psixologik-pedagogik asoslari tahlil qilinadi. Talabalar innovatsion o‘qitish metodlari va texnologiyalaridan samarali foydalanish ko‘nikmalarini egallashlari uchun qanday pedagogik sharoitlar zarurligi haqida ilmiy nuqtayi nazardan fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, innovatsion metodik kompetentligi, nazariy asoslar, pedagogik sharoitlar, ta’lim texnologiyalari, psixologik-pedagogik asoslar, o‘qitish metodlari.

Abstract: This article describes the theoretical foundations of the development of innovative professional competence of primary education students. The formation of this competence is one of the urgent tasks in modern educational processes and is important in increasing the effectiveness of pedagogical activity. The article analyzes the definition, importance and application of innovative methods in education, as well as the psychological and pedagogical basis of this process. From a scientific point of view, what kind of pedagogical conditions are necessary for students to acquire the skills of effective use of innovative teaching methods and technologies.

Key words: primary education, innovative methodological competence, theoretical foundations, pedagogical conditions, educational technologies, psychological-pedagogical foundations, teaching methods.

Аннотация: В статье рассмотрены теоретические основы развития инновационной профессиональной компетентности учащихся начальных классов. Формирование этой компетентности является одной из актуальных задач современного образовательного процесса и имеет важное значение для повышения эффективности педагогической деятельности. В статье анализируются определение, значение и применение инновационных методов в образовании, а также

психолого-педагогические основы этого процесса. С научной точки зрения, какие педагогические условия необходимы учащимся для приобретения навыков эффективного использования инновационных методов и технологий обучения.

Ключевые слова: начальное образование, инновационная методическая компетентность, теоретические основы, педагогические условия, образовательные технологии, психолого-педагогические основы, методы обучения.

KIRISH. Bugungi kunda ta'lim sohasida global o'zgarishlar yuz bermoqda. Innovatsion texnologiyalar va metodlar jamiyatning barcha jabhalarida keng joriy etilib, ta'lim tizimini ham yangilashga asos bo'lmoqda. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarini malakali pedagog sifatida tayyorlash jarayonida ularning innovatsion metodik kompetentligini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Zamonaviy ta'lim muhitida o'qituvchilardan faqatgina an'anaviy bilimlarni yetkazish emas, balki innovatsion yondashuvlarni joriy etish, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga va ijodiy yondashishga yo'naltirish talab qilinadi.

Innovatsion metodik kompetentlik — bu o'qituvchining yangiliklarni o'zlashtirish va ularni ta'lim jarayoniga joriy etish qobiliyatini aks ettiruvchi murakkab kompetentlikdir[1]. Ushbu kompetentlik talabalarni pedagogik faoliyatda zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalangan holda samarali ta'lim jarayonini tashkil etishga o'rgatishni maqsad qiladi. Bu esa, o'z navbatida, pedagogik jarayonning sifatini oshirish, o'quvchilarni ta'limga qiziqtirish va ularning intellektual rivojlanishini jadallashtirishga yordam beradi.

Maqolada boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining innovatsion metodik kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari, bu boradagi dolzarb muammolar va ularni hal qilish yo'llari ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishida innovatsion metodik kompetentligini rivojlantirishga doir ilmiy izlanishlar hozirgi vaqtda juda keng qamrovda olib borilmoqda. Xususan, o'zbek va xorijiy olimlar tomonidan bu mavzuga oid ko'plab asarlar, ilmiy maqolalar va metodik qo'llanmalar nashr etilgan. Ta'lim tizimida innovatsion metodlarni joriy etish va o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishga bag'ishlangan tadqiqotlar X.Hasanboyeva[2], O.To'ychiev[6], L.Markova[3], N.Klarin[5] kabi olimlarning asarlarida keng yoritilgan. Ularning tadqiqotlarida o'qituvchilarning yangi pedagogik texnologiyalar va metodikalarni amaliyotga joriy etishdagi muhim jihatlariga alohida e'tibor qaratilgan.

Olimlar tomonidan innovatsion metodik kompetentligini rivojlantirish uchun pedagogik jarayonning o'ziga xosligi, o'qituvchilarning kasbiy faoliyatida innovatsion yondashuvlar, yangi texnologiyalarni o'zlashtirishda talabalar uchun yaratish lozim bo'lgan sharoitlar batafsil o'rganilgan. Masalan, N.Klarinning izlanishlari o'qituvchining innovatsion kompetentligini shakllantirish jarayonida innovatsion texnologiyalar va ta'lim metodikalarini tatbiq etishga qaratilgan bo'lib, ularning maqsadi talabaning ijodiy faoliyatini rag'batlantirish va uni mustaqil o'rganishga yo'naltirishdir[5].

MUHOKAMA. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining innovatsion metodik kompetentligini rivojlantirish o'qituvchilarning kelgusidagi faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Innovatsion texnologiyalar va metodlar asosida o'quv jarayonini tashkil qilish orqali talabalar nafaqat nazariy bilimlarga, balki ularni amaliyotga tatbiq etish ko'nikmalariga ham ega bo'ladilar. Tadqiqot davomida kuzatishlar va pedagogik eksperimentlar natijasida aniqlanganki, innovatsion metodlar qo'llangan guruhlarda o'quvchilarning ta'limga bo'lgan qiziqishi, ijodiy faoliyatga yo'naltirilganligi va mustaqil fikrlash ko'nikmalari ancha yuqori bo'lgan.

Innovatsion yondashuvlar bilan ta'lim olgan talabalar o'quv jarayonida faollik namoyon etib, o'z bilimlarini boshqalarga yetkazish va muammolarni hal qilishda ham ilg'orlik ko'rsatdilar. Bu esa, innovatsion metodik kompetentligini rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarni keng ko'lamda qo'llash zarurligini tasdiqlaydi. Shuningdek, bu kompetentlikni rivojlantirish uchun ta'lim muassasalarida mos metodik baza va o'quv muhitining yaratilishi, o'qituvchilarni zamonaviy o'qitish usullariga o'rgatishning muhimligi aniqlandi.

TAMADDUN NURI

Biroq, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion metodlarning muvaffaqiyatli joriy qilinishi uchun faqat texnologik ta’minot emas, balki psixologik-pedagogik sharoitlarni ham hisobga olish zarur. O‘quvchilarning o‘zaro muloqot, ijodiy faoliyat va birgalikdagi muhokama jarayonlarida faol ishtirok etishi uchun qulay sharoitlar yaratish lozim. Talabalar innovatsion metodlarni samarali qo‘llashda bilim olish jarayonining faol ishtirokchisi sifatida o‘zlarini erkin his qilishlari va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari kerak.

Nazorat guruhi bilan taqqoslaganda, eksperimental guruhda ta’lim samaradorligi ancha yuqori bo‘lganligi, innovatsion metodlar talabalarning mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim omil ekanini ko‘rsatadi. Bu esa boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishidagi o‘qituvchilar tayyorgarlik jarayonida innovatsion metodik kompetentligini rivojlantirish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

NATIJALAR. Tadqiqot davomida olingan natijalar boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarining innovatsion metodik kompetentligini rivojlantirishning muhimligi va samaradorligini tasdiqladi. Eksperimentlar va kuzatishlar asosida quyidagi asosiy natijalar aniqlangan:

1. Innovatsion metodlarning samaradorligi: Innovatsion metodlar asosida ta’lim olgan talabalar bilimlarni tezroq o‘zlashtirishi va amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini samarali rivojlantirgani kuzatildi. Eksperimental guruh talabalari an’anaviy metodlar asosida ta’lim olgan nazorat guruhiga nisbatan yuqori natijalarga erishdi.

2. Talabalarning ijodiy fikrlash va mustaqilligi: Innovatsion yondashuvlar talabalar orasida ijodiy fikrlash, tanqidiy yondashuv va mustaqil muammolarni hal qilish qobiliyatlarini sezilarli darajada rivojlantirdi. Ular o‘z bilimlarini faqatgina o‘qituvchi tomonidan berilgan ma’lumotlar bilan cheklamasdan, yangi g‘oyalar va yechimlarni mustaqil ishlab chiqishga moyil bo‘lishdi.

3. Motivatsiyaning oshishi: Innovatsion metodlardan foydalanish talabalarning ta’lim jarayoniga bo‘lgan qiziqishini va ishtirok darajasini oshirdi. Eksperimental guruh talabalari darslarda faol ishtirok etib, o‘qish jarayoniga nisbatan ko‘proq motivatsiya bilan yondashgan.

4. Pedagogik texnologiyalarning ahamiyati: Talabalar innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘z-o‘zini rivojlantirish va yangi bilimlarni mustaqil o‘rganishga tayyor ekanliklarini namoyish qilishdi. Bu esa boshlang‘ich ta’limda innovatsion metodik kompetentlikning kelgusida yanada rivojlanishi va pedagogik jarayonda foydalaniladigan vositalarning muhimligi haqida xulosa chiqarishga imkon berdi.

5. Tizimli yondashuvning zarurligi: Innovatsion metodlarni joriy etish uchun ta’lim tizimining barcha bosqichlarida — o‘quv dasturlari, pedagoglar tayyorgarligi, o‘quvchilar bilan o‘zaro muloqotda — kompleks va tizimli yondashuvning muhimligi aniqlandi. Bu yondashuvni ta’minlash, innovatsion kompetentlikni rivojlantirishda asosiy shart ekanligi tasdiqlandi.

Umuman olganda, innovatsion metodik kompetentlikni rivojlantirish nafaqat boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonining samaradorligini oshiradi, balki talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishishiga ham sezilarli hissa qo‘shadi.

XULOSA. Ushbu tadqiqot natijalari boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarining innovatsion metodik kompetentligini rivojlantirish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Innovatsion yondashuvlar yordamida ta’lim olgan talabalar faollik, ijodiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlari bilan ajralib turishdi, bu esa ularning kelajakdagi pedagogik faoliyatiga ijobiy ta’sir qiladi.

Tadqiqot asosida quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. Innovatsion metodik kompetentlikni rivojlantirish talabalarning nafaqat nazariy bilimlarini oshiradi, balki amaliy ko‘nikmalarini ham mustahkamlaydi.

2. Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash talabalar motivatsiyasini oshirib, ularni darslarda faol ishtirok etishga va mustaqil o‘qishga yo‘naltiradi.

3. Innovatsion yondashuvlarning samaradorligini ta’minlash uchun ta’lim tizimida tizimli va kompleks yondashuvni joriy etish zarur. Bu esa, o‘quv dasturlarini takomillashtirish va pedagogik kadrlarni yangicha usullar bilan tayyorlashni talab qiladi.

4. Innovatsion kompetentlikning rivoji pedagogik faoliyatda yuqori samaradorlik va

TAMADDUN NURI

zamonaviy ta’lim talablariga moslashish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shu sababli, boshlang‘ich ta’limda innovatsion metodik kompetentligini rivojlantirish o‘qituvchilar tayyorgarlik jarayonining ajralmas qismi bo‘lishi va bu borada uzluksiz ilmiy-pedagogik izlanishlar olib borilishi zarur. Innovatsion yondashuvlarning muvaffaqiyatli tatbiqi nafaqat talabalarning, balki ta’lim tizimining rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Dewey, J. Demokratiya va ta’lim. Toshkent: O‘qituvchi, 2021 (asl nusxa: 1916-yil).
2. Hasanboyeva, X. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti, 2018.
3. Markova, A. K. Pedagogik faoliyatning innovatsion yondashuvlari. Moskva: Pedagogika, 2017.
4. Moiseyeva, T. V. Innovatsion o‘qitish texnologiyalari va metodikasi. Sankt-Peterburg: Lan., 2022.
5. Klarin,N. Ta’limda innovatsion metodlarni qo‘llashning nazariy asoslari. Moskva: Nauka, 2019.
6. To‘ychiev, O. Innovatsion metodlar va ta’lim samaradorligi. Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
7. Sharifzoda, S.O. Pedagogical conditions for the organization of gender based training Innovative research in modern education. Hosted from Toronto, Canada30, 4.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.08.2024 Nashr qilindi: 30.09.2024 UDK: 8-31:7.041.5(045)

"ALISHER NAVOIY" ROMANIDA INTERYERNING BADIIY VAZIFASI

Shomurotova Charos Ravshan qizi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil tadqiqotchisi

THE ARTISTIC FUNCTION OF THE INTERIOR IN THE NOVEL "ALISHER NAVOI"

Shomurotova Charos Ravshan qizi, Tashkent State University named after Alisher Navoi, Independent researcher at the University of Uzbek Language and Literature

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ФУНКЦИЯ ИНТЕРЬЕРА В РОМАНЕ «АЛИШЕР НАВОИ»

Шомуротова Чарос Равшан кызы, Ташкентский государственный университет имени Алишера Навои, независимый исследователь университета узбекского языка и литературы

https://orcid.org/0009-0000-4589-2653
e-mail: charosshomurotova9@gmail.com

Annotatsiya: Adabiyotda makon va zamon tushunchasiga ko'plab olimlar qayta va qayta murojaat qilgan holda, ayni shu masalani ilmiy aspektda o'rganish jarayonidalar. Bu masalaning qahramon ruhiyati bilan borib bog'lanishi makon va zamon tushunchasining ahamiyati yuqoriligini ko'rsatib beradi. Makon tushunchasining yoritilishida inetryer ham muhim uzviy elementlardan biridir.

Kalit so'zlar: plastik elementlar, psixologizm, badiiy asar, asar qaharamonlari, Alisher Navoiy, badiiy interyer.

Abstract: Many scientists repeatedly refer to the concept of space and time in literature, and are in the process of studying this issue in a scientific aspect. The connection of this issue with the psyche of the hero shows the high importance of the concept of space and time. The interior is also one of the important organic elements in the illumination of the concept of space.

Key words: plastic elements, psychologism, artistic work, characters of the work, Alisher Navoi, artistic interior.

Аннотация: Многие учёные неоднократно обращаются к понятиям пространства и времени в литературе и занимаются изучением этого вопроса в научном аспекте. Связь этого вопроса с психикой героя показывает высокую значимость понятия пространства и времени. Интерьер также является одним из важных органических элементов в освещении концепции пространства.

Ключевые слова: пластические элементы, психологизм, художественное произведение, персонажи произведения, Алишер Навои, художественный интерьер.

KIRISH. Bilamizki, interyer adabiyotshunoslikda ekspozitsiya deb ataladigan tasvir vositasiga taalluqlidir. Ekspozitsiyada biror-bir joy (xona, uy, hovli, ko'cha, maydon, ma'lum voqelik) badiiy ifoda etilib, asarning syujetiga kirish hisoblansa, interyer – yopiq binoning ichki tasviri hisoblanadi. U tor ma'noda binoning ichki hududi bo'lib, o'z ichiga shu hududga oid narsa-jihozlarni ham oladi. Bunday tasvirning hikoya, qissa, roman kabi epik janrlarda o'ziga xos o'rni bor.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. Adabiyotshunos olim D.Quronov interyerni tavsif termini tarkibiga kiritgan holda izohlaydi: "Tavsif – kompozitsiyaning uzviy qismi, asar voqeligiga kiritilayotgan narsa-hodisa, joy, portret, interyer, eksteryer va shu kabilar tasviri"[1]. Professor

Abdulla Ulug‘ov esa, “Adabiyotshunoslik nazariyasi” kitobida interyer haqida qisqagina ma’lumotni berib o‘tadi: “Uy, o‘tov, xona singari yopiq joylar interyerdir. Badiiy asarlarda ana shunday yopiq makonlarning ko‘rinishi, undagi narsalarning turishi, joylashishi ham tasvirlanadi”[2-70]. Ko‘rinib turganidek, interyer kompozitsiya va ekspozitsiyaga bog‘liq holda, makonni ko‘rsatishga xizmat qiladi. Ammo, makonni ko‘rsatishdan ko‘zlangan maqsad qahramon hissiy-psixologik holati bilan bog‘lanib ketadi va o‘z-o‘zidan interyerning badiiy asardagi ahamiyati ham oydinlashadi. Interyer xususida nazariy manbalar o‘zbek adabiyotshunosligida u qadar ko‘p bo‘lmasa-da, Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romanida interyer qahramonlar ruhiy holatini ochishda muhim ahamiyat kasb etganini inobatga olgan holda, bu mavzuni tadqiqotimizning alohida qismiga aylantirdik. Interyer yozuvchi badiiy maqsadini ochib berishda eng muhim badiiy vositalardan biri bo‘lib, romanda buning yaqqol isbotini bir necha bor kuzatishimiz mumkin. Abdurauf Fitrat: “Adabiyot – fikr, tuyg‘ularimizdagi to‘lqinlarni so‘zlar, gaplar yordami bilan tasvir qilib, boshqalarda ham xuddi shu to‘lqinlarni yaratmoqdir”[3], deydi. Qahramon hissiy va ruhiy olami tasviri o‘quvchiga ko‘chishi Fitrat ta’biri bilan aytganda, so‘z bilan yaratilgan tasvirning mukammalligi va jonliligiga bog‘liq. Ayni shu jarayonda makon tasviri bo‘lmish interyerning badiiy ahamiyati katta. Bu ayniqsa, “Alisher Navoiy” romanida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Romanda makon tushunchasi davr, kayfiyat, maqsad, syujetning burilishi, xarakter rivoji kabi ko‘plab hodisalarning akslanishiga xizmat qiladi. Muallif interyerning badiiy ahamiyati qay darajada muhim ekanini anglagani holda, yopiq hududlar tasviri orqali katta badiiy niyatlarni amalga oshirishga intiladi. Ayni jihatlarga ko‘ra asarda interyerning badiiy vazifasi sifatida quyidagi uch jihatni alohida ta’kidlash joiz:

- interyerning qahramon ruhiy holatini ochib berishdagi o‘rni;
- interyerning ijtimoiy holat tasviridagi badiiy funksiyasi;
- urf-odat va an’analar ifodasida interyerning vazifasi.

MUHOKAMA. Ko‘rinib turibdiki, yuqorida sanalgan jihatlar badiiy asarning rivoji va tuzilishida katta ahamiyatga ega. Ayni shu muhim jihatlarni yoritish qaysidir ma’noda yozuvchi tomonidan interyerni muhim badiiy tasviriy detalga aylantirish orqali amalga oshiriladi. Badiiy asar uchun tasvir jarayonining rang-barangligi qaysidir ma’noda eng muhim jihatlardan biridir. Ayni shu rang-baranglikni ta’minlovchi ham interyerdir. Interyer asarda muallif ijodiy niyatini ochib berish bilan bir qatorda, voqelikni o‘quvchi ko‘z o‘ngida konkret jonlanishi uchun ham turtki beradi. Kitobxon ma’lum voqelikni o‘qir ekan, uning qanday joyda, qanday sharoitda yuzaga kelganini o‘qish bilan syujet atmosferasiga yanada chuqurroq kirib boradi. Asardagi ta’sirchanlik yanada oshib boraveradi. Qolaversa, interyer jonli muhitning konkretlashuviga ham turtki bo‘ladi. Batafsil tasvirlangan yopiq makon tasviri reallikni oshiradi, ta’sirchanlik kuchayadi, kitobxonni voqea-hodisa kechayotgan muhitga g‘arq bo‘lishiga, sho‘ng‘ib ketishiga asos bo‘ladi. Shu sabab ham katta badiiy yukni, vazifani interyer orqali badiiy mukammal tarzda yetkazib berishga harakat qilish adabiy asarda ko‘pincha o‘zini oqlaydi.

Isajon Sulton roman ekspozitsiyasini interyer orqali boshlashni maqsad qiladi. Boisi Alisher Navoiy obrazini yaratish uning bolalik davridan boshlanar ekan, uning qiyofasini ulg‘aygan, yashagan muhitsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Chunki Navoiy mukammal shaxs sifatida shakllanishiga sabab bo‘lgan oila muhitisiz obrazning mukammal bo‘lishi aslo mumkin emas. Yozuvchi ayni shuni anglagani holda interyerga roman boshidanoq katta ahamiyat qaratadi. Romanda peyjaz va interyer uyg‘unligi eng muhim badiiy vosita sifatida bo‘y ko‘rasatadi. Yozuvchi bu jarayonda ikki xil usulni amalga oshiradi:

- voqelikni Peyzajdan interyerga yo‘nalgan holda aks ettirish;
- interyerdan peyzajga yo‘nalgan holda syujet liniyasini harakatlantirish.

Bularning har biri asarda muhim ahamiyat kasb etadi, yozuvchining ma’lum bir badiiy maqsadini ochib berishga xizmat qiladi.

Voqelikni peyzajdan interyerga yo‘nalgan holda aks ettirish. Bu o‘rinda muallif tabiat tasviridan yopiq makon sari borar ekan, qahramonga xos bo‘lgan eng nozik xarakter xususiyatini ochib berishga harakat qiladi. Bu kabi usul odatda, qahramon bilan kitobxonni tanishtirish jarayonida, qahramonning o‘ziga xosligini ko‘rsatib berishga nihoyatda qo‘l keladi. “Peyzaj voqealar kechuvchi ochiq makon bo‘lsa, uy-joy, xona, saroy, qasr – yopiq makon va undagi bezak, ashyolar interyerdir.

Makon va zamonni personajlarning kechinmasiga uyg‘un tasvirlash orqali adabiy qahramonlarning ta’sirchan obrazi gavdalantiriladi”[4-70]. Isajon Sulton peyzajdan interyer tomon borar ekan, ayni shu ta’sirchanlikni o‘ziga xos uslubda ifodalashga intiladi. Romanning boshlanish qismidayoq ekspozitsiyani qo‘llaydi va bu jarayonda dastavval peyzajga murojaat qiladi. Navoiy ulg‘aygan muhit tasvirini eng avvalo peyzaj bilan boshlab, asta-sekinlik bilan mehmonxona, ichki uylar, otxona kabi yopiq makonlar tasviriga o‘ta boshlaydi. Bu yo‘l bilan qahramon yashagan muhitni, uning ichki olamini, aynan qanday muhitda o‘sgani uning qalbi va shuuriga ta’sir o‘tkazganini ko‘rsatib bera oladi. Muallif shu tariqa voqelikni ketma-ket, izchil yoritadi va o‘zining badiiy maqsadini ta’sirli yetkazib berishga erishadi. Qahramon taqdiriga tomon ham asta-sekinlik bilan o‘z munosabatini bildirib boradi, kitobxonga obrazni o‘ziga xos yo‘sinda tanishtirishga erishadi: “G‘iyosiddinbek Bog‘i Jahonoroga yaqin yerda, shamol bemalol yeladigan va havo tez almashadigan, Hirurud irmog‘i oqib o‘tadigan xushmanzara ma’voda bog‘ barpo qildirgan edi. Bog‘ning bir tarafi tashqi va ichki hovli esa, boshqa tarafi irmoqqa tutashib ketgan, enish u sahnda xush chiroy kasb etgan og‘ochlar-u gullar yashnab turardi”. Ko‘ringanidek, yozuvchi ahamiyatni Alisher Navoiy katta bo‘lgan muhit va oilaga qaratadi. Uning ulg‘aygan muhiti o‘ziga xoslikka, betakrorlikka va go‘zallikka ega ekaniga alohida diqqatni tortadi. Bu bejizga emas, albatta. Boisi bola Alisher go‘zal qalb va ruhni, toza tafakkurni aynan shunday go‘zal maskandan olishi mumkin edi. Shoirona muhit, betakror so‘lim go‘shada kechgan bolalik va hassos qalb uyg‘unligi ayni shu ekspozitsiyadayoq namoyon etiladi. Peyzaj ayni qahramon ichki olamiga monand va munosib tarzda aks ettiriladi. Muallif shundan so‘ngra interyerga yuzlana boshlaydi: “Mehmonxona keng, naqshli. Tokchalarga gul ko‘zalari, chiroqlar-u, shamdonlar terilgan. Chapda katta o‘choq bo‘lib, Hiriyning qattiq qishida unga yo‘g‘on sarjinlar, balut va xanjak o‘tinlari qalanadi. Ba’zan sandal quriladi, unga tog‘orada cho‘g‘ yoki qo‘r qo‘yiladi”. Interyer ham peyzajga monand tarzda tasvir etiladi. Mehmonxonaning ziynati va ko‘rki ham peyzaj tasviridagi go‘zallikdan aslo kam emas. Tokchadagi gullar, o‘ziga xos naqshlar, chiroqlar-u shamdonlar shoirning betakror olamini, o‘ziga xos muhitini namoyish etishga xizmat qiladi. Yozuvchi peyzajdan interyerga yuzlanar ekan, bir vaqtning o‘zida bir qancha badiiy yutuqlarga erishadi:

- ta’sirchanlik;
- badiiy tasvir mukammalligi;
- xarakterning shakllanish va yuzaga chiqish muhiti va omillari.

Interyerdan peyzajga yo‘nalgan holda syujet liniyasini harakatlantirish. Ijodkor o‘z badiiy maqsadini yuqoridagi adabiy tasvir usuliga teskari holatda ham yoritib berishi mumkin. Va bu holatda ham yozuvchi birinchi holatdagidan kam bo‘lmagan ta’sir va tasvir usuliga erisha oladi. Yopiq makondan keng makon sari yo‘nalish qahramonning xayol surayotgan, o‘y-kechinmalar girdobidagi holatini ta’sirchan holatda ko‘rsatib berishga yordam beradi. Muallif ayni vaziyatlarda interyerning badiiy pozitsiyasini peyzaj bilan sintezlashtirgan holatda badiiy psixologizmning nozik jihatini ko‘rsatib berishga erisha oladi. Isajon Sulton keng makonlar, katta shaharlar, saroylar salobati va haybatini ko‘rsatib berish jarayonida aynan tor makon (interyer)dan keng makonga qarab boradi va tavsifdagi zidlik orqali ularning chinakam kuch-quvvatini, haybatini ko‘rsatishga erishadi. Ya’ni bir narsaning ikkinchi bir ziddi orqali badiiy mukammallikka erishadi.

Interyerning qahramon ruhiy holatini ochib berishdagi o‘rni. Obraz his-tuyg‘ularini ochib berish asardagi eng muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Shu bois badiiy asarda har bir unsur, element, badiiy tasvir vositalarining qo‘llanishidan bosh maqsad xarakterni to‘laqonli ochib berishdan iboratdir. Interyer ham odatda, qahramonning to‘laqonli holatini, hayotini, yashash tarzini ko‘rsatib berish uchun xizmat qiladi. Asar mobaynida qahramonning ruhiy holati, psixologik vaziyati doimiy tarzda bayon etib boriladi va o‘zgaruvchan qiyofa kasb etadi. Asar syujeti mobaynida qahramonlar bir psixologik holatdan boshqa bir psixologik holatga tez-tez o‘tib boradilar. Aslida, asarda qahramon ruhiy olamini ochib berish eng qiyin tasvir yo‘llaridan biridir. Boisi, yozuvchi qahramonning holatiga eng avvalo, kitobxonni ishontira olish vazifasini to‘laqonli ado etishi lozim. Ayni shu jarayonda Isajon Sulton interyer va qahramon tasvirini bergani holda asar qahramonining ruhiy vaziyatini, qiyofasini ko‘rsatib berishga qaror qiladi va badiiy psixologizmning o‘ziga xos qirrasini romanda namoyish etadi. Aslida, badiiy psixologizmning epik asarda, umuman

adabiyotda aks etishi anchayin chuqur va qadim adabiy manbalarga tegishli masaladir. Masalan, necha ming yillik o‘tmishni aks ettirgan “Mahmud Koshg‘ariyning “Devon-u lug‘otit turk” asaridagi she’r, maqol, qo‘shiqlar, qasida, munozara kabi she’riy parchalarda ham o‘sha davr kishilarining individual-psixologik holatlari, xatti-harakatlari, idroklash va munosabatlari o‘ziga xos tarzda aks ettirilganiga guvoh bo‘lamiz” [5-14]. Demakki, Isajon Sulton asardagi badiiy psixologizm masalasiga e’tibor qaratish jarayonida, bu hodisaning anchayin chuqur ildizlarga borib tutashishini ham yaxshi anglaydi va badiiy psixologizm, qahramon ruhiy olamini ochib berishda o‘ziga xos uslubiy novatorlikka, yangicha yondashuvga intiladi, o‘ziga xos badiiy betakror adabiy unsurlardan foydalanishga intiladi. Jumladan, asarda hukmdor Shohrux Mirzoning vafotidan keyin juda ko‘plab insonlar singari Navoiyning hayotini ham mashaqqatli kunlar egallay boshlaydi. Natijada, shoir azim Samarqandga yo‘l oladi va u yerdagi madrasalardan birida nihoyatda og‘ir, faqirona, rutubatli kunlarni boshidan kechirgani holda yashay boshlaydi. Garchand Samarqand eng rivojlangan shaharlaridan biri bo‘lsa-da, yozuvchi aksariyat hollarda hududni qahramonning tushkun, mahzun va umidsiz kayfiyatiga bog‘lagani holda tasvirlaydi. Natijada syujetning ta’sir kuchi yanada oshadi, qiziqarlilik ta’minlanadi. Zotan, Alisher Navoiy ma’lum vaqt istiqomat qilgan Samarqanddagi tor kulbaning tor va sovuqligi, qorong‘uligi, oziq-ovqat yetishmovchiligi kishi qalbidagi rutubat, zulmat, umidsizlikni aks ettirishga yordam beradi. Alisher shifti past, kichkina hujraga kirdi, dumaloqlab qo‘yilgan to‘shakka suyanib, xo‘rsindi. Qo‘noq kelganini ko‘rgan xizmatchi bir bo‘lak matoga o‘ralgan patir, bir-ikki turshak olib kirdi... Aslida xonaning past shifti va torligi Alisherga dunyoning tor kelganini o‘ziga xos majoziy ifoda etishga yordam beradi. Ruhiy iztiroblar iskanjasida qolgan qahramonning ruhiy holatini muallif batafsil yoritmaydi. Uning tushkun kayfiyatini ta’kidlamaydi. Xona muhitini tasvirlash orqali qahramonning ham qanday kayfiyatda ekanini o‘quvchiga yetkazib beradi.

NATIJALAR. Muallif obraz va interyer orasidagi mutanosiblik asosida ruhiy tasvirning mukammalligini ta’minlashga erishadi. Interyer tasviridagi har bir so‘z, har bir detalni qahramon ichki olamini yortishga xizmat qildiriladi. Yuqorida keltirilgan parchada tor hujraga qo‘noq kelganini ko‘rgan xizmatchi bir bo‘lak matoga o‘ralgan patir, bir-ikki turshak olib kirganidan anglash mumkinki, iqtisodiy vaziyat u qadar yaxshi emas, qolaversa, bu yerda Alisher Navoiy intiqib kutilgan mehmon ham emas. Buni xonaning tasviri yaqqol ko‘rsatib turibdi. Aslida, bu o‘rinda muallif kichik bir xona tasviri orqali nafaqat qahramon, qolaversa jamiyatdagi ahvolni ham ko‘rsatib beradi.

Muallif ayni shu kichkina parcha orqali kitobxonga keng va katta xulosalarni chiqarish imkonini beradi. Mantiqiy tafakkur qilish imkoni kuchaygani sari asarning badiiy yuki ham borgan sari ortib boraveradi va bu o‘rinda interyerning badiiy ahamiyati oydinlashadi. Yozuvchi qahramonning boshqa bir ruhiy holatini ko‘rsatib berish uchun esa boshqa bir hujraning interyeridan foydalanadi: “Aytilgan hujraga gilam solinib, davot, sham, qog‘oz-qalam, tabaqda meva-yu holvalar, tokchada belboqqa o‘ralgan yangi liboslar qo‘yilgan edi”. Yuqoridagi tamoman zid interyer tasviri qahramonning yuqoridagiga tamoman teskari ruhiy holatini ko‘rsatib turibdi. Aslida, psixologizm nihoyatda keng tushuncha. Uni tasvirlashning badiiy adabiyotda minglab usullari va unsurlari bor. Interyer ayni shu unsurlardan bittasi, xolos. Psixologizm nafaqat qahramon ruhiy holatini ochib beradi, qolaversa o‘zida ijtimoiy-iqtisodiy, umumbashariy masalalarni ham aks ettiradi. Boisi, “Agar psixologizm tushunchasi faqat qahramon shaxsiy dunyosning ochilishi bo‘lganda edi, bu juda tor tushuncha bo‘lib qolardi”[6-86]. Biz buning isbotini yuqorida keltirilgan interyer tasviridagi parchalar orqali ko‘rib o‘tdik. Badiiy asarda har bir adabiy elementning o‘z funksiyasi mavjud. Shu jumladan, interyer va badiiy psixologizmning ham. Isajon Sulton ayni shu ikki badiiy vositani uyg‘unlashtirgan holda asarning muvaffaqqiyatini ta’minlashga erishadi, qolaversa ular orqali o‘zining bir qancha maqsadalarini ham amalga oshiradi:

- ta’sirchanlik;
- syujet izchilligi;
- kompozitsion yaxlitlik;
- uslubiy betakrorlik;
- badiiy ziynatlash.

Ko‘ringanidek, muallif interyerga katta badiiy yukni yuklaydi, yuklabgina qolmay, uni harakatga keltiradi. Agar interyer asar ichida shunchaki qo‘llanib o‘tilganda edi, u maqsadsiz qo‘llangan badiiy unsurga aylangan va badiiy

ahamiyati, qiymatini yo‘qotgan bo‘lar edi. Muallif ayni shu jihatni e’tibordan chetda qoldirmaydi. Shu sabab interyerni o‘z o‘rnida, maqsadli tarzda qo‘llaydi. Har qanday sun’iylikdan qochadi. Natijada, badiiy psixologizmning betakror ko‘rinishiga interyer orqali kirib borgani holda, xarakterning eng nozik qirralarini ko‘rsatib berishga erishadi. Ayni shu jihatdan interyer va ruhiy tasvir yaxlit tasvir obyektiga aylanadi va o‘quvchining diqqatini o‘ziga jalb etadi.

Interyerning ijtimoiy holat tasviridagi badiiy funksiyasi. Har bir asarda ijtimoiy iqtisodiy masalalar ma’lum ma’noda aks etadi. Ijtimoiy muhit ta’siridan tamoman uzilgan badiiy asarni topish mushkul jarayon. Ayniqsa, tarixiy asarlarda muhitning ijtimoiy qiyofasini yoritish eng asosiy masala hisoblanadi. Boisi, tarixiy roman uchun ijtimoiylik masalasi eng muhim masalalardan biridir. Ijtimoiy va iqtisodiy qiyofa to‘laqonli tarzda yaratilmasdan turib mukammal tarixiy roman yaratib bo‘lmaydi. Tarix o‘zining ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy qiyofasini ko‘rsatgan holatdagina insonlar ko‘z o‘ngida mukammal tarzda gavdalanadi. Romanda muallif ayni masalaga jiddiy yondashadi. Bu holatni yoritib berish uchun peyzaj va interyer uyg‘unligidan foydalanadi. Masalan, Samarqand tasvirida, uning ijtimoiy-iqtisodiy qiyofasini badiiy tasvirlash jarayonida dastaavval **peyzaj tasviri** bilan kirish qilishni boshlaydi: “Qashshoqlik ila hasham, boylik ila chorasizlik bir yerda. Bir yerda ozg‘in, eti borib ustixoniga yopishgan g‘arib chorakorlar to‘p-to‘p, och- nahor turadilar. Bir yonda kunjut isini anqitib mashhur Samarqand nonlari pishadi. Boshiga bo‘z mato o‘rab olgan novvoylar tinim bilmay, tariq, bug‘doy, jo‘xori unlaridan patir, kulchalar yopadilar”. Tasvir nihoyatda ta’sirchan va o‘ziga xos. Zero, qashshoqlik va hashamning bundan-da mukammal qiyofasini yaratish mushkul bo‘lsa kerak. Isajon Sulton peyzaj va interyer orqali an’anaviylik va novatorlikni namoyon etadi. Zero, “Adabiyotshunoslikda an’anaviylik va novatorlik o‘zaro bog‘liq. Bir-birini taqozo qiladigan va bir-birini to‘ldiradigan adabiy kategoriyalar bo‘lib, zamonaviylik bilan chambarchas bog‘liqdir. Novatorlik ilg‘or adabiy an’analarni inkor etmaydi. Balki ularga tayanadi va ulardan ijodiy foydalanadi” [7-16] ayni shu jihat peyzajdan interyer tomonga yo‘nalish jarayonida vujudga keladi. Peyzajda Samarqandning ijtimoiy- iqtisodiy qiyofasini ochib berar ekan, interyerga o‘tish asnosida ayni shu ijtimoiylikni yoritishni yanada badiiy jihatdan mukammallashtiradi. Interyerga o‘tar ekan, millatning qiyofasini, holini yanada konkret tarzda ko‘rsatib berishga ahamiyat qaratadi. Tasvirni aniq va lo‘nda tarzda berib o‘tadi va natijada konkretlik ta’sirchanlik va badiiy jozibaga erishadi: “Samarqand hammomlarining kiraverishida istirohat xonalari bo‘ladi. Hammomdan chiqqanlar sovuqqa chalinmaslik uchun shunday xonalarda sharbat ichib, tin olib o‘tirishadi. Dahliz issiq, nam...” Bir necha asr muqaddam Samarqandda jamoat hammomlarining mavjudligi, ularning zamonaviy me’morchilik an’analariga tayanilgan holda barpo etilgani, o‘ziga xos dizayni va qulayliklari bu shahar iqtisodi, madaniy hayoti birmuncha yuqoriligini ko‘rsatib beradi.

XULOSA. Ko‘rinadiki, yozuvchi davrning ijtimoiy holatini, yutuq va kamchiliklarini insonlar xarakteri va ruhiy olamini, hayotning bir qancha jabhalarini interyerga tayangan holda ochib bermoqda va novatorlikning yorqin namunasini namoyon etmoqda. Yozuvchi interyer orqali jamiyatning turli tabaqalari turmush tarzini ko‘rsatib berishga harakat qiladi. Shu sabab mamlakatning eng muhim qismlari, siyosiy-madaniy hayotini aks ettiruvchi jabhalarining interyerini yaratishga alohida ahamiyat qaratadi. Yozuvchi interyerni yaratar ekan, bu orqali mamlakat hayotiga doir qaysidir qism va jihatga alohida e’tibor qaratadi. Yozuvchi interyer asnosida ma’lum ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy voqelikni aks ettiradi, kitobxonga ayni davr va hudud haqida o‘ziga xos ma’lumotlarni yetkazib berishni maqsad qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Quronov, D. Adabiyotshunoslik lug‘ati. T. Akademnashr. 2010. B. 185.
2. Ulug‘ov, A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. T. G‘afur G‘ulom. 2017. B. 70.
3. Fitrat. Adabiyot qoidalari. T.Gafur’ G‘ulom.
4. Ulug‘ov, A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. T. G‘afur G‘ulom. 2017. B. 70.
5. Фитрат, А. Энг эски турк адабиёти намуналари (Адабиётимизнинг тарихи учун материаллар). – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2008. Б.14.
6. Adabiy turlar va janrlar. T. I jild. B. 86. 7. Soatova,N. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida epik tasvir an’analari. T.2001. f.f.n.diss… B.16.
8. www.ziyonet.uz

Qabul qilindi: 05.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 345.0098

ИЗ ИСТОРИИ СРЕДНЕАЗИАТСКИХ ДЕЛ ПОСОЛЬСКОГО ПРИКАЗА XVII ВЕКА О ХИВИНСКОМ ЦАРЕВИЧЕ АВГАНЕ МУХАММЕДЕ

Хужанова Озода Тожиевна, Термезский государственный университет, доктор философии (PhD) по филологическим наукам

https://orcid.org/0009-0005-1904-1419

e-mail: ozoda.xuzhanova@bk.ru

XVII ASR O‘RTA OSIYO ELCHILIK HUJJATLARI TARIXIDAN: XIVA SHAHZODASI AVGAN MUHAMMAD HAQIDA

Xuzanova Ozoda Tojievna, Termiz davlat universiteti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

FROM THE HISTORY OF CENTRAL ASIAN AFFAIRS OF THE AMBASSADORY ORDER OF THE XVII TH CENTURY ABOUT THE KHIVA PRINCE AVGAN MUHAMMED

Khuzhanova Ozoda Tozhievna, Termez State University, Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences

Аннотация. *В данной статье рассматривается история изучения памятников русской деловой письменности, представляющих собой деловые документы Посольского приказа XVII века о хивинском царевиче Авгане Мухаммеде. В памятниках древнерусской письменности, в частности, в грамотках хивинского царевича Авгана Мухаммада, содержатся сведения об истории и культуре Средней Азии и представляют собой источники для лингвистического исследования языка того времени.*

Ключевые слова: *история языка, памятники письменности, скоропись, деловые документы, Среднеазиатские дела, посольский приказ.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XVII asrdagi Xiva shahzodasi Avgan Muhammad haqidagi elchilik ish hujjatlari hisoblangan rus ishbilarmonlik yozuvi yodgorliklarini o‘rganish tarixi muhokama qilinadi. Qadimgi rus yozuvi yodgorliklari, xususan, Xiva shahzodasi Avgan Muhammadning maktublarida O‘rta Osiyo tarixi va madaniyatiga oid ma’lumotlar mavjud bo‘lib, o‘sha davr tilini lingvistik o‘rganish manbalari hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: *til tarixi, yozma yodgorliklar, kursiv yozuv, ish hujjatlari, O‘rta Osiyo ishi, Elchi farmoni.*

Annotation: *This article examines the history of the study of monuments of Russian business writing, which are business documents of the Embassy Order of the XVII century about the Khiva Prince Avgan Muhammad. The monuments of ancient Russian writing, in particular, in the literatures of Prince Avgan Muhammad of Khiva, contain information about the history and culture of Central Asia and represent sources for linguistic research of the language of that time.*

Key words: *history of language, monuments of writing, cursive writing, business documents, Central Asian affairs, Embassy order.*

ВВЕДЕНИЕ. Известно, что важнейшим источником для изучения истории русского языка являются памятники письменности, большинство которых представлены в виде рукописей. Эти рукописи в то время не были предназначены для тех целей, с которыми используются в языкознании в настоящее время. В связи с этим перед современным исследователем появляется ряд сложных вопросов и задач по правильной интерпретации лингвистических данных из письменных источников. Полное истолкование этих лингвистических данных в хронологическом и локальном отношении возможно только на базе текстологического исследования.

Возникновение лингвотекстологического направления связано с научной школой Л.П.Жуковской. Главной сферой лингвотекстологии стали памятники с контролируемой текстологической традицией. Книга Л.П.Жуковской «Текстология и язык древнейших славянских памятников» (1976) подвела итог многолетним исследованиям автора в области истории текста и со всей очевидностью продемонстрировала необходимость лингвотекстологического направления и завершила «авторскую» разработку данного направления. Стали проводиться аналогичные лингвотекстологические изучения других памятников.

МЕТОДЫ. Высокая результативность научного исследования определяется материалом, на котором оно выполнено, и степенью его освоенности, что предъявляет большие требования к письменным памятникам деловой письменности. И если лингвистическая содержательность материала подсказывает её тематику, то тематика заставляет искать наиболее адекватный ей источник. Как справедливо указывала Л.И.Шелепова, «проблема источников лингвистического исследования – одна из традиционных проблем русистики, которая не теряет своей актуальности и новизны – независимо от того, какая научная парадигма (сравнительно-историческая, системно-структурная или антропоцентрическая) является приоритетной на том или ином витке развития лингвистики» [8, с.316–323].

Поиск материала для исследования обратил внимание на так называемые официальные и частные русские скорописные деловые памятники XVII века – разножанровые тексты документов Среднеазиатских дел Посольского приказа, рассказывающие о хивинском царевиче Авгане Мухаммеде. Они послужили основой для нашего исследования, посвященного проблемам репрезентации восточного мира. Особую перспективность в этом плане представляют источники, отражающие первые контакты России и русских людей с зарубежными странами. Согласно историческим данным, таким периодом в истории России стал конец XVI–XVII в., представляющий собой эпоху не только великой смуты, церковного раскола, народных восстаний и стрелецких бунтов, но и активного присоединения новых земель и географических открытий, существенно раздвинувших границы государства, а также время становления российской дипломатии, открывшей стране горизонты незнакомых ранее пространств и миров. Как писал П.Е.Скачков, средневековая культура постепенно сдавала свои позиции, уступая место новым культурным ценностям и вызывая интерес к другим странам: Запад привлекал развитием инженерно-технических и гуманитарных наук, Восток – неосвоенными территориями и экзотичностью [7,с.342].

Учеными-историками отмечено, что в этот период выделяются два основных направления, по которым могли двигаться русские послы, путешественники и мореходы – северо-восточное (Сибирь и Дальний Восток) и юго-восточное (Средняя и Центральная Азия, в том числе Монголия, Китай) [1,с.238]. Проводниками нового были духовные лица, торговцы, государевы посланники, землепроходцы, военные, моряки, бывшие пленники и др., вступавшие в непосредственный контакт с чужой культурой и накапливающие впечатления о пребывании в чужих землях для современников.

Справедливо и своевременно указание акад. А.Н.Кононова на то, что «изучение и популяризация истории востоковедения имеет не только важное научное значение, но и большое воспитательное значение. Избирая новый путь,

нельзя забывать путь пройденный, дабы не оставить без должного внимания то хорошее и полезное, что было в прошлом, и не повторить того, что было в прошлом плохого и ненужного» [5,с.183].

Следует отметить, что к концу XIX века русское востоковедение прошло значительное развитие и можно отметить целый ряд имен ученых-лингвистов, которыми по праву можно гордиться. Это имена таких ученых, как И.Н.Березин, В.В.Григорьев, В.В.Радлов, П.С.Савельев и др. Нельзя сказать, что ученые XX века не проявляли интерес к Средней Азии, так как традиции востоковедов-лингвистов нашли отражение в работах Г.Добродомова, Д.Кулмаматова, Ф.Фаизовой, О.Чупонова, О.Хужановой и др. До сих пор продолжается процесс собирания, каталогизации и изучения восточных рукописей, в частности рукописей среднеазиатского происхождения. Среднеазиатские рукописи содержат сведения об истории и культуре Средней Азии и представляют собой источники для лингвистического исследования языка того времени.

Факт остается фактом, но рукописей, введенных в научный обиход, немного. Памятники письменности – скорописные деловые документы - а именно среднеазиатские дела Посольского приказа относятся к такому роду рукописей, чем и представляют актуальность нашего исследования. Многие документы содержали общие сведения о богатом историческом прошлом Средней Азии. По содержанию рукописных памятников, можно сделать вывод, что послы и участники посольских миссий, а также военные деятели не сообщали сведений, характеризовавших черты жизни и быта народов Средней Азии, в частности Хивинского ханства.

«Почти все востоковеды в прошлом, в силу сложности и слабой изученности исходного исследовательского материала, - были... учеными-универсалами, сочетающими в себе языковеда, литературоведа, этнографа, историка. Более того, в течение всего дооктябрьского периода развития научного востоковедения, как правило, в одном лице соединялся арабист, иранист, тюрколог, так были построены программы университетского преподавания, что определялось историей формирования культуры и религии арабских, иранских, тюркских народов» [3,с.3-4].

Необходимо отметить, что большой вклад в изучение памятников письменности внес ученый Н.И.Веселовский, который занимался филологическим истолкованием монгольских и турецких слов и терминов в сфере взимания податей и несения повинностей по текстам ханских грамот. Можно отметить следующие труды Н.И.Веселовского “Очерк историко-географических сведений о Хивинском ханстве от древнейших времен до настоящего” (1877), “ Посольство в Хиву Ивана Михайловича Федотова и его статейный список пребывания в Хиве. 1669-1670” (1882), “Прием и отпуск среднеазиатских послов в XVII и XVIII столетиях” (1884) и др.

В 2021 году Л.Ю.Астахиной опубликован научный труд «Источники по исторической лексикологии русского языка», где характеризуются источники, которые могут послужить основанием для работы с памятниками письменности. Автор отмечает, что основами лингвистического источниковедения являются: а) источник, памятник, текст, отдельная рукопись, уделяет внимание категориям лингвистического источниковедения [2,с.493].

Как было уже отмечено, основной задачей лингвистического источниковедения является подготовка и введение в научный оборот путем издания памятников письменности. В частности следует отметить, что памятники письменности, а именно Среднеазиатские дела Посольского приказа, отражают сведения о хивинском царевиче Авгане Мухаммеде и хранятся в ЦГАДе в рукописном виде. Описывая и обосновывая задачи лингвистического источниковедения И.А.Малышева, отмечает, лингвоисточниковедческие задачи необходимо понимать комплексно. “Не менее важно, – пишет она, – готовить памятник к лингвистическому исследованию: изучить рукопись в разных аспектах (происхождение, назначение, авторство, состав и структура, связь с другими текстами, обусловленность языка памятника обстоятельствами его создания и бытования и т.д.) с целью определения её ценности для лингвистических изысканий” [6,с.4].

TAMADDUN NURI

Среди многочисленных неизданных памятников XVII века, относящихся к истории дипломатических сношений России со Средней Азией, как было отмечено выше, важное место занимают среднеазиатские дела Посольского приказа, содержащие сведения о хивинском царевиче Авгане Мухаммеде. Из содержания документов следует, что основная цель состояла в изучении культурной, политической и экономической жизни среднеазиатских ханств, а также в укреплении торгово-дипломатических связей Российского государства с Хивинским и Бухарским ханствами.

Документы содержат сведения о политической обстановке, культурно-экономической жизни Хивинского ханства середины XVII века, что представляет интерес как для истории России, так и для истории Средней Азии. Особое место отводилось описанию места прибывания, многочисленных встреч, бесед и переписке с ханами и царями.

Необходимо отметить, что все факты в деловых документах Посольского приказа изложены довольно точно и изящно. Язык исследуемых документов обилен грамматическими и синтаксическими оборотами, обилен простыми и сложными синтаксическими конструкциями. В делах Посольского приказа о хивинском царевиче Авгане Мухаммеде содержится интересный материал, по которому можно судить о соотношении книжного и народно-разговорных элементов в языке русской деловой письменности.

Перед нами стоит задача – определить значимость рукописей Среднеазиатских дел Посольского приказа, отражающих сведения о хивинском царевиче Авгане Мухаммеде. Эти тексты документов обладают своеобразной спецификой, которая получила выражение в номенклатуре деловых бумаг, в особенностях некоторых формул. Это способствовало порождению специфических жанров документов. Согласно С.И.Коткову и З.Д.Поповой, в основном различаются три группы источников:

1. Официальные деловые бумаги (тексты актового характера) и деловые грамотки.

2. Грамотки близких родственников.

3. Официальные деловые бумаги и грамотки, включающие запись устной речи [4, с.15].

Все официальные деловые бумаги имели каноническую структуру, так называемый формуляр. Обычно, лингвисты-источниковеды, издавая рукописи, стараются передать все без каких-либо изменений для будущих исследователей. В данном случае уместным считаем тезис С.И.Коткова «исследование для издания», предполагающий изучение источника по параметрам, которые помогут найти в нем необходимое для исследователя. Рассматриваемые нами письма как разновидность эпистолярного жанра являются своеобразным литературным памятником, соединяющим в себе черты частного письма и официального документа, восточной разговорной речи в современном им русском переводе и делового канцелярского языка московских приказов XVII в.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ. Опираясь на мнение акад. Д.Н. Шмелева о сочетаемости или валентности слов, считаем, что способность слова сочетаться с другими словами может быть это не значение слова, а показатель значения, а определить семантику слова “невозможно без соотнесения определяемого слова с какой-то внеязыковой «реалией»”, многократно подтверждается в лексикологических разысканиях при работе над историческим словарём.

Можно согласиться и с его утверждением, что в таких случаях “никакие контексты употребления слова не будут достаточными для его понимания” [9,с.72].

Исследуя памятники письменности, мы пришли к выводу, что лексическое значение лексемы можно определить по контексту и зафиксировать в историческом словаре.

Следовательно, текст исследуемых документов особенно богат фонетическими, лексическими и грамматическими средствами. Исследуемые памятники русской деловой письменности содержат слова собственно русского и иноязычного происхождения.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

TAMADDUN NURI

1.Александров В.А. Россия на дальневосточных рубежах (вторая половина XVII в.) / В.А.Александров. – М. : Наука, 1969. – 238 с.
2.Астахина Л.Ю. Источники по исторической лексикологии русского языка. – Воронеж, 2021 – 493 с.
3.Кононов А.Н. История изучения тюркских языков в России. Дооктябрьский период. – Л., 1972 – с.3.
4. Котков С.И., Попова З.Д. Очерки по синтаксису южновеликорусской письменности XVII века. –Москва «Наука», 1986 – 160 с.
5. Лунин Б.В. Средняя Азия в научном наследии отечественного востоковедения. – Т.: Фан, 1979 – 183 с.
6. Малышева И.А. Памятники деловой письменности XVIII в. как объект лингвистического источниковедения. – Хабаровск: Изд-во Хабаровского гос-го пед-го инст-та, 1997 -182 с.
7Скачков П.Е. Очерки истории русского китаеведения / П. Е. Скачков. – М. : Наука, 1977. – 505 с.
8. Шелепова Л.И. Лингвистическое источниковедение: к истории и методологии науки // Актуальные проблемы русистики: материалы Междунар. науч. 217 конф. – Томск, 2003. – Вып. 2. – С. 316–323.
9. Шмелев Д.Н. Очерки по семасиологии русского языка. – М.:Просвещение, 1964 – 244 с.
10. Курбанбаева, М. (2023). Пословицы и поговорки со схожим значением в русском и узбекском языках и общность народной мудрости. Tamaddun nuri jurnali, 4(43), 15-18.
11. Курбанбаева, М. (2023). Влияние современного жаргонизма на изучение русского литературного языка иноязычной молодежью. Tamaddun nuri jurnali, *4*(43), 52-55.
12. Курбанбаева, М. (2023). Важность формирования навыков самостоятельного мышления при подготовке конкурентоспособных кадров. Tamaddun nuri jurnali, *5*(44), 95-96.
13. Курбанбаева, М. (2024). Использование русских народных сказок в процессе изучения языка и формирования гуманизма у детей. Tamaddun nuri jurnali, 5(56), 520-522.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 303.001.891

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING GENDER YONDASHUV ASOSIDA O‘QUVCHILARNI IJTIMOIYLASHTIRISHGA YO‘NALTIRILGAN PEDAGOGIK TAYYORGARLIGINING AHAMIYATI

Sharifzoda Sardorbek O‘razboy tabib o‘g‘li, Ma’mun universiteti rektor v.b., pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), dotsent

https://orcid.org/0000-0003-4733-8204
e-mail: sharifzoda_sardorbek@mamunedu.uz

ЗНАЧЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ДЛЯ СОЦИАЛИЗАЦИИ УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ ГЕНДЕРНОГО ПОДХОДА

Шарифзода Сардорбек Ўразбой табиб оглы, и.о. ректора университета Мамун, доктор философии по педагогическим наукам (PhD), доцент

THE IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL TRAINING FOR FUTURE TEACHERS TO SOCIALIZE STUDENTS ON THE BASIS OF A GENDER APPROACH

Sharifzoda Sardorbek O‘razboy tabib o‘g‘li, Acting rector of Mamun University Doctor of philosophy in pedagogical sciences, associate professor

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘quv jarayonida gender tenglikni hisobga olib tayyorlashning pedagogik tamoyillari va metodlari tahlil qilinadi. Shuningdek, gender yondashuv asosida o‘quvchilarning ijtimoiylashuvi jarayoniga ta’sir etuvchi omillar, metodik yondashuvlar va pedagogik tayyorgarlik dasturlarining samaradorligi muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari, gender sezgirligini oshirish orqali ta’lim jarayonini takomillashtirish va ijtimoiylashuvni jadallashtirishning usullarini aniqlashga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim tizimi, pedagogik faoliyat, gender yondashuvi, ijtimoiylashuv, kasbiy ta’lim, tadqiqot, gender, pedagogik tayyorgarlik.

Abstract: In this article analyzes the pedagogical principles and methods of training future teachers taking into account gender equality in the educational process. Also, factors influencing the process of socialization of students based on the gender approach, methodical approaches and effectiveness of pedagogical training programs are discussed. The results of the research are aimed at identifying ways to improve the educational process and accelerate socialization by increasing gender sensitivity.

Key words: Educational system, pedagogical activity, gender approach, socialization, professional education, research, gender, pedagogical training.

Аннотация: В данной статье анализируются педагогические принципы и методы подготовки будущих учителей с учетом гендерного равенства в образовательном процессе. Также обсуждаются факторы, влияющие на процесс социализации студентов на основе гендерного подхода, методических подходов и эффективности программ педагогической подготовки. Результаты исследования

направлены на выявление путей совершенствования образовательного процесса и ускорения социализации за счет повышения гендерной чувствительности. Такой подход важен в развитии профессиональной компетентности учителей, поскольку ожидается, что они помогут адаптироваться к социально-политическим изменениям и обеспечить гендерное равенство

Ключевые слова: система образования, педагогическая деятельность, гендерный подход, социализация, профессиональное образование, исследования, гендер, педагогическая подготовка.

KIRISH. Zamonaviy jamiyatda ta'lim o'zining rivojlanishining yangi bosqichiga o'tdi, bu har bir inson uchun erta yoshdan boshlab o'qitish uchun keng imkoniyatlarni yaratish bilan bog'liq. Bunday sharoitda talabalarni, bo'lajak o'qituvchilarni maktab o'quvchilarini o'qitishda gender yondashuvini amalga oshirishga tayyorlash dolzarb bo'lib qoladi, chunki o'qitishda gender yondashuvining maqsadi har bir talaba shaxsining o'ziga xos individualligini shakllantirish va saqlashga yordam berishdir.

Bizning fikrimizcha, ta'lim mazmuniga, uning tashkiliy shakllariga va metodik tomoniga ta'sir ko'rsatadigan o'qitishda amalga oshirilgan gender yondashuvi har bir o'quvchiga o'zining shaxsiy, ijtimoiy va intellektual salohiyatini namoyish etish va amalga oshirishga imkon beradi.

Talabalarning kasbiy tayyorgarligiga e'tiborni kuchaytirish, texnologik fanlarni o'qitishni qayta qurish rivojlangan mamlakatlarda umumiy tendensiya bo'lib, texnologiya kasbiy tayyorgarlik emas, balki turli kasblarning kelajakdagi mutaxassislari madaniyatining elementi degan g'oyani amalga oshiradi. Shu bilan birga, "texnologiya" ta'lim sohasi talabalarni materiallar, energiya va axborotni o'zgartirish texnologiyalari bilan tanishtirish, ijodkorlikni rivojlantirish, ularning ijtimoiylashuvini ta'minlash, moddiy ishlab chiqarish sohasida mehnatga hurmat va qiziqishni shakllantirish imkonini beradi. O'qituvchilarning kasbiy va pedagogik shakllanishining butun jarayonini uchta asosiy, bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan tarkibiy qismlarga bo'lish mumkin.

Birinchisi, inson psixologiyasining turli sohalarini, ta'lim nazariyasini, ta'lim nazariyasi va metodologiyasini, pedagogik texnologiyalarni, ta'lim tarixini va boshqalarni o'rganishni, shuningdek, ta'lim muassasalarida pedagogik amaliyotni o'z ichiga olgan umumiy psixologik va pedagogik tayyorgarlikdir. Ushbu tayyorgarlik talabaga kelajakdagi ish faoliyati — bola, odam, shaxsning aqliy rivojlanish qonuniyatlari, o'quv jarayonini tashkil etish va amalga oshirish va boshqalar to'g'risida bilim beradi.

Ikkinchisi maxsus texnik yoki fan tayyorgarligi umumiy ilmiy umumiy texnologik va iqtisodiy (iqtisodiy nazariyalar, menejment va boshqalar) fanlarini o'rganishdan iborat. Mavzu bo'yicha o'qitish bo'lajak o'qituvchilarga ushbu faoliyatni, ushbu bilim, ko'nikma va ko'nikmalarni, shaxsning maxsus fazilatlarini, uning e'tiqodlarini, tashqi dunyoga bo'lgan munosabatini o'zlashtirishga imkon beradi, ulardan talabalarini o'qitish mazmuni olinadi, ya'ni u maktabda ta'lim jarayonida nimani o'rgatadi.

Uchinchisi-uslubiy tayyorgarlik o'qitish metodologiyasining umumiy asoslarini, umumiy ta'lim muassasalarida o'rganilayotgan turli texnologiyalarni o'qitishning xususiy usullarini va pedagogik amaliyotni o'zlashtirishdan iborat. Uslubiy tayyorgarlikning vazifasi o'qituvchilarning kasbiy va pedagogik faoliyatini bevosita o'zlashtirishdir. Ushbu muammoni hal qilish ta'lim va tarbiyaning aqliy asoslari va umumiy pedagogik qonuniyatlariga, ya'ni bir tomondan umumiy psixologik va pedagogik tayyorgarlikka, ikkinchi tomondan texnologik faoliyat, ya'ni fan ta'limi haqidagi bilimlarga asoslanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. 1998-yildan beri gender tadqiqotlari oliy ta'lim tizimida institutsionalizatsiya qilingan deb taxmin qilish uchun asos bor. Oliy o'quv yurtlari ilmiy faoliyatining muhim yo'nalishi gender nazariyalari sohasida ilmiy kadrlar tayyorlash, gender mavzusidagi maxsus kurslar o'qituvchilari uchun o'quv-uslubiy bazani shakllantirish, olimlar jamoalari o'rtasida ilmiy ma'lumotlar almashish bo'ldi. Ushbu yangi sharoitlarda bo'lajak o'qituvchining maktab o'quvchilarini o'qitishda gender yondashuvini amalga oshirishga tayyorligini shakllantirish dolzarb bo'lib qoladi, chunki o'quvchining shaxsini har tomonlama ochib berish, shu jumladan jins nuqtayi nazaridan, o'sib borayotgan odamning hayoti va shaxsiy taqdirini belgilashning ajralmas jarayonlarining eng muhim tarkibiy qismidir.

Keling, “tayyorgarlik” tushunchasining mohiyatini ko‘rib chiqish bilan bog‘liq ilmiy adabiyotlarni tahlil qilishga murojaat qilaylik. Psixologlar V.A.Krutetskiy, M.V.Mataxin, S.L.Rubinshteynning asarlarida tayyorlik uning rag‘batlantiruvchi va ijro etuvchi tarkibiy qismlarining ajralmas birligi sifatida belgilanadi. M.I.Dyachenko [2; 206.], L.A.Kandibovich tayyorlikni “shaxsning alohida ruhiy holati” va “har qanday faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy asosiy sharti” deb ta’riflaydi. V.A.Slastenin [3;80] ta’limni talabalarni tizim shaklida taqdim etilgan bilim, ko‘nikma va ko‘nikmalar bilan jihozlash maqsadida kasbiy tayyorgarlik jarayoni deb biladi va tayyorgarlik bilan muallif kasbiy tayyorgarlik natijasini tushunadi, uning mohiyati o‘z-o‘zini tarbiyalash qobiliyatida yotadi. K.M.Duray-Novakova “Kasbga tayyorgarlik unga tayyorlikni shakllantirishdan boshqa narsa emasligi”ni ta’kidlaydi[1;329].

MUHOKAMA. Biz psixologik va pedagogik adabiyotlarni “tayyorgarlik” tushunchasining mohiyatini ochib berish nuqtayi nazaridan tahlil qilamiz. Tayyorgarlik tushunchasi aniq talqin qilinmaydi va ko‘plab olimlar tomonidan ko‘rib chiqiladi:

-tayyorgarlik sub’ektiv faoliyatni ozmi-ko‘pmi muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beradigan fazilatlar, xususiyatlar va holatlarning ko‘p qirrali va ko‘p darajali tuzilishi bilan tavsiflanadigan murakkab shaxsiy ta’lim sifatida. Ya’ni: kasbga ijobiy munosabat; kasb talablariga mos keladigan xarakter xususiyatlari, qobiliyatlari, temperamenti, motivatsiyasi, aqliy jarayonlarning kasbiy muhim xususiyatlari, zarur bilim, ko‘nikma va malakalar;

-tayyorgarlik shaxsning ijtimoiy xulq-atvorini tavsiflovchi ijtimoiy qat’iy munosabat sifatida, faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishning psixologik sharti sifatida, tanani, shaxsni kelajakdagi faoliyatga moslashtiradigan selektiv faoliyat sifatida, pedagogik harakatlarning muvaffaqiyatini belgilaydigan funksional holat sifatida;

-o‘qituvchi shaxsining kasbiy roliga muvaffaqiyatli kirishining eng yaxshi psixologik asosini belgilaydigan ichki xususiyatlar sifatida tayyorgarlik;

-tayyorlik o‘qituvchining asosiy funksiyalarining samarali bajarilishini ta’minlaydigan bitiruvchining shaxsiy fazilatlari tizimi sifatida.

Shu bilan birga, bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatning turli jihatlariga tayyorligini o‘rganishda ikkita yondashuv mavjud: an’anaviy (tayyorlik munosabat sifatida qaraladi) va yaxlit shaxsga yo‘naltirilgan (tayyorgarlik integral, ammo heterojen xususiyatlar majmuasi sifatida qaraladi).

Yuqoridagilarni umumlashtirib, biz tayyorgarlik tushunchasi ko‘pincha psixologik va pedagogik adabiyotlarda ko‘rib chiqilishini va psixologlar va o‘qituvchilar ushbu konsepsiyaga boshqacha ma’no berishini aniqladik. Bizning nuqtayi nazarimizga ko‘ra, psixolog olimlarning ishlarida tayyorgarlikni aniqlash uchun ba’zi yondashuvlarni ko‘rib chiqish kerak. Psixologik tayyorgarlikning mohiyatini talqin qilishda ikkita asosiy yondashuv mavjud:

Birinchisi, maxsus, uzoq muddatli yoki qisqa muddatli ruhiy holat sifatida tayyorgarlik. Odatdagi tayyorlik ko‘pincha odam odatdagi ishni boshlaganda sodir bo‘ladi, bu vaqtda unga yuqori talablar qo‘yilmaydi. Yuqori tayyorgarlik holati ishning yangiligi va ijodiy tabiati, maxsus rag‘batlantirish, yaxshi jismoniy farovonlik va boshqalar tufayli yuzaga keladi. Tayyorgarlikning pasayishi shaxsning kuchli va nazoratsiz hissiyotlari tufayli yuzaga kelishi mumkin va chalg‘itishda, yig‘ilmaslikda, noto‘g‘ri harakatlarda namoyon bo‘ladi. Shuningdek, ko‘plab mahalliy va xorijiy psixologlarning ta’kidlashicha, shaxsning o‘ziga xos holati sifatida tayyorgarlik subyekt miyasi, turli tizimlar va organlar faoliyatining umumiy o‘sishidan tashqarida paydo bo‘lishi mumkin emas, harakatga tayyorlik tabiiy (fiziologik) boshlang‘ich nuqtaga ega.

Ikkinchi yondashuv – bu ma’lum bir faoliyat turiga tayyorgarlik natijasida hosil bo‘lgan shaxsning barqaror xususiyati sifatida tayyorgarlik. U uzoq muddatli tayyorgarlik deb ataladi va shaxsning e’tiqodi, munosabati, motivlari, hissiyotlari, irodaviy va intellektual fazilatlari, munosabati, muayyan xatti-harakatlar. Olimlar tarkibiy qismlar sifatida quyidagilarni nomlashadi:

1) faoliyatning ma’lum bir turiga ijobiy munosabat;

2) xarakter xususiyatlari, motivlari, faoliyatning, kasbning yetarli talablari;

3) zarur bilim, ko‘nikmalar;

4) idrok etish, e’tibor, fikrlash, hissiy va ixtiyoriy jarayonlarning barqaror, kasbiy muhim jarayonlari.

Yuqoridagi psixologik yondashuvlarni umumlashtirish natijasida shuni ta'kidlash kerakki, insonning faoliyatga tayyorligining barcha turli tarkibiy qismlari va namoyon bo'lishi psixologiyada to'g'ri rivojlanish va tizimlashtirishga erishilmagan, ammo shu bilan birga, faoliyat dinamik va yaxlit tuzilishida asosiy, yo'naltiruvchi ta'lim deb atash mumkinligi aniq motivatsion tayyorlikdir.

NATIJALAR. Faoliyatga psixologik tayyorgarlikning tuzilishini hisobga olgan holda, uni amalga oshirishning quyidagi bosqichlarini ajratish mumkin:

-ularning ehtiyojlari, jamiyat, jamoa talablari to'g'risida xabardorlik;

-maqsadlarni anglash, ularning echimi belgilangan vazifalarni bajarishga olib keladi;

-kelgusi harakatlar sodir bo'ladigan sharoitlarni tushunish va baholash;

-muammolarni hal qilishning eng mumkin bo'lgan usullarini tajriba asosida aniqlash va bo'lajak faoliyat sharoitlarini baholash;

-ularning intellektual, motivatsion va ixtiyoriy jarayonlarining namoyon bo'lishini bashorat qilish.

Shunday qilib, maxsus adabiyotlarni tahlil qilib, biz faoliyatga tayyorgarlikni o'rganishning eng qiyin vazifasi uning asosiy tarkibiy qismlarini, ya'ni uning tarkibiy qismlarini ajratish ekanligini aniqladik. Shuni yana bir bor ta'kidlash kerakki, tayyorlik holati, psixologlar nuqtayi nazaridan, murakkab dinamik tuzilishga ega va quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

-motivatsion (vazifalarni bajarish uchun javobgarlik, burch hissi);

-oriyentatsiya (bo'lajak faoliyatning xususiyatlari va shartlari, uning shaxsga bo'lgan talablari to'g'risida bilim va g'oyalar);

-operatsion (faoliyat usullari, zarur bilim, ko'nikma, tahlil qilish, sintez qilish, taqqoslash, umumlashtirish);

-ixtiyoriy (o'z-o'zini boshqarish, vazifalarni bajarishni tashkil etadigan harakatlarni boshqarish qobiliyati);

-baholash (kasbiy muammolarni hal qilish jarayonining optimal namunalarga tayyorligi va muvofiqligini, o'z-o'zini baholash).

Ko'pgina olimlarning yondashuvini hisobga olgan holda, sanab o'tilgan tarkibiy qismlarning yetarlicha rivojlanishi va jiddiyligi va ularning yaxlit birligi mutaxassisning yuqori darajadagi tayyorgarligi, uning faoliyati, mustaqilligi, faoliyat jarayonida ijodkorlikning namoyon bo'lishining ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, bizning tadqiqotimizning bir qismi sifatida tayyorlik davlat yoki shaxs sifatida ko'rib chiqilishi muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari, tayyorlik tuzilishining psixologik talqinlari bizning tadqiqotlarimiz uchun shubhasiz muhimdir. Shunday qilib, tadqiqotchilar tomonidan tayyorgarlik faoliyatning sharti va regulyatori sifatida, tayyorgarlik jarayonining samaradorligi mezonlaridan biri sifatida, shaxsning yaxlit xususiyatlari tizimi sifatida, ta'lim mazmunini talqin qilishning shaxsiy shakli sifatida va kelajakdagi faoliyatga munosabat sifatida tushuniladi. Tajriba, nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, shaxsiy fazilatlar integratsiyasi asosida murakkab individual psixologik ta'lim, integrativ sifatida shaxsning asosiy sifati yotadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Дурай-Новакова,К.М. Формирование профессиональной готовности студентов к педагогической деятельности [Текст] : дис. ... д-ра пед. наук / К. М. Дурай-Новакова. - М., 1986. - 332 с.
2. Дьяченко,М.И. Готовность к деятельности в напряженных ситуациях: психологический аспект [Текст] / М.И.Дьяченко, Л.А.Кандыбович, В.А.Пономаренко. - Минск: Университетское, 1985. - 206 с.
3. Сластенин,В.А. Профессионально-педагогическая подготовка современного учителя [Текст] / В.А.Сластенин, А.И.Мищенко,// Советская педагогика. - 1991. - № 10. - С. 79-84.
4. Sharifzoda,S.O. Pedagogical conditions for the organization of gender based training Innovative research in modern education. Hosted from Toronto, Canada30, 4.

Qabul qilindi: 05.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 1751

QORAKO‘L VA OLOT HUDUDLARI LEKSIKASIGA GEOGRAFIK JOYLASHUV OMILLARINING TA’SIRI

Islomova E’zoza Yorqin qizi
Navoiy davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 4-kurs talabasi

INFLUENCE OF GEOGRAPHIC LOCATION FACTORS ON THE LEXICON OF THE KARAKOL AND OLOT REGIONS

Islamova Ezoza Yorkin kizi
4th year student of the Uzbek language and literature faculty of the Navoi State Pedagogical Institute

ВЛИЯНИЕ ФАКТОРОВ ГЕОГРАФИЧЕСКОГО ПОЛОЖЕНИЯ НА ЛЕКСИКУ КАРАКОЛЬСКОГО И ОЛОТСКОГО РАЙОНОВ

Исламова Эзоза Йоркиновна
Студентка 4 курса факультета узбекского языка и литературы Навоийского государственного педагогического института

ORCID ID: 0009-0008-7613-540X
ezozaislomova13@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Qorako‘l va Olot tumanlari dialektiga geografik joylashuv, tarixiy-etimologik va etnik omillarning ta’siri o‘rganiladi. O‘zbekistonning mustaqillikka erishishi bilan hududlarda adabiy tilga moslashish jarayoni kuzatilayotgan bo‘lsa-da, Qorako‘l va Olot tumanlarining og‘zaki nutqida o‘ziga xos leksik va morfologik xususiyatlar saqlanib qolgan.

Kalit so‘zlar: o‘g‘uz dialekti, leksik xususiyat, morfologik xususiyat, fonetik xususiyat, tarixiy-etimologik omil, geografik joylashuv omili, etnik omil, etnik jarayon, sheva, lahja, qabila.

Аннотация: В статье рассматривается влияние географического положения, историко-этимологического и этнического факторов на диалект Каракольского и Олотского районов. Хотя процесс адаптации к литературному языку наблюдается в регионах после обретения независимости Узбекистана, устная речь Каракольского и Олотского районов сохранила свои лексико-морфологические особенности.

Ключевые слова: огузский диалект, лексический признак, морфологический признак, фонетический признак, историко-этимологический фактор, фактор географического положения, этнический фактор, этнический процесс, диалект, говор, племя.

Abstract: The article examines the influence of geographic location, historical-etymological and ethnic factors on the dialect of Karakol and Olot districts. Although the process of adaptation to the literary language is being observed in the regions after the independence of Uzbekistan, the oral speech of Karakol and Olot regions has preserved its own lexical and morphological features.

Key words: Oghuz dialect, lexical feature, morphological feature, phonetic feature, historical-etymological factor, geographical location factor, ethnic factor, ethnic process, dialect, dialect, tribe.

KIRISH / ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION. Mustaqil O‘zbekistonimizda ilm-fan,madaniyat va san’atning gurkirab rivojlanishi, ta’lim sohasidagi islohotlar,jumladan, chekka-chekka qishloqlarda ham yangi maktablar, litsey, kollejlarning qurilib ishga tushirilishi,

kompyuterlarning kirib borishi,shuningdek, televideniye va aloqa vositalari ta’sirida bugungi kunga kelib o‘zbek tilining barcha dialekt va shevalarida adabiy tilga yaqinlashish,leksik va morfologik jihatlardan adabiy til normalariga moslashish yaqqol sezilmoqda. Qorako‘l va Olot hududlari dialektiga geografik joylashuv, tarixiy-etimologik va etnik omillarning ta'siri bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, til va lahjalarning shakllanishida, rivojlanishida nafaqat lingvistik omillar, balki geografik, ijtimoiy va madaniy omillar ham katta rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada muhokama qilinganidek, O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin adabiy tilga moslashish jarayoni davom etsa-da, chekka hududlardagi dialekt va shevalar o‘ziga xos xususiyatlarini saqlab qolgan. Ayniqsa, Qorako‘l va Olot hududlarining geografik joylashuvi, chekka joylarda joylashganligi, aholisining tarixiy ko‘chmanchilik tajribalari va etnik tarkibi bu hududlarning tiliga sezilarli ta'sir ko‘rsatgan.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Quyi Zarafshon vohasining oxiri – Amudaryo bo‘ylariga tutash hududda joylashgan Qorako‘l va Olot tumanlari aholisining og‘zaki so‘zlashuvi bo‘lgan o‘g‘uz dialekti esa hozirgi davrda ham azaliy o‘ziga xosligi,qadimiy leksik va morfologik xususiyatlarini yo‘qotmasdan saqlab kelmoqdaki,buning bir nechta asosiy omillari mavjuddir.

1.Geografik joylashuv omili;birinchidan, **Geografik omillar asosiy rolni o‘ynaganini ko‘rish mumkin.** Qorako‘l va Olot tumanlari O‘zbekistonning chekka hududlarida joylashganligi sababli, bu yerlarda yashovchi aholi uzoq vaqt davomida turli qabilalar va etnik guruhlar bilan aloqa qilishgan. Qashqadaryo, Xorazm, Tojikiston va Turkmaniston kabi qo‘shni hududlar bilan bordi-keldilar bu voha dialektiga o‘ziga xos o‘zgarishlar kiritgan. Masalan, Olot tumanidagi ba'zi qishloqlarda “maa” va “tiraxto‘r” so‘zlari ishlatilsa, boshqa qishloqlarda esa “moshin” va “tiraktur” so‘zlari qo‘llaniladi. Bu lahjalar orasidagi farqlar ko‘proq hududiy aloqalar va tarixiy ko‘chmanchilik jarayonlari bilan bog‘liq. Qorako‘l va Olot sharqida Qashqadaryo viloyatining Muborak va Mirishkor tumanlari bilan ,janubda Turkmanistonning Forob,Chorjo‘y,Darg‘onota tumanlari ,Qizilqum yaylovlari orqali Xorazm,shimolida qisman tojik tilda so‘zlashuvchi aholi yashaydigan Jondor tumanlari bilan azaliy bordi-keldi,quda-anda. Bu esa mazkur vohadagi so‘zlashuv shevasiga ham ta’sir ko‘rsatgan.Masalan:Olot tumanining Qashqadaryo bilan chegaradosh hududidagi Chovdur,Eshakchi qishloqlari aholisi “maa:shin”, “tiraxto‘r”deb talaffuz qilsa,Qorako‘l shahriga yaqin bo‘lgan Qoravul va Pichoqchi qishloqlari shevasida “moshin” , “tiraktur”deb aytiladi. Ikkinchidan, hududdagi aholi asosan qishloqlarda yashaydi.Bu qishloqlar esa Buxoro shahridan 68-116 km ,Qorako‘l va Olot shaharchalaridan 5-10,20-26 km uzoqlikda joylashgan,ya’ni aholi faqat shahar va tuman markazlariga borgandagina adabiy tildan foydalanadi.

2.Tarixiy-etimologik omil:**Tarixiy-etimologik omillar ham hududdagi til xususiyatlariga katta ta'sir ko‘rsatgan.** Qadim zamonlarda mazkur hudud aholisi ko‘plab migratsiya jarayonlariga duch kelgan, bu esa ularning dialektiga turli xil leksik va morfologik o‘zgarishlarni olib kelgan. Xorazm, Qarshi va Amudaryo bo‘ylari kabi hududlardan kelgan ko‘chmanchi qabilalar bu hudud aholisi bilan birlashib, ularning tiliga ta'sir o‘tkazgan. Shuningdek, hududda yashovchi etnik guruhlarning aralashuvi, masalan, chandir va chovdur qabilalarining tilga kiritgan hissasi dialektlarni yanada rang-barang qilgan. Bularning barchasi hududning til va shevasining boshqa o‘g‘uz dialektlaridan farqlanishiga olib kelgan. Keksalarning guvohlik berishlaricha, qadimda mazkur tumanlar aholisi ayrim qismlari Xorazm, Qarshi,Kaspiy bo‘ylari va Amudaryo yoqalaridan ko‘chib kelishgan.Bundan tashqari,1920 yilga qadar Chorjo‘y va Qarshi Buxoro amirligi tasarrufida bo‘lganligi boisdan Qorako‘l va Olot tumanlari aholisi Chorjo‘y,Qorako‘l va Qarshi orasida ko‘chmanchilik tarzida yashab dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanishgan. Aynan shu jarayonlar ham Quyi Zarafshon etaklaridagi aholi so‘zlashuv dialektida o‘ziga xos rang-barangliklar paydo bo‘lishiga olib kelgan.

3.Etnik omil: yuqorida ta’kidlaganimizdek ,bu hududga asrlar mobaynida turli joylardan turli xil ko‘chmanchi qabilalar kelib o‘rnashgan.Bular orasida o‘zbeklar va o‘g‘uzlardan tashqari turkmanlar,arablar,urganjiylar, Kaspiy bo‘ylaridan chandir va chovdur qabilalari,qisman tojiklar va totorlar,mo‘g‘ullar va boshqa turli qabila va urug‘ shevalari o‘zbek tilining o‘g‘uz dialektiga aralashib

TAMADDUN NURI

ketganligi uchun bugungi kunda ushbu hududdagi so‘zlashuv dialekti boshqa o‘g‘uz shevalaridan sezilarli ravishda farq qiladi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION). Diqqat bilan qaraydigan bo‘lsak, bitta qishloqdagi sheva xususiyatlari orqali ham etnik jarayon ta’sirini sezish mumkin.Aytaylik,Qorako‘l va Olot tumanlaridagi Chandir qishloqlarida yashovchi chandirlar arini “zombir” deyishadi. Xuddi shu qishloqda yashovchi,lekin kelib chiqishi Amudaryo bo‘ylarida yashovchi qabilalarga borib taqaladigan kishilar “ori” deb atashadi.Yoki morfologik jihatini olib qaraydigan bo‘lsak, “borgan edik”, “kelgan edik”fe’lini olib qaraydigan bo‘lsak,ayrim mahallalar ahli “boribtiq,gelibtik” desa,ayrimlar “borantiq, gelantik”, ba’zilari esa “boribtiqlar, gelibtiqlar” tarzida talaffuz qilishadi.

O‘zbekistonning adabiy tilga yaqinlashish jarayonlari davom etsa-da, geografik va tarixiy-etnik omillar tufayli bu hududlarning o‘ziga xos dialektlari saqlanib qolmoqda. Qorako‘l va Olot tumanlarining dialektlari boshqa o‘g‘uz shevalaridan sezilarli darajada farq qiladi. Masalan, ayrim morfologik shakllar va leksik birliklar boshqa hududlardagi shevalardan tubdan farq qiladi, bu esa tarixiy migratsiyalar va etnik tarkibning xilma-xilligiga bog‘liq.

Tilshunoslikka oid manbalarda tilning ijtimoiy hodisa ekanligi uqtirib o‘tiladi. Biz ham ushbu fikrga qo‘shilgan holda Quyi Zarafshon vohasi ba’zi bir qishloqlari til nuqtayi nazaridan bir-biridan keskin farq qiladi.Buni biz turkman va o‘zbek urug‘larining azaldan yaqin qo‘shni bo‘lib yashashidan deb hisoblaymiz.

Bu holat tilshunoslikdagi tilning ijtimoiy hodisa ekanligi haqidagi nazariyalarni yana bir bor tasdiqlaydi. Chunki, til o‘z rivojlanishida faqat lingvistik qonuniyatlar asosida emas, balki ijtimoiy, etnik va geografik omillar ta'sirida ham shakllanadi va o‘zgaradi. Shu jihatdan, Qorako‘l va Olot tumanlaridagi dialektlarning o‘ziga xosligi ham tilning ijtimoiy hodisa ekanligini ko‘rsatadi.

Kelgusida bu hududning dialektlarini chuqurroq o‘rganish, ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni tahlil qilish va adabiy tilga moslashish jarayonlarini kuzatish o‘zbek tilshunosligi uchun muhim bo‘lib qoladi. Xususan, bu dialektlarning boshqa o‘g‘uz dialektlari bilan o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash, ularning kelib chiqishi va rivojlanishiga oid yangi ilmiy nazariyalar ishlab chiqish uchun keng imkoniyatlar ochib beradi.

Yuqoridagi omillarni hisobga olgan holda, tilning har bir hududda o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi tabiiydir va bu dialektlar madaniy merosimizning ajralmas qismi sifatida qadrli bo‘lib qoladi. Hozirgi paytda esa, globalizatsiya jarayonlari va tilning standartlashuviga qaramasdan, chekka hududlarda o‘ziga xos dialekt va shevalar saqlanib qolayotgani milliy madaniyatning boyligiga hissa qo‘shadi.

Xulosa qilib aytganda, til va lahjalarning shakllanishiga nafaqat lingvistik, balki geografik va ijtimoiy omillar ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Qorako‘l va Olot hududlari misolida ko‘rinib turibdiki, bu hududlarning dialektlari ko‘p asrlik tarixiy jarayonlar, ko‘chmanchilik va etnik aralashuv natijasida shakllangan va bugungi kunda ham o‘ziga xosligini saqlab qolgan. Kelgusida bu hudud dialektlarini yanada chuqurroq o‘rganish va tahlil qilish, ularning lingvistik xususiyatlarini o‘rganish o‘zbek tilshunosligi uchun katta ilmiy ahamiyatga ega bo‘ladi.

ADABIYOTLAR:

1. V. Reshetov, Sh. Shoabdurahmonov. O‘zbek dialektologiyasi. –Toshkent, 1978.
2. A. Doniyorov. Sheva unsurlarining badiiy asarlarda qo‘llanilishi. O‘zbek tili va adabiyoti. -1990.
3. S. Ashirboyev. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2016.
4. N. Rajabov. O‘zbek shevashunosligi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.

F.Musayeva. O‘zbek shevalarining lingvomadaniy tadqiqi. –Toshkent, 2009.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 130.3..821.82-1-9

TINGLAB TUSHUNISH KO‘NIKMASINING MAQSADI VA MUAMMOLARI

Avazova Farangiz Ixtiyor qizi
Sharof Rshidov nomidagi Samarqand davlat universiteti 1-bosqich doktoranti
Ilmiy rahbar: pfd. G‘.H. Hamroyev

farangizavazova97@gmail.com

rcid: https://orcid.org/0000-0002-2745-6324

ЦЕЛЬ И ПРОБЛЕМЫ НАВЫКА ПОНИМАНИЯ НА СЛУХ

Авазова Фариназ Ихтият кызы
Докторант 1 - го этапа Самаркандского государственного университета имени Шарафа Ршидова
Научный руководитель: ПФД. G‘.Н. Хамроев

PURPOSE AND PROBLEMS OF LISTENING COMPREHENSION SKILLS

Avazova Farangiz volitional daughter
1st stage doctoral student of Samarkand State University named after Sharaf Rshidov
Scientific leader: pfd. G‘.H. Hamroev

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi kunda tinglab tushunish ko‘nikmasining ona tili darslarida tutgan o‘rni, o‘quvchilarda ushbu ko‘nikma yuzasidan tushuncha hosil qilish, ularni ushbu ko‘nikma topshirig‘i bilan ishlashga o‘rgatish, tinglab tushunish ko‘nikmasining chet elda va ona tili darslarimizda o‘qitilishi, muammolari va yechimlari haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *kommunikativ qobiliyatlar, tinglab tushunish, nutquy kompetensiya, lingvistik bilimlar, nolingvistik bilimlar, “mikrofon oldida, nutq”, topshiriq.*

Аннотация: *В этой статье рассматривается роль навыка понимания на слух на уроках родного языка сегодня, формирование у учащихся понимания этого навыка, обучение их работе с заданием этого навыка, обучение навыку понимания на слух за рубежом и на наших уроках родного языка, проблемы и решения.*

Ключевые слова: *коммуникативные способности, понимание на слух, речевая компетентность, лингвистические знания, нелингвистические знания, “перед микрофоном, речь”, задание.*

Annotation: *this article will talk about the role of listening comprehension skills in native language lessons today, how students develop an understanding of this skill, teach them to work with this skill assignment, and how listening comprehension skills can be taught abroad and in our native language lessons, problems and solutions.*

Key words:*communicative abilities, listening comprehension, competence, linguistic knowledge, non-linguistic knowledge, “before the microphone, speech”, assignment.*

TAMADDUN NURI

KIRISH. Tinglash – eshitish faoliyati davomida ma'lumotni tushunish qobiliyatiga ega bo'lishni yoki yozma og'zaki muloqotda ma'lumot uzatish qobiliyatiga ega bo'lishni anglatadi. Bu tinglangan narsani tushunish, muloqot qilish va javob berish qobiliyati bilan bog'liq. Yaxshi tinglash qobiliyatiga ega bo'lish til o'rganuvchilar tomonidan o'zlashtirilishi kerak bo'lgan asosiy ko'nikmalardan biridir, chunki u muloqot jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. O'quvchilarning kommunikativ qobiliyatlari ularning tinglash qobiliyatlari bilan birgalikda yaxshi ishlaydi. Chunki har qanday muloqotda ham aytilgan fikrni tinglab to'g'ri tushunish orqali unga aniq javob berish mumkin, ya'ni to'g'ri muloqotga kirishish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, agar tinglash jarayoni ko'nikma hosil qilinib kompetentlik bilan qo'llab-quvvatlanmasa, muloqot yaxshi ishlamaydi, kommunikativlik kamayadi. Bugungi kunda ona tili o'qitishdan asosiy maqsad ham ayni kommunikativlikni oshirish, o'quvchi nutqini to'g'ri va ravon shakllantirishdir. Tinglash esa kundalik muloqot jarayonida asosiy o'rinda turadigan faoliyatlardan biridir.

MUHOKAMA. Tajribalarga asosan insonlarning 35% tinglash, 35% gapirish, 16 % yozish va 9 % o'qish jarayoni bilan mashg'ul bo'lar ekan[1]. Shunday ekan, tinglash jarayoni to'g'ri tashkil etilmasa muloqot maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Bugungi kunda ingliz tilini o'rganish ommalashib bormoqda. Ingliz tilini o'rganuvchilar uchun eng qiyin ko'nikmalardan biri bu tinglab tushunish ko'nikmasidir. Ingliz tili o'rganuvchilari ushbu qobiliyatni to'g'ri shakllantirishlari uchun avvalo, tinglovchilar lug'at, grammatika, talaffuz va boshqa til komponentlari kabi asosiy til bilimlari bilan boyitishlari kerak. O'zbek tilida ham xuddi shunday, o'quvchilar dastlab, lingvistik bilimlarini mustahkamlab olishlari zarur. Chunki topshiriqlar bevosita grammatika va lug'at boyligi bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Ingliz olimi Brown tinglashda ishlatiladigan ikki xil bilim borligini ta'kidlaydi; lingvistik va nolingvistik bilimlar [2]. Tinglab tushunish bo'yicha tilshunoslik bilimlari o'quvchilarning fonologiya, sintaksis, leksika, semantika va nutq tuzilishini tushunish qobiliyatlari bilan bog'liq. Demak, nolingvistik bilimlar mavzu, kontekst va umumiy bilimlar haqidagi tushunchalardir. Ularning ikkalasi ham eshitish ma'lumotlarni tushunish jarayonida juda zarur, chunki tinglash murakkab jarayondir. Demak, tinglash jarayonida o'quvchi bor bilimlarini va diqqatini ishga solishi kerak bo'ladi. Suhbat yoki monologda so'zlovchilar tomonidan qo'llaniladigan so'zlarning ma'nosini va ma'nodoshlarini yaxshi bilmaslik tinglovchilarning ma'lumot olish qobiliyatiga ta'sir qiladi, ayniqsa, odatda hali ham so'z boyligi cheklangan, shevalardan holi bo'lmagan til o'rganuvchilari topshiriqlarda qiyinchilikka ucharashadilar. Ular nutq jarayonida ma'lumotlarni uzatish va qabul qilishda jiddiy muammolarga duch kelishadi. Tinglovchilarning tinglash faoliyatidagi mahoratiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan yana bir omil ularning har bir so'zning talaffuzini to'g'ri bilish qobiliyati bilan bog'liq, chunki muloqot jarayonida: so'zlar, iboralar va jumlalarni talaffuz jarayonida bir-birdan ajratib bo'lmaydi. Demak, o'quvchilar tinglash faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun o'zlarining asosiy "til bilimlarini": intonatsiya, tinglash strategiyalarini, talaffuz va grammatikalarini takomillashtirib borishlari shart. Ingliz olimi Bak tinglab tushunish topshirig'ini ishlashda va tuzishda e'tiborga olinishi kerak bo'lgan ba'zi komponentlar mavjudligini ham ta'kidlaydi. Ular: fonologiya, urg'u, prozodik xususiyatlar, nutq tezligi, to'xtamlar va nutq tuzilishi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, tinglab tushunish jarayonida tinglovchilar ushbu komponentlar bilan shug'ullanadilar. Bundan tashqari, o'quvchilar dolzarb muammolar, tarix, ilmiy tadqiqotlar va boshqa mavzular bilan bog'liq umumiy bilimlarga ega bo'lishlari kerak, chunki har bir muloqot jarayoni maqsadli taqdim etilgan asosiy ma'lumotlarga egadir. Talabalar tushunish jarayonida ularga oson bo'lishi uchun pastdan yuqoriga yoki yuqoridan pastga strategiyalarni ham qo'llashlari mumkin [3]. Pastdan yuqoriga strategiyasida o'quvchilar tinglash jarayonini

[1] Kelly M.Active listening for the classroom. Retrived 3.2014.

[2] Brown S. Teaching listening.New York: Cambridge university press.2016

[3] Brown S. Teaching listening.New York: Cambridge university press.2016.

boshlashdan oldin audioda muhokama qilinishi mumkin bo‘lgan mavzu bo‘yicha o‘zlarining asosiy bilimlarini faollashtirib oladilar. Qo‘yilishi mumkin bo‘lgan mavzu yuzasidan o‘zlarida mavjud bo‘lgan biilimlarni tezlikda eslab oladilar. Yoki dialoglarda nima haqida suhbat borishini faraz qilib oladilar. Yuqoridan pastga strategiyasida esa o‘quvchilar tinglash jarayonini audiomatnni tinglash orqali topshiriqni ishlashni boshlashlari mumkin. Muxtasar qilib aytganda, talabalar tinglash faoliyatida tinglash strategiyalarini qo‘llash qobiliyatiga ega bo‘lishlari kerak. Biroq, bu strategiya va natijalarga amaliy mashg‘ulotlarsiz, mashq qilmasdan erishib bo‘lmaydi. O‘quvchilarning tinglash amaliyoti ham ularning tinglab tushunish ko‘nikmasini oshirishning ta’sirli omillaridan biridir. Ular o‘z mahoratlarini oshirish, ayniqsa, ma’ruzachilar tomonidan aytilgan monolog yoki dialoglarni tushunishda juda ko‘p amaliyotga ega bo‘lishlari zarur. Tajriba sinovi o‘tkazilganda, o‘quvchilarning ta’kidlashicha, ma’ruzachi nutqi o‘quvchilarni ko‘plab chalkashliklarga olib keladi, hatto o‘qituvchi audioni ikki yoki uch marta qo‘ygan bo‘lsa-da. Aslida, bu katta muammo emas, ular faqat ona tilida so‘zlashuvchilarning muloqot qilish uslublarini yaxshi bilishmaydi yoki nutqda asosan shevalardan foydalanib, adabiy til me’yorlariga amal qilishmaydi, yoki sinonim so‘zlar bilan bog‘liq muammolari bor.

NATIJALAR. (Chet elda, asosan, inliz tilida so‘zlashuvchi mamlakatlarda ingliz tilini o‘qitishda tinglab tushunish ko‘nikmasi va uning topshiriqlari ustida samarali ishlar olib borilganini ko‘rish mumkin. Ushbu jarayonlar esa uzoq tarixga ega ekanligini yaqqol ko‘zga tashlanadi. Aynan shu sohaga oid dissertatsiya, monogrfiyalar, hattoki tajriba sinovlari uchun labaratororiyalar tashkil etilganligi e’tiborga loyiqdir. Bugungi kunda eng ommalashgan chet tilini bilish darajasi bo‘yicha olinadigan sertifikatlarda ham tinglab tushunish ko‘nikmasi asosiy o‘rinni egallovchi ko‘nikmalardan biri sanaladi. Ammo o‘zbek tilini o‘qitish jarayonida tinglab tushunish ko‘nikmasi biroz nazardan chetda qolmoqda. Biz asosan, e’tiborimizni grammatika o‘qitishga qaratib qoldik va til o‘qitish jarayonimiz ham bir joyda depsinib qoldi. Bu hodisa esa o‘quvchilar nutqini ravon va erkin bayon etishlaridagi katta to‘siqlardan biriga aylanib qoldi. O‘quvchilarda doim grammatik savodxonlik rivojlandi va nutqiy savodxonlik esa kamayib ketdi. E’tibor qaratadigan bo‘lsak, hatto bugungi kundagi ona tilini bilish darajasini belgilab beruvchi “milliy sertifikat”imizda ham aynan tinglab tushunish ko‘nikmasiga doir topshiriqlar mavjud emas. Ammo, yangi avlod darsliklarimiz bu ko‘nikmani chetlab o‘tmaganligi, jahonda ta’lim sifati rivojlangan davlatlarning ona tili darsliklariga hamohangroq tarzda yaratilganligi, o‘quvchini katta hayotga va erkin fikrlashga, dunyoviy bilimlarini kengaytirishga xizmat qilishi bilan ajralib turadi. Ammo, topshiriqlarni ishlab chiqishda, xususan tinglab tushunish topshiriqlarini tuzishda bir xillikka va kamchiliklarga yo‘l qo‘yganliklarini ko‘rishimiz mukin. Har bir mavzudan keyin shu mavzuga oid nutqiy ko‘nikmalarni shakllantiruvchi 4 ta kompetensiyaga oid topshiriqlar kiritilmaganligi va aynan tinglab tushunish ko‘nikmasiga doir topshiriq juda ham kamligi, topshiriqqa doir audiomatnlarning bitta tizimga solinmaganligi yaqqol sezilib turadi. Masalan, birgina 6-sinf ona tili kitobida darslik boshidan oxirigacha jami 14 ta “audiomatnni tinglang” topshiriq mavjud ammo audiomatn nisbatan kam. Vaholanki kitob 26 ta mavzudan iborat. Topshiriqlar shakli esa deyarli bir xil. Bu esa kamroq amaliyot va mashqlarning yetishmasligidan darak beradi. Ingliz tili yoki boshqa o‘qitilishi rivojlangan xalqaro tillarda esa topshiriqlar shakli kamida 4 yoki 6 qismdan iborat va ular turlichadir. Eng katta kamchilik esa, maktab yoki o‘quv yurtlarimizda aynan barcha ko‘nikmalar ustida ishlash uchun jihozlarning yetishmasligi yoki mavjud emasligidir.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilar va talabalar tinglash faoliyatini mashq qilishlari kerak, o‘quvchilar tinglash qobiliyatini oshirish jarayonida til o‘rganishga va lingvistik bilimlarga va ularni o‘rganishga duch keladilar. Keyin, o‘quvchilar va o‘qituvchilar bu bosqichda hamkorlikda ishlashlari zarur. Sinfdagi o‘qitish va o‘quv jarayonidagidagi o‘qituvchilarning roli, shuningdek, tinglash ko‘nikmasini to‘g‘ri tashkil etish o‘quvchilarning muvaffaqiyatiga olib keladi. Sinfda dars o‘tish va tinglab tushunish topshiriqlarini qiziqarli tarzda taqdim etishda o‘qituvchilar ba’zi amaliy ishlarni amalga oshirishlari mumkin. Masalan, topshiriqlarni taqdim etish uchun sharoit bo‘lmaganda o‘zlari ravon va chiroyli nutqda o‘ib berishlari, yoki matnni varoqqa yozib kelib

TAMADDUN NURI

“mikrofon oldida” usulidan foydalanib o‘quvchilardan har darsda bittasini o‘qitish orqali maqsadga erishish mumkin. Bu usul bilan nafaqat audiomatn topshiriqlari ustida ishlanadi balki o‘quvchining o‘qish savodxonligi hamda o‘quvchilarning o‘zgalarni tinglash ko‘nikmasi ham yaxshi shakllanib boradi. Ammo, barcha til o‘qituvchilari o‘quvchilarga tinglash faoliyatidagi barcha qiyinchiliklarni yengish uchun yo‘naltiruvchi intensiv tinglash sinf xonalarini taqdim eta olishlari kerak, shundagina ko‘zlangan maqsadga erishish mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Azimova I, Mavlonova K, Quronov S va b. Ona tili 6- sinf;darslik.Toshkent 2022.
2. Brown S. Teaching listening. New York: Cambridge university press.2016.
3. Kelly M.Active listening for the classroom. Retrived 3.2014.
4. www.educationworld.com

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 7890.090.01

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA SAN’ATGA OID AFORIZMLAR TAHLILI

Quvvatov Rahmatullo Hikmatullayevich, Termiz shahar 3-son ixtisoslashtirilgan maktab o‘qituvchisi

ANALYSIS OF APHORISMS ON ART IN ENGLISH AND UZBEKI

Kuvvatov Rahmatullo Hikmatullayevich, Teacher of specialized school №3 of Termiz city

АНАЛИЗ АФОРИЗМОВ ОБ ИСКУССТВЕ НА АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Кувватов Рахматулло Хикматуллаевич, учитель специализированной школы №3 города Термез

https://orcid.org/0000-0009-0714-1803

e-mail: **Quvvatovr55@mgmail.com**

Annotatsiya: *Aforizmlarning asosiy xususiyati hikmatli, tipik fikrning qisqacha badiiy ifodasi bo‘lib, unda tasvir emas, ifoda ma’no yetakchisi hisoblanadi. Maqolada bir tomondan nutqdagi aforizmlarning sintaktik o‘ziga xosliklarini o‘rganishga qiziqish bildirilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan ingliz va o‘zbek tillari nutqidagi semantik xususiyatlari atroflicha tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi – umumiy fikrlarni ifodalashning og‘zaki vositasi sifatida aforizmning pragmatik kvalifikatsiyasining tomonlari va differensial xususiyatlarini ibora (frazali matn) shaklida voqelikni universal umumlashtirishni aniqlash va tavsiflash.*

Kalit so‘zlar: *aforizm, ingliz aforizmlari, o‘zbek aforizmlari, madaniyat, maxsus omillar, vaqt tushunchalari*

Abstract: *The main feature of aphorisms is a brief artistic expression of a wise, typical thought, in which expression, not image, is the leader of meaning. On the one hand, the article is interested in studying the syntactic features of aphorisms in speech, and on the other hand, the semantic features in the speech of English and Uzbek languages are analyzed in detail. The purpose of the research is to identify and describe the universal generalization of reality in the form of a phrase (phrase text) and the aspects and differential features of the pragmatic qualification of aphorism as a verbal means of expressing general thoughts.*

Key words*: aphorism, english aphorisms, uzbek aphorisms, culture, special factors, notions of time*

Аннотация: *Основная особенность афоризмов — краткое художественное выражение мудрой, типичной мысли, в которой ведущим смыслом является выражение, а не образ. С одной стороны, статья заинтересована в изучении синтаксических особенностей афоризмов в речи, а с другой стороны, подробно анализируются семантические особенности в речи английского и узбекского языков. Цель исследования - выявить и описать универсальное обобщение действительности в форме словосочетания (фразового текста), а также аспекты и дифференциальные особенности прагматической квалификации афоризма как вербального средства выражения общих мыслей.*

Ключевые слова*: афоризм, английские афоризмы, узбекские афоризмы, культура, особые факторы, представления о времени.*

KIRISH. Aforizmlar – bu hayot, inson xatti-harakati yoki dunyo haqida umumiy haqiqat yoki tushunchani aks ettiruvchi ixcham va ko‘pincha aqlli bayonotlar hisoblanadi. Ular odatda qisqa, esda qolarli va donolikka to‘la bo‘ladi. Aforizmlar ko‘pincha yo‘l-yo‘riq berish, boshqa nuqtayi nazarni taklif qilish yoki qisqa va esda qolarli fikrni uyg‘otish uchun ishlatiladi. Ular asrlar davomida adabiyotda, falsafada va kundalik suhbatda mashhur ifoda shakli bo‘lib kelgan. Ma’lumki, ingliz va o‘zbek tillarida aforizmlarni tavsiflash va tasniflash ham muhim ahamiyatga ega. “Aforizm” atamasi yunoncha “aforismos” – “umumiy haqiqatni o‘z ichiga olgan qisqa ibora” ma’nosini anglatadi. Aforistik gaplar kundalik nutqimizda bo‘lgani kabi yozuvlarda ham keltiriladi. Ularda haqiqat borligi ularning umuminsoniy qabul qilinishiga sabab bo‘ladi. Maqollardan farqli o‘laroq, hikmatli so‘zlarning kelib chiqishi aniq shaxsga (yozuvchi, shoir, publitsist, faylasuf, olim, davlat arbobi va boshqalar) tegishli bo‘lib, o‘ziga xosligini saqlab qoladi. Ingliz va o‘zbek tillarida inson hayotidagi yutuq va yo‘qotishlarni ifodalovchi ko‘plab aforizmlar mavjudligini tushunish juda qiziq. Binobarin, ular tilshunos tadqiqotchilar e’tibordan chetda qoldira olmaydigan lingvistik hodisaga aylandi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Ingliz va o‘zbek tillaridagi aforizmlar bo‘yicha ko‘plab tadqiqotchilar tadqiqot olib borishgan. Ingliz aforizmlari uchun Teylor, Ridout va Uayting, Norrik, Kollis, Galperin va boshqa ko‘plab olimlar bu sohaga katta hissa qo‘shdilar. Biroq, turli yondashuv va maqsadlardan kelib chiqqan holda, ularning nashrlarida aforizmlarning u yoki bu tomoniga e’tibor qaratiladi. Umuman olganda, ushbu tilshunoslar bizga tilni qo‘llashda qanday o‘rganish haqida nazariy asoslar haqida umumiy ma’lumot beradi. O‘zbek aforizmshunosligi nuqtayi nazaridan, aforizm bilan bog‘liq bo‘lgan ba’zi puxta asarlar ushbu sohani bilishga hissa qo‘shgan va bu borada iboralar va aforizmlar o‘rtasidagi farq ikki mezon: mazmun va grammatik tuzilmalar, mualliflar tomonidan to‘plangan aforizmlar asosida tilga olinadi. Ingliz tilidagi umumiy aforizmlar va o‘zbekcha muqobillarini tuzdim va bu materiallar menga ushbu tadqiqotda katta yordam berdi. Bundan tashqari, hozirgi kunga qadar ko‘plab o‘zbeklar tomonidan yozilgan ingliz tilidagi aforizmlar bo‘yicha magistrlik dissertatsiyalari mavjud. Yuqorida keltirilgan tadqiqotlarni o‘rganib chiqsak, ingliz tiliga nisbatan o‘zbek tilida foyda va zararga oid aforizmlarning lingvistik xususiyatlari bo‘yicha hozirgacha deyarli tadqiqot olib borilmaganini ko‘rish mumkin.

Ingliz va o‘zbek madaniyatida aforizmlar madaniy donolik, axloqiy saboqlar va jamiyat qadriyatlari ombori bo‘lib xizmat qiladi. Ular ushbu madaniyatlarning o‘ziga xos tarixiy, adabiy va ijtimoiy kontekstlarini aks ettirib, tegishli jamiyatlarning madaniy tuzilishi, hazil-mutoyiba, donolik va jamoaviy bilimlar haqida tushuncha beradi. Quyida turli tematik toifadagi aforizmlarga misollar keltirilgan: Donolik va bilim: “The only true wisdom is in knowing you know nothing” (english). “Ilmning asli qalbdadir” (The essence of knowledge is in the heart) (uzbek). Axloq va fazilatlar: “Actions speak louder than words” (english) – (Harakatlar so‘zlardan ko‘ra balandroq gapiradi). (Faith is like a double-edged sword) (uzbek). Vaqt va imkoniyat: “Strike while the iron is hot” (english). “Vaqtida kelgan bo‘lsin, vaqtida ketgan bo‘lsin” (May you come on time, may your time pass) (uzbek). Bu misollar ingliz va o‘zbek tillaridagi katta aforizmlar to‘plamining faqat bir qismini tashkil etadi. Har bir aforizm hayotning turli jabhalari, inson tabiati va madaniy qadriyatlarga oid qisqa va esda qolarli tushunchalarni taqdim etuvchi muayyan mavzu yoki xabarni qamrab oladi. Adabiyotda ingliz va o‘zbek aforizmlari ko‘p uchraydi. Adabiyotda qo‘llaniladigan ko‘plab aforizmlar adabiy qo‘llanishini yo‘qotib, ular paydo bo‘lgan asardan tashqari o‘z ma’nosida ham dolzarb bo‘lib qoladi. Shekspir o‘z asarlarida aforizmlardan foydalangan. Ko‘p aforizmlardan foydalanish uning o‘tkir idroki va mulohazasidan dalolat beradi. Quyida ba’zi misollar keltirilgan: Having nothing, nothing can he lose. (Henry VI) Life is a tale told by an idiot-full of sound and fury, signifying nothing. (Macbeth) Lord, what fools these mortals be! (A Midsummer Night’s Dream) Hikmatli so‘zlarni mustaqil ilmiy janrlarda ham, ilmiy, falsafiy, tarixiy, badiiy asarlarda ham uchratish mumkin. Ba’zan asar boshidan oxirigacha hikmatli so‘zlardan iborat bo‘lishi mumkin (Forobiy). Alisher Navoiyning ayrim asarlari hikmatli so‘zlarga boy (“Nazm ul-javohir”, “Arba’in”, “Mahbub ul-qulub” va boshqalar). Sharq xalqlari adabiyotida, jumladan, o‘zbek adabiyotida

hikmatli so‘zlarning aksariyati nasihat va tanbeh tarzida uchraydi.

XULOSA. Yuqoridagi aforizmlarni o‘rganish yoshlarga nasihat, yo‘l-yo‘riq yoki maslahat, hayotiy xulosalar olish imkonini beradi. Umuman olganda, har bir hikmatli so‘z xalq donishmandligi ifodasi, ko‘p yillik hayotiy tajribaning umumlashmasidir. Hikmatli so‘zlarning tilda ko‘rinishi ularni yaratgan xalqning tarixi bilan belgilanadi. Ko‘pgina aforizmlar qadim zamonlarda yaratilgan va hozirgacha ularni yaratuvchisi bo‘lgan odamlar bilan yashaydi. Aforizmlar mashhur bo‘lib, avloddan-avlodga o‘tib, asrlar davomida yashaydi. Ilmiy izlanishlar jarayonida ko‘pchilik aforizmlar bir vaqtning o‘zida ikkita ma’noni: to‘g‘ridan-to‘g‘ri va ko‘chma ma’noni o‘z ichiga olishini ham aniqladik, shuning uchun biz ba’zan bir qarashdayoq aforizmlarni tushunishga qiynalib qolamiz. Asosan, aforizmlarning majoziy ma’nosi yoki ko‘zda tutilgan ma’nosi odatda metafora, metonimiya, giperbola, o‘xshatish yoki metafora kabi qimmat vositalar orqali yetkaziladi. Aforizm kelajak avlod uchun xazinadir. Kim bu aforizmlarni o‘qib tushunsa, har tomonlama mukammal bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Azamatov. M. Hikmatlar xazinasi. Toshkent. 1977.

2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2 tomlik. 2-tom. Moskva, Русский язык nashriyoti. 1981.O‘zbek xalq ertaklari. Sehrli so‘z. Navro‘z. Toshkent. 2017.

3. I.I.Akramov. –2022. ―The aphorism and the aphoristic style of communication‖. Центр научных публикаций.

4. Uralova, Oysuluv Poyon qizi. Lexico-semantic features of the proverbs by the names of beverages and vegetables in English, Russian and Uzbek languages. *Theoretical & Applied Science. Учредители: Теоретическая и прикладная наука* 12 (2021): 1165-1169.

5. Uralova, Oysuluv. Semantic and mental analysis of english and uzbek proverbs with zoonym components. World Bulletin of Social Sciences 31 (2024): 59-62.

6. Uralova, Oysuluv. Ingliz va o‘zbek tillarida zooleksemali maqollar strukturasi. *UzMU xabarlari* 1.1.2. 1 (2024): 343-346.

7. Uralova, Oysuluv. The term “Zoonym” and its content in english. *Academia Repository* 5.5 (2024): 75-83.

8. Курбанбаева, М. (2023). Влияние современного жаргонизма на изучение русского литературного языка иноязычной молодежью. Tamaddun nuri jurnali, *4*(43), 52-55.

9. Курбанбаева, М. (2023). Пословицы и поговорки со схожим значением в русском и узбекском языках и общность народной мудрости. Tamaddun nuri jurnali, 4(43), 15-18.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 9.93

MA'MUNIY XORAZMSHOHLAR DAVRI SAVDO MARKAZLARI VA SAVDO YO'LLARI

Abdrimov Zarifboy Erkinovich, Urganch davlat universiteti, Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti "Falsafa" kafedrasi o'qituvchisi

TRADE CENTERS AND TRADE ROUTES OF THE KHOREZM SHAH-MA'MUNI PERIOD

Abdrimov Zarifboy Erkinovich, Teacher of the Department of "Philosophy" of the Faculty of Social and Economic Sciences of Urgench State University

ТОРГОВЫЕ ЦЕНТРЫ И ТОРГОВЫЕ ДОРОГИ ЭПОХИ ХОРЕЗМШАХОВ-МАМУНИДОВ

Абдримов Зарифбой Эркинович, преподаватель кафедры "Философия" факультета социально-экономических наук Ургенчского государственного университета

https://orcid.org/0009-0005-6599-5517
e-mail: abdrimovzarifboy123@gmail.com

Annotatsiya: *X asr oxiri – XI asr boshlarida Buyuk Ipak yo'lining Shimoliy tarmog'i orqali o'tgan savdo munosabatlari jarayonlari nisbatan olganda kengroq o'rganilgan bo'lsa ham, biroq bu savdo jarayonlarida katta ta'sirga ega bo'lgan shaharlar, karvon markazlari, shuningdek, savdo-sotiq olib borilgan yo'llar to'g'risidagi ma'lumotlar umumlashtirilib yagona xulosaga kelinmagan. Xorazm tarixida Ma'muniylar sulolasi davri savdo markazlari va savdo yo'llari masalasi dolzarb muammolardan biri hisoblanib, m**azkur maqola shu mavzuga bag'ishlangan.***

Kalit so'zlar: *Buyuk Ipak yo'li, Shimoliy tarmoq, Mang'ishloq, Qizilqal'a, Sharqiy Yevropa, Janubiy Sibir, savdo-sotiq, karvonsaroy, ijtimoiy-iqtisodiy, savdo munosabatlari, yozma manbalar, savdo yo'llari.*

Abstract: *Although the processes of trade relations that passed through the Northern branch of the Great Silk Road in the late 10th - early 11th centuries have been relatively widely studied, but the cities that have a great influence in these trade processes, Information about caravan centers and trade routes was not summarized and a single conclusion was reached. In the history of Khorezm, the issue of trade centers and trade routes during the Ma'muni dynasty is considered one of the most urgent problems, and this article is devoted to this topic.*

Key words: *The Great Silk Road, the Northern Branch, Mangishlak, Kyzylkala, Eastern Europe, Southern Siberia, trade, caravanserai, socio-economic, trade relations, written sources, trade routes.*

Аннотация: *Хотя процессы торговых отношений, проходившие через северную ветвь Великого Шелкового пути в конце X - начале XI веков, были изучены относительно широко, но сведения о городах, караванных центрах, а также торговых путях, имевших большое влияние на эти торговые процессы, не были обобщены и сделаны единые выводы. Вопрос торговых центров и торговых путей периода династии Мамунидов в истории Хорезма считается одной из актуальных проблем, и данная статья посвящена этой теме.*

Ключевые слова: *Великий Шелковый путь, Северная отрасль, Мангышлак, Кызылкала, Восточная Европа, Южная Сибирь, торговля, караван-сараи, социально-экономические, торговые отношения, письменные источники, торговые пути.*

KIRISH. Xorazm vohasi tarixi to‘g‘risida turli tillarda yozilgan qo‘lyozmalar va arxeologik topilmalarning asosiy qismi IX – XI asrlarda vohadagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlar keng ko‘lamda olib borilganligi, savdo-sotiq ishlari nihoyatda katta miqyosda kengayganligini yaqqol namoyon etadi. X asr oxiri – XI asr boshlarida Ma’muniylar sulolasi vakillari davrida Xorazm davlati katta hududlarni egallamagan bo‘lsa ham, o‘z faoliyati davomida nafaqat O‘rta Osiyo, balki butun jahon xalqlari rivojlanishi uchun zamin yaratishgan. Bu kabi rivojlanish yoki madaniy yuksalishning negizida, albatta, iqtisodiy barqarorlik masalasi turadi. Shu o‘rinda ta’kidlashimiz mumkunki, yozma manbalar ma’lumotlari X-XI asrlarda Markaziy Osiyoda olib borilgan savdo-sotiq ishlarida asosiy yetakchilik roli Xorazmga tegishli bo‘lganligini isbotlaydi. Xorazmlik savdogarlar savdo ishlaridagi yondashuvlari va professionalligi bilan Sharqda mashhur edi. Demak, shularni inobatag olghan holda, Xorazmshoh – Ma’muniylar davrida kechgan tashqi aloqalari, turli savdo-sotiq yo‘llari hamda savdo-sotiq ishlari olib borilgan markazlarni ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilib o‘rgangan holda, Xorazm vohasi tarixidagi Ma’muniylar davridagi mavjud bo‘shliqni to‘ldirish mumkin. Ikkinchidan esa, tadqiqotlar jarayoniga numizmatik manbalarni ko‘proq jalb qilgan holda, ushbu sulolaning savdo-sotiq munosabatlarida qay darajada faol bo‘lganligini aniqlash mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI. Xorazmning X asr oxiri va XI asr boshlarida kechgan savdo-sotiq va iqtisodiy aloqalari to‘g‘risidagi aynan Buyuk Ipak yo‘lining Shimoliy tarmog‘i orqali savdo munosabatlari to‘g‘risidagi masalalar tadqiqotlarda nisbatan yaxshi aks etgan, lekin bu masalalar yuzasidan alohida bir yozma manba yoki tarixiy tadqiqotlar yo‘q. Shuni inobatga olgan holda, mavjud barcha yozma manbalar ma’lumotlarini tahlil qilish lozim. Shu o‘rinda, o‘z asarlarini arab tilida yozgan tarixchi va geograflar jumlasiga Ibn Fadlan[1], Ibn Havkal[2], Al-Istaxriy[3], Al-Makdisiy[4], Ibn al-Asir[5], Yoqut al-Hamaviy[6] asarlarini kiritish mumkinki, ularning asarlarida savdo yo‘llari hamda savdo shaharlari to‘g‘risida ko‘pgina qimmatli ma’lumotlarni uchratishimiz mumkin.

IX-XIII asrlardagi fors tilida bitilgan manbalar xaqida gapiradigan bo‘lsak, ular ichida eng muhimlari – Mahmud Gardiziy[7] hamda Abulfazl Bayhakiy[8] kabi mualliflarni keltirmasdan ilojimiz yo‘q. Bu asarlar aynan Xorazm vohasida X–XI asrlar tarixidagi bo‘lib o‘tgan siyosiy jarayonlar bilan bir qatorda vohaning iqtisodiy hayoti va savdo-sotiq munosabatlari to‘g‘risida ko‘pgina ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan.

Ushbu davrning tarixshunosligi tahliliga to‘xtaladigan bo‘lsak, birinchidan, arxeologik tadqiqotlar olib borilishi natijasida biroz ma’lumotlar to‘plangan bo‘lishiga qaramasdan, bu ma’lumotlar haligacha yetarli darajada tahlil qilingan emas. Ikkinchidan esa, Rossiya tarixchi olimlari tomonidan olib borilgan turli yo‘nalishlardagi (asosan arxeologik va numizmatik tadqiqotlar) tadqiqotlar natijalari umumlashtirilib,

---

[1] Ибн Фадлан. Путешествие Ибн Фадлана на Волгу // Перевод и комментарии А.П.Ковалевского. – М.-Л.: Наука, 1939. – 256 с.; Ибн Фадлан. Путешествие Ибн Фадлана на Волгу // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т. I. Арабские и персидские источники. (VI–XV вв.) / Под ред. С.Л. Волина, А.А. Ромаскевича, А.Ю. Якубовского. М.-Л.: Наука, 1939.– С.155-164.

[2] Абу-л-Касым ибн Хаукаль. Книга путей и стран // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т.I. Арабские и персидские источники. (VI–XV вв.) / Под ред. С.Л.Волина, А.А.Ромаскевича, А.Ю.Якубовского. М.-Л.: Наука, 1939. – С.181-184.

[3] Ал-Истахри. Китаб месалик ал-мемалик // Материалы по истории туркмен и Туркмении (далее МИТТ). Т.1. – М. – Л.: Наука, 1939. – С.178-181.

[4] Ал-Макдиси. Ахсан ат-такасим фи маърифат ал-акалим. // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т.I. Арабские и персидские источники. (VI–XV вв.) / Под ред. С.Л.Волина, А.А.Ромаскевича, А.Ю.Якубовского. М.-Л.: Наука, 1939. – С.185-189, 202-203, 206.

[5] Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-тарих // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т.I. Арабские и персидские источники. (VI–XV вв.) / Под ред. С.Л. Волина, А.А. Ромаскевича, А.Ю. Якубовского. М.-Л.: Наука, 1939. – С.361-362.

[6] Йакут ал-Хамави. Муъжам ал-булдан. //МИТТ, т.1. -М. -Л., 1939. – С.409-438.

[7] Абу Саъид Гардизи. Зайн ал-ахбор. Украшения известий. С персидского А.К.Арендса. – Т.: Фан, 1961. – 146 с.; Гардизи. Китаб зайн ал-ахбар. //МИТТ, т.1. -М. -Л., 1939. – С.228-229.

[8] Абу-л-файз Байхаки. История Маъсуда. – М.; Изд-во А.Х.Арендса. 1969. – 1009 с.

yagona bir xulosa chiqarilmagan. Ushbu mavzu yuzasidan, S.P.Tolstov, V.P.Darkevich, B.I.Vaynberg, I.Yu.Pastushenko, M.E.Muhammadiyev, R.M.Valeev, K.A.Rudenko, M.Kalmenov, A.Bijanova, Q.Yu.Masharipov kabi tadqiqotchilar tadqiqotlar olib borganlar[9].

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Maqolada tizimlashtirish, tarixiy-qiyosiy tahlil, tarixiy ma'lumotlarni umumlashtirish, xolislik tamoyili kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR. XI asr boshida Markaziy Osiyo hududida joylashgan Xorazm davlati Ma'muniylar davrida nafaqat madaniyat sohasida, balki iqtisodiyot rivojida ham yetarli darajada yutuqlarga erishdi. Bu davrda Xorazm vohasi Sharq musulmon sivilizatsiyasining Yevroosiyo dashtlaridagi tayanchi sifatida, turkiy ko'chmanchilar dunyosini slavyan-bulg'orlar va xazarlar bilan bog'lovchi bir ko'prik vazifasini bajargan. Umuman olganda, X – XI asrlarda O'rta Osiyoda olib borilgan tashqi savdo masalasidagi yetakchilik Xorazmga tegishli edi, butun O'rta Osiyo savdo-sotiq ishlari amalda xorazmlik savdogarlar qo'lida jamlangan edi. Xorazmliklar gazlamalar va qurol-yarog'lar, chetdan mo'ynalar, qullar va boshqalar olib kelishgan. Xorazm savdogarlarining savdo aloqalari Xazariya, Volga, Bolgariya, Kiyev Rusi, Skandinaviya, Xitoy, Hindiston, Xuroson, Gurgan va Sharqiy Yevropa, Orolbo'yi, Dashti Qipchoq va Yettisuv ko'chmanchilari bilan olib borilgan[10].

Umuman, barcha arab va fors tilida yozilgan manbalarda poytaxti Gurganch hisoblangan Shimoliy Xorazm X–XI asrlarda Sharqiy Yevropa va Yevroosiyo dashtlarida yashovchi ko'chmanchilar dunyosi bilan tizimli savdo-sotiq aloqalarda bo'lganligi ta'kidlanadi. Gurganch shahri esa, nafaqat Xorazmda, balki Sharq mamlakatlari shaharlari ichida ham juda yirik savdo markazi bo'lganligi ma'lum[11]. Shu bilan birga, Xazar va Volga Bulg'oriyasi bilan bo'lgan savdoda Gurganj yana Iroq va Erondan Sharqiy Yevropaga boruvchi eng yaqin va qulay yo'l ustida joylashgan edi.

X asr oxirlariga kelganda, Xorazmning poytaxti bo'lmish Gurganch shahridan boshqa, Mizdahqon, Jigarband, Jit, Sadvar, Ardaxushmisan, Kardaranxos, Darxos, Xiva, Puljoy (Git), Bug'roxon (Madminiya) kabi katta shaharlari mavjud bo'lib, ularda shakllangan, o'sha davr uchun katta bozorlari bo'lgan.

Xorazmshoh-Ma'muniylar davrida Shimoliy tarmoq bo'lmish karvon yo'li orqali olib borilgan savdosida Volga daryosining o'rta va yuqori oqimlarida joylashgan Xazar va Bulg'or xalqlari bilan bo'lgan mol ayirboshlash juda katta ahamiyat kasb etgan. Bu savdo jarayonlarining qanday darajada bo'lganligi, X asr 60-yillaridan boshlangan Xazar – o'g'uz, Xazar – Kiyev Rusi davlatlarining diplomatik munosabatlarida Xorazmning birinchi va asosiy siyosiy o'yinchi sifatida, bu jarayonlarda juda faol ishtirok etganligini ko'rsatadi.

---

[9] Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. – Т.: Фан, 1964. – 440 б.; Вайнберг Б.И. Экология Приаралья в древности и средневековье// ЭО, №1, 1997. – С.23-41; Валеев Р.М. Торговля Волжской Булгарии с северной и западной Европой в домонгольский период (IX – начало XIII века) // Вестник НГУ. Серия: История, филология. Том 10, выпуск 3: Археология и этнография. – С. 180 (175-182); Даркевич В.П. Аргонавты средневековья. – М.: КДУ, 1976. – 256 с.: ил.; Даркевич В.П. Художественный металл Востока VIII-XIII вв. Произведения восточной торевтики на территории европейской части СССР и Зауралья // М.: Наука, 1976. – 199 с.; Древняя и средневековая культура Юго-Восточного Устюрта [Текст] / [В.Н.Ягодин, Н.Юсупов, Е.Бижанов и др. ; Отв. ред. чл.-кор. АН УзССР С.К.Камалов]. - Ташкент: Фан, 1978. - 327 с. : ил.; 22 см.; Калменов М.,Бижанова А.Торгово-водные пути Хорезмского оазиса в древности / Материалы Международной научно-практической конференции «Город и городская культура Южного Приаралья: история и перспектива», посвященной 85-летию В.Н.Ягодина – Нукус – 2017 – С. 105-107; Машарипов Қ.Ю.Хоразмнинг Ўрта Шарқ ва Европа давлатлари савдо марказлари билан тарихий алоқалари (X – XV асрлар). – Урганч: УрДУ нашриёти, 2016. – 152 б.; Мухаммадиев М.Э. Средняя Азия в торговле в VI-XII века. // Norwegian Journal of development of the International Science, 2018. №17. – С.29-34; Пастушенко И.Ю. Волго-Камский торговый путь в I тыс. н.э. // Пути сообщения, коммуникации, научные достижения народов Евразии: Материалы межд. науч.-практ. конф. Березники, 1997. – С.36–38; Руденко К.А. Тюркский мир и Волго-Камье в XI-XIV вв. Изделия аскизского круга в Среднем Поволжье. Исследование и каталог. – Казань: Заман, 2001. – 256 с.

[10] Мухаммадиев М.Э. Средняя Азия в торговле в VI-XII века. // Norwegian Journal of development of the International Science, 2018. №17. – С.31.

[11] Гардизи. Китаб зайн ал-ахбар. //МИТТ, т.1. -М. -Л., 1939. – С.228-229; Абу-л-файз Байхаки. История Маъсуда. – М.; Изд-во А.Х.Арендса. 1969. – 1009 с.; Йакут ал-Хамави. Му'жам ал-булдан. //МИТТ, т.1. -М. -Л., 1939. – С.409-438.

Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish joizki, 965-yilda rus knyazi Svyatoslavning Belaya Veja (Sarkel) shahri yaqinida bo‘lib o‘tgan jangda Xazarlarning asosiy qo‘shinini engib, bu davlat tugatilgan vaqtda ham, Xorazm Xazar xoqonligining, bundan keyingi siyosiy jarayonlardagi “merosxo‘ri” sifatida o‘zini namoyon etib, siyosiy kurashini davom ettirgan va Quyi Volganing eng muhim savdo markazlariga egalik qilishga xarakat etgan.

Gurganch amirlarining bu kabi siyosiy harakatlari ko‘pincha muvaffaqiyatli kechgan, tarixchi Maqdisiy bu haqda ba’zan Xazariylarga tegishli shaharlarni Jurjoniya hokimi egallab olganligini yozib qoldirgan[12].

Rossiyalik tadqiqotchilar I.Yu.Pastushenko va K.A.Rudenkolarning Volga bo‘yi Bolgariya hududidan topilgan dirham tangalari xazinalari to‘g‘risida bir qancha ilmiy maqolalari chop etildi. Ular Volga Bolgariyasining rivojlanishida savdo-sotiq ishlari olib boriladigan savdo yo‘llari ahamiyatini ta’kidlab, davlatning gurkirab rivojlanishini X asrda Volga yo‘lining mavjudligi bilan izohlab, XI asr boshlarida esa ushbu savdo yo‘li o‘z o‘rnini Transoksaniya – Xorazm – Qozoq cho‘li – Volgabo‘yi va Kama viloyati yo‘liga bo‘shatib berib asosiy yo‘lga aylandi[13].

Shu jumladan mazkur savdo yo‘llarida 1946, 1950, 1964, 1975-1978 va 1982-yillarda arxeologik tadqiqot ishlari olib borilgan. Tadqiqot natijasida Ustyurtning Sharqiy qirlarida va Markaziy Ustyurt hududida turli-tuman savdo inshootlari – aholi manzilgohlari, rabotlar, sardobalar, minoralar, karvonsaroylar va quduqlar mavjudligi aniqlangan va o‘rganilgan. Ustyurtning Sharqiy qirlari janubidagi Shemaxaqal’a manzilgohidan to uning shimolidagi Kurganch manziligacha platoning chekkalari bo‘ylab, taxminan 300 km uzunlikda va Ustyurt jarliklari yoqalab bir-biridan har xil masofa uzoqlikda joylashgan minoralar, shaharchalar, qabristonlar va boshqa turdagi bino va inshootlar xarobalari saqlanib qolgan. Ushbu bino va inshootlar qatoriga yana Ustyurt platosi hududlaridagi, Oybo‘g‘ir botig‘idan janubda joylashgan manzilgoh va inshootlar ham kiradi. Sharqiy hududlarda 24 ta minora, 10ga yaqin manzilgoh va karvonsaroylar o‘sha davrda faoliyat yuritgan bo‘lib, ulardan topilgan topilmalar asosida xulosa chiqaradigan bo‘lsak, bu yodgorliklar IX-X asrlarda shakllangan bo‘lsa-da, ulardan ayniqsa XI-XIII asrlarda keng ko‘lamda foydalanilgan. Lekin, inshootlarning vaqt o‘tishi natijasida xaroba holatga kelganligi sababli, ulardan nima maqsadlarda foydalanilgani borasida yagona to‘xtamga kelish qiyin. Shu o‘rinda, ularning Amudaryo sohillari bo‘ylab joylashganligi, yon-atrofida aholi manzilgohlari borligiga qarab, shuningdek minoralarning ko‘pchiligi Ustyurt qirlari bo‘ylab chiqish uchun ancha qulay balandlikda joylashganligidan shunday xulosa chiqarishimiz mumkinki, bu minoralar bir emas bir qancha vazifalarni bajargan. Ya’ni, minoralarning ko‘pchiligi yonida aholi manzilgohlari bor bo‘lgan. Bu minoralardagi mash’ala signallariga qarab Amudaryoda suzayotgan kemalar o‘z yo‘nalishlarini belgilagan. Tuya karvonlari esa, shu minoralarga qarab yassi tog‘liklarga chiqish uchun qulay joylarni aniqlaganlar. Sababi ushbu minoralar uzoqdan ham nur taratgan. Ana shu sabablarga ko‘ra, minoralar ko‘proq savdo karvonlarining yo‘llarni to‘g‘i va aniq belgilash uchun qurilgan. Bu yerda yana yuqoridagi ko‘chmanchilar bilan bo‘ladigan savdo Xorazm uchun juda katta ahamiyatga ega bo‘lganligini hisobga oladigan bo‘lsak, S.P.Tolstovning bu minoralarning ko‘proq harbiy-mudofaa vazifasiga ega bo‘lganligi to‘g‘risidagi fikrini inkor qiladi[14]. S.P.Tolstov fikricha, bu yodgorliklar bizni “o‘g‘uzlar bilan bo‘lgan shiddatli kurash sharoitiga olib kiradi”[15]. Bu fikrni Ya.G‘.G‘ulomov, V.N.Yagodin, Ye.B.Bijanov, A.V.Gudkovalar ham qo‘llab-quvvatlagan edilar.

XULOSA VA TAKLIFLAR:

Umumiy xulosa sifatida shuni alohida ta’kidlash joizki, Xorazmshoh – Ma’muniylar davlatining qo‘shni davlatlar bilan olib borilgan savdo – sotiq munosabatlarida poytaxt Gurganch shahrining o‘rni beqiyosdir. Gurganchdan tashqari, Git, Safardiz, Ardaxushmisan, Puljoy, Kat, Kardor,

[12] Ал-Макдиси. Ахсан ат-такасим фи маърифат ал-акалим. // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т. I. Арабские и персидские источники. (VI–XV вв.) / Под ред. С.Л. Волина, А.А. Ромаскевича, А.Ю. Якубовского. М.-Л.: Наука, 1939. – С.209.

[13] Валеев Р.М. Торговля Волжской Булгарии с северной и западной Европой в домонгольский период (IX – начало XIII века) // Вестник НГУ. Серия: История, филология. Том 10, выпуск 3: Археология и этнография. – С. 180 (175-182).

[14] Манылов Ю.П. Некоторые вопросы исторической топографии... с.284; С.П.Толстов. По следам древнехорезмийской цивилизации. –М.: 1948, с.249-250.

[15] С.П.Толстов. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. 264-бет.

Kardoronxos kabi shaharlar ham Xorazmshoh – Ma'muniylar davlatining savdo-sotiq va tovar ayriboshlash munosabatlarida katta nufuzga ega bo'lgan. Shu bilan birgalikda, arxeologlar tomonidan o'rganilgan manbalar Xorazm vohasining Ma'muniylar sulolasi davrida Buyuk Ipak yo'lida olib borilgan savdo-sotiq aloqalaridagi mavqeyini ko'rsatib berib, bu aloqalarda muhim o'rin egallagan shaharlari, shuningdek savdo munosabatlari olib borilgan savdo yo'llari xususida ma'lum bir xulosalar chiqarish uchun asos bo'la oladi. Shu jihatdan olganda, Xorazmshoh – Ma'muniylar davlatining Sharqiy Yevropa va Janubiy Sibir xalqlari bilan savdo munosabatlari qay darajada yo'lga qo'yilganligi masalasi kam o'rganilgan hamda kelgusida chuqur tahlil asosida o'rganilishi lozim bo'lgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абу-л-Касым ибн Хаукаль. Книга путей и стран// Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т.I. Арабские и персидские источники. (VI–XV вв.) / Под ред. С.Л. Волина, А.А.Ромаскевича, А.Ю.Якубовского. М.-Л.: Наука, 1939.С.181-184.
2. Абу Саъид Гардизи. Зайн ал-ахбор. Украшения известий. С персидского А.К.Арендса. – Т.: Фан, 1961. – 146 с.
3. Абу-л-Фазл Байхаки. История Масуда (1030-1041) / Перевод с перс., вступление и комментарии А.К. Арендса. – М.: Наука, 1969. – 1009 с.
4. Ал-Истахри. Китаб месалик ал-мемалик // Материалы по истории туркмен и Туркмении (далее МИТТ). Т.1. – М. – Л.: Наука, 1939. – С.178-181.
5. Ал-Макдиси. Ахсан ат-такасим фи маърифат ал-акалим. // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т.I. Арабские и персидские источники. (VI–XV вв.) / Под ред. С.Л.Волина, А.А.Ромаскевича, А.Ю.Якубовского. М.-Л.: Наука, 1939. – С.185-189, 202-203, 206.
6. Вайнберг Б.И. Экология Приаралья в древности и средневековье// ЭО, №1, 1997. – С.23-41.
7. Валеев Р.М. Торговля Волжской Булгарии с северной и западной Европой в домонгольский период (IX – начало XIII века) // Вестник НГУ. Серия: История, филология. Том 10, выпуск 3: Археология и этнография. – С. 180 (175-182).
8. Гардизи. Китаб зайн ал-ахбар. // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т.I. Арабские и персидские источники. (VI–XV вв.) / Под ред. С.Л.Волина, А.А.Ромаскевича, А.Ю.Якубовского. М.-Л.: Наука, 1939. – С.228-229.
9. Даркевич В.П. Аргонавты средневековья. – М.: КДУ, 1976. – 256 с.: ил.
10. Даркевич В.П. Художественный металл Востока VIII-XIII вв. Произведения восточной торевтики на территории европейской части СССР и Зауралья // М.: Наука, 1976. – 199 с.
11. Древняя и средневековая культура Юго-Восточного Устюрта. – Ташкент: Фан, 1978. – 327 с. : ил.; 22 см.
12. Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-тарих // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т.I. Арабские и персидские источники. (VI–XV вв.) / Под ред. С.Л.Волина, А.А.Ромаскевича, А.Ю.Якубовского. М.-Л.: Наука, 1939. – С.361-362.
13. Ибн Фадлан. Путешествие Ибн Фадлана на Волгу // Перевод и комментарии А.П.Ковалевского. – М.-Л.: Наука, 1939. – 256 с.
14. Ибн Фадлан. Путешествие Ибн Фадлана на Волгу // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т.I. Арабские и персидские источники. (VI–XV вв.) / Под ред. С.Л.Волина, А.А.Ромаскевича, А.Ю.Якубовского. М.-Л.: Наука, 1939.– С.155-164.
15. Йакут ал-Хамави. Муъжам ал-булдан. // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т.I. Арабские и персидские источники. (VI–XV вв.) / Под ред. С.Л.Волина, А.А.Ромаскевича, А.Ю.Якубовского. М.-Л.: Наука, 1939. – С.409-438.
16. Калменов М., Бижанова А. Торгово-водные пути Хорезмского оазиса в древности / Материалы Международной научно-практической конференции «Город и городская культура Южного Приаралья: история и перспектива», посвященной 85-летию В.Н.Ягодина – Нукус – 2017 – С. 105-107.
17. Кызласов И.Л. Аскизская культура (средневековые хакасы X-XIV вв). // Степи Евразии в эпоху

Средневековья. Серия: Археология СССР. М.: 1981. С. 200-207.

18. Мамбетуллаев М.М. О торговых связях Хорезма в древности и средневековье // Города и караван-сараи на трассах Великого Шелкового пути. Тезисы докладов Международного семинара ЮНЕСКО. – Ургенч, 1991. – С.44-47.

19. Манылов Ю.П. Некоторые вопросы исторической топографии Северо-Западного Хорезма и торговых отношений с юго и восточной Европой и кочевниками // В кн.: Древняя и средневековая культура юго-Восточного Устюрта. – Т.: Фан, 1978. – С. 273-285.

20. Машарипов Қ.Ю. Хоразмнинг Ўрта Шарқ ва Европа давлатлари савдо марказлари билан тарихий алоқалари (X – XV асрлар). – Урганч: УрДУ нашриёти, 2016. – 152 б.

21. Мухаммадиев М.Э. Средняя Азия в торговле в VI-XII века. // Norwegian Journal of development of the International Science, 2018. №17. – С.29-34.

22. Очерки истории Каракалпакской АССР. Т.1, С древнейших времен до 1917 г. / [Под ред. С.П.Толстова и др]. – Ташкент: Наука, 1964. - 429 с., 6 л. табл., карт.: ил.

23. Пастушенко И.Ю. Волго-Камский торговый путь в I тыс. н.э. // Пути сообщения, коммуникации, научные достижения народов Евразии: Материалы межд. науч.-практ. конф. Березники, 1997. – С.36–38.

24. Руденко К.А. Тюркский мир и Волго-Камье в XI-XIV вв. Изделия аскизского круга в Среднем Поволжье. Исследование и каталог. – Казань: Заман, 2001. – 256 с.

25. Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. – Т.: Фан, 1964. – 440 б.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 796.012.2:332

ФУТБОЛ СПОРТ ТУРИ ЭЛЕМЕНТЛАРИДАН УСТУВОР ФОЙДАЛАНИШ АСОСИДА АХОЛИ САЛОМАТЛИГИНИ МУСТАХКАМЛАШ ЙЎЛЛАРИ

Йўлдашов Муроджон Равшанович
Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия ва спорт университети,Ўзбекистон, Чирчиқ ш

WAYS TO STRENGTHEN THE HEALTH OF THE POPULATION BASED ON THE PRIORITY USE OF ELEMENTS OF THE FOOTBALL SPORT

Yoldashov Murodjon Ravshanovich
Uzbekistan State University of Physical Education and Sports, Uzbekistan, Chirchik.

ПУТИ УКРЕПЛЕНИЯ ЗДОРОВЬЯ НАСЕЛЕНИЯ НА ОСНОВЕ ПРИОРИТЕТНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЭЛЕМЕНТОВ ФУТБОЛЬНОГО СПОРТА

Юлдашов Муроджон Равшанович
Узбекский государственный университет физического воспитания и спорта, Узбекистан, г. Чирчик.

https://orcid.org/0009-0003-6017-3923

murodjon.yoldashov@mail.ru,
Tel: +998 95 805 88 87

Abstract. *This article summarizes ideas about the effectiveness of using tools and methods aimed at helping overweight people lose weight using various methods.*

Key words: *obesity, adult, exercise, sport, weight, diabetes, disease, genetics, cycle.*

Аннотация. *Ушбу мақолада ортиқча вазнга эга инсонларни турли усуллар ёрдамида вазн йўқотишга йўналтирилган восита ва усулларни қўллаш самарадорлиги хусусида фикрлар умумлаштирилган.*

Калит сўзлар: *семизлик, катта, машқ, спорт, вазн, диабет, касаллик, генетика, цикл.*

Аннотация: *В данной статье обобщены мнения об эффективности использования средств и методов, направленных на помощь людям с избыточным весом похудеть с помощью различных методов.*

Ключевые слова: *ожирение, взрослый человек, физические упражнения, спорт, вес, диабет, заболевания, генетика, цикл.*

Кириш. Ҳозирги кунга келиб дунё бўйича кишиларнинг ҳаракат диапазони кичрайиб бормоқда. Бу эса инсонят олдида ана шундай инсониятга хавф солаётган муаммолардан бири семизлик ҳисобланади. Ушбу касаллик нафақат инсоннинг ҳаракат доирасини чеклайди ва ташқи кўринишини ёмонлаштиради, балки жуда кўплаб касалликларни келтириб чиқаради.

Бунда организмда энергия баланси бузилади. Тез-тез ва узоқ вақт давомида қондаги қанд миқдорининг кўтарилиши, истеъмол қилинаётган энергия сарф қилинаётган энергиядан кўпроқ бўлиб юриши натижасида организмда ортиқча даражада ёғ тўқимаси шаклланиб боради.

Юртбошимиз Шавкат Миромонович Мирзиёевнинг 2020 йил 20 октябрдаги ПФ 60-99 сон “Соғлом турмуш тарзини ҳаётга кенг тадбиқ этиш ва оммавий спортни янада ривожлантириш

чора-тадбирлари тўғрисидаги” Фармони айнан ушбу масалага қаратилган бўлиб мамлакатимиз аҳолисини жисмоний тарбия ва спортга жалб қилиш бўйича қатор ишлар амалга оширилмоқда.

Ўзбекистонда халқаро ташкилотлар жалб қилинган ҳолда “Аҳоли саломатлиги —2030” миллий стратегияси ишлаб чиқилди. ССВ ҳамда Саломатлик ва стратегик ривожланиш институти 2024−2026-йилларга мўлжалланган соғлом турмуш тарзини шакллантириш ва тўғри овқатланишни тарғиб қилиш дастурини тузди.

Стратегияда қуйидагиларга асосий эътибор қаратилиши белгиланди:

- аҳолини максимал қамраб олган ҳолда бирламчи тиббий-санитария хизматини унга янада яқинлаштириш;
- фуқароларнинг соғлом турмуш тарзини, соғлом овқатланишини ва жисмоний фаоллигини қўллаб-қувватлаш, уларни аҳоли орасида ҳар томонлама тарғиб қилиш.

Бунинг моҳияти шундаки аҳолимизнинг семиришга мойиллигининг ошиб бориши бу миллат генофондини ёмонлашишига ва ишлаб чиқариш саломатлигини ёмонлашувига олиб келади. Шу сабабли аҳолини тўғри овқатланиш ва доимий жисмоний тарбия ва спортга йўналтириш бўйича зарурий чоралар режасини ишлаб чиқиш лозим бўлади.

Тадқиқот мақсади. Аҳолини футбол спорт турига йўналтириш асосида саломатликни мустаҳкамлашга оид тавсиялар ишлаб чиқиш.

Вазифалари :

-Футбол спорт турининг инсон саломатлигига таъсири бўйича маълумотларни ўрганиш.

-Футбол билан шуғулланиш орқали ортиқча вазнга эга инсонларни соғломлаштириш бўйича таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқиш.

Тадқиқот усуллари ва ташкил қилиниши. Мазкур тадқиқотда асосан илмий манбаларни ўрганиш усулидан, мазкур йўналиш бўйича диссертацион ишлар, ўқув адабиётлари ва интернет манбаларидан фойдаланилди.

Тадқиқот натижалари ва уларнинг муҳокамаси. Дунёда футболчалик оммавий спорт тури бўлмаса керак. Уни “миллионлар ўйини” дейишлари ҳам бежизга эмас. Назарий томондан маълумки футбол билан шуғулланган одам соғлом бўлади. Даниядаги Копенгаген университети олимлари уч йил давомида футболнинг саломатликка таъсирини ўрганиб чиқишди. Уларнинг айтишича, футбол йиқилишлар туфайли суяклар синиши эҳтимолини анчагина камайтиради. Гап шундаки, спортнинг бу тури билан мунтазам шуғулланиш мушакларни ва суяк тўқималарини мустаҳкамлашга хизмат қилади. Шунингдек, олимлар футбол билан шуғулланишнинг руҳий саломатликка ҳам нафи катталигини таъкидлашмоқда. Югуришнинг фойдаси ҳақида ҳаммамиз эшитганмиз. Лекин бундай машғулотдан кейин ҳам, айниқса, эркакларда руҳий ҳолатнинг яхшиланиши кўпам кузатилавермас экан. Футболда эса бунақаси кузатилмайди: қатнашчиларнинг бари бор диққат эътиборини ўйинга қаратгани учун бошқа нарсаларни ўйлашга имкон йўқ. Шунинг учун ҳам футболдан кейин ҳаваскор ўйинчиларнинг кайфияти кўтарилганини кўрасиз, мағлуб томон ҳам одатда ҳафа бўлмайди. Футбол билан қисқа муддат шуғулланишнинг ҳам одам организмига фойдаси бор: уч ой давомида ҳафтасига 2-3 марта 1,5-2 соатдан тўп тепсангиз, танада кислород истеъмоли сезиларли даражада ортади. Тўғри футболнинг соғлиққа фойдаси кўп, аммо у билан ҳамма ҳам шуғуллана олмайди. Масалан, астматиклар ва юрак етишмовчилигига чалинганлар учун футбол спорт тури элементларидан фойдаланиш мумкин-ку лекин, футбол ўйинини тўлиқлигича ўйнаш тавсия этилмайди. Футбол умумий жихатдан калорияларни ёқиш, барча мушак гуруҳларини кучайтириш ва жисмоний тайёргарликни яхшилашнинг ажойиб усули хисобланади. Бундан ташқари югуриш, тезланиш, сакраш, тўпга зарба бериш ва бошқа техник харакатларни бажаришда тананинг деярли барча мушаклари иштирок этади. Рақобат иштиёқи, рақобат руҳи ва жамоавий бирдамлик энергия беради ва фикрингизни овқат ҳақидаги фикрлардан бутунлай олиб ташлашга ёрдам беради. Мунтазам футбол машғулотлари нафақат вазн йўқотиш, балки янада чидамли, чаққон ва тезкор бўлиш имконини беради. Тўғри ёндашув билан ушбу қизиқарли спорт ортиқча калорияларни ёқишнинг самарали усулига айланади.

Футбол спорт тури: -бу юқори интенсивликдаги кардио машқларни

характерлайди. Футбол тез-тез югуриш, тез югуриш, йўналишни мунтазам ўзгартириш, сакрашни ўз ичига олади - буларнинг барчаси юрак тезлигини оширади ва кўп миқдордаги калорияларни ёқишга ёрдам беради. Ҳар хил ҳаракатлар юрак ва нафас олиш тизимларини, шунингдек, кўплаб турли мушак гуруҳларини ишлатади.

-футбол мушак массасини шакллантиришга ёрдам беради. Аэробик машқлар билан бир қаторда, ўйиннинг ўзи каби футбол машғулотлари, шунингдек, маҳоратга асосланган машқлар озғин мушак массасини шакллантиришга ёрдам беради. Бу метаболизмни кучайтиради, ҳатто дам олишда ҳам кўпроқ калорияларни ёқишга имкон беради.

- футбол ўйнашда танамизнинг асосий мушаклари, оёқлари, думбалари, қўллари ва бошқалар ишлатилади. Бош билан зарба бериш, дриблинг, тўп узатиш, зарба бериш - бу барча футбол ҳаракатлари тананинг турли қисмларига қаратилган, яъни футбол ҳар томонлама тайёргарликка ёрдам беради. Футбол ўйинининг 90 дақиқасида вазни 75 кг бўлган одам жисмоний машқлар даражаси ва ўйиннинг интенсивлигига қараб ўртача 700-1000 калория ёқиши мумкин. Таққослаш учун, ўртача югуриш 30 дақиқада тахминан 300 калория ёқади. Шундай қилиб, футбол калорияларни жуда тез ёқади, бундан ташқари ўйин вақти катта юклама сифатида қабул қилинмайди.

Футболнинг турли интенсивлиги машқлардан кейинги ортиқча кислород истеъмолига олиб келади. Бу шуни англатадики, машғулотдан сўнг метаболизм тезлигингиз юқори бўлиб қолади, бу эса бир неча соат давомида қўшимча калорияларни ёқишга олиб келади. Футбол ўйини қанчалик шиддатли бўлса, вазн йўқотиш таъсири шунчалик катта бўлади. Бир соатлик фаол футбол ўйинларида ҳаваскор спортчилар ўртача 550 килокалорни ёқишади.

Футбол билан вазн йўқотишни тезлаштириш учун қуйидаги омилларга эътибор қаратиш лозим бўлади:

Муайян диетага риоя қилиш;

Чидамлилик, куч, тезликни ривожлантириш учун турли машқлар ва усуллардан фойдаланиш;

Ўйиндаги организм ҳолатини назорат қилиш.

Аниқ бир спорт тури билан мунтазам шуғулланмаган ва шуғулланган инсонларга жисмоний юклама беришнинг ўзига хос эътиборга молик жиҳатлари мавжудки, бунда спорт билан мунтазам шуғулланмаган инсонларнинг юрак фаолияти хусусиятларини аввало тиббий назоратдан ўтказиш лозим. Чунки бундай инсонларнинг юраги жисмоний юкламаларга кўникиши учун аввало кичик ҳажм ва паст жиддатда бажариладиган енгил воситалардан фойдаланиш керак. Бундай инсонларга ҳар куни 3-5 км масофага юриш ва паст шиддатдаги кардио машқлар комплексини қўллаш тавсия этилади.

Хулоса. Шу ўринда ортиқча вазнга қарши курашишида бу тоифага оид инсонларни аниқлаш ва уларнинг мазкур муаммони йўқотиш хақидаги амалий ва назарий билимларини ошириш энг долзарб масаладир. Жумладан футбол спорт тури билан шуғулланиш ҳам аҳоли саломатлигини мустаҳкамлашда катта аҳамиятга эга эканлиги адабий манбаларда ўз аксини топди. Лекин мамлакатимизда бу борада изчил тажрибалар ўтказилмаган ва амалга оширилганлари ҳам илмий асосланмаган. Шунинг учун юқорида келтирилган маълумотлар шаклида илмий маълумотларни умумлаштириш, эксперименталр сонини ошириш бу муаммони ечишда энг долзарб ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1.Ўзбекистон республикаси Президентининг 2020 йил 30 октябр ПФ 60-99 сон “Соғлом турмуш тарзини ҳаётга кенг тадбиқ этиш ва оммавий спортни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисидаги” фармони. Daryo.uz

2. Ўзбекистон республикаси Президентининг 06.09.2023 йилдаги ПФ-156-сон “Соғлиқни сақлаш вазирлиги фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисидаги” Фармони. Daryo.uz

3.Родин, А.В. Эффективность методических приемов в просессе интеллектуальной подготовки спортсменов в игровых видах спорта / Родин А.В. // Ученые записки ун-та им. П.Ф. Лесгафта. - 2018. - № 2 (156). - С. 195-197.

3. kun.uz.

Qabul qilindi: 05.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UO'K: 9:93:930.2

BUXORO XONLIGI DAVRI MADRASALARI TARIXI MANBASHUNOSLIGI

Mamatqulova Farangis Orzuqulovna, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti "Tarixshunoslik va manbashunoslik" kafedrasi tayanch doktoranti

https://orcid.org/0009-0000-4592-7772
e-mail: mamatqulovafarangis@gmail.com

ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ ИСТОРИИ МЕДРЕСЕ В ПЕРИОД БУХАРСКОГО ХАНСТВА

Маматкулова Фарангис Орзукуловна, докторант кафедры "Историография и источниковедение" Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова

SOURCE STUDIES OF THE HISTORY OF MADRASAH IN THE PERIOD OF THE BUKHARA KHANATE

Mamatkulova Farangis Orzukulovna, Samarkand State University named after Sharof Rashidov, Doctoral student of the Department of Historiography and Source Studies

Annotatsiya: Shayboniylar sulolasi hukmronligi davrida Buxoro xonligi o'zining me'morchilik san'atida yuksak darajaga ko'tarildi – Shayboniyxon madrasasi, Mir Arab madrasasi, Abdullaxon madrasasi, Ko'kaldosh madrasasi, Masjidi Kalon va boshqalar. Ushbu maqolada Buxoro xonligi davridagi madrasalarning bunyod etilishi va faoliyati tarixi manbashunosligi to'g'risidagi ma'lumotlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Shayboniylar, Buxoro, madrasa, xattotlik, tarix, tibbiyot, me'morchilik, ta'lim tizimi, uslubiy qo'llanmalar, manbashunoslik.

Abstract: During the reign of the Shaibani dynasty, the Bukhara Khanate rose to a high level in its architectural art – the Shaibani Khan Madrasah, the Mir Arab Madrasah, the Abdullah Khan Madrasah, the Kokaldosh Madrasah, the Kalon Mosque and others. This article covers information about the history of the creation and activities of the madrasah during the Bukhara Khanate.

Key words: Shaibanids, Bukhara, madrasah, calligraphy, history, medicine, architecture, education system, teaching aids, source studies.

Аннотация: В период правления династии Шайбани Бухарское ханство поднялось на высокий уровень в своем архитектурном искусстве – медресе Шайбанихана, медресе Мир Араб, медресе Абдуллахана, медресе Кокалдош, мечеть Калон и другие. В данной статье освещены сведения об истории создания и деятельности медресе в период Бухарского ханства.

Ключевые слова: Шайбани, Бухара, медресе, каллиграфия, история, медицина, архитектура, система образования, методические пособия, источниковедение.

TAMADDUN NURI

KIRISH. XVI asr boshlarida zaiflashib borayotgan Temuriylar saltanatiga Dashti Qipchoq tomonidan Muhammad (Shohbaxt) Shayboniyxon hujumi boshlandi. Shayboniyxon 1500-1501-yillarida Samarqand va Buxoroni, 1504-yilda Farg‘ona, Hisor viloyatini, 1505-yilda Urganchni, 1506-1507-yillari Xuroson poytaxti Hirot hamda Balxni bosib oldi, 1508-1509-yillarda Shayboniyxon Xurosondan qaytib kelib Qozoq sultonlariga zarba beradi. Shunday qilib, Movarounnahr va Xuroson birlashtirildi hamda Shayboniylar sulolasi hukmronligi qaror topdi. Ubaydullo sulton 1533-yilda Shayboniylar davlatining oliy hukmdori bo‘ldi va poytaxtni Samarqanddan Buxoroga ko‘chirdi. Shayboniy Ubaydulloxon (1533-1539) davrda Buxoro mavqei ham siyosiy, ham iqtisodiy jihatdan kuchaydi. Shu tariqa Shayboniylarning Movarounnahrda tashkil etgan davlati Buxoro xonligi deb atala boshlandi. Shayboniylar sulolasining qudratli vakili Abdullaxon II (1534-1598) davrida o‘zbek davlatchiligi yana bir bor yuksak darajaga ko‘tarildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Shayboniylar davridagi ta’lim tizimi ayniqsa diqqatga sazovorligi bir asr mobaynida 26 madrasaning barpo etilishi bilan juda katta ahamiyatga molikdir. Bu madrasalar hokimlar va ularning ayollari mablag‘lari hisobiga barpo etilgan va shunga ko‘ra aksariyati ularning nomlari bilan atalgan. Madrasalarning xarajatlari, talabalarning nafaqalari birinchi bor davlat zimmasiga o‘tkazilgan edi. Mir Arab madrasasi, Chorbakr qasri, Kalon masjidi kabi ulkan va nihoyatda chiroyli binolar, mashhur Buxoro devorlari, yopiq bozorlar, karvonsaroy va xonaqohlar shu davrda barpo etilgandi. Mamlakat poytaxti Buxoro sharqning madaniy markazlaridan biriga aylangan edi. Tarix, falsafa, fiqh, tilshunoslik, matematika va she’riyat yaxshi rivojlanish bosqichida bo‘lgan. Muhammad Shayboniyxonning o‘zi keng ilmli, noziktabiat shoir bo‘lganligi, o‘zi bilan hatto harbiy harakatlar davrida ham kutubxonasini olib yurishi, Ubaydullaxon, Abdullaxon, Abdulazizxonlarning o‘zlari ham she’riyatda o‘z nomlarini qoldirganliklariga birtalay tarixiy dalillar mavjud. XVI asrda Buxoroning poytaxt maqomiga ega bo‘lishi natijasida bu shahar nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy va madaniy markaz sifatida ham yuqori nufuzga ega bo‘ldi.

Shaybonixon ta’lim sohasida ham islohotlar o‘tkazdi. Bu islohotning o‘tkazilishiga amaldorlar guruhini vujudga keltirish va ularni jamiyatning asosiy tayanchiga aylantirish zarurati sabab bo‘ldi. Xonlarga va sultonlarga barcha sohalar bo‘yicha ilmli, diplomatik qobiliyatga ega bo‘lgan amaldorlar zarur edi. Islohotga ko‘ra ko‘p bosqichli o‘qitish tizimi joriy etilgan bo‘lib, ta’limning quyi bosqichi maktab hisoblangan va bolaga 6 yoshidan ta’lim berilgan. Maktabda ikki yil o‘qigach, o‘quvchilar madrasaga o‘tkazilgan. Madrasa 3 bosqichli ta’lim joriy etilgan bo‘lib, har bir bosqichida 8 yildan tahsil olingan. Shunday qilib o‘qish 26 yil davom etgan. Madrasada talabalar uchun o‘rnatilgan tartib, qonun-qoidalarga, axloqiy masalalarga qat’iy rioya etishlari talab etilishi muhim omillardan biri edi. Tarixchi Hofiz Tanish Buxoriy “Abdullonoma” asarida Abdulloxon II ning madrasasi faoliyati haqida qimmatli ma’lumotlarni bergan. Madrasada bu davrdagi an’anaga muvofiq islom dini va shariat qoidalariga qat’iy amal qilingan.

Madrasaga xon tomonidan tayinlangan madarris ta’lim jarayonini nazorat qilgan. Va vaqf mulklaridan ham to‘la hissador bo‘lgan. Bu esa muddarisning qay darajada katta mavqega ega ekanligidan dalolat beradi. Zayniddin Vosifiyning ma’lumotlariga qaraganda XVI asrning 20-yillarida Buxoro, Samarqand, Toshkent, Balx madrasalarida aholining farzandalari riyoziyot, hikmat, kimyo, ilm-u nujum, tafsir, fiqh, hadis ilmlari hamda adabiyot, musiqa sohalari bo‘yicha ta’lim olgan. Bu davrda tibbiyot sohasida qilingan ishlar ham muhimdir. Shayboniy hukmdorlari ichida Abdullaxon II tarixda ma’rifatparvar hukmdor sifatida nom qoldirgan. O‘sha davrda yashab ijod etgan tarixchi Hofiz Tanish Buxoriy shunday ma’lumotlarni keltiradi: “Fanlar fazilatida hammaga ma’lum taniqli bo‘lib, saltanat choponi uning bo‘yiga munosib tikilgan edi. Hamma sohalarni aql nuri bilan yoritib, ta’bining o‘tkirligidan ilm-u fanning hamma sohalari unga maftun edi. Zehnining tezligidan g‘arb haqiqatlari va badi ma’nilarni bayon qilishga qodir edi”.

1541-yilda Muhammad Husayn Ibn al-Me’roni as-Samarqandiy tibbiyot va farmakologiya ro‘yxatiga oid ilmiy asar yozib, o‘ta dorivor o‘simliklardan dori tayyorlash va saqlash uchun ishlatiladigan idishlarning rangdor nafis suratlari ilova qilindi. XVI asr qozilarining hujjatlarida Samarqandda tabiblar ko‘z kasalliklarini davolash

ishlari bilan shug‘ullanib kelganliklari to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Ko‘z tabibi Shoh Ali ibn Sulaymon Navro‘z Ahmadxon huzurida ishlagan. Samarqandda Ko‘chkinchixon zamonida hirotlik tabib Sulton Ali ishlagan. U kasalliklar va terapiya haqida umumiy ma’lumot beradigan “Tabiblik dasturulamali” asarini yozgan [1].

Bu davrda tibbiyot sohasida bir qancha mohir tabiblar, hoziq hakimlar yetishib chiqdilarki, o‘z davrida “iftixor-ul-atibbo” ya’ni, tabiblar iftixori unvonini olgan Muhammad Mazid, Hakim Shahrisabziy, jarroh (xirurg) mavlono Baqo, mavlono Rafe, 1541-yilda ilmi tib va dori-darmonlar haqida asar yozgan Muhammad Husayn ibn Shirakas Samarqandiy, ko‘z kasalliklarini davolashda nom chiqargan Shoh Ali ibn Sulaymon, o‘z zamonasining Suqroti nomini olgan Xoja Hakim (vafoti 994/1585) va “natijat ul-attibbo” laqabini olgan mavlono Abdulhakim ibn Mavlono Sulton Mahmud kabi hakimlar shular jumlasidan hisoblanadi. Bu tabiblar orasida, ayniqsa, mavlono Muhammad Mazid o‘zining ilmiy faoliyati bilan alohida ajralib turadi. Bu haqida Nisoriy shunday deydi: “Zamon tabiblarining aksariyati tib ilmini mavlono oldida o‘qidilar”[2].

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Toshkent, Samarqand, Buxoro kabi shaharlarda mashhur hakim, tabiblar davolash ishlari bilan shug‘ullangan, davolash asboblari, har xil dorilar ixtiro qilish bilan ham shug‘ullangan. Katta markaziy shaharlarda dorush-shifolar faoliyat ko‘rsatgan. Dorixona va shifoxonalar xususiy bo‘lib, ulardan foydalanish uchun katta mablag‘ to‘langan. Shuning uchun ham undan foydalanish hammaga ham nasib qilmagan. Bunday dorush-shifo va dorixonalar Jo‘ybor xojalari ixtiyorida ham bo‘lganligi tarixiy manbalarda zikr etilgan [3]. Bu davrda tibbiyot sohasi bilan birga rassomlik, naqqoshlik va xattotlik san’atlari ham rivojlangan. San’atning bir turi hisoblangan xattotlik kishilarga estetik zavq bag‘ishlagan, unga qiziqish kuchaygan. Bosmaxona haqida o‘ylash u yoqda tursin, hatto kitob nashr etish xayolga ham kelmagan bir davrda, xattotlik san’atiga ehtiyoj katta bo‘lishi tabiiy. Shuning uchun ham bu davrda bir qancha mashhur xattotlar yetishib chiqqan. Ularning mehnati tufayli ilm-fanning turli sohalariga oid ilmiy adabiy asarlarning aksariyati bizning davrlarimizga yetib keldi[4].

Ayrim madrasalar alohida ixtisoslashgani bois ularda maxsus fanlar ham o‘qitilgan. Masalan, tabiblar tayyorlashga moslashgan Dorush-shifo madrasasida Abu Ali ibn Sino, Ar-Roziy, Abu Ali ibn Rizvon Misriy kabi tabiblarning asarlari o‘rganilgan. Bundan tashqari 1511-yilda yozilgan, 101 betdan iborat Muhammad Yusufning “Tibbiy Yusufiy” deb nomlangan risolasi tibbiyotga taalluqli ma’lumotlar haqida bo‘lib, tabiblarni tayyorlaydigan madrasalarda darslik sifatida o‘qitilgan. O‘sha davrlarda mahalliy mudarrislar ta’lim-tarbiya ishlariga keng jalb etilgan bo‘lib, Zayniddin Vosifiy Toshkentda o‘zbek Navro‘z Ahmadxon huzurida muallimlik qilgan [5]. Ta’limning asosiy o‘choqlari bo‘lgan madrasa, masjidlarda o‘quv yakka yoki guruh tartibida olib borilgan. O‘qish va yozishni bilgan ma’lumotli kishilar yuksak qadrlangan, natijada xalq orasida bilimga intiluvchilar soni orta borgan. Davlat hukmdorlari va saroy a’yonlari bilim sharaf deb bilgan. Manbalarda ko‘rinadiki, o‘qitish tizimi o‘sha davrlar mezonlariga muvofiq yaxshi yo‘lga qo‘yilgan [6].

Fazlulloh ibn Ro‘zbehxonning bergan ma’lumotlariga ko‘ra Buxoro madrasalarida XVI asrda qiroat ilmiga alohida e’tibor qaratilgan va har talabadan Qur’onni to‘liq yod olish va ma’nolarini tushunish talab etilgan. Bu uslub garchi an’anaviy bo‘lsa-da, bu davrga kelib talabalar uchun maxsus darsliklar yaratildi va oldingi uslubiy qo‘llanmalar mukammallashtirildi. Shayboniylar hukmronligi davrida Buxoro xonligida faoliyat ko‘rsatgan asosiy o‘quv inshootlari quyidagi tuzilishda bo‘lgan: yirik madrasalar, hujralar toqi ravoqli, ichki-tashqi sahnli, masjid, darsxona, tahoratxona, darvoza, hovuzli majmua va kichik madrasalar, odatda, faqat hujralardan iborat bo‘lgan. O‘quv inshootlarini qurishda g‘ishtin, sangin, ganch, chubin, xom g‘isht kabi xomashyolar keng tarqalganligi tarixiy manbalarda qayd etib o‘tiladi [7].

Bu davrlarda Buxoro xonligida olib borilgan me’moriy qurilish ishlari ingliz sayyohi Antoni Jenkinsonning esdaliklarida ham saqlanib qolgan. Sayyoh shaharda qurilishlar avj olganligini va yangi qurilgan Mir Arab madrasasida 200 dan ortiq talaba ta’lim olishi to‘g‘risida ma’lumot bergan [8].

XVI asr madaniy hayoti va ta’lim tizimi haqida gap ketganda, Buxoro xonligida yuksak mavqega ega bo‘lgan Jo‘ybor xojalarining o‘rnini ta’kidlab o‘tish kerak. Chunki Jo‘yboriy shayxlar bu soha rivojiga xonlardan ham ko‘proq hissa qo‘shgan.

Bu davr ijtimoiy-falsafiy va axloqiy qarashlarida islom dini va dinga munosabat masalasi asosiy o‘rin tutadi. Jo‘yboriy xojalardan ayniqsa, Xoja Islom va Xoja Sa’d qurdirgan binolar ahamiyatga molik. Xoja Islom tomonidan bunyod etilgan Govkushon madrasasi uzoq yillar talabalarning bilim oladigan ma’rifat maskaniga aylanib keldi. Xoja Islom vafot etgach, o‘g‘li Xoja Sa’d uning ishlarini davom ettirganligi, u ham ta’mirtalab binolarni tuzatishga mablag‘ ajratganligi tarixiy manbalarda yaqqol keltirilgan.

XULOSA. Xullas, Shayboniylar ta’lim-tarbiyaning va ilm-ma’rifatning mamlakat taraqqiyoti uchun nechog‘lik muhim ekanligini yaxshi anglab yetgan va bu soha rivoji uchun shart-sharoitlar yaratib berish bilan birga, avvalo, o‘zlari ma’rifatli bo‘lishga harakat qilgan. Shayboniylar davrida mamlakatda ta’lim sohasi, me’morchilik, xattotlik, naqqoshlik, adabiyot, tarixnavislik, tibbiyotning yuksak bosqichga ko‘tarilganligida ko‘rinadi. Tasviriy san’at yuksalib, Buxoro miniatyura maktabi vujudga keldi. Kutubxonachilik (Abdulazizxon, Abdullaxon II kutubxonalari va boshqalar), kitob bezash va muqovachilik rivojlandi. Tibbiyot ilmi taraqqiy etdi (Muhammad Husayn ibn al-Miroqiy Samarqandiy, Shoh Ali ibn Sulaymon, Sulton Ali va boshqalar), yirik shaharlarda shifoxona (dor ush-shifo)lar tashkil qilindi. Ilm-ma’rifat hamma zamonlarda yuksak qadrlangan, ilmli kishilar esa ma’naviyat darg‘alari hisoblangan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Bekchanov I. Hasanxoja Nisoriy Muzakkiri ahbob tazkirasi va XVI asr o‘zbek adabiyoti. Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasi olish uchun yozilgan dissertat. – Toshkent: 1993. – B.: 26.

2. G‘oziyev S., O‘tasheva Sh. XVI asrda Movarounnahrda siyosiy, ijtimoiy-ma’naviy hayot. – Toshkent: 2014. – B.: 44.

3. G‘oziyev S., O‘tasheva Sh. XVI asrda Movarounnahrda siyosiy, ijtimoiy-ma’naviy hayot. – Toshkent: 2014. – B.: 31.

4. Ibrohimov A. XVI asr O‘zbek adabiyotining asosiy xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 1976. – B.: 4.

5. Ma’naviyat yulduzlari. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. – Toshkent: 1999. – B.: 262- 263.

6. Hofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma. – Toshkent: Sharq 2000. – B.: 133.

7. Valixo‘jayev B.N. Samarqandda oliy ta’lim – madrasayi oliya. Universitet tarixidan lavhalar. – Samarqand: 2016. – B.: 133.

8. Bekchanov I. Hasanxoja Nisoriy Muzakkiri ahbob tazkirasi va XVI asr o‘zbek adabiyoti. Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasi olish uchun yozilgan diss. –Toshkent: 1993. – B.: 35.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: :930.1385

XIV ASRNING ADABIY MEROSI "NAHJ UL-FARODIS" ASARI – NOYOB MUMTOZ MANBA

Nabijonov Muhammadmuso Rasuljon o'g'li
Mir Arab oliy madrasasi mudarrisi

ЛИТЕРАТУРНОЕ НАСЛЕДИЕ XIV ВЕКА «НАХДЖ УЛ-ФАРОДИС» ПРОИЗВЕДЕНИЕ – УНИКАЛЬНЫЙ ИСТОЧНИК

Набиджанов Мухаммадмусо Расулджан угли
преподаватель высшего медресе Мир Араб

LITERARY HERITAGE OF THE 14th CENTURY «NAHJ UL-FARODIS» WORK - A UNIQUE SOURCE

Nabijanov Muhammadmuso Rasuljan ugli
teacher of the Mir Arab Higher Madrasa

E-mail: nabijonovmuhammadmuso4@gmail.com
Orcid: 0009-0009-3256-6758
Tel: +998902161496

Annotatsiya: Maqolada Turkiyaning Sulaymoniya kutubxonasida saqlanayotgan Mahmud Ali Kardariyning "Nahj ul-farodis" asari, uning o'rganilishi tarixi, XIV asrning noyob turkiy adabiy manbasi ekanligi xususida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Mahmud Ali Kardariy, "Nahj ul-farodis", Janos Eckmann, Semih Tezjan, Hamza Fulfiqor, Qur'on oyatlari, hadislar.

Аннотация: В статье рассказывается о произведении Махмуда Али Кардари «Нахдж уль-Фародис», хранящемся в библиотеке Сулеймании, Турция, истории его изучения, а также о том, что оно является уникальным турецким литературным источником XIV века.

Ключевые слова: Махмуд Али Кардари, «Нахдж уль-Фародис», Янош Экманн, Семих Тезжан, Хамза Фулфикор, аяты Корана, хадисы

Abstract: The article deals with the work of Mahmud Ali Kardari "Nahj ul-farodis" kept in the Suleymaniye library of Turkey, the history of its study, a unique source of Turkish literature of the XIV century.

Key words: Mahmud Ali Kardari, «Nahj ul-farodis», Janos Eckmann, Semih Tezjan, Hamza Fulfiqar, verses of Koran, hadiths.

KIRISH(ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION). "Nahj ul-farodis" ("Jannatlarning ochiq yo'li") – XIV asrda turkiy tilda bitilgan musulmonchilikka asoslangan muhim axloqiy masalalardan bahs etuvchi, noyob adabiy manbadir. Uning ilm olamiga tanitilishida vengriyalik olim Janos Eksman va turk olimlari Semih Tezjan va Hamza Zulfiqorlarning alohida xizmati bor. Janos Eksmanning sa'y-harakati bilan Turkiyaning Sulaymoniya kutubxonasi saqlanayotgan "Nahj ul-farodis" noyob qo'lyozmasining faksimile nusxasi yaratildi. Uning o'rganilishi tarixi xususida olimning muhim ilmiy ahamiyatga molik "Kirish" maqolasi va Semih Tezjan, Hamza Zulfiqorlar tomonidan asarning Janos Eksman tayyorlagan faksimile nusxasi, uning lotin yozuvidagi transliteratsiyasi chop etildi [2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). J.Eksman maqolasida 879-raqam ostida saqlanuvchi "Nahj ul-farodis"ning "Yangi Jome" nusxasi deb ataluvchi bu qo'lyozmani ilk bor Ahmad Zakiy Validiy kashf etgani, "Xorazmda yozilgan eski turkcha asarlar" maqolasida asar va uning muallifi xususida quyidagilarni bildirganini qayd etadi: "Bu kitobning muallifi xorazmlik bir zotdir. Tili sof Xorazm turkchasida va uning muallifi (hijriy) 761-yilda vafot

etgandir. Bu esa muallifning ham xorazmlik ekanligiga dalolat qiladi” [2].

J.Eksman maqolada ushbu ma‘lumot asarning til xususiyatlari bilan yaqindan tanishgan tadqiqotchi tomonidan bildirilganiga e‘tibor qaratadi. Tatar olimi Shahobiddin Marjoniyning “Kitabu mustafedi al-ahbar fi ahvali Qozon va Bulg‘or” nomli tarixiy kitobida asar muallifining “Mahmud bin Ali as-Saroiy menshen va al-Bulg‘oriy mevlevi...” tarzıda tanitganinıi Ahmad Zakiy Validiy fikrlarıga tayanıb inkor etadi. Ma’lum bo‘ladiki, “Bulg‘oriy” nisbasi asarning boshqa bir qo‘lyozmasini ko‘chirgan kotibga tegishlidir. [2]. Shunday qilib, Mahmud Ali borasida Ko‘hna Urganch shahrining shimoli-sharqida joylashgan hozirgi Qoraqalpog‘istonning Chimboy va Nukus shaharlari orasidagi qadimgi madaniy markazlardan biri bo‘lgan Kadar shahrida tavallud topgani haqida muayyan qo‘nimga kelinadi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Asarning “Qissasi Rabg‘uziy” bilan bir asrda va bir hududda (Oltin O‘rda va uning atrofi) yozilganligi, “Nahj ul-farodis” ham “Qissasi Rabg‘uziy” kabi anbiyolar hayotining ibrat qilib ko‘rsatish ruhida yozilgan nasriy asar ekanligi uning ahamiyatini yanada oshiradi. Shu bilan bir qatorda “Nahj ul-farodis”da qo‘shimcha ravishda sahobalar, to‘rt nafar sunniy mazhabboshi imomlar haqida ma‘lumot hamda Alloh taologa yaqinlashtiradigan – xayrli va Undan uzoqlashtiradigan – munkar amallar tavsifiga bag‘ishlangan alohida bob va fasllarning mavjudligi asarning muhim fazilatlaridan biridir. “Qisasi Rabg‘uziy”ning Nosiruddin To‘qbo‘g‘abek taklifiga ko‘ra yozilganligi ma‘lum. Bir davr va bir ijtimoiy-siyosiy muhitda mazmunan bir-biriga o‘ta yaqin ikki mashhur asarning yaratilishi va keng tarqalishi o‘sha davrdagi hukmdor qatlam bo‘lg‘an chingiziy sultonlar tomonidan Islom diniga yuksak e‘tibor qaratilganligi va ayni paytda O‘rta Osiyo va uning atrofida anbiyolar qissasiga bag‘ishlangan asarlarga ehtiyoj katta bo‘lganligini ko‘rsatadi. Chunki Xorazmshohlar saltanati qulagandan keyin u bilan birga gulkirab rivojlangan Islom madaniyatiga ham jiddiy talofot yetdi va orada katta madaniy-ma‘rifiy, ilmiy-axloqiy bo‘shliq paydo bo‘ldi. Bu bo‘shliqni to‘ldirish ehtiyoji va hukmdor chingiziy sulola tomonidan Islom dinining qabul qilinib, uning rivojiga e‘tibor qaratishi bunday asarlarning yaratilishiga qulay vaziyat tayyorladi. Mazkur asarlarning yana bir o‘ziga xosligi shundaki, unda badiiy ruh ustuvorligi sezilib turadi. Chunki sof diniy ruhda yozilgan asarlarda voqea va hodisalarni bayoni aniq, sahih hujjatlarga asoslangan holda beriladi. Lekin bu asarda masalaning ilmiy tomoniga nisbatan badiiy, axloqiy-ta‘limiy tomoniga ko‘proq e‘tibor qaratilgan. Uning “Nahj ul-farodis” “Jannatlarning ochiq yo‘li” deb atalishi ham unda axloqiy-ta‘limiy mohiyat kasb etuvchi badiiyat namunalarining kiritilishiga bois bo‘lgan. “Nahj ul-farodis”da musulmon mintaqa adabiyotida shakllangan axloqiy-ta‘limiy asarlarga xos muayyan bir masalani o‘quvchiga hissiy-ta‘sir kuchini oshirib yetkazish adabiy niyati bilan o‘sha masalaga oid hikoyat va rivoyatlarga o‘rin berilgan. Bu uning adabiy manba sifatidagi qimmatini oshirishga va uning o‘quvchilar ko‘nglidan o‘rin olishiga omil bo‘lgan. Chunonchi, asarda “Imom Molik (r.a.)ning fazilati bayonida” (2-bob 9-fasl) “Ibrohim (a.s)ning Alloh nima uchun do‘st qilib olganligi”, “Tun-u kun ibodat qilish fazilati bayonida” (3-bob 9-fasl) “Robiyat ul-Adaviya” , “Nohaq qon to‘kish ofati bayonida” (4-bob 1-fasl) “Qobil va Hobil”, “Imom Voqidiy”, “Muso (a.s)”, “Hajjoji zolim”, “Dunyoni sevish bayonida” (4-bob 6-fasl) “Molik ibn Dinor”, “Fuzayl (r.a.)”, “Gina va hasad bayonida” (4-bob 8-fasl) “Zakaryo (a.s.)” singari hikoya va rivoyatlar keltiriladi. Fasllarning bunday hikoyat va rivoyatlar bilan ziynatlanganligi asar muallifining yaxshigina badiiy mahoratidan darak beradi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). “Nahj ul-farodis”ning so‘nggi – qirqinchi fasli Abu Hurayra (r.a)dan rivoyat qilingan hadis bilan nihoya topadi. Undan so‘ng, muallif yoki kotib tomonidan yozilganligi aniqlanmagan munojotiga o‘rin beriladi. Kitobning kolofon qismida kotib tomonidan keltirilgan ma‘lumotlar ham asarning muhim jihatlarini aniqlashtirishga xizmat qiladi. Jumladan, unda kitobning 761-yil jumadul avval oyining 6-kunida (milodiy 26-mart 1360-yilda) bomdod namozi vaqtida bitib tugatilgani, kitob musannifining oldingi yakshanba kuni dorulfanodan dorulbaqoga rixlat qilgani ma‘lum qilinadi. Muhimi shundaki, kotib “Imom Jarulloh” deya ulug‘langan Imom Zamaxshariyning “Al-Kashshof”, Imom Ma‘oniy Isfahoniy (r.h)ning “Tafsir”, shuningdek, yana bir qator ulamo-yu mashoyixlarning hikoyatlari asar uchun manba bo‘lganini, bulardan tashqari, Imom Abu Tolib Makkiyning “Quvvat ul-qulub”, Imom Firdavsiyning “Mujtaliy” va uning sharhidan ham

foydalanilganini ma‘lum qiladi [1]. Ushbu ma‘lumotlar asarda nihoyatda muhim bo‘lgan masalalar qalamga olingani va u o‘z davri nasrining noyob muhim manbasi bo‘lganidan dalolat beradi. “Nahj ul-farodis”ning noyob qo‘lyozmasi asosida uning lotin yozuvidagi nashrini amalga oshirgan Janos Eksman Turkiya turkchasini yaxshi bilgan mutaxassis bo‘lgani bois asarning transliteratsiyasida ham shu til unsurlariga ko‘p berilganligi kuzatiladi. Boz ustiga, qo‘lyozmadagi diakretik belgilarning keyinchalik boshqa rang – qizilda qo‘yilgani ham lotin yozuvdagi matnda asl matndan shunday farqli jihatlarni vujudga keltirgan. Asarning matniy tadqiqini amalga oshirib, uni ilmiy o‘rganish bu noyob adabiy manbaning qator fazilatlarini aniqlashtirish imkonini hosil qiladi.

O‘rta Osiyo zaminidan butun Islom olamiga mashhur bo‘lgan yetuk allomalar yetishib chiqqan. Masalan, Imom al-Buxoriy, Imom Motrudiy, Imom Zamaxshariy, Imom Marg‘inoniy kabi allomayi zamonlar bugungi kunga qadar dunyo musulmonlari uchun darstur ul-amal bo‘lib kelayotgan asarlarni meros qoldirganlar. Lekin bu asarlar arab tilida bo‘lib ularni o‘qib anglash maxsus ilmiy saviya talab qilgan bu sababdan avom xalqning bu asarlardan bevosita foydalana olishi amalda qiyin bo‘lgan. Shuning uchun ham o‘sha davrda oddiy xalqning diniy bilim va saviyasini oshirish, ularni Islomiy xulq-atvor bilan xulqlantirish vazifasini turkiy tilda yaratilgan mana shunday asarlar bajarib bergan. Ularning sodda hikoya va rivoyatlar ko‘rinishida bayon etilishi ularning xalqchilligini oshirgan. Bu esa kitoblarning ko‘plab nusxalari yaratilishini va ularning ayrimlari bugungi kunimizga qadar yetib kelishini ta‘minlagan. Turkiy xalqlar asos solgan markazlashgan davlatlarning ta‘sirida bugungi Sharqiy Yevrova, Hind-u Xitoy, Kavkaz, Mo‘g‘uliston hududlarigacha Islom dini kirib borgan. Bu esa turkiy dunyoda Islom madaniyati yuksak darajada bo‘lganligini, diniy-badiiy ruhdagi asarlar yaratilishiga keng imkoniyat bo‘lganligini anglatadi. Shuning uchun ham turkiy tilda yozilgan bunday asarlar dunyoning ko‘plab nuqtalariga tarqalgan. Buni yuqorida aytganimizdek, Marjoniy xabar bergan nusxaning Bulg‘or tilida ekanligidan, yoki Sulaymoniya kutubxonasida saqlanayotgan Yangi Jome nusxasining ilk sahifasidagi qaydga ko‘ra asar bir qancha vaqt Misrda Muhammad Beyning kutubxonasida saqlanganligidan bilishimiz mumkin. Asarga bugungi kunga qadar olimlar tomonidan katta qiziqish bilan qaralmoqda va uning nafaqat badiiy, tarixiy, diniy-axloqiy tomonlari, shu bilan birga til xususiyatlari ham o‘rganilmoqda. Hatto asar faksimeliya, transletiratsiya ko‘rinishida nashr etilmoqda. Masalan, asar “Nehcül-Feradis (Cennetlerin açık yolu)” nomi ostida Turkiyada 3 jildli kitob ko‘rinishida nashr qilingan: I jild – faksimeliya, II jild – trasliteratsiya (lotin yozuvida), III jild esa asarning izohi va so‘zlar lug‘ati (turk tilida). Bizning qo‘limizda ushbu asarning Anqarada 2004-yilda nashr qilingan I va II jildlari mavjud. Muallif ba‘zi mashhur rivoyatlarni o‘z maqsadiga ko‘ra qisqartirgan yoki kengaytirgan. Masalan, zino qilishning ofatlari faslida keltirilgan Yusuf va Zulayho haqidagi hikoyatni batafsil bayon qilib, Zulayhoning eri Yusufning ko‘ylagini ortdan yirtilganini ko‘rib, Zulayhoni tavbaga Yusufni bu kundan keyin u ayolning oldiga kirmaslik undan yuz o‘girishga chaqirishi bilan tugallanadi. Kotib tomonidan berilgan “Xotimat ul-kitob”da ham ba‘zi muhim ma‘lumotlar mavjud. “Xotimat ul-kitob” 443-betning 15-qatoridan boshlanadi. Ya‘ni, bu kitob 761-yil jumadul avval oyining 6-kunida (milodiy 26-mart 1360-yilda) (kitabati qushluq) bomdod namozi vaqtida bitdi. Yana bu kitobning musannifi yakshanba kuni dorulfanodan dorulbaqoga rixlat qildi.

XULOSA(ЗАКЛЮЧЕНИЕ/ ICONCLUSION). Asar juda ham go‘zal uslubda yozilgan. Har bir mutoala qilguchi zavqu shavq bilan o‘qib, madaniy-ma‘rifiy, ilmiy-axloqiy bo‘shlig‘ini, o‘zining badiiy, tarixiy, diniy-axloqiy tomonlarini boyitadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Nehcül-Feradıs. Uçmahlarnıng Açık Yolu (Cennetlerün Açık Yolu). I Metin. II.Tıpkıbasım. Tıpkıbasım ve Çevriyazı: Janos Eckmann, Yayımlayanlar: Semih Tezcan, Hamza Zülfikar. Ankara: Atatürk Kültür, Dil ve Tarih Yüksek Kurumu Türk Dil Kurumu Yayınları. 2004.
2. Eckmann, Jenos. Ön söz. Nehcül-Feradıs. Uçmahlarnıng Açık Yolu (Cennetlerün Açık Yolu). I Metin. II.Tıpkıbasım. Tıpkıbasım ve Çevriyazı: Janos Eckmann, Yayımlayanlar: Semih Tezcan, Hamza Zülfikar. Ankara: Atatürk Kültür, Dil ve Tarih Yüksek Kurumu Türk Dil Kurumu Yayınları. 2004.

Qabul qilindi: 05.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 801.85:95

INGLIZ TILINI O‘QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Nazarmatova Yorqinoy Maxmudaliyevna
Termiz davlat universiteti Fakultetlararo chet tillari kafedrasi o‘qituvchisi

РОЛЬ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ

Назарматова Ёркиной Махмудалиевна
Преподаватель кафедры межфакультетских иностранных языков Термезского государственного университета

THE ROLE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING ENGLISH

Nazarmatova Yorkinoy Makhmudalievna
Teacher of the Department of Interfaculty Foreign Languages of Termez State University

e-mail: yorqinoy479@gmail.com
Orcid: 0009-0006-3273-8773
Tel: +99897 8085583

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tili darslarida qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalarning turlari va ulardan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari tadqiq etilgan. Shuningdek, pedagogik texnologiyalarning o‘qitish sifatiga ijobiy ta’siri misollar asosida ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: ingliz tili, metodika, o‘qitish, pedagogika, texnologiyalar, pedagogik mahorat, samaradorlik.

Аннотация: В данной статье рассматриваются виды педагогических технологий, используемых на занятиях по английскому языку, и особенности их использования. Также на примерах показано положительное влияние педагогических технологий на качество обучения.

Ключевые слова: английский язык, методика, преподавание, педагогика, технологии, педагогическое мастерство, эффективность.

Abstract: This article examines the types of pedagogical technologies used in English language classes and the specific features of their use. Also, the positive effect of pedagogical technologies on the quality of teaching is shown on the basis of examples.

Key words: English language, methodology, teaching, pedagogy, technologies, pedagogical skills, efficiency.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Bugungi kunda mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘qitishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bu borada darslarni sifatli tashkil etish va bu orqali samaradorlikka erishish chet tillarini o‘zlashtirishning zaruriy sharti hisoblanadi. Ma’lumki, har qanday tilni samarali o‘zlashtirish ko‘p jihatdan dars jarayonida pedagogik texnologiyalardan oqilona foydalanish bilan chambarchas bog‘liq hisoblanadi. Ya’ni darslarning ijobiy qabul qilinishi ko‘p jihatdan qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalar, o‘qituvchining pedagogik mahorati bilan uzviy bog‘liqdir. Ingliz tilini o‘qitish jarayonida ham ushbu jihatga ahamiyat qaratish muhim omillardan hisoblanadi. Bugungi kunda ta’lim sohasida pedagogik jarayonning deyarli barcha jabhalarini qamrab oluvchi muhim o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Talabaning shaxsiy qiziqishi ta’lim jarayonida hal qiluvchi omil hisoblanadi. O‘qitishning asosiy

strategiyasi - bu shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, talabaning shaxsiyati, uning qobiliyatlari, moyilligi va ehtiyojlarini ta’lim jarayonining markaziga qo‘yadi. Bularning barchasini yangi ta’lim texnologiyalari asosida amalga oshirish mumkin. Hozirgi vaqtda bu tushuncha pedagogik jarayonga mustahkam o‘rnashib ulgurdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Bugungi zamonaviy dunyoda pedagogik texnologiyalar bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan ko‘p sonli tadqiqotchilarni keltirish mumkin. Ularning pedagogik texnologiyaga bergan ta’riflari ham o‘ziga xosdir. Xususan, M.Bekiyeva pedagogik texnologiyaga “Ta’lim samaradorligini oshiradigan, ulardan foydalanish aniq belgilangan natijaga ega bo‘lgan o‘quv faoliyatini tashkil etishning usullari, shakllari majmuasidir”, – degan ta’rifni beradi. [1]

Shuningdek, xorijiy tadqiqotchilardan biri И.И.Джужук shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarining xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini o‘qitishdagi ahamiyatiga yuqori baho bergan holda, bu kabi texnologiyalarni o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlariga ta’rif beradi. [2]

MUHOKAMA(ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION)

Chet tillarini o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalarning eng muhim xususiyatlari quyidagilardan iborat:

– samaradorlik (har bir talaba tomonidan belgilangan ta’lim maqsadlariga erishishning yuqori darajasi);

– tejamkorlik (materialni o‘zlashtirish uchun kam kuch sarflangan holda katta hajmdagi materialni o‘zlashtirish);

– ergonomika (ta’lim hamkorlik muhitida, ijobiy hissiy mikroiqlimda, ortiqcha yuk va charchoq bo‘lmagan holatda o‘tkaziladi);

– fanni o‘rganishda yuqori motivatsiya, bu darslarga qiziqishni oshirishga yordam beradi va talabaning eng yaxshi shaxsiy fazilatlarini yaxshilashga va uning zaxira imkoniyatlarini ochishga imkon beradi. [5]

Ingliz tilini o‘qitish metodologiyasida yangi o‘qitish texnologiyalari odatda quyidagilarni o‘z ichiga oladi: hamkorlikda o‘qitish, loyiha usuli (loyiha texnologiyalari), o‘yin usuli, masofaviy ta’lim, til portfelidan foydalanish, keys usuli va intensiv o‘qitish usullari, tanqidiy fikrlash, texnik vositalardan foydalanish (birinchi navbatda kompyuter va audiovizual texnologiyalar). Ingliz tilini o‘qitishdagi barcha yangi pedagogik texnologiyalarning ulkan afzalligi darsni diversifikatsiya qilish, o‘quvchilarning ingliz tilini o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqini oshirish, tanqidiy fikrlashdan foydalanish, o‘z bilimlarini o‘yin shaklida sinab ko‘rish imkoniyatidir. Har qanday yangi texnologiyani o‘zlashtirish bilan o‘qituvchining yangi pedagogik tafakkuri ta’limdagi muvaffaqiyatsizlikni bartaraf etish usuli sifatida boshlanadi [4]. Amalda o‘qituvchilar ko‘pincha tanqidiy fikrlash usullaridan foydalanadilar. Ingliz tili darslarida “Critical thinking” texnologiyasidan foydalangan holda o‘qituvchi ingliz tilini bevosita o‘rgatish orqali talaba shaxsini rivojlantiradi, buning natijasida kognitiv faoliyat va o‘rganish uchun qulay shart-sharoitlarni ta’minlaydigan kommunikativ kompetentsiya shakllanadi [3].

Bu orqali o‘qituvchi talabaning qiziqishlarini rag‘batlantiradi, uni ingliz tilidan amaliy foydalanishga, shuningdek, o‘qishga intilishini rivojlantiradi va shu bilan fanni o‘zlashtirishda muvaffaqiyatga erishadi. Darsda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda darslarni tahlil qilib, biz ingliz tilini o‘qitish jarayoniga yangi nuqtai nazardan qarash va shaxsiyatni shakllantirishning psixologik mexanizmlarini o‘zlashtirish mumkinligiga amin bo‘ldik. [2]

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS)

Ingliz tilini o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish nafaqat yangi texnik vositalarni, balki o‘qitishning yangi shakl va usullarini, o‘quv jarayoniga yangicha yondashuvni ham anglatadi. O‘qituvchining asosiy vazifalari tilni amaliy o‘zlashtirish uchun shart-sharoitlarni yaratish, har bir o‘quvchiga o‘z faolligi va ijodkorligini ko‘rsatishga imkon beradigan o‘qitish usullarini tanlash, shuningdek, chet tilini o‘rganish jarayonida talabaning kognitiv faolligini oshirishdan iborat. [3]

Zamonaviy texnologiyalar o‘quv faoliyatini oshirish va talabalar o‘rtasida mustaqil ishlash madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan bir qator pedagogik muammolarni hal qilish imkonini beradi. Innovatsion texnologiyalarni qo‘llash zarurati o‘qitish jarayonida o‘rganilishi va qayta ishlanishi kerak bo‘lgan axborotlar hajmining doimiy ravishda ortib borishi bilan ham bog‘liq. Ingliz tilini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning asosiy afzalligi ma’lumotni

TAMADDUN NURI

uzatishning an'anaviy og'zaki usullaridan audiovizual usullarga e'tiborni o'tkazishdir. Bu borada ayniqsa internetning ahamiyati bugungi globallashuv davrida ortib bormoqda. Eng so'nggi ishlanmalar ko'pincha Internetda taqdim etiladi va talabalar ularni tanlash imkoniyatiga ega. Axborot texnologiyalari o'quv materialini ko'paytirish va tarqatish bilan bog'liq muammolarni bartaraf qiladi, unga kirishni ta'lim muassasasida ham, uyda ham, foydalanuvchi uchun qulay vaqtda olish mumkin. [1]

Til o'rgatish va madaniyatlararo muloqotda interfaol multimedia vositalari va internet texnologiyalaridan keng foydalanish natijasida xalqaro ilmiy adabiyotlarda kompyuter va internetning interaktiv imkoniyatlaridan foydalanishni bildiruvchi "Computer-mediaated Communication" (CMC) atamasi paydo bo'ldi. Hozirda jahonda internet hamda mediamakon talabalar va madaniy obyektlar o'rtasida vositachi bo'lib, o'quv faoliyatining asosini tashkil qiladi. U asosan talabalarning hayotiy faoliyati kontekstini belgilaydi va aks ettiradi, bu o'qituvchilarga ta'lim muhitini loyihalash va o'quvchilarning kasbiy qiziqishlari, hayot istiqbollari va qobiliyatlari nuqtai nazaridan ta'limni tashkil etish imkonini beradi. Bundan kelib chiqadiki, an'anaviy o'qitish usullari innovatsion ta'lim texnologiyalariga nisbatan ancha cheklangan imkoniyatlarga ega. Zamonaviy voqelik oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari oldiga yangi ilg'or ta'lim texnologiyalari va o'qitishning yangi ilg'or texnologiyalarini qo'llash, imkoniyatlaridan unumli foydalanish vazifasini qo'ymoqda. [4]

Ta'lim natijalari bo'yicha yangi qarashlar yangi texnologiyalarning paydo bo'lishiga va eskirgan ta'lim metodlaridan voz kechishga yordam berdi. "An'anaviy" tushunchasi, birinchi navbatda, qoidalarni o'rganish va til mashqlarini bajarish, boshqacha aytganda, "tilda muloqot qilish o'rniga til haqida gapirish" bilan bog'liq. Ko'pgina o'qituvchilar yaxshi so'z boyligi va to'g'ri bilim, shuningdek, chet tilining grammatik tuzilmalaridan to'g'ri foydalanish o'quv jarayonining markazida ekanligiga ishonadilar. Biroq, bunday nuqtai nazarni mutlaqo to'g'ri deb hisoblash mumkin emas, chunki har qanday til mukammal o'rganish doimiy amaliyot va muloqot natijasida yuzaga kelishi mumkin. Chet tilida muloqot qilishni o'rgatish uchun o'qituvchi materialni o'rganishni rag'batlantiradigan va adekvat xulq-atvorni rivojlantiradigan haqiqiy, real hayotiy vaziyatlarni yaratishi kerak. Bugungi kunga kelib innovatsion texnologiyalar bu holatni tuzatishga harakat qilmoqda. [2]

Internet resurslari va multimedia vositalaridan foydalangan holda inglzi tilini o'qitishning yangi talablaridan biri bu darsda o'zaro ta'sirni yaratishdir, bu odatda metodologiyada interaktivlik deb ataladi. Ushbu tamoyil yangi emas, lekin u hali ham yagona va umumiy qabul qilingan ta'rifga ega emas. R.P. Milrud interaktivlikni nutq vositalari orqali kommunikativ maqsad va natijani birlashtirish, muvofiqlashtirish va to'ldirish deb ta'riflaydi [4]. Ushbu ta'rifga ko'ra, virtual makonda interfaol yondashuv ta'lim jarayonida kommunikativ maqsadga erishish vositalaridan biri bo'lib xizmat qiladi degan xulosaga kelishimiz mumkin. Interaktivlik nafaqat real hayotiy vaziyatlarni yaratadi, balki chet tili orqali ularga munosib javob berishga majbur qiladi.

XULOSA(ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, ingliz tilini o'qitish sohasida innovatsion axborot texnologiyalariga asoslangan metodlarning imkoniyatlari juda katta, ammo bu imkoniyatlar hozirga qadar to'liq o'rganilmagan. Oliy ta'lim tizimida ingliz tilini o'qitishning innovatsion usullarini ishlab chiqish zamonaviy lingvistik va metodik fanlarning ustuvor yo'nalishi bo'lib, bu tadqiqotchilardan yanada ko'proq izlanishlarni talab qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Bekiyeva M. J. K. Development of linguoculturology and interpretation of language and culture in modern linguistics. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). 2022. – B. 93–102.
2. Гейхман Л. К. Интерактивное обучение общению как модель межкультурной коммуникации// Вестн. МГУ. 2003. Сер. 19. – № 3. – С. 26.
3. Джужук И.И. Метод проектов в контексте личностно-ориентированного образования. Материалы к дидактическому исследованию. – Ростов: 2005. – 182 с.
4. Мильруд Р. П. Сотрудничество на уроке иностранного языка // Иностранные языки в школе. 1991. № 6. – С. 19.
5. Мустафина Ф.Ш. Методика преподавания иностранных языков: Учебное пособие. – Уфа: Восточный университет, 2019. – 30 с.

Qabul qilindi: 05.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 37.013

AXBOROT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Toshpo‘latov Temur Mo‘minjonovich
Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti
Ingliz tili o‘qituvchisi

РАЗВИТИЕ ИНФОРМАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЫ КАК КЛЮЧЕВАЯ ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Ташпулатов Темур Муминжонович
Преподаватель английского языка, Ташкентский государственный педагогический университет имени Низоми

DEVELOPMENT OF INFORMATION CULTURE AS A KEY PEDAGOGICAL PROBLEM

Tashpulatov Temur Muminjonovich
English teacher, Tashkent State Pedagogical University named after Nizomi

Tel: +998977592727
E-mail: temurtashpulatov92@gmail.com
Orcid: 0009-0009-5712-4999

Annotasiya. Ushbu maqolada axborot madaniyatini shakllantirishning shart-sharoitlari, mediasavodxonlikning bugungi globallashuv davridagi roli borasida fikr-mulohazalar keltirilgan. Shuningdek, talabalar orasida axborot madaniyatini shakllantirishning pedagogik jihatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: mediasavodxonlik, axborot madaniyati, internet, pedagogika, ta’lim, globallashuv.

Аннотация. В данной статье приводятся мнения об условиях формирования информационной культуры, роли медиаграмотности в современную эпоху глобализации. Также освещены педагогические аспекты формирования информационной культуры у студентов.

Ключевые слова: медиаграмотность, информационная культура, Интернет, педагогика, образование, глобализация.

Annotation. This article presents opinions on the conditions for the formation of information culture, the role of media literacy in the modern era of globalization. It also highlights the pedagogical aspects of the formation of information culture in students.

Key words: media literacy, information culture, Internet, pedagogy, education, globalization.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Zamonaviy jamiyat global axborot sivilizatsiyasi tomon ketmoqda, unda axborot insonning “yashash joyi”ga aylanib, axborot faoliyati ijtimoiy rivojlanishning zaruriy sharti sifatida e’tirof etiladi. Zamonaviy, intellektual salohiyati yuksak inson axborot muammosini qanday aniqlashni, uni hal qilish uchun mos resurslarni tanlashni, ma’lumotni

katta hajmda topish va joylashtirishni, materiallarni o‘qishni, axborotni sintez qilishni hamda axborot almashish jarayonini baholashni biladi.

Zamonaviy hayot insonning axborot madaniyatiga talablarni oshiradi. Axborot madaniyati – axborotni yaratish, qayta ishlash, uzatish va iste’mol qilishda yangi axborot texnologiyalari, zamonaviy texnik vositalar va usullardan foydalangan holda, ular bilan malakali va maqsadli ishlash qobiliyatidir [2].

Bugungi kunga kelib axborot madaniyati inson kasbiy rivojlanishining asosiy omillaridan biriga aylandi. Fanning turli sohalari (adabiyot, pedagogika, sotsiologiya, falsafa, informatika) mutaxassislari “axborot madaniyati” tushunchasini o‘ziga xos tarzda talqin qila boshladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). G. A. Bordovskiy va V. A. Izvozchikovlar “Axborot madaniyati” tushunchasiga mafkuraviy va aksiologik elementlarni kiritdilar. Ular o‘z tadqiqotlari orqali axborot madaniyatiga quyidagicha ta’rif beradilar: “Axborot madaniyati - bu insonning atrof dunyodagi axborot jarayonlari, axborot manbalari haqidagi bilimi va zamonaviy inson uchun axborot muhitida harakat qilish qanchalik muhimligini tushunishdir” [1].

I. G. Xangeldieva esa axborot madaniyatiga quyidagi ta’rifni beradi: “Axborot madaniyati – bu axborotni qabul qilish va uzatish borasidagi inson hayotining sifat xususiyati bo‘lib, bu yerda umuminsoniy ma’naviy qadriyatlar ustuvor hisoblanadi” [4]. E. A. Medvedeva esa “Axborot madaniyati – bu insonga axborot makonida erkin harakat qilish, uni shakllantirishda ishtirok etish va axborot bilan o‘zaro ta’sir qilish imkonini beradigan bilim darajasidir”, – degan ta’rifni beradi. [4].

E. P. Semenyukning tadqiqotlarida ta’kidlanishicha, axborot madaniyati – bu shaxs, jamiyat yoki uning ma’lum bir qismining axborot bilan ishlashning barcha mumkin bo‘lgan turlari: axborotni olish, to‘plash, kodlash va qayta ishlashning har qanday turidagi mukammallik darajasidir. [6]. N.B. Zinovieva o‘z asarlarida axborot madaniyati haqidagi barcha g‘oyalarni tizimlashtirishga harakat qilib, “Axborot madaniyati - bu ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan ma’lumotlarning butun hajmini o‘zlashtirish jarayonida shaxsning ichki dunyosini uyg‘unlashtirishdir”, – degan ta’rifni keltirdi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Pedagogikada “axborot madaniyati” tushunchasini birinchi bo‘lib A. P. Ershov va N. I. Monaxov qo‘llaganlar. Axborot madaniyatining ta’rifi “kompyuter savodxonligi” tushunchasiga to‘g‘ri keladi, u elementar matematik modellashtirish bo‘yicha bilimlarni, oddiy matematik modellarni qurish qobiliyatini, matematik modellarni qurish uchun oddiy algoritmlarni qo‘llash qobiliyatini, shaxsiy kompyuterning ishlashini tushunishni o‘z ichiga oladi. [3].

“Axborot madaniyati” tushunchasining tarixini o‘rganib chiqqan holda, u umumiy madaniyatning asosi bo‘lib, o‘zaro madaniy ta’sirning barcha shakllariga ta’sir qiladi, deb aytish mumkin. S.D.Qorako‘zovning fikricha, axborot madaniyati insonning asosiy madaniyatining tarkibiy qismi bo‘lib, axborot bilan ishlash: uni qabul qilish, ko‘paytirish va amalda qo‘llash imkonini beradi [7].

Pedagogik faoliyat ishtirokchilari o‘zlarida axborot madaniyatini rivojlantirishi – bu o‘z-o‘zini bilishga va o‘z o‘rnini topishga yordam beradigan fazilatlarga ega bo‘lishni anglatadi. Chunki, ta’lim insonda axborot madaniyatini shakllantirishda yordam beradi.

Zamonaviy axborot jamiyati talablariga javob berish uchun inson quyidagilarni bilishi kerak:

1. Olingan ma’lumotlarni tahlil qilish;
2. Ma’lumotlarni muhimlik darajasiga ko‘ra farqlash;
3. Ma’lumotni ma’lum mezonlar bo‘yicha baholash;
4. Pedagogik maqsadlarga erishish uchun ma’lumotlardan unumli foydalanish [2].

Axborot madaniyati nafaqat axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida ma’lum bilim va ko‘nikmalarni egallashdan iborat, balki huquqiy va axloqiy me’yor va qoidalarni bilish va ularga rioya qilishni ham nazarda tutadi. Qonunlar qaroqchilik kompyuter dasturlarini ishlatishni va Internetda zo‘ravonlik, giyohvand moddalar va hayosizlikni targ‘ib qilishni taqiqlaydi. Elektron pochta yoki chatlar orqali muloqot qilish, telekonferensiyada qatnashish ma’lum qoidalarga rioya qilishni talab qiladi: xatlarga javob berish va do‘stlar hamda notanish insonlarga nomaqbul reklama xabarlarini (spam) yubormaslik,

TAMADDUN NURI

telekonferensiya va chatlarda muhokama mavzusidan chetga chiqmaslik va hokazo.

Bugungi kunga kelib ta'lim tizimida keng qamrovli axborot texnologiyalari platformalarini faol joriy etish zarur ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan ayni vaqtda oliy ta'limda axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar bilan ishlaydigan bitiruvchilar sonini ko'paytirish davr talabiga aylanib bormoqda.

Zamonaviy talabaning kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirish bo'yicha innovatsion strategiyalar ilg'or axborot texnologiyalari, ma'lumotlar bazalari, ilmiy va o'quv ma'lumotlariga masofadan kirish imkoniyatlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi [3].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Didaktik nuqtai nazardan, axborot madaniyati ko'pincha shaxsning o'z guruhi yoki jamoasining samarali faoliyati uchun zarur bo'lgan tayyorgarlik darajasi sifatida tushuniladi [4]. Yana bir yondashuv axborot madaniyatini shaxsiy va ijtimoiy taraqqiyot yo'lida hayotiy muhim bilim va ko'nikmalar hamda bilishning eng muhim quroli sifatida belgilaydi [6]. Bu ta'rif axborot madaniyatini uzluksiz ta'limning asosiy harakatlantiruvchi kuchi deb hisoblash imkonini beradi. Bu ta'lim faoliyati, ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash, yangi bilimlarni yaratish nuqtai nazaridan juda samarali vositadir. Bu yondashuv bilan shaxs rivojlanishining uyg'unligi birinchi o'ringa chiqadi. Zamonaviy pedagogika fani axborot madaniyatini ikkinchi yondashuv nuqtai nazaridan, shaxsning shaxsiy rivojlanishining zarur bosqichi va vositasi sifatida ko'rib chiqadi.

Umuman aytganda, axborot madaniyati zamonaviy axborot jamiyatida asosiy o'rin tutib, odamlarga ommaviy axborot vositalari bilan ongli ravishda munosabatda bo'lish, axborotni tahlil qilish va asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Zamonaviy ommaviy axborot vositalari mediasavodxonlik konsepsiyasi uchun yangi muammolar va sinovlarni keltirib chiqaradi, jamiyatdan tegishli ko'nikma va malakalarni shakllantirishni talab qiladi.

Axborot madaniyatini shakllantirishda ta'lim asosiy rol o'ynaydi, shuning uchun tegishli ta'lim dasturlari va metodlarini ishlab chiqish, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining o'quv rejalari va dasturlariga mediasavodxonlik va axborot madaniyati asoslarini o'rganuvchi fanlarni joriy etish muhim ahamiyatga ega. Pedagogik jarayon sifatida axborot madaniyati mediasavodxonlikni o'rgatish konsepsiyasi va usullarini shakllantirishga, axborot jamiyatida tanqidiy fikrlash, madaniy savodxonlik va axloqiy xulq-atvorni rivojlantirishga ko'maklashishga katta ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa sifatida aytish mumkinki, bugungi kunda ijtimoiy-madaniy muhitning holati haqidagi savolga axborotning insoniyat hayotidagi asosiy rolini hisobga olmasdan yondashish mumkin emas. Bu odamlarning kognitiv faoliyati ko'lamining doimiy ravishda kengayishi, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning rivojlanish sur'atlarining tezlashishi, yangi fan va texnologiyalarning paydo bo'lishi natijasida yuzaga keladi, bu esa doimiy ravishda kasbiy rivojlanish, bilimlarni yangilash zarurligini keltirib chiqaradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Основы информационной культуры: учебно-метод. пособие / С.С. Ахтамова, Е.В. Киргизова, А.В. Рубцов. – Красноярск: Сиб. федерал. у-т, 2016. – 127 с.
2. Кириленко А. В. Основы информационной культуры. Библиография. Вып. 1: учеб. Пособие/А.В.Кириленко;под.ред.Е. Г. Расплетиной. – СПб. : СПбГУ ИТМО, 2008. - 156 с.
3. Бордовский Г. А., Извозчиков В. А. Новые технологии обучения. Вопросы терминологии // Педагогика. 1995. № 5.
4. Хангельдиева И. Г. О понятии информационная культура // Информационная культура личности: прошлое, настоящее, будущее. Краснодар, 1996. – С. 2-7.
5. Медведева Е. А. Основы информационной культуры // Социс. 1994. № 11.
6. Семенюк Э. П. Информационная культура общества и прогресс информатики // Научная и техническая информация (НТИ). Серия 1. 1994. № 1. – С. 1-8.
7. Зиновьева Н. Б. Информационная культура личности: введение в курс: учеб. пособие для вузов культуры и искусства / под ред. И. И. Горловой; Краснодар. гос. акад. культуры. Краснодар, 1996. – 490 с.
8. Ершов А. П. Школьная информатика в СССР: от грамотности к культуре // Информатика и компьютерная грамотность. М.: Наука, 1988.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 37.013 (22.12)

TA'LIMNI TRANSFORMATSIYALASHDA AXBOROTLAR BILAN ISHLASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Xo'jamberdiyeva Dilfuza Ikramovna, Surxondaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi "Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasi katta o'qituvchisi

Tel:+998937978158
https://orcid.org/0009-0008-7001-2804
e-mail: x_dilfuza0372@rambler.ru

PEDAGOGICAL PRINCIPLES OF WORKING WITH INFORMATION IN THE TRANSFORMATION OF EDUCATION

Khojamberdieva Dilfuza Ikramovna, Senior Lecturer, Department of Methodology of Exact and Natural Sciences, Surkhandarya Regional National Center for Training Teachers in New Methods

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ РАБОТЫ С ИНФОРМАЦИЕЙ ПРИ ТРАНСФОРМАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ

Хужамбердиева Дилфуза Икрамовна, старший преподаватель кафедры «Методология точных и естественных наук» Сурхандарьинского областного национального центра обучения педагогов новым методикам

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'limni raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish usuli, ta'lim sohasini raqamli transformatsiyalashda natijalarga erishadigan turli usullardan foydalanish va yangilash, shuningdek, ta'lim tizimini tubdan yaxshilash maqsadida raqamli muhitda erishilgan natijalar jarayoni haqidagi ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim, transformatsiya, raqamli transformatsiya, axborotlar bilan ishlash, axborot texnologiyalari, media, media savodxolik, kompetensiyalar.

Abstract: This article provides information on the method of organizing education on the basis of digital technologies, the use and renewal of various methods that achieve educational results in the digital transformation of the educational sector, as well as the process of the results achieved in the digital environment in order to fundamentally improve the education system.

Key words: Digital education, transformation, digital transformation, working with information, information technologies, media, media literacy, competencies.

Аннотация: В данной статье представлена информация о методе организации образования на основе цифровых технологий, использовании и обновлении различных методов достижения образовательных результатов в условиях цифровой трансформации образовательной сферы, а также о процессе достижения результатов в цифровой среде с целью коренного улучшения системы образования.

Ключевые слова: цифровое образование, трансформация, цифровая трансформация, работа с информацией, информационные технологии, медиа, медиаграмотность, компетенции.

TAMADDUN NURI

KIRISH. Bugungi kundagi zamonaviy ta'lim o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilishni talab etmoqda. Zero, kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim o'quvchilarning egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish imkoniyatini beradi. O'quvchilarda axborotlar bilan ishlashga asoslangan ta'lim mustaqillik, mantiqiy va tanqidiy fikrlashga ega bo'lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan ta'lim jarayonida oqilona foydalana olish ko'nikmalarini shakllantiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish borasida O'zbekistonda ham ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktabrdagi "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari" to'g'risidagi PQ 4851-sonli qarori asosida "Raqamli O'zbekiston-2030" konsepsiyasini amalga oshirish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va aholining kundalik hayotiga keng joriy etishni ta'minlashning muhim shartlari va u bilan bog'liq jarayonlar belgilab berildi [1].

MUHOKAMA. Hozirgi kunda zamonaviy kompyuter tizimlari va texnologiyalarining rivojlanishi o'quvchilardan axborot bilan ishlash kompetentligini talab qilmoqda. Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi bu – media manbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta'minlashni, media madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Ya'ni maktab o'quvchilari axborotlarni qabul qilish barobarida ularni tegishli fan sohalari bo'yicha qo'llay olish ko'nikma va malakalariga ega bo'ladilar [2].

Ta'lim bu butun tarix davomida shaxsiy qadr-qimmat va imkoniyatlar manbai bo'lib, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi hisoblangan. Uning 2030-yilda yana shunday kuchga ega bo'lishini istasak ta'limning raqamli transformatsiyasini amalga oshirish lozim bo'ladi. Raqamli texnologiyalarga o'tish deganda, kompuyterlar va bilimlarga asoslangan holda jamiyat va iqtisodiyot rivojlanishining butunlay yangicha turini barpo etish tushuniladi [3].

Raqamli texnologiyalar joriy etilgan ta'lim tizimi vostilari rolini multimediyalar, kodoskop, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlar bajarib beradi. Bugun ular bilan ta'lim tizimining qurollantirilishi o'quvchilarga dars mashg'ulotlarini sifatli o'tilishini ta'minlaydi. Ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar qo'llanilishi yaxshi samara berishi isbotlandi. Televideniye orqali berib borilgan onlayn darslarni raqamli ta'limga o'tishning bir debochasi sifatida qabul qilsak bo'ladi. Bu jarayon o'quvchiga uydan chiqmay turib ham ta'lim olish mumkinligini isbotlab berdi.

Raqamli texnologiyalarga o'tish jarayonining asosiy tarkibiy qismlari sifatida ma'umotlar bilan ishlashni amalga oshirib beradigan mobil ijtimoiy tarmoqlar, bulutli texnologiyalar, sensor tarmoqlar, buyumlar interneti hamda sun'iy intellekt texnologiyalarini misol sifatida ko'rsatish mumkin. Axborot bilan ishlash tizimi shakllanib borayotgan bir vaqtda maktab o'quvchilarini ham jarayonga jalb qilish zarur. Axborotlashgan jamiyatning asosiy talabi eng avvalo, axborot tayyorlash, unga ishlov berish, saqlash va tarqatish bilan bog'liq bo'ladigan ishlarga sharoit yaratish hisoblanadi. Bu borada jamiyatning faol tashkil etuvchilaridan biri shubhasiz o'quvchilar bo'lishi mimkin. Shunday ekan, o'quvchilarning axborot bilan ishlashini to'g'ri tashkil etish o'rinli hisoblanadi. "Axborot tizimlari"ni qo'llash natijasida nazariy bilimlar va amaliy mahoratlar shakllantiriladi [4].

NATIJALAR. **Transformatsiya** lotincha "transformation" so'zidan olingan bo'lib, "qayta o'zgarish", "qayta hosil bo'lish" kabi ma'nolarni anglatadi. Ta'limdagi raqamli transformatsiya uning mavjudligi, uzluksizligi va sifatini ta'minlashda raqamli resurslardan foydalanishning yangi istiqbollarini ochib beradi. Ta'limdagi raqamli transformatsiya – bu o'quvchilarga ta'lim berish usulini o'zgartirishdir. Bu yangi texnologiyani sinfga kiritishdan tortib, ularni baholash va kuzatish usullarini o'zgartirishgacha bo'lgan hamma narsani anglatishi mumkin. Bugungi kunda ta'limning raqobatbardosh bo'lishi uchun ta'lim muassasalari eng so'nggi texnologik ishlanmalar va elektron ta'lim vositalaridan foydalanishi kerak. Bundan

tashqari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash ta‘lim jarayoniga katta ta‘sir ko‘rsatib, raqamli texnologiyalardan foydalanish esa axborotga kirish va saqlashni osonlashtiradi [5].

Ta’lim sohasidagi raqamli transformatsiyaning asosiy afzalliklaridan biri – o‘quvchilarning axborotlar bilan ishlash kompetentligini tezroq va aniqroq kuzatish, hamkorlikda o‘rganish, kelajakka yo‘naltirilgan muhokamalar yoki ma’ruzalar, samaradorlik, o‘qituvchi va ota-ona o‘rtasidagi aloqani yaxshilashni o‘z ichiga oladi. Raqamli transformatsiya tufayli ta’lim tizimining rivojlanishi o‘quv jarayonini, shu jumladan ilg‘or o‘quv texnologiyalaridan foydalangan holda zamonaviy raqamli ta’lim muhitini yaratishga, ta’limni boshqarish strategiyasini amalga oshirishga va individual xususiyatlarga asoslangan o‘quv materiallarini moslashtirishga yangi talablarni qo‘yadi. Raqamli transformatsiya ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etgan holda ish faoliyatini o‘zgartirish va yaxshilash uchun foydalanilish hisoblanadi [4].

Raqamli texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning ta’lim sifatini yaxshilashga, axborotlar bilan ishlash qobiliyatlarni shakllantirishga, shuningdek axborotlar bilan ishlashda barcha raqamli vositalar, materiallar va dasturlardan foydalanish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi. Raqamli transformatsiya muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun aniq strategiyani talab qiladi. Keling, rejalashtirishda yordam beradigan uchta asosiy jihatni ko‘rib chiqaylik. Qo‘lda ishlov beriladigan jarayonlarni raqamlashtirish. Agar kishida hujjatlar juda ko‘p bo‘lsa, barchasi raqamlashtiriladi. Katta miqdordagi zahiraga ega omborni hisobga olish ham “raqam”ga aylanadi. Yetkazib beruvchilar yoki mijozlar bilan o‘zaro aloqa qilishning murakkab protseduralari ham raqamlashtiriladi. Barcha ma’lumotlar doimo bitta ma’lumotlar bazasiga tushishi sababli ularni boshqarish osonroq bo‘ladi [3].

1. Intellektual texnologiyalarni joriy etish. Albatta, jarayonlar va ma’lumotlarni raqamlashtirish ma’lumotlar bilan ishlash uchun zarur vositalardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. O‘z-o‘zidan bu vositalar (SI, ma’lumotlarni tahlil qilish) ta’limga kuchli ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

2. Madaniyatning o‘zgarishi. Jarayonlardagi har qanday o‘zgarishlar o‘qituvchining kasbiy faoliyatini o‘zgartiradi. O‘qituvchilarni yangi dasturiy ta’minotdan foydalanishga o‘rgatish va raqamli vositalarni odatiy hayot tarziga integratsiya qilish zarur bo‘ladi [4].

XULOSA. Ta’limni transformatsiyalash uchun bulutli hisoblash, sun’iy intellekt, internet, raqamli o‘yinlar, 5G tarmoqlari, ijtimoiy tarmoq, o‘quv kompyuter dasturi kabi atamalardan foydalaniladi. Bu atamalar o‘quvchilarga tezkor ma’lumot berish yoki bo‘sh vaqtlarini qanday unumliroq o‘tkazishni tavsiya qilish, turli ta’limiy o‘yinlardan foydalanish o‘quvchilarni psixologik, hissiy bilish qobiliyatlarini o‘stirish, o‘quvchilarni global muammolar bo‘yicha xabardor qilish va tartibga solishga yordam beradi. Ushbu o‘zaro ta’sirlar o‘quvchilarga dunyoni anglash uchun kuchli imkoniyat beradi, shuningdek, yanada inklyuziv dunyoni qo‘llab-quvvatlash uchun zarur bo‘lgan hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Xulosa qilib aytganda, ta’lim jarayonida yuzaga keladigan muammolar bilan bog‘liq vaziyatlar bosqichma-bosqich hal qilinmoqda, lekin raqamli transformatsiya davrida ta’limning turli shakllarini rivojlantirish va o‘zlashtirishni davom ettirish lozim. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi yangi yutuqlar tufayli masofaviy ta’limga majburiy o‘tish ta’limda raqamli transformatsiya zarurligini yana bir bor isbotladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi farmoni.
2. Павлов К.В., Асадуллина Н.Р. Инновационное развитие системы высшего образования Республики Узбекистан в условиях цифровизации экономики. 2022. Т. 2. Вып. 1. – С. 81-91.
2. Abduvakhidov A.M., Mannapova E.T., Akhmetshin E.M. Digital Development of Education and Universities: Global Challenges of the Digital Economy. International Journal of Instruction January 2021. Vol.14, No.1.
3. F.U.Anarbayeva. Ta’lim jarayonini raqamlashtirishning asosiy xususiyatari//Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions (Germany). – 2022. – C. 517-521.
4. F.U.Anarbayeva, M.Abdullayeva. Oliy ta’limni raqamlashtirishning imkoniyatlari va ahamiyati //The Journal of Economics, Finance and Innovation. – 2023. – C. 490-496.
5. O.Xoshimov. Kompyuterli va raqamli texnologiyalar. – T.: Yangi asr avlodi, 2009.

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 82-6

VIKTORIAN DAVRI INGLIZ ADABIYOTIDA KUNDALIK JANRI ADABIY VOSITA SIFATIDA

Muxammedova Xulkar Eliboyevna, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti (PhD)

THE DIARY AS A LITERARY MEDIA IN VICTORIAN ERA ENGLISH LITERATURE

Muxammedova Xulkar Eliboyevna, Uzbekistan State world languages university associate professor, (PhD)

ДНЕВНИК КАК ЛИТЕРАТУРНОЕ СРЕДСТВО ВИКТОРИАНСКОЙ ЭПОХИ АНГЛИЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Мухаммедова Хулкар Элибоевна, Узбекский государственный университет мировых языков доцент (PhD)

https://orcid.org/0009-0003-5002-625X
e-mail:
hulkar_m@yahoo.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada XIX asr viktorian ingliz adabiyoti kontekstida kundalik vosita sifatida tahlilga tortilgan. Kundalik ingliz adabiyoti adibalari nasrida eng ko‘p uchraydigan vositadir. U ingliz adibalarining asarlarida eng ko‘p foydalanilgan usul hamdir. Viktorian adibalarini tashkil etgan opa-singil Brontelar, E.Gaskell, M.Olifant, J.Eliotlar asarlarida kundalik viktorian kontekstni o‘zida aks ettirgan manba hisoblanadi.*

Tayanch so‘zlar: *viktorian, ingliz, manba, asar, an’ana, obraz, kundalik.*

Abstract: *This article analyzes the diary as a tool in the context of nineteenth-century Victorian English literature. Diary in English literature is the most common medium in literary prose. It is also the most used method in the works of English writers. The Bronte sisters, E.Gaskell, M.Oliphant, and J.Eliot, who formed the Victorian writers, are the sources that reflect the diary of Victorian context.*

Key words: *victorian, english, source, novel, tradition, image, diary.*

Аннотация: *В данной статье дневник анализируется как инструмент в контексте викторианской английской литературы XIX века. Дневниковая английская литература является наиболее распространенным средством литературной прозы. Это также наиболее часто используемый метод в произведениях английских писателей. Источниками, отражающими дневниковый викторианский контекст, являются сестры Бронте — Э.Гаскелл, М.Олифант и Дж.Элиот, сформировавшие викторианские писатели.*

Ключевые слова: *викторианский, английский, роман, источник, традиция, образ, дневник.*

KIRISH. Jahon adabiyotida kundalik ko‘plab asarlarda uchraydi. Kundalik hayotni o‘zida aks ettirgan bunday manbalarda yozuvchi o‘zi guvoh bo‘lgan voqealarni aks ettiradi. Ingliz adabiyoti tarixida yirik davrni qamrab olgan XIX asr qirolicha Viktoriya nomi bilan uzviy bog‘liqdir. Mazkur davrda ijod qilgan qator yozuvchilar asarlarida kundalik biografik manba bo‘la olganligini kuzatish mumkin. Viktorian davrning mashhur adibalari bo‘lgan opa-singil Brontelar fenomeni bugungi kungacha dunyo tadqiqotchilari tomonidan o‘rganilib kelinmoqda. Brontelar ijodi bo‘yicha qilingan ilmiy tadqiqotlarning ham salmog‘i ham kattadir. Opa-singil Brontelarning ikkinchisi bo‘lgan

Emili Bronte ijodini “Wuthering Heights” – “Momaqaldiroq dovoni” asari bezab turadi. Adibaning mazkur asari 1847-yilda “Ellis Bell” taxallusi ostida nashr etildi. Asarda asosiy vosita bo‘lgan kundalik muallifi 3 ta ism bilan qayd etiladi. Bu Kesirin Ernshov, Kesirin Hitklif va Kesirin Lintondir. O‘z davrida asarning salbiy baholanishiga viktorian ingliz oilasini yorqin kolliziyada aks ettirilgani va oila boshlig‘ining ibrat olgulik tomoni mavjud emasligi sabab bo‘lgan edi. Shunga qaramay inglizzabon mamlakatlar kitobxonlari tomonidan asar ijobiy baholandi. Amerikalik tanqidchilar adibaning yuksak mahorati asarda tasvirlangan voqea original syujet asosida yaratilganligida ko‘rinadi deb hisoblashdi.

ADABIYOTLAR TAHLIL VA METODOLOGIYA. Viktorian davri romanisti B.M.Proskurnin fikriga ko‘ra: “Viktorian davri romani (umuman olganda esa, shu janrning o‘zi) boshidanoq ikkita dialektik tamoyilga asoslanadi: ya’ni hayotni ko‘p tomondan ko‘rsatishga harakat qilish (umumiy yaxlitlik) va ma’lum bir sohaga alohida e’tibor qaratish (alohida olib qarash)”[5]. Tipologik metodga asoslanib, viktorian kontekstida ochib berilgan “Momaqaldiroq dovoni” ikkita dialektik tamoyilni o‘zida qamrab oladi. Opa-singil Brontelar hayotiga oid voqea kundalik vositasida bayon etilsa, ikkinchi tarafdan viktorin davr aqidalari va yashash tarzi ham o‘z aksini topadi. Emili Bronte ijodini biografik metod asosida tahlil qilgan ingliz adabiyotshunoslari adibaning hayotni qayg‘uli tasvirlar orqali ifoda qilganligiga e’tibor qaratishgan. Asarda ichkilik illatini qahramon taqdiridagi fojea sababchisi sifatida ko‘rsatishi uni qattiq tanqid qiishlariga sabab bo‘ldi[2]. XX asrning o‘rtalariga kelib amerika tanqidchilari adibaning inglizona syujet yarata olganligi va obrazlarni jonli tasvirlay olganligini yuqori baholashdi. Kundalik vositasida hikoya qilingan asar Momaqaldiroq dovonida joylashgan uy va uning tarixini aks ettiradi. Adabiyotshunoslik termnlarining ruscha-o‘zbekcha lug‘atida “kundalik bu badiiy asar shakllaridan biri bo‘lib, yozuvchining o‘zi qatnashgan hayotiy voqealarni, uning fikr-mulohazalari va ichki kechinmalarini aks ettiruvchi xotiranoma yoki xotira daftaridir”[3]. Adabiyotshunos D.Quronovning “Adabiyotshunoslik atamalarining lug‘ati”da esa kundalik ko‘rgan-kechirgan voqealarni kunma-kun sanasini qayd etgan holda yozib borish va buni amalga oshirgan rivoya shaklidir. Kundalikning muhim xususiyati shundaki u birovlarning o‘qishi uchun mo‘ljallanmaydi, ular muallifning o‘zi uchun yoziladi[6]. Mana shu xususiyatlari tufayli yozuvchilar yuritgan kundalik biografik yo‘nalishdagi tadqiqotlar uchun beqiyos manba vazifasini o‘taydi.

1966-yilda M.Villining “Bronte: Momaqaldiroq dovoni” nomli monografiyasi nashr etildi. Monografiya Bronte romanining nashr etilish tarixini yoritishdan boshlanadi. M.Villi romanni turli aspektda tahlil qiladi. U tahlilda biografik omillar asar yaratishida katta ahamiyat kasb etishini, Emili mahorat bilan yaratgan xarakterlar va ularning xatti-harakatlari hayotiyligini ta’kidlaydi[10].

Inglizzabon tadqiqotchilar opa-singil Brontelarning ijodiga bir adabiy hodisa sifatida yondashib, ularni bir-biriga qiyoslab tahlil qilishida ko‘rinadi. Bu izlanishlarda Brontelar iste’dodini tan olmay, ulardagi tabiiy iqtidor faqat bittasiga tegishli bo‘lganligini ko‘rsatish va isbotlab berish asosiy maqsad bo‘lgan. V.Vulf Emili Bronte iste’dodi borasida S.Dobell bildirgan fikrga qo‘shilmaydi. Uning fikricha: “Momaqaldiroq dovoni” asari “Jeyn Eyr”ga qaraganda murakkab, adibaning uslubi ana shu asar murakkabligida ko‘rinadi. Bu esa Emili Sharlottaga qaraganda iste’dodliroq adiba bo‘lganligini ko‘rsatadi”[8].

Fikrimizga ko‘ra, Emili Bronte ijodini alohida tahlilga tortgan adabiyotshunoslar juda kamchilikni tashkil etadi. Emili Bronte ijodi hamisha opa-singillari bilan birgalikda tahlil qilingani ularni adabiyotda uchlik fenomeni yaratilganligini isbotlaydi.

MUHOKAMA. Emili Bronte yaratgan “Momaqaldiroq dovoni” asarida kundalik asar syujetida asosiy vositadir. Adiba voqea-hodisalarni kundalik orqali bayon etadi. Asar boshlanishida kirib kelgan janob Lokvud katta yer sohibi bo‘lgan janob Xitklifning qo‘pol muomalasi, qolaversa uning g‘alati ekanligiga duch keladi. Janob Lokvud u bilan gaplashishga qanchalik urinmasin u suhbatga ro‘yxushlik bermaydi. Bir kechaga uyida qolgan janob Lokvud qo‘liga tushgan kundalik uy sohibining g‘alatiligini va uy bilan bog‘liq ko‘plab voqealarni bayon etadi. Kundalikni o‘qir ekan, har bir sahifada katta va kichik harflar bilan Kesirin Ernshov, Kesirin Hitklif, Kesirin Linton ismlarining yozilganligi janob Lokvudni ajablantiradi. Kundalik biroz eskirgan bo‘lishiga qaramay, uni yozgan

muallif nechog‘liq voqealarni teran tasvirlay olishi uni nozik did sohibi bo‘lganligidan dalolat berardi.

Kundalikda “Momaqaldiroq dovoni” uy tasviriga ham keng e’tibor qaratiladi. Asarning ilk sahifalari kitobxonda qiziqish uyg‘otmaydi. Unda hatto muallifning nozik his-tuyg‘ulari ham qahramonlarda yaqqol aks etmaydi. Asarda tasvirlangan obrazlarda haqiqiy oqsuyak inglizlarga xos tabiat, fe’l-atvor ko‘zga tashlanadi. Londonga ish bilan borgan janob Ernshovning uyga bolakay bilan qaytishi va uni o‘z farzandi sifatida oilasiga qabul qilishi ibrat olgulik jihatdir. Janob Ernshovning begona bolani oilasiga qabul qilishida oila a’zolarining e’tiroz bildirmasligi esa, uning qattiqqo‘l ota ekanligini namoyon qiladi. Faqat yillar o‘tib oiladagi ikki og‘il – Hitklif va Hindli o‘rtasida katta nizoning kelib chiqishi natijasida oilaning darz ketganligi ma’lum bo‘ladi. Kundalikda bayon etilgan voqealar yillar kesimida hikoya qilinadi. Uydan tortib keng dalalar tasviriga, manzaraning kichik detallariga keng e’tibor qaratilgan. Kundalikda tasvirlangan obrazlarda ingliz tabiatini namoyon qiluvchi xarakter aks etadi. Xatti-harakatlar orqali obrazning ochib berilishi kuzatiladi. Emili Brontening romani nafaqat tanqidchilarning, balki Sharlotta Brontening ham e’tirozini uyg‘otdi. 1850-yilda Sh.Bronte romanga yozgan tanqidiy taqrizda u katta mahorat bilan shimoliy Angliya tabiatini, hissiyotga boy kuchli xarakterlar yaratilganligini ham aytib o‘tadi. Biroq u singlisining tasvirlash mahoratiga to‘xtalib: “Uning tasavvuri quvonchga qaraganda ancha qayg‘uli, xushchaqchaq kayfiyatga qaraganda ancha kuchli va shiddatli” ekanligiga urg‘u beradi[1]. Emili Bronte xarakterlari Sharlotta Bronte nigohida ancha tushunarsiz ravishda talqin etiladi: “*Xitklif, Ernsho, Ketrin kabi xarakterlar ajratib ko‘rsatilgan. Bunday personajlarni yaratib u o‘zi nima qilganini tushunmagan – it wrought creations like heatkliff, like Earnshow, like Catherine. Having formed these beings she didn’t know what she had done*”[1].

Adabiyotshunos R.Cheyz “Jeyn Eyr” va “Momaqaldiroq dovoni” romanlari poetikasini o‘rganadi. Ikki romanni qiyosiy tahlil qilgan R.Cheyz Xitklif va Rochester obrazlarining o‘xshash tomonlari haqida to‘xtaladi. Ikkala obrazda qahr va sirlilik mujassam bo‘lgan. “Jeyn Eyr”da Rochester rafiqasi haqidagi sir adiba tomonidan ochib berilsa, “Momaqaldiroq dovoni”da qochib ketgan Xitklif qanday va qayerda boyib ketganligi, uning qanday sharoitda yashaganligi Emili tomonidan ochib berilmagan.

S.Stivenson Emili va Enn Bronte romanlari tahlili orqali ularning uslubiy o‘ziga xosligini o‘rganishga harakat qiladi. Uning tadqiqotida “Momaqaldiroq dovoni” va “Agnes Grey” va “Uayldfell Xollik notanish” romanlaridan olingan turli parchalar tahlilga tortilgan.

M.Shorter esa E.Bronte “Momaqaldiroq dovoni”da ifoda etgan badiiy tasvir vositalarini tahlil qiladi. Tadqiqotchining fikricha, E.Bronte romanda tuyg‘ular ta’sirchanligini kuchaytirish maqsadida, qahramonlarini tabiat, hayvonlar, olov bilan majoziy tarzda qiyoslaydi: “Inson tuyg‘ularini kuchaytirish uchun Emili Bronte hayvon va hayot elementlari bo‘lgan olov, suv, shamol bilan juda kuchli qiyoslaydi”[7]. D.Van Gent E.Bronte asaridagi oyna obrazini ajratib ko‘rsatadi [9] va uni roman misolida tahlilga tortadi.

R.Makkibben esa “Momaqaldiroq dovonida kitob tasviri” nomli maqolasida romanda tasvirlangan kitob mutolaasiga e’tibor qaratadi[4]. Aynan kitob mutolaasi romanda qanday ahamiyat kasb etishini ochib berishga urinadi. Uning fikriga ko‘ra, E.Bronte bu orqali kitob obrazining muhimligini ko‘rsatishga harakat qiladi. Asar boshlanishida Ketrin Ernshovning kutubxonasi va uning kundaligi tasviri juda yaxshi tasvirlangan. Kundalik qaydlarida Nelli Din Ketrin kutubxonadagi kitoblarning ko‘pchiligini o‘qiganligini ta’kidlagan fikrlar uchraydi. Maqola muallifi roman syujetidagi qarama-qarshi bo‘lgan Xitklif va Edgar Linton obrazlarini “Momaqaldiroq dovoni” va “Chug‘urchuq qo‘rg‘oni” misolida ochib beradi.

XULOSA. Viktorian kontekstida ifoda etilgan asar bir qancha salbiy xususiyatlarni ochib berishi bilan xarakterlanadi. Tasvirlangan asosiy qahramonlarda viktorian tamoyillarning o‘zgara boshlaganligigiga e’tibor qaratiladi. Kundalikda aks etgan Kesirinning uch nom bilan qayd etilishi kitobxon e’tiborini o‘ziga jalb eta oladi. Asar voqealari Kesirin atrofida sodir bo‘lib, bitta syujet chizig‘ida namoyon bo‘lishi kuzatiladi. Bosh obrazlarning taqdirini bitta rakursga jamlay olgan adiba o‘zi guvoh bo‘lgan inson taqdirni hikoya qiladi. Adiba tasvirlagan Angliyaning sovuq, biroq, maftunkor manzarasida yorqin obrazlarning portretlari, qolaversa ularning ichki dunyosida tug‘yon urgan nozik tuyg‘ular ko‘zga tashlanadi.

Reallik tarafdori bo‘lgan Emili Bronte o‘z asarida aynan shu sifatni saqlab qoldi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Bronte Ch. Wuthering Heights. Critics on Charlotte and Emily Bronte. ed. by J. O‘Neill. – London: Routledge, 1968. – 420 p.
2. Drue F. Charlotte Bronte as a critic of Wuthering Heights. – London: Macmillan, 1996. – 250 p.
3. Hatamov N, B.Sarimsoqov. Adabiyotshunoslik termnlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. Toshkent: O‘qituvchi, 1979. – 350 b.
4. Mc. Kibben R.C. The Image of the book in Wuthering Heights. The Brontes. A Collection. 1984. – 220 p.
5. Проскурнин Б.М. Английский Политический роман XIX века: Очерки генезиса и эволюции. – Пермь: Изд-во пермского университета, 2000. – 250 с.
6. Quronov D. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 340 b.
7. Shorer M. The Metaphors in Wuthering Heights. Critics on Charlotte and Emily. – London: Fourth Estate, 1997. – 180 p.
8. The Brontes: A Collection. – London: Cambridge University Press, 2001. – 310 p.
9. Van Ghent D. The Window Image in Wuthering Heights. Critics on Charlotte and Emily. – New York: Norton, 1998. – 210 p.
10. Willy M. Bronte: Wuthering Heights. – London: Fourth Estate, 1996. – 450 p.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 811.111.8

TELEKO‘RSATUVLARDA KREATIVLIK VA JURNALIST MAHORATI

Xushnazarova Sevinch Norqo‘chqor qizi, O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch (PhD) doktoranti

КРЕАТИВНОСТЬ И ЖУРНАЛИСТСКИЕ СПОСОБНОСТИ В ТЕЛЕПЕРЕДАЧАХ

Хушназарова Севинч Норкучкоровна, докторант Национального университета Узбекистана

CREATIVITY AND JOURNALISTIC SKILLS IN TV SHOWS

Khushnazarova Sevinch Norkochkorovna, PhD student of the National University of Uzbekistan

https://orcid.org/0009-0009-1525-3121

e-mail: Sevinch.norkobilova@gmail.ru

Annotatsiya: *Maqolada ommaviy axborot vositalarida madaniy va ma’rifiy ko‘rsatuvlarning bolalar tarbiyasiga ta’siri va yoshlar ma’naviyatida ba’zi muammolar yuzaga kelayotganligi, bunday ko‘rsatuvlarning milliy ma’naviyatimizga, ayniqsa yosh avlod tarbiyasiga salbiy ta’siri bo‘lishi haqida so‘z yuritilgan. Shunga ko‘ra, maqolada televideniyeda bugungi kunda bo‘lib o‘tayotgan ko‘rsatuvlar tahlil qilingan va fikr-mulohazalar bildirib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *teleko‘rsatuv, kreativlik, namoyish formati, jurnalist, ma’naviyat va ma’rifat.*

Abstract: *The article discusses the impact of cultural and educational programs on children's education in the mass media and the fact that some problems arise in the spirituality of young people, and the negative impact of such programs on our national spirituality, especially on the education of the young generation. spoken. Accordingly, the article analyzes and expresses opinions on the shows that are taking place on television today.*

Keywords: *television show, creativity, show format, journalist, spirituality and enlightenment.*

Аннотация: *В статье рассматривается влияние культурно-просветительских программ на образование детей в средствах массовой информации и то, что возникают некоторые проблемы в духовности молодежи, а также негативное влияние таких программ на нашу национальную духовность, особенно на воспитание молодого поколения. Соответственно, в статье анализируются и высказываются мнения о передачах, которые проходят сегодня на телевидении.*

Ключевые слова: *телешоу, творчество, формат шоу, журналист, духовность и просветительство.*

KIRISH. O‘zbek milliy jurnalistikasi o‘zining qariyb 150 yilga yaqin tarixi mobaynida ham rivojlanish, ham o‘ta og‘ir, turg‘unlik davrlarini boshdan kechirdi. Uni dastlab Chor Rossiyasiga xizmat qildirishdi. Keyingi davrda milliy va ma’rifiy ruhiyat kasb etdi. Sho‘rolar hukumat tepasiga kelgach, vaziyat yana salbiy tomonga o‘zgardi. Mustaqillik yillarida jurnalistikamiz ilg‘or xalqaro tajribalar hamda zamonaviy tendensiyalarni o‘zida sinab ko‘rmoqda. Natijada, bugungi kunga kelib o‘ziga xos, betakror milliy qiyofaga ega bo‘lmoqda. Zamonaviy jurnalistik tafakkurni shakllantirish, jurnalistni OAV tizimi talab-ehtiyojlariga mos keladigan amaliy, ijodiy faoliyatga tayyorlash bugungi kunning eng muhim vazifalaridandir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI. Andre Jid “Bugunning ertadan ham qiziq bo‘lishi bu jurnalistikadir”, deganida bu sohaning ayni paytdagi muhimligiga ishora qiladi. Oshpazlar ovqat ta’minotchisi, shifokorlar sog‘lik qo‘riqchisi bo‘lsa, jurnalistlar beminnat axborot yetkazib beruvchilardir. Jarko Petanning “Yorug‘ kelajak haqida siyosatchilar, shonli o‘tmish xususida tarixchilar, bugunning yorqinligi to‘g‘risida jurnalistlar qayg‘uradilar”, - degan fikrida ham jurnalistika bugungi kun bilan, kundalik hayot bilan bog‘liqligini nazarda tutadi[1].

Yetuk jurnalistlarni tayyorlashda va jurnalistika sohasini rivojlantirishda ustuvor tamoyillarni dunyo tajribasidan ko‘rib chiqish ham maqsadga muvofiq sanaladi. Kreativ yondashuv, albatta, jurnalistning ham ijodiy qobiliyatlari, individual kasbiy mahoratiga ham bog‘liq. Ammo ayrim mamlakatlarda jurnalistga qo‘yiladigan muhim talablarni va ularni tayyorlashda maxsus e’tibor qaratiladigan jihatlarni ko‘rib chiqamiz. Xususan, Bosniya davlatida Matbuot jurnalistlari Kodeksi mavjud bo‘lib, unda kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik uchun ehtiyotkor bo‘lish prinspi asosiy xususiyat hisoblanadi. Jahonda mashhur axborot vositasi sanalgan BBC muxbirlari uchun xolislik va aniqlik muhim tamoyillardandir. Rivojlangan mamlakatlar qatorida eng ilg‘or hisoblangan Yaponiya davlatida jurnalistika qonunlari ommaviy axborot vositalarini farovon va tinch kelajakni yaratish uchun mas’ul tizim sifatida belgilaydi. Jurnalistlar uchun axloq kodekslari ishlab chiqilgan bo‘lib, unda tuhmat, haqorat, plagiat, pora olish, uydirma, to‘qima hodisalar asosida soxta axborotlar tayyorlash kasbiy etiketga mutlaqo zid sanaladi va javobgarlik yuklaydi. Ommaviy axborot vositalari nihoyatda katta kuch ekanligi ularning jamiyat hayotida tutgan o‘rni, ijtimoiy muammolarning xolisona yoritilishi, so‘z erkinligi kabi masalalar bilan ham bog‘liq. Jurnalistikada kreativ yondashuvning turli usullari mavjud. Bunda qanday manzara yoki hodisaning yoritilayotgani ham ahamiyatga molik. Masalan, jinoyat bilan bog‘liq axborotlarni qanday yoritish, qurbonlar haqida qanday so‘zlash, hodisaning oqibatlarini ommaga tasvirlab berish murakkab va munozaralidir. Qanday mavzu yoritilmasin, barchasida jurnalistlarning demokratiyaga, jamiyatning ma’nan yuksalishida qo‘shadigan hissasi beqiyos bo‘ladi. Shularni inobatga olgan holatda, jurnalistika sohasida kreativ yondashuv soha mutaxassislarining faoliyatida ulkan ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan davlat va nodavlat telekanallarining sonini ham, nomini ham, dabdurustdan eslab aytib bo‘lmaydigan darajada ko‘payib ulgurgan. Efir vaqti tun-u kun davom etadigan aksariyat bu kanallarning badiiy-estetik saviyasi, professional darajasi xususida muhokama yuritish bugungi maqolamning maqsadi emas. Maqsadim yuqorida eslangan milliardlab tomoshabin – xaridorning biri sifatida milliy telebozorda o‘z o‘rniga ega bo‘lib ulgurgan “Madaniyat va ma’rifat” telekanali xususida ikki og‘iz e’tirof aytishdir.

Tashkil bo‘lganidan to shu kunga qadar mazkur telekanalda dasturlar “setka”sini to‘ldirish uchungina tayyorlangan, shunchaki vaqt o‘g‘irlashdan boshqaga yaramaydigan ko‘rsatuv, badiiy yoxud hujjatli filmlar, arxivlardan olingan yoki shu kunlarda sahnalarda o‘ynalayotgan xashaki spektakllarni deyarli ko‘rmadik. Tomosha qilganimiz ko‘rsatuvlar, intervyular, film va spektakllar, reportaj va lavhalarning aksariyati bizning yo aql-u tafakkurimizga, yo badiiy-estetik didimizga, dunyoqarashimiz va kayfiyatimizga nedir ijobiy ta’sir o‘tkaza olgani bilan yodimizda, g‘ayrishuurimizda o‘rnashdi. Dunyoning millionlab telekanallari bilan bahslasha oladigan ushbu telekanal saviyasi, bilim berish darajasi, jurnalistlarning mahorati-yu, tanlangan mavzu ko‘lami, maqsadi bilan faqat mening hayotimda emas, balki jamiki o‘zini ziyoli sanagan inson hayotida eng sara va eng yuqori o‘rinlarda turadi[2].

Xususan, Gulmira Musajonova muallifligi, Jamshid Xudoyqulov rejissyorligida tayyorlanadigan “Men bilgan haqiqatlar” ko‘rsatuvining o‘zi hozirga qadar chakana noyob lavhalarni siz-u bizga taqdim etdimi? Adabiyot va san’atimiz, fan va madaniyatimizning ko‘rsatuvga loyiq topilgan vakillari bilan tashkil etilgan sokin, teran suhbatlardan tinglangan abadiy haqiqatlarni to‘la idrok etsa, xalq, millat qanchalar yuksaladi. Shu o‘rinda ko‘rsatuvning bir sonini qisqa bayon va muhokama qilib o‘tsam. Jurnalist va ko‘rsatuv yaratuvchisi Gulmira Musajonovaning kirish qismida aytadigan gaplari (bu har safar mavzuga monand bo‘ladi) kishini o‘ylantirishni boshlaydi. Siz beixtiyor mavzu doirasida fikrlashni boshlab yuborasiz, mavzu sizga begona emas, unga moslashib olasiz darrov. Masalan, bir sonida

adabiyotshunos olim Uzoq Jo‘raqulov bilan suhbat qilingan. Salom-alikdan so‘ng savolga o‘tildi:

– Qanday qilib shu shaxslarni tarbiyalash kerak? Qanday qilib shaxs bo‘laman degan odamlarni sindirib qo‘ymaslik mumkin?

Savolning o‘ziyoq sizni teleekran qarshisiga mixlab qo‘yishga erishadi. Uzoqdan olib kelishlar, qochirimlarsiz, oddiy salom-alik va savoldan so‘ng ko‘rsatuv boshlandi. Umuman olganda, butun ko‘rsatuv tomoshabin uchun foydali fikrlar bilan to‘yintirilgan.

Bugungi kunda jurnalistika ta’limi sohasida muammolar shu qadar yig‘ilib qolganki, ularni bitta maqola doirasida sanab o‘tish yoki hal etish bo‘yicha takliflar berish mutlaqo mumkin emas. Shu sababdan, mavjud muammolarning ayrimlarigagina e’tiboringizni qaratamiz xolos.

Avvalo, O‘zbekistonning tashqarisidan turib ichkariga, ya’ni mamlakatimiz aholisi uchun yozadigan xorijiy muxbirlik punktlari shakllanmagan. Mamlakatimiz yetakchi ommaviy axborot vositalari, “Jahon” axborot agentligidan tashqari, shu kungacha o‘z muxbirlarini chet elga doimiy ishlash uchun yubormagan. Vaholanki, ingliz, rus, xitoy, ispan, fransuz, polyak, yapon va boshqa chet tillarni yaxshi o‘zlashtirgan milliy kadrlar tayyorlashga erishildi.

Bundan tashqari, ichkarida turib tashqariga – turli tillarda, misol uchun ingliz tilida axborot uzatuvchi muxbirlarni tayyorlash ishi takomillashtirilmagan. Talabalarni o‘qish jarayonida chet el OAVga muntazam ravishda amaliyotga yuborish uchun zarur ishlar qilingani yo‘q. Shuningdek, jurnalistikani fan darajasiga olib chiqishga qaratilgan ilmiy maktab faoliyati, sohada olib borilayotgan yangi ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar yetarli darajada qo‘llab-quvvatlanmayapti.

Xususan, yosh olimlarning maqolalarini yetakchi xalqaro nashrlarda chop etishni tizimlashtirish, ularning xalqaro anjumanlardagi ishtirokini ta’minlash, ilmiy tadqiqotlarni bevosita moliyalashtirish (research funding) ishlari yo‘lga qo‘yilmagan. Qo‘shimcha tarzda, yuqori darajadagi intellektual salohiyatga ega bo‘lgan ijodiy kadrlarni tayyorlashga bevosita xizmat qiladigan o‘quv laboratoriyalarining moddiy-texnik bazasi zamon talablariga mutlaqo javob bermaydi. Yana bir tomoni, xorijiy turdosh oliy o‘quv yurtlari bilan jurnalistik ta’lim, ilmiy tadqiqotlar, talaba va o‘qituvchilar almashinuvlari bo‘yicha hamkorlik aloqalarini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish zarurati tug‘ilmoqda.

XULOSA. “Jurnalistikaning ahamiyati shundaki, u bizning kundalik hayotimizdagi tanlovlarga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shunga qaramay, jurnalistikaning kelajagi hayotda o‘z tasdig‘ini topmagan. U hanuz mavhumligicha, o‘z faoliyat turini kengaytirib bormoqda”[3]. Shunday vaziyatda tan olishimiz kerak, mamlakatimizda zamon talablariga mos jurnalist kadrlarni tayyorlashda yillar davomida o‘z yechimini kutib yotgan masalalar ham bisyor.

Bu kabi muammolarni imkon doirasida tezroq hal qilar ekanmiz, qalami va nafasi o‘tkir o‘zbek jurnalistlari hech ikkilanmasdan butun dunyo ahliga mikrofon tuta oladi. Shu bilan birgalikda, mamlakatimiz qonunlarida belgilangan fikr erkinligi ham amalda to‘laqonli o‘z tasdig‘ini topadi. O‘zbek milliy jurnalistikasi jahon mediamaydoniga o‘zgacha kreativlik bilan kirib borsagina, uzoq yillar davomida mohir jurnalistlar tomonidan qilingan mehnat, yaratilgan jurnalistik maktab munosib o‘rnini topa oladi. 2018-yilda O‘zbekiston Milliy universiteti jurnalistika fakulteti hamda O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti qoshidagi xalqaro jurnalistika yo‘nalishiga qabul to‘xtatilganiga qaramay, uning o‘rniga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 24-maydagi (PQ-3737) Qarori bilan O‘zbekiston va ommaviy kommunikatsiyalar universitetining tashkil etilishi milliy jurnalistikamizning yana bir pog‘ona yuksaklanganidan dalolatdir[4].

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Jurnalistika nazariyasi, tarixi va taraqqiyoti. 2019-yil.9-bet.
2. https://oyina.uz/uz/article/1442
3. Karin Wahl-Jorgensen,Thomas Hanitzsch. The handbook of journalism study. International communication association. 2009-y.
4. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. Toshkent, 2011-y.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 94(575.1):711.4(09)(575.1)

O‘ZBEKISTON HUDUDIDA URBANIZATSIYON JARAYONLAR: MADANIY XO‘JALIK MIKROVOHALARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI (MIL. AVV. VII – V ASRLAR)

Karimov Zafar Bekturdiyevich, Urganch davlat universiteti o‘qituvchisi

URBANIZATION PROCESSES IN THE TERRITORY OF UZBEKISTAN: FORMATION AND DEVELOPMENT OF CULTURAL ECONOMY MICRO-OASES (VII - V CENTURIES BC)

Karimov Zafar Bekturdievich, teacher of Urganch State University

УРБАНИЗАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ НА ТЕРРИТОРИИ УЗБЕКИСТАНА: ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ КУЛЬТУРНО-ХОЗЯЙСТВЕННЫХ МИКРООАЗИСОВ (VII - V вв. до н.э.)

Каримов Зафар Бектурдиевич, преподаватель Ургенчского государственного университета

https://orcid.org/0009-0005-2501-7970
e-mail:
temurmalik154@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada O‘zbekistonning tarixiy-madaniy hududlarida urbanizatsiyon jarayonlar ta’sirida madaniy-xo‘jalik mikrovohalarining tashkil topishi va rivojlanish tarixi tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *urbanizatsiya, antik davr, mikrovoha, migratsiyon jarayonlar, urbanizatsiyon jarayonlarning “issiq harorati”, shahar-davlatlar, “kohin tashabbusi”, Sariqamishbo‘yi havzasi, Davdon sug‘orish tizimi, Xeykanik sug‘orish tizimi, Charmanyop sug‘orish tizimi.*

Abstract: *The article analyzes the history of establishment and development of cultural-economic micro-oases under the influence of urbanization processes in the historical-cultural regions of Uzbekistan.*

Key words: *urbanization, antiquity, micro-oasis, migration processes, “hot temperature” of urbanization processes, city-states, “priest's initiative”, Sarikamishbuyi basin, Davdon irrigation system, Haykanik irrigation system, Charmanyop irrigation system.*

Аннотация: *В статье анализируется история становления и развития культурно-экономических микрооазисов под влиянием процессов урбанизации в историко-культурных регионах Узбекистана.*

Ключевые слова: *урбанизация, античность, микрооазис, миграционные процессы.*

KIRISH. Shaharlarning shakllanishi insoniyat tarixida alohida o‘rin tutadi. Shaharlar, davlatlarning tashkil topish jarayoni insoniyat tamaddunining ilk bosqichlarining rivojlanishini belgilab bergan asosiy omillardan biri hisoblangan. Shu jihatdan mamlakatimiz tarixining muhim qismi hisoblangan shaharsozlikning paydo bo‘lishi va rivojlanishini o‘rganish va tahlil qilish tarix fani oldidagi asosiy vazifa hisoblanadi. O‘zbekiston hududidagi dastlabki shaharlar ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va diniy markaz vazifasini bajargan va dastlabki shahar-davlatlar ko‘rinishidagi davlatlarning tashkil topishida asosiy rol o‘ynagan.

O‘zbekiston hududida shaharsozlikning rivojlanishi turli davrlarda kechgan keng darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jarayon edi. Shu jihatdan temir davri (mil. avv X-V asrlar) O‘zbekiston hududida jamiyatning barcha jabhalarida yuz bergan tub o‘zgarishlar bilan avvalgi tarixiy jarayonlardan alohida farqlanish xususiyatiga ega. O‘zbekistonning temir davrida madaniy-xo‘jalik markazlari, ular doirasida mikrovohalar markazlari, turarjoylarda istiqomat qilgan o‘troq aholining bunyodkorlik faoliyatlari natijalarini yoritish vazifa qilib olingan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. O‘zbekiston respublikasi viloyatlarida ilmiy markazlar tomonidan tashkil qilingan turli nomdagi arxeologik ekspeditsiya va guruhlar aholi tomonidan qoldirilgan turar joylarda keng qamrovli tarzda arxeologik izlanishlarini olib borishlari munosabati bilan temir davri jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar ta’sirida etnik jarayonlar tarixini yoritishga xizmat qiladigan manbalar olingan va ular ilmiy tahlil natijalari asos qilib olgan turli nomdagi nashrlarda o‘z ma’nosini topgan. Maqola mavzusini yoritishda obyektivlik, tarixiy-tahlil, xronologik izchillik, qiyoslash, munozara, asoslash, mantiqiy xulosa, etnografiya, arxeologiya, antropoliya, geografiya fanlariga oid ma’lumotlarni solishtirish metodlaridan foydalanildi.

MUHOKAMA. Temir davri (mil. avv X-V asrlar) O‘zbekiston tarixida yuz bergan tub o‘zgarishlar bilan alohida ahamiyatga ega, ya’ni urbanizatsiyon jarayonlarning “issiq harorati” qamrab olgan jarayonlar natijalariga e’tibor berib, ikki tarixiy davrga ajratish mumkin. Birinchi tarixiy davr mil. avv. X-VI asrlar birinchi yarmini, ikkinchi tarixiy davr mil. avv. VI asr ikkinchi yarmi – V asrlarni o‘z ichiga oladi. Tadqiqotchi A.S.Sagdullayev mil. avv. X-VIII asrlar O‘rta Osiyo tarixida bronza davridan ilk temir davriga o‘tish bosqichi ekanligini taklif qilgan[1]. Y.A.Zadneprovskiy ma’lumotlariga ko‘ra, Farg‘ona vodiysida Dalvarzintepa[2], Surxon vohasida Jarqo‘ton yodgorliklari uy-xonalaridan temir mehnat qurollari parchalari olingan[3].

Tadqiqotchilar ma’lumotlariga ko‘ra, Farg‘ona vodiysidagi Chust aholisi bronza davrining so‘nggi bosqichida temir ashyosi bilan tanish bo‘lib, uning texnologiyasini o‘rganib, temir mehnat qurollaridan foydalanganlari holda Dalvarzintepaga asos solgan. Bunday mulohaza Jarqo‘ton aholisi faoliyatiga ham tegishlidir. Dalvarzin va Jarqo‘ton aholisi o‘troqlashgan ilk shahar-davlatda istiqomat qilgan aholi kohin boshchiligida maishiy-xo‘jalik ixtirolarni amalga oshirishgan. Toshkent, Zarafshon, Quyi Amudaryo hududlarida aholi bronza ashyosidan yasalgan mehnat qurollaridan geografik hududda foydalanib, ularning ma’naviyatida binokorlik bilimlari uchqunlari paydo bo‘lgan[4]. Shu tariqa O‘zbekiston hududidagi qadimgi hududlarda shaharsozlik rivojlana boshlagan.

Arxeologik adabiyotlarda qayd qilinishicha Surxon vohasi, Janubiy va O‘rta Zarafshon, Sariqamishbo‘yi Davdon irmog‘i sohili bo‘ylari hamda Xorazm vohasi Sho‘roxon va Tuyamo‘yin hududlarida mil.avv. VII-VI asrlarda o‘troq aholining o‘zlashtirish jarayoni keng tus olgan. Masalan, Surxon vohasi Muzrabot dashtida, Sherobod daryosi Bo‘stonsaroy irmog‘i o‘rta sohili hududiga tutashgan balandlikda madaniy-xo‘jalik markazi bo‘lgan Jarqo‘ton shahar-davlati kohini tashabbusi bilan Sherobod dehqonchilik vohalarida o‘zlashtirish tadbiri olib borilgan. Sherobod vohasida Jondavlat[5], Mirshodi hududida Qiziltepa[6], Denov tumani hududida Bandixon[7], Janubiy Zarafshonda Yerqo‘rg‘on[8], Kesh-Shahrisabz hududida Uzunqir[9], Daratepa[10], O‘rta Zarafshonda Afrosiyob I, II [11], Ko‘ktepa[12] madaniy-xo‘jalik hududlarida mil.avv. VII-VI asrlarda shahar-davlatlar kohinlari boshchiligida o‘zlashtirish jarayonlari keng miqyosda olib borilgan.

Xorazm vohasining Amudaryo o‘ng sohili tarafida Odoytepa aholisi tarkibidagi hunarmand-muhandislar hududni o‘zlashtirib, undan unumli foydalanish maqsadida Amudaryodan Qizilqum tomon chiqarilgan Kaltaminor sug‘orish tizimida Bozorqal’a shahriga (31 ga) asos solishgan va u siyosiy, ma’muriy va hududiy markaz vazifasini bajargan[13]. Amudaryo so‘l sohili hududida Davdon irmog‘i o‘rta qismi shimolida mil.avv. VI asr birinchi choragida Ko‘zaliqir shahri[14], keyingi davrlarda Ustyurt-Chinkida Oybuyirqal’a[15], Xeykanik sug‘orish tizimida Hazorasp[16], ushbu sug‘orish tizimi oxirida Ichan qal’a[17] bunyod qilingan. Bu davrlarda O‘rta Zarafshonda yangidan shahar maqomida turar joylar bunyod qilinmagan. G‘arbiy Zarafshon vodiysi Buxoro dehqonchilik vohasi madaniy-xo‘jalik markazi Buxoro[18], Farg‘ona vodiysida Eylatan va Sarvontepa[19]

madaniy-xo‘jalik markazlarida mazkur davrda ham hayot davom etgan.

Arxeologik adabiyotlarda qayd qilingan tarixiy ma’lumotlarning nazariy-qiyosiy tahlili asosida O‘zbekiston tarixiy-madaniy viloyatlari mil.avv. IX-VI asrning birinchi yarmida madaniy-xo‘jalik mikrovohalari shakllangan.

Amudaryoning so‘l sohili mikrovohalari:

1. Tuyamo‘yin hududi madaniy-xo‘jalik mikrovoha – markazi Xumbuztepa [20];
2. Sariqamishbo‘yi havzasi, Davdon irmog‘i o‘rta qismi shimoli-sharqida joylashgan balandlik atrofini qamrab olgan madaniy-xo‘jalik mikrovohasi, markazi Adoytepa [21];
3. Adoytepa shimoli hududida madaniy-xo‘jalik mikrovohasi bosh shahri Qushqal’a-1 [22];
4. Qang‘aqir balandligi atrofini qamrab olgan madaniy-xo‘jalik mikrovoha bosh shahri – Qang‘aqal’a-1 [23].
5. Qang‘aqal’a-1ning janubi-g‘arbiy hududi madaniy-xo‘jalik mikrovohasi markazi – Qang‘aqal’a-2 [24].
6. Charmanyop sug‘orish inshooti tizimi mikrovoha bosh shahri Ko‘zaliqir [25].
7. Charmanyop sug‘orish tizimi shimoli-g‘arbiy hududi balandligi atrofini qamrab olgan mikrovoha bosh shahri Qal’aliqir-1 [26].
8. Oybuyir ko‘li sohili etagiga ulangan hudud madaniy-xo‘jalik mikrovohasi bosh shahri Oybuyirqal’a [27].
9. Xeykanik magistral kanali o‘ng sohil etagiga ulangan tekislik mikrovoha bosh shahri Hazorasp [28].
10. Xeykanik kanali adog‘i madaniy-xo‘jalik mikrovohasi bosh shahri Ichanqal’a [29].

Amudaryoning o‘ng sohili mikrovohalari:

11. Kaltaminor magistral kanalidan g‘arbiy tomon chiqarilgan shaxobcha etagida madaniy-xo‘jalik mikrovoha bosh shahri Bozorqal’a [30].
12. Kaltaminor kanali janubiy-sharqiy madaniy-xo‘jalik mikrovoha bosh shahri Dingilja [31].

Zarafshon vodiysi markaziy-xo‘jalik mikrovohalari:

13. Darg‘om sug‘orilish tizimi madaniy-xo‘jalik mikrovohasi markazi bosh shahri Smarakanda [32].
14. Ko‘ktepa madaniy-xo‘jalik mikrovohasi markazi bosh shahri Ko‘ktepa [33].
15. Qashqadaryodan chiqarilgan sug‘orish inshooti oxirida madaniy-xo‘jalik mikrovohasi markazi bosh shahri Yerqo‘rg‘on [34].
16. Qashqadaryodan shimoli-sharq tomon chiqarilgan tarmoq oxiridagi madaniy-xo‘jalik mikrovohasi bosh shahri Qarshi [35].
17. Kesh madaniy-xo‘jalik mikrovohasi bosh shahri Uzunqir [36].
18. Kesh madaniy-xo‘jalik mikrovohasi bosh shahri Sangirtepa [37].
19. Daratepa madaniy-xo‘jalik mikrovohasi bosh shahri Daratepa [38].
20. Chiroqchitepa madaniy-xo‘jalik mikrovohasi bosh shahri Chiroqchitepa [39].

Surxon vohasi madaniy-xo‘jalik mikrovohalari:

21. Sherobod daryosi Bo‘stonsoy irmog‘i tizimi madaniy-xo‘jalik mikrovohasi bosh shahri Jarqo‘ton [40].
22. Jarqo‘ton madaniy-xo‘jalik mikrovohasi bosh shahri Kuchuktepa [41].
23. Talashgan madaniy-xo‘jalik mikrovohasi bosh shahri Talashgan [42].
24. Sayidobod sug‘orilish dehqonchilik madaniy-xo‘jalik mikrovohasi bosh shahri Jondavlat.
25. Jarqo‘rg‘on sug‘orilish tizimi madaniy-xo‘jalik mikrovohasi bosh shahri Hayitobod.
26. Sho‘rchi sug‘orilish tizimi madaniy-xo‘jalik mikrovohasi bosh shahri Qiziltepa [43].
27. Denov sug‘orish tizimi madaniy-xo‘jalik mikrovohasi bosh shahri Bandixon-1 [44].

Farg‘ona vodiysi madaniy-xo‘jalik mikrovohalari:

28. Dalvarzintepa madaniy-xo‘jalik mikrovohasi bosh shahri Dalvarzintepa [45].
29. Eylatan madaniy-xo‘jalik mikrovohasi bosh shahri Eylatan [46].
30. Ashqoltepa madaniy-xo‘jalik mikrovohasi bosh shahri Ashqoltepa [47].

O‘zbekiston hududi madaniy-xo‘jalik markazlari temir davriga mansub bo‘lgan turar joylarda qazishma yo‘li bilan olingan ashyolar va ma’lumotlarning ilmiy tahlili natijalarini asos qilib olingan turli nomga ega bo‘lgan nashrlarda qayd qilingan tarixiy ma’lumotlar nazariy-qiyosiy ravishda tahlil qilindi va shu asosda o‘troq aholi turar joylar qurilishida aks etgan binokorlik bilimi hayotiy tajribasi natijalari maqola mazmunida o‘z aksini topgan.

XULOSA. Shu tariqa yuqorida zikr qilingan ma’lumotlar asosida quyidagi yakuniy xulosani qayd qilish joiz:

- Temirning kashf etilishi va uning keng tarqalishidan keyin ba’zi aholi manzilgohlari

sof hunarmandchilik markazlari sifatida shakllana boshlaydi.

- O‘zbekistonning tarixiy-madaniy viloyatlaridagi aholining ijtimoiy hayot tarzi qulay tabiiy sharoitga unumdor tuproq, qulay iqlim va ayniqsa suv ta’minotiga bog‘liq bo‘lgan.

- Turon tekisligidagi Qizilqum va Qoraqum oralig‘ida joylashgan Xorazm hududi Amudaryoning suv ta’minoti o‘ng sohildagi janubiy va markaziy hududlariga yetib bormaganligi bois 2 ta madaniy-xo‘jalik mikrovohasi faoliyat olib borgan. Amudaryoning so‘l sohil hududida Amudaryoning asosiy suvini Davdon va Daryolik irmoqlari qamrab olganligi munosabati bilan 10 ta madaniy-xo‘jalik mikrovohalarida hayot davom etgan.

- Zarafshon vodiysida 8 ta, Surxon vohasida 7 ta, Farg‘ona vodiysida 3 ta madaniy-xo‘jalik mikrovohalari shakllangan va rivojlana boshlagan. Jumladan O‘rta Zarafshonda 2 ta madaniy-xo‘jalik mikrovohasi tashkil topgan. Nazarimizcha, Smarakanda va Ko‘ktepa aholisi qo‘shni hududlarga migratsiyon siyosat olib borishmagan ko‘rinadi. Janubiy Zarafshonda aholi joylashgan hudud kengligi bois 9ta madaniy-xo‘jalik mikrovohasi vujudga kelgan. G‘arbiy Zarafshonda 3ta madaniy-xo‘jalik mikrovohasi shakllangan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Сагдуллаев А.С. Заметки о раннем железном веке Средней Азии/СА-М Наука 1982. № 2 – С 229-234.
2. Заднепровский Ю.А. Чустская культура в Ферганской долине//Средняя Азия в эпоху камня и бронзы - М-Л.: Наука, 1966-С 205.
3.Хуфф Д, Шайдуллаев Ш.Б, Станчо Л. Бақтриянинг Яз-1 даврига оид янги ёдгорликлари//Ўзбекистон археологияси мустақиллик йилларида. Ютуқлар ва истиқболлар: Конференция материаллари. Самарқанд. 2016. –Б 43-44.
4. Итина М.А. Поселения Якке-Парсан-2 (Раскопки 1958-1959 гг)//МХЭ -М.: Наука, Вып 6- С 107-129.
5. Эгамбердиева Н. Амударё ҳавзаси ҳудудларининг қадимги маданияти (мил.авв.VIII-мил.IV асрлар) -Тошкент: Инновация Зиё. -2020-Б. 182.
6. Сагдуллаев А.С. Хакимов З.А. Археологическое изучение городища Кызылтепе (по итогам работ 1973-1974 гг// Бактрийские древности –Л.:Наука, 1976-С. 29.
7. История государственности Узбекистана. - Ташкент, Узбекистан, 2009. Т.1.-С. 89.
8. Сулейманов Р.Х. Появления города на Еркургане в процессе урбанизации и сложения государственности на территории Узбекистана//Ўзбекистон тарихи -Ташкент: Фан, 1999. -Вып 2 – С 14-22.
9. Двуреченская Н.Д. Предварительные материалы археологических работ 2014 г. на крепости Узундара//Проблемы истории, филологии, культуры. – Ташкент: 2015 № 1(47) – С 124-133.
10. Эшов Б.Ж., Адилов А.А. Ўзбекистон тарихи (Энг қадимги даврдан XIX аср ўрталаригача) – Тошкент, 2014 – Б 109.
11. Исамиддинов М. О дате основания Смараканда//ОНУ-Ташкент: Фан,1997. Вып 5 – С 62-67.
12. Исамиддинов М.Х. Рапен К.К стратиграфии городища Коктепа // ИМКУ. Самарканд-1999, Вып. 30-С. 68-79.
13. Собиров Қ. Хоразмнинг қишлоқ ва шаҳарлари мудофаа иншоотлари-Тошкент: Фан, 2009. - Б.35-36.
14. Толстов С.П. Городище с жилыми стенами/КСИИМК-М.: 1947, Вып XVII. – С 3-8.
15. Мамбетуллаев М. Городище Большая Айбуйиркала (Раскопки 1971-1978 и 1981 гг.//Археология Приаралья –Ташкент, Фан, 1990. Вып 4.-С.5-29.
16. Сабиров К., Абдиримов Р. Хазарасп и вопросы периодизации ранних этапов оседлоземледельческой культуры Хорезма/Цивилизации древнего Хорезма в контексте истории мировой культуры-Нукус. 2000. – С 35.
17. Мамбетуллаев М., Ягодин В.Н. К оценке хронологии и исторической динамики культурного слоя древней Хивы//ОНУ,Ташкент, Фан, 1986. -Вып 8-С.43-51.
18. Мухаммеджанов А.Р. Бухара – город двадцати пяти веков//ОНУ, Ташкент: Фан, 1997. № 9, 10, 11. – С 3-8.
19. Матбабаев Б.Х. Абдуллаев Б.М. Зарождение городской фортификации Ферганы//Урбанизационные процессы в Узбекистане. История и современность. Материалы международной научно-

практической конференции. Ташкент, Часть-1, 2007.-С.59.
20. Мамбетуллаев М. Хумбузтепе-керамический центр Южного Хорезма//Археология Приаралья-Ташкент: Фан, 1984-С 26-32; Болелов С.П. Некоторые итоги археологических работ на Хумбузтепе//ОНУ. Ташкент, Фан, 1999. №9-10. – С 85-100.
21.Пилипко В.Н. Раскопки в Дейнауском районе Чарджоуской области//АО 1974. –М.: Наука, 1975-С 527-528.
22. Пилипко В.Н. Ko'r. asar -С 532-533.
23. Дурдиев Д. Археологические исследования на территории Ташховузской области//Каракумские древности. Ашхабад: "Ылым", 1977-С 137-138.
24. Вайнберг Б.И. Этногеография Турана в древности. VII до.н.э – VIII в.н.э.-М.: Наука, 1999-С 24.
25.Толстов С.П. Древности верхнего Хорезма-М.: Наука, 1941.-вып II -С 170-171. O'sha muallif. По древним дельтам Окса и Яксарта-М.: Наука. 1962-С 99-101.
26. Рапопорт Ю.А, Лапиров-Скобло М.С. Раскопки дворцового здания на городище Калъали-Гыр-1//-М.: Наука, 1963, №6-С 141-156.
27. Мамбетуллаев М.М. Исследования храмового комплекса Большая Ойбуйиркала//Археология Узбекистана-Самарканд, 2011 №1 (2)-С 52-53.
28. Сабиров К, Рўзимов С. Археологические работы в Хазораспе//Вестник ККО АН РУз-Нукус, 2003. Вып III-IV-С 108-109.
29. Мамбетуллаев М, Ягодин В.Н. К оценке хронологии и исторической динамики культурного слоя древней Хивы. Ташкент: Фан, 1986. ОНУ №8-С 43-58.
30. Воробьёва,М.Г. Бозоркалъа//Материалы к своду памятников истории и культура Каракалпаксой АССР. Нукус, Вестник, 1986, КФ АН УзССР. Вып II -С 42.
31. Воробьёва,М.Г. Дингильджа. Усадьба середины I тысячелетия до.н.э в древнем Хорезме. М.: Наука. 1973, Вып IX-С 6-7.
32. Исамиддинов М.Х. Истоки городской культуры Самаркандского Согда-Ташкент-2002. – С 27-33.
33. Эшов Б. Қадимги Ўрта Осиё шаҳарлари тарихи. Тошкент, 2006. – С 4-9.
34. Сулейманов Р.Х., Туребеков М. Этапы развития фортификационной системы Еркургана//-ИМКУ-Ташкент:, Фан, 1968, Вып 14-С 60-65.
35. Сулейманов Р.Х. Карши-Нахшеб в системе мировой цивилизации//Роль города Карши в истории мировой цивилизации-Ташкент-Карши, 2006. -С 20-21.
36. Лушпенко О.Н. Узункир и Сангиртепе-древнеземледельческие поселение Южного Согда (Средняя Азия в мировой цивилизации).-ТД, 1992-С 79-80.
37. Сулейманов Р.Х., Сагдуллаев А.С. Сложение и развития урбанизавонной культуры Кеша в древности и средневековье//Шаҳрисабз шаҳрининг жаҳон тарихида тутган ўрни-Тошкент, 2002-С 5.
38. Сулейманов Р.Х. Древний Нахшеб. Проблемы цивилизации Узбекистана VII век до.н.э. – VII в н.э. -Ташкент, Фан. 2000-С 25-42.
39. Сулейманов Р.Х. ko'r. asar -С 65-72.
40. Асқаров А., Абдуллаев Б. Джаркутан-Ташкент.: Фан, 1983. 55 с.
41. Асқаров А., Албаум Л.И. Поселение Кучуктепа. –Ташкент.: Фан, 1979.-С 8-23.
42. Бозорова Н.М. Қадимий ва ўрта асрларда Шерободда урбанизация жараёнлари//Урбанизационные процессы в Узбекистане: История и современность: Материалы международной научной-практической конференции-Ташкент, Часть №1. 2007-Б 29.
43. Сагдуллаев А., Мавлонов У. Ўзбекистонда давлат бошқаруви тарихи-Тошкент, Академия. 2006-С 13-14.
44. Сагдуллаев А. Қадимги Ўрта Осиё тарихи. -Тошкент: Университет. 2004-Б 13-14.
45. Матбобоев Б.Х., Пардаев М.Х., Абдуллаев Б.М. Новые оборонительные стены городища Дальверзинтепе//История Узбекистана в археологических и письменных источниках.-Ташкент, 2005. –С 131-141.
46. Заднепровский Ю.А. Городище Эйлатан (К вопросу о датировке памятника). -М, Наука, 1960-СА, №3-С 28-45.
47. Матбобоев Б.Х. Ранний город Ферганы и вопросы начального этапа государственности//Археология, история и культура Средней Азии.-ТД.МНК. -Ташкент, 2002-С 15-20.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 34.341

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI SOHASIDAGI TRANSMILLIY JINOYATCHILIK TUSHUNCHASI, SHAKLLANISHI VA TURLARI

Jonuzoqova Yulduz Izzatulla qizi, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti tayanch doktoranti

CONCEPT, FORMATION AND TYPES OF TRANSNATIONAL CRIME IN THE FIELD OF INFORMATION TECHNOLOGIES

Jonuzokova Yulduz Izzatulla kizi, Doctoral student of the University of World Economy and Diplomacy

ПОНЯТИЕ, ФОРМИРОВАНИЕ И ВИДЫ ТРАНСНАЦИОНАЛЬНОЙ ПРЕСТУПНОСТИ В СФЕРЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Жонузокова Юлдуз Иззатулла кызы, докторант Университета мировой экономики и дипломатии

https://orcid.org/0009-0000-8544-2235
e-mail: sulaymonovayulduz98@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada axborot texnologiyalari sohasidagi transmilliy jinoyatchilik masalasi o‘rganiladi. Xususan, jinoyatchilikning yangi shakllari, jumladan, kiberjinoyatchilik, ma’lumotlarni o‘g‘irlash, Internet orqali boshqa xavf-xatarlar tahlil qilinadi. Shuningdek, transmilliy jinoyatchilikning shakllanishi va rivojlanishida zamonaviy texnologiyalarning roli, xalqaro qonunchilik va xavfsizlik choralarining ahamiyati ko‘rib chiqiladi.*
Kalit so‘zlar: *axborot texnologiyalari, transmilliy jinoyatchilik, internet, xavfsizlik, raqamli makon, kiberxavfsizlik, xavf, kiber makon, xalqaro qonunchilik, zamonaviy.*
Abstract: *This article examines the issue of transnational crime in the field of information technology. In particular, new forms of crime, including cybercrime, data theft, and other threats through the Internet are analyzed. Also, the role of modern technologies in the formation and development of transnational crime, the importance of international legislation and security measures are considered.*
Key words: *information technology, transnational crime, Internet, security, digital space, cyber security, risk, cyber space, international law, modern.*
Аннотация: *В данной статье рассматривается вопрос транснациональной преступности в сфере информационных технологий. В частности, анализируются новые формы преступности, в том числе киберпреступность, кража данных и другие угрозы через интернет. Также рассматривается роль современных технологий в формировании и развитии транснациональной преступности, значение международного законодательства и мер безопасности.*
Ключевые слова: *информационные технологии, транснациональная преступность, интернет, безопасность, цифровое пространство, кибербезопасность, риск, киберпространство, международное право, современный.*

KIRISH. Internetning paydo bo‘lishi va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida jamiyatimizning barcha sohalarini raqamlashtirish jarayonlari qamrab oldi. Natijada, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish kundalik faoliyatning bir qismini tashkil etib, insonlar hayotiga ijobiy ta’siri o‘tkaza boshladi. Ilgari axborot sohasini faqat aloqa, telekommunikatsiya, texnik vositalarni ishlab chiqarish va undan foydalanish sohasi sifatida tushungan bo‘lsalar, bugungi kunga kelib elektron iqtisodiyot va boshqaruv, elektron xizmatlar, elektron to‘lovlar, dasturiy ta’minotni ishlab chiqish va joriy etish kabi tarkibiy qismlar undan muhim o‘rin egalladi. XXI asrda Internetning faol rivojlanishi odamlarning axborot texnologiyalariga bo‘lgan talabining shiddatli o‘sishini ta’minladi. Tarmoq orqali odamlar bugun nafaqat bir-birlari bilan muloqot qilmoqda, balki yangiliklarni olish, keng doiradagi turli-tuman xizmatlardan foydalanish, biznesni boshqarish vositasi sifatida foydalanmoqda[1].

Ammo, yuqoridagi ushbu jarayonlar jinoyatchilikning yangi shakllarini rivojlantirishga qulay sharoitlar yaratdi. Mazkur jinoyatlar o‘z navbatida **“axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar”** deb nomlanadi. Ilmiy adabiyotlar va huquqiy hujjatlarda axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar tushunchasi bo‘yicha bir qancha yondashuvlar mavjud.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. Axborot texnologiyalari sohasidagi transmilliy jinoyatchilik tushunchasi mohiyatini to‘liqroq tushunish uchun “axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar” va “kiberjinoyat” atamalari ta’rifi hamda farqli tomonlari, shuningdek, “transmilliy jinoyatchilik” tushunchalarini tushunib olish lozim.

G‘arb manbalarida va qonunchilik hujjatlarida axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar tushunchasi kiberjinoyatlar tarzida qo‘llaniladi. Ammo “kiberjinoyatchilik” atamasi “axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar” atamasiga nisbatan torroq ma’noga ega. Kiberjinoyatchilik axborot tarmog‘idan foydalanishni anglatadi. O‘z navbatida, axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar deganda, hatto tarmoq bilan hech qanday aloqasi bo‘lmagan, lekin faqat mustaqil axborot (kompyuter) tizimlariga ta’sir qiladigan noqonuniy xatti-harakatlar tushuniladi. Kiberjinoyatchilik, tushuncha sifatida, dunyoning barcha mamlakatlari tomonidan qabul qilingan yagona ta’rifga ega emas. Bu tom ma’noda mohiyatiga nisbatan qarashlarning yig‘indisi xolos[2].

Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar – axborot tizimlari, infratuzilmasi yoki ma’lumotlaridan noto‘g‘ri foydalanish bilan bog‘liq huquqbuzarliklarning kengroq doirasini qamrab oladi. Bu nafaqat kompyuter tarmoqlari va tizimlari bilan bevosita bog‘liq jinoiy harakatlar, balki telekommunikatsiya, raqamli qurilmalar va elektron ma’lumotlarni saqlash kabi axborot texnologiyalarining turli shakllaridan foydalanadigan jinoyatlarni ham o‘z ichiga oladi. Shuningdek, axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar firibgarlik, o‘g‘irlik, tovlamachilik, ta’qib qilish va intellektual mulkni buzish kabi an’anaviy texnologiyaga asoslangan jinoyatlarni o‘z ichiga olishi mumkin.

MUHOKAMA. Kiberjinoyatchilik tushunchasini quyidagi ikki guruhga bo‘lish mumkin:

- Tor ma’nodagi kiberjinoyatchilik (kompyuter jinoyati) – bu kompyuter tizimlari va ular tomonidan qayta ishlanadigan ma’lumotlarning xavfsizligiga qarshi qaratilgan elektron operatsiyalar ko‘rinishidagi har qanday noqonuniy xatti-harakatlar;
- Keng ma’nodagi kiberjinoyatchilik (kompyuterdan foydalanish bilan bog‘liq jinoyatlar) kompyuter tizimlari yoki tarmog‘i orqali yoki ular bilan bog‘liq bo‘lgan har qanday noqonuniy xatti-harakatlar, shu jumladan, kompyuter tizimlari yoki tarmoq orqali ma’lumotlarga noqonuniy egalik qilish, ularni noqonuniy taklif qilish yoki tarqatish kabi jinoyatlar.

Shuningdek, kiberxavfsizlik tadqiqotchilari tomonidan tushunchaga berilgan umumiy ta’rif ham mavjud. Unga ko‘ra, kompyuterlar yoki axborot tarmoqlarida jinoiy harakatlar vositasi bo‘lgan har qanday xatti-harakat kiberjinoyat sifatida tavsiflanadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 15-aprelda qabul qilingan **“Kiberxavfsizlik to‘g‘risida” Qonunida** tushunchaga quyidagicha ta’rif beriladi: “Kiberjinoyatchilik – axborotni egallash, uni o‘zgartirish, yo‘q qilish yoki axborot tizimlari va resurslarini ishdan chiqarish maqsadida kibermakonda dasturiy ta’minot va texnik

vositalardan foydalanilgan holda amalga oshiriladigan jinoyatlar yig‘indisi”[3].

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ilk bor 2000-yilda jinoyatchilikning oldini olish va jinoiy odil sudlov bo‘yicha 10-Kongressida axborot texnologiyalar sohasidagi jinoyatlar tushunchasiga ta’rif beriladi. Unga ko‘ra, axborot texnologiyalar sohasidagi jinoyatlar – kompyuter tizimi yoki tarmog‘idan foydalangan raqamli makonda sodir etilgan har qanday jinoyatlardir[4].

Birlashgan Millatlar Tashkilotining giyohvand moddalar va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha boshqarmasi rasmiy sahifasida “Axborot texnologiyalar sohasidagi jinoyatlar – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida tarmoqlar, tizimlar, ma’lumotlar bazasi, veb-saytlarga nisbatan sodir etilgan qonunni buzuvchi harakatlardir[5].

NATIJALAR. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanib borishi bilan axborot texnologiyalari sohasidagi transmilliy jinoyatlarning turlari ham ko‘payib bormoqda. Bugungi kunda mazkur jinoyatlar turlari va aniq soni bo‘yicha yagona yondashuv mavjud emas. Davlatlarning qonunchiligi va soha huquqshunoslari tomonidan berilgan ta’riflar farq qiladi. Bugungi kunda eng ko‘p tarqalgan axborot texnologiyalari sohasidagi transmilliy jinoyatlar turlariga quyidagilar kiradi:

- Kiberfiribgarlik va shaxsiy ma’lumotlarni o‘g‘irlash. Bunga bank hisoblariga ruxsatsiz kirish, bank ma’lumotlari va pul mablag‘larini onlayn o‘g‘irlash, shuningdek, fishing, karding va farming kiradi.
- “Fishing” – “baliq ovi” ma‘nosini bildiradi va banklar, to‘lov tizimlari nomidan elektron xatlar yuboradi. Foydalanuvchini bank va to‘lov tizimlari bilan bir xil ko‘rinishda bo‘lgan maxsus saytga kirishga undash va foydalanuvchi unda shaxsiy ma’lumotlarini qoldirish orqali jinoyatni sodir etish.
- “Karding” – fishing saytlar yaratish va unda arzon narxdagi tovlarlarni joylashtirish hamda undan xaridorlar o‘zining shaxsiy ma’lumotlarini (plastik kartasi haqidagi ma’lumotlarni) kiritish orqali kiberfiribgarga plastik karta haqida ma’lumot beruvchi, ammo biror oldi-sotdini amalga oshirish imkonini bermaydigan kiberfiribgarlik turidir.
- “Farming” ham firibgarlikning fishing saytlar orqali sodir etiladigan ko‘rinishi bo‘lib, unda foydalanuvchi sayt nomini to‘g‘ri qayd etsa ham soxta saytga kiraveradi va shu orqali shaxsiy ma’lumotini o‘zi bilmagan holda kiberfiribgarning qo‘liga topshiradi.

XULOSA. Internetning paydo bo‘lishi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi bilan jamiyat hayotining barcha sohalarini raqamlashtirish jarayonlarining jadallashuvi insonlar hayotiga keng imkoniyat va yengilliklar berish bilan birgalikda sohada jinoyatchilik turlarini shakllanishi uchun ham sharoit yaratdi. Bugungi kunda axborot texnologiyalari doimiy rivojlanib borayotganligi sababli sohada jinoyatchilikning yangi turlari va shakllari ham ortib transmilliy xarakter kasb etib bormoqda.

Axborot texnologiyalari sohasidagi transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashda davlatlar hamkorligining rivojlanishi XX asrning 60-70 yillaridan boshlab rivojlana bordi. Sohada jinoyatchilikka qarshi kurash masalalari xalqaro konferensiya va anjumanlarda ko‘tarila boshlandi hamda raqamli makondan jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha dastlabki xalqaro tashkilotlar shakllanishi bilan davlatlararo hamkorlikning mustahkamlanishiga imkon yaratdi.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ilhom Abdullayev – “Axborot sohasi – Yangi O‘zbekiston konsepsiyasining muhim tarkibiy qismi” // 07.06.2023 // https://parliament.gov.uz/articles/1538
2. Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar (kiberjinoyatlar): turlari, kvalifikatsiyalanishi va ularga nisbatan tergov harakatlarini o‘tkazish taktikasi [Matn]: o‘quv qo‘llanma / G. F. Musayev [va boshq.]. – Tashkent: Baktria press, 2020. – b. 11
3. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 15.04.2022 yildagi O‘RQ-764-son // https://lex.uz/ru/docs/-5960604
4. Tenth United Nations Congress on the Prevention of Crime and the Treatment of Offenders: resolution / adopted by the General Assembly // https://digitallibrary.un.org/record/404748?v=pdf
5. Cybercrime in brief // https://sherloc.unodc.org/cld/en/education/tertiary/cybercrime/module-1/key-issues/cybercrime-in-brief.html

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 1.14.141

IQTISODIY - INNOVATSION TAFAKKUR VA ULARNING DINAMIK XUSUSIYATLARI

Abdullayeva Iroda G'anidjanovna, Urganch davlat universiteti "Falsafa" kafedrasi dotsenti, falsafa doktori (PhD)

ECONOMIC - INNOVATIVE THINKING AND THEIR DYNAMIC CHARACTERISTICS

Abdullaeva Iroda G'anidzhanovna, Urganch State University, associate professor of the "Philosophy" department, doctor of philosophy (PhD)

ЭКОНОМИКО-ИННОВАЦИОННОЕ МЫШЛЕНИЕ И ЕГО ДИНАМИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ

Абдуллаева Ирода Ганиджановна, доцент кафедры «Философия» Ургенчского государственного университета, доктор философии (PhD)

https://orcid.org/0000-0002-5388-5100

e-mail: irodaabdullayeva@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning dinamik xususiyatlari xo'jalik subyektlari va tadbirkorlarni yangi mahsulotlar ishlab chiqishga, xizmat turlarini tinmay kengaytirish, aholining ehtiyojlarini to'la qondirish hamda iqtisodiy va innovatsion rivojlanishga undashi, inson tafakkuriga, salohiyatiga tayanish, undan unumli foydalanish mahsuli bo'lishi haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *iqtisodiy tafakkur, xo'jalik subyekti, korxona, tadbirkorlik, xizmat muassasalari, fan-texnika, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, huquqiy, shaxs, jamiyat va davlat.*

Abstract: *In this article, the dynamic features of socio-economic relations encourage business entities and entrepreneurs to develop new products, constantly expand the range of services, fully satisfy the needs of the population, and economic and innovative development is a product of relying on human thinking and potential, and its effective use. will be considered.*

Key words: *economic thinking, economic entity, enterprise, entrepreneurship, service institutions, science and technology, socio-economic development, legal, individual, society and state.*

Аннотация: *В данной статье говорится о том, что динамические особенности социально-экономических отношений побуждают субъектов предпринимательства и предпринимателей разрабатывать новую продукцию, постоянно расширять спектр услуг, полностью удовлетворять потребности населения, а экономико-инновационное развитие является продуктом опоры, будут рассмотрены человеческое мышление и потенциал, а также их эффективное использование.*

Ключевые слова: *экономическое мышление, экономический субъект, предприятие, предпринимательство, институты обслуживания, наука и техника, социально-экономическое развитие, право, личность, общество и государство.*

KIRISH. Inson ongi, aql-u idroki mavjud yondashuvlar, ta'riflar va andozali fikrlar bilan qoniqmaydi, ularni o'zgartirishni, yangilashni istaydi. Yangilik izlash, yangi fikrlarga intilish insondagi bilish xislatiga, gnoseologik ehtiyojlarga monanddir. Shunday ekan, innovatsiya avvalo insondagi ichki, ma'naviy-ruhiy va gnoseologik ehtiyojlar mahsulidir. Innovatsion tafakkur tagida yon-atrofni, ijtimoiy hayotni ratsional asosda yangilash, o'zgartirish istagi yotadi.

Inson ongi, aql-u idrokidagi yangilikka o‘chlik, ehtiyoj ratsional asosga qurilganida innovatsion mohiyat kasb etadi. Demak, innovatsion tafakkur yon-atrofini o‘zgartirishga yangilashga qaratilgan ratsional asosli subyektiv faoliyati demakdir. Har qanday mehnat jarayonida shaxs ma’lum vazifani amalga oshirish uchun maqsadga muvofiq holda jismoniy va aqliy kuch sarflaydi. Lekin bu hol aqliy va jismoniy mehnatning o‘zaro mosligini emas, ayni vaqtda ma’lum farqqa ham ega ekanligini bildiradi. Mehnatning aqliy va jismoniy shakllarga bo‘linishi o‘z vaqtida jamiyat taraqqiyotida muhim rol o‘ynadi.

Ishlab chiqarish mexanik qurollarining vujudga kelishi, fan va innovatsion kashfiyotlarning ishlab chiqarishga ko‘plab tatbiq qilinishi bilan moddiy ishlab chiqarishga, maxsus nazariy ma’lumotga ega bo‘lgan xodimlarni, agronom, muhandis, texnik kabilarni safarbar qilish zarurati tug‘ildi. Aqliy mehnat esa mehnatning professonal maxsus shakli sifatida ma’lum ijtimoiy qatlam (hozir jamiyat ijtimoiy tarkibining bu unsuriga ko‘pchilik tadqiqotchilar tomonidan ijtimoiy guruh sifatida qaralmoqda, biz bunga qo‘shilamiz, chunki ziyolilar ham intellektual mulk egasi va uni tovar sifatida sotadi) ziyolilar tomonidan bajarila boshlandi. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning dinamik xususiyatlari xo‘jalik subyektlari va tadbirkorlarni yangi-yangi mahsulotlar ishlab chiqishga, xizmat turlarini tinmay kengaytirib, aholining ehtiyojlarini to‘la qondirishga undaydi. Har bir davr yoshlarining bilim darajasi, fikrlashi, dunyoqarashi, ma’naviy qiyofasiga qarab o‘sha jamiyatning ertangi kunini aniq tasavvur etish mumkin. Zero, yoshlar jamiyatning tub negizi, aholining ilg‘or qatlami, kelajakning ishonchli egalaridir.

Davlat innovatsion siyosati mahalliy mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish, barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, aholining turmush sifati va darajasini oshirish, texnologik va ekologik xavfsizligini ta’minlash uchun innovatsion faoliyat ustuvorliklarini tan olishdan kelib chiqib shakllantiriladi va amalga oshiriladi. Davlat innovatsion siyosatining asosiy maqsadi innovatsion faoliyat uchun mahalliy mahsulotlar raqobatbardoshligining o‘sishi, fan-texnika yutuqlaridan samarali foydalanish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish masalalarini hal etishni ta’minlaydigan iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy sharoitlar yaratish hamda mamlakatning mudofaa qobiliyatini, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini mustahkamlashdan iborat.

Ilmiy faoliyat davlat siyosatining eng faol sohasi bo‘lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo‘lib qoladi. Aytish joizki, ilmiy g‘oya bevosita xo‘jalik faoliyatida qo‘llanilishi mumkin emas. Shuning uchun tashkilotlar tadqiqotlarni moliyalashtirishga sekinlik bilan yondashadi, garchi unga katta ehtiyoj sezsa ham. Hozirgi sharoitda davlat biznesning ta’minlash funksiyasini, aniqrog‘i, ilmiy bilimlar va g‘oyalar bilan ta’minlashni o‘z zimmasiga olmoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mustaqil xo‘jalik yurituvchi subyektlar va tadbirkorlarning tinmay izlanishi, ishlab chiqarishga oid yangiliklardan samarali foydalanishga intilishi ham shundandir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Bozor iqtisodiyoti nazariyotchilarining barchasi R.Kontilon, A.Tyugro, F.Kene, A.Smit, J.B.Seya, Y.fon Tyunen, F.Xon Xayek, L.Mizes, P.F.Dryuker foyda olishni rad etmagan holda innovatsion tafakkurning, izlanishlarning zarurligini qayd etadilar. Masalan, AQSHlik iqtisodiyotchi P.F.Dryukerning yozishicha, “yangilik joriy etish tadbirkorlikning alohida vositasi, instrumenti hisoblanadi, bu tadbirkorga biznes va xizmatlar ko‘rsatish sohasida foyda ko‘rishdan kam ahamiyatli narsa emas. Shuning uchun tinmay yangilik manbalarini izlash, biznes va xizmat sohasida yutuqlarga erishish, foyda ko‘rish imkonidir”[1]. Shu bilan birga P.F. Dryuker iqtisodiy tafakkur va faollikni innovatsion izlanishlar bilan uyg‘unligini, bu uyg‘unlik “tashqi va ichki korporativ muhit”ni o‘zgartirish, yangilashga qaratilishini qayd etadi. Uning fikricha, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik innovatsion izlanish bilan uyg‘unlashganida bir tomondan, foyda olishni faqat boylik orttirish doirasidan chiqishga, ilmiy-texnik kashfiyotlarni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltiradi, ikkinchi tomondan, yangicha tafakkurni, biznes madaniyatini, samarali ish olib borish ko‘nikmasini, ishbilarmonlik xislatlarini shakllantiradi[1]. To‘g‘ri, P.F.Dryuker ham, yuqorida nomlari keltirilgan iqtisodchilar ham iqtisodiy tafakkurni alohida ijtimoiy-falsafiy fenomen, tushuncha sifatida tadqiq etmaydilar, biroq ularning ilmiy-nazariy merosida

iqtisodiy faollikka undovchi subyektiv omillar – iqtisodiy ong, iqtisodiy madaniyat, tadbirkor rejasi va maqsadi, hayotiy ideali foyda ko‘rish niyati kabi voqeliklar haqida qimmatli fikrlar uchraydi. Iqtisodiy tafakkur, ong iqtisodiy madaniyatning tarkibiy qismi, u, o‘z xususiyatlariga ko‘ra, insonning ijtimoiy- iqtisodiy munosabatlarini ifodalaydi, iqtisodiy faoliyatga maqsad, yo‘nalish beradi[2]. Iqtisodiy tafakkur, ong birlamchimi yoki ijtimoiy-iqtisodiy borliq, munosabatlar, degan savol turli bahslar uyg‘otib keladi. Bizning fikrimizcha, ular o‘zaro dialektik bog‘liq voqeliklar, iqtisodiy tafakkursiz, ongsiz ijtimoiy-iiqtisodiy borliq munosabatlar yo‘q, ikkinchisisiz birinchisi shakllanmaydi. Har bir davr va jamiyat o‘ziga muvofiq keladigan iqtisodiy tafakkur va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni shakllantiradi, ulardan mutlaq xoli tuzum yo‘q. Falsafa fanlari doktori S.Norqulovning yozishicha, “Iqtisodiy tafakkurdagi o‘zgarishlarni faqat iqtisodiy borliq ta’siri mahsuli, natijasi deb qarash bir yoqlama yondashuvdir, iqtisodiy borliq qanday tarzda, o‘zining immanent qonunlariga muvofiq yangilanish, o‘zgarish, transformatsiyaga uchrash xususiyatga ega bo‘lsa, iqtisodiy tafakkur ham shunday xususiyatga ega”[3]. Innovatsiya lotincha so‘z bo‘lib, u yangilik olib kirish, joriy etish degan ma’noni anglatadi. Ba’zan “innovatsion izlanish”, “innovatsion kashfiyot” yoki ixtiro, “innovatsion ishlanma” degan iboralar ishlatiladi. Innovatsiyani ijod, ayniqsa ilmiy-texnik ijod bilan, iqtisodiy sohadagi izlanishlar bilan bog‘lash keng tarqalgan. Natijada har qanday ijod turi, yangilik, izlanish innovatsiya tarzida taqdim etiladi. Bunday yondashuvga falsafa fanlari doktori, professor V.Alimasov e’tiroz bildirib, innovatsiyani sohada tub yangilanish yasashga qaratilgan ijod, kashfiyotdir, degan g‘oyani ilgari suradi[4]. Ammo bizni bu o‘rinda innovatsion tafakkur va uning iqtisodiy tafakkur bilan uyg‘unligi masalasi qiziqtiradi.

MUHOKAMA. Innovatsion tafakkur betakror ijodiy yangilik yaratishga qaratilgan aqliy, intellektual salohiyatdir. U mohiyatan tinmay izlanish, real borliqni noodatiy ijodiy faoliyat bilan yangilash, takomillashtirishdir. Har qanday yangilik innovatsiya emas, nazarda tutilgan sohani ilmiy-texnik yoki tashkiliy nuqtayi nazardan tubdan yangilash innovatsiyaning bosh maqsadidir.

Yuqorida aytganimizdek, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, borliq dinamik xususiyatga ega, ular tinmay o‘zgarishga moyil. Aynan shu nuqtayi nazardan iqtisodiy tafakkur innovatsiyani taqozo etadi. Aholining asosiy qismi yoshlardan iborat, yurtimiz aholisining 60%dan ziyodini 24 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etadi. O‘zbekiston bu borada katta salohiyatga ega. Bunda turli ijtimoiy ahamiyatga ega sohalarda yoshlar tashabbuslari va innovatsion loyihalarini qo‘llab-quvvatlashga katta e’tibor qaratish lozim. Ochig‘ini aytish kerak, bugun mamlakatimizda yoshlar muammolarini yechishga qaratilgan dastur va tadbirlarni amalga oshirishda, voyaga yetib kelayotgan yosh avlodning hayotda o‘ziga munosib o‘rin topishi, ularni ish bilan ta’minlash, sog‘lom turmush kechirishi uchun imkoniyat tug‘dirish, yoshlar ongida zamonaviy dunyoqarashni qaror toptirish, ijtimoiy hayotdagi muammo va to‘siqlarni bartaraf etish, ularning huquq va erkinliklarini to‘la amalga oshirishlari uchun sharoit yaratib berish kabi o‘ta muhim masalalar mavjud. Hozirgi kunda yoshlarni tadbirkorlikka jalb qilish va ularning malakalarini oshirish maqsadida O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi hamda bir qator hamkor tashkilotlar bilan hamkorlikda “Bir tadbirkor – uchta hamkor” loyihasi amalga oshirilmoqda. Bu loyihadan quyidagi natijalar kutilmoqda: -hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda tadbirkorlar va fuqarolar hissasi oshadi;

- yangi tadbirkorlik subyektlari tashkil etiladi, ish o‘rinlari yaratiladi;
- fuqarolarga o‘z biznesini tashkil qilishida amaliy yordam ko‘rsatiladi;
- respublikaning barcha hududlaridagi ilg‘or tadbirkorlar elektron bazasi yaratiladi va undan keng foydalanish yo‘lga qo‘yiladi;
- biznesda hamkor topish imkoniyati kengayadi. Xulosa qilib aytganda, yoshlarni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng jalb etishda quyidagi masalalarga alohida e’tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi:
- yoshlarga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining kreditlar, xomashyo resurslari, shuningdek, davlat xaridlari tizimidan foydalanish imkoniyatini kengaytirish;
-yoshlar orqali kichik biznesning eksport salohiyatini rivojlantirish uchun zarur va qulay bo‘lgan tashkiliy, huquqiy, moliyaviy mexanizm va sharoitlarni yaratib berish;
- davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan yoshlarning o‘z biznesini boshlashi uchun maqsadli

kreditlar ajratish va ularning sarfini ta’minlashda tizimli nazoratni yo‘lga qo‘yish;

- yoshlar o‘rtasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish orqali o‘rta sinfni shakllantirish va mustahkamlashga qaratilgan zarur huquqiy-me’yoriy hujjatlarni zamon talablari asosida yanada takomillashtirish.

NATIJALAR. Iqtisodiy tafakkur innovatsion tafakkur uchun buyurtmachidir. Innovatsion tafakkurning qaysi yo‘nalishda izlanishlar olib borishi o‘sha buyurtmachiga bog‘liqdir. Iqtisodiy tafakkur va innovatsion tafakkur inson kapitalini rivojlantirish orqali bir-biriga uyg‘un bog‘liqdir. Yuqoridagi farmonda mamlakatni iqtisodiy va innovatsion rivojlantirish “Strategiyaning bosh maqsadidir”, deb ko‘rsatiladi[4]. Iqtisodiy tafakkur xo‘jalik subyektlari, korxonalar, tadbirkorlar, xizmat muassasalari faoliyatini ma’lum bir tizimga soladi, ular o‘rtasidagi tizimli, barqaror aloqalarni shakllantiradi. U yaratgan xo‘jalik modeli barcha qismlarda bab-baravar ta’sir etib, butun tizimning samarali ishlashini uyushtiradi. Biroq bu tizim, xo‘jalik modeli vaqt o‘tishi bilan yangilanishga, innovatsiyaga ehtiyoj sezadi, hatto butun tizim (obyekt, muassasa) bankrotga uchrashi mumkin[5].

XULOSA. Demak, iqtisodiy tafakkur mudom innovatsion tafakkur bilan qo‘llab-quvvatlanib turganida xo‘jalik subyektlari faoliyatini samarali olib boradi. Demak, iqtisodiy va innovatsion rivojlanish inson tafakkuriga, salohiyatiga tayanish, undan unumli foydalanish mahsuli bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Drucker P. Innovation and entreprevrenship. – N.Y.1985. p. 22-28.
2. Norqulov S. Fuqarolik jamiyati va ijtimoiy ongda transformatsiya jarayonlari. – Toshkent: Navro‘z, 2015. -98 b.
3. Alimasov V. Innovatsiya falsafasi yoki biz to‘rtinchi ilmiy-texnik inqilobga tayyormizmi? // Tafakkur , 2019, 1- son. -7b.
4. 1. Кристенсен К.М. Дилемма новатора. Как из-за новых технологий погибают силные компании. –Москва: Альпина, 2018. - 38-42.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 8.80

TILEVBERGEN JUMAMURATOV IJODIDA METAFORA, METONIMIYA VA SINEKDOXANING LINGVOPOETIK XUSUSIYATI

Seytnazarova Injayim Erjanovna, Qoraqalpoq davlat universiteti "Qoraqalpoq tilshunosligi" kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

LINGUOPOETIC CHARACTERISTICS METAPHORS, METONYMY AND SYNECDOCHS IN THE WORKS OF TILEVBERGEN ZHUMAMURATOV

Seytnazarova Injayim Erjanovna, Docent of Karakalpak State University named after Berdak, Nukus, Uzbekistan

ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА МЕТАФОРЫ, МЕТОНИМИИ И СИНЕКДОХИ В ТВОРЧЕСТВЕ ТИЛЕВБЕРГЕНА ЖУМАМУРАТОВА

Сейтназарова Инжайым Ержановна, кандидат филологических наук, доцент кафедры каракалпакского языкознания Каракалпакского государственного университета имени Бердаха

https://orcid.org/0009-0005-7801-7149
e-mail: s injaim@karsu.uz

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Qoraqalpoq adabiyotining yirik namoyandasi, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq shoiri Tilevbergan Jumamuratov ijodida metafora, metonimiya, sinekdoxalarning she'riyatda ifodalanishi bo'yicha fikr yuritiladi. Jumladan, shoir she'riyatidagi bu uch unsurning xilma-xilligi bayon qilingan.*

Tayanch so'zlar: *metafora, umumxalq metaforalar, ko'chma ma'noda metonimiya, sinekdoxa, badiiylik, lingvopoetika, epitet, ta'sirchanlik.*

Annotation: *In this article, the great exponent of Karakalpak literature, the national poet of Uzbekistan and Karakalpakstan, Tilevbergan Jumamuratov, reflects on the expression of metaphor, metonymy, and synecdoche in poetry. In particular, the diversity of these three elements in the poet's poetry is described.*

Key words: *metaphor, universal metaphors, metonymy in a figurative sense, synecdoche, artistry, linguopoetics, epithet, impressiveness.*

Аннотация: *В данной статье размышляется о выражении метафоры, метонимии и синекдохи в поэзии великого представителя каракалпакской литературы, народного поэта Узбекистана и Каракалпакстана Тилевбергана Джумамуратова. В частности, описывается многообразие этих трех элементов в поэзии поэта.*

Ключевые слова: *метафора, универсальные метафоры, метонимия в переносном смысле, синекдоха, художественность, лингвопоэтика, эпитет, впечатляемость.*

KIRISH. Metaforalar badiiy adabiyot uslubining semantik-uslubiy va funksional xizmatini amalga oshirishda so‘z san’atining umumxalq til vositalari ichida o‘ziga xos xususiyatlari bilan badiiy asarni yaratishda tasviriy vositalari sifatida kam foydalaniladigan til boyliklarining katta bir guruhini tashkil qiladi. U so‘z ma’nosining ko‘chma va to‘g‘ridan-to‘g‘ri munosabatida ko‘rinadi. Shu bois ham lingvistikada metaforalar so‘zning narsa yoki hodisalarning qaysidir bir tomondan o‘xshashligi asosida ko‘chma ma’noda qo‘llanishi kuzatiladi.

Shoir T.Jumamuratov ham o‘z ijodida metaforalardan foydalanishi orqali ularning badiiylik darajasini yanada orttirgan. Uning metaforalarida obrazlilik, to‘g‘ridan-to‘g‘ri munosabat, oddiy xalq tili yaqqol seziladi. Shoir she’rlaridagi metaforalar “ikki narsa-buyum yoki hodisaning qandaydir bir o‘xshash jihatiga asoslanib, uning biriga tegishli belgini ko‘chma ma’noda ikkinchi narsa-buyum bilan bog‘lash”uchun qo‘llanilgan [1:78].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI. T.Jumamuratov asarlaridagi umumxalq metaforalarga hayotning barcha sohalarida qo‘llanilgan metaforalar kiradi. Bunday metaforalar xalq og‘zaki va yozma tilda qo‘llaniladi. Shoir she’riyatida umumxalq metaforalar asarlarining leksik asosini tashkil qiladi.

Ana ayırılıp, **kózdiń nurı** – baladan,
Bala ayırılıp, aq sút bergen anadan [8:30].

She’riy satrlarida farzandni ko‘z nuriga o‘xshatadi.

Kún sáwlesi turǵanında tóbeńde,
Jaramsız dos **jalpıldaǵan kóleńke** [8:213].
Adamǵa jamanlıq – qurallı urıs,
Jaqsılıq – **sıylıqqa bergen gúldáste** [8,33].

Bu satrlardagi “jalpıldaǵan kóleńke”, “sıylıqqa bergen gúldáste” yakka uslubiy metaforalar hisoblanadi. Yakka uslubiy metaforalar obrazli, qo‘shimcha ma’noviy-uslubiy bo‘yoqqa ega bo‘lib keladi. Shu bois badiiy so‘z ustalari o‘z asarlarida umumxalq betaraf, obrazli metaforalar bilan birga, yakka uslubiy metaforalardan ham keng foydalanadi[2:89].

Qoraqalpoq adabiyoti an’analarida salbiy qahramonlarni har xil hayvonlarga o‘xshatish orqali metaforik ma’nolar shakllantirish an’anaga aylangan. Bu o‘xshatishlarni shoir T.Jumamuratov asarlarida ham uchratamiz.

Ógiz bolıp súzisti,
Qoraz bolıp julıstı,
Túlki bolıp óbisti,
Jılqı bolıp tebisti,
Jılan bolıp uw shashtı [8:30].

Shuningdek, shoir qoraqalpoq adabiyotidagi doston qahramonlariga o‘xshatish orqali metaforalarni shakllantirgan:

Qıyalım – Góruǵlı, ıqlas – Ǧıyratım,
Góruǵlı Ǧıyratın minbege keldim [7:85].
Gúlparshını ediń Qońırat eliniń,
Toqpaqtay tawlanıp shashta ómiriń [7:100].

Darvoqe, shoir o‘z asarlarida sharq she’riyati an’analari, an’anaviy tasvir usullari, shuningdek, satrlar mohiyatini ta’minlovchi takrorlardan foydalanish bilan birga, uni o‘z mahorati bilan obrazlilikka ega qo‘shimcha detallar bilan ham boyitib, yakka uslubiy metaforalarni shakllantirgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Metonimiyada qanday-da bir narsa yoki voqea-hodisa nomi boshqa bir narsa yoki voqea-hodisaga ko‘chiriladi. Bu narsa yoki voqea-hodisa ongimizda bir-biri bilan bog‘liq tushunchalarni anglatishi bilan o‘zaro bog‘liq bo‘ladi. Metaforada bir-biriga o‘xshash narsa belgilari bildirilsa, metonimiyada bu ikki narsa tashqi ko‘rinishi yoki ichki xususiyatlari bilan bir-biriga qandaydir bog‘liqligi bo‘lsa ham, biroq umumiy bir-biridan farq qiluvchi (bir-biriga o‘xshamaydigan) narsalarning belgilari anglatiladi [3:237].

Har qanday badiiy asarning lingvopoetik xususiyatlarini, uslubiy xususiyatlarini ochib berishda troplar qatoriga kiruvchi badiiy vositalarning alohida bir turi hisoblangan metonimiyalar ham ahamiyatli o‘rin egallaydi.

Metonimiya nutq qisqaligini ta’minlash bilan birga, unga ta’sirchanlik ham bag‘ishlaydi[4:62].

Metonimiya T.Jumamuratov asarlarida quyidagi usullarda berilgan:

1. Bir narsa-buyum ichidagi buyum ma’nosi o‘sha narsaning o‘ziga o‘tkaziladi:

Ishtim házir talay **kese,**
Àrmanım joq qonsa náshe [9:207].
Taǵamları mazalı
Jáne piser **qazanı** [9:181].
Erge quwat, úy-ishine bereket,
Ol bar jerde tasqınlaǵan **dasturxan** [9:18].

Ushbu satrlarda tovoq ichidagi ichimlik ma’nosi tashqarisidagi “kosa”ga, idish ichidagi taom

ma'nosi tashqarisidagi "qozon"ga, oziq-ovqat ma'nosi tashqarisidagi "dasturxon"ga ko'chirish orqali ko'chma metonimik ma'nolar shakllantirilgan.

2. O'rin oti unda yashovchi insonlarning o'rnida qo'llaniladi;

Ne bir jaysań **sháhárler** bar shawqımlı,
Aralasań bir-birinen ziyada [7:10].

Mazkur satrlarda "shahar" o'rin oti orqali unda yashovchi xalq nazarda tutilib ko'chma metonimik ma'no hosil bo'lgan.

3. Muallif nomi uning asari o'rnida qo'llaniladi yoki aksincha, asar nomi shu muallifning o'zini eslatadi;

Sózdı qısıp mıjıy bermey,
Bolmaspedi almassań?
Berdaq tilin oqıp kórmey,
Kóp kúshengen "dilmashsań" [9:219].

Bu satrlar "Baspasózdiń bir dókeyine" she'ridan olingan bo'lib, qatorlarda "Berdaq tili" emas, balkim "Berdaq asarlarining tili" nazarda tutilgan.

4. Bir narsa-buyum unga bog'liq bo'lgan buyum bilan almashtiriladi:

Bul minezi payda etti,
Ūlkenlew xızmetke ótti.
Zor stolǵa iye bolıp,
Shalqayıp otıra ketti [9:213].

Bu satrlarda amal uning o'tiradigan o'rniga oid bo'lgan "stol" so'zi bilan almashtirilib metonimik ko'chma ma'noni paydo qilgan.

5. Bir narsaning atoqli nomi uning turdosh otiga aylanishi orqali, yoki aksincha turdosh otning atoqli ot sifatida qo'llanishi orqali hosil bo'lgan:

Jeti túlik malы ósken jaylawda,
"Suw tulparlar" tayın turǵan baylawda,
Teńiz maydanında kókmar oynawǵa,
Paroxod ya kater deseń bizge kel [9:87].

Bu satrlar shoirning "Bizge kel" she'ridan olingan satrlar bo'lib, Orol dengizi atrofidagi kema va qayiqlarga "Suv tulporlari" deb atash orqali ko'chma ma'noli metonimiya shakllangan.

6. Mavhum ma'noli narsa o'rniga aniq ma'noli narsa yoki aksincha, aniq ma'noli narsa o'rniga mavhum ma'noli narsani almashtirib qo'llash orqali hosil bo'lgan;

Qızıǵı ne, sózińiske aspasa,
Baspasózler ıqlaslanıp baspasa.
Basqanda da oqıwshıdan uyat-aw,
"Dámi joq!" dep ılaqtırıp taslasa [9,231].

Bu she'riy satrlarda shoir bosma so'zni emas, balkim, u yerda ishlaydigan odamlarni nazarda tutgan holda badiiy metonimiyani hosil qilgan.

7. Narsa yoki hodisaning, inson xususiyatlariga, tur-tusiga doir hosil bo'lgan[2:81];

Bilip turıp ayttım talay naqıldı,
Aqmaq hámel menen ustazlıq etti [9:24].
Dedi de **sulıw,** tańlanıp turıp,
Putevkamdı aldı aldına qoyǵan [7:91].

Ushbu satrlarda "aqmaq", "sulıw" sifatlari shu xususiyatdagi insonlarni bildirib, badiiy metonimiyalarni paydo qilgan.

8. Narsa-buyumning ishlangan materialiga yoki miqdoriga bog'liq hosil bo'lgan [5:32]

Nápsi qulı, áy biydáwlet qaraǵım,
Júz grammǵa qızarsa da qulaǵıń.
Hal ketkenshe kúni-túni simirip,
Qurtpaqpısań magazinniń araǵın?! [9:30]

Bu satrlarda "júz gramm" so'zi orqali aroqning ma'nosini bildiruvchi so'z nazarda tutilib ko'chma metonimik ma'no paydo bo'lgan.

9. Frazeologizmlar ham yakka uslubiy metonimiyalar sifatida foydalanilgan:

Sayrasa da sózge jetik haq kisi,
Aqmaqqa tásirsiz gáptiń jaqsısı.
Kewli soqır kewil nurın ne bilsin,
Oǵan birdey qarańǵısı, jaqtısı [9:31]

Mazkur satrlarda "kewli soqır" frazeologizmi orqali shu xislatdagi odam nazarda tutilib ko'chma metonimiya hosil bo'lgan.

TAHLIL VA NATIJALAR. Yuqoridagi misollardan shoir ijodida metonimiyaning har xil usullarda hosil bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Bu o'z navbatida, shoir til boyligining qanchalik darajada yuqori ekanligini ko'rsatadi. Shoir asarlarining lingvopoetik qarashda tahlil qilinishi undagi so'zlarning qo'shtirnoq ichidagi ma'nolarini tushunishga olib keladi.

Badiiy asar tilini uslubiy jihatdan boyitishda troplarning yana bir turi hisoblangan sinekdoxalarning o'rni va xizmati alohida hisoblanadi.

Sinekdoxada bir narsa-buyum ma'nosi ikkinchi narsa-buyumga ular orasidagi miqdoriy munosabatga oid almashadi [1:80].

Sinekdoxalar badiiy asarda qo'llanilganda murakkablashgan gap tuzilishlarini, ortiqcha ziynatlangan so'zlarni foydalanishning oldini oladi. Shoir T.Jumamuratov sinekdoxa imkoniyatlaridan she'rlarining tilini bezashda, asar badiiyligini

TAMADDUN NURI

ta’minlashda foydalangan ijodkor hisoblanadi. Masalan:

Oǵan tiyseń mıń **judırıq** gezewli,
Hal sınassań japıraqtay mushıń bar [9:19].

Berilgan bu satrlardagi “judırıq” leksemasi orqali “shaxs” semali sintetik ma’no yuzaga kelgan va sinekdoxa paydo bo‘lgan. Bunda “judırıq” leksemasi ikkinchi darajali nominatsiya vazifasini bajarib, butun inson ma’nosini uning bir bo‘lagi – *judırıǵı* orqali bera olgan.

Sinekdoxa usuli bilan so‘z ma’nosining ko‘chishi eng samarali turlaridan biri inson va hayvon a’zolaridan birisining atamasiga umumiy ma’no anglatish uchun ishlatilishi bo‘lib hisoblanadi[2:83]. Bu usul T.Jumamuratov asarlarida ham ba’zan uchrab turadi. Masalan:

Jıl basınan maǵlıwmatqa kóz tiktim,
Radio qashıq ketpey **qulaqtan** [9,63].

Ushbu satrlarda insonning bir a’zosi – “quloq” orqali inson tushunilib, fikr yig‘indisi ham badiiy ochib berilgan.

T.Jumamuratov asarlarida sinekdoxaning yana boshqa ma’noviy turlaridan samarali foydalanilgan. Shoir poeziyasida quyidagi ma’nolarda qo‘llanilgan sinekdoxalarni ko‘rishimiz mumkin:

1. Butun o‘rniga uning qismidan foydalanishi:

Kózler kórdi qıyametlik kúnlerdi,
Tilim jetpes bayanlawǵa sır etip!
Shayır bolsam el kóz jasın táriyiplep,
Jazar edim tawsılmastay jır etip [6:38]

2. Ko‘plik son o‘rniga birlik sonning qo‘llanilishi:

Tórt million tonna “altın” jaratqan,
Ózbektiń aqılı, **ózbektiń qolı** [7:53].

Bu satrlarda o‘zbek xalqini birlik sonda “o‘zbekning qo‘li” so‘zi orqali mahorat va ekspressivlilik bilan bera olgan.

Izrail qanın sormaq **arabtıń,**
Arablar da qalaǵoymas qarap dım [9:23].

Bu satrlarda arab xalqini birlik sonda “arab” so‘zi orqali mahorat va ekspressivlilik bilan bera olgan.

Neshe mıń jıllar qastındı tiktin **adamǵa,**
Ūńgirde tınısh jatpadıń nege odan da?!
Insandı qorlap, dáwranıń ótti basıńnan,
Adamlar teńlik bermeydi endi… [6:230].

Mazkur satrlarda bir inson emas butun odamzot ma’nosini tushunish mumkin.

3. Birlik son o‘rniga ko‘plik son qo‘llanilishi:

Maman, Ernazarlar jazıp qulashtı,
Arqa jaqqa bılg‘ap ótken qurashtı,
Bárinıń de eń ádiwli niyeti,
Xalıq baxtı ushın júregin ashtı [8:180]

Bu satrlarda bir inson o‘rniga uning ko‘plik shakli qo‘llanilib, “o‘sha odamga o‘xshash odamlar” degan umumiy ma’noni bergan.

4. Noaniq son o‘rnida aniq son yoki aniq son o‘rnida noaniq son kelishi orqali sinekdoxik ma’no shakllangan;

Ónerli oylap tuwlaydı,
Mıń tilde sóylep tamasha,
Samal da shertti sırnaydı,
Konsertin kórdik tamasha [8,39].

XULOSA VA TAKLIFLAR. Xulosa qilib aytganda, T.Jumamuratov o‘zining betakror she’riyatida tilimizdagi troplar bo‘lmish metefora, metonimiya va sinekdoxalardan juda unumli foydalangan. Shoirning tilimizdagi ushbu badiiy vositalardan foydalanish mahorati zamondosh shoirlar uslubidan o‘zining takrorlanmas mazmunga ega ekanligi, asarlarining g‘oyaviy mazmunga yo‘naltirilganligi hamda muallif intensiyasining unda implitsit tasvirlanishi, shuningdek, badiiy matnda obrazli ekspressivlikka xizmat qilishi bilan ajralib turadi.

ADABIYOTLAR RO‘XATI:

1. Бекбергенов А. Қарақалпақ тили стилистикасы. – Нөкис, 1990.
2. Абдиназимов Ш. Лингвопоэтика. – Тошкент: Yoshlar nashriyot uyi, 2020.
3. Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – Б. 237.
4. Солганик Г.Я. Стилистика русского языка. – М.: Флинта, 2016.
5. Десяева Н.Д., Арефьева С.А. Стилистика современного русского языка. – М.: Академия, 2008.
6. Жумамуратов Т. Шығармалар жыйнағының. 3 томлық. 1-т. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1978.
7. Жумамуратов Т. Толқында. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1970.
8. Жумамуратов Т. Өмириңниң өзи философия. – Нөкис: Қарақалпақстан, 2005.
9. Жумамуратов Т. Аралға келдим оралып. – Нөкис: Қарақалпақстан, 2016.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 811.161.1

TURLI TIZIMDAGI TILLARDA TURG‘UN O‘XSHATISHLARNING STRUKTUR TAHLILI

[1]Nzamatdinova Dilfuza Kóptileuovna, Nókis innovaciyalıq institutı, filologiya ilimleriniń filosofiya doktorı (PhD)
[2]Babaniyazova Nursuliw Konisbayevna, Nukus tumani 20-maktab ingliz tili fani o‘qituvchisi

STRUCTURAL ANALYSIS OF STABLE COMPARISONS OF DIFFERENT SYSTEM LANGUAGES

[1]Nzamatdinova Dilfuza Koptileuovna, Nukus Innovation Institute, Doctor of Philology (PhD)
[2]Babaniyazova Nursuliw Konisbayevna English Language Teacher, school 20, Nukus District

СТРУКТУРНЫЙ АНАЛИЗ УСТОЙЧИВЫХ СРАВНЕНИЙ РАЗНОСИСТЕМНЫХ ЯЗЫКОВ

[1]Нзаматдинова Дилфуза Коптилеуовна, Нукусский иновационный институт, доктор филологических наук (PhD)
[2]Бабаниязова Нурсулив Конисбаевна, учитель английского языка школы №20 Нукусского района

1

https://orcid.org/0009-0009-7715-8926

e-mail: sarbimiron122@mail.ru

STRUCTURAL ANALYSIS OF STABLE COMPARISONS OF DIFFERENT SYSTEM LANGUAGES

Nzamatdinova Dilfuza Koptileuovna, Nukus Innovation Institute, Doctor of Philology (PhD)

Babaniyazova Nursuliw Konisbayevna English Language Teacher, school 20, Nukus District

Annotatsiya: *Maqolada qardosh turkiy tillardagi turg‘un o‘xshatishlarning struktur va leksik-semantik xossalarini aniqlashga harakat ilmiy-nazariy jihatdan analiz qilingan.*

Kalit so‘zlar: *turg‘un o‘xshatish, morfologiya, semantika, sintaksis, so‘z, gap.*

Abstract: *The article explores a scientific and theoretical point of view and analyzes an attempt to determine the structural and lexical-semantic properties of stable comparisons in related Turkic languages.*

Key words: *stable comparison, morphology, semantics, syntax, word, sentence.*

Анотация*: В статье анализируется с научно-теоретической точки зрения структурные и лексико-семантические свойства устойчивых сравнений в родственных тюркских языках.*

Ключевые слова: *устойчивые сравнения, морфология, семантика, синтаксис, слово, предложение.*

TAMADDUN NURI

KIRISH. Turkiy tilshunoslikda turg‘un o‘xshatishlarning tadqiqi bo‘yicha bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Biroq, turkiy xalqlar qahramonlik dostonlaridagi turg‘un o‘xshatishlarni to‘plash, ularning mantiqiy tuzilmasi va leksik-semantik xususiyatlarini sistem leksikologiya nuqtayi nazaridan o‘rganish bo‘yicha shu paytgacha alohida tadqiqot olib borilmagan. Biz o‘z ushbu maqolada aynan ana shu masala haqida so‘z yuritamiz. Mazkur ilmiy ishimiz kelajakda turg‘un o‘xshatishlarning ma’no tarkibi, yasalishi, ularning shakllanishi, rivojlanish bosqichlarini alohida tizimli ravishda o‘rganishda asos bo‘ladi, degan umiddamiz.

Ushbu ilmiy ishimizda sistem leksikologiya bo‘yicha tilshunoslarning ilmiy ishlaridagi asosiy tushunchalar, lingvistik ziddiyatlar va ularning leksikologiyada namoyon bo‘lishi, turg‘un o‘xshatishlar bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlardagi ilmiy-nazariy qarashlarga asoslanib, qoraqalpoq hamda qardosh turkiy tillardagi turg‘un o‘xshatishlarning struktur va leksik-semantik xossalarini aniqlashga harakat qilamiz. Turg‘un o‘xshatishlarning strukturasi va tarkibi haqida so‘z yuritib, V.M.Ogoltsov shunday yozadi: “Turg‘un o‘xshatishlar orasidagi aloqa ikki bosqichdan iborat[1**:8**]:

1) predmetlarni qiyoslash fakti;

2) o‘xshatishga asos qilib olingan sifat fakti bo‘lib, maxsus qiyoslanuvchi bog‘lovchi va otning “O” (obraz) elementi bo‘ladi.

Rus tilshunoslarining tadqiqotlarida turg‘un o‘xshatishlarning struktur formulasi barcha xalqlar uchun barqarorligini, faqatgina bog‘lovchi vositalarning o‘ziga xosliklariga ko‘ra farqlanishini kuzatishimiz mumkin. M.V.Ogoltsov turg‘un o‘xshatishlarning mantiqiy formulasini A-S-mV deb ko‘rsatadi, bunda A – subyekt (o‘xshatilayotgan narsa), V – obyekt (nimaga o‘xshatilyapti), S – o‘xshatish asosi (predmet sifati), m – modus (operator) [1**:56**].

Bu – o‘xshatishning to‘liq kanon (mustahkam, barqaror) formulasi.

Ko‘plab tillarda uchraydigan turg‘un o‘xshatishlarning ma’nosi va tuzilishiga ko‘ra o‘xshashligi, ya’ni komparativ aloqadorligi ularning har bir tilda ma’noviy xoslanishga ega bo‘lishi bilan ajralib turadi. Turkiy tillardagi turg‘un o‘xshatishlarni tahlil qilib chiqqanimizda ham, ularning yuqorida keltirib o‘tilgan formulaga mos kelishining guvohi bo‘lamiz.

Turg‘un o‘xshatishlar ham frazeologizmlar kabi so‘z birikmasi, sodda gap, qo‘shma gap shakllarida kelishi mumkin. Turkiy tillarda bu hodisa o‘xshatish konstruktsiyasi deb ataladi.

P.Najimovning nomzodlik ishida “o‘xshatishlarning tuzilishidagi elementlar miqdorini belgilashda olimlar o‘rtasidagi qarashlar hali ham muzokarali masala ekanligini, ayrim olimlar o‘xshatish ikki elementdan, boshqalari esa ikki yoki uch elementdan iborat, deb ko‘rsatib o‘tgan”. [3:86] U tilshunoslarning fikrlariga tayangan holda o‘xshatish 4 elementdan iborat, deb ta’kidlaydi:

1. O‘xshatish predmeti;
2. O‘xshatish obrazi;
3. O‘xshatish asosi;
4. O‘xshatish ko‘rsatkichi.

Yuqorida keltirilgan fikrlar asosida mavjud barcha materiallarni jamlagan holda turg‘un o‘xshatishlarning struktural formulasini quyidagicha belgilaymiz:

Bunda dastlab biz

O‘xshatishni → nima bilan o‘xshatilmoqda;

O‘xshatishni → nima o‘xshatilmoqda;

O‘xshatishni → nima uchun o‘xshatilmoqda (qanday ma’noda).

Shundan kelib chiqqan holda quyidagicha nomlashni ma’qul ko‘rdik:

S-Om – T

S – subyekt ,

O – obyekt,

m– modul,

T–o‘xshatish asosi.

Turkiy tillardagi o‘xshatishlardan ana shu qoidaga asoslangan misollarni ko‘rib chiqamiz:

Qoraqalpoq tilida:

Bet aldınıń ajarı,
Mısalı *on tórt kúnlik ayday*,
Sol tariyqa Gulayım,
Belli qayısqan jayday («Qırıq qız»)

Qozoq tilida:

Қорыққаннан *қойдай үркип* тура қашты. (Rustam)

O‘zbek tilida:

Samarqandning *minoriday zing*kiyib, buti selanglab, otning ostiga aymashib, o‘n uch mahramini birga olib, Qorajonning qalliqqa jo‘nab borayotgan yeri: Qorajonbek yo‘lga kirdi, Mahramlarin birga oldi, Chilbir cho‘liga yo‘l yurdi. (Alpomish)

Qirg‘iz tilida:

Мурутунун бир талы,
Айбалтанын сабындай.
Мурдутоонун сеңирдей,
Булкушканды жегидей
Көзү көлдүн быткылдай,
Көрүнгөндү жуткандай. (Manas)

Turkman tilida:

Arslan gibi toruşyńdan.(Go‘ro‘g‘li)

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. Turkiy tillarda, jumladan o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq va turkman tillaridagi o‘xshatishlar va ularning struktur-semantik xususiyatlari atroflicha o‘rganilgan. Ammo, ushbu tillardan faqatgina qozoq tilida turg‘un o‘xshatishlar yuzasidan alohida tadqiqot olib borilgan. T.Qonırov turg‘un o‘xshatishlar bo‘yicha «Қазақ теңеулері» nomli maxsus lug‘at ishlab chiqqan [4]. Unda qozoq tilidagi turg‘un o‘xshatishlarni semantik guruhlarga bo‘lib, ular to‘g‘risida atroflicha ma’lumot berilgan. Ilmiy ishda qozoq tilidagi o‘xshatishlar to‘liq tadqiq etilgan, shu bilan birga tadqiqotda turg‘un o‘xshatishlar qisqacha tahlil qilingan.

O‘zbek tilida o‘xshatishlar N.Mahmudov, D.Xudoybergenova, F.Usmanov kabi tilshunoslar tomonidan o‘rganilgan. N.Mahmudov, D.Xudoybergenovalar o‘zbek tilida o‘xshatishlarning grammatik, leksik, sintaktik jihatlarini o‘rganganlar. Turg‘un o‘xshatishlarga doir “Turg‘un o‘xshatishlar” lug‘atini tuzishgan [5]. F.Usmanov «O‘zbek tilidagi o‘xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi» nomli dissertatsiyasini yoqlagan [6].

Qirg‘iz tilidagi o‘xshatishlar bo‘yicha S.Begaliyevning, A.Saparbayevning “Манас” эпосунун поэтикасынын проблемалары” [7]nomli ishlarida o‘xshatishlarga oid bir qator ilmiy ma’lumotlar keltirilgan. O‘xshatish terminiga J.Sheriyev, A.Muratov, B.Ukuyeva va boshqalar qirg‘iz tilidagi adabiyot nazariyasi nuqtayi nazaridan tavsiflaganlar. Shuningdek, G.B.Urusovaning (OshMU) “Салыштыруу мааниси жана аны билдирүүнүн стилдик каражаттары”[8], S.B.Otorbaevaning (K.Tınıstanov nomidagı IMU) “Чыгармаларындагы салыштыруулардын морфологиялык жол менен жасалышы”[9] kabi ilmiy maqolalarida o‘xshatishlarga bog‘liq ilmiy qarashlarni uchratishimiz mumkin. Ammo o‘xshatishlar va turg‘un o‘xshatishlarga doir alohida tadqiqotlar deyarli yo‘q. Turkman tilida K.Babanovning ilmiy ishlari ham faqat o‘xshatishlar haqida bo‘lib, turg‘un o‘xshatishlar to‘g‘risida so‘z yuritilmagan [10]. Qoraqalpoq tilida o‘xshatishlar P.Najimovning «Қарақалпақ тилинде теңеўлер» nomli ilmiy ishida alohida tadqiq etilgan. Shu bilan birga qoraqalpoq tili stilistikasi, adabiyoti bo‘yicha yaratilgan tadqiqotlarda mazkur masala yuzasidan nazariy ma’lumotlar keltirilgan. Lekin turg‘un o‘xshatishlarga oid alohida ilmiy ishlar amalga oshirilmagan. Yuqorida keltirib o‘tilgan tadqiqotlarga asoslangan holda, turg‘un o‘xshatishlar stukturasini quyidagicha tasnif qildik.

MUHOKAMA. Qoraqalpoq tili materiallari asosidagi tahlillar, ilmiy-nazariy qarashlar turkiy tillardagi turg‘un o‘xshatishlar uchun ma’lum darajada muhim qonuniyatlarni aniqlashga xizmat qiladi.

T.Qongırov qozoq tilidagi turg‘un o‘xshatishlarni struktur xususiyatlariga ko‘ra ikki turga bo‘lib o‘rgangan (to‘liq turg‘un o‘xshatishlar, to‘liqsiz turg‘un o‘xshatishlar). Biz ishimizda turkiy tillardagi turg‘un o‘xshatishlar struktur jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lganligi bois yuqorida nomi zikr qilingan olimlarning ilmiy ishlariga asoslangan holda qoraqalpoq tilidagi turg‘un o‘xshatishlarni tuzilishiga ko‘ra ikki turga ajratdik. Bu o‘z navbatida turkiy tillarda qo‘llaniladigan turg‘un o‘xshatishlarga ham tatbiq qilish mumkin, degan fikrdamiz:

A) to‘liq turg‘un o‘xshatishlar;

B) to‘liq bo‘lmagan turg‘un o‘xshatishlar.

To‘liq turg‘un o‘xshatishlar. Matn tarkibida to‘liq turg‘un o‘xshatish bo‘lishi uchun birinchi navbatda o‘xshatish uchun asos bo‘lgan obyekt, subyekt va o‘xshatish asosi to‘liq qatnashishi shart. Bunday munosabat o‘z navbatida o‘xshatilayotgan obraz va belgi uchun tegishli bo‘lmog‘i zarur. Agar matn tarkibida obyekt va subyekt, yoki obyekt va asos bo‘lib, uchinchi konstruksiya ishtirok qilmasa, bu to‘liq turdagi turg‘un o‘xshatish bo‘la olmaydi.

Masalan:

Ayday sulıw qız.

Ushbu misolda

TAMADDUN NURI

Ay /day sulıw qız .

Obyekt asos subyekt

Bu ochiq turdagi konstruksiya bo‘lib, unda turg‘un o‘xshatishlar uchun asos bo‘lgan barcha belgilar mavjud.

Qozoq tilida: Айдай сулыў қыз;

O‘zbek tilida: Oydek chiroyli qiz;

Qirg‘iz tilida: Айдай сулуу кыз;

Turkman tilida: Aý ýaly owadan gyz.

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, bu misollardagi turg‘un o‘xshatishlar *-day,-dek* qo‘shimchasi bilan yasalgan, faqatgina turkman tilidagi *ýaly* so‘zi bilan yasalgan.

To‘liq bo‘lmagan turg‘un o‘xshatishlar. Turg‘un o‘xshatishlarning ikkinchi turi to‘liq bo‘lmagan turg‘un o‘xshatishlardir.

Bu turdagi turg‘un o‘xshatishlarda faqatgina obyekt va subyekt qatnashadi, asos yashirin shaklda keladi. Sababi bu turdagi o‘xshatishlar kundalik turmushda barchaga ma’lum bo‘lgani bois asos ko‘rsatilmasa ham, yaqqol ko‘zga tashlanib turadi.

Masalan: *Jawrınları qaqpaqtay, attıń basınday, boyları minarday, júzleri gúldey* t.b.

Jawrınları qaqpaqtay

Subyekt Obyekt

Ushbu misollar hammaga tushunarli bo‘lib, odam yag‘rinining keng yoyiq, yirik ekanligini tasvirlash maqsadida uni qopqoqqa o‘xshatadi. Misolda yirik degan so‘z qo‘llanilmasa ham, odamlarning ongida u katta ko‘rinishda gavdalanadi.

Qozoq tilida: Кебисиниң өкшеси Буқардың гаўҳар тасындай.

O‘zbek tilida: Bu dudoq hilol bolasi,
Oltinday sochin tolasi.

Qirg‘iz tilida: Мунарадай зуңкуйган,
Бой көрө элек экенбиз.

Turkman tilida: Güýz almasy kibi.

Bundan tashqari matnda qo‘llangan turg‘un o‘xshatishlarni komponentlarining ishtiroki va tuzilishiga ko‘ra bir komponentli, ikki komponentli va ko‘p komponentli turg‘un o‘xshatishlar kabi guruhlarga bo‘lib chiqdik.

Bir komponentli turg‘un o‘xshatishlar. *Rustemdey, Bashınarday, Alpamıstay, Arıslanday* kabi mashhur shaxs nomlari bilan keng qo‘llaniladi. Mazkur o‘xshatishlarning ma’nolari asosan, shu shaxsning ma’lum bir belgisi, harakati, psixologik holatiga bog‘liq holda o‘xshatiladi. Bunday o‘xshatishlar faqatgina subyektdan iborat bo‘lib keladi.

Masalan:

Qoraqalpoq tilida: Alpamıstay

Qozoq tilida: Рустемдей

O‘zbek tilida: Alpomishdek

Qirg‘iz tilida: Манасдаыйн

Turkman tilida: Arslan kibi

Ikki komponentli turg‘un o‘xshatishlar. Dostonlarda ikki komponentli turg‘un o‘xshatishlar ko‘p uchraydi. Bu struktur jihatdan to‘liq bo‘lmagan turg‘un o‘xshatishlar bo‘lib, bunda subyekt va obyektdan iborat bo‘ladi. Ular orasidagi belgi aniq-tiniq ko‘rinib turadi. Masalan:

Qoraqalpoq tilida: Kózi máshtey, awzı oymaqtay, júzi ayday.

Qozoq tilida: Isi jupar anqıg‘an Bulbulday – aq sozi bar.

Qirg‘iz tilida: Óгүз белиндей, Мунарадай зуңкуйган.

Turkman tilida: Kümüş gibi ak bilek.

Ko‘p komponentli turg‘un o‘xshatishlar.

Qoraqalpoq tilida: *Tóbesi quwday ag‘arg‘an, kózi qurday qızarg‘an,* turıp-jıg‘ılg‘an, tasqa súringen, tawǵa órmelep baratırǵan bir ǵarrı babanı kordi deydi. (Er shora)

Qozoq tilida: *Жанып турған жалындай*, Қубылып турған сағымдай Шабылып Шубар терледі. (Batırlar jırı)

O‘zbek tilida: O‘n besh kunlik yo‘ldagi maysani *obdol talaganday, ilon yalaganday* qilib, changini chiqarib, oldi erning o‘tini yeb kelyapti.(Alpomish)

Qirg‘iz tilida: *Манас баатырдын ажыда ардай сүрү,* алп кара куштай айбаты так ушул өз ишинин тууралыгына көзү жетип, оң иш үчүн бел байлагандыгы менен шартурақлы теңеўлерашкан. (Manas)

Turkman tilida: Güýz almasy kibi al ýañagyny dartdy ýyrtdy. Gargy kibi gara saçymy ýoldy.(Go‘ro‘g‘li)

NATIJALAR. Ko‘p komponentli turg‘un o‘xshatishlar dostonlarda ko‘p uchraydi, ularning konkret ma’nosini kontekstdan bilib olish mumkin.

Dostonlarda uchraydigan turg‘un o‘xshatishlarni tahlil qilganimizda kontekstda qollanilishi jihatidan ikki komponentli va ko‘p komponentli turg‘un o‘xshatishlar bir komponentli turg‘un o‘xshatishlarga nisbatan ko‘p qo‘llanganligi,

ularning ayniqsa, qahramonlar tasvirida qo‘llanilgan ikki komponentli turg‘un o‘xshatishlar ancha miqdorni tashkil qiladi. Bir komponentli turg‘un o‘xshatishlar esa aksar o‘rinlarda dostonlardagi qahramonlarni ikkinchi bir qahramonning jasorati yoki tana tuzilishi, rang-u ro‘yi, qaddi-qomati, g‘ayritabiiy kuch-qudrat, go‘zallik yoki xunuklik, gullab-yashnagan joy yoxud qo‘rqinchli bilan o‘xshatganda ishlatishda murojaat etiladi. Masalan, baquvvatlik, zabardastlik obrazlari sifatida dev, alp Rustam, Alpomish, Farhod kabi mifologik va folklor personajlari qo‘llaniladi. Shu sababdan ko‘pincha er yigitlar tilga olinsa, *Alpomishday*, qizlar tasvirlashda turkiy tillarning ko‘pchiligida *To‘marisdek, Oybarchindek* atash urf bo‘lib, qizlarning qahramonlarga o‘xshash bo‘lsin degan maqsadda o‘xshatish qilinadi. Bu ko‘pchilik turkiy xalqlar qahramonlik dostonlarida hamda og‘zaki nutqida barqaror qo‘llanishga ega.

XULOSA qilib aytganda, Turg‘un o‘xshatishlar universal ruhiy kategoriya sifatida faqatgina obyektler va hodisalarning fizik xususiyatlarini ifodalovchi sifat kategoriyasi emas, balki baholash toifasi bilan ham aloqador ekanligini, sababli taqqoslar baholash uchun zarur tamaldir.

Yuqorida keltirilgan misollardan turkiy tillarda qo‘llaniladigan turg‘un o‘xshatishlar ma’no va madaniy jihatlardan bir-biri juda yaqin, deyarli bir-biriga yaqin ekanligini ko‘rish mumkin. Ular faqatgina struktur jihatdangina emas, balki semantik jihatdan ham bir-biriga juda yaqin ma’noli, o‘xshashdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Огольцов М.В. Устойчивые компаративные структуры в языковой системе / В.М. Огольцев // Системность русского языка: Сб. научных работ. – Новгород, 1973.
2. Нажимов П. Қарақалпақ тилинде теңеўлер. – Нөкис: Қарақалпақстан, 2014.
3. Қоңыров Т. Қазақ теңеулері. – Алматы: Мектеп, 1978.
4. Маҳмудов Н., Худойбергенова Д. Турғун ўхшатишлар. – Тошкент, 2019.
5. Усманов Ф. Ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи: Филол. фан. ном. … дис. – Тошкент, 2019.
6. Бегалиев С. “Манас” эпосунун поэтикасынын проблемалары. – Фрунзе, 1967.
7. Шериев Ж., Муратов А., Үкүева Б. Әдебият теориясы. – Бишкек, 2004.
8.Урусова Г.Б. (Ош МУ) Салыштыруу мааниси жана аны билдирүүнүн стилдик каражаттары // Известия вузов Кыргызстана. – Ош, 2018. - № 10.
9. Ибраев Э. Чыгармаларындагы салыштыруулардын морфологиялык жол менен жасалышы // Вестник ИГУ.– Ош, 2010. - № 28.
10. Бабанов К. Туркман тилиндәки меңзетлемелер хақында кәбир белликлер // Ученые записи ТГУ им. А.М.Горького. Вып.49 (1). – Ашхабад, 1967. – Б. 72-82.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 37.015.3:28-335:101.8

SULAYMON BOQIRG‘ONIY PEDAGOGIK QARASHLARINI O‘RGANISH TIZIMI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Avazova Mohinur Tohirovna,
Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

THE SYSTEM OF STUDYING THE PEDAGOGICAL APPROACHES OF SULAYMON BOQIRGANI AND ITS CHARACTERISTICS

Avazova Mohinur Tohirovna, independent student of Urganch State University

СИСТЕМА ИЗУЧЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВЗГЛЯДОВ СУЛЕЙМАНА БАКЫРГАНИ И ЕЕ ОСОБЕННОСТИ

Авазова Мохинур Тохировна, независимый студент Ургенчского государственного университета

ORCID:0009-0009-1300-5744

mohinuravezova6@mail.com

Annotatsiya. Sulaymon Boqirg‘oniyning pedagogik qarashlarini o‘rganar ekanmiz u o‘zing hikmatlarida islom dinini, shariat va tariqat qoidalarini targ‘ib qilgan. Sulaymon Boqirg‘oniy o‘z o‘gitlarida davriga xos insonlarning ijtimoiy hayotda tengsizligi, adolatsiz bo‘lishi va boshqa illatlar uchun javobgar shaxslarni u dunyo azoblari dahshatini eslatish va bu orqali tarbiyalashga ham intiladi. Insofi yo‘q va imoni yo‘q amaldorlar, yomon ishlar bilan shug‘ullanuvchi odamlar, xaromxo‘r, nodon va johillar hamda bosqinchi, talonchilarni fosh etadi.

Kalit so‘zlar: ta’lim-tarbiya, komil inson, nafs, vijdon, axloq, pedagogik mahorat, pedagogik tajriba.

Annotation: While studying the pedagogical views of Sulayman Bakirghani, he promoted the Islamic religion, Sharia and Tariqat rules in his wisdom. In his teachings, Sulayman Bakirghani tries to remind people of the horror of the sufferings of the world and educate those who are responsible for the inequality, injustice and other evils of the people of his time in social life. He exposes dishonest and unbelieving officials, people who do bad things, scoundrels, ignorant and ignorant people, as well as raiders and robbers.

Key words: Education, perfect person, ego, conscience, morality, pedagogical skill, pedagogical experience.

Аннотация. Изучая педагогические взгляды Сулеймана Бакиргани, он в своей мудрости пропагандировал исламскую религию, правила шариата и Тариката. В своем учении Сулейман Бакиргани пытается напомнить людям об ужасе страданий мира и воспитать тех, кто несет ответственность за неравенство, несправедливость и другие пороки людей его времени в общественной жизни. Он разоблачает нечестных и неверных чиновников, людей, делающих плохие дела, негодяев, невежественных и невежественных людей, а также налетчиков и грабителей.

Ключевые слова: Образование, совершенный человек, эго, совесть, мораль, педагогическое мастерство, педагогический.

Kirish (Introduction). “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonida belgilab berilgan ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish, milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish kabi ustuvor yo‘nalishlar asosida ta’lim tizimini isloh qilish davr talabi sifatida qaralmoqda. [1].

Pedagogika ta’lim va tarbiya berish jarayonini o‘rganadi. Har bir davlatning tarixi, rivojlanishi, davriy o‘zgarishlari va boshqaruv jarayoni hamda ta’limga qaratilayotgan e’tibor va yaratilgan shart-sharoitidan kelib chiqib, milliy ta’lim tizimi isloh qilinadi. Bugungi kun o‘quvchisida ularni ijtimoiy hayotga tayyorlaydigan, o‘z ichki menini anglashga yordam beradigan, zamon bilan hamnafas asarlarni o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoq kuchli. Pedagogik jarayonda o‘quvchilarning ruhiy olamini inobatga olish, ularning qiziqishlarini to‘g‘ri yo‘naltirish muhim sanaladi. Shu sababdan Sulaymon Boqirg‘oniy hikmatlarini o‘rganish va ta’lim-tarbiya jarayonida amalda qo‘llash orqali yoshlarimzning ma’naviy olamini shakllantirishimizda axloqiy sifatlarini oshirishimiz mumkin. O‘z hikmatlarida inson kamoloti uchun zarur burch, vijdon, sadoqat, vafo kabi ijtimoiy hislatlar haqida va insonlar orasidagi adovatni saqlashga iymonli inson, adolatli amaldor bo‘lishga doir qarashlarini yozadi.

Sulaymon Boqirg‘oniy inson iymonli, pok bo‘lmoqligini, insonlarga zarar beradigan yomon illatlardan voz kechmoqligini, doimo ruhiy kamolatga erishish uchun harakat qilimoq kerakligini ta’kidlaydi.

Sulaymon Boqirg‘oniy o‘z davrida ma’naviy-axloqiy kamolot haqida insonlarni ezgu ishlarga davit qilib yashagan. Bugungi kunimizda ham pedagogik ta’lim-tarbiya jarayonida aynan yoshlarimizning ma’naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirish dolzarb muammo sanaldi. Aynan g‘arb mamlakatlatning turmush-tarzi bugun ko‘plab sharq yoshlar ongini egallab olmoqda. Sulaymon Boqirg‘oniy o‘z o‘gitlarida ong qulligidan halos bo‘lishga insonlarni ongli harakat qilishga, iymonli va vijdonli bo‘lishga chorlaydi.

Boqirg‘oniy hikmatlarini o‘rganar ekanmiz aynan o‘sib kelayotgan yosh avlodlarda insoniy sifatlarni o‘zida mujassam etish, shariat ilmini egallashi, har bir ishning gunohi va savobidan ogoh bo‘lish, adolatli bo‘lish kerakligini ma’naviy-axloqiy jihatdan kamol topishini tushunamiz. Uning himatlarida insonlarning bir-biriga munosabat jarayonidagi kamchiliklarni to‘g‘rlashi, e’tiborli bo‘lishini, insonlarni ranjitmaslikni aynan bugungi kun pedagogikasida yosh avlodning loqayd beparvo bo‘lmasligi va uning oldini olishda qo‘llashimiz mumkin bo‘ladi. Aynan insonlarning beparvoligi sabab yoshlarimizning yot g‘oyalar ta’siriga tushub qolayotganini, ma’naviy olami bo‘sh ekanligini kuzatmoqdamiz. Boqirg‘oniyning pedagogik qarashlari orqali bu dunyoda inson insonga do‘st bo‘lib yashashi o‘rganishimiz mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili va metod (materials and methods). Sulaymon Boqirg‘oniy ruhiy tarbiyaning inson kamolotidagi o‘rni, uning hikmatlarini o‘rganish bo‘yicha bir qancha tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar olib borganlar. Jumladan, Umrboy Emberganov, Jobbergan Shomuradovlarning “Hakim ota” va I.Haqqul, S.Rafiddinlarning “Sulaymon Boqirg‘oniy. Boqirg‘on kitobi”da Boqirg‘oniyning ma’naviy-ahloqiy qarashlari o‘rganilgan.

Sulaymon Boqirg‘oniyning ma’naviy-ma’rifiy qarashlarini o‘rganar ekanmiz uning inson hayotda o‘zini bilim olish bilan boyitishi, umrini ilmli, ma’rifatli bo‘lishga e’tibor berishi lozimligini tushunamiz. Boqirg‘oniy inson ilm olishi va farzandlarini ham ilm olishga undashi ta‘kidlaydi. Ilmli, ma’rifatli odam jamiyat taqdiri, insonlarning taqdiri uchun kurashuvchan, yomonliklardan uzoq turushuni tushunamiz. Sulaymon Boqirg‘oniy umru davomida insonlarni obodonchilikga ilm-fanning gullashiga, adolatli hukumdor bo‘lishiga chorlagan. Uning hikmatlarida bu dunyo boqiy emasligi, inson ma’rifatli bo‘lish haq yo‘lida harakat qilishini takidlaydi.

Muhokama (Discussion) Sulaymon Boqirg‘oniy asarlarida fikrni, mutafakkir o‘zining hayotiy tajribasiga tayangan holda bayon etgan. U komil insonni faqat ilmli bo‘lishi bilan chegaralanib qolmasligini, ma’naviy barkamol inson bo‘lishi uchun yuksak axloq, dunyoqarashni shakllantirish, o‘z ustida ishlashi va tafakkurini shakllantirish sifatlarning mavjud bo‘lishi takidlagan. Uning

hikmatlarida ma’naviy komillikga erishgan nafs balosidan kechib haq yo‘lida yurushlikni, adolatli rahbar bo‘lishlikni, sabr-toqatlilikni o‘rganishimiz va yishlarimizning ta’lim-tarbiya jarayonida bevosita foydalanishimiz muhim ahamiyatga ega.

Natijalar (results) Boqirg‘oniy hikmatlarida yoshlar tarbiyasida muhim vazifa sifatida qarashimiz, hikmatlarini yoshlar tarbiyasida qo‘llashimiz muhim ahamiyat kasb etmoqda. Uning hikmatlari ta‘lim-tarbiyaga oid fikr-mulohazalari bilan barkamol avlod tarbiyasiga kata hissa qo‘shadi. Inson tarbiyasida allomalrning hikmatlaridan foydlanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Boqirg‘oniy hikmatlarida ifodalangan Vatan, inson, kamoloti, iymon, diyonat, nafsga berilmaslik, rahm-shafqatlilik haqidagi axloqiy-falsafiy g‘oyalari hozirgi yoshlar tarbiyasida ham qimmatli qadriyatdir. Boqirg‘oniy hikmatlari tasavvuf g‘oyalarini omma ko‘ngliga chuqur singdirishga qaratilgan. Hozirgi kunda insonlarda ayniqsa o‘zib kelayotgan yosh avlodini poklik, halollik, to‘g‘rilik, mehr-shafqat, o‘z kuchi va mehnati bilan halol kun kechirishi, Alloh taolo visologa yetishish yo‘lida Insonni ham botinan va zohiran har tamonlama takomillashtirish kabi ilg‘or umuminsoniy qadriyatlar ifoda etilgan.

Xulosa (Conclusion). Tasavvuf ta’limoti Sharq olamida hozir ham fan sifatida o‘rganilib kelinmoqda. Demak, tasavvuf ta’limotining asoschilari axloqiy poklikka, yomonlik bilan yaxshilikni farqlash, harom - halolni bilish, egrilikdan qochish kabilarni o‘rgatadi. Nodonlik, bag`ritoshlik, pinxona yovuzliklarga murosasiz bo‘lishga chorlaydi. Islom ta’limotiga taalluqli bunday axloqiy qarashlarni yoshlarga yetkazish, Sharqona idealistik merosga ijodiy yondoshish – milliy istiqlol mafkuramizni shakllantirishga zamin bo‘lishi mumkin. Chunki, millatni tarixiy taraqqiyotni, istiqbolni ko‘zlagan, xalqni-xalq, millatni – millat qiladigan, ularni dunyodagi o‘rnini aniq - ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan mafkura jamiyat ma’naviy hayotining tarkibiy qismidir. Sulaymon Boqirg‘oniyning o‘sha davrda yozgan barcha fikrlari, ma'lumotlari hozirgi kunda bo‘layotgan hodisalarga, insonlarning yurishturishlariga nisbatan g‘oyalarini aytgandek tuyuladi.

Alloh debon shaytonning zahrin yorub,
O‘zumni Haqning yodi birla arib.
Suhbatlik oriflarga jonim berub,
Suhbatsiz nodonlardin qochgum kelur. [5].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”. PF-60- son farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-son qarori
3. Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg‘oniy . Hikmatlar (nashrga tayyorlovchi E.Ochilov) T., 2013
4. Umrboy Emberganov, Jobbergan Shomuradov “Sulaymon Bogirg‘oniy (Hakim ota)”- Toshkent 2015 y
5. I.Haqqul, S.Rafiddin “Sulaymon Boqirg‘oniy. Boqirg‘on kitobi”. T- yozuvchi, 1991 y

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK:372.8

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI BAHOLASH MEXANIZMLARINI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH METODIKASI

Tursinova Zoxida Sharabidinovna
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutti tayanch doktoranti

METHODOLOGY OF ORGANIZING AND CONDUCTING MECHANISMS FOR ASSESSMENT OF TEACHERS' PEDAGOGICAL SKILLS IN IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION

Tursinova Zokhida Sharabidinovna
Doctoral student of the National Institute of Pedagogical Skills named after A. Avloni

МЕТОДОЛОГИЯ ОРГАНИЗАЦИИ И ПРОВЕДЕНИЯ МЕХАНИЗМОВ ОЦЕНКИ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО КВАЛИФИКАЦИИ УЧИТЕЛЕЙ В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ

Турсинова Зохида Шарабидиновна
Докторант Национального института педагогического мастерства имени А. Авлони

E-mail: zokhida87@mail.ru
Orcid: 0000-0002-9044-091x

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim sifatini oshirishda o'qituvchilarning pedagogik mahoratini baholash mexanizmlarini tashkil etish va o'tkazish metodikasiga oid ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, tajriba, baholash, mezon, mahorat.

Abstract: This article provides information on the methodology of organizing and conducting mechanisms for evaluating teachers' pedagogical skills in improving the quality of education.

Key words: education, experience, assessment, criterion, skill.

Аннотация: В данной статье представлена информация о методологии организации и проведения механизмов оценки педагогического мастерства учителей в повышении качества образования.

Ключевые слова: образование, опыт, оценка, критерий, умение.

Kirish. Pedagogik mahorat va ta'lim sifatini baholash tushunchalari bir-biri bilan uzviy bog'langan tushunchalar hisoblanadi. Bugungi kunda ta'lim sifatini qanday baholash kerak degan savol uchrashi tabiiy. Shu maqsadda turli baholash usullari mavjud. Pedagogik mahoratni baholash pedagogik faoliyatning ajralmas tarkibiy qismi, chunki ta'lim va ta'lim jarayonlarini amalga oshirish baholash, tahlil qilishni talab qiladi.

"Pedagogik diagnostika" ni (aniqlash, tashxis qilish) eng birinchi 1968 yildan foydalanish taklif qilingan. Bunda pedagogik baholash - o'quv jarayonini o'rganishni ta'minlaydigan asosiy tizim ekanligini ta'kidlanadi.

Adabiyotlar tahlili. Shaxsning tarbiya va ta'lim tizimini baholashga qaratilgan pedagogik tashxis yo'nalishida muayyan tavsiflar beriladi. Bu tushunchalarni V.S. Kukushin, N.E. Shchurkova,

A.V. Yasvin va boshqalarning ilmiy tahlillarida uchratish mumkin. V.V.Kraevskiy shunday ta'kidlaydi: "Eng qiyin narsa – ta'lim salohiyatini, ya'ni hissiy-qadriyat munosabatlari tajribasini tekshirishdir". G. Royleke, R. Rollet, K. Leongard, A. Bass, E.Lichko, A. Shmelev pedagogik diagnostikani - «pedagogik faoliyatni qulaylashtirishda zarur bo'lgan axborotni qo'lga kiritish jarayoni»-deb ta'kidlaydilar. X.Feger, N.Petillon, V.Bogatskiylar "...pedagogik diagnostika psixologik diagnostikadan ajralib chiqqan" - degan fikmi ilgari surishadi.

Ba'zi adabiyotlarda esa Pedagogik diagnostikaning rivojlanish nazariyalarini 3 davrga bo'lish mumkin deya ko'rsatiladi. Birinchi davr qadimgi allomalar qarashlaridan e'tiboran XXI asrgacha davom etgan tadqiqot nazariyalari davri. Bu davrni filsafiv-adabiv davr deyish mumkin. Bu davrda insonning axloqiy, ijtimoiy tabiatiga taalluqli muammolami o'rganishga asosiy e'tibor qaratildi. Ikkinchi davr. XIX asming oxirlaridan XX asming ikkinchi yarmigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Ya'ni, bu davrda pedagoglar shaxs kamolotini o'rganish va tadqiq etishga o'z hissalarini qo'shgan davr hisoblanadi. Chunki bu davrda inson shaxsini klinik sharoitlarda tadqiq qilish uchun tekshiruvlar olib borildi. Jumladan, bu davrda shaxsga taalluqli introversiya, ya'ni o'zining ichki muammolariga sho'ng'ib o'zi bilan o'zi bo'lish va atrofdagi hodisotlarga diqqatning susayib ketishi, ekstroversiya, ya'ni insonni o'rab olgan muhit atrofga ongning qaratilganligi va shu bilan band bo'lib, o'ziga nisbatan diqqatning susayishi, hayajonlanish, insondagi yuqori darajadagi halovatsizlik xususiyati, ma'lum psixologik ijtimoiy vaziyatlarda qo'rquv va hayajon hissiyotlari, rigidlik kabi psixologik holatlar o'rganildi. Lekin bu davrda shaxsning ijobiy hislatlari, qobiliyatlari, madaniy, ma'naviy, va shunga o'xshash bir qator fazilatlami o'rganish diagnostikasi rivojlanmadi. Keyingi davr XX asrning ikkinchi yarmi-XXI asr boshlari - eksperimental davr bo'lib, bu davrda nemis pedagog olimi Karlxayns Ingenkampf hamda angliyalik psixolog R.Kettel shaxsning ma'naviy-ma'rifiy rivojlanishini o'rganishga e'tibor qaratdilar.

Mazkur ta'riflardan ma'lumki, pedagogik diagnostika atamasiga ko'plab tariflar uchraydi. Barcha tavsiflarni umumlashtirib quyidagicha fikr bildirish mumkin: pedagogik baholash - pedagog shaxsining va u bilan muloqotga kirishuvchilaming pedagogik tizim natijalarini o'rganish, tahlil qilish, samaradorligini oshirish jarayonidir.

Tahlillar va natijalar: Pedagogik baholash yordamida jamiyatdagi ma'naviy-ma'rifiy jarayon tahlil qilinadi va ta'lim-tarbiyaning kafolatlangan natijalari aniqlanadi. Tashxislashda nafaqat ta'lim-tarbiya natijalarini sarhisob qilish, balki ularning o'zgarish dinamikasi ham kuzatiladi, mavjud kamchiliklar bartaraf etiladi. [4]. O'quv-tarbiyaviy jarayonni optimallashtirishga xizmat qiluvchi pedagogik tashxis ya'ni diagnostika har bir rejali o'quv jarayonining ajralmas qismi hisoblanib, o'quvchi materialni qanday o'zlashtirayotganini doimo kuzatib borishga, tarbiyaviy jarayondagi muammolaming yechimini topishga xizmat qiladi. Pedagogik baholash yordamida o'quv - tarbiyaviy jarayonda tug'iladigan qiyinchiliklar o'rganiladi, ularni bartaraf etish yo'llari tashkil etiladi. [1].

Umumiy qilib aytish mumkinki, pedagogik baholash - bu turli pedagogik hodisalarni tan olish jarayoni va foydalanishga asoslangan holda ma'lum bir vaqtda ularning holatini aniqlashdir.

Pedagogik baholash quyidagi savollarga javob beradi:

-nimani va nima uchun o'rganish kerak;

-qanday ko'rsatkichlar bo'yicha;

-qanday usullar yordamida;

-qanday sharoitlarda (o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini bilish).

Pedagogik baholash maxsus pedagogik jarayon hisoblanib, uning asosida bir qator pedagogik mezonlar, ta'lim jarayonining sifati, ta'lim tizimi, ta'lim maydoni, ta'lim darajalari hisobga olinadi. Shuningdek, ta'lim jarayonining samaradorligini o'rganishga asoslanadi. [2, 234].

Ta'lim sifatini oshirishda o'qituvchilarning pedagogik mahoratini baholash mexanizmlarini tashkil etish va o'tkazish metodikasi muhim ahamiyatga ega bo'lib [3] bu jarayonni amalga oshirish uchun asosiy mezonlar quyidagilardan iborat bo'ladi:

1. Baholash maqsadlarini aniqlash

-Maqsadlar: O'qituvchilarning pedagogik mahoratini baholashning aniq maqsadlarini belgilash (masalan, o'qituvchilarni rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish.

2. Baholash mezonlarini ishlab chiqish

- Mezonlar: O'qituvchining bilim va ko'nikmalarini baholash uchun mezonlar (o'qitish

uslublari, muloqot qobiliyatlari, dars rejalashtirish, va h.k.) ishlab chiqilishi kerak.

3. Baholash usullarini tanlash

- O‘zaro baholash: O‘qituvchilar bir-birini baholaydi.

-O‘z-o‘zini baholash: O‘qituvchilar o‘z faoliyatlarini mustaqil ravishda baholaydilar.

-Klassik baholash: Darslar va o‘quv jarayonlari davomida o‘qituvchilarning faoliyati nazorat qilinadi.

- Anketalar va so‘rovnomalar: Talabalar va hamkasblar fikrlarini olish uchun.

4. Baholash jarayonini rejalashtirish

- Reja tuzish: Baholash jarayonining vaqtini, joyini va ishtirokchilarni belgilash.

-Tayyorlov: O‘qituvchilarni baholash jarayoniga tayyorlash, zaruriy materiallarni taqdim etish.

5. Baholashni amalga oshirish

- Darslarni kuzatish: O‘qituvchilarning darslarini kuzatish va baholash.

- Intervyular: O‘qituvchilar bilan intervyu o‘tkazish va ularning fikrlarini olish.

6. Natijalarni tahlil qilish

- Tahlil: Olingan natijalarni tahlil qilib, o‘qituvchilarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash.

- Hisobot tayyorlash: Baholash natijalari asosida hisobot tayyorlash.

7. Rivojlanish uchun tavsiyalar berish

- Tavsiyalar: O‘qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish uchun tavsiyalar ishlab chiqish.

-Treninglar va seminarlar: O‘qituvchilarni rivojlantirish uchun seminarlar va treninglar tashkil etish.

8. Takroriy baholash

-Monitoring: Ta’lim sifatini oshirish jarayonida takroriy baholashlar o‘tkazish va natijalarni kuzatish.

Xulosa. Ushbu metodika ta’lim sifatini oshirishda o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini samarali baholash imkonini beradi va ularning professional rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Богуславская Т.Н. Формирование подходов к оценке качества дошкольного образования // Проблемы современного образования: интернет-журнал. 2012, № 4. С

2. Ковалева Т.М. Новые задачи тьюторской практики: от потенциала к ресурсу// Тьюторские практики в России. Сопровождение индивидуальных образовательных программ. – Томск: РЦРО, 2009.

3. Ковалева Т. М., Кобыща Е. И., Попова (Смолик) С. Ю., Теров А. А., Чередилина М. Ю. Профессия «тьютор». М.-Тверь: «СФК-офис». – 246 с.

4. Яшкова Н.В. Механизмы повышения качества образования. *Техник транспорта: образование и практика*. 2021;2(1):40-45. https://doi.org/10.46684/10.46684/2687-1033.2021.1.40-45

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 371.3:004

YOLG‘IZLIK HISSI TURLI XIL KO‘RINISHLARNI O‘Z ICHIGA OLGAN MURAKKAB IJTIMOIY-PSIXOLOGIK HODISA SIFATIDA

Razakova Rayxan Saylaubekovna
Urganch davlat Universiteti mustaqil izlanuvchisi

ЧУВСТВО ОДИНОЧИЯ КАК СЛОЖНОЕ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ФЕНОМЕН, ВКЛЮЧАЮЩЕЕ РАЗЛИЧНЫЕ ПРОЯВЛЕНИЯ

Разакова Райхан Сайлаубековна
Независимый студент Ургенчского государственного университета

THE FEELING OF LONELINESS AS A COMPLEX SOCIAL-PSYCHOLOGICAL PHENOMENON INCLUDING DIFFERENT MANIFESTATIONS

Razakova Raikhan Saylaubekovna
Independent student of Urganch State University

rayxanrazakova@gmail.com
Orcid: 0009-0000-3065-8725

Annotatsiya: Ushbu maqolada yolg‘izlik hissi turli xil ko‘rinishlarni o‘z ichiga olgan murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: yolg‘izlik, tajriba, yosh, moslashish, yolg‘izlik fenomeni, individuallik.

Аннотация: В данной статье чувство одиночества исследуется как сложное социально-психологическое явление, включающее в себя различные проявления.

Ключевые слова: одиночество, опыт, возраст, адаптация, феномен одиночества, индивидуальность.

Abstract: In this article, the feeling of loneliness is studied as a complex socio-psychological phenomenon that includes various manifestations.

Key words: loneliness, experience, age, adaptation, loneliness phenomenon, individuality.

Kirish. Yolg‘izlik inson boshidan kechiradigan holatlardan biri bo‘lib, u hayot davomida turlicha namoyon bo‘ladi. Ba’zan mazmunli shaxslararo munosabatlarni o‘rnatish, o‘z ijtimoiy tajribasini to‘plash, do‘stona aloqalarni kengaytirish, tan olinish istagining mavjudligi natilasida yolg‘izlik hissini namoyon qilish keskinlikdan iborat bo‘ladi. Yolg‘izlik hissi turli xil ko‘rinishlarni o‘z ichiga olgan murakkab ijtimoiy-psixologik hodisadir. Mazkur fenomen insonning ijtimoiylashuvi va shaxsiy shakllanishi jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi, ijtimoiy nomuvofiqlikni keltirib chiqaradi.

Hozirgi zamonda odamlar tobora ko‘proq yolg‘izlik tuyg‘usini boshdan kechirmoqda, lekin shu bilan birga, har kim buni o‘ziga xos tarzda qabul qiladi va baholaydi.

Birinchidan, yolg‘izlik holati insonning o‘z olamiga to‘liq singib ketishini nazarda tutadi va hamma narsani qamrab oladi. Bu o‘z "men" ini tasdiqlashning maxsus shakli bo‘lib, u bir vaqtning o‘zida shaxsning ichki dunyosida ma’lum bir kelishmovchilik haqida gapiradi.

Ikkinchidan, yolg‘izlik norasmiy aloqalar va har qanday guruhga qo‘shilish zarurligini his

qiladigan odamning ijtimoiy aloqalarining yo‘qligi yoki uzilishini anglatadi.

Uchinchidan, yolg‘izlik insonda turli xil salbiy his-tuyg‘ularni keltirib chiqaradi. Ilgari yolg‘izlik asosan individual psixologik muammo deb hisoblangan bo‘lsa, so‘nggi paytlarda odamlar bu haqda butun jamiyat darajasida tobora ko‘proq gapira boshladilar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugun biz yolg‘izlik haqida jiddiy ijtimoiy muammo sifatida gapirishimiz mumkin. Individualizmning kuchayishi, birlamchi guruhdagi aloqalarning zaiflashishi, ijtimoiy harakatchanlikning kuchayishi, jamiyatda tarqoqlikning kuchayishi va buning natijasida yuzaga kelgan beqarorlik unda ijtimoiy shartli yolg‘izlikning kuchayishiga olib keladi. Yolg‘izlikni nafaqat oilasi yoki yaqinlari bo‘lmaganlar, balki ko‘plab “muvaffaqiyatli” odamlar ham boshdan kechirishadi, ular ko‘plab ijtimoiy aloqalarga ega va go‘yo farovon hayotda yashaydilar. Deyarli har bir kishi yolg‘izlik tuyg‘usiga moyil, ammo bu ayniqsa inson hayotidagi inqiroz davrida keskin namoyon bo‘ladi[1].

Yolg‘izlik bir tomondan, shaxsni o‘ziga xos ijtimoiy kontekstdan chiqarib yuboradigan, individualizm, egosentrizm, izolyatsiya, begonalashish kabi hodisalar bilan bog‘liq bo‘lgan kuchlar ijtimoiy rivojlanishning murakkab va ob’yektiv jarayonlarini aks ettiruvchi omillardir, xususan, uning tarqalishini belgilaydi. So‘nggi paytlarda yolg‘izlik ijtimoiy ofat, ijtimoiy kasallik deb atala boshlandi, bu holat insonda ham rahm-shafqat, ham norozilik tug‘diradi.

Shaxsiy yolg‘izlik bizning davrimizning eng dolzarb muammolaridan biridir. Tez o‘zgarib borayotgan turmush sharoiti va ijtimoiy-siyosiy vaziyatning oldindan aytib bo‘lmasligi, boshqa narsalar qatori, shaxslararo muloqot va odamlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir doirasiga ta’sir qiladi. Zamonaviy insonning ruhiyati va ongi doimiy ravishda o‘sib borayotgan axborot oqimi sharoitida, odamlarning turli guruhlari bilan o‘zaro ta’sir qilish jarayonida shakllanadi va rivojlanadi. Bularning barchasi shaxsni ko‘plab ijtimoiy o‘zaro munosabatlarga doimiy tayyor holatda bo‘lishga undaydi. Shunday qilib, ko‘proq odamlar yolg‘izlikning halokatli oqibatlarini boshdan kechirayotganini ko‘rish noto‘g‘ri tuyulishi mumkin.

Zamonaviy xorijiy ilmiy adabiyotlarda yolg‘izlik muammosi juda keng tarqalgan va jadallik bilan o‘rganilmoqda. Ilmiy adabiyotda mafkuraviy sabablarga ko‘ra yolg‘izlikni mustaqil hodisa sifatida o‘rganish kamdan-kam hollarda olib borilgan. So‘nggi o‘n yillikda yolg‘izlik muammosiga qiziqish ortdi, bu uning dolzarb masalaga aylanganligini anglatishi mumkin. Yolg‘izlikning ko‘p jihatlari N.V. kabi tadqiqotchilarning ishlarida o‘z aksini topgan. Tulina, J.V. Puzanova, S.V. Kurtiyan, Yu.M. Pivalda, O.V. Danchiva, M.I. Buyanov, Yu.M. Shvalb, N. Xamitov, A.S. Gagarin, A. Mailov, A. Starodubtseva, G.M. Tixonov va boshqalar[2].

Asrlar davomida turli qarash va yo‘nalishdagi olimlar yolg‘izlik muammosini o‘rganishgan va o‘rganishda davom etishlariga qaramay, yolg‘izlik ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida kam o‘rganilgan hodisadir. Psixologiya fanidagi "yolg‘izlik" tushunchasining mazmuni doimiy ravishda takomillashtirilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Hozirgi vaqtda yolg‘izlikning mohiyatini aniqlash va izohlashda qiyinchiliklar mavjud, uning o‘ziga xosligi va sub’yektiv sabablari yolg‘izlik bilan bog‘liq tushunchalarni aniq farqlash holati kam uchraydi. Bundan tashqari, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, ko‘pincha yolg‘izlik fenomeni salbiy deb hisoblanadi va shuning uchun yolg‘izlikning inson ruhiyatiga halokatli ta’siri tan olinadi. Ushbu maqolada biz yolg‘izlikni turli xil ijobiy yoki salbiy his-tuyg‘ular va his-tuyg‘ularni keltirib chiqaradigan sub’ektiv tajriba sifatida tushunamiz. Eng muhimi, insonning shaxsiy tajribasiga asoslanib, o‘z yolg‘izligini sub’yektiv baholashi deb taxmin qilinadi.

Shunday qilib, bizning fikrimizcha, bu holatda hal qiluvchi omil shaxsning boshqa odamlar bilan shaxslararo o‘zaro munosabatining haqiqiy, "ob’yektiv" holati emas, balki uning ushbu o‘zaro ta’sirini ichki, "sub’yektiv" idrok etishi hisoblanadi. U yoki bu shaxsning o‘zining yolg‘izligiga munosabati bilan birga keladigan turli ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni o‘rganish ushbu hodisani har tomonlama tahlil qilish uchun nihoyatda muhim hisoblanadi[3].

Yolg‘izlik sub’yektiv tajriba sifatida har doim hamma odamlar uchun mavjud bo‘lishi mumkin. Ushbu hodisaning o‘ziga xosligi shundaki, u har bir odamda turli ko‘rinish bilan namoyon bo‘ladi va hissiy ta’sir o‘tkazishda farqlanadi. Yolg‘izlikning eng kichik ko‘rinishi odatda sezilmaydi, faqat uning

kuchli ko‘rinishlari qayd etiladi, shu asosda yolg‘izlik bor yoki yo‘q degan fikr mavjud. "Yolg‘izlikning mavjudligi" ni odatiy tushunishga eng yaqin narsa - bu odamda u uchun maqbul bo‘lgan shaklda yolg‘izlikning mavjudligidir. Yolg‘izlikni izolyatsiya, yolg‘izlik, begonalashish, anomiya va depressiya kabi tushunchalardan farqlash lozim.

Subyektiv tajriba sifatida yolg‘izlikning uchta darajasi mavjud bo‘lib, uning miqdoriy ifodasini ifodalaydi: "inkor qilingan yolg‘izlik" (past daraja), "qulay yolg‘izlik" (o‘rta daraja) va "Buzg‘unchi yolg‘izlik" (yuqori daraja). Ularni aniqlashning asosiy mezonlari quyidagilardan iborat edi: yolg‘izlik namoyon bo‘lish kuchini sub’yektiv baholash, yolg‘izlikni shaxs tomonidan tan olish darajasi (psixologik himoya darajasi va tabiati) va yolg‘izlikning hissiy ta’siri. Inson uchun eng maqbul yolg‘izlik turi "qulay yolg‘izlik" dir[4]..

Subyektiv tajriba sifatida yolg‘izlik to‘rtta asosiy omil bilan tavsiflanishi mumkin: "hissiyy etuklik", "sub’yektiv nazorat", "shaxsiy nevrotizm" va "hayotning mazmunliligi". Erkaklar uchun "erkaklik-ayollik" va "hissiy yetuklik" kabi ikkita omil ajralib turadi. Ayollar uchun "hissiy yetuklik", "erkaklik-ayollik" va "motivatsiya" kabi uchta omil aniqlanadi.

Subyektiv tajriba sifatida yolg‘izlikning jinsi va yoshi xususiyatlari mavjud. Ayollar bu turdagi yolg‘izlikni ko‘proq "inkor qilingan yolg‘izlik" deb boshdan kechirishadi, erkaklar esa "buzg‘unchi yolg‘izlikni" boshdan kechirishadi. "Qulay yolg‘izlik" erkaklar va ayollar uchun bir xil darajada xarakterlidir. Yolg‘izlik insonning yoshidan qat’iy nazar, sub’yektiv tajriba sifatida, bu turli yosh guruhlari vakillari orasida yolg‘izlikning "istisnoligi" yo‘qligini ko‘rsatadi[5].

Xulosa va takliflar. Yolg‘izlik hissi turli xil ko‘rinishlarni o‘z ichiga olgan murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida o‘rganish uning ijtimoiy-ma’naviy, ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida butun murakkabligini yana bir bor ko‘rsatdi. Darhaqiqat, yolg‘izlikning sabablari, xususiyatlari, oqibatlari, uni yengish yo‘llari va boshqa ko‘p narsalarni har tomonlama o‘rganib chiqadigan yolg‘izlikning turli xil tadqiqotlari, ammo barcha odamlarga xos bo‘lgan hodisa sifatida yolg‘izlikning yagona tasviri taqdim etilmagan. Shunday qilib, hozirgi vaqtda zamonaviy fanda yolg‘izlikning tabiati va mohiyati, shuningdek, uning paydo bo‘lish sabablari bo‘yicha yagona nuqtai nazar mavjud emas. Ushbu nazariyaga asoslanib, yolg‘izlik sub’yektiv tajriba sifatida, umuman, hamma odamlarda doimo mavjud bo‘lishi mumkinligi, yagona farq shundaki, uning namoyon bo‘lish kuchi va tabiati tubdan farq qilishi mumkin. Baholashning ustuvorligi faqat odamning o‘ziga tegishli bo‘lib, u ko‘pincha ongsiz ravishda yolg‘izlik hissi va unga qanday munosabatda bo‘lishini hal qiladi. Ehtimol, bu yerda sub’yektiv tajriba sifatida yolg‘izlikning namoyon bo‘lishini sifat va miqdoriy o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish kerak. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, yolg‘izlikni sub’yektiv tajriba sifatida yanada o‘rganishning eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri bu ijtimoiy-psixologik dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avduevskaya E.P., Petrovskaya L.A. Gumanizm nuqtai nazaridan yolg‘izlik muammosi / E.P. Avduevskaya, L.A. Petrovskaya // Psixologiya savollari. -1991 yil. - № 4. 179-180-b.
2. Artamonova A.A. Yolg‘izlik ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida / A.A. Artamonova // Biologik funksionalologiyaning yutuqlari va ularning ta’lim amaliyotidagi o‘rni: xalqaro ishtirokdagi Butunrossiya konferentsiyasi materiallari. Samara: Univ., 2003. - 140 b.
3. Bakaldin S.V. Yolg‘izlik va uning "men" funktsiyalari bilan bog‘liqligi: Muallifning konspekti. diss. .k.p.n. 19.00.01./ S.V. Bakaldin. Krasnodar: Kuban davlat universiteti, 2007.-23p.
4. Byachkova N.B. Yolg‘izlikni o‘rganish: qarashlar, nazariyalar, mezonlar / N.B. Byachkova // Oila psixologiyasi va oilaviy terapiya. 1998 yil - 4-son. -BILAN. 80-86
5.Urazbayeva, D., & Radjapova, I. (2021). EKZISTENSIONAL PSIXOLOGIYADA SHAXS MASALALARINING TALQIN QILINISHI. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, *1*(Special issue), 294-300.
6.Urazbaeva, D. (2023). PSIXOSOMATIK KASALLIKLARDA BEMORLAR BILAN PSIXOLOGIK TADBIRLAR OLIB BORISH ZARURATI. *TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi*, *1*(2), 189-192.
7.Сайлаубековна Р.Р. и др. Сущность концепции семейной жизни в современной психологии // Excellencia: Международный мультидисциплинарный журнал образования (2994-9521). – 2024. – Т. 2. – №. 1. – С. 339-342

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 371.3:004

TALABALARNI PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHDA NIZOLI VAZIYATLAR PROFILAKTIKASI

Eshquvvatov To‘lqinjon Eshquvvatovich
Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali, Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim, sport kafedrasi mudiri

ПРОФИЛАКТИКА КОНФЛИКТНЫХ СИТУАЦИЙ ПРИ ПОДГОТОВКЕ УЧАЩИХСЯ К ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Эшкувватов Тулкин Эшкувватович
Каттакорганский филиал Самаркандского государственного университета, заведующий кафедрой дошкольного и начального образования, спорта

PREVENTION OF CONFLICTSITUATIONSIN THE PREPARATIONOF STUDENTSFOR PEDAGOGICALACTIVITY

Eshquvvatov To‘lqinjon Eshquvvatovich
Kattakorgan branch of Samarkand State University, Head of the Department of Preschool and Primary Education, sports

eshquvvatovtulqin1308@gmail.com

Orcid: 0014-0000-3060-8724

Annotatsiya: Maqolada nizolar, OTMda pedagogik mojaroning mohiyati, nizolarning ob’ektiv va sub’ektiv tabiatini, ularning bevosita sabablari va ularning tahlili, nizolarning qanday shakllari va ular qanday yo‘llar bilan hal etilishi, ularni boshqarish san’atini o‘rganishlarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, ular oliy maktabga psixologik xizmat ko‘rsatish maqsadida bajarilgan.

Kalit so‘zlar: nizolar, konfliktogen, nizolarning yaratuvchanlik imkoniyati, konflikt funksiyalari, adolatparvarlik mezonlari.

Аннотация: Статья содержит исследование конфликтов, сущности педагогического конфликта в вузе, объективного и субъективного характера конфликтов, их непосредственных причини их анализа, какие формы конфликтов и каким и способами они разрешаются,искусство управлениями, выполняемое в целях психологического обслуживания высшей школы.

Ключевые слова: конфликты, конфликтогенность, творческая возможность конфликтов,конфликтные функции,критерии и справедливости.

Annotation: The article includes studies on conflicts, the essence of pedagogical conflict in higher education, the objective and subjective nature of conflicts, their direct causes and their analysis, what forms of conflicts and how they are resolved, and the art of managing them. received, they were performed in order to provide psychological services to the higher school.

Key words: conflicts, conflict generator, creative possibility of conflicts, functions of conflict, criteria of justice.

Kirish. Insonning kishilik jamiyatdagi yashash tarzini turli nizolarsiz tasavur etib bo‘lmaydi. Inson turli ziddiyat va nizolar bilan umr davomida, har bir yoshda, turli joy va har qanday vaziyatda to‘qnash kelish mumkin. Nizolar har bir inson hayotiga aloqador bo‘lgan jarayon bo‘lib, hech bir inson o‘zini ziddiyatli vaziyatlar mening hayotimga aloqador emas deb ayta olmaydi. Nizolar

tabiiy hodisa bo‘lib, har qanday nizolar bilan to‘g‘ri munosabat o‘rnatish va nizolarning destruktiv ko‘rinishlarini profilaktika qilish mumkin. Pedagogik-psixologik jihatdan bo‘lajak pedagoglarning nizolar, ularning tabiatini hamda profilaktikasini o‘rganish faqat nazariy emas, balki juda muhim amaliy ahamiyatga ham egadir. Pedagoglarning fani bu sohasini o‘rganishi o‘quv jarayonida turli vaziyatlarda yuzaga keluvchi nizolarning oldini olishga, ularni hal qilish uchun samarali choralarni qo‘llashga yordam beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili: Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, 80% nizolar ularning ishtirokchilari xohish va irodasiga qarama-qarshi o‘laroq, ular istagiga qarshi ravishda vujudga keladi, ya’ni, kamdan kam hollarda nizo ataylab tayyorlanib, amalga oshiriladi. Inson boshqalardan kelayotgan axborotni diqqat bilan filtrlab, o‘zi yuborayotgan axborotni esa - filtrlamasdan, to‘g‘ri jo‘natadi. Odatda o‘zgalardan kelayotgan axborotga emosonal yondoshib, ketayotgan axborotni esa ko‘proq boricha yuborish kuzatiladi. Nizoli vaziyat esa yuborilayotgan va qabul qilayotgan axborotlar orasidagi xissiy - emotsional hamda psixologik muvozanat buzilganda yuzaga kelishi mumkin.

Nizoning tipik xususiyatlarini [5, 23] da quyidagicha keltirilgan:

- natijaning noaniqligi, ya’ni nizo ishtirokchilarining hech biri boshqa ishtirokchilar tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni va mojaroning barcha oqibatlarini oldindan bilmaydi;
- maqsadlar xilma-xilligi, bu holat turli tomonlar o‘rtasidagi qiziqishlarning nomuvofiqligini ifodalaydi;
- tomonlarning har biridagi harakat tasnifi.

Shu bilan birga har qanday nizoning asosini ob’ektiv va sub’ektiv, real va illyustrativ to‘planib borgan fikrlar qarama-qarshiligini tashkil etadi. Fikrlar qarama-qarshiligining nizoga aylanishi uchun quyidagilar yetarli hisoblanadi [5, 24]

1) vaziyatning nizoli munosabat ishtirokchilari uchun ahamiyati;
2) opponentlardan birida boshqa ishtirokchilar maqsadlariga erishish yo‘liga qo‘yadigan muammoning mavjudligi;
3) tomonlarning kamida bittada yuzaga kelgan muammoga shaxsiy yoki guruhli sabrning to‘lishi.

Konfliktologiya nazariyasidagi mavjud yondashuv nizolarning sabablarini tasniflash, ularni tahlil qilish va umumlashtirish o'qituvchiga haqiqiy ziddiyatlarni boshqarish va ziddiyatli manfaatlarni o‘stirish vositasini beradi.

V.Linkoln ziddiyatlarning kelib chiqishini quyidagi sabablarini ko‘rsatadi. [4.28].

1. Axborot – o‘zaro munosabat ishtirokchilari uchun ma’lumotlarning qabul qilinishi yoki qabul qilinmasligi.
2. Xulq-atvorlardagi - nomuvofiqlik, samarasiz uslub, xudbinlik, oldindan aytib bo‘lmaydiganlik va tomonlardan biri rad etgan xatti-harakatlarning xususiyatlari.
3. Munosabat omillari (aloqa) - ikki yoki undan ortiq tomonlarning o‘zaro ta’siridan qoniqish darajasi.
4. Qadriyatlar-kishilarning amal qilishi uchun muhim bo‘lgan va amalga oshirilishi kutilayotgan tamoyillar (kasbiy, madaniy, diniy, mafkuraviy va bosh)
5. Tuzilmaviy - o‘zgarishi qiyin yoki hatto imkonsiz bo‘lgan nisbatan barqaror vaziyatlar (qonun, yosh, bo‘ysunish, vaqt, jihozlarning mavjudligi va o‘quv jarayonini qo‘llab-quvvatlaydigan boshqa vositalar)

Tadqiqot metodologiyasi: Tadqiqotimiz davomida ilgari surilgan nazariyani eksperimental tarzda sinovdan o‘tkazish hamda uning natijalarini amaliyotga tatbiq etish, bo‘lajak o‘qituvchilarni nizoli vaziyatlar profilaktikasiga tayyorlash hamda pedagogik faoliyatga tayyorlashda konfliktologik kompetensiyalarini rivojlantirish tizimini takomillashtirish maqsadida yuzaga keltirilgan tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar natijasida sub’ektlar faolligining ortishi va ta’lim samaradorligiga ijobiy ta’sirini kuzatish uchun dastur asosida tajriba-sinov ishlari olib borildi.

Aniqlovchi-ta’kidlovchi tajriba-sinovlarda o‘tkazilgan so‘rovnomalarda qatnashgan talabalarning (jami talaba respondentlar 220 ta) 37 foizi talaba-o‘qituvchi nizolarining salmoqli qismi o‘qituvchilarning kasbiy saviyasi yetarli emasligi tufayli yuzaga keladi, deb hisobladilar. Aksariyat talabalar fanlar mazmunining real hayotdan ajratilganligiga, 32% talaba o‘quv kursi dasturlari tuzilishiga salbiy munosabat bildirdi.O‘z navbatida professor-o‘qituvchilar (jami o’qituvchi respondentlar 86 ta) ta’lim jarayonining past samaradorligi va muloqotdagi nizoli vaziyatlarni quyidagi sabablar bilan izohladilar:

- bilim olishga bo‘lgan salbiy munosabat, dangasalik, o‘rganishni istamaslik (34%);

- mustaqil fikrlash yo‘qligi, umumiy ta’lim va siyosiy madaniyatning pastligi, fanlarning ahamiyatini anglamaslik (12%);
- bo‘lajak kasbiga qiziqishning yo‘qligi yoki o‘z istiqbolini ko‘rmaslik (56%);
- o‘ta izzattalablik (27%).

Ishtirokchi respondentlar “O‘qituvchi-o‘qituvchi” munosabatidagi nizoli vaziyatlarni aksariyat hollarda hamkasblarning ishchanlik salohiyatini yetarli emasligi (22%), o‘zgalarning faoliyat natijalari soyasiga o‘tib olish (27%), o‘quv materiallari mazmuniga shaxsiy xissa qo‘shmaslik (24%), faoliyatdagi o‘zaro hamkorlikning yetishmasligi bilan bog‘ladilar.Shu bilan birga “Universitet-o‘qituvchi” munosabatlaridagi noqulay vaziyatlar omili sifatida oliy ta’lim muassasasi tomonidan o‘qituvchidagi tashabbuskorlikning yetishmasligi, dars o‘tishdagi bepisandlik, jamoat ishlaridagi mas’uliyatsizlik, muassasa rivojlanishi va istiqboliga befarqlik, o‘z ustida ishlamaslik, axborot texnologiyalari bilan ishlash va tillarni o‘rganishga bo‘lgan harakatning yetarli emasligi kabilar keltirilgan bo‘lsa, professor-o‘qituvchilar tomonidan bildirilgan asosiy e’tirozlar muassasadagi infratuzilmaning yetarlicha rivojanmaganligi (38%), o‘qituvchilarning mehnatiga yarasha munosabat ko‘rsatilmasligi (44%), tashabbus qo‘llab-quvvatlanmasligi (36%) kabilarda namoyon bo‘ldi.

Tadqiqotning “Universitet-talaba” munosabatlariga qaratilgan qismida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra amaldagi vaziyatda oliy ta’lim muassasasi talabalarning ichki tartibga rioya qilmasliklari, shaxslararo muloqotlardagi mas’uliyatsizliklari va madaniy saviyaning pastligi, bilim olishga nisabatan dangasalik, shijoat va tashabbuskorlikning pastligi, axborot texnologiyalari va til o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyani yetishmasligini ta’kidlagan bo‘lsalar, talabalar tomonidan oliy ta’lim muassasasidagi ichki tartib-qoidalarning o‘ta rasmiyligi (72%), erkin muloqot va harakatning cheklanganligi (64%), infratuzilmaning qoniqarsizligi (64%), anonim tarzda esa ayrim hollarda yashirish korrupsiyaning davom etayotganligini bildirib o‘tdilar

Tahlil va natijalar: Bizningcha nizolarning sabablari hozirgi hayotning butun murakkabligini o‘zida aks ettirishga qodir. Aytish joizki, o‘tkazilgan so‘rovnomalar va olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra nizolar tahlili yuqoridagilardan tashqari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

-vaziyat sabablari va tarixini, shuningdek, joriy hodisalarni tushunish;

-faqat asosiy yoki aniq ko‘rinib turgan taraflarni emas, balki konfliktga jalb qilingan barcha ishtirokchi (guruh)larni aniqlash;

-barcha bu ishtirokchi (guruh)larning nuqtai nazarlari va ularning o‘zaro munosabatlarini bilish;

-konflikt negizida yotgan omillar va tendensiyalarni aniqlash;

-muvafaqqiyatsizliklar va yutuqlardan tegishli xulosa va saboqlar chiqarish uchun zarurdir.

Ma’lumki, konflikt asosi bu subektlar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklardir.[3,16-17]. Shu sababli konfliktlarni hal etishning eng maqbul va natijali yo‘li- bu subektlarning o‘zlari ko‘rsatilgan ziddiyatlarni bartaraf etishidir. Biroq bu yo‘lga har doim ham erishib bo‘lmaydi. Bundan tashqari, ziddiyatlarning turli tiplarini, ularning darajalarini, subektlari xususiyatlarini, shuningdek, konfliktni to‘xtatishga intiluvchi kuchlar ixtiyoridagi obektiv imkoniyatlarni ham e’tiborga olish kerak.

Tashkiliy va boshqaruv tipidagi nizolarining sabablariga:

- o‘qituvchilar ishining samarasiz tashkil etilishi bilan kelib chiqadigan;
- ma’muriyat tomonidan mehnat sharoitlari yetarli emasligi;
- hayot xavfsizligini muhofaza qilishga doir ishlarning tartibga solinmaganligi;
- pedagogik jamoani boshqarishdagi kamchiliklar;
- talabalar bilimini baholash mezoni bilan bog‘liq;
- o‘qituvchi faoliyatini nazorat qilishning rejalashtirilmagan shakllari;
- o‘qituvchining kasbiy faoliyati rahbarlar tomonidan etarlicha baholanmasligi;

Turli nizolardagi taraflar hatti-harakatlari sabablarini tahlil etishda ularning odatda o‘z manfaatlarini qondirishga bo‘lgan intilishlaridan iborat ekanligini tushunish qiyin emas. Notenglik, nosamimiylik, qabul qilingan qarordan qoniqmaslik, to‘g‘ri idrok etmaslik, bugungi kunda yoki kelgusida o‘zini moddiy jihatdan ta’minlashga bo‘lgan intilish pedagogik jarayon amaliyotida uchrab turadigan nizo sabablarining aksariyati hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Pedagogik muhitda har qanday nizolarga nisbatan salbiy munosabat keng tarqalgan va ko‘pchilik pedagoglarda nizolarning yaratuvchanlik imkoniyatini qidirishdan ko‘ra ularni bostirish, “vaqtida to‘xtatish” istagi mavjud. Lekin

pedagogic jarayonda nizolarning bo‘lishi tabbiy hol hisoblanadi. Nizolarga qarshi ta’lim va tarbiya berish mumkin emas va bo‘lmasligi kerak, shuning uchun nizolarga ijodiy munosabatni shakllantirish, ziddiyatli vaziyatlardan faqat talabalar, balki o‘qituvchilar uchun ham konstruktiv xatti-harakatlar, ta’lim jarayonida nizolarni turli xil qo‘llash zaruriyati mavjud. Nizolarning ob’ektiv va sub’ektiv tabiatini, ularning bevosita sabablari bilib olish, nizolarning qanday shakllari va qanday yo‘llar bilan hal etilishi, ularni boshqarish malakasini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Bu vazifa bo‘lajak pedagoglar, har qanday darajadagi pedagog xodimlar uchun juda muhim va dolzarbdir.

Foydalangan adabiyotlar:

1. G.To‘ychiyeva. Yoshlar va konfliktlar: Konfliktlar yechimiga o‘rganish. Toshkent 2008 y.
2. D.Q.Ergeshova, M.K.Najimov. Yuridik konfliktologiya. Toshkent 2007. -129 b.
3. Работа с конфликтом: навыки и стратегия действия. Лондон, Конфликтологический центр, 2001. С.40.
4. Гришина Н.В. Психология конфликта. – С.-Пт.,2003. –160 с.
5. Король Л.Г.,Малимонов И.В., Рахинский Д.В. Конфликтология: учебное пособие для студентов, обучающихся по направлениям 37.04.01 Психология, 38.04.02 Менеджмент, 38.03.03.Управление персоналом. - Ульяновск: Зебра, 2015. - 248 с.
6. Eshquvvatov T.E. Oliy talim muassalarida nizoli vaziyatlar profilaktikasi // Monografiya. UDK 151.9:378.301:330 (575.1)-Samarqand: SamDU nashri, 2021. – 147 b.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK:821.512.133-81'06

OSHIQ ERKIN ASARLARI TILIDA ANTITEZA

Sultanova Dildoraxon,
Urganch davlat universiteti
O'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi

АНТИТЕЗА В ЯЗЫКЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ АШИКА ЭРКИНА

Султанова Дилдорахан,
Ургенчский государственный университет
Кафедра узбекского языкознания

ANTITHESIS IN THE LANGUAGE OF THE WORKS OF ASHIQ ERKIN

Sultanova Dildorakhan,
Urgench State University
Department of Uzbek linguistics



dildorasultanova77@gmail.com
https://orcid.org/0000-0002-3661-7622

Annotatsiya. Ushbu maqolada Oshiq Erkin asarlarida qo'llangan antitezalar tahliliga to'xtalib o'tiladi. Shoirning she'riy asarlarida qo'llangan kontekstual antitezalar tahliliga ham to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: antiteza, kontekstual antiteza, leksema, zid ma'no, tazod, so'z, ibora, tushuncha, zidlov bog'lovchilari, kommunikativ-funksion, leksema.

Абстрактный. В данной статье основное внимание уделяется анализу антитез, используемых в творчестве Ашика Эркина. Также уделяется внимание анализу контекстуальных антитез, используемых в поэтических произведениях поэта.

Ключевые слова: антитеза, контекстуальная антитеза, лексема, противоположное значение, контраст, слово, словосочетание, понятие, союзы контраста, коммуникативная функция, лексема.

Abstract. This article focuses on the analysis of antitheses used in the works of Ashiq Erkin. It also focuses on the analysis of contextual antitheses used in the poet's poetic works.

Key words: antithesis, contextual antithesis, lexeme, opposite meaning, contrast, word, phrase, concept, conjunctions of contrast, communicative function, lexeme.

KIRISH

Tilshunoslikda antiteza mantiqiy jihatdan qiyoslanuvchi fikr, tushuncha, sezgi va timsollarni qarama-qarshi qo'yish, zidlash hodisasi tarzida tushiniladi. Voqea-hodisalar mohiyatidagi ziddiyatni ochish uchun, asosan, badiiy matnda zid ma'noli qo'shimchalar, zidlovchi bog'lovchilar, so'z va iboralardan foydalaniladi [6.231]. Oshiq Erkin asarlarida ham boshqa adabiyotlardagi kabi zid ma'noli so'zlarni qo'llash orqali tazod san'atidan mohirona foydalanganining guvohi bo'lishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Antonim so'zlar va ularning qo'llanishi haqida tilshunoslikka doir ko'plab asarlarda uchratishimiz mumkin. "Har qanday til o'zining

ko‘pqirrali kommunikativ-funksion ehtiyoji va vazifasini ta’minlay oladigan darajada lisoniy vositaga ega. Mana shunday vositalardan yana biri konkret va mavhum, real mavjud yoki hayoliy, diniy-falsafiy, madany va maishiy sohalarga oid narsa va hodisalar haqida tushunchalarni ifoda etuvchi leksema (so‘z)lardir [1.7].

“Tabiat va jamiyatdagi ko‘plab narsa va hodisalarning mohiyati, insonlarning xarakteri ularni bir-biriga qiyoslash, taqqoslash, chog‘ishtirish asosida oydinlashadi. Shuning uchun ham, bu qiyoslash tafakkur jarayonida doim kishilarga hamqadam. Badiiy adabiyot tilidagi antiteza usui ham bir-biriga nisbatan qarama-qarshi ma’nolarni beradigan so‘zlarni, iboralarni bayonda yonma-yon qo‘llash orqali obrazlarni keltirib chiqarishga asoslangandir”.[2.45]

MUHOKAMA

Oshiq Erkinning she’riy asarlarida ham qarama-qarshi so‘zlardan mohirlik bilan foydalanganining guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Xoli bilma cho‘pni ham,
Yolg‘izni ham, **ko‘pni** ham
Toshqin, goh **sayoz** daryo,
Hamisha bir kam dunyo.[4.307]

Oshiq Erkinning “O‘lguncha sizni derman” she’riy to‘plamidan olingan ushbu misrada **Yolg‘iz va ko‘p** so‘zlari kontekstual antonimlik hosil qilgan. Aslida, “yolg‘iz” so‘zi “birgalikda, birga” so‘zlari bilan “ko‘p” so‘zi esa “oz” so‘zi bilan antonimlik hosil qilgan. Keyingi bandagi “Toshqin” va “sayoz” so‘zlari ham kontekstual antonimlik hosil qilgan. “O‘zbek tilida antonimlar” [5.117] lug‘atida “sayoz” so‘zi “chuqur” so‘zi bilan antonim sifatida berilgan. Shoir qarama-qarshi ma’noli so‘zlarni qo‘llash orqali asarning ta’sirchanligini yana ham kuchaytirgan.

Bo‘lay deyman, ey daryodil, narxingga munosib,
g‘avvosing bo‘lay to‘lqinli bahringga munosib.
Mehr-u sadoqatim ila hur etmasam gar,
Bo‘lay, mayli, bir umr **qahringga** munosib. [4.302]

Shoir yuqoridagi misrada ham zid ma’noli so‘zlarni mohirlik bilan qo‘llagan. “Mehr-u sadoqatim” so‘zi “qahr” so‘ziga qarama-qarshi qo‘yilgan. “Mehr” va “qahr” so‘zlari leksik antonim bo‘lsa ham “mehr” so‘ziga “sadoqat” so‘zini juftlash orqali oshiq his-tuyg‘ularini yanaham bo‘rttirib ifodalagan. Oshiq Erkin oshiqning ichki kechinmalari, uning o‘y-xayollarini kuchli tasvirlash va uni she’riy misralarga singdirish uchun ham antonimlardan ko‘proq foydalangan. Shunday misralardan yana biri:

Tashqarida **qish** kezar, dilimda **bahor,**
Atrofga choyshabin yoygan oppoq qor.
Inju hislaringdur bu, Oshiq Erkin,
Ishqing osmonidan yog‘ilgan ash’or. [4.300]

Bilamizki, mumtoz adabiyotda ham yil fasllarini qarama-qarshi tasvirlagan shoirlarim ham bisyor. Masalan: Navoiy, Ogahiy, Fuzuliy va boshqa ko‘plab shoirlarimiz asarlarida uchratishimiz mumkin. Oshiq Erkin ham ustozlar izidan borib, yuqoridagi baytda bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan payt otlarini qo‘llash orqali she’rda ziddiyatni ochib berishga harakat qilgan. O‘quvchini tasavvurida “Qish”(qahraton sovuq) va “Bahor”(iliqlik) so‘zlarini qarama-qarshi qo‘llash orqali qahraton qish faslida oshiqning ko‘nglida jo‘sh urgan tabiatning barcha ezgu hislatlari, go‘zal bahor faslining tasvirini qo‘llash orqali kontekstual antonimlikni yuzaga keltirgan.

Har qanday badiiy asarda voqealarni bo‘rttirish, voqea-hodisaga bo‘lgan munosabatni farqlashda, har qanday nutqning ta’sirchan va betakror chiqishida lug‘at boyligimizda mavjud bo‘lgan qarama-qarshi so‘zlar ham muhim ahamiyatga ega. Oshiq Erkin ham o‘z asarlarida diniy, falsafiy so‘zlardan mohirona foydalangan.

Sevganim el naznida bo‘lsa **gunoh,**
Bilmayurman qaysi bir ishim **savob?** [4.16]

Ushbu misralardagi “Gunoh”- shariat qonunida diniy aqidalarda salbiy baholanadigan amallar. “Savob” - shariat qonunida, diniy aqidalarda ijobiy baholanadigan amallar[5.66] deb izohlangan. Oshiq shunday ishq sohibiki, hamma uni gunoh qilishda ayblayapti, ammo oshiq ishqdan shu darajada telba bo‘lganki, savob ish qanday bo‘lishiga javob topolmayapti. Shoir antonimlardan ustalik bilan foydalanganki, kitobxonni bir o‘qishda o‘ylantiradigan, fikrlashga undaydigan zid ma’noli leksik birliklardan foydalangan.

Qolib lol barcha ag‘yorlar, yurak bag‘riga cho‘g‘ tushdi,
Ularning **dardi**ga endi topilmas aslo **darmonlar. [4.23]**

Antonimlarning asosiy uslubiy vazifasi ularning antiteza hosil qilishda leksik vosita bo‘lishi hammamizga ma’lum. Shunday ekan yuqoridagi

misrada ham “dard” va “darmon” so‘zlari bu vazifani bajargan. Shoir kundalik ishlatiladigan “dardiga shifo” birikmasini boshqacharoq tarzda ya’ni shifo so‘zining sinonimi darmon so‘zini qo‘llash orqali ohangdoshlikni ham ta’minlab bergan.

Ishq birla kimki mashg‘ul, bir umr ko‘ngli yoshdur,

Uzoqdur **g‘am-alamdan**, **shodlik** unga yo‘ldoshdur. [4.24]

Shoir ushbu baytda hayotning past-u balandini ko‘rgan faylasuf sifatida gavdalanadi. G‘am-alam so‘zi bilan shodlik so‘zini qarama-qarshi qo‘llash orqali ma’noni kuchli tarzda ifodalagan. Oddiygina qilib, ishqqa to‘la ko‘ngil hamisha shod deyishi mumkin edi, ammo g‘am-alam va shodlik so‘zini yonma-yon qo‘llab badiiylikni, tasviriylikni kuchaytirib bergan. Zid ma’noli so‘zlar badiiy va publisistik uslublarda faol qo‘llaniladi. Lirikada zid ma’noli so‘zlardan foydalanish tazod san’atini hosil qilishini yaxshi bilamiz. Shuningdek, bu san’at mutobaqa, tatbiq, muttazod, takabu va ittizod deb ham ataladi.

“**Avvalgi**ning **mazo**sin, **so‘nggi** berar **jazo**sin!”

Unutmas bul hikmatni aslo joni nisoring.[4.32]

Bilamizki, so‘z turkumlari bo‘yicha antonimlar belgi bildiradigan so‘zlar doirasida, ayniqsa, sifat va ravishlar orasida ko‘p uchraydi. Yuqoridagi misrada ravishdan yasalgan (ravish+gi) sifat so‘zlari qarama-qarshi qo‘llangan va leksik antitezani hosil qilgan. Shu baytdagi “mazo” hamda “jazo” so‘zlari, aslida, bir-biriga qarama-qarshi qo‘llanilmaydi. Ammo shoirning badiiy mahorati, iste’dodi, va so‘zlardan mohirlik bilan foydalanishi natijasida kontekstual antonimlar hosil bo‘lgan. Shoirning antonimlardan mohirona foydalanishi natijasida asarning ifodalilik, ekspressivlik va ta’sirchanligi ta’minlangan.

Oshiq Erkin she’riyatga oshno qalb egasi edi. U Alisher Navoiy, Umar Hayyom, Jomiy va Rumiy asarlari bilan oziqlanadi, o‘z ijodini ularning g‘oyalari bilan sug‘oradi. Navoiyga hamohang bir g‘azalida ham, shunday tazod san’atidan foydalangan.

Ming o‘rgilib har lahza, erkam, so‘l-u sog‘ingdan,
Olmasam o‘lgunimcha **boshimni ayog‘ingdan.[4.**42]

Bu misradagi “bosh” va “oyoq” so‘zlari insonning tana a’zolari hisoblanishi hammamizga ma’lum. Bir qarashda ularni qarama-qarshi qo‘llab bo‘lmaydi. Ammo ularning joylashish o‘rniga nisbatan qarama-qarshi qo‘llash orqali shoir kontekstual antitezani hosil qilgan.

Oshiq Erkinning “Muhabbatdan to‘yganim yo‘q” nomli she’riy to‘plamida ham antitezaning go‘zal namunalarini uchratishimiz mumkin. “Qo‘shiq etib kuylarman” she’ridan misollar:

Qo‘shig‘imning alvon baytlari **quyosh** bo‘lib socharlar ziyo,

Tunlar bedor o‘ylarman, sanam, senga yoniq muhabbatimni. [3.16]

Shoir bu baytda ham “quyosh” va “tunlar” so‘zlari orqali kontekstual antonimiyani hosil qilgan. Bir qarashda Tun va kun so‘zlari antonimiya hosil qilishini yaxshi bialamiz. Ammo shoir an’anaviylikdan qochib, Kun leksemasi o‘rnida “quyosh” leksemasidan foydalangan. Bu asarning badiiy qiymatini yanada oshirishga xizmat qilgan. Yana shu she’rida “nur” va “oqshom” so‘zlarini qo‘llaganining guvohi bo‘lamiz.

Yuragimdan zarrin **nur** olib, charaqlagay so‘lim **oqshomla**r,

Dilga mangu joylarman, senga yoniq muhabbatimni. [3.16]

Baytni tahlil qilar ekanmiz, “nur” so‘zini kunduz ma’nosida, oqshom so‘zini tun ma’nosida izohlasak, kitobxonga yana ham tushunarliroq bo‘ladi.

Shoir asarlarida o‘rin-payt otlarini ham qarama-qarshi qo‘llash orqali antitezaning g‘ozal namunasini uchratishimiz mumkin. Masalan:

Juftini izlab ohu **sahro** kezar quyundek,

To‘qay yurarmiz bundoq - sen biryon-u men biryon. [3.21]

Oshiq Erkin o‘zining serqirra ijodi bilan tazod san’atining go‘zal namunalarini qo‘llagan. Yuqoridagi baytda ham “sahro”- Cho’l, dasht, biyobon ma’lolarini bildiradi. Unga teskari ma’noda “to‘qay”- qamish, changal va shu kabi o‘simliklar o‘sib yotadigan joy ma’nosida izohlanadi. Shoir shunday keng ma’noga ega so‘zlarni bir baytda mohirlik bilan mujassamlashtirgan.

Hijroningda kunba-kun-u oy sayin,
Gulim, sevib, yonganimni aytayin.
*Yer*ga sig‘may *ko‘k*da uchib yuribman,
Rozi ersang, quchog‘ingga qaytayin.
Saodatli muhabbatimsan mening,
Sadoqatli muhabbatimsan mening.[3.44.].

TAMADDUN NURI

Bu misralarda ham shoir yer va ko‘k (osmon) leksemalaridan foydalanib antonimlik hosil qilgan. Zid ma’noli so‘zlar orqli shoir o‘z ehtiroslarini, jo‘shqin muhabbatini va sof sevgisini kuylagan. Keyingi bir baytda yer-u ko‘k so‘zini qo‘llash orqali antiteza san’atini hosil qilmagan.

Yer-u ko‘kka sig‘may tarannum qilsam,
Shu go‘zal, deb olib uchqon jononim. [4.37]

Ushbu baytda “yer-u ko‘kka” so‘zlari qarama-qarshi ma’noni emas, “hech qayerga” degan ma’noni bildiradi. So‘zlar shakl jihatdan qarama-qarshi ko‘rinsa ham, semantik jihatdan har doim ham zid ma’noni anglatavermaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Oshiq Erkin she’riyatining betakror va orginalligi so‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlarida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. O‘ziga xos orginallik, Xorazm shevasiga xos, so‘z va iboralardan o‘rinli va mazmunli foydalanish, shoirning yuksak iste’dod egasi ekanligidan dalolat beradi. Shoir ijodidagi antonimiya, kontekstual antonimiya bularning barchasi ijodkorning mahoratini yanada oshirishga xizmat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Бегматов. Э. Ўзбек тилида антропонимика. Тошкент: Фан, 2013 – Б.7.

2.Каримов. С.А. Бадиий услуб ва тилнинг ифода-тасвир воситалари. − Самарканд, 1994. − Б.45.

3. Ошиқ Эркин. Муҳаббатдан тўйганим йўқ. Урганч. 2008. − Б.116.

4.Ошиқ Эркин. Ўлгунча сизни дерман. − Тошкент. 2007. − Б.318.

5.Рашид Ш. Ўзбек тилида антоним. Тошкент.1977. ─ Б.117.

6.Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. –Т. Ўқитувчи. 2019. –Б. –231.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 811.161.1

NOVERBAL KOMMUNIKATIV VOSITALAR TADQIQI

Yusupova Ziynat, UrDU tayanch doktoranti

ИССЛЕДОВАНИЕ СРЕДСТВ НЕВЕРБАЛЬНОЙ КОММУНИКАЦИИ

Юсупова Зийнат, докторант УрГУ

RESEARCH OF NONVERBAL COMMUNICATION MEANS

Yusupova Ziynat, PhD student, Urgench State University

yusupovaziynat@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy tilshunoslik, tarjimashunoslikdagi noverbal kommunikativ vositalar, ularning turlari va kommunikatsiya jarayonidagi ahamiyati tadqiqiga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlarga atroflicha to‘xtalingan, maqola muallifi tahlili keltirilgan xorijlik hamda mamlakatimiz olimlarining ishlariga o‘z munosabatini bildirgan.

Kalit sozlar. Noverbal kommunikativ vositalar, kasbiy etiket, milliy-madaniy nutq me‘yorlari, antropologik tadqiqotlar, psixologik tadqiqotlar, etnik tadqiqotlar.

Аннотация. В данной статье подробно излагаются научные исследования, посвященные изучению невербальных коммуникативных средств в современной лингвистике, переводоведении, их видов и значения в процессе общения, автор статьи выразил свою реакцию на работы зарубежных и отечественных ученых, анализ которых был представлен.

Ключевые слова. средства невербального общения, профессиональный этикет, нормы национально-культурной речи, антропологические исследования, психологические исследования, этнические исследования.

Annotation. This article analyzed scientific research devoted to the study of non-verbal communication means in modern linguistics, translation studies, their types and meaning in the process of communication; the author of the article expressed his reaction to the work of foreign and local scholars.

Key words. means of non-verbal communication, professional etiquette, norms of national-cultural speech, anthropological research, psychological research, ethnic studies.

KIRISH

Zamonaviy tilshunoslik va tarjimashunoslikdagi noverbal kommunikativ vositalar tadqiqi ilm-fanning ko‘plab boshqa sohalaridagi tadqiqot natijalariga tayanadi. Hatti-harakatlarning ekspressiv va kommunikativ potensiali ko‘pgina akademik fan sohalarining qiziqish markazida bo‘lishi ajablanarli emas, masalan, psixologiya, sog‘liqni saqlash sohalari, shu jumladan tibbiyot ham, tilshunoslik, antropologiya, sotsiologiya, insonning jismoniy ishlashi va dam olishi, media tadqiqotlari va aloqa, ijro etish, san’at, madaniyat va etnik tadqiqotlar, gender va jinsiy tadqiqotlar, kompyuter texnologiyalariga oid fanlar,

ta'lim va boshqalar. Bundan tashqari, raqs harakati terapiyasi, tana psixoterapiyasi yoki neyroreabilitatsiya kabi ko'plab terapiya shakllari terapevtik vosita sifatida tana harakatidan foydalanadi. Biroq, quyida aytib o'tilganidek, tana harakatiga qiziqish va uning kognitiv, hissiy va interaktiv jarayonlar bilan aloqasi yaqinda paydo bo'lgan hodisa emas, balki tarixan uzoq davom etgan an'anaga ega. Quyida bu borada qilingan ishlarga atroflicha to'xtalamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Kolin Cherri, kognitiv olim va elektron muhandis, o'zining "*On Human Communication"*[1](Inson bilan muloqotda) kitobida axborot nazariyasi va kibernetikaning ma'noga taalluqli ilmiy va matematik yo'naltirilgan tahlili, shu jumladan aloqaning mantiqiy tahlilining falsafiy va amaliy oqibatlarini ko'rib chiqadi.

Jurnalistika sohasi vakillari Edvin Emiri, P.H.Ault va V.K.Agi tomonidan chop qilingan "*Introduction to Mass Communication"*[2](Ommaviy muloqotga kirish) nomli kitobida esa ommaviy muloqot turining zamonaviy jamiyatda, ayniqsa AQSh matbuoti, radiosi, televideniesi va filmlarining keng qamrovli tarixi haqida batafsil hikoya qilinadi. Tilshunos olim G.N.Gordonning "*Communication and media"*[3](Kommunikasiya va media) nomli kitobi ommaviy va shaxslararo muloqotning asosiy elementlarini, shu jumladan ularning hozirgi madaniy hayotdagi ahamiyatini batafsil o'rganishga bag'ishlangan bo'lsa, uning "*Persuasion Theory and Practice of Manipulative Communication"*[4] (Ishontirish: Manipulyativ aloqa nazariyasi va amaliyoti) asarida targ'ibot, ta'lim va ommaviy kommunikatsiya vositalari orqali e'tiqodlar, munosabatlar va fikr bildirish va o'zgartirishni o'rganish kabi muammolar muhokamaga tortilgan. E.T.Holning "*The Hidden dimension"* [5] (Yashirin o'lchov) nomli ilmiy izlanishlari empirik dalillar, chizmalar va fotosuratlar bilan tasvirlangan "proksemika" va hamroh unsurlar kabi noan'anaviy xususiyatlarga bag'ishlagan. Britaniyalik matematik, mantiqshunos, faylasuf A.N.Vaythed [6], simvolizmning kelib chiqishi, qo'llanilishi va klassifikasiyasini shaxs va tarixiy-ijtimoiy nuqtai nazaridan qisqa va aniq tushuntirib bergan. Mashhur psixolog A.Piz muloqotning asosiy imo-ishoralari va ularning kelib chiqishi haqida o'z fikrlarini bayon qilgan. O'zbek tilshunosi A.Nurmonov noverbal vositalarning turlari, ularning kommunikatsiya jarayonidagi ahamiyatini tahlilga tortadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqola oldiga qo'yilgan muammolar yechimiga javob topish uchun tilshunos olimlarning bu boradagi tadqiqotlari va tahlili diqqat markazimizda bo'ldi. Ushbu tahlillarga o'zimizning ilmiy munosabatimizni bildirish uchun noverbal kommunikativ vositalar tadqiqini qiyosiy-tarixiy jihatdan o'rgandik va o'z xulosamizni misollar orqali isbotlashga harakat qildik.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Tilshunos olim G.N.Gordonning "*Communication and media"*[7] (Kommunikasiya va media) nomli kitobi ommaviy va shaxslararo muloqotning asosiy elementlarini, shu jumladan ularning hozirgi madaniy hayotdagi ahamiyatini batafsil o'rganishga bag'ishlangan bo'lsa, uning "*Persuasion Theory and Practice of Manipulative Communication"*[8] (Ishontirish: Manipulyativ aloqa nazariyasi va amaliyoti) asarida targ'ibot, ta'lim va ommaviy kommunikatsiya vositalari orqali e'tiqodlar, munosabatlar va fikr bildirish va o'zgartirishni o'rganish kabi muammolar muhokamaga tortilgan. Ushbu tadqiqot ishlari maqola, tezis, referat shaklida bo'lib masalaning eng muhim tadqiqot talab jihatlarini sanab o'tish bilan kifoyalangan.

Noverbal kommunikativ vositalar antropologik va psixologik tadqiqotlarda ham o'z

[1] Colin Cherry On Human Communication A REVIEW, A SURVEY, AND A CRITICISM, 1956, 217p.
[2] W. K. Agee, P. H. Ault, E. Emery, Introduction to Mass Communication, Harper Collins College Publishers, 1994, P.15
[3] Gordon, George N. Communications & Media: Constructing a Cross-Discipline. New York: Hastings House, 1975, 29 p.
[4] George N. Gordon Persuasion Theory and Practice of Manipulative Communication, Hastings House Publishers, 1971, 4p.
[5] Hall E.T.THE HIDDEN DIMENSION, Garden City, N.Y.: Doubleday, 1966, 41p.
[6]. Whitehead A. N. Symbolism, Its Meaning and Effect. New York: Macmillan Co. 1927
[7] Gordon, George N. Communications & Media: Constructing a Cross-Discipline. New York: Hastings House, 1975, 29 p.
[8] George N. Gordon Persuasion Theory and Practice of Manipulative Communication, Hastings House Publishers, 1971, 4p.

aksini topgan. Xususan, umumiy kitobxon tushinishi uchun oson uslub va hazil tariqasida yozilgan E.T.Holning "*The Hidden dimension"* [9] (Yashirin o'lchov) nomli ilmiy izlanishlari empirik dalillar, chizmalar va fotosuratlar bilan tasvirlangan "proksemika" va hamroh unsurlar kabi noan'anaviy xususiyatlarga bag'ishlagan. Bundan tashqari, F.V.Matson va Ashli Montagu, "*The Human Dialogue; Perspectives on Communication"* [10] (Inson dialogi; muloqot maqsadi) risolasida bu nutqiy komponentlar zamonaviy jamiyatdagi muloqotning deyarli barcha sohalariga, jumladan, ta'lim, din va ijtimoiy muammolarga taalluqli ekanligi haqida fikr bildirgan. Noverbal vositalarning kasbiy etiket va milliy-madaniy nutq me'yorlarining ajralmas qismi ekanligi haqidagi qarashlar deyarli barcha sohaga oid tadqiqotlarda o'z aksini topgan.

Noverbal kommunikativ vositalarning milliy madaniy ramziy xususiyatlari, ishora va shovqin turlariga ajratish mumkinligi to'g'risidagi fikrlar ayrim tadqiqotlarda kuzatiladi. Jumladan, Amerikalik muxandis va ilmiy fantastik asarlar muallifi J.R.Pirsning "*Symbols, Signals and Noise"* [11] (Ramz, ishora va shovqin) nomli asarida aloqa jarayonlari, axborot nazariyasi, kibernetika, aloqaning matematik modellari, entropiya, kodlash usullari va unga aloqador masalalarni o'rganish bo'yicha nomutaxassislar uchun mo'ljallangan qo'llanmasi; A.G.Smit "*Communication and culture"* [12] (Muloqot va madaniyat) nomli tadqiqotida aloqa nazariyasi va amaliyotiga ixtisoslashgan yondashuvlarning keng qamrovli antologiyasi, shuningdek, til, noverbal muloqot, ommaviy aloqa va mavzuning boshqa jihatlari bo'yicha ko'plab maqolalarida, turli sohalarga xos bo'lgan muayyan vositalarning dominantligi borasidagi fikrlari bayon qilingan.

Britaniyalik matematik, mantiqshunos, faylasuf A.N.Vaythed [13], simvolizmning kelib chiqishi, qo'llanilishi va klassifikasiyasini shaxs va tarixiy-ijtimoiy nuqtai nazaridan qisqa va aniq tushuntirib bergan. Ko'rib turganimizdek, noverbal kommunikativ vositalar simvol, signal va shovqinga oid nazariy qarashlar bilan tushuntirishga harakat qilingan. Bir vaqtning o'zida tilga bog'liq, lekin tilshunoslikning asosiy sohalaridan farq qiluvchi, har bir til va shu tilda muloqot qiluvchi xalqning o'zigagina xos bo'lgan aloqa vositalari tizimidir. Tadqiqotlarda ushbu vositalarni ramz, imo, ishora, shovqin, ovoz, tovush, belgi, hatti-harakat sifatida atab ularning muloqot mazmuniga ta'siri haqidagi bir qancha nazariyalar e'tiborga molikdir.

Shunisi e'tiborga loyiqki, ko'plab tadqiqotlar o'tkazilganiga qaramay, tana harakati va uning kognitiv, hissiy va interaktiv jarayonlar bilan aloqasi haqida umumiy empirik bilimlar to'plami hali ham rivojlanmagan. Buning sabablaridan biri hozirda mavjud bo'lgan o'quv fanlari o'rtasidagi ilmiy muloqotning kamligi va tarixan oldingi tadqiqot davrlaridagi mavjud bilimlarning bizgacha yetib kelmaganligidir. Shu qatorda, hatti-harakat bo'yicha fanlararo diskursda terminologiya va metodologiyadagi farqlar nutq muloqoti tadqiqi uchun tegishli to'siqlardir[14]. (Muallif tarjimasi)

Mashhur psixolog A.Piz muloqotning asosiy imo-ishoralari va ularning kelib chiqishi haqida o'z fikrlarini bayon qilgan. Bunga ko'ra, butun dunyoda asosiy muloqot imo-ishoralari bir-biridan farq qilmaydi. Odamlar xursand bo'lganda tabassum qiladilar, g'amgin bo'lsalar qoshlarini chimiradilar, g'azablansalar g'azabnok ko'z qarash qiladi [15]. (Muallif tarjimasi) Ammo yuqorida tilga olingan imo-ishoralar muloqot jarayonida hamma vaqt ham barchaga birdek ma'lum bo'lgan shakl va holatlarda namoyon bo'lmasligi mumkin. Bu noverbal kommunikativ vositalar so'zlovchimimg shaxsiy temperamenti, xarakteri va tinglovchiga bo'lgan munosabati asosida yuzaga keladi. Ushbu individual xususiyatlar milliy-madaniy qarashlarga har doyim ham bog'liq bo'lmaydi. Bu insonning shaxsiy hissiy,

[9] Hall E.T.THE HIDDEN DIMENSION, Garden City, N.Y.: Doubleday, 1966, 41p.
[10] Ashley Matson, Floyd W. And Montagu The Human Dialogue; Perspectives on Communication , Free Press, 1967
[11] Pierce J.R. Symbols, Signals and Noise; The Nature and Process of communication, Harper & Brothers (January 1, 1961)
[12] Smith A,G. (ed.), Communication and Culture Holt, Rinehart and Winston, January 1, 1966
[13]. Whitehead A. N. Symbolism, Its Meaning and Effect. New York: Macmillan Co. 1927
[14] Hedda Lausberg (ed.)Understanding Body Movement, Berlin 2013, pp 1
[15] Pease A,Body Language: How to Read Others' Thoughts by Their Gestures, Sheldon Press; 3rd edition (18 September 1997)

axloqiy, nutqiy, ruhiy holatini to‘liq qamrab olgan munosabat va uning ifoda shaklidir.

Insonlarning ma‘lum bir sharoitlarda muayyan noverbal kommunikativ vositalarni ishlatishi bo‘yicha aniq yo‘riqnoma ishlab chiqilmagan. Chunki qanday noverbal kommunikativ vositalarni qo‘llash har bir insonning o‘zigagina xos bo‘lgan qobiliyati hisoblanadi. Amerikalik psixologlar M.Sukerman, D.DePaulo va R.Rozentalning fikriga ko‘ra, odamlar aldayotganlarida ko‘pincha bir nechta hatti-harakatlarni namoyon qilarkan:

suhbat paytida ko‘z qarashini yashirish;

suhbatda jarayonidagi o‘rinsiz to‘xtamlar qilishi;

ovozini balandlatish;

so‘zlarning ataylab talaffuz va artikulyatsiyasini tanlash;

savolga javob berish vaqtini kechiktirish;

tana hatti-harakati va holatining keskin o‘zgarishi;

tabassumning kamayishi;

nutq tezligining pasayishi[16].(Muallif tarjimasi)

Biz ko‘pincha jismoniy xususiyatlar asosida insonning shaxsiyati yoki hatti-harakati haqida hukm chiqaramiz va tadqiqotchilar bunday tez chiqarilgan hukmlar ko‘pincha noto‘g‘ri ekanligini e’tirof etishadi [17] . (Muallif tarjimasi) Albatta hatti-harakatlar inson xarakterini namoyon qiluvchi omil hisoblanadi, lekin bu har doim ham muloqot jarayonida so‘zlovchining salbiy, ijobiy yoxud betaraf ma’nolaridan qaysi biri nazarda tutilganligini tinglovchi tushunmasligi mumkin. Masalan, tinglovchi nuqtai nazarida ijobiy shaxs deb hisoblagan insoni salbiy fikr imo-ishoralarini suhbat jarayonida namoyon qiladi. Bu kuzatuvchan tinglovchi ongida tushunmovchilikni yuzaga keltiradi. Demak, insonlar muloqotida biron bir shaxs to‘g‘risida aniq to‘xtamga kelishdan oldin uning verbal va noverbal hatti- harakatlarini kuzatish zarur bo‘ladi.

Tilshunoslik tadqiqotlarida kinemik vositalar bilan bir qatorda prosodik vositalar noverbal kommunikatsiya vositalar turi sifatida e’tirof etilgan. O‘zbek tilshunosi D.A.Abduazizova qiyosiy tilshunoslikka oid tadqiqotida quyidagi fikrlarni bildirgan: “Parafonetik vositalarni tipologik o‘rganishda turli xil nutq mexanizmlari bilan halqum alohida ahamiyatga ega bo‘lib, bu laringalizatsiya kabi hodisalarni aniqlashga imkon beradi. Faringealizatsiya, velarizatsiya, aspiratsiya. preaspiratsiya va glottalizatsiya, halqumning holati segmentar va supersegmental xususiyatlarni aniqlash imkonini beradi, bu parafonetik vositalar uchun ham juda muhimdir. Ingliz va rus tillarida orqa halqum va faringeal undoshlar yo‘qligi sababli hiqildoq funksiyasi juda cheklangan bo‘lsa, o‘zbek tilida /q,x / va faringeal /h/ kabi orqa glottallashgan fonemalar borligi sababli halqumning boy funksiyasi bilan ajralib turadi.”[18] Segmantal va supersegmantal xususiyatlar deganda olim so‘zlarda tovush, urg‘u bo‘g‘inning qisqa yoki cho‘zib talaffuz qilinishi, ohangning turli yo‘sinda o‘zgarishini nutqning artikulyatsion holati bilan bog‘liq holda tushuntirishga harakat qilgan. Demak, muayyan mazmundagi nutq holati uchun tovush hosil qiluvchi organlar o‘ziga xos, tartibli harakat qiladi. Bu prosodiyaning fonetik asosidir.

Bu borada rus tilshunosi E.D.Polivanov “so‘zlarning ma‘nosi turli xil tovush o‘zgarishlari bilan to‘ldiriladi, ular asosan ovoz ohangini shu jumladan imo-ishoralarni ham o‘z ichiga oladi (bundan tashqari, nutq tempi, nutq hosil qiluvchi artikulyasion organlarning alohida o‘ziga xos tusdagi harakati, masalan, ularning sust yoki shiddatli faoliyati va boshqalar). Nutq jarayonining ushbu jihatlarini til haqidagi fanga ya‘ni tilshunoslikka aloqasi yo‘q, deb o‘ylamaslik kerak. Albatta, bu faktlarni hisobga olish tilshunoslikning maxsus mustaqil bo‘limiga xos bo‘lib, bu o‘z navbatida tilshunoslikning alohida bir sohasi sifatida ohangdorlik, imo-ishora va shu kabi nutqning boshqa tarkibiy qismlariga oid nutqning dramatik san’at nazariyasi bilan uzviy bog‘liqdir”[19] degan o‘rinli fikrlarni bildirgan. Noverbal yoki nolisoniy kommunikativ vositalar og‘zaki muloqotning ajralmas qismi bo‘lib, odatda ular inson nutqini

[16] Zuckerman M., DePaulo & Rosenthal R. (1981). Verbal and nonverbal communication of deception. Advances in Experimental Social Psychology, 14, 1–59.

[17] Wells W., Siegel, B. (1961). Stereotypes somatypes. Psychological Reports, 8, 77–78.,Cash, T., & Kilcullen, R. (1985).

[18] Абдуазизова Д. А. ‘Сравнительно-типологический анализ паралингвистических средств (на материале английской, узбекской и русской вербальной и невербальной коммуникации)’ 1997. Автореферат, 19 бет

[19] Поливанов Е.Д. По поводу «звуковых жестов» японского языка. – В кн.: Статьи по общему языкознанию. М., 1968, с. 296.

mazmunan boyitadi va inson aytishni istagan lekin, so‘z bilan ifodalashi qiyin bo‘lgan his-tuyg‘u va munosabatini to‘liq holda ifodalashga xizmat qiladi. Og‘zaki bo‘lmagan muloqot, emotsional intonatsiya, yordamchi til, ishora tili, eksternal (tashqi) ma‘no, emotsional kinema, ekstralingvistik faktor kabi nomlar bilan ifodalanmoqda[20]. Demak, noverbal kommunikativ vositalar nutqning bevosita hamroh komponentlari bo‘lib, ularning taksonomiyasi borasidagi fikrlar turlichadir. Ohang agglyutinativ tillar tizimida kuchli qudratga ega. Suhbat jarayonida tilning morfologik sistemasida leksik ma‘noga ega bo‘lmagan so‘z turkumlari ham ohang yordamida muloqot mazmunini belgilovchi omilga aylanishi mumkin. Bunga misol sifatida, o‘zbek tilidagi quyidagi jumlani misol sifatida keltirish mumkin:

-*Ufff....*

- *Nega uflaysan, buncha noshukur bo‘lma!*

Ushbu jumlada so‘zlovchining tashvishli, ishi yurishmagan, chorasizlik, uni noto‘g‘ri tushunayotganliklarini ifodalovchi prosodik vosita shaklidagi *uf* xitob so‘zi suhbatdosh tomonidan qilingan murojaatda leksik ma‘noga ega bo‘lib, ushbu kontekstda noshukurlik deb tushunilgan. Demak, prosodik vositalar nutqning to‘ldiruvchi komponentlari bo‘lib so‘z bilan ifodalash qiyin yoki noqulay bo‘lgan holatda yordamchi vosita sifatida qo‘llaniladi. Ma‘lumki, noverbal kommunikativ vositalar inson ichki hissiy holatining tashqi ifodasidir.[21] Chunki insonlar muloqot jarayonida boshqa bir ishtirokchiga hech qanday so‘z ishlatmasdan ham o‘zida kechayotgan yashirin his-tuyg‘ularini namoyon qilishi yoki sodir bo‘layotgan voqea-xodisalarga shu yo‘sinda munosabat bildirishi mumkin. Aytilgan yoki qilingan ishni insonga qanday ta‘sir qilayotganini ham imo-ishoralar, tana harakatlari, yurish-turishiga qarab aniqlasa bo‘ladi.

O‘zbek tilshunosi A.Nurmonov noverbal vositalarning turlari, ularning kommunikatsiya jarayonidagi ahamiyatini tahlilga tortadi. U fikr ifodalashda tilga yondosh bo‘lgan, funksional jihatdan uni kompensatsiya qiluvchi yoki kuzatib boruvchi paralingvistik vositalar haqida to‘xtalib, aloqa-aralashuvda ahamiyatli bo‘lgan ovozning sifatiy, miqdoriy xususiyatlari, shuningdek, imo-ishoralar tilshunoslikning o‘rganish obyekti bo‘lishi darkorligini ta’kidlab o‘tadi.[22] Darhaqiqat, noverbal kommunikativ vositalar tadqiqi bu sohadagi tushunmovchiliklarga va aloqa-aralashuvning sifatli bo‘lishiga zamin yaratadi. Ushbu tadqiqotlar ma’lum ma’noda tarjimashunoslikka xizmat qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, noverbal vositalarning so‘zdagi ifodasi paralingvistik, neyrolingvistik, pragmalingvistik, psixolingvistik talqiniga asoslansa bu o‘z navbatida matnning ham sifati va ishonchliligini ta’minlaydi.

XULOSA

Noberbal muloqot, tana tili, imo-ishoralar, qanday kiyinishimiz yoki harakat qilishimiz, qayerda turganimiz shuningdek, ayrim olimlar nuqtai nazarida hidimizni ham qamrab oladi. Hattoki boshqalar bilan beixtiyor muloqot qilishning ham ko‘plab nozik usullari mavjudligi psixologiyada tasdiqlangan. Misol uchun, ovoz ohangi kayfiyat yoki hissiy holatga ishora qilishi, qo‘l harakatlari yoki imo-ishoralar esa muloqot xabariga qo‘'shimcha ma’no kasb etishi mumkin. Ayrim tadqiqotlarda olimlar, vizualizatsiya – grafiklar va diagrammalar, xaritalar, logotiplar va boshqa ko`z bilan ilg‘asa bo‘ladigan imo-ishoralar orqali yetkaziladigan xabarlar bilan muloqot qilishlari mumkinligini ko‘rsatadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Colin Cherry On Human Communication A review, a survey, and a criticism, 1956, 217p.
2. W. K. Agee, P. H. Ault, E. Emery, Introduction to Mass Communication, Harper Collins College Publishers, 1994, P.15
3. Gordon, George N. Communications & Media: Constructing a Cross-Discipline. New York: Hastings House, 1975, 29 p.
4. George N. Gordon Persuasion Theory and Practice of Manipulative Communi-cation, Hastings House Publishers, 1971, 4p.
5. Hall E.T. The Hidden Dimension, Garden City, N.Y.: Doubleday, 1966, 41p.
6. Whitehead A. N. Symbolism, Its Meaning and Effect. New York: Macmillan Co. 1927

[20] Yusupova Z. Jahon tilshunosligida verbal va noverbal muloqot vositalarining tadqiqi muammolari, Xorijiy filologiya: til, adabiyot, ta’lim. №1 (86), 2023, 80-b

[21] Дмитриева Ю. В. “Невербальная семиотика я ее отражение лексико-фразеологическими средствами языка (на материале английского, немецкого и русского языков), Автореферат дисс. ученой степени кандидата филологических наук, 2013,10-11p

[22] Nurmonov A. Tanlangan asarlar (Selected works), Tashkent: Akademnashr, 2012, Vol. 1, 416 p.

7. Gordon, George N. Communications & Media: Constructing a Cross-Discipline. New York: Hastings House, 1975, 29 p.
8. George N. Gordon Persuasion Theory and Practice of Manipulative Communication, Hastings House Publishers, 1971, 4p.
9. Hall E.T. The Hidden Dimension, Garden City, N.Y.: Doubleday, 1966, 41p.
10. Ashley Matson, Floyd W. And Montagu The Human Dialogue; Perspectives on Communication, Free Press, 1967
11. Pierce J.R. Symbols, Signals and Noise; The Nature and Process of communi-cation, Harper & Brothers (January 1, 1961)
12. Smith A,G. (ed.), Communication and Culture Holt, Rinehart and Winston, January 1, 1966
13. Whitehead A. N. Symbolism, Its Meaning and Effect. New York: Macmillan Co. 1927
14. Hedda Lausberg (ed.) Understanding Body Movement, Berlin 2013, pp 1
15. Pease A,Body Language: How to Read Others' Thoughts by Their Gestures, Sheldon Press; 3rd edition (18 September 1997)
16. Zuckerman M., DePaulo & Rosenthal R. (1981). Verbal and nonverbal com-munication of deception. Advances in Experimental Social Psychology, 14, 1–59.
17. Wells W., Siegel, B. (1961). Stereotypes somatypes. Psychological Reports, 8, 77–78.,Cash, T., & Kilcullen, R. (1985).
18. Абдуазизова Д. А. ‘Сравнительно-типологический анализ паралингвис-тических средств (на материале английской, узбекской и русской вербальной и невербальной коммуникации)’ 1997. Автореферат, 19-бет
19. Поливанов Е.Д. По поводу «звуковых жестов» японского языка. – В кн.: Статьи по общему языкознанию. М., 1968, с. 296.
20. Yusupova Z. Jahon tilshunosligida verbal va noverbal muloqot vositalarining tadqiqi muammolari, Xorijiy filologiya: til, adabiyot, ta’lim. №1 (86), 2023, 80-b.
21. Дмитриева Ю. В. “Невербальная семиотика я ее отражение лексико-фразеологическими средствами языка (на материале английского, немецкого и русского языков), Автореферат дисс. ученой степени кандидата филологических наук, 2013,10-11p
22. Nurmonov A. Tanlangan asarlar (Selected works), Tashkent: Akademnashr, 2012, Vol. 1, 416 p.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UO'K: 202.312

ZAMONAVIY DUNYODA MA'NAVIY-MADANIY DEFORMATSIYALASHUVNI YUZAGA KELTIRUVCHI OMILLAR

[1]***Ulug'bek Tashmurotovich Yazdonov,***
Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti, falsafa fanlar doktori, professor
[2]***Sayidova Muhabbat G'afforovna,***
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti katta o'qituvchisi

ulugbek.dsc@gmail.com
https://orcid.org/0000-0001-9708-202X

FACTORS CAUSING SPIRITUAL-CULTURAL DEFORMATION IN THE MODERN WORLD

[1]***Ulug'bek Tashmurotovich Yazdonov,***
Samarkand Agroinnovation and Researchs University, Doctor of Philosophy, Professor
[2]***Sayidova Mukhabbat Gaforovna,***
senior lecturer of the Navoi State Mining and Technological University

jayronmalika@mail.ru
https://orcid.org/0009-0008-2498-5533

ФАКТОРЫ, ПРОВОЦИРУЮЩИЕ ДУХОВНО-КУЛЬТУРНУЮ ДЕФОРМАЦИЮ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ

[1]***Яздонов Улугбек Ташмуратович***
Самаркандский институт агроинноваций и исследований, доктор философских наук, профессор
[2]***Сайидова Мухаббат Гаффоровна,***
старший преподаватель Навоийского государственного горно-технологического университета

Annotatsiya: *Ushbu maqolada milliy ma'naviy qadriyatlarga qaratilgan global tahdidlar, ularni namoyon bo'lish xususiyatlari, harakatlanish mexanizmlari ko'rib chiqilib, moddiy-ma'naviy merosni saqlab qolish, urf-odatlarni keyingi avlodga yetkazish imkoniyatlari ijtimoiy-falsafiy tahlil etiladi.*

Kalit so'zlar: *ma'naviy-madaniy qadriyatlar, deformatsiyalashuv, milliy o'zlikni saqlash zarurati, mehnat migratsiyasi, ma'naviy portlash, globalizatsiya.*

Abstract: *In this article, the global threats to national spiritual values, their manifestation characteristics, and movement mechanisms are considered, and the possibilities of preserving the material and spiritual heritage and passing on traditions to the next generation are analyzed socio-philosophically.*

Key words: *spiritual and cultural values, deformation, need to preserve national identity, labor migration, spiritual explosion, globalization.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются глобальные угрозы, направленные на национальные духовные ценности, особенности их проявления, механизмы действия, проводится социально-философский анализ возможностей сохранения материально-духовного наследия, передачи традиций следующему поколению.*

Ключевые слова: *духовные и культурные ценности, деформация, необходимость сохранения национальной идентичности, трудовая миграция, духовный взрыв, глобализация.*

Kirish. XXI asr insoniyat tarixida o‘zining beqarorligi, ming yillar davomida shakllanib kelayotgan milliy-madaniy, ma’naviy qadriyatlarni yemiruvchi davr sifatida chuqur iz qoldirmoqda. Albatta, unga faqat salbiy baho berish ham adolatdan bo‘lmaydi. Chunki, texnika va texnologiyalarning misli ko‘rilmagan darajada rivojlanib borayotganligini aynan shu davrga bog‘lash mumkin. Xususan, qo‘l mehnatiga asoslangan inson omilining chekinishi, uning o‘rniga muqobil variant shaklida kompyuter texnologiyalarining kirib kelishi, ijtimoiy-iqtisodiyot, ishlab chiqarish sohalarini raqamlashishtirish tendensiyasining avj olishi, internet, sun’iy intellekt orqali insonlar o‘rtasidagi ijtimoiy muloqot maydonining kengayishi, sog‘liqni saqlash, ta’lim va xizmat ko‘rsatish yo‘nalishlarida yuz bergan “ma’naviy portlash” jarayoni – xalqlar, millatlar o‘rtasidagi funksional integratsiyalashuvni tezlatib, “bir makon, bir zamon” konsepsiyasining shakllanishiga olib keldi. Bir so‘z bilan aytganda “globallashuv jarayonlari endilikda o‘zaro hamkorlik tamoyillariga tayanish orqali taraqqiyot va rivojlanishning g‘oyat muhim va hal qiluvchi mezonlaridan biri ekanini integratsiya eslatdi”[1]. Ammo bu davrga mos ravishda shaxs ongi va qalbiga, tafakkur tarziga axborot iste’moli orqali ta’sir etuvchi mexanik vositalar ham paydo bo‘ldiki, ularni milliy mentalitetga o‘tkazayotgan tahdidlarini o‘rganish, unga qarshi jamoatchilik fikrida mafkuraviy immunitetni shakllantirish zarurati o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Shaxs o‘zligini saqlab qolish, uning ma’naviy xavfsizligini ta’minlash, bu borada olib boriladigan ishlarni turkumlashtirish, xususan aksiologik, madaniy, sivilizatsiyaviy, tizimli va antropologik yondashuvlarga ko‘proq urg‘u berish zarurati ta’kidlanib kelinmoqda[4]. Global muammolar ustida olib borilayotgan tadqiqotlarning effektivligi nega qoniqarsiz bo‘lib qolmoqda?! Savolga javobini tabiiy uyg‘unlikda ko‘rgan olimlar, inson va tabiat aloqalarida ma’naviyatning roliga obyekt sifatida qaragan olimlar, “ma’naviyat-tabiat-turizm” o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni yanada chuqurroq o‘rganishga harakat qilib kelmoqda[5]. Sivilizatsiyalar taqdiri kuch hokimiyat yoki iqtisodiy qudratga emas, aksincha madaniy, ma’naviy muhitni saqlab qolish, ular o‘rtasidagi umumiy muvozanatini ta’minlashda ko‘rinib, u orqali siyosatga, xalqaro aloqalarga hamda davlatlararo munosabatga pozitiv ta’sir etish yo‘llarini Sharq va G‘arb qarashlarida ilgari surilayotgan konsepsiyalar misolida ko‘rib chiqilmoqda[6]. Millat qiyofasini shakllantiruvchi kuchli omillardan biri ma’naviy-madaniy qadriyatlar bo‘lsa, ularni din aqidaga bog‘liqligi, shaxs ongiga ta’sirini yanada mustahkamlaydi. Chunki, dinning asosiy belgilari axloqiy me’yorlarda belgilanib, bu millatning milliy xarakteri va axloqiy tabiati shakllanishini teologik xususiyatlari ko‘rib chiqilmoqda[7].

Tadqiqot metodologiyasi. Qadriyatlar deformatsiyalashuvini yuzaga keltiruvchi omillar, ularning milliy o‘zlikka, millat genofondini saqlab qolishdagi xavfi, harakatlanish lokatsiyasi, ta’sir etish mexanizmi hamda namoyon bo‘lish xususiyatlari o‘rtasidagi integratsion aloqadorlik dinamikasi sistematik klassifikatsiya qilinib, olingan natijalar statistikasi mantiqiy izchillikda analiz va sintez metodi ko‘magida tahlil etilib, muammoni keltirib chiqaruvchi obyektiv va subyektiv sabablar ta’sir kuchi aniqlashtirildi.

Muhokama va natijalar. Bugungi kunda barcha katta va kichik (rivojlangan, rivojlanish yo‘lidan borayotgan va rivojlanmagan) davlatlar uchun umumiy muammolar ko‘lami aniqlashtirilib, ularga qarshi kurash strategiyasini yaratish ustida umummilliy harakat kechmoqda. Xususan, ekologik inqiroz oqibatlarini yengillashtirish, milliy chegaraviy birlikni saqlab qolish mexanizmini ishlab chiqish, kiber xavfsizlikni ta’minlash, millat genofondini, o‘zligini, tarixiy taraqqiyot davrida shakllanib kelgan qadriyatlarini keyingi avlodga yetkazish, oziq-ovqat xavfsizligi va boshqa masalalar shular jumlasiga kiradi.

Biz ushbu tadqiqotda millat va qadriyatlar o‘rtasida uzviy ko‘prik vazifasini bajaruvchi muhim richaglarning bugungi va yaqin kelajakda kutilayotgan holati borasida mulohaza yuritamiz.

Zamonaviy jamiyatning o‘ziga xosligi shundaki, unda umumiy integratsiyalashuv yuzaga kelib, tashqi siyosat, ichki iqtisodiy ta’minot, shaxs ongida yuzaga kelgan modernizatsiyalashuv o‘rtasida “umumiylikka bo‘lgan moyillik”ni kuchayishi kuzatiladi. Buning natijasida rivojlangan davlatlarda “global gegemonlik” kayfiyati oshadi. Shunga mos ravishda yosh mustaqiy davlatlar iqtisodiy richagida uzilishlar paydo bo‘lib,

jamiyatning ichki hayotida real ijtimoiy-iqtisodiy turg‘unlik boshlanadi. Bu holat vaqt o‘tishi bilan jamiyatning barcha bug‘inida (sohalarida) ko‘rina boshlaydi. Masalan, “iqtisodiy qaramlik” orqali turmush tarzimiz, dunyoqarashimiz, davlat siyosatiga bo‘lgan munosabatimiz, qadriyatlarga, milliy o‘zligimizga sodiqligimizda jiddiy transformatsiya kechib, u oxir oqibat butun hayotimizni o‘zgartiradi. Garchi ming yilliklarga teng o‘tmishga ega xalq bo‘lsakda, global integratsiyaga bo‘lgan moyillik bizni ma’naviy-madaniy deformatsiyaga qarab borishga majbur etmoqda. Ushbu fikrni “mehnat migratsiyasi” va u orqali tanazzulga yuz tutayotgan ona tilimizga bo‘lgan pessimistik munosabat kontekstida ko‘rsatishga harakat qilamiz.

Mehnat migratsiyasi. Bu tushunchani mulohaza qilganimizda odatda o‘zga yurtlarga iqtisodiy daromad topish uchun ishga ketgan insonlar jamoasi ko‘z o‘ngimizga keladi. Chunki, lug‘aviy ma’nosiga ko‘ra ***mehnat migratsiyasi*** – inson o‘zi, farzandlari uchun o‘ziga munosib, xavfsiz va tinch hayotga intilishi tufayli o‘z vatanidan ko‘chib chiqib ketishini anglatadi[10]. Ushbu fenomenga huquqiy yondashuvni ilgari surgan S.D.Djoldosovaning qayd etishicha *mehnat migranti* – O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi va mamlakatda doimiy yashovchi fuqaroligi bo‘lmagan shaxs, 18 yoshga to‘lgan, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga hamda ishga joylashish davlati hududi qonunchiligiga muvofiq bo‘lib turgan va pullik mehnat faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxsdir[8]. Falsafiy yondashuvda qaraydigan bo‘lsak, bu ijtimoiy kategoriyaning alohidalikdan xususiylikka o‘tishi orqali umumiylik kasb etishini ko‘ramiz. Ya’ni mehnat taqsimotiga ko‘ra nomutanosib joylashgan mehnat resurslariga bo‘lgan tabiiy ehtiyoj tufayli inson harakatining tartibsiz kechishi va oxir oqibat umumiy tartibga kelishini ifodalovchi “ishchi kuchi” – *mehnat migratsiyasi* deyiladi.

Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) mehnat migratsiyasining real vaqt birligida namoyon bo‘lish xususiyatlarini inobatga olgan holda quyidagi besh turini ajratib ko‘rsatadi:

Birinchisi, doimiy yashash uchun boshqa davlatga ko‘chib o‘tadigan shaxslar − migrantlar hisoblanadi. Qoidaga ko‘ra, bu turdagi mehnat migrantlari iqtisodiyoti rivojlangan va turmush darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlarga yo‘naltirilgan.

Ikkinchisi, bir mamlakat hududida aniq muddat davomida bo‘ladigan, shartnoma asosida ishlaydigan malakasiz yoki past malakali ishchilar hisoblanadi. Bunday migrantlarga a) mavsumiy ishchilarni; b) muayyan loyihani amalga oshirish uchun jalb qilingan migrantlarni; v) ish beruvchini va mamlakatda bo‘lish muddatini o‘zgartirish imkoniyati bilan ma’lum bir kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun qabul qiluvchi davlatga cheklangan muddatga kelgan migrantlarni; d) mamlakatda bir necha yil bo‘lganidan keyin yashash uchun ruxsatnoma beriladigan migrantlarni misol sifatida keltirish mumkin.

Uchinchisi, yuqori malakaga ega bo‘lgan mutaxassislar, shu jumladan, jahon oliy ta’lim tizimida migratsiya maqsadini ko‘zlagan talabalar hisoblanadi.

To‘rtinchisi, noqonuniy mehnat migrantlari yoki mehnat shartnomasi tugagan muhojirlar kiradi.

Beshinchisi, o‘z yashash mamlakatini tark etishga majbur bo‘lgan shaxslar – qochqinlar kiradi[9]. Umumiy xulosa beradigan bo‘lsak, mehnat migratsiyasi nafaqat ishchi kuchi taqsimotini yoki kuchib yurish dislokatsiyasini belgilaydi, balki madaniyatlar integratsiya, urf-odatlar, milliy ma’naviy qadriyatlarning faol targ‘ibot mexanizmi ham hisoblanadi. Uning ta’siriga tushgan milliy ma’naviy, madaniy o‘zligimiz migratsion deformatsiyaga uchramoqda.

Ona tili. Milliy ma’naviy, madaniy qadriyatlarning kristallashgan shakli bo‘lib, u xalq turmush tarzida, ijtimoiy hayotida aks etadi. Til orqali din, tarix, madaniyat, ma’naviy mentalitet shakllanadi. Buni chuqur anglab yetgan Islom Karimov “o‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy-ma’naviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi”[2] deb, ona tilimizga haqli ta’rifni bergan edi.

Agarda so‘nggi tadqiqotlarga e’tibor bersak, bugun dunyoda kechayotgan globalizatsiya sabab ayrim davlatlar ikkinchi xalq tilidan foydalanishga urinayotgani bois tillar yo‘qolayotganligini guvohi bo‘lmoqdamiz. YuNESKO bergan ma’lumotlarga ko‘ra qachonlardir odamlar so‘zlashadigan tillarning soni 7 mingdan 8 mingtagacha yetgan bo‘lsa, bugungi kunda sayyoramizda 6 mingta til mavjud bo‘lib, ularning 90 foizi[11] yo‘qolib ketish arafasida turibdi. Aslida til bu – faqat muloqot

qilishga imkon beruvchi vosita emas, balki u bir millatning mavjudlik timsolidir. Uning borligi millatning dunyo xaritasidagi o‘rni va maqomini belgilaydi. Milliy tilni saqlab qolmas ekanmiz, o‘zga millatga qaramlik oshib, o‘zlikdan mahrum bo‘lish boshlanadi. Shu sababli, gegemon davlatlar o‘zga yurt ustidan hukumronlikni o‘rnatishda tilni asosiy vosita deb bilgan. Masalan, yaqin tariximizga nazar tashlaydigan bo‘lsak, sobiq sovet bosqinchilarining yurtimizga kirib kelganidan (1853-1991) keyingi asosiy siyosatida tariximiz, madaniyatimiz, urf-odat va milliy ma’naviy qadriyatlarimizni yo‘q qilishga urinishida chuqur o‘ylangan “strategiya” bor edi. Chor Rossiyasi generali Skobelevning imperatorga yozgan shunday xati bor: “Millatni yo‘q qilish uchun uni qirish shart emas, uning madaniyatini, sanoatini, tilini yo‘q qilsang bas, tez orada o‘zi tanazzulga uchraydi”[3]. General tomonidan puxta o‘ylab atilgan bu fikrlarda katta ma’no bor edi. Chunki, sharq xalqlarining tarixiy taraqqiyotida “urf odat-madaniyat-ma’naviyat” birlamchi omil bo‘lib, ularga berilgan “zarba” o‘z natijasini ko‘rsatadi. Yanada aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, xalqimizning bugungi o‘rta yoshli (50-75 yoshda bo‘lgan qatlam) avlodining aksariyat qismi ongi shuurida “rossiyaparastlik”, sovet davrini qumsash kayfiyati saqlanib kelayotganligi, yuqoridagi fikrlarimizning to‘g‘riligiga yorqin misoldir.

Xulosa. Bizning nuqtai nazarimizcha mehnat migratsiyasi orqali madaniyatlararo munosabatlar almashinuvi yuzaga kelib, bu o‘z navbatida kishi moddiy va ma’naviy hayotida, shu jumladan ona tiliga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Buni quyidagi xulosalar bilan izohlash mumkin:

Birinchidan, chet elga mehnat qilish uchun borgan shaxslar (o‘zga davlat fuqarolari) asosan ish layoqatiga ega, taxminan 20-50 yosh oralig‘idagi insonlar hisoblanib, bunday yoshdagi odamlarda mehnat qilishga bo‘lgan ishtiyoq yuqori bo‘ladi. Shu bilan birga ularni haqli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin. birinchi toifadagi insonlar (20-30 yosh atrofidagi kishilar)da o‘zga millat, xalq madaniyatini qabul qilish ko‘nikmasi intensiv ravishda yuqori kechadi. Ikkinchi toifadagi shaxslar (30-50 yoshli insonlar)da dogmatik qarash nisbatan kuchli bo‘lib, o‘z mentalitetiga yot bo‘lgan madaniyatni qabul qilishi og‘ir kechadi. Agar O‘zbekistonni yoshlar qatlami ko‘pchilikni tashkil etuvchi davlat sifatida qaraydigan bo‘lsak, shunisi ma’lumki, milliy ma’naviy, madaniy qadriyatlarimizning deformatsiyaga uchrashi tez kechmoqda.

Ikkinchidan, yuqorida aytilgan fikrlarni birgina Rossiya hududlariga kirib borayotgan O‘zbekistonlik mehnat migrantlari misolida tahlil etadigan bo‘lsak: 2016 yilda − 1,5 million kishi; 2017 yilda 1,7 million kishi; 2018 yilda − 1,888 million[12] kishi mehnat migratsiyasini amalga oshirilgan. Bu ko‘rsatkich doimiy o‘sib bormoqda. Masalaning dolzarbligi shundaki, O‘zbekistondan boshqa davlatlarga ish izlab chiqayotgan migrantlarning 43 foizdan ortig‘ini o‘rta ma’lumotli, qariyb 29 foizini tugallanmagan o‘rta ma’lumotlilar tashkil qiladi[13]. Demak, ko‘rishimiz mumkinki, milliy ma’naviy, madaniy qadriyatlarimizni saqlab qoluvchi kelajak avlodimizning “ma’naviy genetikasi”da jiddiy xavf (ma’naviy-madaniy deformatsiyalashuv) yuzaga kelmoqda.

Uchinchidan, zamonaviy ilmlarga bo‘lgan inltilish orqali ham ma’naviy-madaniy deformatsiyalashuv tezlashib bormoqda. Xususan, mehnat migrantlarimiz o‘zga xalqlar tilini o‘rganish orqali, ularning madaniyatini, urf-odatlarini, milliy ma’naviy qadriyatlarini qabul qilishiga olib kelmoqda. Biz “har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidur”[14] nomli tarix sinovidan o‘tgan konsepsiyaga e’tibor qaratmayapmiz. Chunki, “milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur”, - degan edi buyuk ma’rifatparvar bobolarimiz.

To‘rtinchidan, XXI asr texnika va texnologiyalar taraqqiyotini yuzaga keltirishi bilan birga, uning nashidasi bo‘lgan moddiy va ma’naviy integratsiyalashuvni ham yuzaga keltirdi. Natijada bu “Ommaviy madaniyat” eskalatsiyasining kuchayishiga olib kelib, milliy yemirilish tendensiyasining qaror topishiga sabab bo‘lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. −Т.: Ўзбекистон, 2021. −Б.387
2. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. −Т.: Маънавият, 2008. −Б.52
3. Содиқов Ҳ. Ўзбекистоннинг янги тарихи. −Т.: Шарқ, 2000. −464 б.
4. Shevchenko H. et al. Spiritual Awakening of the Personality as key to Spiritual Security in the Context of Postmodernism // Postmodern Openings. 2021. –T. 12. –№.1. –P. 185-200

5. Kuhn M. A. Balancing Culture, Nature, and Spirituality. 2023. −75 p.

6. Abul-Fadl M. Where East Meets West: Appropriating the Islamic Encounter for a Spiritual-Cultural Revival. – International Institute of Islamic Thought (IIIT), 2010. −230 p.

7. Amrekul A. The field of national and religious values in the context of spiritual and cultural globalization // Научный журнал «Вестник НАН РК». 2020. –№.3. –P. 261-270

8. Джолдосова С. Дж. Ўзбекистонда миграция соҳасини ҳуқуқий тартибга солишни такомиллаштириш. Юрид. фан. д-ри (DSc) ... дис. .. –Т., 2022. –Б. 260.

9. Седова А.В. Теория трудовой миграции // Вестник Алтайской академии экономики и права. 2019. −№ 2-1. –С. 137-145

10. https://uz.wiktionary.org

11. https://yuz.uz/news/milliy-tilni-yoqotmak-millatning-ruhini

12. https://kun.uz/24027797

13. https://parliament.gov.uz/oz/news/endi-xorijga-ketayotgan-migrantlar

14. https://hidoyat.uz/18283

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 811.111

WORD BORROWING METHODS AND THEORETICAL FOUNDATIONS

Nazarova Gulbahor Azimjon kizi,
Associate Professor, PhD
USWLU, Department of Theoretical English Language

МЕТОДЫ ЗАИМСТВОВАНИЯ СЛОВ И ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ

Назарова Гульбахор Азимжон кызы,
доцент, к.ф.-м.н.
УРГЛУ, кафедра теоретического английского языка

SO'Z OLISH USULLARI VA NAZARIY ASOSLARI

Nazarova Gulbahor Azimjon qizi,
Dotsent, PhD
USVLU, "Nazariy ingliz tili" kafedrasi

ORCID: 11.512.133`33:008 (043.3)
gulbahornazarova3@gmail.com

Annotation: This article explores the complex phenomenon of word borrowing in linguistics, emphasizing its multifaceted theoretical foundations and processes. It is highlighted the adaptation of borrowed words to the phonetic, semantic, grammatical, and orthographic systems of the receiving language.
Key words: word borrowing, lexical borrowing, theory automatic perspective, direct transfer, theory analogy, theory oral borrowing.
Аннотация: Эта статья исследует сложный феномен заимствования слов в лингвистике, подчеркивая его многофаceted теоретические основы и процессы. Подчеркивается адаптация заимствованных слов к фонетическим, семантическим, грамматическим и орфографическим системам принимающего языка.
Ключевые слова: заимствование слов, лексическое заимствование, теории автоматической перспективы, прямого перевода, теории аналогии.
Annotatsiya: Ushbu maqola lingvistikada so'zlarni o'zlashtirishning murakkab fenomenini o'rganadi, uning ko'p qirrali nazariy asoslari va jarayonlarini ta'kidlaydi. O'zlashtirilgan so'zlarning qabul qiluvchi tilning fonetik, semantik, grammatik va ortografik tizimlariga moslashuvi ta'kidlanadi.
Kalit so'zlar: so'zlarni o'zlashtirish, leksik o'zlashtirish, avtomatik perspektiva nazariyalari, to'g'ridan-to'g'ri o'tkazish, analogiya nazariyasi.

The concept of word borrowing, while seemingly simple and straightforward, lacks a definitive explanation and precise approach in linguistics.

Word Borrowing involves the transfer of elements from one language to another due to short-term or long-term contact between languages. When elements from one language are incorporated into another, they gradually adapt to the phonetic, semantic, grammatical, and graphic systems of the receiving language. As a result, varying degrees of assimilation or adaptation occur within the receiving language.

Theoretical Foundations of Word Borrowing:

1. **Lexical Borrowing Theory:** This theory posits that word borrowing is the process by which lexical units from one language are incorporated into another. The borrowed words are adapted to fit the phonetic, morphemic, semantic, and orthographic

norms of the receiving language. This process involves gradual integration into the linguistic system of the new language.

2. **Automatic Perspective:** Some scholars reject the traditional interpretation of word borrowing and instead view it from an automatic perspective. In this view, lexical borrowing is seen as the creation of new lexical units in the recipient language, using its own resources to mimic or transfer the phonetic, morphemic, and semantic structures of the source language. This perspective focuses on the automatic processes through which borrowed words are adapted.
3. **Direct Transfer Theory:** This theory interprets word borrowing as "direct transfer," recognizing the presence of foreign language elements, such as foreign words, within a language. According to this view, the process of borrowing involves a direct incorporation of these elements into the new language.
4. **Analogy Theory:** The analogy theory considers word borrowing as a form of "internal linguistic creation." According to this theory, borrowed words are evaluated and adapted within the context of the receiving language, taking into account existing linguistic patterns and structures.

According to our research, we can assume that word borrowing is a complex phenomenon with various theoretical interpretations. The process involves not just the transfer of lexical units but also their adaptation to fit the norms and systems of the receiving language. Each theoretical perspective provides a different understanding of how and why word borrowing occurs.Word borrowing refers to the transfer of elements from one language system to another as a result of short- or long-term contact between languages. The borrowed elements gradually adapt to the phonetic, semantic, grammatical, and graphic systems of the receiving language. Consequently, a process of assimilation or adaptation occurs to varying degrees within the receiving language.

Several researchers also interpret the phenomenon of word borrowing as "direct transfer," acknowledging the presence of foreign language elements, such as foreign words, in a language. The analogy theory, on the other hand, considers such elements as "creations within the language"[1] itself.

Both theories regard the creative and active potential of the receiving language as a crucial phase in the word borrowing process. The difference between the Transfer Theory and the Analogy Theory lies in their perspectives on this process. According to the Transfer Theory, linguistic activity is focused on reworking the foreign word, whereas the Analogy Theory views the process as creating new units similar to examples from the foreign language. In other words, analogical word borrowing involves creating alternative forms of borrowed words based on other linguistic units.

Thus, word borrowing phenomena (particularly lexical borrowing) can be understood as a form of linguistic activity that does not contradict the general notion of language described in the works of Wilhelm von Humboldt and further developed by local linguists. Linguist Y.S. Sorokin writes: "Word borrowing is not simply the rapid, automatic transfer of a set of foreign words to another linguistic element. Rather, it is the adaptation and assimilation of borrowed words, which reflects the uniqueness and advanced development of the assimilating language”. [2]

At the beginning of the 20th century, D.N. Shmelev expressed a similar idea: "A language that borrows words from another language does not usually remain passive; rather, it tends to create a way of life that suits its own needs and meets the demands of the time during a particular historical period”.

To generalize, word borrowing is not only a linguistic process akin to word formation but also involves the creation of new terms through neologisms or various means. Word borrowing, like internal word formation, has its own distinctive

[1] *Ильина* Н.Е. Рост аналитизма в морфологии. // Русский язык конца XX столетия (1985- 1995).-М., 2000.
– С. 326-344.

[2] *Сорокин Ю.С.* Развитие словарного состава русского литературного языка в 30-90-е гг. **XIXв.-М.-Л., 1965.**

methods for "creating" new words. These methods are primarily evident in the adaptation of the lexical resources and words from another language, incorporating them into the native lexicon, and using them in speech.

Main Methods of Borrowing Words from a Foreign Language

1. Phonetic Method
2. Graphic Method
3. Grammatical Method
4. Semantic Method

It should be emphasized that the characteristics of development, as well as the factors determining the subsequent fate of a borrowed word in the receiving language, depend on the timing, reasons, and conditions of the borrowing.

First of all, the names of firms, companies, brands, and organizations, which do not necessarily adhere to the laws of the borrowing process, are sometimes taken into the language as "internationalisms" (or, in other terminology, "global" words). These names, associated with well-known firms, companies, and prominent brands (such as Samsung, Nokia, Lipton, LG, Kodak, Tom Claim, United Colors of Benetton, Nivea, and others), are adapted graphically. [3].

Below, we will examine the five important methods of word borrowing. These are interpreted in linguistics as "primary forms of lexical adoption":



Such a method is used in many languages, and in this way, their linguistic form (logo) conforms to international advertising standards. These spellings retain their original appearance in the source language and are used in the spoken language through transcription or transliteration (sometimes with a direct reproduction of the original version), without conforming to the recipient language's rules in the fields of economics and market relations.

Graphic adaptation of words can be compared in the Latin alphabet as follows: (jazz - jazz, rock - rock, hit - hit, show - show, TV - TV, bar - bar, bank - bank). Such spelling differences in linguistics are referred to as "reverse transliteration."

In the late 20th and early 21st centuries, some borrowings such as "VIP," "déjà vu," "mass media," "notebook," "know-how," "PR," "second hand," and "offshore" took on a Cyrillic appearance and, in some cases, were used in their original spelling in printed texts.

The Uzbek language's field terminology has been enriched with new terms due to borrowings from the American automotive giant General Motors through the joint venture "UzDEU Auto." For example, terms such as "Tiko," "Damas," "Neksia," "Lacetti," "Matiz," "Spark," "Epika," "Kaptiva," "Malibu," and "Cobolt" have added to the lexicon of light vehicles assembled in the country.

In conclusion, the adaptation of borrowed words through various forms depends on several factors: elements of the recipient language, its culture, international relations, whether it belongs to a certain language family, and the lexical and terminological units of the local language. Our

[3] *Денисова С.П.* Тлобализмы в ’ языке[1]’-массовой[1]* коммуникации // Русский язык: исторические судьбы и современность: II Междунар. конгресс русистов. Труды и материалы. - М.: изд-во МГУ, 2004. - 430 с.

research indicates that if any language borrows words from foreign languages and these borrowings align with the language norms, the lexical level of the recipient language does not decline but, rather, expands, develops, and rejuvenates.

References:

1. *Денисова С.П.* Тлобализмы в ’ языке[1]’-массовой[1]* коммуникации // Русский язык: исторические судьбы и современность: II Междунар. конгресс русистов. Труды и материалы. - М.: изд-во МГУ, 2004. - 430 с.

2. *Ильина* Н.Е. Рост аналитизма в морфологии. // Русский язык конца XX столетия(1985-1995).-М.,2000. – С. 326-344.

3. *Сорокин Ю.С.* Развитие словарного состава русского литературного языка в 30-90-е гг. **XIXв.-М.-Л., 1965.**

4. *Шмелёв Д.Н.* Очерки семасиологии русского языка. - М., 2003.

5. *Филимонова Е.Н.* Семантические преобразования иноязычных слов в русских текстах (на материале кореизмов в русской переводной и оригинальной литературе) // Облик слова. Сб статей пам. Д.Н. Шмелёва. - М., 1997. - 110 С.

6. Дадабоев Ҳ.А. “Замонавий ўзбек лексикографияси ва терминологияси” модули бўйича ўқув –услубий мажмуа. -Т.:2016.-34 б.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 82-1-9

SHAYİR BAXTIYAR GENJEMURATOV LIRIKASİNİŃ STILLIK ÓZGESHELIGI

[1]Turdıbaev Qonaqbay Kewlimjaevich,
[2]Nazarova Amina Sársenbay qızı,
Qaraqalpaq mámleketlik universiteti

STYLISH CHARACTERISTICS OF THE LYRICS OF THE POET B.GENZHEMURATOV

[1]Turdybaev Konakbay Keulimzhaevich,
[2]Nazarova Amina Sarsenbay qizi,
Karakalpak State University

СТИЛЕВАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ЛИРИКИ ПОЭТА БАХТИЯРА ГЕНЖЕМУРАТОВА

[1]Турдыбаев Конакбай Кеулимжаевич,
[2]Назарова Амина Сарсенбай кызы,
Каракалпакский государственный университет

[1]https://orcid.org/0000-0003-0099-1353
q_turdibaev@karsu.uz
[2]https://orcid.org/0009-0001-3300-9840
nazarovaamina97@gmail.com

One of the most significant factors that affect an athlete's ability to perform is the degree of anxiety they experience. Anxiety may negatively influence performance and outcomes in competitive situations (Başer, 1998). The possibility of the athlete making appropriate decisions or showcasing their talents decreases as the athlete's level of anxiety increases. Athletes who are under a substantial amount of stress may make mistakes. Athletes who experience excessive anxiety may find that they forget basic procedures that they have practised extensively, that they experience emotional disorientation, and that they take behaviours that are damaging to their performance (Gumuş, 2002).

Each occurrence has substantial repercussions for the player in terms of their social and economic lives. The ability to manage anxiety effectively is critical to success in this environment, independent of the athlete's physical characteristics or the training methods that they use. There must be a difference in psychological preparation depending on the sport. Individual sports are contrasted with team sports. When opposed to team sports, players

who participate in individual sports are thought to have greater levels of anxiety (Konter, 1998).

MATERIALS AND METHODS. In 1964, Spielberger and his colleagues created a test to examine the amounts of current and trait anxiety that individuals exhibited. There are forty short statements included in the self-assessment measure. A twenty-item "state anxiety form" may be used to evaluate current feelings, and a twenty-item "trait anxiety form" can be used to evaluate feelings over the preceding week. Both forms are included in the assessment. Item reliability ranges from - 34 to 72, test-retest reliability ranges from 71 to 86, and the Alpha reliability ranges from 83 to 87 for the Likert-type scale with four points.

RESULTS. The statistical data were analyzed using the program SPSS 14.0 for Windows. The data received from both athlete scales were analyzed to determine the scoring criteria. The least squares approach is used to conduct variance analysis, which evaluates the variations in acquired trait and state anxiety levels across different groups. The Least Significant Difference Test was used to determine whether or not the group means had statistically significant fluctuations.

FINDINGS. Results of the methodology "Reactive and personal anxiety scale study" in different student athletes, Kruskal Wallis criterion n=297.

Scales	Sport type	N	Medium color	H	P
Reactive anxiety state	Kurash	45	**117,08**	27,410	000**
	Football	76	67,96		
	Handball	52	88,80		
	Total:	173			
A state of personal anxiety	Kurash	52	90,13	1,516	459
	Football	76	81,79		
	Handball	45	92,18		
	Total:	173			

The approach used in the "Study of Reactive and Personal Anxiety Scales" resulted in the identification of significant variations in the levels of reactive anxiety among students who participated in sports (H=27.410; p<0.001). Because of their low self-esteem and their unwillingness to participate in competitive sports, kids who play handball have a higher level of response anxiety than their peers.

DISCUSSION AND CONCLUSION. It was shown that there were no significant variations in the levels of state and trait anxiety among the athletes based on their ages. The results of the research were verified by the studies that were included in the literature review. When conducting research in 1989, Özbekçi discovered no association between age and the levels of competition-induced stress in the state anxiety ratings of athletes who participated in basketball, volleyball, and track and field. Within the framework of a competitive environment, Arseven and Guven (1992) performed a study investigating the anxiety levels experienced by athletes competing in various sports, including basketball, handball, volleyball, and track and field. The athletes were divided into two age groups: those over 20 and those under 20.

The findings did not have any significant association with one another. Furthermore, even though these data support our investigation, it is suggested that the number of comparable studies be increased since some findings are inconsistent. It was shown that there were no significant differences between the genders of athletes in terms of their assessments of state and trait anxiety conditions. Özbekçi's (1989) research into athletes' state anxiety levels, Engür's (2002) analysis of the influence of achievement motivation on state anxiety, and Yücel's (2003) evaluation of state and trait anxiety levels in taekwondo athletes all provide sufficient evidence to support the findings of the study. Other research findings, on the other hand, contradict their findings. This was shown by Segal and Weinberg (1989) in their study, which demonstrated that women exhibit more significant levels of trait anxiety compared to men. It was discovered by Başaran et al. (2009) that

TAMADDUN NURI

male athletes demonstrated more outstanding ratings of extraordinary state anxiety in comparison to female athletes. As a consequence of these findings, more study is necessary to determine whether or not anxiety is different between the sexes.

Several factors contribute to the fact that state anxiety is lower in team sports compared to individual sports. These factors include the collective impact of competition outcomes on the entire team, the ability to rectify negative actions with the assistance of teammates, the shared responsibility in the face of defeat, and the reduced likelihood of individual athletes being solely accountable for adverse results. A substantial degree of trait anxiety may be linked to a lack of social cohesiveness and shared responsibility among members of a team while they are working under normal conditions.

SUGGESTIONS. Based on the research findings, the following suggestions might be recommended: To choose athletes who can manage their fear with optimism and discernment, coaches and physical education teachers need to make crucial decisions. Techniques for managing anxiety should be taught to athletes by persons who are qualified to do so. It is necessary to do a comprehensive analysis of the athlete's social surroundings, and it is also necessary to implement anxiety reduction measures. When participating in team sports, it is necessary to create relationships on solid foundations, and participants must face conditions analogous to one another. Taking into consideration the fact that the conditions surrounding success and failure, in addition to injuries received after the competition, affect the trait anxiety ratings of athletes, it is of the utmost importance to establish a more comprehensive assessment of trait anxiety that takes into account both losses and injuries.

As is the life case, there are a great many factors in sports that are beyond the players' control. Athletes can control their thoughts, ideas, emotions, and behaviours even though they do not influence the referee's judgments, the audience's expectations, or the draw. A variety of obstacles, both on and off the field, are encountered by athletes during their careers. Instead of focusing on things beyond their control, athletes should concentrate on those under their power. After that, they should devise ways to deal with circumstances beyond their control.

REFERENCES:

1. Arseven, A., Güven, Ö. (1992). Anxiety levels of athletes in a competition environment. Ankara: H.Ü. Sports Sciences 2nd National Congress.
2. Alisinanoğlu, F., Ulutaş, İ. (2003). Investigation of the relationship between anxiety levels of children and their mothers' anxiety levels. Education and Science, 28 (128), 65-71.
3. Başaran, M.H., Taşğın, Ö., Sanioğlu, A. and Taşkın, A.K. (2009). Investigation of state and trait anxiety levels in athletes according to some variables. S.Ü. Social Sciences Institute Journal, 21.
4. Başer, E. (1998). Applications of sports psychology. Ankara: Bağırgan Publishing House.
5. Coşkun, Y., Günbey, A. (2009). The relationship between trait anxiety levels and perceptions of social support of mothers with disabled children. Ahi Evran University Kırşehir Faculty of Education Journal (KEFAD), 10 (1), 2009).
6. Engür, M. (2002). The effect of achievement motivation on state anxiety levels in elite athletes. Unpublished Master's Thesis. Ege University Health Sciences
7. Allayarov, D. (2024). Sportchilarning sport musobaqalarida ishtirok etishining psixologik xususiyatlari. UzMU xabarlari, 1(1.3. 1), 68-71.
8.İkizler, C. (1993). Psychological factors affecting success in sports and psychological training. Unpublished Doctoral Thesis. M.Ü. Institute of Health Sciences. Istanbul.
9. Koç, H. (2004). Evaluation of factors affecting state anxiety levels in professional football players. Unpublished Master's Thesis. Dumlupınar University Institute of Social Sciences. Kütahya.
10. Dilmuradovna, R. Z. (2024). The role of psychology in teaching foreign languages. Zien Journal of Social Sciences and Humanities,28,11-12.
11. Morgan, T.C. (2000). Introduction to Psychology. Trans. H. University Department of Psychology Academicians. Ankara: H. University Department of Psychology Publications.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 1 (075) (489)

QASHQADARYO VOHASIDA QORAKO‘LCHILIKKA BO‘LGAN E’TIBOR

Ro‘ziboyev Dilshod A’zam o‘g‘li
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

ВНИМАНИЕ К КАРАКУЛЕВОДСТВУ В КАШКАДАРЬИНСКОМ ОАЗИСЕ

Рузибоев Дилшод Аъзам ўғли
Каршинский государственний университет, докторант

ATTENTION TO SLAVERY IN KASHKADARYA OASIS

Ruziboev Dilshod Azam ugli
Qarshi State University, doctoral student

https://orcid.org/0009-0001-7517-5089

Annotatsiya: Mazkur maqolada Qashqadaryo vohasida qorako‘lchilikning rivojlanishi, u bilan bog‘liq masalalar bayon etiladi. Jumladan, Qashqadaryo vohasida 1925-1991 yillargacha bo‘lgan davrda qorako‘lchilikning ahvoli, yem-xashak, chorva ozuqasi siyosati, mintaqada amalga oshirilgan jamoalashtirish siyosatining qorako‘lchilikka ta’siri, qorako‘l teri yetishtirish rejalarining bajarilishi bilan bog‘liq masalalar bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: qorako‘l teri, mo‘yna, qorako‘lchilik sovxozlari tresti, qorako‘l-qorako‘lcha, qorako‘lcha, pishloq, brinza.

Аннотация: В данной статье рассказывается о развитии каракулеводства в Кашкадарьинском Оазисе и связанных с ним вопросах. В частности, будут рассмотрены вопросы, касающиеся состояния каракулеводства в Кашкадарьинском оазисе в период с 1925 по 1991 год, политики в области кормов, кормов для скота, влияния политики коллективизации, проводимой в регионе на каракулеводство, выполнения планов по выращиванию каракульской кожи.

Ключевые слова: Каракульская кожа, мех, трест каракульских совхозов, каракуль-каракуль, каракуль, сыр, бринза.

Annotation: This article describes the development of karakulism in the oasis of Kashkadarya, issues related to it. In particular, the Kashkadarya Oasis describes issues related to the situation of blacksmithing in the period from 1925-1991, fodder, livestock feed policy, the impact of collectivization policies implemented in the region on blacksmithing, the implementation of blacksmithing plans.

Key words: brown skin, fur, blackcurrant Sovkhoz trust, blackcurrant-blackcurrant, blackcurrant, cheese, brinza.

TAMADDUN NURI

KIRISH

Chorvachilik mahsulotlari O‘zbekiston iqtisodiyotda muhim o‘rin tutadi. Sanoat va aholi turmush tarzida muhim o‘rin tutgan chorvachilikdan bir qancha mahsulotlar olinadi. Jumladan, qorako‘lchilik sohasi davlat manfaatlaridan kelib chiqib o‘zgartirib borildi. Xususan, chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash uchun mashina va uskunalar yetishmasdi, bundan tashqari, markazdan olib kelinishi shart bo‘lgan texnikaning kichik qismi respublikaga yetib kelgan. Ushbu texnikalardan foydalana oladigan mutaxassislar soni ham cheklangan, bu esa ishlab chiqarishga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Natijada chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash rejalari ko‘p hollarda bajarilmay qoldi. Jumladan, xorij va mahalliy adabiyotlar, arxiv hujjatlari tahlil qilib chiqilganda Qashqadaryoda qorako‘lchilik sohasi yillarda kesimida turlicha rivojlanganligini ko‘rish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolani tahlil qilar ekanmiz, qorako‘lchilik sohasini rivojlantirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-martdagi PQ-2841-son “Chorvachilikda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2018-yil 14-martdagi PQ-3603-son “Qorako‘lchilik sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 16-avgustdagi PQ-4420-son “Qorako‘lchilik tarmog‘ini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 2-sentabrdagi PQ-4817-son “O‘zbekiston Respublikasi pillachilik va qorako‘lchilikni rivojlantirish qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi, 2021-yil 9-fevraldagi PQ-4984-son “Qorako‘lchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari, 2020-yil 2-sentabrdagi PF-6059-son “O‘zbekiston Respublikasida “Pillachilik va qorako‘lchilikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlarining qabul qilinishi mazkur faoliyatga tegishli me’yoriy-huquqiy hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirish qorako‘lchilik sohasini yanada rivojlantirish imkonini berdi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bugungi kunda chorvachilik sohasiga e’tiborning kuchayishi aholini oziq-ovqat bilan ta’minlashga hamda mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga ijobiy sharoit yaratmoqda. Iqtisodiyotda agrar sohaning ahamiyati oshib borayotgan bugungi kunda chorvachilik istiqbollari bilan bir qatorda, uning tarixiy xususiyatlarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Qorako‘l insoniyat tomonidan yaratilgan qo‘y zotlari orasida alohida o‘rin tutadi. Qorako‘l qo‘y zoti ajoyib go‘zallik, turli xil jingalak va dunyoda “Buxoro-Qorako‘l” deb nomlangan qorako‘l terilari, S.N.Bogolyubskiy tomonidan ushbu noyob zotning vatani O‘zbekiston ekanligini ta’kidlaydi. X asrda Turkistonga tashrif buyurgan arab sayohatchisi Ibn Xavqal ham bu tur haqida ma’lumot bergan edi. Tarixga nazar tashalydigan bo‘lsak, jumladan, 1925-yilda Qashqadaryo vohasida otlar soni 21,8 ming boshni, yirik shoxli chorva mollarining soni 49,5 ming boshni, qo‘ylar soni 67,4 ming boshni, qorako‘l qo‘ylari soni 310,3 ming boshni tashkil etdi[1]. Bundan tashqari vohada 1925-yilda 98,4 ming bosh echkilar, 20,6 ming bosh eshak va xachirlar, 8 ming bosh tuyalar boqilib, hammasi bo‘lib mintaqada 1925-yilda 576 ming bosh chorva mollari boqilgan [2]. Bu davrda chorvachilikka ayniqsa, qorako‘lchilik sohasiga bo‘lgan e’tibor bir qadar rivojlandi. Keyingi yillarda, xususan, 1926-yilda Qashqadaryoda 141 ming bosh qoramol, 47 ming bosh ot, 1650 ming bosh qo‘y-echki, 36 ming tuya mavjud edi[3]. Xuddi shu davrda, Surxondaryoda esa 424,2 ming qo‘y va echki, 47667 bosh qoramol, 16218 bosh ot, 2144 bosh tuya boqildi [4]. Qashqadaryoda 1926-yilda jami 185 ming dona qorako‘l terilari tayyorlandi [5]. Qorako‘lchilik sohasidan tushadigan daromad sohaga e’tibor oshirdi. 1926-1927-yillarda Qashqadaryoda 215,5 ming dona qorako‘l teri, 21 ming kilogramm kuzgi jun, 128 ming dona turli xil terilar tayyorlandi. 1927-1928-yillarda 229,9 ming dona qorako‘l terisi, 308 ming kilogramm bahorgi va kuzgi jun, 240,1 ming turli xil terilar, 1928-1929 yillarda 240 ming dona qorako‘l terisi, 427 ming kilogramm jun, 274,4 ming turli xil terilar tayyorlandi[6]. Shuningdek, 1927-yilda Qashqadaryoda 220 ming dona qorako‘l terisi olish rejalashtirilgan bo‘lib, ammo 1927-yilning dastlabki 10 oyi ichida 250 ming dona qorako‘l terilari tayyorlandi. Bundan tashqari voha qishloq xo‘jaliklarida 46646 ming dona qorako‘l terisi, 21282 dona qo‘y terisi, 45762 echki terisi, 8134 sentner jun va boshqa ko‘plab chorvachilik xomashyolari tayyorlandi[7]. 1928-yilda vohaning Koson, Qamashi, Beshkent tumanlarida 128 ming

dona qorakoʻl terilari, 4 sentner jun, 35 ming qoʻy terisi, 8 ming echki terisi, 68 ming ichak tayyorlandi[8]. Masalan, 1928-yilda Qashqadaryoda “Muborak” qorakoʻlchilik sovxozi va Buxoro viloyatida 6 ta paxtachilik-qorakoʻlchilik kolxozi tuzildi. 1931-1934-yillar mobaynida “Gʻuzor”, “Konimex”, “Jageldi”, “Tomdi” kabi qoʻychilik sovxozlari barpo etildi. Bularning hammasi 1931-yilda tashkil etilgan “Oʻzbekqorakoʻl” trestiga boʻysundirildi. Oʻzbekistonda qorakoʻl qoʻylar soni 1932-yilda 1925-yilga nisbatan 44,6 foizga, dumbali qoʻylar 45,1 foizga, barcha zotdagi qoʻy va echkilar esa ikki baravarga kamayib ketdi. Agar 1932-yil 1914-yil taqqoslansa, qorakoʻl qoʻylari ikki baravar, dumbali qoʻylar 68 foizga kamayib ketdi. 1937-1940-yillarda Oʻzbekistonning hamma kategoriyadagi xoʻjaliklarida qoʻy va echkilarning soni 1932-yildagiga nisbatan 50 foiz, jumladan, qorakoʻl qoʻylari 54,3 foiz, dumbali qoʻylar esa 64,7 foizga oʻsdi. Respublika kolxozlarida 1937-yil oxirida 877,7 ming bosh qoʻy boqildi. Jumladan, 1929-yilga kelib Qashqadaryoda 1707 ming bosh chorva mollari boʻlib, shundan 619 ming boshi qorakoʻl qoʻylari, 175 ming boshini qoramollar tashkil etdi[9]. Qoʻy va qoʻzi goʻshti respublikamizdagi goʻsht balansining 10-12 foizini tashkil etadi. Bundan tashqari, qoʻy sutidan turli xil mahsulotlar, pishloq, brinza kabilar tayyorlanadi. Umuman, qoʻylarning asosiy mahsuloti jun hisoblanadi, ulardan olinadigan sifatli va xilma-xil junlarni boshqa biror hayvondan olib boʻlmaydi. Boshqacha aytganda, qoʻy junini boshqa biror qishloq hayvoni juni bilan tenglashtirib boʻlmaydi[10]. Xususan, 1929-yilda Qashqadaryo vohasi Koson tumanida qorakoʻl qoʻylarining soni 226679 boshni, qoʻchqorlari bilan jami 278679 boshni tashkil etdi. Beshkent tumanida qorakoʻl qoʻylarining soni 93489 boshni, qoʻchqorlari bilan jami 115724 boshni tashkil etdi. Chiroqchi tumanida qorakoʻl qoʻylarining soni 35827 boshni, qoʻchqorlari bilan jami 48048 boshni tashkil etdi. Kitob tumanida qorakoʻl qoʻylarining soni 229 boshni, qoʻchqorlari bilan jami 356 boshni tashkil etdi. Tengi xaram (Dehqonobod) tumanida qorakoʻl qoʻylarining soni 26027 boshni, qoʻchqorlari bilan jami 35221 boshni tashkil etdi. Qashqadaryo viloyatida jami qorakoʻl qoʻylarining soni 415925 boshni, qoʻchqorlari bilan jami 524882 boshni tashkil etdi[11]. Ikkinchi jahon urush yillari va undan keyingi davrda Qashqadaryoda qorakoʻl qoʻylari soni 1941-yilda 594,9 ming bosh, 1951-yilda 685,2 ming bosh, 1956-yilda 1104,1 ming bosh, 1959-yilda 1254,9 ming bosh, 1961-yilda 1277,9 ming bosh, 1964-yilda 1035,6 ming bosh, 1965-yilda 883,6 ming bosh, 1966-yilda 981 ming boshga yetkazildi[13]. Yuqorida ma’lumotlardan shuni bilish mumkinki, Qashqadaryoda qorakoʻlchilik sohasida qorakoʻl qoʻylari salmogʻi yildan yilga oshib bordi. Qorakoʻl teri yetishtirish rejasiga koʻra Qashqadaryo viloyatida 1965-yilda 375 ming dona qorakoʻl teri yetishtirildi. 1966-1970-yillarda 504,2 ming dona qorakoʻl teri yetishtirilgan boʻlsa, 1971-1975-yillarda viloyatda oʻrtacha 476,3 ming dona qorakoʻl teri yetishtirildi[14]. 1976-1980-yillarda viloyatda oʻrtacha 512,4 ming dona qorakoʻl teri yetishtirildi[15]. Qashqadaryo viloyatida qorakoʻl qoʻylari ham koʻpaytirib borildi. Jumladan, viloyatda 1966-yilda qorakoʻl qoʻylari soni 981 ming bosh, 1976-yilda 951,8 ming bosh, 1977-yilda 925,4 ming bosh, 1978-yilda 976,6 ming bosh, 1979-yilda 981 ming bosh, 1980-yilda 1029,1 ming bosh, 1981-yilda 1074,3 ming boshga yetkazildi[16]. Bu esa qorakoʻlchilik sohasidan tushadigan daromadni koʻpaytirdi. Keyingi yillarda kam Oʻzbekistonda qorakoʻlchilik sohasini rivojlantirish tadbirlari izchillik bilan olib borildi. Respublikada qorakoʻlchilik trestlari tashkil etildi. Masalan, 1977-yili Qashqadaryo viloyati qorakoʻlchilik sovxozlari trestiga 15 ta sovxoz birlashtirildi[16]. 1990-yilda Oʻzbekiston SSRda 1401,6 ming dona qorakoʻl terilari yetishtirilib, 1029,6 ming donasi kolxoz va sovxozlar tomonidan yetishtirildi, 372 ming donasi esa shaxsiy xoʻjaliklarda yetishtirildi. Respublikada yetishtirilgan qorakoʻl terilarining 287,6 ming donasi Qashqadaryo viloyatida yetishtirildi[16]. 1981-yilning 1-yanvarigacha Oʻzbekiston SSRda 5312,9 ming bosh qorakoʻl qoʻylari mavjud boʻlib, undan 1074,3 ming boshi Qashqadaryo viloyatiga, 1934,9 ming boshi Buxoro viloyatiga, 931,1 ming boshi Samarqand viloyati hissasiga toʻgʻri keldi. 1986-yilning 1-yanvarigacha Oʻzbekiston SSRda 5245,5 ming bosh qorakoʻl qoʻylari mavjud boʻlib, undan 954,7 ming boshi Qashqadaryo viloyatiga, 2033,7 ming boshi Buxoro viloyatiga, 862,7 ming boshi Samarqand viloyati hissasiga toʻgʻri keldi. 1987-yilning 1-yanvarigacha Oʻzbekiston SSRda 4914,1 ming bosh qorakoʻl qoʻylari mavjud boʻlib, undan 771,8 ming boshi Qashqadaryo viloyatiga, 2008,2 ming boshi Buxoro viloyatiga, 834 ming boshi Samarqand viloyati hissasiga toʻgʻri keldi. 1988-

TAMADDUN NURI

yilning 1-yanvarigacha O‘zbekiston SSRda 4751,2 ming bosh qorako‘l qo‘ylari mavjud bo‘lib, undan 761,2 ming boshi Qashqadaryo viloyatiga, 1948,4 ming boshi Buxoro viloyatiga, 813,9 ming boshi Samarqand viloyati hissasiga to‘g‘ri keldi. 1989-yilning 1-yanvarigacha O‘zbekiston SSRda 4880,8 ming bosh qorako‘l qo‘ylari mavjud bo‘lib, undan 806,2 ming boshi Qashqadaryo viloyatiga, 1925,7 ming boshi Buxoro viloyatiga, 872,6 ming boshi Samarqand viloyati hissasiga to‘g‘ri keldi. 1990-yilning 1-yanvarigacha O‘zbekiston SSRda 4930,8 ming bosh qorako‘l qo‘ylari mavjud bo‘lib, undan 864,9 ming boshi Qashqadaryo viloyatiga, 1944,1 ming boshi Buxoro viloyatiga, 864,5 ming boshi Samarqand viloyati hissasiga to‘g‘ri keldi. 1991-yilning 1-yanvarigacha O‘zbekiston SSRda 5071,9 ming bosh qorako‘l qo‘ylari mavjud bo‘lib, undan 940,2 ming boshi Qashqadaryo viloyatiga, 2007,4 ming boshi Buxoro viloyatiga, 869,9 ming boshi Samarqand viloyati hissasiga to‘g‘ri keldi[16]. Qorako‘lchilik sohasidan tushadigan daromad viloyatda ushbu sohani yanada rivojlantirishga xizmat qildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, O‘zbekiston dunyodagi eng yirik qorako‘lchilik mamlakatlaridan biri hisoblanadi. Qashqadaryo qorako‘lchilikda yetakchi va hal qiluvchi viloyatlardan biridir. Bu esa viloyat partiya va sovet tashkilotlari, barcha qorako‘lchilar zimmasiga alohida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan katta vazifalarni yuklaydi. Partiya va hukumatning jamoat chorvachiligni rivojlantirish uch yillik rejasi to‘g‘risidagi qarorida chorva mollarining son va sifat jihatidan o‘sishiga alohida e’tibor berildi. Bunga erishish, dastavval, mustahkam yem-xashak bazasini yaratishga bog‘liqdir. Shu bilan bir qatorda chorva mollarini boqish uchun yaylov maydonlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Qorako‘l qo‘ylari bilan naslchilik ishlarini amalga oshirishda naslchilik xo‘jaliklari va davlat naslchilik idoralari katta xizmat qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Вся Средная Азия. Ташкент. 1926, с 389.
2. Вся Средная Азия. Ташкент. 1926, с 390.
3. Қашқадарё вилоят давлат архиви, 83-фонд, оп 1, иш 139, бет 32.
4. Қашқадарё вилоят давлат архиви, 184-фонд, оп 1, иш 27, бет 63.
5. Қашқадарё вилоят давлат архиви, 83-фонд, оп 1, иш 139, бет 32.
6. Қашқадарё вилоят давлат архиви, 36-фонд, оп 5, иш 87, бет 37.
7. Қашқадарё вилоят давлат архиви, 182-фонд, оп 1, иш 33, бет 272.
8. Қашқадарё вилоят давлат архиви, 182-фонд, оп 1, иш 35, бет 26.
9. ЎзМА, фонд 209, оп. 1, иш 77. бет-99-108.
10. Т.Ҳ.Икромов. Чорвачилик асослари. “ШАРҚ”, Тошкент — 2001, с 175.
11. Районы Уз ССР в цифрах. Самарқанд. 1930. С 131.
12. Районы Уз ССР в цифрах. Самарқанд. 1930. С 131
13. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1965 г. Ташкент “Узбекистон”. 1966. с 169.
14. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1980 г. Ташкент “Узбекистон”. 1981. с 136-138.
15. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1980 г. Ташкент “Узбекистон”. 1981. с 139.
16. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1980 г. Ташкент “Узбекистон”. 1981. с 131-139.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 93/94

YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA IJTIMOIY SHERIKLIK MUNOSABATLARINING TAKOMILLASHUVI

Nishanbayeva Enajon Zaripbayevna, O‘zMU, “Siyosatshunoslik” kafedrasi dotsenti

УЛУЧШЕНИЕ ОТНОШЕНИЙ СОЦИАЛЬНОГО ПАРТНЕРСТВА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Нишанбаева Энажон Зарипбаевна, УзМУ, доцент кафедры «Политология»

IMPROVEMENT OF SOCIAL PARTNERSHIP RELATIONS IN THE NEW UZBEKISTAN

Nishanbaeva Enajon Zaripbaevna, UzMU, Associate Professor of the Department of Political Science

https://orcid.org/0009-0008-9037-6410
e-mail: nishanbayeva_e71@mail.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada, O‘zbekistonda ijtimoiy sheriklikni takomillashtirish masalalari jahon tajribasi va milliy miqyosda tahlil qilingan. Shu bilan birga, jamoatchilik nazoratini rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlari, ijtimoiy mas’uliyat oshib borishi dinamikasi kabi masalalar tahlil etiladi.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy sheriklik, jamoatchilik nazorati, ijtimoiy mas’uliyat, ijtimoiy-mehnat sohasi, nodavlat sektor, siyosiy faollik, fuqarolik jamiyati, demokratiya.*

Аннотация: *В данной статье анализируются вопросы совершенствования социального партнерства в Узбекистане на основе мирового опыта и национального уровня. При этом анализируются такие вопросы, как перспективные направления развития общественного контроля, динамика повышения социальной ответственности.*

Ключевые слова: *социальное партнерство, общественный контроль, социальная ответственность, сфера социальной работы, негосударственный сектор, политическая деятельность, гражданское общество, демократия.*

Annotation: *This article analyzes the issues of improving social partnership in Uzbekistan based on international experience and the national level. At the same time, such issues as promising areas for the development of public control, the dynamics of increasing social responsibility are analyzed.*

Key words: *social partnership, public control, social responsibility, social work, non-governmental sector, political activity, civil society, democracy.*

TAMADDUN NURI

KIRISH. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda katta o‘zgarishlar bo‘ldi, islohotlarni amalga oshirish borasida tajriba orttirildi, aholining faolligi oshdi, islohotlardagi ishtirokining ko‘lami kengaydi.

Qolaversa, jahonda jiddiy o‘zgarishlar yuz berdi. Mintaqamizda ham yangi xavf-xatar va tahdidlar kuchayib bordi.

Mana shunday murakkab va qaltis vaziyatda mamlakatda barqarorlikni saqlash, tinchlik-osoyishtalikni ta’minlash kun tartibining eng dolzarb masalalaridan biriga aylandi.

Bu voqea-hodisalar o‘z navbatida strategik yo‘lni izchillik bilan davom ettirish, xavf-xatarning oldini olishga qaratilgan yangi reja va dasturlarni ishlab chiqishning ahamiyatini keskin oshirdi. Shunday sharoitda jamiyatdagi barqarorlikni ta’minlashning muhim omillaridan biri sifatida ijtimoiy sheriklikning ahamiyati oshib boradi.

Yangi O‘zbekistonda keng ko‘lamda amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan aynan davlat va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi yaqin hamkorlikka bog‘liq jarayondir. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: “Bizning yana bir muhim vazifamiz – fuqarolar, davlat va jamiyat o‘rtasida o‘zaro mas’uliyat, huquq va burch bog‘liq ekaniga oid prinsipni izchil amalga oshirishdan iborat. Bu prinsip mamlakatimiz oldida turgan muhim vazifalarni hal qilishda davlat va fuqarolik jamiyati o‘rtasida samarali hamkorlikni ta’minlaydigan konstitutsiyaviy asosdir. Biz barchamiz – fuqarolar ham, jamiyat ham, davlat ham Vatanimiz ravnaqi uchun, mamlakatimizda tinchlik-barqarorlikni mustahkamlash uchun, tarixiy, ma’naviy va madaniy merosimizni saqlash, boyitish va kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish uchun birdek mas’ulmiz”[1] deb ta’kidlagan.

Bunday hamkorlikni yo‘lga qo‘yishda so‘nggi yillarda mamlakatimizda qanday ishlar qilindi va bu ishlarning amalga oshirilishi uchun qanday omillar mavjud edi?

Xususan, birinchidan, mamlakatda mavjud barqarorlik;

ikkinchidan, sohaning huquqiy asoslari yurtimizda tobora rivojlanib borayotgani;

uchinchidan, ijtimoiy sheriklikning tashkiliy-institusional asoslari keyingi yillarda yanada takomillashayotgani;

to‘rtinchidan, bugun jamiyatimiz taraqqiyotidagi o‘ziga xos jarayonlar va ular bilan bog‘liq ravishda ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirishga obyektiv ehtiyojning mavjudligi ham uning rivojlanishiga juda katta asos bo‘lmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Bu yo‘nalishdagi faoliyatning huquqiy negizlarini yanada mustahkamlash maqsadida 2014-yilda “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonun fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi, shuningdek gumanitar muammolarni hal etish, aholi turli qatlamlarining huquq va manfaatlarini himoya qilishda nodavlat tuzimlarining davlat idoralari bilan o‘zaro munosabatlarining aniq chegaralarini belgilash va huquqiy mexanizmlarini yaratadi.

Qonun amal qila boshlagandan o‘tgan qisqa davrda to‘plangan amaliy tajriba bu sohada tashkiliy-huquqiy mexanizmlar yanada takomillashtirilishi lozimligini taqozo etdi. Shu bois sheriklik shakllarini yanada kengaytirishga yo‘naltirilgan “Davlat va xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni 2018-yilda qabul qilindi.

O‘zbekistonga kelsak, davlat-xususiy sheriklik munosabatlarining rivoj topib, kengayib borayotganining misoli sifatida u quyosh va shamol stansiyalarini hisobga olganda energetika sohasidagi yirik loyihalarni qamrab olganligini ko‘rsatish mumkin. Bu sohada amalga oshirilayotgan ishlarning samarasi natijasida 2022-2026 yillarda 14 mlrd AQSH dollariga teng miqdorda davlat-xususiy sheriklik loyihalari moliyalashtirilishi rejalashtirilgan.

MUHOKAMA. Ijtimoiy sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash maqsadida davlat bu jarayonning tashabbuskori bo‘lib chiqmoqda va quyidagi shakllarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotni rag‘batlantirmoqda, jumladan:

- davlat boshqaruvi organlarida jamoatchilik bilan aloqalar bo‘yicha ixtisoslashtirilgan matbuot xizmatlari[2];

- 2018-yilda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining muhokamasi uchun tashkil etilgan regulation.gov.uz veb portali[3];

- fuqarolarning qonun hujjatlari loyihalari yuzasidan jamoatchilik murojaatlari. “Mening fikrim”[4] portali yordamida fuqarolarga jamiyat va davlat hayotiga oid dolzarb masalalar yuzasidan elektron shaklda jamoaviy murojaat qilish uchun

imkoniyat yuzaga keldi. Portal ishga tushirilishi natijasida jamoatchilik tashabbuslari uchun yagona maydon shakllandi, kelgusida u fuqarolarning qonunchilik tashabbuslarini ifoda etib, fuqarolik jamiyati rivojlanishining kuchli impulsi bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Prezidenti qarori (PQ-4473-sonli)[5] asosida barcha markaziy davlat telekanallarida doimiy asosda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy huquqiy sohalarning eng dolzarb masalalariga bag‘ishlangan teleeshitirishlar, jamoatchilik munozaralari o‘tkazilishi belgilanganligi natijasida:

- davlat hokimiyati organlarining faoliyati to‘g‘risida muntazam ravishda jamoatchilikka axborot taqdim etish;
- fuqarolarning davlat boshqaruvida yanada kengroq ishtiroki,
- boshqaruv qarorlarining jamiyat uchun shaffofligini ta’minlash darajasi yanada oshdi.

Butun dunyo bo‘ylab koronavirus infeksiyasi tarqalgan sharoitda fuqarolarning boshqaruv jarayonida yanada ko‘proq faollashuvi kuzatildi. O‘zbekistonda ham shunday murakkab sharoitda aholining fuqaroviy onggi oshganligi, koronovirus pandemiyasi muammosi tufayli jamiyatni yanada jipslashganligini namoyon qilgan ko‘plab misollarni keltirish mumkin, bu esa jamiyat barqarorligini ta’minlashda ijtimoiy sheriklikning imkoniyatlarini yanada kengaytirish uchun sharoit yaratdi.

Koronavirus pandemiyasi sharoitida ijtimoiy sheriklik munosabatlarini davom ettirish va rivojlantirish uchun yangicha yondashuv, usullar, innovatsion mexanizmlar talab qilindi. Shu nuqtayi nazardan an’anaviy ijtimoiy sheriklikdan raqamli ijtimoiy sheriklikka o‘tish zaruriyati paydo bo‘ldi.

Endilikda raqamli ijtimoiy sheriklik modeli ijtimoiy taraqqiyotning muhim jihati sifatida e’tirof etilayapti.

Raqamli ijtimoiy sheriklikda hamkorlik munosabatlari onlayn platformada onlayn tarzda amalga oshiriladi.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, global pandemiya davrida raqamli ijtimoiy sheriklikni sayohat, turizm, onlayn marketlar, ko‘ngilochar o‘yinlar, ko‘rsatuvlar bozori, uchrashuvlar, o‘quv kurslari, konferensiya, vebinariya va ko‘rgazmalar faoliyatida juda katta o‘zgarishlar kuzatildi. Mazkur soha vakillari qisqa vaqt mobaynida o‘z faoliyatini offlayn formatdan onlayn formatga o‘tkazishdi. Ular masofadan turib iste’molchilarga o‘z xizmatlarini hech qanday muammosiz yetkazib bera oldi. Bu davrda iste’molchilarning xulq-atvoridagi o‘zgarishlar va yangi davr talablari hisobga olindi, aholiga xizmat ko‘rsatish sohasida raqamli ijtimoiy sheriklikning rivojlanishi kelgusida ham iste’molchilarning qarorlar qabul qilish, ijtimoiy xizmatlardan foydalanish va xarid xulq-atvoridagi o‘zgarishlarga olib keladi.

Mavjud va so‘nggi yillarda namoyon bo‘layotgan ijtimoiy sheriklik munosabatlari shakllarining tahlili davlat bilan fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi muloqot muntazam rivojlanib borayotganidan, boshqaruv tizimida jamoatchilikning faolligi, biznesning islohotlar uchun javobgarlik hissi, jamiyat hamda har bir fuqaroning ijtimoiy va shaxsiy xavfsizlik, demakki mamlakat barqarorligi uchun mas’uliyati oshib borayotganligini ko‘rsatmoqda.

Ijtimoiy sheriklikning yana bir zamonaviy modeli sifatida aholining keng qatlamlarini ijtimoiy ahamiyati dolzarb bo‘lgan masalalarga jalb qilish tajribasi bo‘lgan kraudsorsingni keltirish mumkin.

Insonlar ko‘proq o‘ylashga, faol harakat qilishga, atrofidagi holat va jarayonlarni yanada yaxshiroq qilishga doimo tayyor ekanligini nazarda tutgan holda O‘zbekistonning hozirgi rivojlanish bosqichida davlat organlari va NNT larning o‘zaro samarali faoliyatida kraudsorsingni qo‘llash mumkin. Ularga shunday jamoaviy muhokamalarda ishtirok etish imkoniyatini yaratish zarur. Axborot texnologiyalarni keng qo‘llash yordamida mamlakatning ijtimoiy-siyosiy masalalarini optimal yechimlarini topish jarayoniga minglab odamlarni jalb qilish mumkin.

O‘zbekistonning ijtimoiy hayotiga mazkur texnologiya kirib kelmoqda. Shunga qaramay ayrim misollarni keltirish mumkin. 2018-yilda Toshkent shahar hokimligi tomonidan birinchi bor keng miqiyosda “Toshkent seni sevadi” shiori bilan shahar infratuzilmasini takomillashtirish bo‘yicha onlayn-platforma ishga tushirildi[6].

NATIJALAR. Bizning fikrimizcha, ushbu sohadagi ishlarning holati amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarda, fuqarolarning siyosiy madaniyati va huquqiy ongini oshirishda, ularning ma’naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarini qondirishda nodavlat notijorat tashkilotlarining faol ishtirok etishiga to‘sqinlik qilayotgan qator tizimli

TAMADDUN NURI

muammo va kamchiliklar mavjudligidan dalolat bermoqda. Xususan:

birinchidan, davlatning fuqarolik jamiyati bilan samarali va konstruktiv muloqot mexanizmlari yo‘lga qo‘yilmagan, nodavlat notijorat tashkilotlarining ehtiyojlari tizimli tahlil qilinmayapti, davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning muhim masalalari bo‘yicha o‘zaro fikr almashish uchun samarali maydonlar yaratilmagan;

ikkinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini, normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va amalga oshirishga nodavlat notijorat tashkilotlarini jalb qilish darajasining pastligi barcha ijtimoiy guruhlarning turli nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan ifodalanadigan manfaatlarini chuqur o‘rganish hamda inobatga olishga imkon bermayapti;

uchinchidan, yetarli qonunchilik bazasi yaratilganligiga qaramay, ijtimoiy sheriklik davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari o‘rtasida fuqarolarning keng ko‘lamli ijtimoiy muammolarini hal qilishga, ularning, ayniqsa yoshlarning tashabbuslari va zamonaviy g‘oyalarini haqiqatda ilgari surishga qaratilgan hamkorlikning samarali mexanizmiga aylana olmadi;

to‘rtinchidan, mamlakatni sotsial-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy jihatdan yanada rivojlantirish bo‘yicha innovatsion g‘oyalarni taklif qiluvchi faol, o‘zining tashabbuslariga tayanib faoliyat ko‘rsatadigan nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish choralari lozim darajada amalga oshirilmayapti;

beshinchidan, nodavlat notijorat tashkilotlarini ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonlarini, ularning faoliyati tartibini belgilovchi qonunchilik normalarida ortiqcha byurokratik talablar va g‘ovlar nazarda tutilgan bo‘lib, bu normalar eskirgan va zamon talablariga javob bermaydi;

oltinchidan, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan qo‘llanilayotgan idoralararo hamkorlik usullari samarasizdir, davlat organlari o‘rtasida ma’lumotlar va axborot almashishning yagona mexanizmlari mavjud emas;

yettinchidan, nodavlat notijorat tashkilotlarining moddiy-texnik ta’minoti hanuzgacha qoniqarsiz holatda qolmoqda, fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlashga davlat tomonidan ajratilayotgan mablag‘lar o‘rta muddatli va uzoq muddatli keng ko‘lamli hamda umumrespublika miqyosidagi loyihalar va dasturlarni amalga oshirishga imkon bermayapti [7].

XULOSA. Ijtimoiy sheriklikning yuqoridagi modellaridan samarali foydalanish kelgusida O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati sifat jihatidan yangi bosqichiga o‘tishiga, xalq bilan muloqotning rivojiga, fuqarolarni boshqaruv jarayonlariga jalb qilishning ko‘lami yanada kengayishiga olib keladi. Yangi O‘zbekistonda islohotlarning keng avj olishi natijasida ijtimoiy munosabatlarning rivoji oxir-oqibatda davlat va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi hamkorlikning yangi modellari yuzaga kelishiga olib keladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. // https://www.prezident.uz/uz/lists/view/1328.
2. O‘zbekiston Respublikasi davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining axborot xizmatlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. Int.: http://lex.uz/docs/3561681.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.04.2018 yildagi PQ–3666-sonqarori. Int.:h.
4. Mening fikrim maxsus veb-portali yaratildi. Int.:http://www.uza.uz/oz/society/mening-fikrim-makhsus-veb-portali-yaratildi-20-04-2018.
5. Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi islohotlar ustidan jamoatchilik nazorati samaradorligini, shuningdek, fuqarolarning demokratik o‘zgartirishlardagi faolligini oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 04-oktyabr 2019-y. qarori. Int.: https://lex.uz/docs/4538242.
6. Ташкент любит тебя, или Краудсорсинг в развитии городской инфраструктуры. Int.: http://xs.uz/ru/post/tashkentlovesu.
7. Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Toshkent, 2018-yil 4-may. PF-5430-son.Int.: https://lex.uz/docs/3721649.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UO'K: 894.375

"MUQADDAS" HAMDA "JAMILA" QISSALARIDA MUHABBAT VA ADOLAT ZIDDIYATLARINING QIYOSIY TAHLILI

Allambergenov Anvar Erkabayevich, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), O'zRFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi

COMPARATIVE ANALYSIS OF THE CONFLICTS OF LOVE AND JUSTICE IN THE STORIES OF "MUQADDAS" AND "JAMILA"

Allambergenov Anvar Erkabaevich, doctor of philosophy in philological sciences (PhD), senior researcher at the Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore of UzRFA

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ КОНФЛИКТОВ ЛЮБВИ И СПРАВЕДЛИВОСТИ В ПОВЕСТЯХ «МУКАДДАС» И «ДЖАМИЛЯ»

Алламбергенов Анвар Эркабаевич, доктор философии по филологическим наукам (PhD), старший научный сотрудник института Узбекского языка, литературы и фольклора УзРФА

https://orcid.org/0009-0009-1497-0343
e-mail: anvarallambergenov11@gmail.com

***Annotatsiya**: Ushbu maqolada Odil Yoqubovning "Muqaddas" hamda Chingiz Aytmatovning "Jamila" qissalarida talqin qilingan muhabbat va adolat ziddiyatlari qiyosiy ravishda tahlilga tortilgan.*

***Kalit so'zlar**: qissa, talqin, qiyosiy tahlil, muhabbat va adolat ziddiyati, tuyg'u.*

***Annotation:** In this article, the conflicts of love and justice interpreted in the stories "Muqaddas" by Odil Yakubov and "Jamila" by Chingiz Aitmatov are comparatively analyzed.*

***Key words:** story, interpretation, comparative analysis, conflict of love and justice, feeling.*

***Аннотация:** В данной статье сравнительно анализируются конфликты любви и справедливости, осмысленные в рассказах «Мукаддас» Одила Якубова и «Джамиля» Чингиза Айтматова.*

***Ключевые слова:** рассказ, интерпретация, сравнительный анализ, конфликт любви и справедливости, чувство.*

KIRISH. "Muhabbat o'zi eski narsa, lekin uni har bir qalb yangilaydi", degan gap bor. Naqadar haq gap. Bunga misol sifatida qayta-qayta tilga olinadigan Layli va Majnun, Farhod va Shirin, Tohir va Zuhra, Romeyo va Julyetta, Otabek va Kumush, Anvar va Ra'no, Jamila va Doniyor, Sharif va Muqaddas kabi muhabbat juftliklarining talqinlarida ko'rishimiz mumkin. Hayotda, yon atrofimizda kuzatadiganlarimiz esa, yuqorida nomlarini sanaganlarimizdan-da ko'p. Odil Yoqubovning "Muqaddas" va Chingiz Aytmatovning "Jamila" qissalarida qator umumiy va xususiy jihatlar mavjud. Har ikkala qissa mutolaasiga bir xil mavzu nuqatyi nazaridan kirishilganda ulardagi umumiy va xususiy jihatlar qabarib ko'rindi. Har ikkala qissaning bir-biriga o'xshash jihatlari talaygina. Bular quyidagilar: qissallar bir davrda yozilgan, ularda qator ijtimoiy muammolar bilan bir qatorda dolzarb umuminsoniy, abadiy masalalar ham talqin qilingan. Qolaversa, qissalarning nomlanishida ham uyg'unlik mavjud.

Asar bosh qahramonlari Muqaddas va Jamilalarning ismi qissa sarlavhasiga olib chiqilgan. Har ikkala qissada ham muhabbat bosh g‘oya sifatida talqin qilingan. Boshqa masalalar muhabbat mavzusi atrofida bo‘y ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. Odil Yoqubov o‘z asarida 60-yillar voqealarini jonlantirgan bo‘lsa, Chingiz Aytmatov ikkinchi jahon urushidagi front orti voqealarini qalamga olgan. Yozuvchilar muhabbat, adolat ziddiyatlari fonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning go‘zal namunalarini, unga misol bo‘luvchi ko‘plab o‘rinlarni berib o‘tganlar. Muhabbat talqinlarida vaziyatni taranglashtirish, o‘quvchini asar voqealariga yanada qiziqtirish, hayajonini orttirish va shu kabi ko‘plab sabablar asnosida mualliflar muhabbat uchligini vujudga keltiradilar. Adabiyotimiz tarixida bunga misollar talaygina. Odil Yoqubovda Muqaddas, Sharif, yosh domla. Chingiz Aytmatovda esa, sal boshqacharoq – Jamila, Sodiq, Usmon. Usmon obrazi Jamila tomonidan qat’iy rad etilgandan so‘ng voqealar sahnida boshqa uchlik – Jamila, Sodiq, Doniyor uchligi paydo bo‘ladi.

Har bir davrning, jamiyatning, har xil guruhlarning, har bir odamning, har bir vaziyat-u, holatning o‘z haqiqatlari bo‘ladi. Kim uchundir nohaqlik bo‘lib ko‘ringan holat, kim uchundir adolat tanatanasi bo‘lishi, kim uchundir zulm bo‘lib tuyulgan vaziyat, kim uchundir tenglikning o‘rnatilishi bo‘lishi shubhasiz. Chingiz Aytmatovning “Jamila” qissasida muallif haq va nohaqni ajratuvchi hakam sifatida o‘quvchiga ta’sir o‘tkazmaydi. Xulosa qilishni kitobxonga taqdim qiladi. Aynan shuning uchun ham ko‘plab xalqlar tillariga tarjima qilingan, dunyodagi eng go‘zal muhabbat qissasi deb ta’riflangan bu asar yarim asrdan beri turli xil xalqlar kitobxonlari, turli davr o‘quvchilari tomonidan turlicha qabul qilinib, har xil tahlil qilingan. Biz ham qat’iy hukm chiqarish fikridan yiroqmiz. Lekin, bir narsani aniq aytishimiz mumkinki, yozuvchi hayotda bo‘lgan muhabbat va adolat ziddiyatini nafis tarzda talqin qilgan.

MUHOKAMA. Muhabbat va adolat ziddiyalatlari Odil Yoqubovning “Muqddas” qissasida qabarib ko‘rinadi. Sharifning ichki kechinmalari, iqrorlari, tavba-tazarrulari obraz tilidan, muallif tilidan batafsil bayon etiladi. Shu tufayli o‘quvchida bu ziddiyat keskin degan taassurot qoldiradi. Aslida ham shunday.

Chingiz Aytmatovning “Jamila” qissasida esa muhabbat va adolat ziddiyatlarining ta’siri obrazlarning tasvirlarida, harakatlarida, ishoralarda, detallarda berilganligi uchun o‘quvchida asar qahramonlari qarorlarini to‘g‘ri baholashda ikkilanishlar paydo bo‘ladi. Ularda ko‘plab savollar tug‘iladi, bahslar yuzaga keladi. Lekin xulosa chiqarish oxir-oqibat kitobxonning o‘ziga havola qilinadi. Obrazlarning harakatlariga na muallif tomonidan, na obrazlar tilidan o‘zlarining harakatlarini oqlash uchun uzrxohlik ma’nosida biror izoh, sharh, hechqanday vaj ko‘rsatilmaydi.

“Muqaddas” qissasida xudbinlik tufayli adolatsizlikka sabab bo‘lgan Sharif qilgan xatosini manfaatlarining zarariga bo‘lsa ham qo‘lidan kelganicha to‘g‘irlaydi. Aynan shu o‘rinlarni adolat tantanasi uchun harakat sifatida baholagan holda umuminsoniy qadriyatlar talqinining bir ko‘rinishi deya e’tirof etishimiz mumkin.

Adabiyotshunoslar orasida “Chinakam badiiy asar – abadiy asar” degan go‘zal bir qarash mavjud. Abadiy asarlarning esa abadul abad tanqidchilari ham, tahlilchilari ham bo‘ladi. Voqealarga turlicha sharhlar beradi, har xil xulosalar chiqaradi. So‘z yuritayotganimiz Odil Yoqubovning “Muqaddas” va Chingiz Aytmatovning “Jamila” qissalari ham abadiy asarlardir.

Har ikkala qissada adolatsizlikka, orqa fonda bo‘lsa ham, asosiy sabab urush. Millionlab insonlarning yostig‘ini quritgan, millionlab insonlarning taqdirini butunlay boshqa o‘zanga burib yuborgan ikkinchi jahon urishining oqibatlari “Muqaddas” qissasida Sharifning haqiqiy otasi bo‘lmish Soqid o‘g‘lining o‘qishini, oliy ma’lumotli bo‘lishini juda xohlagan. Shu sababli marhumning hayotlik chog‘idagi bu istagini vasiyat o‘laroq bajarish Sharifning onasi Rahimaning zimmasiga tushadi. U esa maqsad usulni oqlaydi, qabilida ish ko‘rib, nafaqat begona birovning farzandiga, balki o‘z farzandiga ham jabr qiladi. To‘g‘ri, voqealar urush maydonida kechayotgani yo‘q. Yoki front orti voqealari talqin qilinayotgani yo‘q. Urushdan qariyb yigirma yil keyingi voqealar asosiga qurilgan qissada urushning ayanchli oqibatlari matn osti fonida berib o‘tilgan.

Sharifning otasi bo‘lmish Sodiq urushda vafot etgan. Jamilaning erining ismi ham Sodiq, ammo u urushdan qaytib keladi. Taqdirning turfa xilligini qarangki, kitobxon “Muqaddas” qissasini o‘qir ekan, Sharifning otasi urushda vafot etmaganda

edi, degan kechinmalarni his qiladi. Haqiqatan ham Sharifning otasi vafot etmaganda o‘z o‘g‘liga halollik, to‘g‘rilik, mardlik, adolat kabi tushunchalarni hayotining shiori qilib tarbiyalagan bo‘larmidi. U Muqaddasni jonidan ortiq ko‘rganida ham, usiz hayot yo‘q deb hisoblaganida ham, boshqa ishlarda ham, o‘z manfaatlariga zid kelsa-da faqat va faqat haqiqat va adolat nuqatayi nazaridan ish ko‘radigan bo‘larmidi. Balki ota jon taslim qilayotganda rafiqasini, pushti kamaridan bo‘lgan o‘g‘lini o‘ylab ko‘zlari ochiq ketgandir.

“Jamila” qissasidagi Sodiq urushdan eson-omon uyga qaytadi. Afsuski, uning qaytishi quvonch emas (o‘ziga, Jamilaga, Doniyorga) ko‘proq tashvish, qayg‘u, g‘am keltiradi. Kim biladi, hamiyati, ori toptalgan yigit “janglarda o‘lib ketganim yaxshi edi”, deb o‘zi ham xayol qilgandir. Ayni xayol atrofdagilarning, xususan, Jamilaning, Doniyorning, ko‘p ming sonli kitobxonning ko‘nglidan kechmadi deb hech kim ayta olmaydi.

Koshki urush bo‘lmaganda edi, Sodiq uyda bo‘larmidi. Jamila arava haydashga majbur bo‘lmasmidi. Doniyor ham ovulga qaytmasmidi. Koshki urush bo‘lmaganida, Jamila bilan Doniyor uchrashmasmidi. Odamlar nazdidagi sharmandalik, xiyonat sodir bo‘lmasmidi. Koshki urush bo‘lmaganida, Sharif o‘gay otaning qo‘lida o‘smasmidi. Koshki urush bo‘lmaganida, Rahima marhum erining vasiyatini bajarish uchun Sharifni noto‘g‘ri, noo‘rin ishlar qilishga majbur qilmasmidi. Bunday “koshki”lar urushda omon qolgan, urush ortida bo‘lgan o‘sha davrdagi milliardlab insonlarning hayotida bot-bot takrorlangan so‘z bo‘lganligiga aslo shubha yo‘q. Koshki urush bo‘lmaganida edi…

Har ikkala qissadagi yigitlar obraziga to‘xtaladigan bo‘lsak, “Muqaddas” qissasida Sharif maktabni bitirganiga endi bir yil bo‘lgan. Hayajoni, hayrati, ichki tuyg‘ulari shunga yarasha kitobxonlarga ham ochiq. Ochiq bo‘lganda ham, juda ochiq. Bunga qissani o‘qigan kitobxon amin bo‘lishi shubhasiz. Shunday bo‘lsa-da bir-ikki misol keltirib o‘tish o‘rinli. Birinchisi, Muqaddasni ilk bor ko‘rgan kez uning izidan qizlar yotoqxonasigacha boradi va o‘tgan yili ham bir qizni sevib qolganini, u qiz o‘qishga kirib o‘zi o‘qishga kirolmay qolganinini, vaqt o‘tishi bilan sekin-asta u qizini unutib yuborganini batafsil keltiradi. Ikkinchidan, ichidagi butun xayollarining haqiqatga aylanishini tez deb o‘ylashi, rejalashtirgan ishlari xuddi o‘zi o‘ylagandek bo‘ladi deb ishonishi, to‘g‘rirog‘i, go‘rlik qilishi uning hali yosh ekanligi, hayot ko‘rmaganligini bildirib turardi.

“Jamila” qissasidagi yigitlar obraziga to‘xtaladigan bo‘lsak, avvalo Sodiq haqida gapirish o‘rinli. Negaki Sodiq qissada birinchi bo‘lib tilga olinadi. To Doniyor asosiy obraz sifatida bo‘y ko‘rsatguniga qadar kitobxon diqqat markazida Jamila va Sodiq bo‘ladi. Sodiq qat’iyatli, o‘z xohishlariga qarshi borib bo‘lsa-da el orasida yorug‘ yuz bilan yurishni istaydigan yigit. Qissa avvalida keltirilgan ot choptirishda Jamiladan yengilib izza bo‘lishni o‘ziga ep ko‘rmay qizni olib qochishi bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

To‘g‘ri, Sharif ham Muqaddasni sevgani uchun o‘qishga kirishim shart deb o‘yladi. Uni sevgani uchun adolatsizlikni to‘g‘irlashga harakat qildi. Uni sevgani uchun (qing‘ir yo‘l orqali bo‘lsa-da) o‘qishga kirgan bo‘lsa ham, o‘qimaslikka qaror qildi. Lekin uning qarorlari vaziyat harakatga kelganidan so‘ng qabul qilindi. Bu qarorlardan hech kim naf ko‘rmadi. Sodiq esa qisqa muddat bo‘lsa-da yilqichilarning eng oldi qizlaridan bo‘lgan Jamilaga sohib chiqdi. Har ikkala obraz harakatlarining so‘ngi o‘zlariga ham, atrofdagilarga ham ko‘ngilsizlik keltirdi.

Doniyor obrazi yopiq, o‘z qobig‘iga o‘ralgan tarzda talqin qilingan. Shunday bo‘lsa-da uning harakatlari orqali u haqda ma’lum bir tassavvurga, taassurotga ega bo‘lamiz. Uning hamiyati kuchli ekanligini bir og‘iz hazil gap tufayli hayotini xavf ostiga qo‘ygan holda to‘rt kishi bazo‘r ko‘taradigan juda katta qanor qopni yuqoriga bir o‘zi ko‘tarib olib chiqishida ko‘rishimiz mumkin. Sharifda esa bunday hamiyat bor bo‘lsa-da, qissa mobaynida yaqqol ko‘rsatilmaydi.

Sharif ham, Doniyor ham yetim edi. Lekin Sharif faqatgina otasidan ayrilgan, onasi esa hayot, buning ustiga o‘gay bo‘lsa-da otasi bor edi. Xalqimizda bir maqol bor: “Onali yetim gul yetim, otali yetim qul yetim”. Shu ma’noda, Sharifning yetimligi haqiqiy yetimlik emas. Hatto otasining o‘gayligini o‘qishga topshirgunicha o‘zi ham bilmaydi. Doniyorda bo‘lsa na ota, na ona, na qarindosh-urug‘, na uy, na vatan bor. Voyaga yetgunigacha bo‘lgan umri asarda talqin qilinmagan, katta ehtimollar bilan bolaligi baxtsiz o‘tgan. Yetimlikning ustiga u urush ko‘rgan, shular sabab bo‘lib hayot uni juda erta ulg‘ayishga majbur qiladi. Xuddi Sharifni xatolari ulg‘aytirgandek. Aslida

Sharif va Doniyor obrazlarini qiyoslash, solishtirish bir chiziqqa to‘g‘ri kelmaydi.

NATIJALAR. Qiyoslardan ko‘rinadiki, adolat ham, adolatsizlik ham darajalanishi mumkin ekan. Muqaddasga nisbatan bir marta adolatsizlik bo‘ldi. Lekin bu haqsizlikka sabab bo‘lganlar bu ishidan pushaymon. O‘qishga kirish-kirmaslik katta fojealar, yo‘qotishlar oldida arzimagan bir narsa. Bir yildan keyin yana o‘qishga topshirish, yaxshi tayyorgarlik ko‘rib o‘qishga kirish mumkin.

XULOSA. Lekin or, nomus masalasi umrboqiy masala. Sha’niga dog‘ tekkan odam o‘sha dog‘ni hayoti davomida o‘chira olmaydi. Muqaddas va Jamilaning vaziyatini bir-biriga solishtiradigan bo‘lsak, Jamilaning qismati og‘ir, fojeasi kuchli, kelajagi mavhum.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Aytmatov Ch. Jamila. “Yangi asr avlodi” T.: 2022-yil.
2. G‘aniyev I., Ibrogimov R. Chingiz Aytmatov va XXI asr. “Akademnashr” T.: 2013-yil.
3. Yoqubov O. Qaydasan Mariko. (Qissalar, dramalar, hikoyalar, etyudlar, maqolalar) Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2002.
4. Jo‘rayev A. Odil Yoqubov xazinasidan. (xotira esse) Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU. 2017.
5. Karimov H. Adabiy portretlar. Toshkent, Yangi nashr, 2017-yil.
6. www.ziyouz.com
7. www.kh-davron.uz

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 1(091)

ЗНАЧЕНИЕ ЧЕЛОВЕКА ВО ВЗГЛЯДАХ АБДУРАХМАНА ДЖАМИ ПО ИНТЕРПРЕТАЦИИ М.Н.БОЛТАЕВА

Асарова Мухаббат Усманджоновна, старший преподаватель кафедры узбекского и иностранного языков БИТИ

ABDURAXMON JOMIYNING INSON HAQIDAGI QARASHLARI M.N.BOLTAYEV TALQINIDA

Asrorova Muhabbat Usmonjonovna, BMTI “O‘zbek va xorijiy tillar” kafedrasi katta o‘qituvchisi

THE HUMAN VIEWS OF ABDURAKHMAN JAMI ON THE INTERPRETATION OF M.N. BOLTAEV

Asrarova Muhabbat Usmanjonovna, senior lecturer of the department of Uzbek and foreign languages, BITI

https://orcid.org/0009-0004-1247-8156
e-mail: kdirbaev-95@mail.ru

Аннотация: Представленная статья содержит в себе исследования взглядов Абдурахмана Джами о смысле жизни человека в интерпретации учёного философа М.Н.Болтаева. Статья даёт подробное разъяснение о существовавших в истории взглядов о сущности человека и изменившихся суждений в настоящем.

Ключевые слова: учение, духовное наследие, природа сущности человека, взгляды, воззрения, высший мир, бессмертная сущность, божественный мир.

Annotatsiya: Taqdim etilgan maqolada faylasuf olim M.N.Boltayev talqinida Abdurahmon Jomiyning inson hayotining mazmuni haqidagi qarashlari o‘rganilgan. Maqolada insonning mohiyati haqidagi tarixda mavjud bo‘lgan qarashlar va hozirgi zamonda o‘zgargan hukmlar batafsil yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ta’limot, ma’naviy meros, inson mohiyatining tabiati, qarashlar, oliy olam, mangu mohiyat, ilohiy olam.

Abstract: The presented article contains research into the views of Abdurakhman Jami on the meaning of human life in the interpretation of the scientist philosopher M.N.Boltayev. The article gives a detailed explanation of the views about the essence of man that existed in history and the changed judgments in the present.

Key words: teaching, spiritual heritage, nature of human essence, views, views, higher world, immortal essence, divine world.

Введение. В истории философских учений есть учения, посвященные изучению смысла жизни человека, его сущности, что обогащает философскую мысль. Особого признания заслуживают исследования Мухаммада Болтаева, ученого, обогатившего Бухарскую историко-философскую школу своими научными трудами. В частности, анализ исследований, посвященных изучению духовного наследия Абдурахмана Джами,

показывает, что истинная сущность человеческой жизни исходит из ее духовных аспектов. В научных изысканиях М.Н. Болтаева по изучению и осмыслению философско-духовного наследия мыслителя-поэта XV в., мудреца, великого гуманиста, учителя народов Средней Азии и Востока Нуриддина Абдурахмона Джами о значении человека, его жизнь и предназначение занимает отдельное место. Многие известные ученые-востоковеды проводили научные исследования по этой теме.

Анализ тематической литературы. К ним относятся фундаментальный труд Э.А. Бертельса «Джами», монография Ш.Ш.Шомухамедова «Абдурахмон Джами», учёного-философа М.Р.Раджабова «Абдурахман Джами и таджикская философия 15 века» и др. работы. Они носят в основном филологический характер. Следует отметить, что в них, как и в других научных работах, освещаются религиозные, мистико-философские взгляды, главным образом, с позиций господствовавших в то время требований письма. Опираясь на эти принципы, М. Н. Болтаев проводил исследования о природе и сущности человека, истолковывал свои взгляды на высшую ступень развития сторон исходя из конкретных соображений, продолжал разъяснять свои взгляды. По мнению философа-ученого М.Н.Болтаева [1], в процессе изучения человеческой природы философ Джами опирался на совокупность идей и правил, мнений и воззрений восточных и западных философов.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ. В стихах Джами утверждается, что человек принадлежит к высшему духовному миру и что он состоит из двух частей: физической и духовной, близких к высшему свету. Сердце является частью общего сердца. Он, в свою очередь, есть настоящая истина, начало эманации создано через «Таджаллий». Однако люди отличаются друг от друга по уровню духовности, далекой от изначальной реальности. Основываясь на мыслях суфия Абу Бакра Васифи, Джами писал: Кто говорит, что он близок к божественной истине, тот будет далек от нее, а кто говорит, что он далек от нее, тот будет нести ее в своем сердце не зная, этого. Таким образом, по трактовке Джами, человек есть частица духа мира, но степень его интимности различна. Человек не только физически-духовное существо, но в то же время, в отличие от других существ, он есть результат собственной общественной деятельности. Индивидуум не может существовать изолированно, в отличие от многих других живых существ. Чтобы обеспечить себя едой, одеждой и жильем, в которых он нуждается в жизни, он должен вступать в различные социальные отношения. Благодаря этой общественной деятельности он, наряду с другими, не только создает необходимые материальные блага, но и изменяет и развивает общественно-политический строй жизни и формирует себя как уникальное социальное существо. Возникновение различных устройств и форм общественно-политической жизни в истории человечества есть вопрос сознания и трудовой деятельности. Из этих взглядов мы понимаем, что человек никогда не может добиться каких-либо результатов в одиночку.

Взгляды и идеи коллектива ведут человека к творчеству и изменениям. Его добрые дела и поступки показывают, что он стремится к высшему свету, которая возвышает и развивает его. Подразумевается, что люди, сформировавшиеся вне общности, более уникальны, это категория людей, отличающихся от других и отстающих в росте и развитии. При размножении таких людей создание идеального государства может быть достигнуто только в результате разумной деятельности человека. Ибо человек духовно бесконечен, он море, океан, беззаконие, душа есть духовная душа в целом, и духовное сердце человека не ограничено пространством и временем. Высшим духовным основанием является вечно бессмертная сущность человека, облаченная в низшую часть, в форму материального, физического тела. Поэтому у человека есть два качества: он стремится к верху, к высотам, к вечному духовному миру — главному реальному источнику его происхождения, а к низу — к телу, его желаниям, стремлениям, физическим страстям, материализму.

Покуда сам человек, каждый индивид, человек (индивид, личность) не познает своей истинной природы, своих разных частей, сторон своего бытия через самопознание, самоуглубление, духовное мышление, он будет стремиться сначала в одном направлении, потом в другом направление, затем вниз – ко всем

явлениям растительного, животного, царства, воображаемые, временные и страдающие, а затем вверх – к высшим, духовным, божественным, вечным. Из этого следует, что бы человек ни делал, что бы он ни создал, он может достичь этого, прежде всего, благодаря своей связи с божественными высотами, даже если он опирается на собственные потребности.

Мудрый философ – Джами, размышляя о природе, сущности человека, смысле и цели его жизни, пришел к следующему выводу: он посредством животных, врожденных качеств, инстинкта обеспечивал свою природную потребность, свое жизнеобеспечение и его жизнедеятельность. Это значит, что способность человека правильно и мудро пользоваться дарованными ему благами, помимо того, что она зависит от его врожденных качеств, есть еще и результат реальной действительности.

При рождении ему нужна помощь, его жизненная цель и смысл не определены. Этим оно отличается от других существ. Философ-ученый М.Н.Болтаев — ученый, изучивший представления Джами о человеке, теле и душе, определивший цель рождения человека, смысл жизни, его стремления и суть его восхождения. Человек был и остается одним из главных пунктов и центром внимания всего общества. Потому что, когда человек рождается, у него есть много четких, природных, человеческих талантов и способностей, но нет у него никаких навыков, природных инстинктов, как у животного ребенка, хотя у детей эти способности, человеческие способности, умения могут быть другими.

Из исследований М.Н.Болтаева видно, что для человека допустимы чистые чувства и любовь. Такая любовь стыдом сокрыта в сердце человека в божественной чистоте.

В заключение приведем цитаты из золотых строк Джами и слова вселенного человечества – величайших гуманистов Востока, великого поэта и философа Средней Азии Абдурахмана Джами, так или иначе теоретически или практически повторившего мудрейшие идеи.

«Мой друг! –обращается к людям Джами. –Мужество всегда присуще земле, только настоящий храбрый человек может быть настоящим мужчиной и он всегда будет бесстрашным, смелым и героическим», - объяснил Джами.

Мой друг! Учитесь у смелых спутников!
Учитесь храброму мужеству с нуля!
Не загрязняй сердце злом от зла!
Спаси свой рот от клеветнических скандальных слов!
Платите за добро добром!
Зло сломало удачу с этим злом!
От него – если есть хорошая привычка
Отовсюду жди только одного хорошего! [3]

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Мечеть Абдурахмона, Бахористон. - Душанбе, 1987. Сах.64.
2. Абу Хамид аль-Газали. Воскрешение науки о вере. - М., 1980. С.237.
3. Абдурахман Джами. Весенний сад. С.93-94.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 5:1(530.13)

JAMIYAT TARAQQIYOTIDA UYG‘UNLIKNI TA’MINLASHNING DISSIMMETRIK PARADIGMASI

Bekpo‘latov Ulug‘bek Rahmatulla o‘g‘li, Navoiy davlat pedagogika instituti doktoranti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

https://orcid.org/0009-0007-4101-8767

e-mail: bekpolatov.u@mail.ru

THE DISSYMMETRIC PARADIGM OF ENSURING HARMONY IN THE DEVELOPMENT OF SOCIETY

Bekpulatov Ulugbek Rakhmatulla o ‘ g‘li, Doctoral student of the Navoi State Pedagogical Institute, Doctor of Philosophy (PhD), Associate Professor

ДИССИММЕТРИЧНАЯ ПАРАДИГМА ОБЕСПЕЧЕНИЯ ГАРМОНИИ В РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА

Бекпулатов Улугбек Рахматулла оглы, докторант Навоийского государственного педагогического института, доктор философских наук (PhD), доцент

Annotatsiya: Maqolada ijtimoiy uyg‘unlikning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati simmetriya va assimmetriya birligi hisoblangan dissimmetriya paradigmasi kontekstida izohlangan. “Ijtimoiylashuv”, “ijtimoiy hamkorlik”, “adolat” kabi ijtimoiy-falsafiy kategoriyalarning dissimmetrik mohiyati ochib berilgan. Shuningdek, ijtimoiy tizim hodisalarini sinergetik yondashuv asosida falsafiy tahlil etishdagi metodologik muammolar va ularni hal etish imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: simmetriya, dissimmetriya, asimmetriya, simmetriya va asimmetriya birligi, uyg‘unlik, jamiyat, taraqqiyot, ijtimoiy gravitatsiya, sinergetika, ijtimoiy hamkorlik.

Abstract: The article explains the importance of social harmony in the development of society in the context of the paradigm of dissymmetry, which is considered the unity of symmetry and asymmetry. The dissymmetric essence of such socio-philosophical categories as socialization, social cooperation, and justice is revealed. Methodological problems and the possibilities of their solution in the philosophical analysis of the phenomena of the social system based on a synergetic approach are also shown.

Key words: symmetry, dissymmetry, asymmetry, unity of symmetry and asymmetry, harmony, society, progress, social gravity, synergetics, social cooperation.

Аннотация: В статье объясняется значение социальной гармонии в развитии общества в контексте парадигмы диссимметрии, считающейся единством симметрии и ассимметрии. Раскрыта диссимметричная сущность таких социально-философских категорий как социализация, социальное сотрудничество, справедливость. Также показаны методологические проблемы и возможности их решения в философском анализе явлений социальной системы на основе синергетического подхода.

Ключевые слова: симметрия, диссимметрия, асимметрия, единство симметрии и асимметрии, гармония, общество, прогресс, социальная гравитация, синергетика, социальное сотрудничество.

TAMADDUN NURI

KIRISH. Hozirgi zamon global ijtimoiy borlig‘i o‘zining asimmetrik xarakteri va nochiziqlilik tabiati bilan o‘ziga xoslik kasb etib, insoniyatning o‘zaro munosabatlari tizimida turli murakkabliklarni keltirib chiqarmoqda. Qurolli urushlar, axborot xurujlar, axloqiy buzuqliklar, diniy va milliy nizolar, turli kasalliklarning global miqyosda tarqalishi, iqtisodiy va ekologik inqirozlar ko‘lamining keskinlashuvi kabi muammolar butun insoniyat oldida yangicha dunyoviy tartibot qonunlarini va uyg‘unlikka asoslangan o‘zaro munosabatlar tizimini yaratish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Kishilik jamiyatining bir necha ming yillik ilmiy-nazariy va ijodiy taraqqiyoti tarixida umummetodologik ahamiyatga ega bo‘lgan g‘oyalar borki, ular vositasida insonlar hatto ijtimoiy-siyosiy va madaniy rivojlanishning yuksak natijalariga erishgan. O‘zida tartibot, uyg‘unlik, muvozanat, muvofiqlik, ritm, turg‘unlik, ekvivalentlik kabi bir qator ma’nolarni aks ettirgan simmetriya g‘oyasi, shu bilan birga sanab o‘tilgan bu jihatlarining buzilishi va yo‘qolishini o‘zida aks ettiradigan dissimmetriya hamda asimmetriya g‘oyalari ham o‘ta muhim evristik, metodologik ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. Simmetriya, dissimmetriya va asimmetriya kategoriyalarga oid g‘oyalardan matematika, fizika, kimyo, biologiya, geografiya, musiqa, psixologiya, filologiya kabi bir qator fanlarda [1.B.15-18], shuningdek, texnika, arxitektura, tasviriy san’at, dizayn kabi ko‘plab sohalarda juda keng foydalaniladi[2]. Lekin, bu tamoyillarning umumiyligi va muhimligi shu bilangina cheklanmay, ularga qadimdan buyon siyosiy boshqaruvda, axloqiy mezonlarni ishlab chiqishda, insonlar orasidagi munosabatlarni tartibga solishda ham e’tibor qaratilgan[3]. Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlarda simmetriya, dissimmetriya va asimmetriya tamoyillariga oid ba’zi zamonaviy tadqiqot ishlari olib borilgan bo‘lsa-da [4.B.196-206], bu tushunchalarning ijtimoiy-falsafiy mohiyati, jamiyat tashkillashishi va taraqqiyotidagi o‘rni tizimli tadqiq etilmagan. Bizningcha, bunga sabab simmetriya, dissimmetriya va asimmetriya tamoyillarining aniq va tabiiy fanlardagi mazmuniga muvofiq keladigan ijtimoiy hodisalarni hamda ularning o‘zaro munosabatlarini aniqlashning murakkabligidir. Haqiqatdan ham bu tushunchalarning aniq va tabiiy fanlardagi mazmuni geometrik va matematik operatsiyalar, turli murakkab tenglamalar orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun ham ularning ijtimoiy hodisalardagi analogini topish har doim ham oson kechmaydi. Shunday bo‘lsa-da, ijtimoiy falsafaning kategorial tushunchalari mohiyatida ma’lum darajada simmetriya, dissimmetriya va asimmetriya kategoriyalariga aloqador jihatlarni topish mumkin.

MUHOKAMA. Simmetriyaning keng ma’nodagi ijtimoiy mazmuni ijtimoiylashuv jarayoni bilan chambarchas bog‘liq. Chunki kishilik jamiyati paydo bo‘lgan davrlardan boshlaboq odamlar yashab qolish va ko‘payish uchun, o‘zlarining turmush sharoitlarini yaxshilash maqsadida o‘zaro hamkorlikda, birdamlikda va birlikda harakat qilganlar. Bunday munosabatlar oxir-oqibatda o‘zaro hamkorlik qilayotganlarning bir murosaga kelib, o‘zlarining baxt-soadati yo‘lida birgalashib xizmat qilishlariga olib kelgan, ya’ni ular o‘rtasida ijtimoiylashish jarayoni sodir bo‘la boshlagan. Ijtimoiylashuv jarayonida inson jamiyatda hayot kechirish imkonini beruvchi bilimlar, me’yorlar va qadriyatlar tizimini, kishilik madaniyatining, xususan, milliy madaniyat an’analarini o‘zlashtiradi.

“Ijtimoiy hamkorlik” tushunchasida ijtimoiy simmetriyaga tegishli bo‘lgan eng muhim xususiyatlar aks etgan bo‘lib, bu tushuncha “ijtimoiy strukturalar hamda institutlar o‘rtasidagi jamiyat hayotining barcha sohalariga doir munosabatlarda kelishuv, o‘zaro ishonch va hurmat, tenglikni ta’minlashga qaratilgan, fuqarolik jamiyati asoslarining mustahkamlanishiga xizmat qiladigan nazariya va amaliyotdir”[5.B.424].

Bundan tashqari, “Adolat” tushunchasi ham ijtimoiy simmetriyaning eng muhim va o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir. Darhaqiqat “adolat – insoniyatning azaliy orzusi, ezgu g‘oyasi, ma’naviyat, axloq va huquqning me’yori”[6. B.15], “...qonun oldida barchaning tengligi va qonunning barchaga barobarligi”, “odillik, to‘g‘rilik, haqqoniylik”[6.B.15], “ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma’naviy-axloqiy munosabatlarga kirishgan odamlarning o‘z burch va vazifalarini jamiyat tomonidan o‘rnatilgan axloqiy, siyosiy,

huquqiy, ma'naviy me'yorlar talablaridan kelib chiqqan holda to'g'ri, qonuniy, halol, vijdonan, haqqoniy va odilona bajarishlarini o'zida ifodalovchi xatti – harakatlar tizimidir"[5.B.424]. Bundan ko'rinadiki, ijtimoiy simmetriyaning adolatlilik tamoyiliga rioya etish har qanday jamiyat taraqqiyotida juda muhim ahamiyat kasb etadi. "O'zbekiston — 2030" strategiyasida ham "Xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish" masalasi asosiy g'oya sifatida e'tirof etilganligining [7] o'zi ham, har qanday mamlakatning barqaror taraqqiyotida adolatning naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

"Ijtimoiy hamkorlik" va "Adolat" tushunchalaridan tashqari, totuvlik, bag'rikenglik, muvozanatlilik, kompromiss, konsensus, yakdillik, kooperatsiya, jamoaviylik, madaniyat, qadriyat, mentalitet kabi ko'plab tushunchalar ham ijtimoiy simmetriyaning mazmunini tashkil etadi.

Dialektik ziddiyat qonuniyati ijtimoiy borliq hodisalariga ham tegishli bo'lganligi sababli, har qanday jamiyatda ijtimoiy simmetriya bilan birgalikda ijtimoiy asimmetriya ham doimo mavjud bo'ladi. Ijtimoiy asimmetriya ijtimoiy simmetriyaning yuqoridagi holatlarining o'zgarishini, sistemaning sifat jihatdan yangi va yanada tashkillashgan holatga o'tishini ifodalaydi. Bizningcha, jamiyat hayotida yuzaga keladigan turli asimmetrik voqeliklarga ijtimoiy simmetriyaga nisbatan dialektik ziddiyat, qarama-qarshi tomon sifatidagina emas, balki postnoklassik ilmiy tafakkur tarzi nuqtayi nazaridan yondoshib, rivojlanishning yangicha imkoniyatlar manbai sifatida qarash lozim. Har qanday ijtimoiy voqelikda ijtimoiy simmetriya va asimmetriya doimo mavjud bo'ladi hamda ularning o'zaro munosabatlaridagi muvofiqlikni ijtimoiy dissimmetriya ta'minlaydi. Demak, dissimmetriya paradigmasi ijtimoiy borliqni simmetriya va asimmetriyaning birligi konstekstida tahlil etishning zamonaviy metodologiyasidir. Yuqorida to'xtalib o'tgan ijtimoiy simmetriya tushunchasi o'zida ijtimoiy gravitatsiyani yuzaga keltirish xususiyatiga ega. Buni quyida ijtimoiy massa va gravitatsiyaning hosil bo'lish jarayoni misolida ko'rib chiqamiz. Tahlillar o'z-o'zini tashkillashtiruvchi sistemalarda elementlarning o'zaro munosabatlar simmetriyasi orqali strukturaviy birlashish jarayoni sodir bo'lishini va oqibatda massaning yuzaga kelishini ko'rsatmoqda. Shunga binoan, inson ijtimoiy olamda o'zining bor ekanligini shu olamga qo'shilish istagi qachon paydo bo'lsagina his qiladi. Insonning ijtimoiy olamga qo'shilish istagi uning talabi yoki ehtiyoji tufayli sodir bo'ladi. Agar insonda bu ehtiyoj yoki talab bo'lmasa va u bu talabini qondirishga intilmasa, harakat qilmasa u ijtimoiy olamda ko'rinmaydi, oddiy qilib aytganda u yo'q (lekin har qanday inson ma'lum darajada ijtimoiy olamda mavjud bo'ladi). Inson ijtimoiy olamda bor bo'lishi uchun, o'z xohish-istaklariga javob olish maqsadida atrofdagilar bilan o'zaro muloqotni, ta'sirlashishni, munosabatga kirishishni boshlashi kerak. Bu ta'sir boshlanishi bilan atrofda, ijtimoiy hayotda, nimalar mavjud, unga erishish uchun qanday qonun-qoidalar amal qiladi, farmoyishlar, qonun osti hujjatlari, shuningdek, atrofdagilar bilan munosabatda qonuniy asosda belgilanmagan bo'lsa-da, nimalarga e'tibor berish kerakligi haqidagi axborotlarga ega bo'la boshlaydi, shu bilan birga nimalarga ruxsat etilgan-u, nimalarga ruxsat etilmaganligini e'tiborga olgan holda o'z harakati yo'nalishini aniqlab oladi va ta'sirlashuvni davom ettiradi. Shunday qilib, insonning ijtimoiy olam bilan ta'sirlashuvi uning ijtimoiy harakatlari mazmunini tashkil qiladi. Demak, ijtimoiy gravitatsiya ijtimoiy simmetriyaning eng muhim xususiyati bo'lib, insonlarning jamiyat va davlat qonun-qoidalariga rioya etish darajasini xarakterlaydi. Tabiatdagi simmetriya qonuniyati jonli va jonsiz tizimlardagi jarayonlarni tartibga soluvchi, chegaralovchi va boshqaruvchi, tabiatda nimalar bo'lishi mumkinu, nimalar ruxsat etilmaganligini belgilaydi, namoyon etadi. Ijtimoiy simmetriya ham jamiyatdagi ana shunday xususiyatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Bundan, ijtimoiy simmetriyaga rioya etish har qanday davlatning barqaror taraqqiyotida qanchalik katta ahamiyatga ega ekanligini anglash mumkin. Lekin, har qanday davlat yoki jamiyatda ma'lum bir tarixiy davrda obyektiv va subyektiv omillarga ko'ra, insonlarning yashash tarzida, hayotida, dunyoqarashida, ma'naviyatida, madaniyatida, qadriyatlar tizimida, iqtisodiy-ijtimoiy sharoitlarida asimmetriya yuzaga keladi. Bunda ijtimoiy asimmetriya taraqqiyot manbai bo'lib, yangi elementlarini hosil qilishi va jamiyatning rivojlanishini yangi bosqichga olib chiqishi mumkin.

NATIJALAR. Har bir tarixiy davrda jamiyat o‘z taraqqiyoti davomida vujudga kelgan muammolarni hal etish uchun shaxsning muayyan tarixiy namunalarini yaratadi. Har bir o‘zgargan tarixiy sharoitda shaxs mohiyatini va mazmunini yangicha tushunish zaruriyati vujudga keladi. “...ba’zi sharoitlarda individual yoki alohida shaxs faoliyati muhim tabiiy, ijtimoiy, tarixiy voqeliklarga sabab bo‘lishi mumkin” [8.B.93]. Ya’ni, shaxsning muayyan namunalari o‘zi yashayotgan mavjud ijtimoiy simmetriyaga muvofiqlashibgina qolmay, balki uni konstruktiv asimmetriyalar orqali o‘zgartirish, uni taraqqiy ettirish imkoniyatlariga ham ega bo‘ladi. Mamlakatimizning Birinchi prezidenti I.A.Karimov ana shunday tarixiy shaxs sifatida, faqat sobiq SSSRning manfaatlariga xizmat qilish uchun o‘rnatilgan ijtimoiy simmetriyani o‘zgartirib, xalqimizni juda og‘ir sharoitda o‘z ortidan ergashtirdi, o‘z taraqqiyot yo‘limizni, o‘zimizga mos va xos bo‘lgan ijtimoiy simmetriya tamoyillarini belgilab berdi va uni hayotga keng joriy etdi. Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Birinchi Prezidentimiz tomonidan boshlab berilgan demokratik islohotlarni izchil davom ettirish bilan birgalikda, mavjud ijtimoiy simmetriyaga tegishli o‘zgartirishlar, ya’ni konstruktiv xarakterdagi asimmetriya elementlarini kiritdi. Bu jarayon oldin mavjud bo‘lgan ijtimoiy simmetriyani inkor etmaydi, balki uni bugungi kun talablariga mos holda asimmetriya elementlari bilan qurollantiradi, xalqchilligini, samaradorligini hamda ularni amalga oshirish mexanizmlarini rivojlantiradi. Bunday ongli jarayonda mavjud ijtimoiy simmetriya asimmetriya elementlari bilan o‘zaro ta’sirlashadi va chuqur tahlillar asosida davlat va jamiyatning eng maqbul rivojlanish yo‘llari ishlab chiqiladi. Ijtimoiy simmetriya va asimmetriyaning ana shunday maqbulligi ijtimoiy garmoniyani ifodalaydi. Shunday qilib, ijtimoiy simmetriya davlat va jamiyat tomonidan o‘rnatiladi, ijtimoiy garmoniya esa faqatgina ijtimoiy simmetriya va asimmetriyaning muvofiqligini emas, balki barchaning (oddiy fuqarodan tortib davlat rahbarigacha) shu o‘rnatilgan ijtimoiy simmetriyaga amal qilish darajasini angalatadi. Garmoniklashish shaxs tomonidan muayyan madaniyat an’analariga xos bo‘lgan faoliyat va xulq-atvor me’yorini o‘zlashtirish, xulq-atvor va tartib-qoidalarni anglash jarayoni hamdir. Ijtimoiy garmoniyada shaxsning jamiyatda o‘rnatilgan tartib-intizomni o‘z imkoniyatlari va ijtimoiy muhit talablari bilan muvofiqlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Agarda qaysi davlatda ijtimoiy garmoniya yuqori darajada bo‘lsa, shu davlat har tomonlama taraqqiy etadi. Shaxsning ijtimoiy muhit bilan garmoniklashish jarayonida unda ijtimoiy muhitning xususiyatlari shakllanadi. Buni falsafiy jihatdan qismda butunning xususiyatlarini shakllanish jarayoni sifatida qarash mumkin va aynan shu jarayon ijtimoiy borliqning fraktallik tabiatiga ega ekanligidan dalolat beradi. Lekin, ijtimoiy fraktallik fizik fraktallarga nisbatan murakkab tabiatga ega bo‘lib, bir shaxsning o‘zi turli ijtimoiy muhit ta’sirida bo‘lganligi bois, unda turli ijtimoiy muhitning xususiyatlari shakllangan bo‘lishi mumkin. Bu vaziyatda qism va butun o‘zaro munosabatlari yanada murakkablashadi, shuning uchun ham bu masalalarni yechish uchun sistemali yondashuvlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy dissimmetriyaga, ya’ni uyg‘unlikka erishishda uning mexanizmida asosiy o‘rinni ijtimoiy rostlash egallab, u quyidagi rostlagichlar va yo‘nalishlardan iborat bo‘ladi. Asosiy rostlagichlar asosan, davlat, nodavlat va notijorat hamda nazorat qiluvchi tashkilotlar va o‘z-o‘zini boshqarish organlari faoliyatlari, ijtimoiy hamkorlik, marosimlar, moda, stereotip, menenjment, etiket, urf-odatlardan iborat bo‘ladi. Yo‘nalishlarga esa, qadriyatlar, g‘oyalar, axloqiy me’yorlar, maqsadlar, fikrlar va boshqalar kirib, jamiyat hayotini uyg‘unlashtirish amaliyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimiz kadrlar tayyorlash tizimida amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning markazida ham, ijtimoiy simmetriyaga rioya qiluvchi yuksak salohiyatli garmonik shaxslarni shakllantirish va ular orqali mamlakatimiz barqaror taraqqiyotini ta’minlash maqsadi yotibdi. Bugungi kunda ijtimoiy borliqdagi jarayonlarni va tashkillashish qonuniyatlarini postnoklassik fanlar kontekstida tahlil etish ham dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Lekin, zamonaviy tadqiqotlarda jamiyatdagi o‘z-o‘zini tashkillashtirish hodisalari xuddi tabiatda yuz beradigan “xaosdan tartibga o‘tish” jarayoni tarzida o‘rganilmoqda. Bu yerda tabiatda yuz beradigan o‘z-o‘zini tashkillashtirish hodisasining algoritmiga amal qilinmoqda, ya’ni jamiyat kuchli beqarorlik holatiga sinergetik jihatdan “bifurkatsiya nuqtasi”ga kelganda kutilmagan tasodif tufayli attraktorlar ta’sirida boshqa barqarorlik holatiga o‘z-o‘zidan

TAMADDUN NURI

o‘tadi. Tabiiy sistemalarning o‘z-o‘zini tashkillashtirish qonuniyatlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijtimoiy hayotga tatbiq etilishida o‘ta ehtiyotkor bo‘lish kerak ekan. Bu birinchi navbatda aniq va tabiiy fanlardagi tushunchalar, atamalar umumiy holda qabul qilinishi bilan bog‘liq bo‘lib, tabiat sistemalari uchun obyektiv ravishda o‘z-o‘zini tashkillashtirishning o‘rni juda ham katta. Chunki, tabiatdagi strukturalar tashkillashishida fizik konstantalar (o‘zgarmaydigan qiymatlar) “oltin kesishuv”larga bo‘ysunadi. Sinergetikaning kooperatsiya, murosasozlik, ko‘pvariantlilik, ochiqlilik kabi tamoyillari ijtimoiy borliqning rivojlanish qonuniyatlarini bilishda juda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ijtimoiy muammolarga “sinergetik yondashuv – intersubyektiv dialog jarayoni bo‘lib, doimo o‘zining ichki tarixiga, muhokoma mantig‘iga, diskursiga ega bo‘ladi” [9.B.87].

XULOSA. Yuqordagi fikrlarni umumlashtirib aytishimiz mumkinki, jamiyatdagi o‘z-o‘zini tashkillashtirish jarayonlarini yoki tartibsizlikdan tartibga o‘tish qonuniyatlarini o‘rganishda simmetriya va asimmetriya hamda garmoniya tamoyillaridan unumli foydalanish lozim. “Sinergetiklar buni tushunadilar, lekin hozirgacha ham garmonik tahlil metodlaridan foydalanmayaptilar. Bu esa, o‘z-o‘zidan jamiyatning taraqqiyot qonuniyatlarini anglashda va ularni ishlab chiqishda muammolarni yuzaga keltirmoqda. Chunki, jamiyat – murakkab sistema bo‘lib, undagi tartib nafaqat o‘z-o‘zini tashkillashtirish hisobiga, balki boshqarish jarayonida ham ongli yaratiladi. Demak, jamiyat strukturasini sinergetika asosida shakllangan “toza” obyektiv reallik sifatida qarash, doim ham to‘g‘ri xulosalarga olib kelmaydi.

Shunday qilib, sinergetika dissimmetriya paradigmasidan unumli foydalansagina, turli tizimlardagi o‘z-o‘zini tashkillashtirish qonuniyatlarini chuqur va to‘g‘ri ifodalay olishi hamda fanlarning haqiqiy metodologiyasiga aylanishi mumkin. Natijada, barqaror taraqqiy etadigan farovon jamiyat qurish imkoniyatlari oshadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Safarova N.O., Bekpo‘latov U.R. Simmetriya va asimmetriya (falsafiy–metodologik tahlil). Monografiya.– T, Fan va texnologiyalar, 2018. B.172.
2. Gyorgy Darvas. Symmetry Cultural-historical and ontological aspects of science–arts relations The natural and man-made world in an interdisciplinary approach/Translated from the Hungarian by David Robert Evans. Birkhäuser Verlag AG, Basel – Boston – Berlin. 2007. p. 350.
3. Х.Н. Ягафарова. Симметрия и самоорганизация: от античной натурфилософии к современной науке. дисс.кан.наук. 2008, УФА, - 171 с.
4. Д.М.Кошлаков. Категори и симметрии и асимметрии в социологических и политологических исследованиях//Вестник Института социология, 2013, №6, -440 с.
5. Yaxshilikov J.Ya, Muhammadiyev N.E. Milliy g‘oya – taraqqiyot strategiyasi[Matn]: monografiya– T: Fan, 2017. B.522.
6. Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. – T.:G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot–matbaa ijodiy uyi, 2010. B. 460.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-sonli Farmoni. https://lex.uz/uz/docs/-6600413
8. Turayev B.O. Borliq: mohiyati, shakllari, xususiyatlari. – T.: Tafakkur. 2011. B. 424.
9. Аршинов В.И. Синергетика как феномен постнеклассической науки. - М.: РАН. Ин-т философии, 1999. – с.169.

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK:800

KOGNITIV TILSHUNOSLIK VA UNDAGI STEREOTIPLAR

Baxriddinova Dildora Oktamovna, Jizzax davlat pedagogika universiteti Xorijiy tillar fakulteti, "Ingliz tili nazariyasi va amaliyoti" kafedrasi katta o'qituvchisi, dotsent v.b.

https://orcid.org/0000-0003-0111-8986
e-mail: dildora.bahriddinova86@gmail.com

COGNITIVE LINGUISTICS AND STEREOTYPES IN IT

Bakhriddinova Dildora Oktamovna, Jizzakh State Pedagogical University Faculty of Foreign Languages, Department of English Theory and Practice senior teacher, acting associate professor

КОГНИТИВНАЯ ЛИНГВИСТИКА И СТЕРЕОТИПЫ В НЕЙ

Бахриддинова Дилдора Октамовна, Джизакский государственный педагогический университет, факультет иностранных языков, кафедра теории и практики английского языка, старший преподаватель, исполняющий обязанности доцента

Annotatsiya: *Kognitiv tilshunoslik tilni trasformatsiyalanishida va kodlashtirilishida kognitiv mexanizm sifatida uni o'rganadi. Bu tilshunoslikning maqsadi qabul qilish jarayonining qay tarzda paydo bo'lishi, kategoriyalanishi, tasniflanishi va dunyoni o'z nuqtayi nazaridan tushunishni o'z ichiga oladi.*

Kalit so'zlar: *kognitiv tilshunoslik, oraliq tili, stereotiplar, konsept, stereotip, axborot kognitiv model, "madaniy model".*

Abstract: *Cognitive linguistics studies language as a cognitive mechanism in its transformation and encoding. The goal of linguistics is to understand how the process of perception emerges, categorizes, classifies, and understands the world from one's point of view.*

Key words: *cognitive linguistics, intermediate language, stereotypes, concept, stereotype, information cognitive model, "cultural model".*

Аннотация: *Когнитивная лингвистика изучает язык как когнитивный механизм в его преобразовании и кодировании. Цель лингвистики — понять, как возникает процесс восприятия, категоризирует, классифицирует и понимает мир с своей точки зрения.*

Ключевые слова: *когнитивная лингвистика, язык-посредник, стереотипы, концепт, информационная когнитивная модель, «культурная модель».*

KIRISH. Ma'lumki, har bir davrda o'z rivojlanish jarayoniga ko'ra tilshunoslik va uning turli sohalari taraqqiy etgan. Jumladan, XVIII asrda asosan qardosh tillar orasida qiyosiy-tarixiy qarashlar mavjud bo'lgan bo'lsa, o'tgan asrda hukmron bo'lgan struktural paradigmaning o'rnini antropotsentrik, funksional, kognitiv va dinamik paradigmalar majmui egalladi. Antropotsentrik paradigmada bu izlanuvchi qiziqishlarining anglash obyektlaridan subyektga o'tish, boshqacha qilib aytganda insondagi til va tildagi inson tahlili tushuniladi. Zamonaviy tilshunoslikning antropotsentrik paradigmasida qator yo'nalishlar taraqqiy etmoqda, ulardan kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya bugungi kunda eng dolzarb yo'nalishlar hisoblanadi.

Kognitiv tilshunoslik sohasida olib borilayotgan tadqiqotlar, tilning nafaqat kommunikatsiya vositasi sifatida, balki inson tafakkuri va hissiyotlari bilan bog‘liq murakkab jarayon sifatida qanday ishlashini o‘rganishga qaratilgan. Bu yondashuv, tilni faqat grammatik qoidalar to‘plami sifatida emas, balki insonning atrof-muhitga bo‘lgan munosabatini aks ettiruvchi dinamik tizim sifatida ko‘rishga imkon beradi. Kognitiv tilshunoslikda asosiy e’tibor tilning kontekstual va madaniy jihatlariga qaratiladi, bu esa odamlarning fikrlash tarzini va dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Maqolada kognitiv lingvistika nazariyalarining amaliy qo‘llanilishi ham muhokama qilinadi. Masalan, kognitiv stereotiplar (skript, freym, senariy, geshtalt) orqali odamlar qanday qilib abstrakt tushunchalarni aniq tasvirlar yordamida ifodalashlarini ko‘rsatish mumkin. Shuningdek, til va tafakkur o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlarni tahlil qilish orqali kognitiv tilshunoslik sohasidagi yangi istiqbollar ochiladi. Tilning muloqotda ishtirok etishi borliqni idrok etish jarayoni hisoblanib, u haqidagi axborotni shakllantirish va uzatish, axborotni qurish va takomillashtirish, uni uzatish va qabul qilish kabi umumiy bilimlarni o‘zida mujassamlashtiruvchi keng doiradir. Kognitiv lingvistika tilni o‘rganadi. Tilshunoslikning bu bo‘limi ***“til tizimining axborotni qayta ishlash, nutqni hosil qilish va idrok etish***” nuqtayi nazaridan o‘rganuvchi soha sifatida qaraladi.

Kognitiv tilshunoslar, boshqa tilshunoslardan farqli ravishda, tilni kognitiv yondashuvlar asosida o‘rganadilar: ular tilning tizimliligini, tuzilishini, xizmat qiladigan vazifalarini va bu vazifalarning til tizimi tomonidan qanday amalga oshirilishini tasvirlashga va hisobga olishga harakat qiladilar. Biroq, kognitiv tilshunoslarning tilni o‘rganishining muhim sababi tilning fikrlash shakllarini aks ettiradi, degan taxmindan kelib chiqadi. Shunday ekan, tilni shu nuqtayi nazardan o‘rganish kontseptualizatsiya modellarini o‘rganishdir, degan nazariyani kognitiv tilshunoslar ilgari suradi. Unga ko‘ra, kognitiv lingvistikaning tilni o‘rganishdagi boshqa yondashuvlaridan farq qiladigan eng muhim jihati shundaki, ***til inson ongining muayyan fundamental xususiyatlari va dizayn xususiyatlarini aks ettiradi deb faraz qilinadi*** [1] . Kognitiv tilshunoslik tilshunoslikning nisbatan yangi maktabi bo‘lib, kognitiv fan deb nomlanuvchi fanlararo tadqiqotning zamonaviy sohasida paydo bo‘lgan til va fikrni o‘rganishning eng innovatsion va hayajonli yondashuvlaridan biridir.

METOD. Kognitiv tilshunoslikda olam borasidagi bilimlarni inson ongida aks ettirish bu tilning vazifasiga kirmaydi. Ushbu aks inson tafakkuri yordamida gavdalanadi. Tafakkurimizda aks etgan hodisa lison orqali nutqda o‘z ifodasini topadi. Kognitiv tilshunoslikda aynan shu jarayon, ya’ni tafakkurdagi hodisaning qay tartibda lisoniylashuvi bahsli mavzulardan hisoblanadi.

Kognitologiya fani inson tafakkuri bilan chambarchas bog‘liq. Voqelikdagi biror predmet haqida dastlab ongimizda o‘z his-tuyg‘ularimiz ko‘magida tushuncha paydo bo‘ladi. So‘ngra xotiramizdagi ma’lumotlar omboriga ko‘ra ushbu tushuncha konseptlashadi, ya’ni tafakkurimizda voqelikdagi predmet obrazini gavdalantiramiz. Oxirgi bosqich konsept voqelikdagi predmetning lisoniy moddiylashuvi bilan yakunlanadi.

Kognitiv tilshunoslikda eng asosiy o‘rganiladigan muammo – bu konseptdir. Chunki kognitiv tilshunoslik – dunyoning lisoniy tasvirida muayyan konseptning mohiyati va dunyo voqeliklari bilan bog‘liqligini o‘rganuvchi fan bo‘lsa, konsept kognitiv tilshunoslik fanining asosiy kategoriyalaridan biri bo‘lib, madaniyat va inson o‘rtasidagi aloqa o‘rnatuvchi elementdir. “Konsept” atamasi o‘tgan asrning 90-yillaridan beri tilshunoslikda keng qo‘llanilib kelinmoqda. Shunga qaramasdan, konsept tushunchasi hali-hamon bitta umumiy izoh yoki talqinga ega emas.

Biror bir hodisani gavdalantirishda avval inson tafakkurida yuzaga kelgan mental tuzilmalar lisonda o‘z aksini topadi. Bu jarayonda esa so‘z voqelikni anglash va bilish vositasi sifatida qaraladi. Voqelikning lisonda moddiylashuv bosqichlari: dastlab moddiy dunyo haqidagi tushuncha paydo bo‘lishi, so‘ngra bu tushuncha taffakkurdagi mavjud bilimlar orqali konsept sifatida shakklanib nom olinishi bilan tavsiflanadi.

MUHOKAMA. Kognitiv tilshunos olimlar ushbu jarayonda muhim rol o‘ynovchi lisoniy xotiraga ham to‘xtalib o‘tadi. Ya’ni, insonning

[1] Vyvyan Evans va Melanie Green. Kognitiv tilshunoslikka kirish, Edinburg universiteti nashriyoti-2006; p-5, 85

lisoniy xotirasi tashqi dunyo axborotini qabul qilib uni lisoniy xotiradagi ramzlarga va qoliplarga tayangan holda botiniy nutqdan zohiriy nutqqa ko‘chiriladi. Ammo, shu jarayonda inson tafakkuridagi lisoniy xotira va qoliplar qay tarzda faollashishi hamon muhokama talab etuvchi mavzulardan biridir. Tilshunos olim Yu.N.Karaulovning fikricha semantika va gnoseologiya (ma’no va uni bilish) bir-biri bilan bilvosita bog‘lanishini, ular o‘rtasida ***oraliq bosqich*** bor degan nazariya bilan “til – belgilar tizimidir” va “ma’nolarning individual tizimini qayta tiklash yo’li bilan insonning tashqi olamni bilish qobiliyatini aniqlash mumkin”ligi borasidagi ilmiy farazlarga qarshi chiqdi. Yu.N.Karaulov ushbu oraliq **bosqichlarga obraz, geshtalt, freym, propozitsiya, kartina, simvol, formula, so‘z va diagrammalarga** to‘xtalib, aynan ushbu bosqichlarda insonda oraliq til yuzaga kelishini ta’kidlaydi. Tilshunos olim oraliq tilga quyidagicha ta’rif beradi: “Oraliq tili- intellektual faoliyat va uning lisoniy voqelanishi jarayonida yuzaga keladi va “tovushli, tashqi nutq va miya(ong)ning o‘ziga xos tili oralig‘idan o‘rin oladi”. Shuningdek, olim oraliq tilning lug‘at tarkibi va bu boradagi hech qanday matn mavjud emasligini, oraliq tilning asosiy vazifasi inson miya tili va insonning haqiqiy-tabiiy tili o‘rtasidagi vositachilik ekanligini qayd etadi” [2] . Kognitiv tilshunos olimlarining muhokamaga sabab bo‘luvchi ushbu mavzu ham o‘z o‘rnida juda ham dolzarbdir. Har qanday voqelikning inson lisonida moddiylashuvida inson tafakkurida ro‘y beradigan barcha psixologik va biologik hodisalar qay tarzda lison bilan uzviy bog‘lanishini aniqlash ushbu olimlar zimmasidagi yechilishi lozim bo‘lgan lisoniy jumboqdir. Tilshunos olim Karaulov Yuriy Nikolayevich ta’kidlagan oraliq bosqichlari mavzusini dunyoning boshqa tilshunos olimlari ham davom ettirib, bu boradagi o‘zlarining ilmiy farazlarini – oraliq bosqichlarini ilgari surishdi: Rumelhart “script va senariy” (1975); Filmor “kognitiv model” (1977); Jounson Lerd “mental model” (1983); van Deyk “situatsiya modeli” (1989) kabi bosqichlarni oraliq bosqichlar qatoriga kiritib, Karaulovning ta’limotini yanada kengaytirdi[3].

NATIJA. Aynan ushbu “quticha”lar orqali inson xotirasida mavjud bo‘lgan bilimlarni moddiylashuviga erishiladi, degan g‘oya ilgari surildi. Olimlar ilgari surayotgan ushbu kognitiv modellar yordamida insonning tashqi olamning idroki jarayonini yengillashtirib, qabul qilinayotgan ma’lumotlarni inson xotirasidagi oldingi tajribalari asosida mental “qayta ishlab” qismlarga ajratib va umumlashtirib yangi bilimni kashf etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu hodisa- borliqni qismlarga ajratib, umumlashtirib, idrok etish qobiliyati insoniyatga Olloh tomonidan taqdim etilgan buyuk tuhfadir. Ushbu qobiliyat orqali, biz borliqdan qabul qilinayotgan axborotlarni saralashimiz va keragini xotiramizda saqlashimiz mumkin. Tashqi olamda yuz berayotgan hodisalar takrorlanishi, bir-biriga yaqin bo‘lishi mumkin. Bu jarayonda esa ular bilan bog‘liq bo‘lgan bilimlar ham aynan ma’lum bir qoliplashtirilgan ***stereotip*** (bir xil qolip)larga ega bo‘ladi. Ushbu qoliplashgan bilimlar, insonga xotirada bu qolip bilan bog‘liq bilim yordamida yangi bilim qiyoslanadi va yangi bilim qayta ishlanib, lisonda moddiylashadi. Bu kabi mental qoliplar borliq haqidagi, hodisa borasidagi axborotni to‘liq tiklash va tasvirlash imkonini beradi.

Kognitiv tilshunoslik tilni kognitiv tomonidan o‘rganadi, bu yerda kognitiv dunyoni anglashimizdagi oraliq axborot tuzilmalarining muhim rolini o‘zida mujassam etadi. Kognitiv lingvistika tilni insonning umumiy kognitiv imkoniyatlariga singdirilgan deb hisoblaganligi sababli, insonning dunyo bilan o‘zaro ta’siri ongdagi axborot tuzilmalari orqali hamohang birlashadi. Bu jarayonda esa, lison-tabiiy tilning asosiy vazifasi axborotni qabul qilish, qayta ishlash va yetkazuvchi vosita sifatida qaraladi. Shu boisdan ham lison borliq bilimlarining umumiy ombori, yangi tajribalar bilan shug‘ullanish, eskilarini esa xotirada saqlash bilan bog‘liq toifalarning tuzilgan to‘plami hisoblanadi[4]. Kognitiv tilshunoslar uchun biror bir voqelikdagi hodisaning tahlilida “kontekst” va “holat” (context and situation) alohida muhim konseptlar hisoblanadi. Ayniqsa “kontekst” kognitiv tilshunoslar tomonidan aqliy hodisa sifatida qaraladi. Olim Langaker borliq haqidagi semantik bilimni tavsiflashda “kontekst”

[2] Sh.Safarov. Kognitiv tilshunoslik. “Sangzor”.Jizzax 2006.29-bet. 91 bet.

[3] Sh.Safarov. Kognitiv tilshunoslik. “Sangzor”.Jizzax 2006.33-bet. 91 bet.

[4] Dirk Geeraerts va Xubert Kuykens. Kognitiv tilshunoslik bo'yicha Oksford qo'llanmasi. Oksford universiteti nashriyoti 2007. P-37, 1361

markaziy tushuncha bo‘lishi lozimligini ta’kidlaydi[5]. Kundalik hayotda duch keladigan barcha turdagi hodisalar uchun biz ko‘p sonli o‘zaro bog‘liq kontekstlarni boshdan kechiramiz va ularni xotirada saqlaymiz. Kognitiv toifalar (kategoriyalar-D.Baxriddinova) nafaqat ular kiritilgan bevosita kontekstga, balki u bilan bog‘liq bo‘lgan barcha kontekstlar to‘plamiga ham bog‘liq. Shu nuqtayi nazardan, biror bir mavzu doirasida inson ongida saqlanib turuvchi barcha kognitiv tasavvurlarni kognitiv tilshunoslikda ma’lum bir atama bilan izohlash lozim deb topildi. Kognitiv tilshunos olimlar bunday atamani “kognitiv model” tarzida ushbu fanga targ‘ib qildi. Haqiqatda, biz barcha qabul qilayotgan yangi axborotlarni ongimizdagi mavjud bo‘lgan yoki o‘xshah toifalarga – kognitiv modellarga asoslanib idrok etamiz. Til bu millat madaniyatini ko‘rsatib beruvchi vosita ekan, kognitiv modellarni “**madaniy model**” sifatida ham talqin etilishini olmon tilshunoslari quyidagi fikrlarida izohlagan: “Kognitiv modellar, albatta, universal emas, lekin inson o‘sib-ulg‘aygan va yashaydigan madaniyatga bog‘liq. Madaniyat kognitiv modelni shakllantirish uchun biz boshdan kechirishimiz kerak bo‘lgan barcha vaziyatlar uchun zamin yaratadi.

XULOSA. Shunday qilib, ma’lum sohalar uchun kognitiv modellar oxir-oqibat madaniy modellarga bog‘liq. Aksincha, madaniy modellarni ijtimoiy guruh yoki kichik guruhga mansub odamlar tomonidan baham ko‘rilgan kognitiv modellar sifatida ko‘rish mumkin [6] ”. Umuman olganda, kognitiv modellar va madaniy modellar bir tanganing faqat ikki tomonidir. “Kognitiv model” atamasi ushbu kognitiv obyektlarning psixologik tabiatini ta’kidlab, shaxslararo farqlarga yo‘l qo‘ysa-da, “madaniy model” atamasi uning ko‘p odamlar tomonidan umumiy bo‘lishining birlashtiruvchi jihatini ta’kidlaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Vyvyan Evans va Melanie Green. Kognitiv tilshunoslikka kirish, Edinburg universiteti nashriyoti, 2006.
2. Sh.Safarov. Kognitiv tilshunoslik. Sangzor. Jizzax, 2006.
3. Dirk Geeraerts va Xubert Kuykens. Kognitiv tilshunoslik bo‘yicha Oksford qo‘llanmasi. Oksford universiteti nashriyoti, 2007.
4. Fridrix Ungerer, Xans-Yorg Shmid. Kognitiv lingvistikaga kirish. Pearson-Longman. Ikkinchi nashr. 2006.

[5] Fridrix Ungerer, Xans-Yorg Shmid. Kognitiv lingvistikaga kirish. Pearson-Longman. Ikkinchi nashr. 2006. 61-bet; 396.

[6] Fridrix Ungerer, Xans-Yorg Shmid. Kognitiv lingvistikaga kirish. Pearson-Longman. Ikkinchi nashr. 2006. 52-bet; 396.

ТЕРГОВ СУДЬЯСИ ЛАВОЗИМИ ЖОРИЙ ЭТИЛМОҚДА

Раъно Камалова,
Жиноят ишлари бўйича
Беруний туман суди раиси

Судлар фаолиятида очиқликни таъминлаш билан бир қаторда, фуқаро ва тадбиркорларнинг ҳуқуқ ҳамда қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш кафолатларини янада кучайтириш мақсадида жорий йилнинг 10 июнь куни “Тезкор-қидирув ҳамда тергов фаолиятида шахснинг ҳуқуқ ва эркинликларини ишончли ҳимоя қилиш кафолатларини янада кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Президент фармони имзоланди.

Фармонга мувофиқ Судьялар Олий кенгашига Олий суд билан биргаликда 2025 йил 1 январига қадар тергов судьяси лавозими жорий этиладиган судларнинг юқори малакали ва масъулиятли кадрлар билан таъминлаш вазифаси юклатилди.

Фармонда белгиланган вазифалар ижроси бўйича 2025 йил 1 январдан бошлаб жиноят ишлари бўйича туман (шаҳар) судларида иш бошлайдиган тергов судьялари жиноят ишлари бўйича судга қадар иш юритув даврида процессуал қарорларга санкция бериш масалалари – қамоққа олиш ёки уй қамоғи тарзидаги эҳтиёт чорасини қўллаш, қамоқда сақлаш ёки уй қамоғи муддатини узайтириш, паспортнинг (ҳаракатланиш ҳужжатининг) амал қилишини тўхтатиб туриш, мурдани эксгумация қилиш, почта-телеграф жўнатмаларини хатлаш, ушлаб туриш муддатини 48 соатга қадар узайтириш ҳамда прокурорнинг гувоҳ ва жабрланувчининг (фуқаровий даъвогарнинг) кўрсатмаларини олдиндан мустаҳкамлаш тўғрисидаги илтимосномаларини кўриб чиқади.

Бундан ташқари, тергов судьяларига маъмурий ҳуқуқбузарликка оид ишларни кўриб чиқиш ваколати ҳам юклатилмоқда. Бу орқали жиноят ишлари бўйича биринчи инстанция суди судьялари ўртасида иш ҳажми мутаносиблиги таъминланади. Шунингдек, бу жиноят ишларини кўриш жараёнида иш бўйича исботланиши лозим бўлган барча ҳолатларни синчковлик билан тўлиқ ва холисона текшириб чиқиш, судланувчиларнинг барча важларини текшириш ва тарафлар томонидан келтирилган илтимосномаларни батафсил кўриб чиқишга ҳуқуқий замин бўлиб хизмат қилади.

Эътиборли томони, Фармонда тергов судьяси ўз фаолиятини мустақил амалга ошириб, фақат қонунга бўйсуниши ҳамда тергов судьясига одил судловни амалга ошириш билан боғлиқ бўлмаган ҳар қандай вазифалар юклатилишига йўл қўйилмаслиги белгиланди.

Хулоса сифатида айтадиган бўлсак, суд-ҳуқуқ тизимидаги бу муҳим ўзгартиришлар фуқароларнинг конституциявий ҳуқуқларини таъминлаш, жиноят ишлари бўйича судларнинг иш юкламасини камайтириш ҳамда судьяларнинг жиноят ишларини кўриб чиқиш жараёнларида қонуний, асосли ва адолатли қарор қабул қилиши учун кенг имкониятлар яратади.

Албатта, бу ўринда “тергов судьяси” тушунчаси нимани англатади, деган савол туғилади. Тергов судьяси – жиноят ишларини юритишнинг судга қадар бўлган босқичларида фаолият олиб борувчи, айблов ва ҳимоя тарафининг ҳаракатларини мувофиқлаштириб ва назорат қилиб турувчи ҳамда уларнинг ўз ҳуқуқ ва ваколатларини амалга оширишлари учун зарурий шарт-шароитларни яратиб берувчи масъул мансабдор шахс ҳисобланади.

Хориж тажрибасидан келиб чиққан ҳолда, жиноят ишлари бўйича туман (шаҳар) судлари

таркибида тергов судьяси лавозимини жорий этиш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблайман. Бу йўл билан жиноят ишини судга қадар юритишда тарафлар фаолиятини тенглик ва тортишув асосида олиб бориш имконияти таъминланади ҳамда айблов тарафининг устунлик мавқеига барҳам берилиб, ҳимоя тарафининг процессуал мақомини оширишга имконият яратилади.

Тергов судьясининг ваколат доирасига тўхталадиган бўлсак, тергов судьяси зиммасига ЖПКда кўрсатилган ишни судга қадар юритиш жараёнида суднинг қарори (ажрими) талаб қилинадиган процессуал ҳаракатлар бўйича суд ваколатларининг барчаси ўтказилади. Шунингдек, тергов судьясида адвокатлик сўровига мансабдор шахс томонидан рад жавобини олган ҳимоя тарафининг тегишли юридик ёрдам кўрсатиш ва ҳимояси остидаги шахс манфаатларини ҳимоя қилиш учун зарур бўлган ҳар қандай маълумот, ҳужжат ёки нарсаларни талаб қилиб олиш тўғрисидаги илтимосномасини кўриб чиқиш ва тегишли органларга сўров юбориш ваколати ҳам бўлиши муҳим ўрин тутади.

Юқоридагилар каби кўплаб ваколатларнинг иш юзасидан холислик таъминланишига тўсқинлик қиладиган бошқа бир мустақил орган иш юритувига ўтказилиши натижасида судга қадар иш юритишда тарафлар тенглигининг таъминланишига, бу жараёнда тарафлар фаолияти устидан суд назоратининг муваффаққиятли амалга оширилишига ҳамда ҳимоячининг ўз касбий фаолиятини амалга оширишида кенг имкониятлар ва қулайликлар яратилишига, алалоқибат, жиноят ишларининг шаффоф ва тенг ҳуқуқлилик асосида олиб борилишига хизмат қилади.

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 821.09-1(100)

ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИНИ ТАШКИЛ ҚИЛИШДА ИЛМ ОЛИШГА ТАЙЁРГАРЛИК КЎНИКМАСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

Ғулом БОБОЖОНОВ, Янги аср университети “Мумтоз шарқ филологияси” кафедраси доценти в.б., филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

FORMATION OF READINESS SKILLS FOR LEARNING IN ORGANIZING THE EDUCATIONAL PROCESS

Ghulam BOBOJONOV, Associate Professor of the Department of “Classical Eastern Philology” of New Century University, Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences

ФОРМИРОВАНИЕ НАВЫКА ГОТОВНОСТИ УЧИТЬСЯ ПРИ ОРГАНИЗАЦИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА

Гулам БОБОЖОНОВ, доцент кафедры “Классическая восточная филология” университета “Новый век”, доктор философии по филологическим наукам (PhD)

https://orcid.org/0000-0001-6527-9784

e-mail: anzurut@mail.ru

Аннотация: *Мақолада таълим олиш жараёнига киришишда аҳамият қаратилиши зарур бўлган омиллар таҳлилга тортилган. Бу борада йўл қўйилиши мумкин бўлган баъзи жиҳатлар юзасидан мулоҳазалар билдирилган. Аждодларимизнинг бой илмий меросини ўрганишда мазкур масаланинг бугунги кундаги зарурати таъкидлаб ўтилган.*

Калит сўзлар: *илм олиш жараёни, илм-фан ривожи, вақт тақсими, илмий мерос, илмий фаолият.*

Abstract: *The article analyzes the factors that should be taken into account when starting the educational process. In this regard, opinions were expressed on some aspects that can be tolerated. Today, it is emphasized the need to solve this issue while studying the rich scientific heritage of our ancestors.*

Key words: *educational process, development of science, time allocation, scientific heritage, scientific activity.*

Аннотация*: В статье анализируются факторы, которые следует учитывать при запуске образовательного процесса. В связи с этим были высказаны мнения по некоторым аспектам, с которыми можно мириться. Сегодня подчеркивается необходимость решения этого вопроса при изучении богатого научного наследия наших предков.*

Ключевые слова: *образовательный процесс, развитие науки, распределение времени, научное наследие, научная деятельность.*

КИРИШ. Дунёда инсоннинг қадри ва шарафи илм билан барқарор бўлади. Асрлар давомида ушбу ҳақиқатни мустаҳкам ушлаб, ўз ҳаёт мазмунига айлантирган буюк аждодларимиз жаҳон илм-фани ривожи ва инсоният тамаддунига мисли кўрилмаган даражада улкан ҳисса қўшишган. Бугун ана шу бебаҳо илмий

меросни ўрганиш ҳар биримизнинг чинакам ворислик бурчимиз, вазифамиздир.

Илм йўлига қадам қўйган ҳар бир инсон бу борада яхши натижалар, юқори самараларга эришишни хоҳлайди. Илм олишни муваффақиятли йўлга қўйиш учун нималарга эътибор бериш кераклиги ҳақида турли тарихий даврларда олимлар кўплаб китоблар ёзиб, фикр ва тавсиялар беришган. Бугунги кун кишиси илм олишда айнан нималарга эътибор қаратиши зарурлиги кўпчиликни қизиқтириши табиий.

МАВЗУНИНГ ДОЛЗАРБЛИГИ. Олимлар илм йўли ўзига хос залворли ва машаққатли йўл эканини таъкидлашган. Бу йўлга қадам қўйган ҳар бир инсон аввало илм олишга жиддий ва пухта тайёргарлик кўрмоғи зарур. Аммо, афсуски, баъзида илм олиш жараёнига ана шу тайёргарликларга риоя қилмаган ҳолда киришилади. Бундай вазиятда гарчи таҳсил жараёни узоқ давом этса ҳам, кутилган натижа юзага келмайди. Бугун илм-фан тараққиётида бутун дунёни ўзига ром этиб келаётганлар таълим олишга бўлган тайёргарликни таълимдан кўра муҳимроқ деб ҳисоблашаётганининг гувоҳи бўламиз. Нима сабабдан бундай хулосага келингани, илм олишга тайёргарлик дейилганда айнан нималар назарда тутилиши ҳақида бироз мулоҳаза юритишга эҳтиёж бор.

Аввало, ўзимизга таниш воқеликка эътибор қаратсак, фарзандларнинг илм олишни бошлаши асосан етти ёшга тўлганда уларни мактабга жалб қилиш орқали ташкил этилишини кўрамиз. Фарзандни илм олишга йўллаш таълимнинг мажбурийлигидан келиб чиқиб ташкил қилингани сабабли болада етти ёшга тўлгани учун ҳамма қатори мактабга бориш кўникмаси пайдо бўлади. У йиллар давомида ана шу мажбурият юзасидан мактабга қатнайди. Бу ўринда бола ва унинг ота-онасидаги мақсад мактаб таълимининг мажбурийлигига риоя қилишдан иборат, дейиш мумкин. Охирги тўрт-беш аср давомида бизнинг илмга ёндашувимиз шу доирада бўлиб келди. Айни сабабга кўра, таълим жараёнидан жаҳон илм-фани ривожига улкан ҳисса қўшган буюк алломалар етишиб чиқиши бироз сусайди.

Жаҳон илм-фани ривожига улкан ҳисса қўшиб келган, дастлабки ренессансни бошлаб берган халқнинг авлодлари қандай сабабларга кўра аждодлари йўлидан бора олмади, деган савол кўпчиликни жиддий мулоҳазаларга чорлаб келмоқда. Қуйида биз илм олишга тайёргарлик борасидаги айрим муҳим нуқталарга эътибор қаратамиз. Мазкур мулоҳазаларимиз юқорида қўйилган саволга қисман бўлса-да жавоб топилишига хизмат қилса, мақсадга мувофиқ бўлади.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖА. Илм олишга киришишдан олдин биринчи навбатда илм нима эканини аниқлаб олиш, унинг моҳиятини тўғри идрок этиш ва шунга яраша ҳаракат қилиш муҳим саналади. Афсуски, баъзилар бу масалага етарлича эътибор қаратмаслиги оқибатида илм борасидаги ҳаракатлари бесамар кетиши мумкин. Айримлар илм олишни ҳаётидаги бош мақсад сифатида белгилаб олади. Унутмаслик керакки, илм олиш ҳеч қачон мақсад бўлолмайди. У бор-йўғи мақсадга элтувчи восита бўлиши мумкин холос. Восита бўлганда ҳам фақат ўз шахсий ғаразлари – моддий манфаатлар доирасида чекланиб қоладиган мақсад бўлмаслиги зарур экани таъкидланади. Шу сабабли мақсадни тўғри қўйиб олиш илм олишга тайёргарлик йўлидаги энг асосий ва энг муҳим масала ҳисобланади.

Инсоннинг мақсади ҳаёти давомида қиладиган барча ишларидан устун туришини унутмаслик керак. Тўғри, аниқ ва пухта мақсад инсон ҳаётининг аҳамиятини белгилаб беради. Унинг муваффақиятларга эришишига омил бўлади.

Мақсаднинг аниқ шаклланмагани ёки тўғри қўйилмагани фойдасиз, муваққат ишлар билан умрнинг беҳуда совурилишига сабаб бўлади[1,130]. Шу нуқтаи назардан, мақсад қилинадиган барча фаолиятдан кўра афзал саналади.

Ҳар бир инсон ўз олдига қўядиган мақсади қуйидаги беш жиҳатни ўзида мужассам этиши зарур:

Биринчиси – мақсаднинг амалга ошиши ҳар бир инсоннинг ўзи учун манфаатли бўлишидир. Инсон қилаётган иши ўзига манфаат келтиришини тасаввур қила олса, шу ишга қизиқиш, рағбат ва қунт билан кириша олади. Акс ҳолда, бошқаларнинг ундови бўлган тақдирда ҳам шахсий ташаббус, ҳаракат ва рағбатнинг йўқлиги бу йўлда қилинадиган барча ишларни чиппакка чиқариши ёки етарлича сусайтириши мумкин.

Мақсад инсоннинг ҳаёти давомидаги фаолияти, муаммолари, ечимини кутаётган масалалар, қизиқишлари ва энг асосийси, ҳаётий зарурат ва эҳтиёждан келиб чиқиши лозим. Агар инсон йиллар давомида умрини таҳсил учун сарфласаю, ўрганган илми лоақал ўзи учун фойдали бўлмаса, бу вақтни, умрни зое кетказиш бўлиб қолади.

Иккинчи муҳим жиҳат – инсоннинг атрофидагилар, оиласи, яқинлари шу мақсад самарасидан баҳраманд бўлиши ҳисобланади. Белгилаб олинган мақсад ҳар бир инсоннинг ўзи учун фойдали бўлиши зарурлигини юқорида таъкидлаб ўтдик. Аммо ҳаётда инсон фақат ўз мақсади учунгина ҳаракат қилиши жамиятда бир қатор салбий ҳолатларга ҳам сабаб бўлиб қолиш эҳтимоли йўқ эмас. Хусусан, ўз мақсади учун ҳаракат қилиш бошқаларнинг ҳуқуқ ва эркинликларига путур етказмаган ҳолда амалга оширилиши зарур. Яъни, киши ўзи учун фойдали бўлган ишдан бошқаларга ҳам фойда етказишни кўзлаши, бу борада бошқаларни ўзидан кўра кўпроқ мулоҳаза қилиши, уларнинг ҳуқуқларини поймол қилмаслик билан биргаликда, имкон қадар бошқаларга наф етказиш йўлини танлаши ҳар жиҳатдан мақсадга мувофиқ саналади. Ҳазрат Навоий таъбири билан айтганда:

Наф етурмакка шиор айладинг,
Ўзунгга ул нафни ёр айладинг.
Нафинг агар халққа бешакдурур,
Билки бу наф ўзунгга кўпракдурур[2,138].

Айниқса, яқинлар, оила аҳли ва қариндошлар таълим олувчининг мақсадини тўғри англаб, идрок этиши, бу борада уни қўллаб-қувватлаши илм йўлидаги инсонга янада катта ишонч ва куч-ғайрат беради. Қолаверса, инсоннинг фақат ўз манфаати юзасидан ҳаракат қилиши хулқида худбинлик, худпарастлик каби ўта салбий иллатлар пайдо бўлишига олиб келади. Бу эса, оила ва жамиятда инсонлар орасидаги тўғри муносабатларни бузувчи омил саналади. Алишер Навоий ҳазратлари бу маънони қуйидаги ифода этганлар:

Илмни ким воситаи жоҳ этар,
Ўзинию халқни гумроҳ этар.
Олим агар жоҳ учун ўлса залил,
Илми анинг жаҳлига бўлғай далил [3,220].

Учинчи жиҳат – белгилаб олинган мақсад жамият ҳаётидаги муайян муаммолар ечимига қаратилган бўлиши зарур. Инсон жамиятнинг бир қисми – аъзоси ҳисобланар экан, унинг мақсадлари жамият ҳаётида акс этиши керак. Шахсий мақсаднинг жамият манфаатларини ифода этмаслиги унинг нотўғри қўйилганига далолат қилади. Илм воситасида эришилган нарса жамият ҳаётида муайян аҳамият касб этиши, амалий эътибори, ўзи каби минг-минглаб инсонларнинг турмуш тарзи ва ҳаётини енгиллаштиришга хизмат қилиши муҳим ҳисобланади. Илм кишиларининг ўз жамиятларидаги ҳаётий эҳтиёж ва заруратларни инобатга олмаслиги қилинаётган кўплаб саъй-ҳаракатларнинг беҳуда сарфланишига олиб келади. Жамият фаровонлиги ва тараққиёти илм воситасида амалга ошиши учун муаммоларга илмий ечим ва жавоб топилиши ҳамда улар ҳаётга татбиқ этилиши жуда муҳим.

Кейинги муҳим жиҳат – мақсад фақат биргина жамият, худуд ёки ўлка учун эмас, инсоният учун хизмат қилиши инобатга олинишидир. Инсоният – бир бутун оила. Айниқса, бугунги глобаллашув шароитида халқлар ва давлатларни бир-биридан мутлоқ айри тарзда тасаввур қилиб бўлмайди. Илм-фан интеграцияси орқали дунёнинг қайсидир узоқ бурчагидаги илмий кашфиёт яшин тезлигида бошқа давлатга етиб боряпти. Миллионлаб инсонлар ўша илмий тадқиқотлар самарасидан унумли фойдаланган ҳолда ҳаёт кечиряпти. Бугун ҳаётимизга чуқур кириб келган ва кундалик фаолиятимизнинг бир қисмига айланган телефон, компьютер, автомобиль, электр энергияси каби ўнлаб воситалар фақатгина бир ҳудуд доирасида қолиб кетишини ҳатто тасаввур ҳам қила олмаймиз. Аслида бундай кенг кўламли фаолиятнинг бошида бизнинг Хоразмий, Беруний, ибн Сино, Форобий, Фарғоний, Мирзо Улуғбек каби буюк аждодларимиз турганини эсдан чиқармаслигимиз керак.

Ниҳоят, бешинчи жиҳат – мақсад самараси инсон ҳаётининг тугаши билан ниҳояланмаслиги зарурлигидир. Бу қўйилган мақсад тўлақонли равишда тўғри ва барқарор бўлиши учун унинг самараси йиллар давомида инсониятнинг эзгу ишларига хизмат қилишини назарда тутади. Масалан, баъзи бир касб-ҳунарлар фақат инсоннинг моддий борлиғи, ҳаёти билан боғлиқ бўлиши мумкин. Муайян

касб эгаси ўз касбини фақат тириклик чоғида давом эттира олади. Унинг касбий маҳорати (агар шогирдлар орқали давом эттирилмаса) ўз ҳаётининг тугаши билан ниҳояланади. Илмнинг самараси эса, ҳунардан фарқли равишда асрлар давомида инсоният фаровонлигига хизмат қилиш имконига эга. Демак, илм йўлига қадам қўйган ҳар бир инсон ўз олдига муайян мақсадлар қўйганида шу жиҳатни ҳам албатта инобатга олмоғи зарур экан.

Юқорида таъкидланган илм-фаннинг башарият тамаддунига хизмат қилиш хусусияти фақат ҳудуд жиҳатдангина эмас, вақт жиҳатдан ҳам чексиз кенгаювчан хоссага эга бўлса, ҳар тарафлама манфаатли бўлади.

ХУЛОСА. Бугун бизнинг олдимизда аждодларимиз қолдирган катта ва залворли илмий меросни ўрганиш, тадқиқ этиш ҳамда бугунги кун ва келажак авлодларга етказиш вазифаси турибди. Юртимиздаги қўлёзмалар фондларида сақланаётган юзлаб нодир манбалар ўз тадқиқотчиларини кутмоқда. Уларда бугунги кунимизнинг энг долзарб масалаларига жавоб ва ечимлар топилиши шубҳасиз. Шундай экан, ҳар биримиз илм борасидаги ҳаракатларимизни изчил бир тартибга солиб, тўғри ташкил қилишимиз ҳамда манфаатли илмий фаолият билан шуғулланишимиз зарурлигини ҳаётнинг ўзи тақозо этмоқда.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Abdurashidxonov M. Qanday qullik tushdi? – T.: Yoshlar matbuoti, 2024.
2. Алишер Навоий. Ҳайратул аброр. –Т.: Фан, 1970.
3. Алишер Навоий. МАТ. 8-том. Хамса. Ҳайратул аброр. –Т.: Фан, 1991.
4. Алишер Навоий. МАТ. 8-том. Хамса. Фарҳод ва Ширин. – Т.: Фан, 1991.
5. Абдул Фаттоҳ Абу Ғудда. Уламолар наздида вақтнинг қадри. – Т.: Munir, 2021.

Шайх Муҳаммад Салим. Раббоний олим ким? – Т.: Ғафур Ғулом, 2023.

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UO'K: 94(575.171)

XX ASR BOSHLARIDA XORAZMDA XALQ TA'LIMI SHAKLLANISHINING BA'ZI MASALALARI

[1]Davletov Sanjarbek Rajabovich, Ma'mum universitei professori, (DSc)
[2]Rajabova Zuhra Sa'dullayevna, Urganch Ranch texnologiya universiteti dotsenti, (PhD)

SOME ISSUES OF THE FORMATION OF PUBLIC EDUCATION IN KHOREZM AT THE BEGINNING OF THE 20TH CENTURY

Davletov Sanjarbek Razhabovich, Professor of Mamun University, (DSc)
Rajabova Zuhra Sadullaevna, docent of Urgench Technological University Ranch, (PhD)

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ СТАНОВЛЕНИЯ НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ХОРЕЗМЕ В НАЧАЛЕ XX ВЕКА

Давлетов Санжарбек Ражабович, профессор университета Маъмун, (DSc)
Ражабова Зухра Саъдуллаевна, доцент Ургенчского технологического университета Ранч, (PhD)

1

https://orcid.org/0009-0003-7860-0057
e-mail: sdavletov7722@gmail.com

2

e-mail: razabovazuhra7@gmail

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asr boshlarida Xorazmda xalq ta'limining shakllanishi, vohada an'anaviy maktablar o'rniga sovet ta'lim tizimining kirib kelishi jarayonlari tahlil etilgan. Maqolada ta'lim tizimini sovetlashtirish hamda uning ijtimoiy-siyosiy hayotga ta'siri masalalari xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, Xiva xonligi, Xorazm, ta'lim, madaniy hayot, islohot, sovetlashtirish.

Abstract: This article analyzes the development of public education in Khorezm at the beginning of the 20th century, the introduction of the Soviet education system instead of traditional schools in the oasis. The article talks about the sovietization of the education system and its impact on socio-political life.

Key words: Uzbekistan, Khiva Khanate, Khorezm, education, cultural life, reforms, sovietization.

Аннотация: В данной статье анализируется становление народного образования в Хорезме в начале XX века, внедрение советской системы образования вместо традиционных школ в оазисе. В статье говорится о советизации системы образования и ее влиянии на общественно-политическую жизнь.

Ключевые слова: Узбекистан, Хивинское ханство, Хорезм, образование, культурная жизнь, реформы, советизация.

KIRISH. Yangi O‘zbekiston sharoitida zamonaviy ta’lim tizimini yaratish borasidagi sa’y-harakatlarda maktab tizimi tarixini o‘rganish va tadqiq etish muhim ahamiyatga molik masala hisoblanadi. Bu borada XX asrning boshlarida Xiva xonligi, Xorazm xalq Respublikasi hamda Sovet hokimiyati davrida Xorazmdagi ta’lim tizimining holatini o‘rganish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biridir. Darhaqiqat, ta’lim masalasi Xiva xonligida madaniy hayotning asosiy yo‘nalishlaridan biri edi. Xorazm Xalq respublikasi davrida ham ushbu masala e’tibordan chetda qolgani yo‘q.

O‘zbekistonda, shu jumladan, Xorazm vohasida sovet hokimiyatining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy ahamiyatini mustahkamlash davrida Kommunistik partiya jamiyatning har bir sohasiga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Jumladan, bu jarayonda inson ongini o‘zgartirishga qaratilgan ta’lim, fan va madaniyat kabi muhim sohalarda jiddiy o‘zgarishlar amalga oshirildi. Sovet hukumati o‘z maqsadiga ko‘ra, erkin fikrlovchi milliy ziyolilarni yo‘q qilib, xalqning “savod darajasini oshirish” orqali sotsialistik jamiyatga sodiq yangi ziyoli kadrlar tayyorlashga va byurokratik boshqaruvni tobora mustahkamlab borishga intildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. Tadqiq qilinayotgan davrga oid tarixiy jarayonlar yuzasidan mustaqillik yillarida tarixchilar tomonidan yangicha metodologik uslubda yozilgan tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega. Xususan, bu boradagi tadqiqot ishlariga Q.Rajabov, N.Raximov, Sh.Saidov, M.Qayumov, F.Bobojonova, G.Xoshimova, D.Murodova va boshqalar tomonidan chop qilingan monografiya, risola va ilmiy maqolalarni keltirish mumkin. Ularda XIX asr oxiri – XX asr boshlari Xiva xonligida ta’lim tizimi, Xorazm va Buxoro xalq respublikalaridagi tarixiy-madaniy jarayonlar, Sovet hokimiyati davrida hududlarda ta’lim tizimining ahvoli masalalari tahlil etilgan.

Mazkur maqolani tayyorlashda tarixiy-qiyosiy tahlil usuliga asoslanib, arxiv manbalari, xususan hujjatli materiallar, tegishli organlarning rasmiy hisobotlari, shuningdek, ilmiy adabiyotlardan foydalangan holda tadqiqot amalga oshirildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Xiva xonligida ham O‘zbek davlatchiligiga xos asriy an’analalar davom etib, ilm, fan, madaniyat masalalari hukmdorlar diqqat markazida turgan. Xonlikda masjidlar qoshida boshlang‘ich maktablar faoliyat ko‘rsatgan. Ushbu madrasalarda maktab muallimlari, masjid imomlari va qozixona xizmatchilari tayyorlangan. 1909-yildagi ma’lumotga ko‘ra, Xiva xonligida 1500 ta eski usuldagi maktablar mavjud bo‘lib, bu maktablarda 45 ming nafar bolalar ta’lim olishgan[1]. Xiva jadidlari tashabbusi bilan bu davrda yangi usul maktablari soni ortib bordi. Xiva xonligida birinchi yangi usul maktabiga 1889-yil Abdulg‘aniboy Husainov asos soldi. 1904-yil 10-noyabrda yangi usul maktabi ochildi[2]. 1911-yilda Islomxo‘ja tashabbusi bilan Xivada yangi usul maktabi ochildi. Mazkur maktab uchun Said Islomxo‘ja Xiva markazida qo‘shqavatli qilib, Yevropacha usulda bino qurdirdi. Islomxo‘janing yangi usul maktabida 70 nafar bola o‘qigan[3]. 1912-yilga kelib To‘rtko‘l, Shovot, Xo‘jaylida ham yangi usul maktablari ochilgan.

XX asr boshlarida bolsheviklar hokimiyatni egallagach O‘zbekiston hududlarida ham sovet maktablari va texnikumlar ochishga alohida e’tibor qaratildi. Jadid maktablari yopildi. An’anaviy (eski) maktablar va vaqf maktablari ham tugatildi. Zero, bu davrga qadar bu zaminda mavjud bo‘lgan maktab-madrasa ta’limi, vaqf maktablari, rivojlangan o‘rta asrlardan buyon davom etib kelayotgan edi.

Sovet hukumati o‘z maqsadlari va tub manfaatlarini amalga oshirish uchun ta’lim tizimida ham islohot o‘tkazishga majbur bo‘ldi. Ammo rejalashtirilgan islohot xalqlarning milliy qadriyat va urf-odatlariga barham berish orqali amalga oshirildi. Maktab qurilishining sovetlashtirilishi – avvaliga sovet maktablari, asosan, shaharlarda ochilayotgan bo‘lsa, 1919-1920-yillarga kelib qishloqlarda ham tashkil etila boshlanganida ko‘rinadi[4].

Xorazm Xalq Respublikasidagi jarayonlarga e’tibor qaratsak, Toshkentda rus tilidagi “Известия ТуркЦИК” gazetasida Xiva inqilobiy partiyasining manifesti chop etilgan. Bu manifest 12 ta moddadan iborat bo‘lib, unda bolalarni bepul o‘qitish uchun xonlikning hamma joyida maktablar ochish hamda vaqfdan keladigan daromadlarni sarflash; Xivada bolalarni tekin o‘qitish uchun maktablar ochish kabi masalalar ham bayon etildi [5].

XXSRda amalga oshirilgan islohotlardan biri Xorazm nozirlar kengashi tarkibida maorif nozirligi tashkil qilinishi edi. Nozirlikning asosiy vazifasi

Xorazmda zamonaviy maktab, fan, madaniyat va ommaviy nashrlar bilan bog‘liq faoliyatni tizimli tashkil qilish va rivojlantirishdan iborat edi. Xorazm hukumati maorif va madaniyatni rivojlantirish ishlariga muhim vazifa sifatida qaradi. Tez orada nozirlik tashabbusi bilan jadid usulida sakkizta maktab va keng xalq ommasi uchun mo‘ljallangan maorif saroyi ishga tushirildi [6].

1923-yil oktabr oyigacha XXSR da 89 ta an’anaviy diniy maktab, 195 ta qorixona, 55 ta muqaddas joy, 645 ta machit, 88 ta qiroatxona faoliyat yuritayogan edi. Markazning ko‘rsatmasi bilan XXSRda 1924-yildan boshlab madrasa va eski usul maktablarining o‘rniga sovet maktablarini tashkil etish jarayoni boshlandi[7].

1923-yilda Xivada musiqa maktabining tashkil etilishi Xorazmning madaniy hayotida muhim rol o‘ynadi[8].

Umuman olganda, XXSR tashkil etilgandan so‘ng bolsheviklar o‘z oldiga Xorazmda milliy madaniyatni sovet madaniyati bilan almashtirish siyosatini boshladilar. Shu maqsadda eski usul maktablarini isloh qilish yo‘li bilan ularning faoliyatini tugatish jarayonini olib bordilar. Eski usul maktablarini sovet maktablariga aylantirishni 1920-1924-yillarda amalga oshirishni mo‘ljallandi[9].

Milliy davlat chegaralanishi o‘tkazilgach, O‘zbekistonda xalq ta’limi maktablari soni jadal sur’atda oshib bordi. 1924/1925-o‘quv yilida respublikada 160 ta sovet tipidagi ta’lim muassasalari tashkil qilingan va ularda 17209 nafar o‘quvchi ta’lim olgandi[10]. Bu davrda respublikada Toshkent, Samarqand va Farg‘onada 1tadan, Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazmda 2tadan namunaviy maktab binolari qurilishi rejalashtirilgan[11].

Ushbu davrda yangi tashkil qilingan sovet maktablari uchun pedagog kadrlar tayyorlash masalasi ham hukumatning diqqat-e’tiborida bo‘ldi. 1926-yil 25-aprelda qishloq o‘qituvchilari uchun bo‘lib o‘tgan konferensiya tavsiyasi asosida may-iyun oylarida Toshkentda pedagog kadrlar uchun tayyorlov kurslari tashkil etildi. Tayyorlov kurslarida o‘qish uchun Samarqanddan 100 nafar, Qo‘qondan 150 ta, Buxorodan 80 ta, Xivadan 55 kishi uchun joy so‘ralgan[12].

1925-yilga kelib o‘z davrining fidoyi jamoat arbobi sifatida tanilgan Qurbon Ollaberganov (Beregin) Xorazm okrug (viloyat) yoshlar tashkilotining mas’ul kotibi etib tayinlanadi va shu davrning mafkurasini xalqqa singdirish, savodsizlikni tugatish maktablarini tashkil etishga bosh bo‘ladi. U 1929-yildan respublikada maktab, oliy o‘quv yurtlari, muzey, kutubxona, klub, madaniyat uylarini tashkil etishga bosh bo‘ldi. Maorif xalq komissarligi bo‘lim mudiri sifatida hududlarda yangi maktablar tashkil etish, maktablarni darslik, o‘quv qo‘llanmalari bilan ta’minlashga harakat qildi[13].

XX asrning 30-yillarida o‘qituvchilar qatlamini shakllantirish jarayonida sovet hokimiyati mustahkam tayanch nuqtaga ega dastur tuzib chiqishga e’tibor qaratdi. Chunki o‘qituvchilar aholi bilan tushuntirish ishlari olib borishda eng asosiy qurol bo‘lib xizmat qilardi. Shu maqsadda qishloq o‘qituvchilari uchun imtiyozlar berish, moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash ishlari tashkil etildi[14].

Ma’lumki, Sovet hukumati “madaniy inqilobi”ning asl vazifalaridan biri ittifoq tarkibiga kirgan xalqlar madaniy merosini inkor etish edi. 1930-yillarda mamlakatda olib borilgan “madaniy inqilob” doirasida Xorazm viloyati ta’lim tizimi umumittifoq ta’lim tizimiga integratsiya qilindi. Bu jarayondagi asosiy vazifalardan biri umumiy majburiy ta’lim joriy etish va ta’lim dasturlarini partiyaning ideologik talablariga muvofiqlashtirish bo‘ldi. Bu o‘zgarishlar “savodxonlikni oshirish” bahonasida sotsialistik davlat maqsadlariga xizmat qiladigan yangi madaniy qatlamni yaratishga qaratilgan sovet siyosati doirasida amalga oshirildi.

XULOSA. Xiva xonligi davrida o‘quv va madaniy muassasalarga katta e’tibor berilgan bo‘lib, xonlikda maktablar va madrasalar keng faoliyat yuritgan. Shuningdek, yangi usul maktablari paydo bo‘lib, ulardagi ta’lim Yevropa uslubiga yaqinlashtirilgan. Bolsheviklar hokimiyatga kelgach, vohadagi eski maktab va madrasalar faoliyati tugatildi va ularning o‘rnini sovet maktablari egalladi. Bu davrda sovet hukumati milliy ta’lim va madaniyatni o‘zlarining mafkuraviy maqsadlari asosida o‘zgartirishga urindi va yangi ta’lim muassasalari ochish ishlarini jadal amalga oshirdi.

1920-1930-yillarda Xorazm vohasidagi ta’lim va madaniyat tizimi tubdan o‘zgardi. Eski maktablar sovet maktablari bilan almashtirildi, pedagog kadrlarni tayyorlashga alohida e’tibor qaratildi. Sovet davrida ta’limning asosiy maqsadi yoshlarni sovet mafkurasi asosida tarbiyalash va shu

TAMADDUN NURI

maqsadga yo‘naltirilgan umumiy savodxonlikni oshirish bo‘lgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zR MA, I-125-fond, 1-ro‘yxat, 527-ish, 70-varaq.
2. Qayumov M. XIX asr oxiri – XX asr boshlari Xiva xonligida ta’lim tizimi. // Xorazm tarixi zamonaviy tadqiqotlarda. – Toshkent – Urganch, 2019. – B.128-133.
3. O‘zR MA, I-2-fond, 1-ro‘yxat, 289-ish, 176-varaq.
4. Bobojonova F. Sovet hokimiyati davrida quyi va o‘rta Zarafshon vohasida ta’lim tizimi // Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. Volume 4, Issue 6, 2024. – B. 35-40.
5. Манифест Хивинской революционной партии о её ближайших за действия // Известия ТуркЦИК. 8 февраля 1920 г.
6. Saidov Sh. Xorazm-Turkiston munosabatlari tarixidan (1917–1924 yillar). “O‘zbekiston tarixining dolzarb masalalari (XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr oxiri), Toshkent, 2022. – B. 308-316.
7. Raximov N. Xorazm Xalq Sho‘rolar Jumhuriyati tarixini o‘rganish muammolari va yondashuvlar (1920-2020 yillar). - T.: Lesson Press, 2022.
8. Rajabov Q. SSSRning agressiv tashqi siyosati (1939–1941 yillar) // “O‘zbekiston tarixining dolzarb masalalari (XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr oxiri), - Toshkent, 2022.
9. Xoshimova G. 1920-1924 yillarda Xorazm Xalq Jumhuriyatida eski maktablarga munosabat // Xorazm tarixi zamonaviy tadqiqotlarda. – Toshkent – Urganch, 2019.
10. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. –Toshkent: “Sharq”, 2000.
11. O‘zMA, R–94-fond, 1-ro‘yxat, 69-yig‘majild, 41-varaq.
12. Murodova D. 1925–1930 yillarda Buxoro viloyatida maktablar faoliyati (O‘zbekiston milliy arxivi hujjatlari asosida) “O‘zbekiston tarixining dolzarb masalalari (XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr oxiri), Toshkent, 2022. – B. 345-351.
13. O‘zbekiston tarixi (Xorazm tarixi). XI jild, mas’ul muharrir A.S. Sagdullayev. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2022.
14. Sharipova N. O‘zbekistonda sovet davri maktab o‘qituvchilarining ijtimoiy qiyofasi // Academic research in educational sciences. Volume 1, Issue 3, 2020. – B. 756-764.

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 379.090.45

BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING O‘QISH KOMPETENSIYASINI AUTENTIK MATERIALLAR YORDAMIDA TAKOMILLASHTIRISH

Devorova Shamsiya Jumanazarovna, Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi

IMPROVING THE READING COMPETENCE OF FUTURE ENGLISH LANGUAGE TEACHERS USING AUTHENTIC MATERIALS

Devorova Shamsiya Jumanazarovna, Teacher of Termiz State University

ПОВЫШЕНИЕ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ АУТЕНТИЧНЫХ МАТЕРИАЛОВ

Деворова Шамсия Джуманазаровна, преподаватель Термезского государственного университета

https://orcid.org/0001-0009-0114-0807
e-mail: devorovashamsiya@gmail.com

Annotatsiya: *Hozirgi vaqtda til o‘rganuvchilarning asosiy vazifalaridan biri kommunikativ kompetensiyani shakllantirish uchun chet tili madaniyatini o‘rganish orqali kasbiy faoliyatida bevosita olgan bilimlarini ishlatishga qaratilgan madaniyatlararo muloqotda mustaqil va faol ishtirok etish. O‘quv jarayonidagi amaliy mashg‘ulotlarda chet tillarni o‘rgatishda autentik materiallardan foydalanish bu muammolarni hal qilishga yordam beradi.*

Kalit so‘zlar: *metodika, termin, atama, kompetensiya, o‘qish.*

Abstract: *Currently, one of the main tasks of language learners is independent and active participation in intercultural communication aimed at using the knowledge gained directly in their professional activities through studying the culture of a foreign language in order to form communicative competence. The use of authentic materials in teaching foreign languages in practical activities during the educational process helps to solve these problems.*

Key words: *methodology, term, term, competence, study.*

Аннотация: *В настоящее время одной из основных задач изучающих язык является самостоятельное и активное участие в межкультурном общении, направленное на использование полученных знаний непосредственно в профессиональной деятельности посредством изучения культуры иностранного языка с целью формирования коммуникативной компетентности. Использование аутентичных материалов при обучении иностранным языкам в практической деятельности в ходе учебного процесса помогает решить эти проблемы.*

Ключевые слова: *методология, термин, компетенция, исследование.*

TAMADDUN NURI

KIRISH. Ingliz tilini o‘qitish jarayonida autentik materiallar, autentik matn kabi tushunchalarga katta e’tibor qaratiladi. Avvalambor, “Autentik” so‘ziga nazar tashlaydigan bo‘lsak, yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib, “authentikos” – “asliyat”, ya’ni asliga to‘g‘ri, haqiqiy holatga mos degan ma’nolarni bildiradi [1;383-b].

METODLAR. Autentik materiallar tushunchasini ochib berishda va ulardan foydalanish muammosi ustida tilshunos-metodist olimlar M.P.Breen, G.I.Voronina, E.V.Nosovich, R.P.Milrud, L.Van Lier, B.Tomalin, F.Mishan, Gebhard va boshqalar tomonidan bir qancha tadqiqotlar olib borilgan. Autentik materillar nima ekanligini tushunish uchun bir qancha yondashuvlar mavjud. Autentik materiallar bilan shug‘ullanish jarayonida, “Autentik matn” degan tushunchaga duch kelamiz. Bu tushuncha haqida W.Guariento va J.Morley “Autentik matn bu ishlab chiqarilgan til hamjamyatida qandaydir ijtimoiy maqsadlarni amalga oshirish uchun yaratilgan”, -deb ta’kidlab o‘tgan[22;347-b]. F.Mishanning fikricha, autentik materiallar bu haqiqiy kommunikativ maqsadlar uchun yaratilgan matnlar[39]. Biroq, M.P.Breen til o‘rganish kontekstidagi autentik matnlar, o‘quvchilarga haqiqiy tushunishni rivojlanishga yordam beradigan har qanday ma’lumot manbaini anglatadi, deb ta’kidlab o‘tgan.

MUHOKAMA. Gebhard autentik materiallarni quyidagi 3 ta kategoriyaga ajratgan (2.1-rasmga qarang).



1-rasm. Gebhard bo‘yicha autentik materiallar kategoriyasi

“Autentik audio vizual materiallarning ommlashuvi til o‘rganuvchilarga interaktiv til muhitini yarata olishidadir”, -deb ta’kidlaydi rus olimi G. A.Vorobyov [66; 30-36-bb].

Peacock autentik materiallarning quyidagi asosiy vazifalarini ta’kidlab o‘tgan:

- Ular talabalarning motivatsiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.
- Ular haqiqiy madaniy ma’lumotlarni beradi.
- Ular til o‘rganuvchilarning xohish –istaklari bilan chambarchas bog‘liq[45; 144-156 bb].

Rifat.A.S ham autentik materiallardan foydalanishning afzallik tomonlari borligini ta’kidlab o‘tgan. Ularga quyidagilar kiradi:

- Talabalar taniqli odamlarining suhbatini turli xil videolar orqali ko‘rish tufayli haqiqiy nutqni o‘rganishadi.
- Autentik materiallar talabalarni dunyoda sodir bo‘layotgan voqealar haqida xabardor qiladi.
- Talabalar uchun qiziqarli bo‘lgan mavzularni topish mumkin.
- Kitoblar, maqolalar va gazetalardan turli xil matn turlarini topish mumkin[48; 55-b].

Matsuta ham autentik materiallarning ijobiy jihatlarini ta’kidlab o‘tgan:

- Autentik materiallar til o‘rganuvchilarning motivatsiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.
- Ushbu materiallar haqiqiy madaniy ma’lumotlarni beradi.
- Til o‘rganuvchilarining istaklari va qiziqishlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi.
- Autentik materiallar orqali turli matnlarni o‘rganishadi.
- O‘quv materiallariga qaraganda autentik materiallar doimiy ravishda yangilanib turadi.

- Talabalarning biror bir tilni tushunish va o‘rganishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi[36; 397-b].

Dars jarayonida autentik materiallar samarali bo‘lishiga qaramay tilshunos-metodist Richard tanqidiy fikrlarni ham aytib o‘tgan. Ularga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- Yaratilgan materiallar ham o‘quvchilarni rag‘batlantira oladi.
- Yaratilgan materiallar autentik materiallarga qaraganda muhim bo‘lishi mumkin. Chunki ular odatda til o‘rganuvchilarning o‘rganish darajasi asosida tashkil etiladi.
- Autentik materiallarda odatda tilni tushunish qiyin bo‘ladi.
- Dars jarayonida autentik materiallardan foydalanish bu o‘qituvchi uchun yukdir.

NATIJALAR. Bundan ko‘rinib turibdiki, autentik materiallardan foydalanishning salbiy va ijobiy jihatlari mavjud. Autentik materiallardan foydalanishning salbiy jihatlari mavjud ekanligiga qaramay, autentik materiallardan foydalanib o‘quv mashg‘ulotlari tashkil etilsa, dars ko‘proq samaraliroq bo‘ladi. Autentik materiallardan foydalanishning ajoyib tomoni shundaki, bunday manbalar hamma joyda mavjud. Masalan, autentik materiallar gazeta va jurnallardagi maqolalar bilan cheklanib qolmay, balki qo‘shiqlar, teledasturlar, filmlar, radio, podkastlar, menyular, ya’ni ingliz tilida yozilgan har qanday narsa haqiqiy materiallar hisoblanadi. Bu esa talabalar uchun ingliz tilini o‘rganishlarini yanada osonlashtiradi. Bundan tashqari, autentik materiallar orqali talabalar xorijiy tilni mustaqil o‘rganish imkoniyatini ham ta’minlab beradi.

XULOSA. O‘quv mashg‘ulot jarayonida autentik materiallardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjud. Misol uchun, dars jarayonida autentik materiallardan foydalanishda talabalar hech qachon uchratmagan so‘z, so‘z birikmalari yoki grammatik qurilmalarga duch kelishadi. Autentik materiallarni tinglash jarayonida tovushlarni va harflarning talaffuzini va diqqatni jamlashni o‘rganishadi.

Ingliz tilini chet tili sifatida o‘rgatishda autentik materiallar yoki autentik bo‘lmagan materiallardan foydalanish bo‘yicha ko‘pgina tilshunos olimlar tomonidan muhokama qilingan. Ulardan biri Gilmor autentik materiallar va darsliklar o‘rtasida tafovut borligini ta’kidlab o‘tgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Алаудинова Д. Written translation of texts related to different spheres //Зарубежная лингвистика и лингводидактика. – 2024. – Т. 2. – №. 1. – С. 13-18. Alaudinova D. Frazeologik birikmalar va ularni tarjima qilish usullari //xalq ta’limi. – т. 57.
2. Dilnoza A., Sevara C. Modern methods of teaching a foreign language //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2024. – Т. 4. – №. 06. – С. 18-22.
3. Kizi A.D.R. Lexical errors and shortcomings in the translation process //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2023. – Т. 3. – №. 10. – С. 275-280.
4. Алаудинова Д. Связь стилистики и когнитивной лингвистики на уроках языка //Традиции и инновации в исследовании и преподавании языков. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 95-99.
5. Алаудинова Д. Теоретический подход к компетенции устного общения //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 3/S. – С. 147-151.
6. Алаудинова Д. Оғзаки нутқни ўстиришга доир ўтказилган педагогик тажриба синов натижалари //O‘zbekiston Respublikasi Oliy Va O‘rta Maxsus Ta’lim Vazirligi O‘zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti O‘Zbek Tili Va Adabiyoti Kafedrasi. – Т. 187.
7. Курбанбаева, М. (2023). Важность формирования навыков самостоятельного мышления при подготовке конкурентоспособных кадров. Tamaddun nuri jurnali, *5*(44), 95-96.
8. Курбанбаева, М. (2024). Использование русских народных сказок в процессе изучения языка и формирования гуманизма у детей. Tamaddun nuri jurnali, 5(56), 520-522.

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 9.94

BOKUDAGI SHARQ XALQLARI I SYEZDINING DAVRIY MATBUOTDA YORITILISHI TARIXIDAN (TURKISTON GAZETALARI MISOLIDA)

Iminov Jasurbek Tulkunovich, Andijon davlat universiteti katta o‘qituvchisi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

FROM THE HISTORY OF COVERAGE OF THE 1ST CONGRESS OF EASTERN NATIONS IN BAKU IN THE PERIODICAL PRESS (EXAMPLE OF TURKISH NEWSPAPERS)

Iminov Jasurbek Tulkunovich, Andijan State University, senior teacher, Doctor of philosophy (PhD) in history

ИЗ ИСТОРИИ ОСВЕЩЕНИЯ ПЕРВОГО СЪЕЗДА НАРОДОВ ВОСТОКА В БАКУ В ПЕРИОДИЧЕСКОЙ ПРЕССЕ (НА ПРИМЕРЕ ТУРКЕСТАНСКИХ ГАЗЕТ)

Иминов Джасурбек Тулкунович, старший преподаватель Андижанского государственного университета, доктор философии по историческим наукам (PhD)

https://orcid.org/0009-0005-7477-7327
e-mail:
jasurbekiminov7775@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada Bokuda o‘tkazilgan Sharq xalqlarining I syezdi haqida o‘sha davrda nashr etilgan davriy matbuotda ko‘tarilgan masalalar, syezdga turli davlat va jamoat arboblarining munosabatlari masalalari keng yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Sharq xalqlari syezdi, Boku, gazeta, “Pravda”, Lenin, “Ishtirokiyun”, K.Radek, Zinovyev,“Вольный горец” RSFSR.

Abstract: The article widely covers the issues raised in the newspapers at that time about the First Congress of the Peoples of the East, held in Baku, and the attitude of various state and public figures towards the congress.

Key words: Congress of the Peoples of the East, Baku, newspaper, “Pravda”, Lenin, “Ishtirokyun”, K. Radek, Zinoviev, “Free Highlander”, RSFSR, Turkestan.

Аннотация: В статье широко освещаются вопросы, поднятые в издававшихся в то время периодических изданиях о Первом съезде народов Востока, проходившем в Баку, и отношении к съезду различных государственных и общественных деятелей.

Ключевые слова: съезд народов Востока, Баку, газета, «Правда», Ленин, «Иштирокиюн», К.Радек, Зиновьев, «Вольный горец», РСФСР, Туркестан.

KIRISH. Davriy matbuot 1920-yil sentyabr oyida Ozarbayjonning poytaxti Boku shahrida bo‘lib o‘tgan Sharq xalqlari I syezdini o‘z davri uchun muhim voqelik sifatida keng yoritib borgan. Albatta, Sharq xalqlarining I syezdida ko‘tarilgan masalalar, bolsheviklar hukumatining kapitalistik dunyo davlatlariga nisbatan tutgan pozitsiyalari, qarama-qarshi mafkuraviy kurash jabhasidagi asosiy g‘oyalar e’lon qilingan maqolalarning asosini tashkil etadi. Sovet hukumati matbuotchilari davriy

matbuotda e'lon qilingan maqolalar orqali birinchidan, Sharq xalqlari I syezdi, uning asosiy voqealari haqida ma'lumot berish, ikkinchidan, butun dunyoga yo'qsillar davlatining g'alabasini namuna sifatida ko'rsatish orqali xorijiy davlatlarda inqiloblarni amalga oshirishni targ'ib qilish, uchinchidan esa mehnatkashlar ongida kapitalistik davlatlarga nisbatan o'ta murosasiz va agressiv kayfiyatni shakllantirishdan iborat edi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. D.Alimova birinchilardan bo'lib mazkur masalani ko'tarib chiqdi (Алимова Д. Туркестанцы на I съезде народов Востока: позиции и вызовы // Концепты истории Узбекистана: теория и гипотезы. III том. Ташкент: Baqtriya press, 2018. – С.179). Muallif, O'rta Osiyo va Qozog'istondagi milliy qurilish va suveren respublikalar yaratish jarayonida Turkiston Muxtoriyati, Alash O'rdaning o'rni va rolini ko'rsatish asosida 1920-yil 1-8-sentyabrda Boku shahrida bo'lib o'tgan Sharq xalqlarining I syezdi haqida bir qancha fikr va mulohazalarni bayon etgan. Maqolada syezdda ishtirok etgan turkistonlik vakillar haqida ma'lumotlar keltirgan. Ayrim vakillarning nutqini qisqacha sharhlagan va ular haqida biografik ma'lumotlar keltirgan. R.Shamsutdinov va Sh.Karimov hammuallifligidagi "Vatan tarixi" kitobida Sharq xalqlari I syezdi haqida quyidagi ma'lumotlar keltirilgan: "Shu boisdan ham Turkiston kompartiyasining arboblaridan biri, jadidchilik harakati peshqadamlaridan biri Toshpo'latbek Norbo'tabekov 1920-yil 1-8-sentyabrda Boku shahrida o'z ishini olib borgan Sharq xalqlarining birinchi qurultoyida so'zlagan nutqi haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

METODLAR. Tadqiqotning uslubiy asosini obyektivlik va tarixiylik prinsipi tashkil etadi. Shuningdek, maqoladagi ma'lumotlarni tahlil etishda statistic usuldan ham foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Turkiston Millatlar ishlari xalq komissarligining nashr organi hisoblangan "Ishtirokiyun" gazetasi [Turdiyev, 1974: 65-66] Sharq xalqlari I syezdini keng yoritganligi bilan ajralib turadi.

"Ishtirokiyun" gazetasining 1920-yil 8-sentyabr sonidagi "Sharq xalqlarining qurultoyi" nomli xabarda Bokuda bo'lgan Sharq xalqlari qurultoyi ochilishiga bag'ishlangan xabar bosilgan. Xabarda Sharq xalqlari I syezdi Turkiston xalqlari hayotida muhim voqea ekanligi, ozodlik va hurlikni tarannum etishi, butun dunyo xalqlari mazlumlarini birlashtirishda muhim o'rin egallashi qayd qilingan [Ishtirokiyun, 1920].

"Ishtirokiyun" gazetasining 1920-yil 30-sentyabr sonida Ali Ismoilzodaning "Mazlum Sharq ko'zin ochdi (Sharq xalqlarining qurultoyi munosabati ila)" nomli maqolasi e'lon qilingan. Maqolada muallif syezdning borishi, unda ko'rilgan masalalarga alohida to'xtalib o'tgan. Biroq muallif, o'z maqolasida syezdning chaqirilishi, ko'rilgan masalalarga o'sha davr ruhiyatidan kelib chiqib bolshevikcha nuqtayi nazardan yondashgan.

Muallif: "Sharq shu kundan e'tiboran sizga qul emas va bo'lmaydi ham. Bu qurultoyga Sharqning har bir mamlakatidan vakillar kelgan. Undan tashqari, Yevropa (proletariati) vakillari ham bor. Bu vakillarning har birining yuragida Yevropa imperializmiga nisbatan nafrati bor, ular baralla "Intiqom! Intiqom!" demoqda. Sharq xalqlarining birinchi qurultoyi 1-sentyabrda ochilib 7-sentyabrda yopildi. Unda siyosiy va iqtisodiy masalalar ko'rildi. Sharq xalqlari vakillari Yevropa imperalizmi changalidan qutilish, o'z erklarini o'zi belgilash uchun ochiq urush e'lon qildilar" [Ismoilzoda, 1920].

Muallif o'z maqolasida, yana Sharq mazlumlari vakillari o'z fikrlarini bildirib bo'lganlaridan so'ng G'arbiy Yevropa proletarlari vakillari, jumladan, Fransiya, Angliya, Amerika, Bolgariya, Germaniya, Vengriya (Mojariston), Avstriya, Italiya mazlumlarining vakillari ham birma-bir Sharq mazlumlarini asoratdan qutqarish, G'arb mehnatkashlari ham bir tomchi qonlari qolguncha yordam berishlarini aytib o'zlarining do'stliklarini bildirganliklarini ta'kidlaydi.

Qurultoyning oltinchi kunida anjumanga Jazoir, Tunis, Fors, Misr, Arabiston, Hindiston istiqlolchi partiyalari nomidan Anvar poshoning ma'ruzasi o'qildi. Anvar posho o'z ma'ruzasida: "Avvalo Sharq xalqlari vakillarini Bokuga yig'ib Sharq mazlumlarini asoratdan qutqarish uchun to'plagani uchun III internatsionalga qardosh xalqlar nomidan tashakkur izhor etdi" va uzoq bir ma'ruzadan so'ng Sharq mazlumlarini Yevropa imperializmiga qarshi kurashda qat'iy g'alaba yo'lida III internatsional bilan birga bo'lishga chaqirgan [Ismoilzoda, 1920].

Sharq xalqlari birinchi qurultoyining so'nggi kuni 47 kishidan iborat Sharqda harakat va amaliyot sho'rosi saylangan, uning markazi Boku shahri bo'lib, Markazning Sharqdagi barcha

mamlakatlarida uning sho‘basi tashkillanishiga kelishilgan. Markazning vazifalaridan biri Sharqni G‘arb imperializmidan qutqarish uchun amaliy harakatlar dasturini yaratish, ikkinchi tomondan Yevropa imperialistlarining Parij va Londonda bo‘lgan parlament va kongresslariga o‘xshash idora yaratishga kelishildi. Agar Antantaning (Yevropa katta hukumatlari ittifoqi) parlament va kongresslari Sharqni bo‘lish masalasini hal qilganda, sho‘ro Antanta davlatlarini yengib, tor-mor etish masalasini hal qilishi mumkin. “Biz Sharq xalqlari ishonamizki, -deb ko‘rsatilgan unda, -Antanta bizning masalamizni hal qilmasdan oldin, biz Antanta masalasini hal qilamiz! Chunki butun Osiyo mazlumlari bir ittifoqda Antantaning dushmanlari. Butun Yevropa va Amerika proletarlari biz bilan birga va bir yerdadirlar. Endi biz sharqliklar Yevropa imperalizmiga bildiramiz, ko‘rsatamiz. Ey G‘arb imperializmi, siz bilingiz, Sharq ortiq sizga qul bo‘lmas. Endi Sharq mazlumlari o‘z taqdirlarini o‘zlari hal qiladilar va Sharqning go‘zal tuproqlaridan siz bosqinchilarni quvib chiqarmaguncha Sharq o‘g‘lonlari qilichlarini qinlariga solmaydilar” [Ismoilzoda, 1920], -degan jumlalar bilan tugallangan.

“Ishtirokiyun” gazetasining 1920-yil 1-oktyabr sonidagi “Sharq ellarining qurultoyi” nomli xabarida syezd yig‘ilishining ikkinchi majlisi 1920-yil 2- sentyabrda kech soat 2 dan 25 minut o‘tganda G.Zinovyev tomonidan ochilgani va birinchi so‘zni “Sharq xalqlarining bugungi vazifasi” mavzusidagi ma’ruza uchun so‘z Karl Radekka berilgani, uning ma’ruzasini Muhammad Aminzoda turk tiliga tarjima qilib bergani yozilgan.

Xabarda K.Radekning syezddagi ana shu masala bo‘yicha ma’ruzasining qisqacha sharhi berilgan. U mana bu jumlalar bilan tugallangan: “O‘rtoqlar, Russiya mehnatkashlari sizlarga derki, sizlar chindan-da ozod bo‘lmoqchi bo‘lsangiz, sarmoyadorlar, savdogarlar, hukmdorlar zanjiridan qutulib erkda yashashni istasangiz, qurolga yopishingiz! Inqilobni davom ettiringiz! Biz Sharqda inqilobni amalga oshira boshlagan vaqtimizda G‘arb sarmoyadorlari va hukmdorlari bizni Sharqqa Yevropa madaniyatini singdirib, ularni asoratga solmoqchilar, demoqdalar. Biz ularga aytamizki, Sharqqa biz o‘z madaniyatimizni yoyamiz. Bu madaniyat oldida to‘p va miltiqlar ojiz qoladi, bu madaniyat butun dunyoga yoyilajak. Biz u yerda haqiqiy insoniyat va madaniyatni quramiz, bu madaniyatning yuzaga chiqishi uchun butun borlig‘imiz bilan kurashamiz deb javob beramiz” [Ishtirokiyun, 1920].

“Ishtirokiyun” gazetasining 1920-yil 3-oktabr sonidagi “Sharq ellarining qurultoyi” nomli xabarda syezdning ikkinchi majlisida o‘qilgan ma’ruzalar sharhi bosilgan.

Baho Shokir o‘z ma’ruzasida Turkiya burjuaziyasining Yevropa burjuaziyasidan qanday farq qilishi xususida fikr yuritib, “Turkiya burjaziyasi ko‘proq yerga yopishib olgan, jahondagi o‘zgarishlar bilan ishi yo‘q. Turkiyada yana yerlarning ko‘pi vaqflar qo‘lida. Yerning haqiqiy egasi sultondir. Yerning qonunnomasi ham ijara muddati ham uning qo‘lidadir”[Ishtirokiyun, 1920], -degan fikrni ilgari surgan.

“Ishtirokiyun” gazetasining 1920-yil 5-oktyabr sonidagi “Sharq ellarining qurultoyi” nomli xabarda ikkinchi majlisning davomidagi Baho Shokirdan so‘ng so‘z olgan Eron inqilobchilarining vakili Haydarxonning ma’ruzasi haqida so‘z yuritiladi[Ishtirokiyun, 1920].

Haydarxonning ma’ruzasidan quyidagi fikrlar keltiriladi: “Biz Sharq xalqlari qurultoyiga diplomatiya bilan yoki turli xildagi fikrlar bilan kelmadik, balki biz Sharq xalqini tutqunliqdan qutqarmoq uchun keldik. Va bunda ochiqdan ochiq aytamiz, o‘rtoq Karl Radek aytganidek, “Biz Sharq mehnatkashlari bilan qo‘lni-qo‘lga berib, o‘lsak birga o‘lamiz, tirik qolsak birga qolamiz”, bu fikrlar g‘oyat buyukdirki, buni biz Sharq xalqlari yuz yillardan beri orzu qilib yashaymiz. Shu kunga qadar Sharq xalqlari G‘arbdan bunday so‘zlarni eshitmagandi. Oldin ular Sharq xalqini o‘ldirish uchun kelar edilar.

Endi Turkiyaga kelsak, bizdan oldingi ma’ruzachi (Baho Shokirga ishora qilmoqda, I.J.) aytganidek, turklar aslo jahongirliq uchun urushmadilar, ularning maqsadi faqat o‘z hurriyat va istiqloli uchun Yevropa hukmronligidan ozod bo‘lish uchun kurashadilar. “Jahon urushiga ham shu maqsad yo‘lida qatnashgan edilar”, deyish ham to‘g‘ri emas, yanglishdir. Agar Turkiya faqat shu uchun kurashganda Fransiya, Angliya, Italiya va boshqa mustabid hukumatlar uni urushdan so‘ng parchalamas edilar. Endi Kamol posho Turkiya mehnatkashlarini mustamlakachilar iskanjasidan qutqarish uchun kurashga otlangan. Agar birinchi jahon urushida Turkiya o‘zini xalos etish uchungina

qatnashgan bo‘lganda zolimlar qo‘lida qolmas edi” [Ishtirokiyun, 1920].

“O‘rtoqlar! Shu kunlarda Eronda inqilob bo‘ladi, shu yerga kelgan uning vakillari shu inqilobni uyushtiruvchi xalqning vakillaridir. Biz bu yerda Sharqni jallodlar qo‘lidan qutqarmoq choralarini topaylik”[Ishtirokiyun,1920]. Haydarxonning ma’ruzasini tojik va rus tillariga tarjima qildilar. Shuning bilan qurultoyning ikkinchi majlisi kechasi soat 12:00 da yopildi [Ishtirokiyun, 1920], - deya xabar berilgan.

Ko‘rinib turibdiki, ma’ruzachi bolsheviklarning sotsialistik inqilobni Sharqqa yoyish fikrini, ularning asl maqsad va muddaolarini tushunib yetmagan holda qo‘llab-quvatlaydi. Shu bilan birga, Sharq xalqlarining asrlar davomida mustamlakachilik azobini tortib kelayotgani, mustamlaka zanjirlarini uzib tashlash yo‘lida kurashdan tolmasligiga alohida urg‘u bergan edi.

“Ishtirokiyun” gazetasining mazkur sonida syezdning 1920-yil 4-sentyabr kunduzi soat 12:00da G.Zinovyev raisligida ochilgan uchinchi yig‘ilishi va unda Toshkent vakili Toshpo‘latbek Norbo‘tabekovning ma’ruzasi haqida ham so‘z boradi [Ishtirokiyun, 1920].

“Ishtirokiyun” gazetasining 1920-yil 7-oktabr sonidagi “Sharq ellarining qurultoyi” nomli xabarda uchinchi majlisning davomi G.Zinovyev raisligida 1920-yil 4-sentyabr kech soat 7 dan 45 minut o‘tganda boshlangani, unda hay’at rayosatining qarori e’lon qilinib, qurultoy 1920-yil 9-sentyabrda yakunlanishi, vaqt oz qolgani bois Yevropa vakillaridan faqat Angliya va Fransiya vakillariga so‘z berilishi, ma’ruzalarning tarjimalari ham qisqa bo‘lib faqat forsiyga, turkiyga va rus tillariga tarjima qilinishini bayon etgan [Ishtirokiyun, 1920]. Shundan so‘ng Turkiyadan Anvar posho ma’ruzasi berilgan.

Samarqandda nashr etilgan “Mehnatkashlar tovushi” [Turdiyev,1974:71-72] gazetasining 1920-yil 9-sentyabr sonida “Sharq ellarining qurultoyi” nomi ostidagi xabarda “Sharq ellarining qurultoyi munosabati ila Boquda ulug‘ bir namoyish bo‘lub, o‘n minglarcha xalq ishtirok etgan. Shaharning o‘rtasida Karl Marks uchun obida ochilgan. Namoyish kuni masjidlarning barchasida Anvar posho va Narimonovning ishtiroki ila ulug‘ bir yig‘in bo‘ldi. Anvar posho Sharq xalqlarini, Russiya va Ozarbayjon sho‘rolar hukumati bayrog‘i ostiga to‘planib, ingliz istibdodiga qarshi muhoraba etishga chaqirdi. Narimonov Sharqning ozod bo‘lishi inglizlar va Sharq ellarin orasindagi xonlar va podshohlar mahv (ag‘darilgan) etilgan taqdirda vujudga kelajagin bayon etdi[Mehnatkashlar, 1920], - deya xabar beriladi.

Sharq xalqlari I syezdini atroflicha yoritgan gazetalardan yana biri “Pravda” gazetasidir. Mazkur gazeta syezdga vakillar yig‘ilishidan boshlab, toki syezd yakuniga qadar bo‘lgan jarayonni batafsil yoritib borgan.

“Pravda” gazetasining 1920-yil 24-avgust sonida Bokuga Turkiston orqali Sharq vakillari o‘zbeklar, qirg‘izlar, xitoyliklar va boshqa millatlar vakillari yetib borganliklari, ular ishtirokida mitinglar uyushtirilgani haqida xabar bosilgan [Pravda, 1920].

Gazetaning 1920-yil 27-avgust sonida Sharq xalqlari I syezdini o‘tkazishdan ko‘zlangan asosiy maqsadlar bilan birga uning kun tartibi ham qayd qilingan. Unga ko‘ra, syezd kun tartibida quyidagi masalalarni ko‘rib chiqishi lozim bo‘lgan:

1. Xalqaro ahvol va Sharq xalqlari.
2. III Internatsional va mustamlaka hamda milliy siyosat masalalari.
3. Agrar masala va Sharq mamlakatlari mehnatkashlarining iqtisodiy ahvoli.
4. Sharq mamlakatlari inqilobiy partiyalarning dastur va taktikalari[Pravda, 1920].

Shu jihat e’tiborliki, gazetada e’lon qilingan ushbu to‘rtta ustuvor masala boshqa manbalarda uchramaydi.

“Pravda” gazetasining 1920-yil 8-sentyabrdagi sonida “Sharq xalqlari qurultoyi” nomli maqola bosilgan bo‘lib, unda Sharq xalqlarining I syezdida ishtirok etgan davlatlar, ularning vakillari haqida ma’lumot berish bilan birga jami ishtirokchilar soni 1800 nafar ekanligi qayd etiladi [Pravda,1920].

“Pravda” gazetasining keyingi sonlarida Turkiya delegatsiyasining syezddagi ishtirokiga alohida to‘xtalib o‘tilgan. Jumladan, Anvar poshoning syezdga kelishi, uning bayonotini o‘qib eshittirilishi syezd ishtirokchilariga ko‘rsatgan ta’siri xususida fikr yuritiladi [Pravda,1920].

Gazetaning 1920-yil 16-sentyabrdagi sonida syezdning kun tartibida ko‘rilib, keskin muhokama qilingan Angliya masalasiga qaratilgan. Angliya jahon imperializmining o‘chog‘i, sovet Rossiyasining eng xavfli dushmani sifatida qoralangan[Pravda,1920].

TAMADDUN NURI

“Pravda” gazetasining 1920-yil 19-sentyabr sonida bolsheviklar yetakchisi V.I.Leninning Sharq xalqlari I syezd ahamiyati yuzasidan bildirgan fikrlari e’lon qilingan. Jumladan, V.I.Lenin: “Kommunistlarning Moskvada bo‘lib o‘tgan syezd, Bokuda bo‘lgan syezd qanday masalalarni hal qilganini, ularning tarixiy ahamiyatini birdaniga o‘lchovga solib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri hisobga olib bo‘lmaydi. Lekin bu boshda harbiy g‘alabalardan ham kattaroq ahamiyatga ega bo‘lgan g‘alabadir. Chunki bu g‘alaba bizga bolsheviklarning tajribasi, ularning faoliyati, ularning programmasi, ularning kapitalistlarga va imperialistlarga qarshi revolyutsion kurashga chaqirig‘ini butun dunyoda ma’qullanganligini va iyulda Moskvada, sentyabrda esa Bokuda nima ishlar qilinganligini dunyoning barcha mamlakatlaridagi ishchilar bilan dehqonlar yana uzoq oylar davomida o‘zlashtirib va o‘zlariga singdirib olishlarini ko‘rsatmoqda” [Pravda,1920], deya fikr bildirgan edi.

“Pravda” gazetasining shu sonida kommunist Karl Radekning “Sharq xalqlari syezdi” nomli maqolasi ham e’lon qilingan. Unda K.Radek Sharq xalqlarining I syezdi muhim tarixiy sharoitda chaqirilganini ta’kidlab, Rossiya ishchi va dehqonlari bilan Angliya boshliq kapitalistik dunyo o‘rtasidagi to‘qnashuvda Sovet Rossiyasi o‘z kuchini ko‘rsatib, interventlarni tor-mor etganiga alohida urg‘u bergan. U o‘z maqolasida Sovet Rossiyasi o‘tgan yili Antantaning dahshatli hujumlarini qaytarib, Angliya kapitalistlari tomonidan qo‘llab-quvvatlangan Denikin, Yudenich, Kolchak qo‘shinlarini ishchi va dehqonlarning ongli yondashuvi, qizil armiyaning qahramonona kurashi evaziga mag‘lub etilgani, Qizil armiya Angliya va boshqa kapitalistik davlatlar qo‘llab-quvvatlagan oqlar Polshasiga qarshi kurash olib borilayotganiga alohida to‘xtalib o‘tgan[Pravda,1920].

K.Radek bolsheviklarning Turkiston, Xorazm va Buxoroda yuritayotgan milliy masaladagi siyosati masalasiga to‘xtalib, “Yerli xalq musulmon aholi bilan til topisha olmas ekanmiz, oldingi tuzum ma’muriyatchiligidan qutula olmas ekanmiz, ekspluatatorlardan hech ham farq qilmaymiz”, - deb ta’kidlagan. Shuningdek, bu o‘lkadagi o‘z siyosatimizni o‘zgartirish, oldingi yo‘l qo‘yilgan xatolarni takrorlamasligimiz, xatolardan to‘g‘ri xulosalar chiqarishimiz lozim, deb aytgan [Pravda,1920].

Ammo, syezdning borishi va syezd jarayonida K.Radek o‘zining bu qarashlariga o‘zi amal qilmay, O‘rta Osiyodan borgan vakillarga nopisand munosabatda bo‘lgan edi. Bolshevik yetakchilari o‘zlari yozgan maqola talablariga amal qilmayotganlari, K.Radek ham maqolasida o‘zi ilgari surgan fikrlarga syezd jarayonida o‘zi amal qilmagani ham qayd etilgan.

Turkiston istiqloli uchun fidoyi kurashchi bo‘lgan atoqli jamoat va siyosat arboblari Mustafo Cho‘qayev va Ahmad Zaki Validiy To‘g‘on Sharq xalqlarining I syezdida vakil sifatida qatnashmagan bo‘lsalar-da, biroq syezdning borishiga bevosita o‘z ta’sirini o‘tkazishga harakat qilganlar. VCHK xodimlari ularning har bir bosgan qadamini qattiq nazorat ostiga olganiga qaramay, ular turli yo‘llar bilan O‘rta Osiyodan syezdga vakil bo‘lib borgan o‘z maslakdoshlari bilan uchrashib, ularga yo‘l-yo‘riqlar, maslahatlar berib turganlar. Shuningdek, ular Kaspiyorti matbuotida o‘z maqolalari bilan bolsheviklarning Turkiston ASSR, XXSR va Buxorodagi mustamlakachilik siyosati va amaliyotini fosh etishga harakat qilganlar.

Mustafo Cho‘qayev va Ahmad Zaki Validiy To‘g‘onlar syezdga kelgan o‘rta osiyolik vakillarni matbuot xodimlari bilan uchrashtirib, intervyular berishlarini tashkillashtirganlar. Jumladan, turkistonlik kommunist firqa vakillarini Tiflisdagi (Tbilisi) “Вольный горец’” gazetasi muxbiri bilan suhbatlarini tayyorlashga yaqindan ko‘maklashganlar. Buni “Вольный горец’” gazetasining sahifalarida e’lon qilingan quyidagi maqolalardan ham bilish qiyin emas [Cho‘qay,59,72-75].

Mustafo Cho‘qayev va Ahmad Zaki Validiy To‘g‘onlar tashabbusida 1920- yil 6-sentyabrda bir guruh turkistonlik vakillarning Ozarbayjon Respublikasi va boshqa xorijiy davlatlar matbuot xodimlari bilan uchrashuvi tashkillangan. Bu haqda Kaspiyorti matbuotidan biri Tiflisda chiqadigan “Вольный горец’” gazetasida e’lon qilingan “Turkistonlik kommunistlar bilan suhbat” nomli maqoladan ham bilish mumkin[Вольный горец,1920].

“Вольный горец’” gazetasining 1920-yil 13-sentyabrdagi “Turkistondagi sovet hokimiyati” [Вольный горец,1920] nomi ostida Bokudagi muxbirning xabarlari ruknidagi maqolada Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat qisqa tarzda sharhlanganini ko‘rishimiz mumkin.

“Вольный горец’” gazetasining 1920-yil 20-sentyabrdagi “Anvar, Sharq xalqlarining syezdda Turkiston masalasi haqida” [Вольный горец,1920] nomli Bokudagi muxbirning xabarlari ruknidagi maqolada esa syezdda Turkiyadan kelgan Anvar poshoning Sharq xalqlariga qilgan murojaatining matni to‘liq e’lon qilingan.

XULOSALAR. Yuqoridagi matbuot sahifalarida e’lon qilingan xabarlar hamda maqolalardan ham ko‘rinib turibdiki, o‘z vaqtida Boku shahrida bo‘lib o‘tgan Sharq xalqlarining I syezdi o‘sha davr markaziy hamda mahalliy matbuotlarida baholiqudrat, bolshevikcha mafkura nuqtayi nazarda yoritib borilgan. Turkistonda va Markazdagi vaqtli matbuot nashrlaridagi maqolalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, syezdning rejalashtirilishidan tortib, u faoliyat olib borilgan kunlardagi barcha voqelik tarixiy izchillikda bayon etib borilgan. Ayni paytda gazetalar syezdning markaziy voqealari, ishtirokchilari hamda ma’ruzalar mazmuni bilan tanishtirib borgan. Sovet davlatining kapitalistik taraqqiyot yo‘lidan borayotgan, shuningdek yirik mustamlakachi davlatlarning sovet Rossiyasiga nisbatan tutgan yo‘lini keskin qoralash siyosatini yoritgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ismoilzoda A. Mazlum Sharq ko‘zin ochdi (Sharq xalqlarining qurultoyi munosabati ila). // Ishtirokiyun, 1920-yil 30-sentyabr.
2. Sh.Turdiev. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1974. – 120 bet.
3. Sharq ellarining qurultoyi // Ishtirokiyun, 1920-yil 1-oktyabr.
4. Sharq ellarining qurultoyi // Ishtirokiyun, 1920-yil 3-oktabr.
5. Sharq ellarining qurultoyi // Ishtirokiyun, 1920-yil 7-oktyabr.
6. Sharq ellarining qurultoyi // Mehnatkashlar tovushi, 1920-yil 9-sentyabr.
7. Sharq xalqlarining qurultoyi // Ishtirokiyun, 1920-yil 8-sentyabr.
8. В Азербейджане. К съезду представителей народов Востока // Правда, 24 августа 1920 г.
9. Вольный горец, 13 сентября 1920 г.
10. Вольный горец, 20 сентября 1920 г.
11. Вольный горец, 6 сентября 1920 г.
12. К съезду народов Востока // Правда, 11 сентября 1920 г.
13. Радек К. Съезд народов Востока // Правда, 19 сентября 1920 г.
14. Съезд народов Востока // Правда, 19 сентября 1920 г.
15. Съезд революционных народов Востока в Баку // Правда, 27 августа 1920 г.
16. Съезд революционных народов Востока в Баку и английские козни // Правда, 11 сентября 1920 г.
17. Шокай М. Избранные труды. Том первый. - Алматы: Арыс, 2016. – С.59, 72 - 75.

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UO'K: 128

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA MAFKURA: IJTIMOIY TARAQQIYOT VA TARIX

Yo'ldasheva Dilorom Yo'ldashevna, Samarqand davlat tibbiyot universiteti

IDEOLOGY IN THE INFORMATION SOCIETY: SOCIAL DEVELOPMENT AND HISTORY

Yuldasheva Dilorom Yuldashevna, Samarkand State Medical University

ИДЕОЛОГИЯ В ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ: СОЦИАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ И ИСТОРИЯ

Юлдашева Дилором Юлдашевна, Самаркандский государственный медицинский университет

https://orcid.org/0009-0001-8460-7836
e-mail:
dilorom727@mail.ru

Annotatsiya: *Maqolada g'oyalar va tasvirlar, odamlarning umidlari va intilishlarini o'zida mujassam etgan ma'naviy faoliyati orqali virtual dunyoni yaratish jarayoni ko'rib chiqilgan. Jamiyatda mafkuraning shakllanishi va faoliyati, odamlarni birlashtirish va ijtimoiy muammolarni hal qilish qobiliyatiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Muallif, shuningdek, postsovet jamiyatida yangi mafkura yaratishga bo'lgan zamonaviy urinishlarni tahlil qilib, vatanparvarlik va ijtimoiy tabaqalanish bilan bog'liq murakkabliklarning rolini muhokama qiladi. Shuningdek, haqiqiy vatanparvarlik va ijtimoiy konsensusni shakllantirish uchun milliy tarixni obyektiv idrok etishga asoslangan axloqiy qadriyatlarning umumiy tizimini yaratish muhimligi ta'kidlangan.*

Kalit so'zlar: *mafkura, ijtimoiy ong, qadriyatlar tizimi, vatanparvarlik, tarixiy ong.*

Abstract: *The article examines the process of creating a virtual world through spiritual activity, in which ideas and images embody the hopes and aspirations of people. Special attention is paid to the formation and functioning of ideology in society, the ability to unite people and solve social problems. The author also analyzes modern attempts to create a new ideology in post-Soviet society and discusses the role of difficulties associated with patriotism and social stratification. The importance of creating a common system of moral values based on an objective perception of national history for the formation of genuine patriotism and social consensus is also emphasized.*

Key words: *ideology, social consciousness, value system, patriotism, historical consciousness.*

Аннотация: *В статье рассматривается процесс создания виртуального мира посредством духовной деятельности, в которой идеи и образы воплощают надежды и чаяния людей. Особое внимание уделяется формированию и функционированию идеологии в обществе, способности объединять людей и решать социальные проблемы. Автор также анализирует современные попытки создания новой идеологии в постсоветском обществе и обсуждает роль сложностей, связанных с патриотизмом и социальной стратификацией. Также подчеркивается важность создания общей системы моральных ценностей, основанной на объективном восприятии национальной истории, для формирования подлинного патриотизма и общественного консенсуса.*

Ключевые слова: *идеология, общественное сознание, система ценностей, патриотизм, историческое сознание.*

KIRISH. Inson ikki dunyoda yashaydi. Biri moddiy olam, narsalar olami, ikkinchisi ong bilan yaratilgan ma'naviy, ideal, virtual olam. U real dunyo materiallaridan tuzilgan bo'lsa-da, lekin inson tasavvurining asosiga ko'ra qurilgan. Ma'naviy faoliyat virtual olamni, insonning umid va umidsizliklarini, orzu va intilishlarini aks ettiruvchi g'oyalar olamini yaratishdir.

Ma'naviyatning sharti hamfaollik, muloqot qilish imkoniyati va virtual obrazlar almashinuvidir. Bu umumiy til va belgilar tizimini talab qiladi. Bunday belgilar tizimi umumiy ma'noga ega bo'lishi kerak, aks holda u tushuntirilmaydi va tushunilmaydi. Bunda bizga virtual reallik va ma'naviyatni tushunarli, dekodlanadigan belgilarga – hamfaollikda ijod qilishning barcha ishtirokchilari tomonidan umumiy qabul qilinadigan, tanib olinadigan va baham ko'riladigan belgilar asosida to'plash metodologiyasi lozim bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. Muammo shundaki, jamiyatga biriktirilgan har bir shaxs o'ziga xos ma'naviy individuallikka ega[4]. Shuning uchun, prinsipial jihatdan, jamiyatdagi barcha odamlar uchun bir xil bo'lgan umumiy qadriyatlar tizimini yaratish mumkin emas. Inson subyektivligi hatto eng mukammal umumiy ma'naviy qadriyatlar tizimiga ham to'g'ri kelmaydi. Bu shuni anglatadiki, faqatgina nisbatan umumiy dunyoqarash tizimi bo'lishi mumkin, xolos. Jamiyat a'zolari an'ana tarzida ushbu tizimni konvensional tizim sifatida qabul qilishga rozi bo'lishadi, garchi ma'naviy reallikda bu xayoliy, soxta umumiy tizimdir. Shunday qilib, mafkuraviy konvensiya, ijtimoiy mifologiya vujudga keladi.

Shu ma'noda mafkura har doim yolg'on, illyuziya, xayoliy elementni o'zida mujassam etgan. Ammo, aynan shu narsa mafkurani inson ruhi faoliyatining muqarrar hamrohiga aylantiradi. Mafkuraviy qadriyatlarning xayoliy, illyuzor tabiati ularning kuchida, imkoniyatlarida yotadi. Faqat shu tufayli odamlarni birlashtirish va tarixiy muammolarni hal qilish uchun birlashtirish mumkin. Har qanday ijtimoiy harakat, chuqur ijtimoiy o'zgarishlar va hatto inqiloblar ham, faqat mafkuraviy va shuning uchun qisman xayoliy shiorlar ostida sodir bo'ladi. Masalan, XVIII asrdagi Yevropa inqiloblari o'zlarining manifestlarida "Ozodlik! Tenglik! Birodarlik!" kabi shiorlarga e'tibor qaratdilar. Va'da qilingan "aql saltanati" amalga oshmadi, ammo bu shiorlar asosida monarxiya tuzumi supurib tashlandi. Oqibatda yangi burjua jamiyati vujudga keldi. Keyinchalik Gegel bu hodisani "Olamiy ongining hiylasi"[2] deb ataydi. Chetdan qaraganda odamlar bir maqsad sari intiladilar, ammo ijtimoiy fluktuatsiyalar butunlay boshqa bifurkatsion holatlarga yo'l ochdi[1]. Xuddi shunday adolatli jamiyat qurish shiorlari ostida dunyoda boshqa inqiloblar ham amalga oshirildi. Albatta, bu maqsadni amalga oshirishning imkoni bo'lmadi, lekin o'sha davr xalqlari uchun yana bir tarixiy muhim bosqich – mamlakatni modernizatsiya qilish va rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqish hal qilindi.

MUHOKAMA. Mafkura ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun emas, balki shaxsiy manfaatlar uchun qo'llanila boshlaganda xavf tug'iladi. Keyin, umume'tirof etilgan me'yorlar tizimidan, ma'naviy almashinuv tilidan, hukmronlikni qo'lga kiritib, diktatorga aylanadi. Bu holatni biz Sovet davriga xos bo'lgan ruhsiz mafkura tarzida boshimizdan kechirgan edik.

Natijada mafkuraviy shakldan mahrum bo'lgan ma'naviyatning yemirilishi, ma'naviy hayotning parchalanishi sodir bo'ldi. Bu holat 1990-yillardagi postsovet davriga xos bo'ldi. Mazkur vaziyat mamlakat iqtisodiy va siyosiy tizimini kompleks o'zgartirish jarayonidan o'tishi kerak bo'lgan bir paytda kechdi. Buni konsolidatsiyasiz amalga oshirish mumkin yemasligi, ya'ni mafkuradan tashqarida imkonsiz yekanligi tezda ma'lum bo'ldi. Shu sababli, yangi mafkurani yaratish zarurati paydo bo'ldi.

Yangi mafkura yaratishga birinchi urinish 90-yillarning boshlariga to'g'ri keladi. Bu o'z mafkurasini inson huquqlarini himoya qilishga asoslangan G'arbga yo'naltirilgan liberal ziyolilar tomonidan amalga oshirildi. O'z-o'zidan bu g'oya jamiyat tomonidan katta qiziqish bilan qabul qilindi. Biroq, tez orada G'arb va bizning inson huquqlari haqidagi tushunchalarimiz o'rtasida nomuvofiqlik mavjudligi namoyon bo'ldi. G'arb talqini inson siyosiy huquqlarini ta'minlashning tor yuridik darajasida, bizning mentalitetimizda esa, huquqlar birinchi navbatda ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ta'minlanganlik bilan izohlanadi. Liberallarning jamiyat uchun tushunarli bo'lgan qadriyatlar tizimini taklif qila olmasligi, liberal siyosiy harakatning

bosqichma-bosqich siyosiy sahnadan chetga chiqish sabablaridan biri bo‘ldi.

Mafkurani yaratishga ikkinchi urinish 1990-yillarning ikkinchi yarmida sodir bo‘ldi. Bu safar uni ziyolilarning qat’iyatli qismi o‘z zimmasiga oldi, ular ilmiy jurnallarda davlat milliy g‘oyani izlashi zarurligi haqida bahs-munozaralarni boshlab yubordilar. Bunday g‘oyani izlash keyinchalik I.Karimov rahbarligida olib borildi.

Monarxiyadan tortib sotsializmgacha bo‘lgan ijtiomiy ongda muomalada bo‘lgan barcha mafkuralarning butun arsenali inventarizatsiya qilindi. Ammo ularning hech biri milliy mafkuraga, milliy ongning bir qismiga aylanmagan edi. Biroq, jamiyat uchun mafkuraga bo‘lgan yehtiyoj kun tartibiga qo‘yildi.

Bu yillardagi birinchi jiddiy taklif diniy mafkura edi. Biroq diniy mafkuradan milliy, davlat mafkurasi sifatida foydalanishga urinishlar yengib bo‘lmaydigan qiyinchiliklarga duch keldi. Birinchidan, inson oxiratini qutqarish asosida davlat mafkurasining roliga da’vo qilish dinning o‘ziga zarar yetkazadi. Ikkinchidan, polikonfessional mamlakatda bir dinga ustunlik berish birlashish emas, balki, aksincha, bo‘linish manbaiga aylanashi aniq edi.

Shu nuqtayi nazardan aytishimiz mumkinki, yillar davomida jamiyatimizda sotsialistik va liberaldan tortib diniygacha bo‘lgan turli mafkuraviy tizimlar o‘zaro raqobatlashib kelmoqda. Natijada, birinchidan, muayyan bir davlat yoki millat mafkurasi emas, balki yaxlit qadriyatlar tizimi bo‘lgan mafkura haqida gapirish kerakligi ma’lum bo‘ldi. Ikkinchidan, bu mafkurani siyosiylashtirmaslik, ya’ni alohida manfaatlarni ko‘zlamaslik kerak. Uchinchidan, mafkura ziyolilar kabi guruhlar tomonidan o‘zboshimchalik bilan yaratilib, keyin jamiyatga tatbiq qilinmaydi. U ijtimoiy ongining umidlarini aks ettirishi, jamiyat talablariga javob berishi kerak. Shundagina butun jamiyat bu mafkurani o‘ziniki sifatida qabul qiladi va tashqi ta’sirlarga nisbatan sezuvchanlik hosil qiladi.

Bugungi kunda biz ko‘z o‘ngimizda ana shunday mafkuraviy jarayonlar kechayotganligi haqida mubolag‘asiz aytishimiz mumkin. Bu vatanparvarlik mafkurasi. O‘z yurti bilan g‘ururlanish istagi bugungi kunda keng tarqalgan bo‘lib, u xalqning mutlaq ko‘pchiligini birlashtiradi. Bu yerda asosiy narsa vatanparvarlikdan tor siyosiy maqsadlarda foydalanish vasvasasidan qochishdir. Aynan shu narsa Sovet hokimiyati yillarida “Vatan”, “vatanparvarlik”, “xalq” tushunchalari rahbarlar va partiya siyosiy obrazlarining imijini shakllantirishda qo‘llanilgan.

Biroq vatanparvarlik ongini va unga asoslangan milliy mafkurani shakllantirish sodda darajadagi oddiy jarayon emas. Asosiy tahdid yuqori darajadagi ijtimoiy tabaqalanishni saqlab qolishdir. Odamlar o‘rtasidagi mulk va ijtimoiy farq qanchalik katta bo‘lsa, umumiy manfaatlar maydoni shunchalik kichik bo‘ladi. Ikki qatlam – boylar va kambag‘allarga bo‘lingan mamlakatda umumiy Vatan g‘oyasini shakllantirish qiyin.

NATIJALAR. Tajribadan ma’lumki, jamiyatda tabaqalanish darajasi, ijtimoiy-iqtisodiy qarama-qarshiliklar darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, mafkuraga ko‘proq e’tibor qaratiladi. Buni antik tarix va mifologiyani o‘rganishdan boshlab har qanday davrda kuzatish mumkin. Real ijtimoiy-iqtisodiy qarama-qarshiliklarni kamaytirmasdan mafkuraviy va tarbiyaviy ishlarni ko‘paytirish samara bermasligini ko‘rib bo‘lganmiz. Bu holda mafkura ongni manipulyatsiya qilish vositasiga, vatanparvarlik esa muayyan kuchlar uchun himoya quroliga aylanadi.

Lekin, nafaqat ijtimoiy tafovutlar darajasini pasaytirish vazifasini qo‘yish, balki bu vazifani qanday vositalar bilan hal qilishni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Eng oddiysi bu real daromadlarni va ijtimoiy himoyani oshirish. Bu qashshoqlikni kamaytirish yoki yo‘q qilishning muhim usulidir. Ammo, buning salbiy tomoni ham bor. Davlat paternalizmi aholi orasida infantilistik (boqimandalik) kayfiyatlarining oshishiga olib keladi[3]. Bugungi kunda bu ayniqsa bizning holatimizda (bersang yeyman, bermasang o‘laman) katta xavf tug‘diradi. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi o‘z kuchiga e’tibor qaratadigan, o‘zini o‘zi ta’minlaydigan aholining shakllanishiga to‘sqinlik qilmasligi kerak. Farovonlikni yaxshilash va ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish resurslarni ijtimoiy tarqatish hisobiga emas, balki odamlarning o‘z mehnati asosida bo‘lishi kerak. Shunda ularning vatanparvarligi chinakam bo‘ladi, bu lyumpen me’yorlari bilan o‘lchanmaydi: men o‘z vatanimni menga ne’matlar berayotgani darajasida sevaman.

Ammo iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish qanchalik muhim bo‘lmasin, milliy ma’naviy-axloqiy ko‘rsatmalarning yagona tizimini shakllantirish uchun o‘zak xalqning tarixiy ongi,

davlat va jamiyat tarixini umumiy qadriyat sifatida qabul qilishdir. Shundan kelib chiqib, tarixining umumiyligi g‘oyasi fuqarolar orasida milliy tarixdan faxrlanish hissi bilan qo‘llab-quvvatlanishi kerak. Bu tarix buyuk va qahramonlik sifatida qabul qilinishi lozim. Ammo, bu yerda muammo paydo bo‘ladi. Tariximizning barcha bosqichlari ham mukammal va farovon bo‘lmaganligini bilamiz. Buni har qanday mamlakat tarixida uchratishimiz tayin. Biz tariximizdagi yoqimsiz sahifalar mavjudligini tan olib, sharmandali yoki qora tusda yemas, balki obyektiv, tarixiylik va mantiqiylik prinsiplari asosida ko‘rib chiqishimiz lozim. Zero, “Biz yaratayotgan yangi O‘zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g‘oyasi bo‘ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan”[5].

XULOSA. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, qandaydir “tarixiy haqiqat”ni izlash va o‘z tarixini cheksiz ulug‘lash yo‘li to‘liq mafkuraviy mag‘lubiyatga olib keladi. Ulug‘lanadigan “haqiqat”ni izlab o‘zimizga qarshi illyuziyalarni yaratmasligimiz kerak.

Xulosa qilib aytganda, xalq o‘z tarixini buyuk va qahramonona shaklda ko‘rishni istaydi. Agar bu tushunilmasa va tarixga yondashuv konsepsiyasi o‘zgartirilmasa, hozirgi avlod yoshlarining ishonchini yo‘qotish xavfi mavjud. Jamiyatning ma’naviy-axloqiy ko‘rsatmalari va vatanparvarlik qadriyatlari, eng avvalo, an’anaviy tarzda ishlab chiqilishi kerak bo‘lgan milliy tarixning yangi ijobiy konsepsiyasiga asoslanishi kerak.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Muminova Z.O. Objective and subjective factors that forms human being’s moral being //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 2. – С. 72-74.
2. Hegel G. W. F. Philosophy of mind. – Clarendon Press, 2007.
3. Alikulov S.A. Methodological problems of research of social systems //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 2. – С. 717-720.
4. Salievich K. S. The paradigm challenge to reflixive sociology //Thematics Journal of Social Sciences. – 2022. – Т. 8. – №. 2.
5. Мирзиёев Ш. Жамият ҳаётининг танаси иқтисодиёт бўлса, унинг жони ва руҳи маънавиятдир. https://president.uz/uz/lists/view/4089
6. Тўраев Б.О. ва бошқ. Синергетика: моҳияти, қонуниятлари ва амалиётда намоён бўлиши //Т.: Наврўз нашриёти. – 2017. – С. 12-13.
7. Alikulov X., Haqqulov N.Q. Spiritual maturity and philosophical thinking dependence of development //ISJ Theoretical & Applied Science. – 2020. – Т. 4. – №. 84. – С. 164-167.
8. Usmonov F.N. The place of rational and creative thought in turning the virtuality into reality //Paradigmata poznani. – 2014. – №. 2. – С. 31-33.
9. Yuldasheva D. Legal protection of women is the basis for the development of uzbek society //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – Т. 24. – С. 1011-1014.
10. Muhammadiev K. Potentiality and virtuality in the philosophy of modern times //Theoretical & Applied Science Учредители: Теоретическая и прикладная наука. – 2022. – №. 3. – С. 1000-1004.

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 891.709.801.7

“XAMSA”NING GERMENEVTIK TADQIQI

Quvonov Zarif Omonboyevich, Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

ГЕРМЕНЕВТИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ “ХАМСЫ”

Кувонов Зариф Омонбоевич, доцент Навоийского государственного педагогического института, доктор философии по филологическим наукам (PhD)

HERMENEUTIC STUDY OF “KHAMSA”

Kuvonov Zarif Omonboevich, Associate Professor of Navoi State Pedagogical Institute, Doctor of Philosophy in Philology

https://orcid.org/0009-0009-0886-259X
e-mail: zarif_78@umail.uz

Annotatsiya: Milliy mustaqillik Alisher Navoiy ijodiyotini keng qamrovda tadqiq etish imkonini berdi. Alisher Navoiy “Xamsa”sining g‘oyaviy-badiiy olami, an’ana va ijodiylik, o‘zaro ta’sir va san’atkorlik, syujet va kompozitsiya, obrazlar tizimi, genezisi, tipologik jihatlari, janr, vazn, uslub masalalari bilan bir qatorda, asarning germenevtik jihatdan o‘rganilishi adabiyotshunos Aftondil Erkinov tadqiqotlari misolida tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: germenevtika, matn, tahlil, tadqiq, poetika, lug‘at, miniatyura.

Abstract: National independence made it possible to research Alisher Navoi’s art in a wide scope. The ideological-artistic world of Alisher Navoi’s “Khamsa”, tradition and creativity, interaction and artistry, plot and composition, system of images, genesis, typological aspects, along with issues of genre, weight, style, hermeneutic study of the work, studies of literary critic Aftondil Erkinov analyzed in the example.

Key words: hermeneutics, text, analysis, research, poetics, vocabulary, miniature.

Аннотация: Национальная независимость дала возможность широко исследовать творчество Алишера Навои. Идейно-художественный мир “Хамсы” Алишера Навои, традиция и творчество, взаимодействие и художественность, сюжет и композиция, система образов, генезис, типологические аспекты, а также вопросы жанра, веса, стиля, герменевтического изучения произведения, этюдов. На примере проанализировано литературоведа Афтондила Эркинова.

Ключевые слова: герменевтика, текст, анализ, исследование, поэтика, лексика, миниатюра.

TAMADDUN NURI

KIRISH. Hazrat Navoiy "Xamsa"siga doir ko'plab tadqiqotlar yaratilgan, bu beshlik haqli ravishda jahon adabiyotining nodir badiiy durdonasi sifatida tahlil va tadqiqqa munosibdir. "Navoiy "Xamsa"si o'z davrida eng mashhur asarlardan biri bo'lganligi, uning leksik qatlami tadqiqi o'sha davrdayoq boshlanganligi, Navoiy hayotligi davrida ko'chirilgan nusxalar jahon kutubxonalari fondida eng ko'p saqlanadigan nusxalardan ekanligi Navoiyning zamondosh shoirlar ijodiga ta'sirini eng avvalo xamsachilik an'analari bilan bog'liq holda tekshirishni taqozo etadi" [1,1].

Milliy mustaqillik Alisher Navoiy ijodiyotini keng qamrovda tadqiq etish imkonini berdi. Bu borada shoir asarlarining mukammal matnlarini yaratish, janr xususiyatlari, obrazlar tizimi, syujet va kompozitsiyasi, uslubi va tasviriy vositalarini o'rganish sohasida katta yutuqlarga erishilganini e'tirof etish mumkin. Navoiy asarlaridagi diniy-irfoniy, ma'naviy-ma'rifiy masalalar, asarlari g'oyaviyligini biror ijtimoiy maslakka ko'ra emas, badiiy barkamolligi o'laroq talqin va tadqiq etish imkoni yaratildi. Ilg'or adabiyotshunoslik mezonlariga tayangan holda shoir asarlarini tahlil va talqin etish yetakchi xususiyat kasb etmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLIL VA METODOLOGIYASI. Alisher Navoiy asarlarining o'rganilish tarixiga nazar soladigan bo'lsak, "Abushqa", "Sangloh", lug'atlaridagi talqinlarda, "Xamsa" dostonlari asosida Umar Boqiy, Mahzun, Mulla Siddiq Yorkandiyning nasriy qissalarida, keyingi asrlarda, ayniqasa, XX asr boshlaridan bugungacha navoiyshunoslikda amalga oshirilgan tadqiqotlarda sharh, matn tahlili va talqinining ilmiy-nazariy asoslari yaratilgan. Adabiyotshunos Aftondil Erkinovning Navoiy "Xamsa"sining talqin manbalariga bag'ishlangan tadqiqoti mumtoz adabiyotshunosligimizda, jumladan Navoiy ijodiyotini germenevtik jihatdan o'rganilgan ishlardan biri. "Germenevtik tahlilni o'zbek adabiyotshunosligiga olib kirgan adabiyotshunos olim Aftondil Erkinov bo'ldi, –deb yozadi M.Abdulxayrov. Mazkur matniy tadqiq etish usuli matnshunos olimlar tomonidan o'z davrida ham ijobiy baholandi. Keyinchalik ham badiiy asar matnini o'rganishda bu usuldan keng miqyosda foydalanildi" [2,68]. Hozirgi o'zbek matnshunosligida germenevtikaning muhim ahamiyat kasb etishi e'tirof etilmoqda. Mazkur tadqiqotda olim Alisher Navoiy "Xamsa"si talqini muammolari sifatida badiiy matn talqiniga doir nazariy qarashlarni, islom mintaqasida adabiyot talqini masalasi (tasavvuf ta'limoti, tafsir va sharh), "Xamsa" talqini muammosi va manbalari (buni, ya'ni manbalarni olim uchga bo'ladi: 1) muallifning o'zi (Navoiy), 2) zamondoshlari (Jomiy, Husayn Boyqaro, Xondamir), 3) keyingi davr kishilari (Bobur va boshq.); manbalarga esa Navoiy "Xamsa"si, tazkira, tarixiy va ilmiy asarlar lug'at, xalq kitoblari va boshq.), Navoiy va Abdurahmon Jomiy "Xamsa"si bilan bog'liq talqinlar, "Xamsa"ning badiiy, ilmiy, tarixiy asarlardagi talqini va uning turli qo'lyozmalardagi talqiniy manbalariga ko'ra o'rganadi.

Aksariyat manbalarda matnni talqin qilish nazariyasi sifatida e'tirof etiladigan germenevtika, tom ma'noda juda keng doirada qo'llaniluvchi sohalararo ta'limotdir. Chunki, ma'noni talqin qilish, tushunish, tushuntirish, izohlash, sharhlash kabi hodisalar falsafa, tarix, psixologiya, filologiya, san'atshunoslik, huquqshunoslik kabi fanlarning asosini tashkil qiladi. Dastlab "Ruh haqidagi fanlar metodologiyasi" deya e'tirof etilgan germenevtik metodologiya bugun o'zining keng qamrovli (ya'ni, ham ratsional, ham irratsional (divinatsion)) xususiyati bilan o'ziga xos tafakkur tarzini shakllantirishga yordam beradi. Shu bois, obrazli tafakkurni rivojlantirib, tanqidiy va tahliliy mulohaza qobiliyatini kuchaytirishda ramziy ifodalar genezisi, belgi va tasvirlar mazmunini germenevtik metodologiya asosida o'rganish muhim. Bu usul ikki tushunchani o'zida mujassam etgan: 1) matn talqini nazariyasi va amaliyoti; 2) zamonaviy falsafadagi oqim. Demak, badiiy asarni matniy tadqiq etishning yana bir usuli germenevtika deb nomlangan. U yozuv yodgorliklar matnining tagma'nosini ochish usuli bo'lib, hozirgacha muayyan o'zgarishlar bilan yetib kelgan qadimgi matnlarning dastlabki ma'nosini qayta tiklashga qaratilgan bir ta'limot hisoblanadi. Shuningdek, u o'tmishda yaratilgan yozma yodgorliklarning haqiqiy, asl matnini tiklashga va uning mumtoz adabiyotimiz tarixidagi o'rni, ahamiyatini ko'rsatib berishga qaratilgan matniy tadqiqot usullari majmuini tashkil etadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Matn talqini nazariyasi va amaliyoti bilan bog'liq germenevtika, o'z navbatida, talqin etish san'ati

hamdir. Badiiy matn talqini bilan shug‘ullanuvchi germenevtika esa adabiy germenevtika, deb ataladi. U qadimiy matnlarning asl ma’nosini ochish usul va yo‘llari hamda o‘zgarishga uchrab yetib kelgan adabiyot namunalari ma’nosini tiklashga qaratilgan ta’limotdir.

XIX asr G‘arb germenevtikasida qo‘llangan zarurat va tasodif, butun va qism, shakl va mazmun, miqdor va sifat, sabab va oqibat, imkoniyat va voqelik, xususiylik va umumiylik, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, ratsionallik va irratsionallik, mohiyat va hodisa kabi kategoriyalar Sharqda ming yil oldin, sharh ilmining dastlabki namunalaridayoq amalda qo‘llangan edi. Keyinchalik bu tajriba asarlardan asarlarga o‘tib, to bugungacha ta’sirini yo‘qotmasdan, lozim darajada o‘z funksiyasini bajardi va bajarmoqda [3,86].

Navoiyshunoslik yangicha tahlil va tadqiqlarga ehtiyoj sezmoqda. Aftondil Erkinov to‘g‘ri qayd etganidek, “Inson yangi sharoitda o‘z xarakterining yangi qirralarini namoyon qilganidek, badiiy matn ham turli yondashuv asosida yangi mazmun kasb etib boradi” [4,13]. Yaqin o‘tmishda yaratilgan aksar tadqiqotlar muayyan tuzum talablariga bo‘ysundirildi. Lekin navoiyshunos olim A.Hayitmetov ta’kidlaganidek, “aksariyat hollarda, Navoiy ijodini siyosiylashtirib talqin etib keldik... Yaqin o‘tmishdagi tadqiqotlarda hukmron mafkura belgilab bergan metodologiya ta’siri aniq sezilib turadi. Biroq o‘sha davr navoiyshunosligida qo‘lga kiritilgan yutuqlardan ko‘z yummasligimiz darkor” [5,3].

“Bizningcha, germenevtika – talqin nazariyasi va ta’limotini o‘zbek adabiyotiga keng tatbiq etish davri kelgan. Aslida, har bir adabiyotshunos olim o‘z tadqiqotida asar matni talqini bilan shug‘ullanadi, qaysidir darajada germenevtika bilan munosabatga kirishadi, – deb yozadi A.Erkinov. – Biroq, olimlarimiz interpretatsiya masalasida muayyan ishlarni amalga oshirgan bo‘lsalar-da, bu atama va falsafiy ta’limot fanimiz uchun nisbatan yangilikdir. Germenevtika ta’limot sifatida G‘arbda shakllangan, biroq o‘zimizda matn talqinining o‘ndan ortiq yo‘nalishlari, jumladan, tafsir, ilmi hoshiya, sharh bitish, miniatyura... kabi talqin bilan bog‘liq mustaqil sohalar avvaldan mavjud bo‘lgan. Germenevtikani o‘zbek klassik adabiyotiga doir manbalarga tatbiq etish, uni zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligiga olib kirish lozim”[4,16]. “Xamsa”ning germenevtik jihatdan tadqiq qilish asarning matniy strukturasi, nazariy tarixi hamda badiiy barkamolligi, ijodkorning san’atkorlik mahorati kabi masalalarga oydinlik kiritadi. Germenevtik tadqiq “matnning badiiyligi, emotsionalligi, ta’sirchanligi, tasviriyligi ortida ijodkorning, u tegishli bo‘lgan xalq va umuman insoniyatning fasohati, anglab yetilgan yoki anglab yetilmagan fasohati zamirida, minglab avlodlarning orzu-umidlari, tilaklari, estetik dunyosi, qalb manzaralari tasviri mujassam bo‘ladi. Mana shularning hammasi germenevtikaning badiiy tilga asoslangan matn imkoniyatlari zamirida o‘rin topadi” [6,48].

Aftondil Erkinov Navoiy “Xamsa”sining matniy talqinini Sharq adabiyotidagi boshqa shu an’anada yaratilgan asarlar bilan qiyosan o‘rganadi. Jumladan, turk adibi Ahmadiyning (XIV–XV asrlar) “Iskandarnoma” dostonidagi Doro elchilari bilan Iskandar o‘rtasida munozara, tortishuv lavhasining tahlili asosida Ahmadiyning izohi asnosida Iskandar – ruh, Dorob – nafs, kunjut – gunoh, xato, xo‘roz – tavba ma’nosini anglatishi “Ahmadiy asaridagi voqelik, davr ruhi va ma’no tadqiqotchi yoki o‘quvchiga Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonini talqin etishda yordam berishi mumkin”, [4,31] – deb ko‘rsatadi.

Olimga ko‘ra, Sharq adabiyotidagi an’anaviy lavha talqini vositasida shu kabi boshqa an’anaviy lavhalarni ham talqin qilish mumkinligi Ahmadiy dostonida Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostoni ikkinchi hikoyati – Zayd Zahhob to‘g‘risidagi voqeaning ramziy ma’nolarini yechishga yordam beruvchi yana bir hikoyat tahlili orqali o‘rganishga yo‘l ochadi. Uning mazmuni quyidagicha: Iskandar yangi shahar qurdirib, unga “Iskandariya” deb nom beradi. Yangi minora ustiga oinai getinamo o‘rnatadi. Shu o‘rinda hikoyat ichida yana bir hikoyat keltiriladi: Bani Abbos davrida Mag‘ribdan bir farang keladi. Uning tashi mo‘min, ichi kofir bo‘lib, o‘zini yon-atrofdagilarga zohidsifat qilib ko‘rsatadi va odamlar unga ishonadi. Xalq uni imom va karomatgo‘y, deb o‘ylaydi. Lekin u Bani Abbosni aldab minora ostiga oltinlarni ko‘mdirib, bir kechada olib qochib ketadi. Ahmadiy rivoyatdagi o‘zi keltirgan ramzlarni shunday sharhlaydi: yangi qurilgan shahar – vujud, jomi getinamo – ko‘ngil ko‘zgusi, xalifa (Bani Abbos) – nafs, farang – dunyo ziynati. Asarning botiniy ma’nolariga batafsil to‘xtalmay, mazkur hikoyat talqinidan Navoiyning

“Sab’ai sayyor” dostonidagi Zayd Zahhob to‘g‘risidagi hikoyat mazmunini sharhlashda, qaysidir darajada, foydalanish mumkinligini qiyosan ochib beriladi [4,33]. Navoiy “Xamsa”sining XX asrgacha bo‘lgan davrdagi talqini manbalarini tasniflash, bu jarayonda ana shu davrni keyingilaridan ajratuvchi tomonlariga e’tibor qaratiladi. Talqinshunos ta’kidicha: “Biz diqqatimizni qaratgan davr – Navoiy “Xamsa”si yaratilganidan XX asr boshlarigacha bo‘lgan oraliqni masalamiz nuqtayi nazaridan yaxlit bir bosqich sifatida olib o‘rgangandik. Bizning bosh maqsadimiz Sharqona talqinni ko‘rsatuvchi asos – manbalarni aniqlashdan iborat bo‘lgandi. Navoiy “Xamsa”si talqini, har qanday asar talqinida uchrashi mumkin bo‘lganidek, uch xil tomondan talqin etilgan. Bular: a) muallifning o‘zi (Navoiy); b) zamondoshlar (masalan, Jomiy, Husayn Boyqaro, Xondamir); v) keyingi davr kishilari (masalan, Bobur, xattotlar, kitobxonlar, noshirlar va boshqalar). Keyingi ikki guruhni o‘z ichida yana qismlarga ajratish mumkindir. Biroq biz talqinni tashuvchi shaxs va guruhlarni emas, talqiniy informatsiyaga ega manbalar – talqiniy manbalarni o‘rganishga e’tibor qaratish maqsadida bo‘lganmiz” [4,183]. Aftondil Erkinov bu manbalarni: Navoiy “Xamsa”si, dostonlarning kirish qismidagi fikr-qarashlar, tazkiralar (Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush shuaro” hamda Som Mirzo Safaviy “Tuhfai Somiy” va boshq.), tarixiy asarlar (Xondamirning “Makorim ul-axloq”, Abdulmo‘minxonning “Tom uttavorix” va Mir Said Sharif Roqimning “Tarixi Roqimiy” va boshq.), ilmiy asarlar, memuar asarlar (Navoiy “Xamsa”siga doir ko‘plab fikr-munosabat uchraydigan Husayn Boyqaroning “Risolai Husayniy” va Xondamirning “Makorim ul-axloq”), Navoiy “Xamsa”si qo‘lyozmalari, lug‘atlar, nasriy bayonlar, “Xamsa”ga ishlangan miniatyuralar kabilarni talqiniy manba sifatida o‘rganadi. Ko‘rinadiki, germenevtik tadqiq matnni til (lingvistik), tarix, hatto san’at (miniatyura) sohasi doirasida tekshirishga yo‘l ochadi.

Aftondil Erkinov Navoiy “Xamsa”si talqini davrini ikki bosqichga bo‘lib o‘rganishni ta’kidlar ekan, ularni XV asrdan XX asr boshlarigacha bo‘lgan bosqich va XX asr boshidan bugungacha bo‘lgan bosqichga bo‘ladi. Ularning birinchisini shartli ravishda sharqona, keyingisini g‘arbona yondashuv davri, deb ko‘rsatadi. “Ikki bosqich o‘rtasidagi, taxminan, chorak asrlik muddat o‘tish davri hisoblanadi. Bizning bunday klassifikatsiya tuzishimizga talqinlarda mavjud bo‘lgan ikki davrga taalluqli farq, badiiy did va adabiyotshunoslik sababchi bo‘ldi. Bosqichlar xarakteri ta’rifi ularning xususiyatini oydinlashtiradi”[4,38].

XULOSA. Alisher Navoiy “Xamsa”sining g‘oyaviy-badiiy olami, an’ana va ijodiylik, o‘zaro ta’sir va san’atkorlik, syujet va kompozitsiya, obrazlar tizimi, genezisi, tipologik jihatlari, janr, vazn, uslub masalalari bilan bir qatorda, asarni germenevtik jihatdan o‘rganish, o‘ziga xos poetikasini tadqiq qilish, ijodkor badiiy mahoratini namoyish qiluvchi yetakchi tasviriy vositalarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada navoiyshunoslikda olib borilayotgan ishlar, jumladan adabiyotshunos Aftondil Erkinovning “Xamsa”ning germenevtik yo‘sindagi tadqiqotlari fikrimizni dalillaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. М.Муҳиддинов. Навоийдан кейин “Хамса” яратилмаганми? // https:// zarnews. uz / post / navoiydan - keyin-xamsa-yaratilmaganmi
2. Абдулхайров М. Навоий асарлари матни табдилини амалга ошириш усуллари, тамойиллари ва амалий масалалари. Филология фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. Тошкент. 252 б.
3. Зоҳидов Р. “Саботул ожизин” асарининг манбалари, шарҳлари ва илмий-танқидий матнини комплекс ўрганиш муаммолари. Филология фанлари доктори диссер., 86-бет. Тошкент, 2017. 256 б.
4. Эркинов А. Алишер Навоий “Хамса”си талқини манбалари (15-20 аср боши). Истиқлол даври ўзбек навоийшунослиги. 30-жилдлик. 19-жилд. Тошкент, 2021. 360 б.
5. Ҳайитметов А. “Шеърки, ҳам тушти менинг шонима” // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1996 йил, 9 февраль.
6. Тожибоев М., Юсупова Ш., Бўриева Э. Адабий герменевтика ва мумтоз бадиий тил. – Т.: Университет, 2013. 160 б.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 811.512.133

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA IS’HOQXON IBRAT ILMIY-IJODIY MEROSINING O‘RGANILISHI HAQIDA

Latipov Murotali Mannobovich, Guliston davlat universiteti katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

ON THE STUDY OF THE SCIENTIFIC AND CREATIVE HERITAGE OF ISHAQKHAN IBRAT IN UZBEK LINGUISTICS

Murotali Mannobovich Latipov, senior lecturer of Gulistan State University, doctor of philosophy (PhD) in philological sciences

К ИЗУЧЕНИЮ НАУЧНО-ТВОРЧЕСКОГО НАСЛЕДИЯ ИСХАКХАНА ИБРАТА В УЗБЕКСКОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Латипов Муротали Маннобович, старший преподаватель Гулистанского государственного университета, доктор философии по филологическим наукам (PhD)

https://orcid.org/0009-0002-5051-2090
e-mail: murotalilatipov@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada ma’rifatparvar jadid adibi Is’hoqxon Ibratning nasriy, nazmiy, publitsistik asarlarining tilshunoslik aspektida o‘rganilish darajasi tavsiflangan.

Kalit so‘zlar: milliy til, adabiy til, sart tili, lug‘atchilik, lug‘atshunoslik, leksikografik tamoyil.

Abstract: The article describes the level of study of the prose, poetry, journalistic works of the enlightened Jadid writer Ishaqkhan Ibrat in the linguistic aspect.

Key words: national language, literary language, formal language, lexicography, lexicography, lexicographic principle.

Аннотация: В статье описывается уровень изучения прозы, поэзии, публицистического творчества просвещенного джадидского писателя Исхакхана Ибрата в лингвистическом аспекте.

Ключевые слова: национальный язык, литературный язык, формальный язык, лексикография, лексикографический принцип.

KIRISH. XX asrning boshlarida Markaziy Osiyoda, shu jumladan, O‘zbekistonda ijtimoiy, siyosiy, madaniy sohalarda jiddiy o‘zgarish, yangilanishlar sodir bo‘ldi. Ayniqsa, jamiyat taraqqiyotining muhim omili bo‘lgan fan, ta’lim, adabiyot va san’at sohalarida jiddiy islohotlar amalga oshirildi. Bunda yangicha qarash, yangicha tafakkur g‘oyalarini ilgari surgan, jamiyat taraqqiyoti, ilm-fani, ta’limi, milliy tili va adabiyoti fidoyilari bo‘lgan jadid namoyondalarining xizmatlari alohida e’tibor, e’tirofga loyiqdir. Binobarin, ularning hayot-faoliyati, ilmiy-ijodiy merosini har tomonlama, xususan, filologik fan sohalarida o‘rganish bizning jadid ma’rifatparvarlari oldidagi ham qarz, ham farzimizdir. Shunga binoan, biz quyida o‘zbek tilshunosligi ilmida jadid adabiyotining yirik vakillaridan biri Is’hoqxon Ibratning tilshunoslikka oid qarashlari, uning ilmiy-

ijodiy merosi, badiiy asarlarining lisoniy xususiyatlari haqida olib borilgan tadqioqtlarni ilmiy umumlashtirgan holda ularga munosabat bildirmoqchimiz.

Xalqimiz tarixi, madaniyati, ta'limi, adabiyoti taraqqiyotida o'zining munosib o'rniga ega Is'hoqxon Ibratning ilmiy-ijodiy merosiga e'tibor qaratish, asarlarining o'rni va ahamiyatini baholash, ularning tahlili va munosib tavsifini amalga oshirish ilmiy-amaliy jihatdan tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarixshunoslik sohalari uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Uning asarlari tadqiqi orqali XX asr boshlaridagi madaniyatimiz, tariximiz, tilimiz va adabiyotimizga doir masalalarning haqqoniy talqinini yaratish, til, adabiyot, madaniyat, ijtimoiy hayot voqeligini xolis baholash imkoniyatiga ega bo'lamiz. Avvalo, Ibratning milliy til, uning sofligini saqlash, makatablarda ona tili ta'limi, ko'ptillilik borasidagi lingvistik qarashlari, tilshunoslikka oid asarlarining hozirgi ahamiyati, fan sohasida ularning o'rganilish darajasi xususida fikr yuritamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Adibning tilshunos sifatidagi faoliyati, tilshunoslikka oid qarashlari haqida tadqiqotchilar tomonidan bildirilgan ayrim fikrlar bor: "Ibratning ko'p qirrali faoliyatida tilshunoslik, xususan, lug'atchilik alohida bir yo'nalishni tashkil etadi. U dastlab tilshunos olim sifatida tilning ijtimoiy jamiyatdagi o'rni va mavqeyini yuqori baholaydi, til bilishning esa jamiyatda maktab va maorif, fan va madaniyat ishlarini yuksaklik sari olg'a siljituvchi qudratli qurol ekanligini o'z davrida keng targ'ib qiladi. Chunonchi, "insonlari o'lurki, o'z mamlakatlari lisonin toza bilmaslar", deya o'z milliy tili, ya'ni o'zbek tilining go'zal va nafis jozibadorligi, grammatik xususiyatlari haqida yetarlicha tushuncha va tasavvurga ega bo'lmagan vatandoshlari holidan qattiq ranjiydi. Shu ma'noda, o'sha davrdagi maktab va maorif tizimida, o'zi isloh qilgan maktabda o'quvchilarning boshqa fanlar qatorida til bilimi, til ilmi bo'yicha mukammal ma'lumotga ega bo'lishlari lozimligiga alohida e'tibor qaratadi" [1.174]. Darhaqiqat, boshqa jadid ma'rifatparvarlari kabi Is'hoqxon Ibrat ham jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy muammolar qatorida milliy til masalasiga jiddiy e'tibor qaraydi va xalq, millat kamolotini til bilan bog'laydi. Bu narsa adib faoliyatida dasturulamal bo'lgani holda, o'zi tashkil etgan yangi usuldagi maktabda, boshqa "usuli savtiya" maktablarida o'quv adabiyotlarini sof milliy tilda nashr etishda jonbozlik ko'rsatadi.

Adib ko'ptillilik masalasida nihoyatda ehtiyotkorlik yo'lini tutadi. Albatta, mazkur davrda ham hozirgidek jahonga yuz tutish, zamon bilan hamnafas yashsash, dunyoviy bilim va ilmlardan xabardor bo'lish uchun ko'p til bilish muhim sanalgan. Adibning "Lug'oti sitta al-sina (olti tilli lug'at)" asarining yuzaga kelishidagi ijtimoiy zaruriyat ham shunda. Biroq o'zbek farzandi uchun birinchi navbatda o'z ona tilini, ya'ni o'zbek milliy tilini mukammal o'zlashtirish zarur va shart ekanligi adibning tilshunos sifatida millatga hayqirig'i, chaqirig'i edi: "Bizning yoshlar, albatta, boshqa tilni bilish uchun sa'y-harakat qilsinlar, lekin avval o'z ona tilini ko'zlariga to'tiyo qilib, ehtirom ko'rsatsinlar. Zero, o'z tiliga sadoqat – bu vataniy ishdir" [2.10].

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Ibrat ijodiga mansub tarixiy, badiiy, publitsistik asarlarning lisoniy xususiyatlari hozirgacha alohida monografik tadqiq etilmagan bo'lsa-da, XX asr boshlari o'zbek milliy tili va tilshunosligi, leksikografiyasi tadqiqiga bag'ishlangan ayrim ishlarda boshqa jadid ma'rifatparvarlari qatorida adib ijodiga ham qisman murojaat qilingan o'rinlar mavjudligi kuzatiladi. Adibning yozuvlar tarixini o'rganishga bag'ishlangan asari "Jome' ul-xutut" ("Yozuvlar majmuasi") hamda leksikografiyaga oid "Lug'oti sitta al-sina" ("Olti tilli lug'at") asari bo'yicha U.Dolimov, N.Jabborov, A.Madvaliyev, Y.Sayidov, S.Normamatov kabi filolog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga munosabat bildirib o'tamiz.

TAHLIL VA NATIJALAR. O'tgan asr boshlarida Chor hukumati mustamlakachilik siyosatining avjiga chiqishi bilan mahalliy aholi o'rtasida rus tilini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj orta boradi. Jumladan, rus-tuzem maktablari, "usuli savtiya" maktablari o'lkaning katta-katta shaharlaridagina emas, balki qishloqlarda ham ochila boshlangandi. Bunday maktablarda dunyoviy fanlar, ona tili, adabiyot fanlari bilan bir qatorda rus tili ham o'qitilar edi. Zamon talablarini yaxshi tushungan ilg'or fikrli kishilar allaqachon o'z farzandlarini shunday maktablarda o'qitish rejasini tuzib qo'ygan edilar. Biroq o'quvchilar, shu jumladan, rus va xorijiy tillarni mustaqil o'rganuvchilar uchun darslik va qo'llanmalar yetishmasdi. Rus tili bilan bir qatorda o'nga yaqin Sharq va G'arb tillarini ancha

mukammal bilgan Is'hoqxon Ibrat bu muhim masalada faollik, hozirjavoblik ko'rsatib o'z xalqiga birinchi bo'lib yordam qo'lini cho'zadi. Adib tez fursatda olti tildagi "Lug'oti sitta al-sina" ("Olti tilli lug'at") nomli lug'at kitobini yaratadi. Is'hoqxon To'ra mazkur asarni yaratar ekan, birinchi galda rus tiliga qiziquvchilarni ko'zda tutgan. Bu hol kitobning birinchi sahifasidanoq ko'zga tashlanadi. Muallif ruscha yozuv tizimini bilmaydiganlarga ham qulay bo'lsin uchun, rus so'zlarini ham arab yozuvi bilan beradi. O'sha davrda rus va Yevropa so'zlarini arab yozuvida ifodalash ancha murakkab bo'lsa-da, Ibrat bu ishni muvaffaqiyatli hal qildi. Asar qo'lyozma holidayoq qo'ldan qo'lga o'tib, nashr etilmasdanoq ziyolilar undan foydalanishga, ko'chirib olishga muvaffaq bo'lganlar. Rus tilini o'rganish istagidagi o'zbek ziyolilari, "usuli savtiya" maktablari o'qituvchilari va o'quvchilari bu asarning yaratilishidan xursand bo'ldilar, ko'p nusxalarda chop etilishini sabrsizlik bilan kutdilar. Ibratning lug'atchilikka oid ushbu "Lug'oti sitta al-sina" ("Olti tilli lug'at") asari o'z tarkibida, darhaqiqat, olti tildagi: arabcha, forscha, hindcha, turkcha, sartcha (o'zbekcha) va ruscha so'zlarni aks ettirgan dastlabki ko'p tilli lug'at namunasidir. Mazkur lug'atning leksikografik xususiyatlari va uning tilshunoslikdagi ahamiyati xususida dastlabki kuzatishlarni olib borgan tilshunos olim A.Madvaliyevdir. Uning mazkur asar haqida yozgan maqolasida ta'kidlanishicha, ushbu lug'at ikki qism, 53 sahifadan iborat bo'lib, kundalik muloqotda ko'p qo'llanadigan mingdan ortiq eng faol o'zbekcha so'zlarning arabcha, forscha, turkcha, hindcha va ruscha tarjimalarini o'zida aks ettirgan, keng xalq ommasiga tushunarli bo'lgan arab yozuvida bitilgan. Uning birinchi qismida 156 ta fe'lning masdar (infinitiv) hamda hozirgi-kelasi zamon shakllari, 12 ta fe'lning o'tgan zamon va buyruq mayli shakllari hamda 5 ta olmosh – jami 341 ta so'z 6 ta ustunga ajratilgan holda berilgan. Lug'atning ikkinchi jildi jami 694 ta ismni (ot, sifat va son turkumidagi) qamrab olgan, ular 7 ta mavzu guruhiga ajratilib, arabcha-forscha-turkcha-hindcha-sartcha-ruscha lug'at shaklida olti ustun qilib berilgan [6.53-56].

Maqola muallifi Is'hoqxon Ibrat lug'atni tuzishdan oldin turkiy lug'atchilik, arab, fors-tojik lug'atchiligi, usmonli turk tili lug'atchiligi va shuning barobarida, rus lug'atchiligi bilan ham mukammal tanishib chiqqanligiga, umuman olganda, lug'atchilikning nazariy va amaliy masalalarini hamda lug'at tartib etish uchun zarur bo'lgan o'zbek tili, fors-tojik tili, arab tili, turk tili va hind tillarini chuqur o'zlashtirganligiga alohida urg'u berib, o'zbek leksikografiyasida Ibratgacha ham, Ibratdan keyin ham ayni shu xildagi, ya'ni olti til materiallari qamrab olingan va bu til materiallarining o'zaro qiyosiy tarjimalari berilgan lug'at tuzilmaganligini qayd etadi [6;53-56].

S.Normamatov ma'rifatparvar jadidlarning o'zbek zamonaviy leksikografiyasining taraqqiyotidagi xizmatini ular yaratgan lug'atlarning lingvistik tahlili asosida baholar ekan, Abdurauf Fitrat, Elbek, Ashurali Zohiriy, Abdulla Qodiriy kabi adiblarning amaliy leksikografik faoliyati natijalari qatorida Ishoqxon Ibratning lug'atchilik faoliyatini ham tahlilga tortadi. Muallif ilmiy kuzatishlarida "Lug'oti sitta al-sina" asarida muallif leksikografiyaning mazkur davrda an'anada bo'lgan tamoyillari bilan birga, yangicha tamoyillarga ham asoslanib tartib berganligini ta'kidlaydi: "Lug'oti sitta al-sina" asarini yaratishda yangicha yo'nalishdagi G'arb lug'atchiligi tamoyillari bilan birga, an'anaviy Sharq lug'atchiligi prinsiplariga ham tayangan holda lug'at tuzganligining guvohi bo'lamiz. ... lug'atda fe'llarning masdar (chochmak, kesmak, kiymak), hozirgi-kelasi zamon (o'ynar, yog'ar, xohlar), o'tgan zamon (yotgan, turgan) hamda buyruq mayllarida (kelma, o'rganma) berilishi; ismlarning esa 7 ta tematik guruhga ajratilib tarjimalarining berilishi jadid davrigacha bo'lgan Sharq lug'atchiligi, xususan, arab lug'atchiligi an'analarining ta'sir belgilaridir. Shuningdek, lug'at mavzular bo'yicha "Moziy va amr"(O'tgan zamon va buyruq mayli), "Almutakallim" (Olmoshlar), "A'zoyi hayvonot" (Jonzotlarning a'zolari), "Asmou ahli qarobat" (Qarindoshlik nomlari), "Asmoi aqsomi taom" (Taom nomlari), "Asmoi nag'amot" (Musiqa asboblari nomlari), "Aqsomi rang" (Rang nomlari) kabi bir necha bo'limga bo'lingan va sarlavhalangan" [1;178-179]. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, so'zlarning ma'noviy yaqinligi, mavzuiy munosabatiga asoslanadigan ideografik xarakterdagi lug'atga xos leksikografik xususiyatlar ushbu lug'atda ham kuzatiladi. Muallif lug'at so'zligini tartiblashtirishda leksikografiyadagi yangicha tamoyilga, ya'ni so'zlar ifodalaydigan tushunchalarning o'zaro yaqinligi, aloqadorligiga asoslanadigan ideografik tamoyilga tayangan, bu yondashuv esa izlanayotgan so'zni mavzular

bo‘yicha tez va osonlik bilan topish imkoniyatini ta’minlaydi. Bu holat borliq lisoniy manzarasining lug‘atda aks etishi namunasi sifatida ham baholanishi mumkin.

Lug‘atda qayd qilingan o‘zbekcha so‘zlikning strukturasi, tub va yasamaligi, o‘sha davr tili uchun xos bo‘lgan izofali birikmalar, tobe bog‘lanishli o‘zbekcha so‘z birikmalari, tub va qo‘shma fe’llar bilan bog‘liq leksik, grammatik xususiyatlar tahlili, so‘z tarjimasidagi o‘ziga xos yutuq va kamchiliklar S.Normamatovning tadqiqot ishida o‘zining batafsil tavsifini topgan. Tadqiqotchi fe’l so‘zlar izohining ayrim o‘rinlarida infinitiv shaklning -mak, -moq tarzida berilish holatini lug‘at yaratish uchun adabiy tilda yagona grammatik me’yorning, shakllanayotgan yangi o‘zbek adabiy tilining lug‘aviy hamda morfologik me’yorlarining mavjud emasligi bilan izohlaydi [Нормаматов,2020:180]. Shuningdek, mazkur tadqiqotda “Lug‘oti sitta al-sina” asari “mazmun-mohiyati bilan o‘sha davrdagi yangicha yo‘nalishdagi, ya’ni G‘arb lug‘atchiligi an’analari ta’sirida yaratilgan lug‘at” sifatida baholanib, uning o‘zbek lug‘atchiligida tutgan o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatuvchi bir qator xususiyatlar qayd qilinadi: “Lug‘oti sitta al-sina” – o‘zbek leksikografiyasida olti til materiallarining o‘zaro qiyosiy tarjimasiga oid hozircha yagona lug‘at; o‘sha davr uchun yangi o‘zlashmalar: kraxmal, kursi, qandil, kasalxona, limon, kema, dorishunos kabilarni izohlagan, ularning o‘zbek tili lug‘at boyligidagi barqarorlashuviga hissa qo‘shgan; turli til oilalariga mansub tillarning leksik birliklarini o‘zaro qiyoslagan; o‘zbekcha so‘zlikning tarkibida xalq tili elementlari lug‘atdan foydalanuvchilar ommasining manfaatini ko‘zlagan holda faol qo‘llangan (masalan: huqmazak (husnbuzar), chirk (kir), shoti (narvon), archaxilol (tish kovlagich), javori (juxori), fatinjon (baqlajon), chovutka (chigirtka), teva (tuya) kabilar). Shuningdek, ushbu lug‘at, avvalo, o‘zbek tili so‘z boyligini oshirish va tavsiflash, xalq tilidagi so‘zlarni faol lug‘at tarkibiga olib kirish, qayd qilingan tillarni targ‘ib va tashviq qilishga katta hissa qo‘shgan ilmiy manba hamdir” [1;178].

Adib mazkur asariga material to‘plar ekan, jonli tilda ko‘p qo‘llanadigan eng faol so‘zlarni kiritishga alohida e’tibor beradi. Unda iste’moldan chiqib ketayotgan arxaik so‘zlarni deyarli uchratmaymiz, lug‘atni keng xalq ommasiga tushunarli bo‘lgan arab yozuvida yaratadi. Ma’lumki, bunga qadar ham ruscha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-ruscha lug‘atlar yaratilgan. Masalan, V.P.Nalivkin va uning rafiqasi M.Nalivkinaning “Русско-сартовский словарь”, “Сартовско-русский словарь” asarlari shular jumlasidandir. Lekin bu asarlardan kitobxonlar – rus tilini o‘rganishga qiziquvchilar unumli foydalana olmaydilar. Chunki bu kitoblar rus yozuvida yaratilgan bo‘lib, o‘zbek tilini o‘rganuvchi ruslar va ruscha savodi bo‘lgan sanoqli o‘zbeklar uchun mo‘ljallangan edi. Shuning uchun ham bu asarlar rus tilini o‘rganuvchi o‘zbeklar ehtiyojini qondira olmadi. Is’hoqxonning mazkur asarini arab yozuvida yaratishi sababini shu bilan izohlash mumkin. Mana shu muhim, nihoyatda murakkab masalaga o‘zbek ma’rifatparvarlari orasida birinchi bo‘lib Ibrat qo‘l urdi va zamondoshlari talabini birmuncha qondirishga muvaffaq bo‘ldi. Shu nuqtayi nazardan, lug‘at muallifi zamondoshlaridan birining: “...Bizning Turkiston viloyatida sartiyalardan shuncha til bilib, bul tariqa kitob va lug‘at tasnif qilgan odam yo‘q edi”, – degan jumlalari zamirida katta haqiqat yotar edi.

Ma’lumki, bundan besh ming yil avval og‘zaki nutqqa nisbatan ikkilamchi aloqa vositasi sifatida yozuvning paydo bo‘lishi bashariyatning inqilobga teng kashfiyoti bo‘lgan. O‘tgan vaqt mobaynida tilshunos, tarixshunos, arxeolog olimlar tomonidan yer yuzida dastlabki yozuvning paydo bo‘lishi, taraqqiyot bosqichlari bo‘yicha muayyan tadqiqotlar olib borildi, insoniyat qadimda foydalangan va hozirda foydalanayotgan yozuvlarning grafik xususiyatlari, yozuv tiplari va turlari haqida muayyan ilmiy xulosalarga kelindi. Shu asosda tilshunoslikning yozuvlar tarixi va hozirgi holatini o‘rganuvchi “grammatologiya” sohasi yuzaga keldi. Ishoqxon Ibratning tilshuhoslikka oid ikkinchi “Jome’ ul-xutut” (“Yozuvlar majmuasi”) nomli ilmiy asari tilshunoslikning aynan mana shu sohasiga tegishli ilmiy asardir. XX asrning boshlarida yaratilgan “Jome’ ul-xutut” asarida tilshunoslikka oid muhim ma’lumotlar o‘rin egallagan. Asarning yozilishi uchun yuzaga kelgan zaruriyatni muallif quyidagicha izohlaydi: “...Bu namunalardan muddao buki, har asrda bir olam tabodul bo‘lib, asr o‘zgarib, olam, odam, ashyolar – hamma narsa tabodul bo‘lmog‘i bizga bir sarxatdur. Bunga qarab ibrat olib ish tutmak darkor. Avvali holimiz ul, emdi bul, olam yurishi shul. Binobarin, tajdidi ahvol va atvor ibrat

bo‘lur ekan. Shul o‘ttiz yil (ga) bir nazar qarasak, ko‘p farqlar bor...” [2;48].

Muallif fikricha, jahondagi ilm, fan, madaniyat yutuqlaridan boxabar bo‘lmoq, davr o‘zgarishlaridan voqif bo‘lmoq, tarixni to‘g‘i va xolis anglamoq, tushunmoq va bu kabi ma’lumotlarni kelgusi avlodga yetkazmoq uchun dunoydagi yozuvlar va ularning tarixini o‘rganish zarur. Mana shu maqsad yo‘lida muallif asarda insoniyat tarixidagi piktografik yozuvlardan keyin vujudga kelgan eng qadimiy tovush-harf yozuvlari: finikiya, yahudiy, suriya, arab, yunon, fors, slavyan, sanskrit, hind, lotin, arman, gruzin, uyg‘ur va boshqa qirqdan ortiq yozuvlar, ularning kelib chiqishi, taraqqiyoti haqida ma’lumot beradi. Yozuv til va madaniyat tarixi, uning rivojlanish bosqichlari bilan ajratib bo‘lmas darajada bog‘liq. Shuning uchun ham yozuvlar tarixi bilan shug‘ullanuvchi olimning zimmasida katta mas’uliyat bo‘ladi. U kishilik jamiyati tarixi, madaniyati, qachonlardir aloqa quroli hisoblangan, keyinchalik o‘lik holiga tushib qolgan tillar, yozuvlar bilan hamda jonli til va yozuv o‘rtasidagi aloqalar bilan tanishmog‘i zarur. Tilshunoslik fanining bu murakkab sohasida Is’hoqxon Ibrat tomonidan yaratilgan “Jome’ ul-xutut” (“Yozuvlar majmuasi”) nomli ilmiy asar ancha mukammal asar hisoblanadi. Ibratning mazkur asari bo‘yicha ilmiy kuzatishlar olib borgan filolog olimlar U.Dolimov, N.Jabborovlar o‘z fiklarini quyidagicha xulosalaydi: “Ishoqxon Ibratning XX asr boshlaridayoq olib borgan ilmiy faoliyati uning ajoyib tilshunos olim ekanligidan dalolat beradi. U madaniyatimiz taraqqiyoti tarixida husnihatni mukammal egallagan xattot sifatida ham katta shuhrat qozondi. Bu hol uning “Sah’ati Ibrat, alami Mirrajab Bandiy” va “Jome’ ul-xutut” asarlarida ham ko‘zga tashlanadi” [3;20].

Ishoqxon Ibrat asarlarining lisoniy xususiyatlari haqidagi ma’lumotlar Y.Sayidovning ilmiy izlanishlarida ham kuzatiladi. Muallif jadid adibiyoti namoyandalarining o‘zbek adabiy tili taraqqiyotidagi o‘rnini ular yaratgan badiiy asarlar misolida belgilashni maqsad qilar ekan, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho‘lpon, Muhammadsharif So‘fizoda, Karimbek Kamiy, Siddiqiy Ajziy, Abdulhamid Majidiy, Elbek, Botu kabi jadidlar qatorida Ishoqxon Ibratning ham she’riyatini qisman tahlilga tortadi. Uning “Jadid badiiy asarlari leksikasi” [7;68] nomli doktorlik dissertatsiyasida jadid adiblari yaratgan nazmiy asarlar leksikasi misolida davr poetik nutqi va uslubidagi o‘z va o‘zlashgan qatlamning qo‘llanish darajasini aniqlashga, leksik-semantik va funksional xususiyatlarini ochib berishga, jadid she’riy asarlari leksikasining turkiy til va xalq shevalari asosida shakllanganligini asoslashga, metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi vositalarning poetik-estetik tabiati va lingvopoetik imkoniyatlarini yoritishga harakat qilgan. Muallif olib borgan tahlillari asosida jadidchilik harakati g‘oyalari she’riy asarlar matnida ham o‘z ifodasini topganligini, bu davrda leksik me’yorlar izchil takomillashib borganligini, statistik tahlilda o‘z qatlam 59% ni, o‘zlashma qatlam esa 41% ni tashkil qilganligini, “Chig‘atoy gurungi” a’zosi bo‘lgan adiblar poetik nutqida umumturkiy lug‘aviy birliklar tashkilot a’zosi bo‘lmagan shoirlar asarlariga nisbatan ko‘p miqdorda ekanligini, bu holat “Chig‘atoy gurungi” a’zolarining tilning sofligini saqlashga doir harakatlarining natijasi ekanligini ilmiy xulosalaydi. Y.Sayidovning jadid adiblari sh’eriyati tilidagi lug‘aviy qatlamning miqdoriy va foiz ko‘rsatkichi bo‘yicha tahlillari, xususan, Ibrat she’riyati tlida umumturkiy so‘zlar 35%ni, arabcha so‘zlar 32%ni, forscha so‘zlar 27%ni, ruscha-yevropacha so‘zlar 1,6%ni, aralash so‘zlar esa 4%ni tashkil etganligini ko‘rsatadi [7;32]. Bu holat adibning asarlarida mumkin qadar o‘zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida, o‘z qatlam leksik birliklaridan foydalanishga harakat qilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotda Ibrat she’riyati tilidagi forscha o‘zlashmalar xususida bildirilgan quyidagi fikrlar ham ahamiyatli sanaladi: “So‘fizoda, Sidqiy Xondayliqiy, Ishoqxon Ibrat, Siddiqiy-Ajziy kabi ijodkorlarning she’rlari tilida qo‘llangan bir qism forscha o‘zlashmalar hozir iste’moldan chiqqan va ular izohtalabdir. Ikkinchi bir qism so‘zlar esa eronlashgan o‘zbek shevalarida u yoki bu darajada uchraydi”[3;32]. Kuzatganimizdek, dissertatsiyada Ishoqxon Ibrat she’riyatining lug‘aviy tarkibi yuzasidan bir muncha mukammal tahlillar olib borilgan va ishonchli xuloslar chiqarilgan. Biroq bu tahlillar adib she’riyati tilining leksik xususiyatlari haqida mukammal tasavvur bera olmaydi. Chunki, ishda she’riyat tilining leksik xususiyatlari nomi ostida lug‘aviy qatlam tushunchasiga ko‘proq urg‘u berilgan. Vaholanki, she’riyat tili leksikasi umumiy planda tekshirilar ekan, poetik nutq va uslubdagi leksikologiyaga aloqador bo‘lgan leksik-semantik munosabatlarning voqelanishi, uslubiy

chegaralangan yoki chegaralanmagan leksika, leksemalarning semantik tabiati uchun xos bo‘lgan boshqa lisoniy hodisalar ishda baravar tadqiqqa tortilishi lozim edi. Shunga qaramay, mazkur ish biz uchun Ibrat she’riy asarlari tili haqida dastlabki ilmiy ma’lumotlarni berishi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

XULOSA. Umuman olganda, Is’hoqxon to‘ra Ibratning lingvistik faoliyati, yaratgan asarlarining lisoniy xususiyatlari yuqoridagi ishlar istisno qilinganda, alohida tadqiqot obyekti sifatida monografik planda tekshirilmagan. Adib tomonidan yaratilgan badiiy, ilmiy, publitsistik asarlarning lisoniy tahlili XIX asrning oxiri XX asr boshlaridagi davr adabiy tilining shakllanish, rivojlanish va boyish tendensiyalari haqida muayyan ma’lumot bera oladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Нормаматов С. Ўзбек луғатчилигининг шаклланиши ва ривожланишида жадид маърифатпарварларининг ўрни: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2020. – Б. 174.
2. Исҳоқхон Ибрат. Жомеъ ул-хутут. – Наманган: Матбааи Исҳоқия, 1912. – Б.10.
3. Исҳоқхон Ибрат. Танланган асарлар (нашрга тайёрловчилар: У.Долимов, Н.Жабборов). – Тошкент: Маънавият, 2020; Мадвалиев А. Исҳоқхон Ибратнинг олти тилли луғати // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2017. – № 4. – Б. 53-56; Сайидов Ё. Жадид бадиий асарлари лексикаси: Филол. фан. докт. (DSc) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2018; Нормаматов С. Ўзбек луғатчилигининг шаклланиши ва ривожланишида жадид маърифатпарварларининг ўрни: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2020.
4. Исҳоқхон Ибрат. Ислоҳи миллат. – Тошкент: Маънавият, 2022. – Б. 26-34.
5. Исҳоқхон Ибрат. Луғоти ситта ал-сина. – Тошкент: Ильин типографияси, 1901. – Б. 2-3.
6. Мадвалиев А. Исҳоқхон Ибратнинг олти тилли луғати // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2017. – № 4. – Б. 53-56.
7. Сайидов Ё. Жадид бадиий асарлари лексикаси: Филол. фан. д-ри (DSc). ... дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 68б.

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 94 (575.1): 9 (58) XX.

ОРГАНИЗАЦИЯ ГОРОДСКОГО УПРАВЛЕНИЯ В ГОРОДЕ ТАШКЕНТЕ В НАЧАЛЕ XX В. (ПО МАТЕРИАЛАМ РЕВИЗИИ СЕНАТОРА К.К.ПАЛЕНА)

Махмудова Нигора Баротовна, профессор кафедры «Социально-политические науки» Бухарского государственного университета

XX ASR BOSHLARIDA TOSHKENTDA SHAHAR HOKIMIYATINING TASHKIL ETILISHI (SENATOR K.K.PALENNING TAFTISH MATERIALLARI ASOSIDA)

Mahmudova Nigora Barotovna, Buxoro davlat universitetining "Ijtimoiy-siyosiy fanlar" kafedrasi professori

ORGANIZATION OF CITY ADMINISTRATION IN TASHKENT AT THE BEGINNING OF THE TWENTIETH CENTURY (BASED ON THE MATERIALS OF THE AUDIT OF SENATOR K.K.PALEN)

Makhmudova Nigora Barotovna, Professor of the Department of Social and Political Sciences, Bukhara State University

https://orcid.org/0000-0002-6984-2308
e-mail: nigoratillojon2009@rambler.ru

Аннотация: В статье, рассматривается городское управление в Туркестанском генерал-губернаторстве, в частности в городе Ташкенте. Рассмотрено Городового положения введенное в г.Ташкенте. Проведен анализ выборов депутатов в Думу из русской и туземной частей города Ташкента.

Ключевые слова: город, ревизия, сенатор, городское управление, Городская Дума, городской голова, положение, генерал-губернатор, налоги, сбор.

Annotatsiya: Maqolada Turkiston general-gubernatorligi, xususan, Toshkent shahridagi shahar hokimiyati, Toshkent shahrida joriy etilgan Shahar qoidalari ko'rib chiqiladi. Dumaga Toshkent shahrining rus va mahalliy aholi vakillaridan saylangan deputatlar saylovi tahlili o'tkaziladi.

Kalit so'zlar: shahar, audit, senator, shahar hokimiyati, shahar dumasi, mer, lavozim, general-gubernator, soliqlar, yig'im.

Abstract: The article examines the city government in the Turkestan General Governorate, in particular in the city of Tashkent. The City Regulations introduced in Tashkent are considered. The analysis of the elections of deputies to the Duma from the Russian and native parts of Tashkent is conducted.

Key words: city, audit, senator, city government, City Duma, mayor, regulation, governor-general, taxes, fee.

ВВЕДЕНИЕ. На сегодняшний день в исторической литературе, непосредственно касающейся образования городов, городского благоустройства и городского управления в Туркестанском генерал-губернаторстве достаточно много, но в материалах ревизии сенатора К.К.Палена довольно подробно анализируется все вопросы о городах края[1], где

можно наблюдать, как происходила трансформация в городском управлении.

Прежде всего, следует отметить, что в крае до завоевания Российской Империей не существовало городов в том смысле, как они понимались в русском законодательстве по законам Российской Империи.

Всем административным изменениям в крае, в частности, и в отношении городского управления, начало положил – первый генерал-губернатор Туркестанского генерал-губернаторства К.П.Фон Кауфман, прибывшего в Ташкент 7 ноября 1867г. и избравшего его местом своего пребывания и резиденцией главных начальников края, здесь были сосредоточены все высшие военные, административные, судебные, учебные, финансовые и другие учреждения. Первое, что сделал Кауфман по приезду в Ташкент, он собрал самых уважаемых жителей города и выступил с речью, где представил свою программу обустройства политической и общественной жизни генерал-губернаторства. Обрисовав положение края до завоевания русскими, Кауфман заявил «Волею Государя Императора генерал-губернатором этих земель был назначен я. Чтобы охранять спокойствие вверенных мне стран, … Государю было угодно повелеть мне обсудить здесь на месте, как именно применить к делу законы, написанные в Петербурге для всех жителей Туркестанского генерал-губернаторства. Эти законы составлены так, что могут дать вам счастье, если только вы этого пожелаете…», далее излагались нововведения в отношении выборочной системы в правление, о налогах и податях. Однако, несмотря вроде бы на такой либеральный характер обращения к жителям края, прозвучала и угроза в случае не выполнения всех установок и требований, что подтверждало характер военного и тотального управления. Это было озвучено в самом начале управления краем: «…Передайте так же вашим согражданам, что если благие намерения правительства будут встречены со стороны жителей Ташкента равнодушием, вследствие которого оно не будет в состоянии исполнить всех своих намерений или если сарты вместо того, чтобы помогать станут мешать выполнению целей правительства или обманывать его, то это убедит меня, что нам слишком рано давать законы, подобные тем, которые вам хотят дать. Передайте, что тогда правительство будет принуждено вмешиваться во внутренние порядки вашей жизни. Тогда само правительство назначит вам аксакалов, казиев и чиновников. Тогда правительство будет поставлено в необходимость действовать так, чтобы приказания исполнялись ради страха, если вы не захотите их исполнять ради сознания собственной пользы…»[2]. В своей речи перед гражданами города Ташкента, Кауфман выразил слова заботы за будущее края, однако в своем «Всеподданнейшем отчете…» царю, он пишет в других тональностях – «какое число рабов внутри края и за его границами, возвратившись в отечество, благословляет священную память русского Царя-освободителя, как значительны благие последствия полного и завершившегося в эти годы умиротворения края…»[3] или такие записи, как : «В свою очередь и наша власть, увлекаемая с одной стороны победою, с другой не верившая в свою прочность не могла доверять ни врагам, ни даже новому подвластному ей населению»[4] и т.д.

Таким образом, принимая во внимание вышеуказанное, возникновение и рост городов, в понимании и соответствии с русским законодательством, тесно связано с историей завоевательного движения русских войск на обширные территории Средней Азии. Итак, основным, центральным городом Туркестанского генерал-губернаторства был избран Ташкент.

В работе А.И.Добросмыслова, дается обширная информация о городе Ташкенте, где указаны данные административно-территориального характера. Так как город является административно-территориальной единицей, он имеет и свою систему управления, однако городского управления изначально в крае не было. В Положении от 1867г., в отношении г.Ташкента были предложены следующие пункты: Управление г.Ташкента составляют: городской начальник, его помощник и канцелярия по штату; Ташкентский городской начальник, в отношении подведомственного ему городского населения, туземного и русского, имеет права и обязанности уездного начальника по военно-народному управлению; для усиленного полицейского надзора за жителями

Ташкента, городскому начальнику предоставляется право требовать, устанавливаемым порядком, от воинских команд необходимое число чиновников в свое распоряжение; и т.д.

А в 1868 г. 24 января, под руководством А.К.Гейнса начала свою деятельность Ташкентская организационная комиссия для организации городского управления. В состав комиссии вошли: 10 членов разных чинов прибывших на службу в край, чиновника, приглашены 40 туземцев. И вроде был «охват народного мнения», но на самом деле никакого народного мнения не учитывалось, так как были поставлены задачи выполнения четко поставленных задач Туркестанским генерал-губернатором! Современник исторических событий А.И.Добросмыслов, пишет так в своей работе: «На этих заседаниях «туземцы пробовали заявить, что многое из проектируемого комиссией, не соответствует их укладу жизни и Шариату, но каждый раз получали один ответ, что они сами слышали от главного начальника края, в какие рамки должны быть вложены народный суд и туземное административное управление и что никаких отступлений не будет сделано»[5].

В январе 1881г. Военный Министр, «испросил Высочайшее повеление о непременном предоставлении в том же году окончательных предположений об устройстве Туркестанского края и особая комиссия под председательством временно исполнявшего должность Туркестанского генерал-губернатора генерал-лейтенанта Колпаковского, обсуждавшая новый проект устройства края», между прочим и пришла к заключению о необходимости оставить заведование хозяйством городов края за уездной администрацией, до того времени, «когда городские общества будут подготовлены для самоуправления». С этим мнением согласился и тайный советник Гирс, ревизировавший на тот момент Туркестанский край, он полагал что: «1) заведывание делами по хозяйству и благоустройству городов, кроме г.Ташкента, следует возложить на уездных начальников, под общим наблюдением областных правлений и военных губернаторов; 2) военным губернаторам, с разрешения Главного Начальника края, надо предоставить право вводить прощенное управление в тех городах, где это будет признано полезным; 3) по мере развития городов, ходатайства о введении в них действий Городового Положения 1870г. должны восходить через генерал-губернатора к Министру Внутренних дел, в установленном законом порядке»[6].

Указанные предложения, были учтены при выработке Положения от 1886г. «ст.13 в тех городах, в которых не введено Городовое Положение 1870г., высшее заведывание делами городского хозяйства, впредь до особых распоряжений, предоставляется Генерал-губернатору, в тех же основах, на которых оно принадлежит в других местностях Министерству внутренних дел, с тем однако, что о сложении недоимок в размере от одной до десяти тысяч рублей. Генерал-губернатор входит в соглашение с упомянутым Министром, а утвержденные городские сметы сообщают ему, для сведения»[7].

5 декабря 1888г. было «Высочайше утверждено» Городовое Положение от 1870г. и то, лишь, только для города Ташкента! Необходимо остановиться на некоторых положениях данного документа:

-для рассмотрения дел указных в статье 11 Городового Положения учреждается в городе Ташкенте, под председательством военного губернатора Сырдарьинской области, областное по городским делам присутствие из помощника губернатора, управляющего казенною палатою, прокурора областного суда, управляющего канцеляриею Туркестанского генерал-губернатора и Ташкентского городского головы; одна треть гласных городской Думы избирается отдельно азиатской частью города Ташкента из среды населения, а остальные две трети гласных избирается русская часть города исключительно из состава своих обывателей; все представления Ташкентского городского общественного управления высшему правительству восходят к нему через Туркестанского генерал-губернатора; Городской голова г.Ташкента назначается от правительства и определяется в должность Военным Министром, по предоставлению Туркестанского генерал-губернатора; одна треть общего числа членов городской управы избирается из туземцев, причем преимущество отдается знающим русский язык и т.д [8].

В отношении деятельности Городской Думы и выборных из местного населения, Туркестанский генерал-губернатор генерал-лейтенант, барон А.Б.Вревский (четвертый Туркестанский генерал-губернатор), был против того, чтобы в Думе были представители местного населения, ссылаясь на то, что «мусульманскому населению г.Ташкента чужды те потребности, которые свойственны жителям европейских городов, вследствие чего туземные гласные, не будучи в состоянии уяснить себе своих обязанностей, как представителей интересов выбравшего их городского общества, совершенно не заботятся о делах общественного благоустройства и всегда противодействуют полезным и необходимы, если последние связаны с увеличением городских налогов», кроме того, он считал, что «предоставление туземного городскому обществу, недавно вышедшему из-под гнета деспотичной власти, широкого самоуправления не могло не оказать самого вредного влияния на интересы русского дела в Ташкенте, так как туземцы, по причине своей незрелости для общественного самоуправления, выносят из практики городского хозяйства убеждение, что исполнение распоряжений русской власти зависит от их согласия или одобрения»[9]. Таким образом, можно наблюдать дискриминационное отношение к местному населению, несмотря на то, что эта их земля. Как и в городскую Думу, так и для членов исполнительного органа Думы – Городской управы было такое же неравное количество выборных.

Кроме Думы, в Ташкенте был ещё городской голова, который одновременно являлся и начальником города, назначаемый краевой администрацией. На таком совмещении этих обязанностей настоял в своё время первый Туркестанский генерал-губернатор К.П.фон Кауфман во избежание случайного избрания на эту должность лица, не отвечающего своему назначению. На самом же деле, это означало полное подчинение городского самоуправления колониальной администрации.

В материалах ревизии сенатора К.К.Палена приводятся сведения подтверждающие факты халатного отношения выборных Ташкентского городского управления. В результате обращений жители Ташкента обратились к сенатору с прошением увеличить количество своих гласных в Городской Думе, чтобы повлиять на её отношение к благоустройству их территории. В результате проведённого расследования, К.К.Пален выяснил, что практически одну треть, избранных в городскую Думу гласных от европейской части, составляли представители различных торговых фирм, интересы которых они ставили выше общегородских нужд. Поэтому их поведение было пассивным, а посещение заседаний нерегулярным. В результате, из протоколов заседаний Ташкентской Городской Думы, было видно, что некоторые вопросы переназначались к слушанию по 17 раз, а к декабрю месяцу 1908г. рассмотрению Думы подлежало 111 нерешённых дел[10]. К.К.Пален критически оценил такую ситуацию, но в своём заключении о состоянии управления г.Ташкента не нашёл нужным изменить порядок избрания гласных, а так же норму представительства в Думе от местного населения. Несмотря на то, что «туземные гласные более сплочённые, чем гласные о русского населения, могут оказать нежелательное влияние на решение вопросов в думе», принимая во внимание, что Городовое Положение 1892г. даёт возможность администрации принимать меры против постановлений не соответствующих общим государственным пользам и нуждам или «явно нарушающим интересы местного населения»[11].

ВЫВОДЫ. Таким образом, К.К.Пален, считал, что необходимо как можно быстрее ввести в Ташкент «Городовое положение 1892 г.», действующее по всей Российской империи и дающее краевой администрации большие, по сравнению с «Городовым положением» 1870 г. права по контролю за деятельностью органов городского самоуправления, а на генерал-губернатора, учитывая окраинное положение края, перенести права и обязанности Министра внутренних дел, осуществляемых в отношении городов центральной России. Отмечая значение материалов ревизии сенатора К.К.Палена для изучения городской системы управления в Ташкенте в начале XX в., надо также подчеркнуть следующее: они дают богатый материал ярко иллюстрирующий постулат, что колониальная администрация, созданная в крае

TAMADDUN NURI

после его завоевания, представляла собой единую систему органов власти, связанных между собой одной общей задачей – защищать интересы метрополии. Однако, в силу, особого окраинного и колониального положения края, она имела здесь целый ряд специфических особенностей.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Пален К.К.Городское управление. – 483 с.
2. Добросмыслов,А.И. Ташкент в прошлом и настоящем. – С.62-67.
3. Кауфман,К.П. Проект всеподданнейшего отчёта. – С.2.
4. Кауфман,К.П. Проект всеподданнейшего отчёта. – С.5.
5. Добросмыслов,А.И. Ташкент в прошлом и настоящем. – С.97.
6. Пален К.К. Городское управление. – С.7-8.
7. Пален К.К. Городское управление. – С.8-9.
8. Пален К.К. Городское управление. – С.10-12.
9. Пален К.К. Городское управление. – С.12-13.
10. Пален К.К. Городское управление. – С.57.
11. Пален К.К. Городское управление. – С.388.

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UO'K:930.2:94(575.171)(043.3)

XIVA XONLIGI HUDUDIGA BUXORO YAHUDIYLARINING VA RUS MILLATI VAKILLARINING KO'CHIB KELISH JARAYONI

Tadjiyeva Feruza Jumabayevna, Ma'mun universiteti NTM "Tarix" kafedrasi dotsenti, (PhD)

THE MIGRATION PROCESS OF BUKHARA JEWS AND REPRESENTATIVES OF RUSSIAN NATIONALITY TO THE TERRITORY OF KHIVA KHANATE

Tadjiyeva Feruza Jumabayevna, associate professor of the Department of History, Ma'mun University, (PhD)

МИГРАЦИОННЫЙ ПРОЦЕСС БУХАРСКИХ ЕВРЕЕВ И ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ РУССКОЙ НАЦИОНАЛЬНОСТИ НА ТЕРРИТОРИЮ ХИВИНСКОГО ХАНСТВА

Таджиева Феруза Джумабаевна, доцент кафедры истории университета Маъмуна, (PhD)

https://orcid.org/0000-0002-9320-471X
e-mail: ftj85@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xiva xonligi hududiga Buxoro yahudiylarining va rus millati vakillarining ko'chib kelish jarayoni haqidagi ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Xiva xonligi hududiga kirib kelgan rus va yahudiy xalqlarining tub aholi bilan tinch-totuv yashaganliklari, shu bilan birga o'zlarining tibbiyot, hunarmandchilik va boshqa sohalardagi bilim va tajribalari bilan o'rtoqlashib, xonlik iqtisodiy va ma'naviy hayotiga o'zlarining hissalarini qo'shganliklari haqida yakuniy xulosa qiingan.

Kalit so'zlar: amaldorlar, dindorlar, savdogarlar, arablar, tatarlar, forslar, ruslar, yahudiylar, turkman, qullar.

Abstract: In this article, information about the process of immigration of Bukhara Jews and representatives of the Russian nationality to the territory of the Khiva Khanate is presented. In this article, the Russian and Jewish peoples who entered the territory of the Khiva Khanate lived peacefully with the native population, and at the same time shared their knowledge and experience in medicine, crafts and other fields, and made their contribution to the economic and spiritual life of the Khanate. it is difficult to make a final conclusion about their contributions.

Key words: officials, religious, merchants, Arabs, Tatars, Persians, Russians, Jews, Turkmen, slaves.

Аннотация: В данной статье представлены сведения о процессе иммиграции бухарских евреев и представителей русской национальности на территорию Хивинского ханства. Русский и еврейский народы, вошедшие на территорию Хивинского ханства, мирно жили с коренным населением и в то же время делились своими знаниями и опытом в медицине, ремеслах и других областях, вносили свой вклад в экономическое и духовной жизни ханства.

Ключевые слова: чиновники, религиозные, купцы, арабы, татары, персы, русские, евреи, туркмены, рабы.

KIRISH. Xiva xonligi hududiga Buxoro yahudiylarining va rus millati vakillarining ko‘chib kelishi tarixiy jarayon bo‘lib, bir necha omillar bilan bog‘liq. Buxoro yahudiylarining ko‘chib kelishi XIX asrning oxirlarida va XX asrning boshlarida boshlandi. Buxoro yahudiylari savdo va hunarmandchilik bilan shug‘ullangan. Ular Xiva xonligiga yangi iqtisodiy imkoniyatlar izlab ko‘chib kelishdi. Buxoro amirligi davrida yahudiylarga nisbatan siyosiy bosimlar kuchaygan. Bu holat ko‘plab yahudiylarni boshqa hududlarga, jumladan Xiva xonligiga ko‘chishga majbur qildi. Yahudiylar o‘z madaniyatlarini saqlab qolish maqsadida yangi joylarga ko‘chib o‘tishga harakat qilishdi.

Qo‘ng‘irotlar sulolasi davrida xonlikda islom dini asosiy din hisoblangan. Ayrim tadqiqotlarda musulmon mamlakatlarining deyarli barchasida aholi faqat islom dinini tan olib, boshqa dinga e’tiqod qiluvchilarni mensimay, oyoq osti qilib kelishgan, degan fikrni bildirishgan edi. Bu maqolada shu fikrlarni rad etib beruvchi dalillar keltirilgan. A.Vamberi, V.A.Girshfeld va M.N.Galkinlar, Charls Mervin va Djeyms Abbotlar, M.Xoldsvort, Eron elchisi Rizoquli, G.I.Danilevskiy, Abrosimovlarning yozib qoldirilgan ma’lumotlari keltirilgan. Rus millati vakillarining Xiva xonligiga ko‘chib kelishi asosan XIX asrning o‘rtalarida boshlangan. Bu jarayonning asosiy sabablaridan biri Rossiya imperiyasi o‘z hududlarini kengaytirish maqsadida Markaziy Osiyoga ko‘chib kelishni rag‘batlantirdi. Xiva xonligi ham bu jarayonga kiritildi. Asosan ruslar Xiva xonligida yangi iqtisodiy imkoniyatlarni ko‘zlab, jumladan qishloq xo‘jaligi va sanoat sohalarida ishlash maqsadida ko‘chib kelgan. Ular o‘z madaniyatlarini tarqatish va yangi joylarda o‘z jamoalarini yaratishga harakat qildilar. Xiva xonligiga Buxoro yahudiylari va rus millati vakillarining ko‘chib kelishi, iqtisodiy, siyosiy va madaniy omillar bilan bog‘liq bo‘lib, bu jarayon hududning ijtimoiy va madaniy hayotiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Bu ko‘chishlar natijasida Xiva xonligi ko‘p millatli va madaniyatli hududga aylandi.

O‘rta Osiyoning jug‘rofiy-siyosiy joylashish o‘rnini, aholisini, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini o‘rgangan tadqiqotchilardan G.I.Danilevskiy o‘z asarida Xiva shahri aholisi haqida: “Xivadagi erkag-u ayollar soni 4000dan ortiq emas. Ular asosan amaldorlar, dindorlar va savdogarlardan iborat. Shaharliklar orasida forslar va o‘zbeklar ko‘pchilikni tashkil qiladi”[1], – deb qayd etgan. V.A.Girshfeld va M.N.Galkinlar: “Xiva xonligida XIX asr oxiri va XX asr boshida 519439 kishi yashagan, uning 488922 kishisi, ya’ni 94,1 % o‘troq, 30515 kishisi, ya’ni 5,9% ko‘chmanchi holda yashagan”[2], – deb ma’lumot bersalar, V.Lobachevskiy asarida 1910-yilda Xiva xonligida 646044 kishi (107600 xo‘jalik) yashagan. Uning 397000 nafari (61,4 %) o‘zbeklar va sartlar, 184200 nafari (24,4%) turkmanlar, 34200 nafari (5,3%) qoraqalpoqlar, 23000 nafari (3,5%) qozoqlardan iborat. Shuningdek arablar, tatarlar, forslar, ruslar va boshqa millat vakillari istiqomat qilishi qayd qilingan[3]. Bu ma’lumotlardan rus mualliflarining xonlik aholisi sonini statistik jihatdan o‘rganganligini bilish bilan birga, xonlikda o‘zbeklardan tashqari boshqa millat vakillari ham ko‘pchilikni tashkil qilgani ma’lum bo‘ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Xiva xonligi tarixini yorituvchi manbalardan biri Bayoniyning “Shajarayi Xorazmshohiy” nomli asari hisoblanib eng avvalo Bayoniy Munis va Ogahiyning tarixiy asarlaridagi voqealarni qaytadan yozib to‘ldirdi. Jumladan, “Shajarayi Xorazmshohiy” nomli asarida Munis va Ogahiylar tomonidan tavsiflangan qadimgi davrdan to 1873-yilgacha bo‘lgan tarixiy voqeyliklarning bayoni bilan birga, 1873-yildan 1914-yillargacha bo‘lgan voqealar ham tasvirlanadi. Yana bir Xiva xonligida saroy tarixnavisligi an’anasini davom qildirgan tarixchilardan biri Komyobdir. Sayid Homid to‘ra ibn Sayid Muhammadxon to‘ra Komyobdan bizga Xorazm tarixiga oid “Tavorix al-xavonin”, “Muntaxab al-voqeot” kabi tarixiy asarlar yetib kelgan. Xiva xonligi tarixi haqidagi ma’lumotlarni xonlikka turli sabablarga ko‘ra kelgan, istiqomat qilgan harbiylar, sayyohlar, elchilar hamda xonlikda yashagan rus millati vakillarining esdaliklari va xotiralari asosiy manba vazifasini bajaradi. 1819-1820-yillarda Xiva xonligida bo‘lgan rus elchisi N.N.Muravyev esdaliklarida ham xonlikdagi qulchilik munosabatlari haqida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan[4].

Ushbu maqolani yozishda tarixiy manbalarni o‘rganish va tahlil qilish orqali migratsiya jarayonining tarixiy kontekstini aniqlash va

O‘zbekiston tarixini o‘rganish va bu jarayonlarning yahudiylar va ruslar migratsiyasiga ta’sirini tahlil qilish hisoblanadi. Ushbu tahlil va metodlar maqolani yanada chuqurroq va kengroq yoritishga yordam beradi.

XIX asrning ikkinchi yarmida xorijliklar Xiva xonligidagi qulchilik munosabati, qul savdosi ishini ham ko‘p o‘rganganlar. Jumladan, A.Vamberi xonlikda 80000dan ortiqroq qul bo‘lganligi haqida ma’lumot bersa, ingliz tadqiqotchilari Charls Mervin va Djeyms Abbotlar qullar soni 42000 kishi ekanligini, Shundan 30000 nafari eroniylar, 12000 nafari hirotliklar va qolganlari ruslar ekanligini qayd qilganlar[5].

Bu masala yuzasidan XX asrda M.Xoldsvort ham ma’lumot bergan. Muallif 1851-yilda Xivaga sayohat qilgan Eron elchisi Rizoqulining qullar bayrami haqidagi xotirasini keltiradi: “Ro‘za hayiti ayyomida Xorazmning yon-atrofi va uzoq-yaqin qishloqlarida qullikda yashab, navkarlik, aravakashlik va dehqonchilik qilayotgan eronliklar va boshqa o‘lkalik asirlar uch kun davomida bandilik ishlaridan qutulib, mamlakatning har burchagidan Xivaga keladilar va shaharni tomosha qilib, hordiq chiqaradilar...”[6].

Haqiqatan ham, bu davrda Xiva xonligida qulchilik saqlangan bo‘lib, har bir xivalikning kamida bitta quli bo‘lgan. Biroq, bu qulchilikni klassik formada edi deb bo‘lmaydi, balki ular uy xizmatkorlari hisoblanganlar. Yuqorida keltirilgan misol esa fikrimizga dalil bo‘la oladi. Xiva xonligida qulchilikning mavjudligi va uning klassik shaklda emas, balki uy xizmatkorlari sifatida namoyon bo‘lishi haqidagi fikrlar tarixiy kontekstda muhim ahamiyatga ega. Ushbu davrda qulchilik tizimi ko‘plab ijtimoiy va iqtisodiy omillar bilan bog‘liq bo‘lib Xiva xonligida qulchilik ko‘proq uy xizmatkorlari sifatida namoyon bo‘lgan. Bu xizmatkorlar ko‘pincha o‘z oilalaridan yoki boshqa joylardan olib kelinardi va ularning vazifalari uy ishlarini bajarish, xizmat ko‘rsatish va boshqa kundalik ishlarni amalga oshirishdan iborat edi. Qulchilik tizimi ijtimoiy tuzilmaning bir qismi sifatida qaralgan. Har bir xivalikning kamida bitta quli bo‘lishi, ijtimoiy qatlamlar o‘rtasidagi farqni ko‘rsatadi. Bu holat, shuningdek, iqtisodiy resurslarni taqsimlashda ham o‘z aksini topgan. Xiva xonligida qul sifatida ishlovchi shaxslar ba’zi huquqlarga ega bo‘lishi mumkin edi. Ular ko‘pincha o‘z ustidan nazoratni saqlovchi shaxslar bilan munosabatda bo‘lishgan va ba’zi hollarda o‘z erkinliklarini qaytarish imkoniyatiga ega bo‘lganlar.

Qo‘ng‘irotlar sulolasi davrida xonlikda islom dini asosiy din hisoblangan. Ayrim tadqiqotlarda musulmon mamlakatlarining deyarli barchasida aholi faqat islom dinini tan olib, boshqa dinga e’tiqod qiluvchilarni mensimay, oyoq osti qilib kelishgan, degan fikrni bildirishgan. G.I. Danilevskiy esa, ushbu masalaga oydinlik kiritib, Yahudiylar 8 ta oiladan ko‘p bo‘lmay, bundan 16 yil muqaddam Buxorodan kelib qolishganini, shu bilan birga ularning asosiy kasbi bo‘yoq ishlab chiqarish bo‘lganligini ta’kidlaydi. Tadqiqotchi o‘z fikrida davom etib, Xiva hukumati ularni kamsitmaganligini, hattoki ularning o‘z diniy marosimlarini bajarishlariga hech qanday qarshilik ko‘rsatmaganliklarini yozadi. Shu bilan birga, muallif Xiva xonligiga kelib qolgan bu xalqlar haqida “...yahudiylar yillar o‘tishi davomida o‘zlarining dinlariga nisbatan ko‘ngli soviganligi seziladi, kamdan-kam ibodat qiladilar, xonlikda boshqa dinlarga e’tiqod qiluvchilarga nisbatan hech qanday e’tiroz va to‘siqliklar bo‘lmagan”[7], – deb o‘zining xolis fikrlarini bayon etgan.

Tadqiqotchilar fikrlari, Xiva hukumati yahudiylarni kamsitmaganligini va ularning diniy marosimlarini bajarishlariga hech qanday to‘siq qo‘ymaganligini ta’kidlaydi. Bu, Xiva xonligida diniy erkinlikning mavjudligini ko‘rsatadi. Danilevskiy, yahudiylar orasida yillar o‘tishi bilan o‘z diniy e’tiqodlariga nisbatan qiziqishning kamayganligini va kamdan-kam ibodat qilinishini qayd etadi. Bu, ularning ijtimoiy va madaniy integratsiyasini ko‘rsatadi.

MUHOKAMA. Qo‘ng‘irotlar sulolasi davrida Xiva xonligida islom dini asosan hukmron bo‘lsa-da, boshqa diniy e’tiqodlarga ega bo‘lgan jamoalar, jumladan yahudiylar, o‘z diniy marosimlarini bajarish imkoniyatiga ega bo‘lgan. G.I.Danilevskiy tomonidan keltirilgan ma’lumotlar, bu jarayonni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi va Xiva xonligidagi diniy erkinlik va ijtimoiy integratsiya haqida muhim fikrlarni taqdim etadi.

Xiva xonligidagi diniy ahvol xususida Abrosimov hikoyasida ham ma’lumot mavjud. Jumladan, muallif Xiva markazidagi Sergey Ivanov uyida bo‘lgan vaqtida ko‘plab sanam (ikona) va diniy kitoblarni ko‘rib, nihoyatda ajablangan va: “Xon bu yerda xristian diniga e’tiqod qilishga ruxsat beradimi?”, – deb savol berganida Sergey unga:

“Ilgari bu yerlarda rus asirlari ko‘p bo‘lib, shaxsan xonning ruxsati bilan ular shu xonadonga yig‘ilib ibodat qilishardi”[8], – deb javob bergan.

Demak, Danilevskiy va Abrosimovlarning ma’lumotlaridan ma’lum bo‘ldiki, Xiva xonligida diniy bag‘rikenglik mavjud bo‘lib, fuqarolarning vijdon erkinligi huquqi to‘la ta’minlangan hamda Xiva xonlari madaniyatga va ma’rifatga, ilm-u fanga ko‘p e’tibor berib, olimlarga keng sharoitlar yaratib, Ollohni ilm bilan tanishning teranligiga urg‘u berganlar.

NATIJALAR. Ma’lumki, 1912-yilda Asfandiyorxon topshirig‘iga binoan Xiva shahrida kasalxona qurilgan bo‘lib, u 50 o‘ringa mo‘ljallanib, avom xalqning davolanishi uchun maxsus qurilgan[9]. Shifoxona qurilishiga 100 ming so‘m sarflangan. Bu kasalxonada asosan rus shifokorlari faoliyat yuritib aholiga tez tibbiy yordam ko‘rsatganlar. Rus shifokorlarning 3,5 yil davomidagi faoliyati natijasida bir necha ming xorazmliklarga malakali tibbiy yordam ko‘rsatilgan. Arxiv hujjatlarida Amudaryo bo‘limi boshlig‘i N.Likoshinning Xiva xoni bilan yozishmalari berilib, unga ko‘ra: “Shifokor Anisimov bemorlarni a’lo darajada davolay oladi. Jarrohlik ishlariga ham g‘oyatda mohir. Shu boisdan u tez orada xalq orasida katta ishonchga sazovor bo‘ldi”, – deb xabar bergan[10].

1916–1917-yillardagi siyosiy notinchlik tufayli rus shifokorlari Xivadan ketib qolganlar. Natijada kasalxona faoliyati tugatilgan, 1920-yil iyulidan boshlab yana ishlay boshlagan[11]. Hozirda ham bu bino shifoxona sifatida xizmat qilmoqda.

XULOSA. Xulosa sifatida aytish mumkinki, Xiva xonligi hududiga kirib kelgan rus va yahudiy xalqlar tub aholi bilan tinch-totuv yashaganlar. Ular o‘zlarining tibbiyot, hunarmandchilik va boshqa sohalardagi bilim va tajribalari bilan Xiva xonligining iqtisodiy va ma’naviy hayotiga muhim hissalar qo‘shganlar. Rus va yahudiy xalqlar Xiva xonligida tub aholi bilan tinch-totuv munosabatlar o‘rnatgan. Bu, ijtimoiy barqarorlik va madaniy almashuvni ta’minlagan. Ular o‘z bilim va tajribalarini, jumladan tibbiyot va hunarmandchilik sohalarida, mahalliy aholi bilan o‘rtoqlashgan. Bu Xiva xonligining iqtisodiy rivojlanishiga yordam bergan. Xiva xonlarining rus va yahudiy xalqlariga yaratgan shart-sharoitlari va g‘amxo‘rliklari, ularning hududda yashashini va faoliyat yuritishini osonlashtirgan. Bu o‘z navbatida, ijtimoiy va iqtisodiy integratsiyani kuchaytirgan. Xiva xonligi hududida rus va yahudiy xalqlarining mavjudligi, ularning tub aholi bilan tinch-totuv yashashi va o‘z bilimlarini ulashishi, hududning iqtisodiy va ma’naviy hayotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Bu jarayonlar, Xiva xonlarining g‘amxo‘rligi va yaratgan shart-sharoitlari bilan bog‘liq bo‘lib, tarixiy ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Данилевский Г.И. Описание Хивинского ханства // Записки русского географического общества. – М., 1851. Кн. В. – С. 114.
2. Гиршфелд В., Галкин М.Н. Военно-статистическое описание Хивинского оазиса….., – С. 1, 27, 111, 114.
3. Лобачевский В. Военно-статистическое описание Туркестанского военного округа. Хивинский район….., – С. 66.
4. Tajieva, F. (2022). Slavery relationship information in archive documents of the Xiva khanate. Sharq mash’ali, (02), 102-114.
5. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии… – С. 200-201.
6. Holdeworth M. Turkestan in the hinteenth century: A brief history of the khanates of Bukhara, Kokand and Khiva. – London: Oxford, 1959. – P. 21.
7. Данилевский Г.И. Описание Хивинского ханства… – С. 97.
8. Абросимов. Рассказъ торговца Абросимова о поездке его въ Хиву… – С. 212.
9. Баёний Муҳаммад Юсуф. Шажарайи Хоразмшоҳий // Мерос туркуми. – Тошкент: Камалак, 1991. – Б. 261.
10. ЎзР МДА, 125-жамғарма, 1-рўйхат, 333-иш, 65-варақ.

Махмудов М. Хоразм тарихидан лавҳалар. – Урганч, 1998. –26.

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 6789.0090.008

ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ КУЛЬТУР В ЭПОХУ СОВРЕМЕННОЙ ГЛОБАЛИЗАЦИИ (НА МАТЕРИАЛЕ ПОЭТИЧЕСКОГО ТЕКСТА О.О.СУЛЕЙМЕНОВА)

Умбетова Надежда Жамельевна, преподаватель Термезского государственного университета

INTERACTION OF CULTURES IN THE ERA OF MODERN GLOBALIZATION (BASED ON THE POETIC TEXT OF O.O.SULEIMENOV)

Umbetova Nadezhda Zhamelyevna, Lecturer, Termez State University

ZAMONAVIY GLOBALLASHUV DAVRIDAGI MADANIYATLARNING O‘ZARO TA’SIRI (O.O.SULAYMENOVNING SHE’RIY MATNI ASOSIDA)

Umbetova Nadejda Jamelevna, Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi

https://orcid.org/0000-0006-0114-1503
e-mail: nadejda.umbetova@gmail.com

Аннотация: В статье исследуются вопросы межкультурной коммуникации в поэтическом тексте О.О.Сулейменова. Автор приводит примеры с особенностями тюркской культуры. В работе отмечается, что О.О.Сулейменов, через свои произведения, устанавливает межкультурный контакт, в котором призывает народы к гармонии и объединению.

Ключевые слова: межкультурная коммуникация, лексика, процесс, тюркизмы, культура, этническая принадлежность, контакт, диалог.

Abstract: The article examines the issues of intercultural communication in the poetic text of O.O.Suleimenov. The author gives examples with the peculiarities of Turkic culture. The work notes that O.O.Suleimenov, through his works, establishes intercultural contact, in which he calls on peoples to harmony and unification.

Key words: intercultural communication, vocabulary, process of Turkisms, culture, ethnicity, contact, dialogue.

Annotatsiya: Maqolada O.O.Sulaymenovning she’riy matnidagi madaniyatlararo muloqot masalalari ko‘rib chiqiladi. Muallif turkiy madaniyatning o‘ziga xos xususiyatlaridan misollar keltiradi. Maqolada O.O.Sulaymenov o‘z asarlari orqali madaniyatlararo aloqalarni yo‘lga qo‘yishi, unda xalqlarni totuvlikka, birlashishga chaqirishi qayd etilgan.

Kalit so‘zlar: madaniyatlararo muloqot, lug‘at, turkiylik jarayoni, madaniyat, etnik, kontakt, dialog.

ВВЕДЕНИЕ. В эпоху современной глобализации, стремительного развития технологий межкультурная, межличностная коммуникация становится необходимой жизненно важной частью общества, так как без языкового контакта в глобальном масштабе не возможен процесс развития. Языковые контакты необходимы современному обществу, так как при помощи них, индивид сможет проявить себя в обществе, работать и развиваться. С этой целью он изучает несколько языков, которые предоставят ему способность расширить

диапазон своих возможностей и быть услышанным не только у себя на Родине, в связи с этим появились транслингвы, полилингвы и билингвы. Понятия «транслингвизм», «полилингвизм», «билингвизм» в области лингвистики является новым, которое обрело популярность в мире в связи с ростом потребности людей в изучении иностранных языков. Исследованиями в области транслингвизма занимались такие лингвисты как: Джусупов М., Джусупов Н.М., Бахтикиреева У.М., Валикова О.А., Прошина З.Г. и многие другие.

МЕТОДЫ И РЕЗУЛЬТАТЫ. Традиции и обычаи одной культуры посредством терминов и атрибутов другой, проникают в языки народов, которые, одновременно, обогащают и знакомят их другой этнокультурой:

Хрипло поёт о любви старик,
Почёсывая домбру,
К юрте прислонена
Чаща пик,
Усатый скуластый круг.
Трётся об юрту пыльный ишак,
Кони лягают псов,
Люди покрикивают в такт
Грустных кипчакских слов.
Мясо остыло,
Серый айран
В чашах цветных уснул…
Блеет в предчувствии пира баран…
Завтра проспит аул [8, с.102].

В стихотворении присутствуют слова тюркского происхождения: домбра, юрта, ишак, кипчак, айран, аул. Обилие тюркских слов, объясняется билингвальностью самого автора, который отразил свою культуру в русском тексте, оставив, тюркские слова в своём первоначальном варианте, так как, изменив, читатели не смогли бы прочувствовать культуру его народа.

В настоящее время термины билингвизм, полилингвизм и транслингвизм в лингвистике функционируют как синонимичные явления.

Потребность в изучении вызвано требованием времени, так как в условиях необходимой межличностной коммуникации и профессиональной компетентности транслингвизм, полилингвизм становится самым актуальным решением многих жизненно важных задач: «Всё это в целом вызывает потребность в большом количестве граждан, практически и профессионально владеющих несколькими языками и получающих в связи с этим реальные шансы занять в обществе более престижное как в социальном, так и в профессиональном отношении положение…» [4, с. 332].

ОБСУЖДЕНИЕ. Человеческое общение – это контакт двух и более индивидов, в котором проявляется их взаимоотношение, взаимопонимание и общие взгляды. «…Межкультурная коммуникация — это обмен информацией, осуществляемый носителями разных культур, причем то, что коммуниканты являются носителями разных культур, значительнейшим образом влияет на их коммуникацию и в некоторой степени определяет ее ход» [1, с. 8].

Исследованиями в области межкультурной коммуникации занимаются философы, этнологи, культурологи, психологи, социологи, лингвисты и многие другие. Это объясняется тем, что взаимодействие народов, относящихся к разной этнической принадлежности, представляет собой интерес не только для филологов, но и для учёных из разных областей науки, так как напрямую касаются их предмета изучения.

Ammo qonunning 26-moddasida tura gent va turoperator o‘rtasidagi shartnomada nimalar ko‘rsatilishi kerakligi aniq qilib bel gilab qo‘yilgan. Ular quyidagilardan iborat: turistik mahsulotni turagent tomonidan reali zatsiya qilish shartlari; turagentning turistik mahsulotni turoperator yoxud o‘z nomidan realizatsiya qilishga doir huquq va majburi yatlari; turagent tomonidan ikkilamchi agent shartnomalarini tuzish mumkinligi (mumkin emasligi)ni nazarda tutuvchi shartlar; ularga turistik mahsulotning buyurtmachisi tomoni dan turistik xizmatlar ko‘rsatish shartnoma sini ijro etish borasida e’tirozlar bildirilgan taqdirda turoperator va turagentning ham korligi tartibi; turistik mahsulot to‘g‘risida axborot taqdim etmaganlik yoki noto‘g‘ri axborot taqdim etganlik, turistik xizmatlar ko‘r satishga doir shartnoma bo‘yicha majburi yatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun turistik mahsulotning buyurtmachisi oldida turoperator va tura gentning javobgarligi, shuningdek, taraflar dan har birining javobgarligi. Sayyohlik xizmati ko‘rsatuvchi tashkilotning shartnomada ko‘r satilganidan boshqa majburiyatlari [13].

Xorij amaliyotida esa bu kabi misollarni ko‘plab uchratish mumkin. Qonunchilikka ko‘ra, turistik mahsulot ga kiritilgan xizmatlarning ajralmas qismi bo‘lgan turistlarni dam olish joyi va

TAMADDUN NURI

orqa ga havo orqali tashish shartlari va muddat lariga rioya qilmaslik, shuningdek, turistik xizmatlar sifatining buzilishi va sayyohlar foydasiga ma'naviy zarar [16], shuning dek, ular tomonidan qilingan qo'shimcha xarajatlar kompensatsiya undirish uchun asosdir. Misol uchun, 2014-yilda fuqaro lar F.I., F.V. har birining foydasiga ma'naviy zararni qoplashni undirish uchun "SANMAR TUR" MCHJ (turoperator), "Leon" MCHJ (turagent)ga nisbatan da'volar bilan sud ga murojaat qilgan. O'z talablarini asoslash davomida ular "SANMAR TUR" MCHJ F.I. va F.V. uchun Moskva–Barselona yo'nalishi bo'yicha "Ural aviayo'llari aviakompani yasi" OAJdan 2014-yil 2-iyuldagi U6-3501 reys uchun bilet sotib olganligi, aviabilet da uchish davomiyligi muddati 04:05 soat deb ko'rsatib o'tilganligi, ammo samo lyot uchishi kechiktirilganligi va sayyohlar Barselonaga 13 soat 10 daqiqada yetib bor ganlarini keltirib o'tgan [15]. Sudning qarori bi lan da'volar qisman qondirilgan. "Sanmar TUR" MCHJdan ma'naviy zararni qoplash, da'vogarlar foydasiga jarima va byudjet daromadiga davlat boji undirilishi belgi langan. "Leon" MCHJga nisbatan da'volar ni qondirish rad etilgan. Sud mazkur holat bo'yicha turagent emas, balki turoperator turistik mahsulotni o'z ichiga olgan barcha uchinchi shaxslarning harakatlari (harakat sizligi) uchun turist oldida javob beradi, de gan xulosaga kelgan [17].

Xulosalar

Haq evaziga turistik xizmatlar ko'rsatish bo'yicha majburiyatlarda turistik kompani yalarning huquqiy maqomi mavzu doirasi da o'rganilgan masalalarni tizimli tahlil etish natijasida bir qator asoslantirilgan xulosa va takliflar ishlab chiqishga muvaffaq bo'lin di.

Xususan, bu haqda quyidagi ilmiy-amaliy ta'rif va nuqtayi nazarlarni izohlab berish mumkin: 1) turizm sohasidagi huquqiy munosabat lar subyektlarining huquqiy maqomi deganda qonunchilikda nazarda tutilgan, ular huquq subyektligi, faoliyat yuritishining tartibi va asoslarini belgilaydigan huquqiy normalar yig'indisi tushuniladi; 2) turagent turoperatorning topshirig'iga ko'ra harakatlanadi. Shu sababli mazkur ikki turistik kompaniya turining huquqlari, maj buriyatlari va javobgarligi bir-biri bilan uz viy bog'liqdir. Ularni bir-biridan alohida deb tasavvur qilishning imkoni yo'q.

Shuningdek, reyslar turkompaniya aybiga ko'ra emas, balki aviakompaniya aybi bilan kechikkan taqdirda kompensatsiya ma salasi ham shartnomada oldindan hal etilgani ma'qul. Ana shundagina yuqoridagi keyslarga o'xshash holatlarning yuzaga kelishining oldi olinadi. Yuzaga kelgan taqdirda ham ikki to monning qanday yo'l tutishi oldindan ma'lum bo'ladi. Shu bilan birga, turkompaniyaning ham, turistning ham huquqlari buzilmasdan, nizolarni sudgacha o'zaro kelishuv bilan hal etish imkoniyati yuzaga keladi.

REFERENCES

1. Ahrorov D. Pandemiyadan keyingi turizm: O'zbekiston nimalarga e'tibor qaratishi kerak? [Post-pandemic tourism: What should Uzbekistan focus on?] Available at: https://kun.uz/11780695?q=%2F11780695/.
2. Turizm va madaniy meros vazirligining hisobot matbuot anjumani bo'lib o'tdi [A report press conference of the Ministry of Tourism and Cultural Heritage was held]. Available at: https://yuz.uz/news/turizm-va-madaniy-meros-vazirligining-hisobot-matbuot-anjumani-bolib-otdi/. E-ISSN 2181-1148 ISSN 2181-919X YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI / ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК / REVIEW OF LAW SCIENCES
3. Turizm sohasidagi ulkan imkoniyatlar va ulardan foydalanish bo'yicha vazifalar ko'rsatib o'tildi [Huge opportunities in the field of tourism and tasks for their use were shown]. Available at: https://president.uz/uz/lists/view/5552/.
4. Bratanovski S.N., Bratanovskaya M.S., Kocherga S.A. Pravovoye regulirovaniye turizma v Rossiyskoy Federatsii [Legal regulation of tourism in the Russian Federation]. Moscow, 2014, pp. 23–28.
5. Pisarevsky E.L. Pravovoye regulirovaniye turistskoy deyatel'nosti [Legal regulation of tourism activities]. St. Petersburg, 2007, p. 43.
6. Zolotovsky V.A., Zolotovskaya N.Ya. Pravovoye regulirovaniye v sfere turizma [Legal regulation in the sphere of tourism]. Volgograd, 2015, p. 34.
7. Mezhdunarodnaya konventsiya po kontraktu na puteshestviye [International travel contract convention]. Brusel, 1970, April 23. Available at: https://www.lawmix.ru/abro/552/.
8. Pliyeva M.R. Otvetstvennost' turoperatora po dogovoru okazaniya mezhdunarodnykh turistskikh uslug [Responsibility of the tour operator under the contract for the provision of international tourist services]. Moscow, 2008, p. 13.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK:398.2

ШОМОН АФСОНАЛАРИНИНГ ЖАНР ТАБИАТИ ХУСУСИДА

Darmonov Ilxomjon Karimovich, Namangan muhandislik texnologiya instituti akademik litseyining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

ABOUT THE GENRE NATURE OF SHOMON LEGENDS

Darmonov Ilkhomjon Karimovich, Native language and literature teacher of the academic Lyceum of the Namangan Institute of Engineering Technology

О ЖАНРОВОЙ ПРИРОДЕ ЛЕГЕНД О ШОМОНЕ

Дармонов Ильхомжон Каримович, учитель родного языка и литературы Академического лицея Наманганского инженерно-технологического института

https://orcid.org/0009-0008-7013-9821
e-mail: Darmonovilhomjon1979@gmail.com

Аннотация: Афсоналар – халқ оғзаки бадиий ижодиётининг энг оммалашган ва қадимий эпик жанрларидан бири сифатида муҳим аҳамият касб этади. Аждодларимиз эпик тафаккурини аниқлаш, эпик сюжет бадиий эволюциясини ойдинлаштириш, эпик сюжетдаги турли мифологик мотивлар генезиси борасида аниқ хулосага келиш, мифологик тасаввурлар ва қадимий эътиқодлар билан боғлиқ қарашларни тадқиқ этиш каби дунёвий илмнинг кўплаб масалаларини аниқлашда афсоналар муҳим тадқиқот объекти сифатида қаралади.

Калит сўзлар: афсоналар, мифология, функционаллик, таркиб, маданий контекст.

Abstract: Legends are important as one of the most popular and ancient epic genres of oral folk art. When solving many issues of secular science, such as determining the epic thinking of our ancestors, clarifying the artistic evolution of the epic plot, reaching a clear conclusion about the genesis of various mythological motifs in the epic plot, exploring views related to mythological visions and ancient beliefs, myths are considered as an important object of study.

Keywords: myths, mythology, functionality, content, cultural context.

Аннотация: Легенды важны как один из самых популярных и древних эпических жанров устного народного творчества. При решении многих вопросов светской науки, таких как определение эпического мышления наших предков, выяснение художественной эволюции эпического сюжета, достижение четкого вывода о генезисе различных мифологических мотивов в эпическом сюжете, исследование взглядов, связанных с мифологическими видениями и древними верованиями, мифы рассматриваются как важный объект об учебе.

Ключевые слова: мифы, мифология, функциональность, содержание, культурный контекст.

КИРИШ. Таниқли ўзбек фольклоршуноси К.Имомовнинг фикрича, афсонанинг тарихий ҳақиқатни акс эттириши, шаклий тузилиши, турли хил мотивлар талқини, тавсифида бадиийлик устувор эмас, воқеа ва ҳодисалар билиш, ўрганишга йўналтирилган, асосий функцияси тарихий воқеа ва ҳодисалар ҳақида ахборот беришдан иборатдир[1].

[1] Имомов К. Ўзбек халқ насри поэтикаси. – Тошкент, Фан, 2008. – Б. 16.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯСИ. Фольклоршунос О.Сафаров: “Афсона” атамаси форсча “афсун” – “сеҳр-жоду” маъносини англатувчи сўздан олинган бўлиб, фантастика, хаёлий уйдирма асосида яратилган насрий ҳикояларга нисбатан қўлланади[2],-деб ҳисоблайди. Тўғри, афсоналарда ҳикоя қилиш мавжуд, бироқ воеаларнинг тасвирлаш услубида ҳикоядан жиддий фарқлари ҳам бор. Фольклоршунос М.Рахмонованинг ёзишича, ўзбек халқ афсоналари ўзига хос образлилик ва бадиийликка эга бўлиб, бу ҳолатни юзага чиқарувчи муайян поэтик ифода воситалари, лингвопоэтик белгилар, композицион унсурлар мавжуд[3]. Шунингдек, М.Рахмонова афсоналарнинг информатив вазифа бажаришини ҳам эътироф этган.

Фольклоршунос Е.С.Новикнинг докторлик диссертацияси учун тайёрлаган илмий маърузасида айтилишича, “Шомон афсоналари” атамаси фақат қаҳрамони шомон бўлган ҳикояларни билдиради. Уларнинг жанр хусусиятларига келсак, улар мемуарлар ва бличкалар, мифлардан тортиб афсоналар ва ривоятларга қадар кенг кўламли воқеаларни баён қилиш услуби билан ифодаланади. Бу матнлар корпусини қулай лаборатория материалига айлантиради, чунки жанр категорияси оғзаки ҳикоя соҳасида катта рол ўйнайди”[4]. Демак, Е.С.Новик фикрича, асосий қаҳрамони шомон бўлган ва шомон атрофида содир бўлган воқеаларни ифодаловчи оғзаки насрий ҳикоялар шомон афсоналарини англатади. Бизнингча, олима ҳикоя деганида воқеийликни баён қилиш услубини назарда тутган. Олиманинг “Сибир шомонлигида маросим ва фольклор” номли монографиясида шомон билан боғлиқ оғзаки наср намуналарини шомон афсоналари ва шомон насри каби ички типларга ажратади[5]. Шунингдек, олима шомон афсоналарини мавзу қамровига кўра икки асосий гуруҳга бўлиб таснифлайди:

1. Шомон мўъжизалари, кароматлари борасидаги афсоналар; 2.Илк шомоннинг туғилиши, шомонлик неъматини қабул қилиши, қадимда яшаб ўтган улуғ шомонларнинг таржимаи ҳоли ва бошқалар.

Олима шомон маросимлари шаклига асосан шомон афсоналарини гуруҳлаштиради. Дастлабки гуруҳга шомоннинг қудрати ва шомонликни қабул қилиши, иккинчи гуруҳга эса, турли культларни объект қилиб олган, шомон маросимлари жараёнида ижро қилинадиган афсоналарни киритган[6].

Е.Н.Дувакин Сибир шомон афсоналари сюжетининг мотивлар таркиби борасидаги диссертация ишида шомон афсоналарининг сюжетига асос бўлган тарихий факт бошқа манбаларда учрамаслиги, у фақат ижро этувчи томонидан тарихий далил сифатида баён этилишини қайд этади[7].

Бизнингча, шомон афсоналари шомоннинг қай тариқа шомонга айланиб қолганлиги, шомоннинг таъсирида унинг ҳомий руҳлари томонидан амалга ошган муъжизавий ҳодисаларни ифодалайди. Ўтган асрнинг 30-йилларида Марказий Осиё бўйлаб илмий сафарда бўлган Л.П.Потапов хоразмлик порхонлар ҳақидаги афсоналарни ёзиб олган эди. Олимнинг кундаликларида қайд этилишича, Хоразм вилоятининг Хива тумани, Писканак қишлоғида истиқомат қилган ўша кезларда 39 ёшда бўлган порхоннинг қай тариқа порхон бўлиб қолганлигини изоҳловчи оғзаки ҳикояни келтиради. Ҳикоя қилинишича, Ёқут исмли қиз тахминан саккиз ёшларида кечалари туриб юрадиган, ўзи-ўзи билан гаплашадиган бўлиб қолади, кейинчалик оёқ-қўллари оғрийди, ишламай қолади. Яқинлари унинг дардини тушуна олмайдилар. Шунда кимдир унга бу

[2] Сафаров О., Ўраева Д. Ўзбек халқ оғзаки бадиий ижоди. 2-қисм. – Бухоро, 2006. – Б.9.

[3] Рахмонова М.Р. Ўзбек халқ афсоналарининг бадиияти. Филол.фан докт.дисс. – Тошкент, 2018. – Б. 15.

[4] Новик Е.С. Фольклор – обряд – верования: опыт структурно-семиотического изучения текстов устной культуры. Диссертация в форме научного доклада по совокупности опубликованных работ на соискание ученой степени доктора филологических наук. – Москва, 1995. – С. 29.

[5] Новик Е.С. Обряд и фольклор в Сибирском шаманизме.– Москва, 1984. – С. 237.

[6] Новик Е.С. Поэтика шаманских легенд (к вопросу о соотношении обряда и фольклора)//Эпическое творчество народов Сибири и Дальнего Востока (Материалы Всесоюзной конференции фольклористов)/Ред.:Н.В. Емельянов, В.Т. Петров. –Якутск: Якутский филиал СО АН СССР, 1978. –С. 104-109.

[7] Дувакин Е.Н. Шаманские легенды народов сибири: сюжетно-мотивный состав и ареальное распределение. Автореф. Канд.филол.наук. – Москва, 2011. – С. 19.

жинларнинг таъсири, порхонликни бўйнига олса, соғайиб кетишини тушунтиради. Ёқутга доира олиб келиб берадилар ва доира чалиб жинларни, руҳларни чақириб, улар билан мулоқот қила бошлайди. Шундан кейин Ёқутнинг оёқ-қўллари соғаяди[8].

MUHOKAMA. Афсона матнидан аёнки, сюжет шомоннинг қай тариқа шомонга айланиб қолганлиги тўғрисида ахборотни ташишга хизмат қилади. Бироқ, афсона сюжетида икки образ кўзга ташланади. Биринчиси шомон, иккинчиси мифологик ҳомий. Афсонанинг асосий қаҳрамони ҳикоячи, воқеа-ҳодисалар унинг иштирокида содир бўлади. Тасвирланган воқеалар тингловчи учун хаёлий уйдирма, аммо айтувчи учун реал ҳақиқат характерига эга.

Юқорида Л.П.Потапов кундалигидан келтирилган порхонлар ҳақидаги оғзаки ҳикояларни таҳлил қилсак. Биринчи ҳикоя қаҳрамони Ёқут жинлар таъсири сабабли оғир дардга чалинади. Порхонликни қўл олгач, соғлиги яхшиланади. Бу афсонада қаҳрамоннинг ғайритабиий дардга йўлиқиши, азобланиши унинг порхонликни қабул қилишига сабаб бўлади. Жинлар билан мулоқот қилиш ва ўзга олам вакиллари билан суҳбатлашиш, улар ёрдамида одамларни даволаш порхоннинг функционал вазифаларига киради. Афсона бош қаҳрамони Ёқут тарихий шахс, унинг яшаш манзили, яшаган даври, уни кўрган киши томонидан тасдиқланмоқда. Демак бу афсонада тарихий шахс образи мавжуд.

Профессор М.Жўраевнинг тушунтиришича, “моддий оламнинг ибтидоси ҳақида маълумот берувчи, табиат ва жамият ҳаёти билан боғлиқ нарса-ҳодисаларнинг пайдо бўлишини тушунтирувчи космогоник, этиологик, антропоморфик характердаги бир сюжетли фантастик ҳикоялар мифологик афсоналар дейилади” [9] . Демак, юқорида биз таҳлилга тортган эпик наср намунасида жин – мифологик образ иштирок этаяпти бу унинг мифологик афсонага хос белгиси. Шунда биз бу оғзаки эпик наср намунасини мифологик афсонага хос деймизми?

Топонимик наср намуналарини тадқиқ этган фольклоршунос У.Сатторовнинг фикрига кўра, топонимик афсоналар муайян жой номлари келиб чиқишини изоҳлашга қаратилган, хаёлий уйдирмага асосланган, ихчам сюжетли оғзаки насрий ҳикоялар [10] дан ташкил топади. Биз таҳлилга тортган эпик матнда жой номининг келиб чиқиши изоҳланмаган. Демак, бу топонимик афсона эмас. Аммо унинг қаҳрамонлари реал тарихий шахслар. Унда тарихийлик категорияси кўзга ташланади. М.Раҳмонованинг ёзишича, “тарихий афсоналарнинг мавзу доираси ранг-баранг бўлиб, унда ўтмишда рўй берган муҳим тарихий воқеа-ҳодисалар, ҳаётда яшаб ўтган реал тарихий шахслар фаолияти, уруғ-қабилаларнинг келиб чиқиши, меъморчилигимиз тарихида муҳим ўрин тутган обидаларнинг қурилиши, шаҳарларнинг бунёд этилиши, авлиёларнинг кароматлари ва бошқалар ҳақида ҳикоя қилинади”[11].

Бизнингча, авлиёларнинг кароматлари муайян эврилиш ҳодисаси, мўъжизага хос воқеийлик фонида тасвирланади. Шунинг учун тарихий афсоналар сирасидаги поэтик белгилари тавсифидаги авлиёлар ва уларнинг кароматлари тушунчасини чиқариб ташлаш лозим деб ҳисоблаймиз. Тўғри, авлиёларнинг кўпчилиги тарихий шахслар, уларнинг авлиёлиги эса, уларнинг каромат соҳиби эканлиги билан белгиланади. Бироқ, авлиёларнинг кароматларида мифологик моҳият устунлик қилади, авлиё фаолияти қайсидир қадимий эътиқод таъсирида шаклланганлиги кўриниб туради. Шунинг учун диний характердаги афсоналарни тарихий афсоналар сирасига киритмаганимиз маъқул, деб ҳисоблаймиз.

Юқорида устоз фольклоршуносларнинг афсона тавсифига доир қарашларига таянганимизда биз таҳлил қилаётган эпик матн

[8] Потапов Л.П. Дневник экспедиции узбекского государственного научно-исследовательского института//Ўзбек фольклоршунослиги масалалари. 3-китоб. – Тошкент, Фан, 2010. – Б. 172.

[9] Жўраев М. Ўзбек халқ самовий афсоналарининг тарихий асослари: Филол. фанлари докт... дисс. – Тошкент, 1996. – Б.47.

[10] Sattorov U.F. O‘zbek xalq toponimik nasrining tasnifi va poetikasi.Filol. fan.dokt. (DSc) diss. avtoref. – Toshkent, 2023, – B.17.

[11] Раҳмонова М. Ўзбек халқ тарихий афсоналари. – Тошкент, Фан. 2001. – Б. 28.

афсонага хос, аммо, на тарихий, на мифологик, на топонимик афсона бўла олишининг гувоҳи бўлдик. Чунки таҳлил қилинаётган эпик матн қаҳрамони ёзиб олинган пайтда яшаётган ва бошидан ўтганини ҳикоя қилганлиги муҳим аҳамият касб этади. Ўзбек фольклоршунослиги қўлга киритган назарий хулосаларида афсоналарда тасвирланган воқеа-ҳодисаларнинг узоқ ўтмишда содир бўлиши алоҳида урғуланади. Демак, воқеа-ҳодисаларнинг содир бўлиш замонида фарқ пайдо бўлаяпти. Яъни афсоналарда ҳодисалар узоқ ўтмишда, қадим замонларда содир бўлади, биз таҳлил қилаётган эпик сюжетдаги ҳодисалар эса, айни замонда содир бўлмоқда.

Фольклоршунос О.Қаюмов шундай эпик матнларни таҳлил қиларкан: “Шомон афсоналарининг ўзига хос хусусиятлари: бундай оғзаки насрий ҳикояларда бош қаҳрамон айтувчининг ўзи бўлиб, тасвирланган воқеийлик муайян тарихий замонда, реал маконда содир этилиб илоҳий ҳодиса сифатида талқин қилинишида”[12], -деб ҳисоблайди.

NATIJALAR. Демак, эпик сюжет воқеалари айтувчи – қаҳрамоннинг саргузаштлари сифатида тавирланиши, қаҳамоннинг шомон эканлиги уни шомон афсонаси сифатида баҳолашимизга асос бўлади деб ўйлаймиз.

Тўғри, кузатганимиздек бу афсонада ҳам ахборот ташиш етакчи ўринда турибди. Шунингдек, ўзга олам вакилларининг қаҳрамон ва унинг турмуш ўртоғига дахл қилиши, қўчқорнинг самода учиши каби мотивлар эса, мифологик моҳият касб этади. Аммо афсонанинг ғоявий йўналиши шомоннинг қай тариқа шомонга айланишини изоҳлашдан иборат эканлигини инобатга олиб, уни шомон афсонаси сифатида баҳолашимиз мумкин. Афсона сюжетида қаҳрамоннинг оғир дардга чалиниши ва воқеалар ривожи дарддан қутулиши учун шомонликни қабул қилганлигини изоҳлаш билан тугаганлиги бу шомон афсоналарига хос специфик характердаги эпик формуладир.

София ая Ашурова афсонасида: “Мен, Боболарнинг изми билан одамларни даволашга 31 ёшимда киришишим керак эди. Мен эса, “бу ишни уддалай олмайман”,- деб қўрқар эдим. Қандай қилиб табобат илмидан бехабарлигимча инсонларни даволай олишимни ақлимга сиғдира олмас эдим. Боболар берган муҳлат тугади. Мен эса ҳали ҳам даволашни бўйнимга олмасдан розилик бермасдим. Шундан кейин Боболар мени жазолай бошладилар: улар руҳимни вужудимдан жудо қилишар, гоҳ жаннатда, гоҳ Маккаи мукаррамада сайр қилдирар эдилар. Бу давр мобайнида эса уйда руҳсиз танамнинг устида мотам тутишар эди. Мен бу сафарларда Арофат тоғидан мунчоқлар тердим. Жаннат остоналарини супурдим. Мен ҳар сафар ўлиб тирилар эдим. Аммо, Боболар амрини бўйнимга олишга ўзимда жасорат топа олмас эдим. Ҳозирда эса вақтида амрларига бўйин эгмаганимдан жуда пушаймонман. Ахир, қанчадан-қанча дардмандларга, эҳтиёжманд кишиларга ёрдамим тегиши мумкин эди”[13].

София аянинг Ғайб олами вакиллари билан мулоқот қилиб, замин оламидаги одам болаларига ёрдам бераётганига қарийб ярим асрга яқин муҳлат бўлган. Руҳларнинг талабларига бўйсунмаганлиги учун афсона қаҳрамонига ўз йўлларига юришини талаб қилган боболар унга одамларни даволаши мумкинлигини тушунтирадилар. София ая бу таклифни қабул қила олмайди, сабаби у табобатни билмаслигини тан олади. Боболар яхшилаб ўйлаб кўриши учун унга муҳлат берадилар. Муҳлат тугашига қарамасдан ўз розилигини билдирмагани учун София аяга руҳлар томонидан босим бошланади. Қаҳрамоннинг руҳини жисмидан жудо қиладилар. Уни нариги дунёга олиб кетишади, гоҳ жаннатда, гоҳо дўзахда сайр қилдирадилар. Бу пайтларда қаҳрамоннинг оиласидагилар жонсиз танаси устида йиғлаб ўтиришар эди. София ая ҳам алал оқибат Ғайб олами вакиллари томонидан қўйилган шартларга рози бўлгач, у мутлақо соғаяди ва дардига даво тополмаган беморларга фатво бериб, жой қилиб ётиши, боболар келиб даволашини айтади. Мазкур афсонада ҳам бевосита шомоннинг ғайб олам ва замин ўртасидаги воситачилиги, шомон касаллигига чалинганлиги, дардманд пайтида нариги дунёга сафар қилиш мотивлари, ҳомий

[12] Қаюмов О. Шомон афсоналари//Ўзбек тили ва адабиёти. 2004. № 6. – Б.45-48.

[13] Қаюмов О. Ҳақиқатга айланган мўъжизалар. – Навоий:Алишер Навоий номидаги нашриёт. 2016 – Б.27.

руҳлар томонидан аввал жазоланганлиги кейинчалик дарддан фориғ бўлиб, машҳур инсонга айланиши мотиви етакчилик қилади. Шунингдек, шомон афсоналарида мўъжиза юз бериши мотиви ҳам кўзга ташланади. Буни София аянинг боболар таклифига рози бўлгач, бир неча сонияда табибга айланиши, бошқа бир афсонада София аядан фатво олиб шифо топган беморнинг бир кечада ичкиликни ташлаб қуръон оятларини қироат қила бошлагани, қуръон ёзувларини шаррос ўқиш кўникмасини қўлга киритиши мотивларида кўришимиз мумкин.

Поэтик воқеийликнинг айтувчининг иштирокида, айни замонда содир этилиши, мифологик образлар тарихий реал шахс воситачилигида ҳаракатланиши, воқелар қаҳрамоннинг соғайиши жараёни, йўқолган буюмнинг топилиши, мавҳум предмет ёки воқеа-ҳодисанинг башорат қилинишининг бадиий ифодаланиши фақат шомон афсоналарининг табиатига хос бўлган поэтик хоссалардир[14].

ХУЛОСА. Хуллас, шомон ёки унга мурожаат қилган шахс томонидан ижро этилувчи, биргина воқеа асосига қурилган, ихчам сюжетли, шомонинг шомонликни қўлга киритиши ҳамда унинг кароматлари, саргузаштларини изоҳлашга қаратилган, воқеаларнинг хаёлий уйдирма асосида тасвирлаган оғзаки насрий ҳикоялар шомон афсоналаридир.

Ўзбек шомон афсоналари икки гуруҳга мансуб бўлади: 1. Шомоннинг шомонлик касбини изоҳлашга қаратилган афсоналар; 2. Шомоннинг магик маҳорати ва саргузаштларини ҳикоя қилувчи афсоналар.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Имомов К. Ўзбек халқ насри поэтикаси. – Тошкент, Фан, 2008. – Б. 16.
2. Сафаров О., Ўраева Д. Ўзбек халқ оғзаки бадиий ижоди. 2-қисм. – Бухоро, 2006. – Б.9.
3. Рахмонова М.Р. Ўзбек халқ афсоналарининг бадиияти. Филол.фан докт.дисс. – Тошкент, 2018. – Б. 15.
4. Новик Е.С. Фольклор – обряд – верования: опыт структурно-семиотического изучения текстов устной культуры. Диссертация в форме научного доклада по совокупности опубликованных работ на соискание ученой степени доктора филологических наук. – Москва, 1995. – С. 29.
5. Новик Е.С. Обряд и фольклор в Сибирском шаманизме.– Москва, 1984. – С. 237.
6. Новик Е.С. Поэтика шаманских легенд (к вопросу о соотношении обряда и фольклора)//Эпическое творчество народов Сибири и Дальнего Востока (Материалы Всесоюзной конференции фольклористов)/Ред.:Н.В. Емельянов, В.Т. Петров. –Якутск: Якутский филиал СО АН СССР, 1978. –С. 104-109.
7. Дувакин Е.Н. Шаманские легенды народов сибири: сюжетно-мотивный состав и ареальное распределение. Автореф. Канд.филол.наук. – Москва, 2011. – С. 19.
8. Потапов Л.П. Дневник экспедиции узбекского государственного научно-исследовательского института//Ўзбек фольклоршунослиги масалалари. 3-китоб. – Тошкент, Фан, 2010. – Б. 172.
9. Жўраев М. Ўзбек халқ самовий афсоналарининг тарихий асослари: Филол. фанлари докт... дисс. – Тошкент, 1996. – Б.47.
10.Sattorov U.F. O‘zbek xalq toponimik nasrining tasnifi va poetikasi.Filol. fan.dokt. (DSc) diss. avtoref. – Toshkent, 2023, – B.17.
11.Раҳмонова М. Ўзбек халқ тарихий афсоналари. – Тошкент, Фан. 2001. – Б. 28.
12. Қаюмов О. Шомон афсоналари//Ўзбек тили ва адабиёти. 2004. № 6. – Б.45-48.
13. Қаюмов О. Ҳақиқатга айланган мўъжизалар. – Навоий: Алишер Навоий номидаги нашриёт. 2016 – Б.27.
14. Kayumov O. The Tails About Uzbek Shaman Miracles//International Virtual Conference on The Ways of Innovative Approach on the Deployment of Science and Edcation.Vol. 9 Issue 5(Special Issue), May 2019.P.12-19.

[14] Kayumov O. The Tails About Uzbek Shaman Miracles//International Virtual Conference on The Ways of Innovative Approach on the Deployment of Science and Edcation.Vol. 9 Issue 5(Special Issue), May 2019.P.12-19.

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 141.336

MA'NAVIY MEROS VA SINERGETIK TAFAKKUR ASOSIDA YOSHLARNING INTELLEKTUAL SALOHIYATINI OSHIRISH

Raxmanov Bahodir Ubaydulloyevich, Samarqand davlat universiteti

ENHANCEMENT OF THE INTELLECTUAL POTENTIAL OF YOUTH BASED ON SPIRITUAL HERITAGE AND SYNERGISTIC THINKING

Raxmanov Bahodir Ubaydulloyevich, Samarkand State University

ПОВЫШЕНИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО ПОТЕНЦИАЛА МОЛОДЕЖИ НА ОСНОВЕ ДУХОВНОГО НАСЛЕДИЯ И СИНЕРГЕТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ

Рахманов Баходир Убайдуллоевич, Самаркандский государственный университет

https://orcid.org/0009-0001-7836-8460
e-mail: bagadir7777@mail.ru

Annotatsiya: Maqola zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va ma'naviy-mafkuraviy o'zgarishlar sharoitida yoshlarning intellektual salohiyatini shakllantirishning dolzarb muammosiga bag'ishlangan. Yoshlarning o'zligini, vatanparvarligini anglashi, milliy qadriyatlar va an'analarni saqlab qolish va mustahkamlash zarurligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yoshlar dunyoqarashiga ta'sirning turli jihatlari, shu jumladan ma'naviy meros va sinergik fikrlashning ahamiyati ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: muloqot, intellektual salohiyat, yoshlar, ma'naviy meros, sinergika, vatanparvarlik, nochiziqli tafakkur.

Abstract: The article is devoted to the current problem of the formation of the intellectual potential of young people in the context of modern socio-economic, political-legal and spiritual-ideological changes. Particular attention is paid to the need for young people to realize their identity, patriotism, as well as the preservation and strengthening of national values and traditions. Various aspects of influence on the worldview of young people are considered, including the importance of spiritual heritage and synergetic thinking.

Key words: intellectual potential, youth, spiritual heritage, synergetics, patriotism, nonlinear thinking.

Аннотация: Статья посвящена актуальной проблеме формирования интеллектуального потенциала молодежи в условиях современных социально-экономических, политико-правовых и духовно-идеологических изменений. Особое внимание уделяется необходимости осознания молодежью своей идентичности, патриотизма, а также сохранения и укрепления национальных ценностей и традиций. Рассматриваются различные аспекты влияния на мировоззрение молодежи, включая важность духовного наследия и синергетического мышления.

Ключевые слова: интеллектуальный потенциал, молодежь, духовное наследие, синергетика, мышление, патриотизм, нелинейное мышление.

KIRISH. Bugungi kunda dunyodagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-mafkuraviy jarayonlarlarning keskinlashuvi oqibatida inson ongi va mafkurasiga, ayniqsa yoshlarning dunyoqarashi, ruhiyati va ma'naviy olamiga ta'sir o'tkazish, o'z manfaatlariga xizmat qildirish avj olmoqda. Bunday jarayonlarda yoshlarimizning o'zligini anglashi, bilishi, o'zimizga xos milliy qadriyat va an'analarimizga, milliy manfaatlarimizga sodiq qolgan holda chinakam vatanparvar, insonparvar, ma'naviyati yuksak, intellektual salohiyati yuksak bo'lishlari

nihoyatda muhimdir. Shuning uchun o‘sib kelayotgan yosh avlodning ijtimoiy, ma’naviy hayotining kognitiv asoslarining o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish, ularga Yangi O‘zbekiston mafkurasini singdirish, ma’naviy merosimizga nisbatan evristik yondashuvlarini shakllantirish, nochiziqli tafakkur tarzi orqali har qanday tashqi mafkuraviy, siyosiy va ijtimoiy tahdidlarga javoban ma’naviy immunitetini kuchaytirish nihoyatda muhim masaladir. Zero, “Bugungi murakkab zamonda yoshlarni jismoniy va ma’naviy barkamol insonlar etib tarbiyalash biz uchun g‘oyat muhim vazifa bo‘lib qolmoqda”[1]. Bunday vazifani amalga oshirish esa avvalo har bir vatandoshimizning fuqarolik burchi, shuningdek, ziyolilar, maorif va ilm ahlining faoliyatida muhim strategik maqsad sifatida belgilanishi kerak.

Shu nuqtayi nazardan, yoshlarning jismoniy va ma’naviy barkamolligini ta’minlash, ularning intellektual salohiyatlarini oshirish uchun boy ma’naviy merosimizni yangi metodologiyalar asosida o‘rganib, tadqiq etishimiz, ta’lim va tarbiya, fan, madaniyat va boshqa sohalarga sinergetik tafakkur asosida yondashish lozim. Zero Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Bugungi kunda mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish, uni innovatsion asosda rivojlantirish, o‘z oldimizga qo‘ygan ko‘p qirrali va murakkab vazifalarni amalga oshirish maqsadida biz zamonaviy va kreativ fikrlaydigan, har qanday vaziyatda ham mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir bo‘lgan, g‘ayrat-shijoatli, intellektual salohiyati yuksak, vatanparvar yosh kadrlarga davlat va jamiyat boshqaruvida muhim vazifalarni ishonib topshirmoqdamiz”[2] .

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. Mustaqillik yillaridanoq Yoshlar intellektual salohiyatini oshirishga alohida e’tibor qaratib kelingan. Ayniqsa, so‘nggi yillarda bu borada tub islohotlar, tarixiy ishlar amalga oshirildi. Xususan, ta’lim tizimini tubdan isloh etish, tarbiya masalasiga keng jamoatchilikni jalb etish, milliy qadriyatlarimiz, merosimizni o‘rganish, yangi zamonaviy ilmiy laboratoriyalarni tashkil etish, yoshlarni kasb-hunarga o‘rgatish, ularning ijtimoiy mavqeyini oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Bu ishlar esa uzluksiz davom etishi uchun yangi islohotlar va ilmiy izlanishlar talab etilishini ham unutmaslik kerak. Chunki biz yashayotgan davr taqozosiga ko‘ra, jamiyat g‘oyalarini generatsiya qilish imkoniyati, barcha sohalarda yangilik kiritish, buning uchun yetarli shart-sharoit yaratish va resurslarni hozirlash, ulardan unumli foydalanish intellektual salohiyat darajasi, aniqrog‘i inson kapitalidan foydalana olish darajasi bilan bog‘liqdir. Shunday ekan, yoshlarning intellektual salohiyatlarini oshirish orqali biz Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ko‘zda tutilgan taraqqiyot darajasiga yetishimiz mumkin. Eng muhimi buning uchun mamlakatimizda barcha sharoit va imkoniyatlar yaratilgan, faqat undan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirishimiz lozim xolos. Bu borada esa olimlarimiz, umuman ziyoli ahlidan yangicha yondashuvni, ilmiy kashfiyot va ixtirolar, izlanishlar, sifatli ta’lim va tarbiya metodikalari, ma’naviy yangilanish va rivojlanish talab etiladi.

Yuqoridagi maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda yoshlarning intellektual salohiyatlarini oshirishda muhim omillardan biri bo‘lgan ma’naviy merosimizni chuqur o‘rganish, uning yangi ilmiy mohiyatlarini kashf etish, jumladan, ma’naviy vorislik va sinergetik g‘oyalar asosida evristik ahamiyatini tadqiq etish muhim masalalardan hisoblanadi. Zero “Hozirgi dunyoning globallashuvi shunday bir mavqedaki, hal qiluvchi omil harbiy qudratda emas, balki intellektual salohiyatda, fikrda, aqlda, ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirishda bo‘lib qolmoqda”[3] Bu borada esa sinergetik yondashuv, sinergetik tafakkur, sinergetik madaniyat asosida yoshlarga ta’lim va tarbiya berish har qanday murakkab vaziyat va yangi rivojlanish tendensiyasida zamonaviy ilmiy dasturulamal bo‘la oladi.

MUHOKAMA. Bugungi kunda intellektual salohiyati yuksalayotgan mamlakatlar barcha sohada yetakchi va barqaror taraqqiyot sari qadam qo‘ymoqda. Ayniqsa, hozirgi zamon talabi bilan fan, ta’lim, axborot texnologiyalari, raqamli iqtisodiyotning mavqeyi oshishi bilan yangi industrial jamiyat, axborot jamiyatiga o‘tish uchun inson intellektual salohiyati yuksalishining muhimligini ham taqozo etmoqda. Ayniqsa ta’lim tizimidagi yondashuv bu borada nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun mamlakatimizda ta’lim va uning sifatiga alohida e’tibor qaratilib, buning uchun yetarlicha sharoit va imkoniyatlar yaratilmoqda. Bu albatta bejiz emas, sababi rivojlangan barcha davlatlarda, jumladan, AQSH, Xitoy, Janubiy Koreya, Yaponiya, Singapurda ta’lim tizimi doimiy e’tiborda hisoblanadi. Amerikalik

ekspertlarning fikriga ko‘ra, ta’lim tizimiga qilingan 1 dollarlik xarajat, 36 dollar daromad qilishga imkon beradi[4]. Shuning uchun Prezidentimiz har bir ma’ruzalari va murojaatlariga yoshlarga ilm berish, ta’lim sifatini oshirishga alohida urg‘u beradilar: “Men har gal yoshlar bilan uchrashganimda, “Ilmni qadrlang, ilmga intiling!” degan so‘zlarni takrorlashdan aslo charchamayman. O‘zingiz ko‘ryapsiz, dunyoda o‘qigan, zamonaviy ilm va hunarlarni puxta egallagan, yosh avlodini ayni shu ruhda tarbiyalagan xalqlar, davlatlar jadal rivojlanmoqda. Yangi O‘zbekiston yoshlari ham ana shunday yuksak darajalarga ko‘tarilishi uchun biz albatta barcha imkoniyatlarni ishga solamiz”[1] . Darhaqiqat, mamlakatimizda taraqqiyotning muhim omili hisoblanadigan inson kapitalini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Ta’lim tizimini rivojlantirish, sifat o‘zgarishlariga e’tibor qaratish va samaradorligini oshirish, barcha fanlarni rivojlantirish, ilmiy salohiyatini oshirish, innovatsion tizimni rivojlantirish va ma’naviy darajani yuksaltirish borasida o‘tkazilayotgan islohotlar zamirida ham intellektual salohiyatni oshirish maqsadi mujassamlashgandir. Jamiyatda intellektual salohiyatni oshirish va shu orqali milliy manfaatlarimizni himoya qilgan holda yangi taraqqiyot bosqichiga ko‘tarilish uchun ham bu borada yangi ilmiy izlanishlar va tadqiqotlarni taqozo etadi. Bu borada soha mutasaddilari va olimlarimiz alohida e’tibor qaratishlari lozim.

Intellektual salohiyat sohasida ilmiy izlanishlar olib borgan olimlardan L.V.Nesterov, G.T.Ashirovalar intellektual salohiyatni takror ishlab chiqarish manbalari sifatida quyidagilarini ko‘rsatib o‘tishgan: ta’lim, fan, sog‘liqni saqlash, axborot xizmati, madaniyat va san’at [6]. Albatta, ko‘rsatilgan manbalarning barchasi zarurat va intellektual salohiyat takomillashuvining muhim manbalari hisoblanadi. Biroq biz tadqiqotimiz davomida va Yangi O‘zbekiston strategiyasi asosida intellektual salohiyatni takror ishlab chiqarish manbalari quyidagilar degan xulosaga keldik:

- Ta’lim va tarbiya;
- Fan va innovatsion g‘oyalar;
- Sog‘liqni saqlash va sog‘lom turmush tarzi;
- Axborot texnologiyalari;
- Madaniyat, san’at;
- Ma’naviyat.

NATIJALAR. Intellektual salohiyatni oshirishda ushbu manbalar muhim rol egallashi barobarida, u jamiyatning ichki imkoniyat, resurs va genetik o‘ziga xoslik, mehnat va ma’naviy merosi bilan ham uzviy bog‘liqdir. Shu nuqtayi nazardan yoshlarning intellektual salohiyatlarini oshirish uchun yuqoridagi omillarga alohida e’tibor qaratish zarur. Jumladan, insonning o‘z-o‘zini tarbiyalashi va o‘z-o‘zini anglashi orqali yuksalib boradigan intellektual salohiyat uchun ta’lim, tarbiya va boy ma’naviy merosdan oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarning intellektual salohiyatlarini yuksaltirishda bizga ajdodlarimizning boy ma’naviy merosi muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganlaridek, “Agar tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, buyuk ajdodlarimiz erishgan olamshumul yutuqlar zamirida avvalo ona Vatanga, xalqqa xizmat qilishdek olijanob maqsad mujassam ekanini ko‘ramiz. Masalan, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug‘bek singari ulug‘ allomalar, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi shoir va mutafakkirlar, Abdulla Avloniy, Fitrat, Abdulla Qodiriydek ma’rifatparvar adib va olimlar mashhur ilmiy kashfiyotlarini, o‘lmas badiiy asarlarini aynan kamolot yoshida yaratganlarini hammamiz yaxshi bilamiz va bu bilan faxrlanamiz. Bizning tomirlarimizda ana shunday ulug‘ bobolarimizning qoni oqar ekan, ularning munosib vorislari bo‘lish, ular kabi yuksak maqsadlar sari intilib yashash barchamizning ezgu burchimizdir”[1] . Bu burchni anlash va ajdodlarga munosib voris bo‘lish esa, ular qoldirgan ma’naviy merosni o‘rganish va undan oqilona foydalangan holda Vatanimiz va xalqimiz manfaatlari uchun yuksak salohiyatli shaxs bo‘lib kamol topib, chinakam vatanparvar, elsevar sifatida faoliyat ko‘rsatishni talab etadi. Shuning uchun biz yoshlarning intellektual salohiyati masalasida milliy o‘zligimizni bildiruvchi va dunyoqarashimizni shakllantirib, ilmiy salohiyatimizni oshiruvchi Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ma’naviy merosidan unumli foydalanish tizimini takomillashtirishimiz zarur. Bu borada esa, ta’lim tizimida, tarbiya jarayonida va ijtimoiy faoliyatda nochiziqli tafakkur tarzini shakllantirish metodologiyasini ishlab chiqib, uni samarali tarzda tatbiq etishimiz lozim. Buning uchun esa ta’lim, fan, ma’naviyat va ma’naviy merosimizga esa sinergetik yondashuv asosida uning evristik ahamiyatini ilmiy jihatdan tadqiq etish har bir ziyoli va maorif ahlining muhim vazifasiga aylanishi kerak.

Sinergetik tafakkurning yana bir prinsipi – nochiziqli tafakkur determinizmni rad etadi. Bundan tashqari, sinergetik tafakkur olamni yangicha ko‘rishni shakllantiradi. Bu o‘z navbatida yoshlarimizdan dunyoqarashining shakllanishi va o‘zgarishi, aqliy qobiliyatlarini yuksalishini talab etadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlarimizning tarbiyasi, intellektual salohiyati va uning bugungi davr uchun talab darajasida bo‘lishini, milliy o‘zligimizni yo‘qotmagan holda takmil topishini nazarda tutib, o‘z takliflarini beradi: “Yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda, ilmiy-texnologik talablarni hisobga olib isloh qilish, takomillashtirish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy va ma’naviy asosda shakllantirishni taqozo etmoqda. Tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni shakllantirishda oila, maktabgacha ta’lim, umumiy ta’lim, o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to‘liq yuzaga chiqarish va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko‘tarish darkor.

XULOSA. Ushbu yo‘nalishdagi ishlarimiz samarasini oshirish uchun yana ko‘plab tadbirlarni amalga oshirish zarur. Jumladan:

- ma’naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish;
- tarbiya jarayonida uzluksizlik, uzviylik tamoyillariga tayangan holda, avvalo, bo‘lajak va yosh onalarga e’tiborni kuchaytirish;
- bolalarni go‘dakligidan boshlab yuksak ma’naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bo‘yicha eng muhim yo‘nalishlarni belgilash;
- yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, mustahkam iroda, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibat, mas’uliyat, bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish”[1]. Bu chora-tadbirlar yoshlarimizning Vatan va xalq oldidagi burchlari va vazifalarini, kelajakdagi istiqbolini ham belgilab beradi.

Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish uchun ta’lim va tarbiyaga, ma’rifat va ma’naviyatga e’tibor berish, bu sohada islohotlar o‘tkazish barobarida, yoshlarimizning intellektual salohiyatlarini oshirish, zamonaviy bilimlarni egallashlari uchun bor imkoniyat va sharoitlardan foydalangan holda ajdodlarimizning boy ma’naviy merosini o‘rganib, uni yangi jamiyatda yangicha tarzda tatbiq etib, yangi g‘oyalar, ta’limot va ilmiy kashfiyotlarni yaratib, nochiziqli tafakkur tarzini shakllantirishimiz lozim. Shunda biz maqsad qilgan chinakam vatanparvar, xalqining manfaatlarini himoya qila oladigan, mamlakat manfaatlari uchun xizmat qiladigan bilimli, salohiyati yuksak yoshlar kamol topishadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Т.: O‘zbekiston нашриёти. 2021. Б.254.
2. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Т.: Ўзбекистон, 2018. 2-том. –491-б.
3. Alikulov S.A., Rizaev I.I. Methodological problems of research of social systems //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 2. – С. 717-720.
4. Кадомцева С.В. Экономические основы системы социальной защиты. М.: 1997. С.89.
5. Нестеров Л.В., Аширова Г.Т. Национальное богатство и человеческий капитал. // Вопросы экономики, 2003, № 2. – С.103 асосида муаллифлар томонидан тайёрланган.
6. Тураев Б.О., Ризаев И.И. Синергетическое мышление в современном понимании //Культура и антикультура. – 2022. – С. 181-185.
7. Муминова З.О. Синергетический анализ духовного бытия человека //Credo new. – 2015. – №. 2-2. – С. 8-8.
8. Кушаков Ш.С. Проблема духовного в теологии и философии мусульманского Востока //Исламская культура и мировая цивилизация/под ред. Д.А. Гущина, Ю.Н. Солонина, М.Санаи. СПб. – 2001.
9. Imomalievich R.I. Synergetics: The Path from General Systems Theory to Self-Organization //Global Scientific Review. 2023. – T. 22.C.317-324.
10. Usmonov F.N. The role rationalization in the acceleration of life sequence //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 3. – С. 227-229.
11. Alikulov X., Haqqulov N.Q. Spiritual maturity and philosophical thinking dependence of development //ISJ Theoretical & Applied Science. – 2020. – T. 4. – №. 84. – С. 164-167.
12. Khotambekovna E.M. Systematic analysis of education //Journal of Pedagogical Inventions and Practices. – 2021. – T. 3. – С. 31-35.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 101.1

ANGLIYADA KONSTITUTSIONALIZMNING SHAKLLANISHIGA F.BEKON FALSAFIY-KRATOLOGIK G‘OYALARINING TA’SIRI

Saurov Ravshonbek Ruslanbek o‘g‘li, Toshkent xalqaro universiteti “Huquqiy fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

THE INFLUENCE OF F.BACON’S PHILOSOPHICAL-CRATOLOGICAL IDEAS ON THE FORMATION OF CONSTITUTIONALISM IN ENGLAND

Saurov Ravshonbek Ruslanbek o‘g‘li, Senior Teacher, Department of Law Sciences, Tashkent International University, (PhD) on Philosophical Sciences

ВЛИЯНИЕ ФИЛОСОФСКО-КРАТОЛОГИЧЕСКИХ ИДЕЙ Ф.БЭКОНА НА ФОРМИРОВАНИЕ КОНСТИТУЦИОНАЛИЗМА В АНГЛИИ

Сауров Равшонбек Русланбек оглы, старший преподаватель кафедры юридических наук Ташкентского международного университета, доктор философских наук (PhD)

https://orcid.org/0000-0001-9353-7146

e-mail: ravshonbek.saurov@gmail.com

Annotatsiya: Angliyada konstitutsionalizmning shakllanishi ko‘p asrlar mobaynida davom etgan murakkab jarayon bo‘lib, unga XVIII-XIX asrda yashab ijod qilgan ingliz siyosatshunoslari va faylasuflari g‘oyalarining ta’siri katta bo‘lgan. Ushbu maqolada F.Bekonning falsafiy-kratologik g‘oyalari hamda uning Angliya konstitutsionalizmi rivojlanishiga qo‘shgan hissasi tahlil ostiga olinib, ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: konstitutsionalizm, demokratizm, konstitutsion monarxiya, absolyutizm, Lordlar palatasi.

Abstract: The formation of constitutionalism in England was a complex process that lasted for many centuries, and it was greatly influenced by the ideas of English political scientists and philosophers who lived and worked in the 18th-19th centuries. In this article, F. Bacon’s philosophical and cratological ideas and his contribution to the development of English constitutionalism are analyzed and revealed.

Key words: constitutionalism, democracy, constitutional monarchy, absolutism, House of Lords.

Аннотация: Формирование конституционализма в Англии было сложным процессом, длившимся на протяжении многих столетий, и на него большое влияние оказали идеи английских политологов и философов, живших и творивших в XVIII-XIX вв. В данной статье анализируются и раскрываются философско-кратологические идеи Ф.Бэкона и его вклад в развитие английского конституционализма.

Ключевые слова: конституционализм, демократия, конституционная монархия, абсолютизм, палата лордов.

KIRISH. Demokratizm va konstitutsionalizm prinsipining g‘arbona modellarini, ularning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi o‘rni va ahamiyatini falsafiy-kratologik nuqtayi nazardan tadqiq etish g‘arb tajribalari asosida bugungi kunda siyosiy maydonda yuzaga kelayotgan global muammolarni chuqur o‘rganish va ularga yechim topishga hissa qo‘shadi. Ma’lumki, ingliz konstitutsionalizmi va uning Buyuk Britaniya tarixidagi o‘rni, parlament bilan qirol o‘rtasidagi bahslar, hokimiyatga egalik masalalari bo‘yicha bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan, lekin Angliyada konstitutsionalizmning shakllanishida ingliz faylasuflarining falsafiy-kratologik qarashlarining tutgan o‘rni yetarlicha tadqiq qilinmagan. Shu bois, F.Bekon, T.Gobbs, D.Yum, B.Spinoza kabi faylasuflarning Angliya ijtimoiy-siyosiy hayotiga, inson huquq va erkinliklariga munosabatlari, ularning demokratizm va konstitutsionalizmga ta’siri, ingliz yozilmagan konstitutsiyasining o‘ziga xos jihatlarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

MATERIALLAR VA METODLAR. Konstitutsiyalar olamida Buyuk Britaniya (Angliya) tajribasi bir tomondan, tarixiy-siyosiy jarayonlarning in’ikosi sifatida keladi, ikkinchi tomondan, noyob, monarx bilan parlament o‘rtasidagi konsensusga, murosaga asoslangan, yozma bo‘lmagan normalar sifatida joy oladi. Bunday yozilmagan konstitutsiyaviy normalar va konstitutsional boshqaruv deyarli boshqa davlatlarda uchramaydi. Mazkur ingliz boshqaruv tizimining yuzaga kelishi va xususiyatlarini avvalo o‘sha davrdagi ingliz falsafasi va siyosiy-huquqiy, kratologik ta’limotlaridan izlash zarur. Bu borada Frensis Bekon (Lord Verusalamskiy) (1561-1626), Tomas Gobbs (1588-1679), Jon Lokk (1632-1704), Barux Spinoza (1632-1677), Shefsteberi Antoni Eshli Kuper (1671-1713), David Yum (1711-1776) kabilarni eslash o‘rinlidir, chunki ular nafaqat o‘z davrining falsafiy-kratologik va siyosiy-huquqiy qarashlarini shakllantirganlar, bu qarashlar, o‘z navbatida, XIX-XX asr Yevropa kontinental ilmiy merosiga ta’sir etgan, uning asosiy yo‘nalishini belgilab bergan. Shuning uchun ham g‘arb falsafiy-kratologik va siyosiy-huquqiy tajribalari to‘g‘risida gap ketganida, avvalo ularning merosi tilga olinadi, bu merosning zamonaviy ilmiy doktrinalar bilan uyg‘unligi nazarda tutiladi. Shu o‘rinda, buyuk faylasuf F.Bekonning falsafiy-kratologik qarashlarini o‘rganishda qiyosiy tahlil, tarixiy-davriy metod hamda deskriptiv metodlardan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR. F.Bekonning falsafiy-kratologik va siyosiy-huquqiy qarashlari otasi ta’sirida shakllangan. Sog‘lom aql, davlat ishlarini yurituvchi sifatida tanilgan Nikolas Bekon mutlaq hukmronlik qilishga moyil Tyudorlar manfaatlariga mos g‘oyalarni ilgari surgan. Bu uni saroyga yaqinlashtirgan. O‘n olti yoshli F.Bekonni otasi diplomatik missiya tarkibida Parijga yuborishga erishadi, aynan ushbu “falsafiy kratologik ta’limotlar” uchun muhim bosqich bo‘ladi. U davlat boshqaruvi ishlariga qiziqib, Greys Inn korporatsiyasida falsafa va yurisprudensiyani o‘rganadi. U yuqori lavozimga erishish orqali aql-u idrokini saroy xizmatiga bag‘ishlashi mumkinligini anglaydi[1,8-9]. 1593-yili u umumiy palataga saylanadi va qirolga ajratiladigan subsidiya bo‘yicha oppozitsiyaga rahbarlik qiladi. Saroy bilan lordlar palatasi o‘rtasidagi tortishuvlar, konstitutsion xususiyatga ega davlat boshqaruvi haqidagi muzokaralar uni davlat arbobiga aylantiradi, u qanday yo‘llar bilan bo‘lsa-da, saroyga yaqinlashishga, monarxdan biror yuqori lavozim olishga intiladi. 1597-yildan boshlab u o‘zining falsafiy-kratologik va siyosiy-huquqiy qarashlarini asarlar tarzida e’lon qila boshlaydi. Deputatlar palatasi qirolning palata tasdiqlamagan soliqlar yig‘ishiga qarshi chiqadi, bundan g‘azablangan qirol Yakov I palatani tarqatib yuboradi. Demokratizm o‘rniga absolyutizm o‘rnatiladi. Bu jarayonda Bekon faol ishtirok etib, saroyga sodiq ekanini tasdiqlaydi. Mutaxassislarning fikricha, bu “Bekon uchun eng sharmandali davr” bo‘ldi [1,12].

F.Bekonning absolyutizm tarafdori bo‘lgani uning shaxsiy manfaatlari bilan bog‘liq edi, albatta. U qirol bilan palata, saroy bilan xalq o‘rtasidagi siyosiy-huquqiy ziddiyatlarni “markazlashgan davlat”, ya’ni absolyutizm nuqtayi nazaridan hal etadi. U davlat boshqarishidan norozi bo‘lgan guruhlar, partiyalar, hatto deputatlar palatasini turli yo‘llar bilan “aldab, va’da berib, ishontirib” laqillatish, “ularni parchalab yuborish” san’atidan foydalanishni taklif etadi. To‘g‘ri, u palata yig‘inlarini chaqirib turishni taklif qiladi, biroq qirol palataga emas, balki palata qirolga bo‘ysunishi, itoat etishi kerak edi, bu taklifni Bekon davlatni mustahkamlash, kuchli harbiy, dengiz, harbiy-

siyosiy tuzumni shakllantirish, boshboshdoqlikni bartaraf etish maqsadi bilan bog‘laydi.

Faylasufning qisqa esselarida erk, saylov, davlat, boshqarish, iroda, huquq, tartib, axloq, ezgulik, hiyla, lavozim keltiradigan tashvishlar haqida turli fikrlar bildirilgan. Ularni o‘qigan kishi Bekonni falsafiy-kratologik va siyosiy-huquqiy masalalar juda qiziqtirganiga ishonch hosil qiladi. “Yuqori laмozim, - deb yozadi faylasuf, - kishini uch xo‘jayinga xizmat qilishga majbur qiladi: birinchisi hukmdor yoki davlatga; ikkinchisi odamlar gap-so‘zlariga, g‘iybatlariga; uchinchisi esa o‘z ishiga; natijada u o‘ziga ham, o‘z xatti-harakatlariga ham, o‘z davriga ham ega emas. Erk evaziga hokimiyatga yoki o‘zingga hukmronlik evaziga boshqalarga hukmronlik qilishga intilish hayratli emasmi? Tepaga ko‘tarilish mehnatlar bilan; qiyinchiliklar boshqa qiyinchiliklarni ketidan ergashtirib kelaveradi; lavozimda ulug‘lanish goho xorlanishni taqozo etadi; sharaflanishga tubanlashish orqali erishiladi. Yuqori joyda turish oson emas, ammo orqaga ham, chuqurga yiqilish yoki, juda bo‘lmasa, so‘nishdan boshqa, yo‘l yo‘q” [2, 373]. Lavozimdagi kishilar o‘zini baxtli sezishi uchun qo‘li ostidagilarni, boshqa kishilarning fikrlarini eshitishga, o‘z tasavvurlarini ularning gap-so‘zlari bilan qiyoslashga majbur. Davlat boshqarishi ham shunday, qirol yoki yuqori lavozimdagi shaxs mudom o‘zgalar fikri bilan yashashga majbur. U o‘z erkini boshqalar amriga, hukmiga berib qo‘ygan. U o‘zi haqida aniq, obyektiv fikrlar eshitolmaydi, chunki uning lavozimi bunga yo‘l qo‘ymaydi. Shuning uchun ham davlat xizmatchilari hukmdor oldida boshqa fikrni, uning orqasidan esa boshqa fikrni bildirib laganbardorlik qiladilar. Laganbardorlik esa davlatni samarali boshqarishga, qirolning to‘g‘ri faoliyat olib borishiga xizmat qilmaydi. Qirol yoki yuqori lavozimdagi kishi o‘zi haqidagi maqtovlarni qayd etishadi, obyektiv fikrni oxirgi o‘rinda biladi, ungacha maqtovlar eshitishga majbur. Shuning uchun “yuqori lavozim ham yomonlik, ham yaxshilik qiladi”[2,374]. Ammo ezgu amallarni qilishga lavozim ham, imkoniyat ham bor, faqat ixtiyor, iroda kerak.

Faylasufning qarashlariga Makiavellining ta’siri bor, buni barcha mutaxassislar qayd etishadi. “Hokimiyatga ega kishilarga to‘rtta: shoshmaslik, sotib olinish, munosabatda qo‘rslik va egiluvchanlik kabi qusurlar xos. Birinchisidan xoli bo‘lish uchun o‘zingni ochiq qil; belgilangan muddatga intil; kunda bajaradigan ishingni ertaga qoldirma; bir yo‘la bir necha ishlarni bajarishga shoshma. Sotib olinmaslik uchun nafaqat o‘zingni, shuningdek, boshqalarni, beruvchilarning qo‘lini ham bog‘lab qo‘y... Qo‘rs bo‘lmaslik uchun tartibni talab etish shaxsni kamsitadigan bo‘lmasin... Egiluvchan kishiga yaqinlashadiganlar ko‘p bo‘ladi, ular muloyimlikdan foydalanishga intilib, xushomad qiladilar, shu bois uni tinch qo‘yishmaydi” [2,375]”. Amaldorlari yo‘q monarxiyada doim sof despotizim yoki tiraniya bo‘ladi... Amaldorlar monarx hokimiyatini boshqariladigan qiladi va xalq nazarini qirol saroyidan yiroqlashtiradi. Demokratlarga esa ular umuman kerak emas: taniqli amaldorlar bo‘lmasa odatda osoyishtalik va g‘alayonlarga kam moyillik bo‘ladi, chunki bunda kishilarning diqqati shaxslarga emas, balki ishga qaratiladi... Masalan, Shvetsariya respublikasida foydali bo‘lish prinsipi ustuvor bo‘lgani uchun, turli qatlamlar va e’tiqoddagilar bo‘lishiga qaramay, ahillik mavjud... qayerda tenglik hukmron bo‘lsa, o‘sha yerda hukumat xolis qarorlar qabul qiladi, xalq ommasi esa soliqlarni o‘z ixtiyori bilan to‘laydi... Amaldorlarning ko‘pligi mamlakatga ziyon keltiradi va sarf-xarajatlarni ko‘paytiradi, taxtga tayanch bo‘ladigan, uni qora ommadan himoya qiladigan amaldorlar zarur... davlatda qancha qashshoqlar bo‘lsa, isyonga moyillar ham shuncha bo‘ladi”[2,379-382]. Ushbu falsafiy-kratologik fikrlar lavozimning inson tabiatiga, xatti-harakatlariga ham ijobiy, ham salbiy ta’sir etishini tasdiqlaydi. Aslida u davlat boshqarishi, siyosiy faoliyatning xarakteri va talablari bilan bog‘liqdir. Faylasuf hukmdorning, davlat boshlig‘ining moddiy manfaatlari uchun xizmat qiladigan amaldorlardan ko‘ra, osoyishta, ammo o‘rtamiyona yashayotgan oddiy xalqqa tayanishi ishonchliroqdir, degan fikrni bildiradi. Agar davlatga qarshi guruhlar, partiyalar, uyushmalar bo‘lsa, boshqarishda ularni bir-birlariga qarshi qo‘yish, gij-gijlash orqali zaiflashtirish “yomon bo‘lmagan san’at”dir. Ba’zan esa davlat boshlig‘ining noo‘rin yoki haqoratomuz bir so‘zi ham davlat boshqarishiga qarshi kimsalar uchun isyonga sabab bo‘lishi mumkin.

F.Bekonning falsafiy-kratologik va siyosiy-huquqiy qarashlari uning “Yangi Atlantida” asarida yorqin o‘z aksini topgan. Atlantika okeani ichidagi fantastik, xayoliy tartiblarga qurilgan bu shahar Platonning ideal shahar, Forobiyning fozil odamlar shahri, Ibn Sino, Beruniy, Ibn Rushdning baxtli

hayot haqidagi hikoyalarini esga soladi. F.Bekon fantastik shahri ingliz absolyutizmini ulug‘lashga, ideallashtirishga qurilgan. U oroldagi siyosiy hayotni, davlat boshqarishini boshqa tuzumlar ta’siridan asrashga, qo‘riqlashga intiladi, “Yangi Atlantika” orol davlati Ustaviga ko‘ra, undagi kishilarning hayotdan maqsadi barcha narsalarning haqiqiy boisini topish, shu tarzda odamnig tabiat ustidan hokimligini ta’minlashdir. Shu niyatda orol odamlari turli chuqurlikdagi suv osti va yer ostidagi narsalarni va tabiiy topilmalarni o‘rganadi, daraxt va mevalar urug‘larining yangi-yangi navlarini ixtiro qiladi va hokazo. Ularning o‘ziga xos bayramlari, idora usullari, bir-biriga itoat etadigan boshqarish pog‘onalari mavjud. Xullas, F.Bekonning “Yangi Atlantika” asari chiroyli hikoyaga o‘xshasa-da, faylasufning falsafiy-kratologik va siyosiy-huquqiy qarashlarini utopik model sifatida ifoda etadi. O‘sha davrdagi Angliyada davlat tuzilishi va boshqarishiga oid konstitutsion g‘oyalar faylasuf merosida ziddiyatli fikrlar tarzida keladi. U baxtli kishilar yashaydigan orol-davlatni ko‘pchilik, “Salomon uyi” xalqi tomonidan qabul qilingan Ustav (aslida Konstitutsiya) bilan boshqarilishini ma’qullaydi [2,485-518].

XULOSA. XVIII-X1X asrlarda Angliya hukumati va davlat boshqarishida konstitutsionalizm konstitutsion monarxiyani mustahkamlash va parlament boshqaruvini, uning boshqarish imkoniyatlarini kengaytirish sari bordi. Parlamentarizm qirol hokimiyatini chegaralash va parlament boshqaruvini kengaytirish siyosati sifatida tarixga kirdi. Gap shundaki, qirol bilan parlament, konstitutsion monarx bilan parlament tasdiqlaydigan “mas’ul hukumat” o‘rtasidagi munosabatlar biror akt, hujjat, konstitutsion norma bilan rasmiylashtirilmagan. Ammo ular o‘rtasida konsensus, yozilmagan kelishuv, “konvensional normalar” nomini olgan bitimlar yuzaga keldiki, mazkur tajriba qonunchilik organiga ham, ijro hokimiyatiga ham birdek tushunarli edi. “Qirol shohlik qiladi, lekin boshqarmaydi”, degan prinsip monarxni davlat hokimiyati organi sifatida tan oldi, ammo hukumat va barcha boshqarish ishlari parlament (quyi palata va lordlar palatasi) yoki “partiyaviy boshqarish” qo‘liga o‘tdi. Sud tizimida o‘tkazilgan islohotlar esa ularning mustaqilligini ta’minlashga qaratildi. Shu tariqa Angliyada “yozilmagan konstitutsionalizm”, lekin parlament tomonidan tayinlanadigan hukumat, boshqarish organi mamlakatni idora etadigan, huquqiy adabiyotlarda “vestminster modeli” deb atalgan tizim shakllandi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Бэкон Ф. Сочинения в двух томах. Том 1. - Москва: Мысль, 1977. С. 8-9
2. Бэкон Ф. Сочинения в двух томах. Том 2. - Москва: Мысль, 1978. С.373.
3. Депенхойер О. Функции конституции // “Сравнительное Конституционне Обозрение”, 2021, №1. С.56;
4. Herrshaftsvertrage. Wahlkapitulation, Fundamentalgesetze / R. Verhaus (Hrsg). Wien: Bohlau, 1977; Depenheuer O. Commentar zum Grundgezetz / Munchen: Vahien, 2010. Rn. 80 ff.
5. Страшун Б.А. Конституционализм: идеал. Реальность и возможные перспективы // Сравнительное конституционное обозрение. 2011, № 5. С.43.
6. История государства и права зарубежных стран. Часть 2. -Москва: НОРМА ИНФРА М., 2001. С.2).
7. Depenheuer O., Graberwarter Ch. Verfassuhgstheorie. Tubingen: Mohr Sieheck, 2010.
8. Kurbanbayeva, M. (2024). Fuqarolik jamiyati g‘oyalarining milliy davlatchiligimizdagi o‘rni. Tamaddun nuri jurnali, 7(58), 247-250.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 140.8

GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA MILLIY QADRIYATLARNI SAQLASH VA YOSHLARDA MADANIY O‘ZLIKNI HIMOYA QILISH

Xayridinov Abbosxon Anvarovich, Ichki ishlar vazirligi Toshkent shahar 2-son akademik litseyi maxsus fanlar o‘qituvchisi, podpolkovnik

PRESERVING NATIONAL VALUES AND PROTECTING CULTURAL IDENTITY IN YOUTH AMID GLOBALIZATION

Hayridinov Abboskhon Anvarovich, Special Sciences Teacher at the Tashkent City 2nd Academic Lyceum of the Ministry of Internal Affairs, Lieutenant Colonel

СОХРАНЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ И ЗАЩИТА КУЛЬТУРНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ МОЛОДЕЖИ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Хайридинов Аббосхон Анварович, преподаватель специальных дисциплин Ташкентского академического лицея №2 Министерства внутренних дел, подполковник

https://orcid.org/0009-0003-1661-5472
e-mail: academicaget6767@gmail.com

Annotatsiya: Globalizatsiya jarayoni dunyo davlatlari o‘rtasidagi iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy aloqalarni kuchaytirib, madaniy chegaralarni yanada ochiqroq qilmoqda. Ushbu jarayon natijasida turli madaniyatlar o‘zaro ta’sirga kirishib, ba’zida milliy qadriyatlar yo‘qolib ketish xavfi ostida qoladi. Ayniqsa, yoshlar ommaviy madaniyatning kuchli ta’siri ostida qolmoqda. Shu sababli, globalizatsiya davrida milliy qadriyatlarni saqlash va yoshlarda madaniy o‘zlikni himoya qilish dolzarb masala sifatida ko‘rib chiqilishi kerak.

Kalit so‘zlar: globalizatsiya, milliy qadriyatlar, madaniy o‘zlik, yoshlar tarbiyasi, ommaviy madaniyat, milliy madaniyat, madaniy meros, identifikatsiya, madaniy almashinuv, global madaniyat, oila va tarbiya, ta’lim tizimi, texnologik taraqqiyot, ma’naviyat, media savodxonlik.

Annotation: The process of globalization strengthens economic, cultural, and social relations between countries, making cultural boundaries more open. As a result, different cultures interact, and sometimes, national values face the risk of being lost. This is especially true for young people, who are strongly influenced by mass culture. Therefore, in the era of globalization, preserving national values and protecting cultural identity in youth should be considered a critical issue.

Key words: globalization, national values, cultural identity, youth education, mass culture, national culture, cultural heritage, identification, cultural exchange, global culture, family and education, educational system, technological progress, spirituality, media literacy.

Аннотация: Процесс глобализации усиливает экономические, культурные и социальные связи между странами, делая культурные границы более открытыми. В результате различные культуры взаимодействуют, и иногда национальные ценности оказываются под угрозой исчезновения. Это особенно актуально для молодежи, которая находится под сильным влиянием массовой культуры. Поэтому в эпоху глобализации сохранение национальных ценностей и защита культурной идентичности молодежи должны рассматриваться как важная задача.

Ключевые слова: глобализация, национальные ценности, культурная идентичность, воспитание молодежи, массовая культура, национальная культура, культурное наследие, идентификация, культурный обмен, глобальная культура, семья и воспитание, система образования, технологический прогресс, духовность, медиа грамотность.

KIRISH. Milliy qadriyatlarning ahamiyati. Milliy qadriyatlar har bir millatning tarixiy, madaniy va ma'naviy merosidir. Ular xalqning o'zligini anglashida, madaniy va ma'naviy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonning boy tarixi, an'analari va urf-odatlari yoshlarga qadimiy madaniyatni anglash va qadrlash imkonini beradi. Shuningdek, milliy qadriyatlar yoshlar ongida vatanparvarlik, oila hurmati, ahillik va mehnatsevarlik kabi ma'naviy tushunchalarini shakllantiradi.

Globalizatsiya va uning ta'siri. Globalizatsiya natijasida butun dunyoda bir xil madaniy standartlar paydo bo'lishi kuzatilmoqda. Ommaviy axborot vositalari, internet va zamonaviy texnologiyalar yoshlarning kundalik hayotiga chuqur kirib kelib, ularning madaniy ongini shakllantirishda asosiy rol o'ynamoqda. Shu bilan birga, g'arb madaniyatining ko'plab elementlari – moda, musiqa, kino va ko'ngilochar dasturlar yoshlar orasida keng tarqalmoqda. Bu jarayon yoshlarda milliy madaniyat va qadriyatlarga nisbatan befarqlikni kuchaytirishi mumkin.

MUHOKAMA. Milliy qadriyatlarni saqlash yo'llari. Globalizatsiya sharoitida milliy qadriyatlarni saqlash uchun bir nechta asosiy yo'nalishlarni belgilab olish zarur:

Ta'lim tizimida milliy qadriyatlarni mustahkamlash. Maktab va oliy ta'lim dargohlari yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analar bilan tanishtirishda asosiy vosita hisoblanadi. Milliy madaniyat va tarixga oid fanlar, o'quv dasturlarida milliy qadriyatlar mavzusining keng qamrab olinishi yoshlarda milliy o'zlikni rivojlantiradi.

Madaniy-ma'rifiy tadbirlar va ommaviy axborot vositalarining roli. Madaniy tadbirlar, ko'rgazmalar, xalq sayillari va milliy bayramlar yoshlarni milliy qadriyatlar bilan yaqindan tanishtirishning muhim vositasi hisoblanadi. Shu bilan birga, ommaviy axborot vositalari va internetdagi milliy mazmundagi dasturlar ham katta ahamiyatga ega.

Ommaviy madaniyatning ta'siriga qarshi immunitet shakllantirish. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: Yoshlarni har qanday axborotni tanqidiy qabul qilishga o'rgatish.

Ma'naviy va jismoniy salomatlik: Sport va san'at bilan shug'ullanish orqali zararli odatlardan chetlashish.

Ijobiy rol modellari: Milliy qahramonlar, san'atkorlar va olimlarning hayoti va faoliyati bilan tanishtirish.

Texnologiyalarning milliy qadriyatlarga ta'siri. Zamonaviy texnologiyalar, xususan, ijtimoiy tarmoqlar va internet milliy qadriyatlarni saqlashda ikkiyoqlama ta'sir ko'rsatishi mumkin: bir tomondan milliy madaniyatni targ'ib qilish imkonini beradi, ikkinchi tomondan, global madaniyatning ommaviy axborot vositalari orqali yoshlar ongiga chuqur singib ketishiga sabab bo'ladi. Maqolada bu ikki tomonlama jarayonni tahlil qilish mumkin.

Milliy qadriyatlarni targ'ib qilish uchun milliy kontent yaratuvchilarni qo'llab-quvvatlash zarur.

Global madaniyat va milliy madaniyatning uyg'unligi. Ba'zi hollarda global va milliy madaniyatlar o'rtasida qarama-qarshilikdan ko'ra, uyg'unlikka erishish mumkin. Masalan, milliy san'at va an'analarni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirib, milliy merosni yangi avlodga yetkazish.

Misol: O'zbek raqs san'ati va musiqa janrlarini zamonaviy musiqiy texnologiyalar yordamida butun dunyoga tanitish.

Global ma'naviyat va milliy qadriyatlarning bir-biriga ta'siri. Ba'zi milliy qadriyatlar global darajadagi ma'naviyat bilan hamohangdir. Masalan, mehnatsevarlik, oila hurmati kabi qadriyatlar ko'plab millatlar orasida umumiydir. Ushbu jihatdan qaraganda, globalizatsiya milliy qadriyatlarni zaiflashtirmasdan, aksincha, ularni kuchaytirishi ham mumkin.

Misol: Qanday qilib yoshlar global ma'naviy qadriyatlar asosida milliy madaniyatni boyitishi mumkinligi haqidagi fikrni rivojlantirish.

Madaniy diplomatiya va xalqaro hamkorlik. Madaniy diplomatiya milliy qadriyatlarni xalqaro darajada targ'ib qilishda muhim vosita hisoblanadi. O'zbekistonning madaniy diplomatiyadagi o'rni va bu orqali milliy

TAMADDUN NURI

qadriyatlarni dunyoga tanitish imkoniyatlarini tahlil qilish.

Misol: Turli xalqaro madaniy festival va forumlarda O‘zbekistondagi milliy qadriyatlarning namoyish etilishi va dunyo hamjamiyatining e’tiborini tortish.

Milliy qadriyatlar va iqtisodiy rivojlanish. Milliy qadriyatlar va iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rib chiqish mumkin. Masalan, milliy hunarmandchilik va an’anaviy kasb-hunarlarni rivojlantirish orqali iqtisodiyotni kuchaytirish imkoniyati.

Misol: O‘zbek milliy hunarmandchiligining eksporti va turizm orqali milliy qadriyatlarni butun dunyoga tanitish.

Ijtimoiy tenglik va milliy qadriyatlar. Ijtimoiy tenglik va adolat kabi qadriyatlar ko‘plab millatlarning milliy qadriyatlari orasida uchraydi. Yoshlarni tenglik va ijtimoiy adolat ruhida tarbiyalash milliy qadriyatlar va globalizatsiya o‘rtasidagi muvozanatni saqlashda yordam beradi.

Taklif: Milliy qadriyatlar asosida gender tengligi va ijtimoiy tenglikni rivojlantirish yo‘llarini ko‘rib chiqish.

Milliy qadriyatlar va ekologiya. O‘zbek xalqining tabiatga nisbatan hurmati va uni asrash qadriyatlari global ekologik inqiroz davrida juda dolzarbdir. Yoshlar orasida ekologik tarbiya va tabiatni asrash qadriyatlarini rivojlantirish global muammolarga milliy qadriyatlar bilan yechim topishning bir ko‘rinishi bo‘lishi mumkin.

Misol: O‘zbekistonda ekologik harakatlar va ularning milliy qadriyatlar bilan bog‘liqligini tahlil qilish.

Milliy sport va yoshlarning jismoniy tarbiyasi. Milliy sport turlari ham milliy qadriyatlarning bir qismi bo‘lib, yoshlar tarbiyasida muhim o‘rin tutadi. Kurash kabi milliy sport turlari orqali nafaqat jismoniy tarbiya, balki ma’naviy qadriyatlar ham tarbiyalanadi. Milliy sport turlarini targ‘ib qilish orqali yoshlarni sog‘lom turmush tarziga o‘rgatish va ularni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash mumkin.

Taklif: Milliy sport turlari bo‘yicha maktab va universitetlarda musobaqalar o‘tkazish, bu orqali yoshlarning milliy qadriyatlarga bo‘lgan qiziqishini oshirish mumkin.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodiyoti va yoshlar tarbiyasidagi o‘rni. O‘zbek xalq og‘zaki ijodiyoti (ertaklar, maqollar, dostonlar) milliy qadriyatlarning eng qadimiy shakllaridan biri bo‘lib, yoshlar tarbiyasida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu ijodiyotning yoshlarga singdirilishi, ularni o‘z xalqining qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalaydi.

Misol: O‘zbek xalq dostonlarida yurtparvarlik, sadoqat, mehnatsevarlik kabi qadriyatlar aks ettirilganini tahlil qilish.

Milliy kiyim-kechak va an’anaviy hunarmandchilik. Milliy kiyim-kechak va an’anaviy hunarmandchilik yoshlar ongida milliy o‘zlik va qadriyatlarni saqlashda muhim omil bo‘lishi mumkin. Zamonaviy modada milliy elementlarni saqlab qolish, hunarmandchilik mahsulotlariga bo‘lgan qiziqishni oshirish orqali milliy madaniyatni yoshlar orasida kengroq targ‘ib qilish mumkin.

Misol: O‘zbek milliy kiyimlarini zamonaviy dizaynga moslashtirib ishlab chiqarish va ular orqali milliy o‘zlikni saqlab qolish.

Iqtisodiy globallashuv va milliy qadriyatlar. Iqtisodiy globallashuv milliy iqtisodiyotga ham ta’sir etadi. Bunda milliy qadriyatlarni iqtisodiy rivojlanish bilan qanday uyg‘unlashtirish mumkin. Milliy hunarmandchilikni iqtisodiy sektor sifatida rivojlantirish, milliy mahsulotlarni eksport qilish orqali milliy qadriyatlarni saqlashga hissa qo‘shish mumkin.

Taklif: O‘zbek xalqining hunarmandchiligi va turizm orqali iqtisodiy rivojlanishni kuchaytirish va milliy qadriyatlarni ommalashtirish yo‘llarini ko‘rib chiqish.

Yoshlar siyosiy tarbiyasi va milliy qadriyatlar. Yoshlarni siyosiy tarbiyalash jarayonida milliy qadriyatlarni shakllantirish dolzarbdir. Yoshlar siyosiy faol bo‘lishi bilan birga, milliy qadriyatlarga sodiqlikni saqlashi lozim. Siyosiy jarayonlarda ishtirok etish orqali yoshlarning milliy manfaatlarni himoya qilish qobiliyatini rivojlantirish mumkin.

Misol: Yoshlar siyosiy partiyalar va harakatlarda ishtirok etib, milliy qadriyatlarni himoya qilish yo‘llarini ko‘rib chiqish.

Milliy bayramlar va tadbirlarning tarbiyaviy ahamiyati. Milliy bayramlar (Navro‘z, Mustaqillik kuni) va tadbirlar yoshlar ongida milliy qadriyatlarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu bayramlarni nishonlash va targ‘ib qilish orqali milliy qadriyatlar avlodlarga uzatiladi.

Taklif: Milliy bayramlarni yoshlar orasida kengroq nishonlash va ularning milliy qadriyatlar

ruhida tarbiyalanishiga qaratilgan tadbirlarni ko‘paytirish.

XULOSA. Globalizatsiya sharoitida milliy qadriyatlarni saqlash va yoshlarda madaniy o‘zlikni himoya qilish jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun muhimdir. Bu yo‘lda ta’lim tizimi, ommaviy axborot vositalari, oila va jamiyat birgalikda harakat qilishi zarur. Faqat shunda biz yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalab, ularning global dunyoda o‘z o‘rnini topishlariga yordam bera olamiz.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

2. Abdulla Qodiriy. O‘tkan kunlar.

3. YUNESCO madaniy merosni saqlash bo‘yicha xalqaro dasturlari va ularning O‘zbekistondagi amalga oshirilishi.

4. Kurbanbayeva, M. (2024). O‘zbek xalq og ‘zaki ijodiyotida adolatli jamiyat to‘g‘risidagi ilk tasavvurlar ifodasi. Tamaddun nuri jurnali, 8(59), 78-81.

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 323 (575.1) 316.72

YANGI O‘ZBEKISTONDA BAG‘RIKENGLIK MADANIYATINING MOHIYATI

Xoliqov Yunus Ortiqovich, Samarqand davlat chet tillar instituti, “Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari” kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

СУТЬ КУЛЬТУРЫ ТОЛЕРАНТНОСТИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Холиков Юнус Ортикович, доцент кафедры “Гуманитарные науки и информационные технологии” Самаркандского государственного института иностранных языков, доктор философии по философским наукам (PhD)

THE ESSENCE OF THE CULTURE OF TOLERANCE IN THE NEW UZBEKISTAN

Kholikov Yunus Ortiqovich, Samarkand State Institute of Foreign Languages Humanities and Information Associate Professor of the Department of Technologies, Doctor of Philosophy (PhD)

https://orcid.org/0009-0006-5361-3224
e-mail: xolikovyunus88@gmail.com

Annotatsiya: Yangi O‘zbekistonda madaniyatning shakllanishi va namoyon bo‘lishi qat’iy va o‘rnatilgan modelga aylandi. Barqarorlikni saqlash bag‘rikenglik madaniyatiga xos xususiyat bo‘lishi bilan birga, madaniyatlararo muloqot madaniyatini rivojlanishiga ham yordam berish jarayonlari yoritilgan. Jamiyat taraqqiyoti, ongning yangilanishi odamlarning madaniyatlararo madaniyatga e’tiborini oshiradi.

Kalit so‘zlar: siyosiy, ijtimoiy, madaniyat, bag‘rikenglik, xalq, modernizatsiya, urf-odat, tinchlik, muloqot, modernizatsiya, sabr, chidamlilik. **Abstract:** The formation and manifestation of culture in new Uzbekistan has become a fixed and established model. While maintaining stability is a feature of the culture of tolerance, the processes of helping to develop the culture of intercultural communication are highlighted. The development of society, the renewal of consciousness increases people's attention to intercultural culture.

Key words: political, social, culture, tolerance, people, modernization, tradition, peace, communication, modernization, patience, endurance.

Аннотация: Формирование и проявление культуры в новом Узбекистане стало устоявшейся моделью. Хотя сохранение стабильности является особенностью культуры толерантности, выделены процессы, способствующие развитию культуры межкультурного общения. Развитие общества, обновление сознания повышает внимание людей к межкультурной культуре.

Ключевые слова: политическая, социальная культура, толерантность, народ, модернизация, традиция, мир, общение, модернизация, терпение, выносливость.

KIRISH. Bu mavzu Yangi O‘zbekiston jamiyatini siyosiy madaniyat nuqtayi nazaridan o‘rganadi.Qadim zamonlardan to hozirgi davrgacha bo‘lgan rivojlanish jarayonida ushbu milliy madaniyat tarkibidagi bag‘rikenglik ruhi, biz bilamizki, insonga tegishli bo‘lgan qadriyat tuzilmasini namoyon etadi. Ijtimoiy va siyosiy hayotda insonlar o‘zaro munosabatga kirishishda bag‘rikenglik madaniyatisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bugungi globallshuv davrida Yangi O‘zbekiston jamiyati XXI asrga kirganida, an’anaviy bag‘rikenglik ruhi xalqning modernizatsiya jarayoniga mos kelishi uchun murakkab ijtimoiy integratsiya jarayonini talab qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Bag‘rikenglik insonparvarlik qadriyatlari, fanatizm va shovinizmning turli shakllari o‘rtasidagi qarama-qarshilik sifatida Yevropa falsafasi tarixida mavjud bo‘lgan. Jumladan, D.Lokk tolerantlikni talqin qilishda liberal yondashuvni ta’kidlagan. Uning “Bag‘rikenglik to‘g‘risida” risolasini, shuningdek, I.Kantning “Abadiy tinchlikka” asarini, L.N.Tolstoyning “Vatanparvarlik yoki tinchlik” asarini alohida qayd etish mumkin.

“Tolerantlik” haqida tadqiqot ishlari olib borgan G.V.Bezlyuleva, G.M.Shelamova, J.J.Russo, R.Myullerson, K.Popper, B.Spinoza, D.Turiman, L.Drobijeva, A.Karnishev U.Altermatt B.Freyxof, G‘.Mirzayev, I.Saifnazarov, A.Obidov, F.R.Abdurahmonov, M.A.Nurmatova, N.B.Abdullayeva, E.Qodirov, A.Ochildiyev, R.H.Murtazayeva, O.P.Musayev, C.H.Yusupova, A.Hasanov, B.K.Iminov va boshqalar uning turli tillarda har xil mazmunga ega ekanligini izohlaydilar. Jumladan, lotinchada bardoshlilik; inglizchada narsa yoki shaxslarni qanday bo‘lsa, shundayligicha qabul qilish ko‘nikmasi va uni qabul qilishga tayyorlik; fransuzchada boshqa insonning erkinligi, uning fikrlarini hurmat qilish; xitoychada boshqalarga munosabatda olijanoblikni namoyon qilish sifatida; arabchada kechirish, kamtarlik, yumshoqlik, hamdardlik, boshqalarga nisbatan sabr-bardoshlilik, oliyjanoblik; ruschada o‘zga e’tiqod, fikrlar, xulq-atvorga nisbatan sabrlilik; o‘zbek tilida bag‘rikenglik, sabr-bardoshlilik sifatida izohlanadi[1–B.58].

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Bu ishda tahlil, sintez, induksiya va deduksiya, birlamchi manbalarni qiyosiy tahlil qilish kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR. Bag‘rikenglik an’anaviy o‘zbek madaniyatining asosiy ruhlaridan biri bo‘lib, uning madaniy yoki mafkuraviy kelib chiqishi qadimgi zardushtiylik diniga borib taqaladi. Yangi O‘zbekistonning bag‘rikenglik madaniyatining mohiyatini o‘rganar ekanmiz, Turon bag‘rikenglikka urg‘u berishda eng ko‘zga ko‘ringanidir. Shu asosda bugungi Yangi O‘zbekistonda bag‘rikenglik madaniyati demokratiya asosida qurilgan bag‘rikenglik ruhi an’anaviy siyosiy madaniyat mantiqiy asoslaridan tubdan farq qiladi. Bag‘rikenglik madaniyati ko‘p millatli jamiyat hayotida millatlararo va konfessiyalararo bag‘rikenglik tamoyillarining faol rivojlanishi va faoliyat ko‘rsatishini anglatadi. Zamonaviy globallashuv sharoitida bag‘rikenglik madaniyati ko‘p jihatdan modernizatsiya jarayonlariga bog‘liq holda namoyon bo‘lmoqda. Ya’ni, bu fanatizmdan chekinib konstruktiv muloqot o‘rnatishgacha ijobiy rivojlanish dinamikasi hisoblanadi. Modernizatsiya mevasi bo‘lgan muloqotga asoslangan bag‘rikenglik madaniyatining zamonaviy modeli ko‘p millatli, ko‘p dinli jamiyatning jadal ijtimoiy-madaniy rivojlanishi uchun eng samarali ekanligini dunyo tajribasi yaqqol namoyon etdi.

Bag‘rikenglik madaniyati bu modernizatsiya qilinadigan ko‘p madaniyatli jamiyat subyektlarining bag‘rikenglik tamoyillarini faol joriy etish, rivojlantirishni va tajovuzning turli shakllariga qarshi kurashishning samarali usuli sifatida ma’lum darajada murosasizlik mavjudligini anglatuvchi kommunikativ ochiqlik madaniyati[2].

Yuqoridagi yondashuvlarda bag‘rikenglikning asosini sabr va chidamlilik tashkil etishi haqida qarashlar mavjud. Ammo, bag‘rikenglikning sabr va chidamdan farqli jihatlari ham mavjud. Sabr, ko‘pincha, og‘riqni, zo‘ravonlikni yoki boshqa salbiy ta’sirni boshdan kechirayotgan odam tomonidan his-tuyg‘u yoki harakatni ifodalasa-da, bag‘rikenglik boshqalarning hurmatini yoki tan olinishini, hukmronlik va zo‘ravonlikni rad etishni o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, sabr-toqat tushunchasi bilan ko‘plab manbalar tomonidan aniqlangan bo‘lsa ham, bag‘rikenglik tushunchasi yanada kengroq mazmunga ega.

Bag‘rikenglik bu aqlli kishilarning imkoniyatidir, ular muloqot va fikrlar xilma-xilligi orqali haqiqat yo‘lida olg‘a siljishlariga shubha qilmaydi. Bundan tashqari, bag‘rikenglikning asosi bu boshqa odamni xuddi u kabi qabul qilishda, boshqa nuqtayi nazarni hurmat qilishda, siz ulashmaydigan narsada cheklanishda, boshqa millat va din vakillarining urf-odatlari, qadriyatlari va madaniyatini tushunishda va qabul qilishda namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, bag‘rikenglik har qanday qarashlar va harakatlarga befarqlikni anglatmaydi. Masalan, irqchilik, zo‘ravonlik, tahqirlash, manfaatlar va inson huquqlarining buzilishiga dosh berish axloqsiz hisoblanadi.

O‘zbekistonni yanada rivojlantirishning “Harakatlar strategiyasi” ustuvor yo‘nalishlari qatoriga bag‘rikeng shaxsni tarbiyalash kiradi[3]. Bag‘rikenglik ijtimoiy muhitning muhim sharti

sifatida qaraladi. Bugungi kunda davlatning turli darajalarida bag‘rikeng shaxsni shakllantirish va turli xil murosasizlikka qarshi kurashish bo‘yicha dasturlar qabul qilinmoqda[4]. Shunday qilib, “bag‘rikenglik” tushunchasi O‘zbekiston jamiyatining leksikoniga allaqachon kirib borgan va mamlakatimiz aholisining katta qismi buni so‘zsiz qabul qiladi va tolerantlik jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanishi kerak.

Binobarin, bu oddiy tasodifiy madaniy hodisa emas, balki hayotiylikning namoyonidir. Bu, shuningdek, Yangi O‘zbekiston madaniyatining mislsiz hayotiyligining ichki asosidir. O‘zbek an’anaviy madaniyati keng, chuqur va uzoq tarixga ega. Uning uzoq muddatli rivojlanish jarayonida xalqning ijtimoiy amaliyotini ilgari surish va mutafakkirlarni umumlashtirish va takomillashtirish tufayli asta-sekin bir qator mukammal an’anaviy madaniyatlar shakllandi. Bu ajoyib an’anaviy madaniyatlar, albatta, sivilizatsiya va madaniyatning umumiy xususiyatlariga ega, ular O‘zbekistonning o‘ziga xos ijtimoiy va tarixiy sharoitlarida o‘sib chiqqan va shuning uchun o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Hozirgi jamiyatda odamlar o‘rtasidagi muloqotga asoslangan bag‘rikenglik tushunishni talab qiladi. Bag‘rikenglik katalizator bo‘lib, to‘siqlarni bartaraf qiladi, tushunmovchiliklarni kamaytiradi va nizolarni hal qiladi. Bag‘rikenglik bu munosabatlarni tartibga soladigan, ishqalanishni kamaytiradigan va to‘qnashuvlarning oldini oladigan axloqiy jarayon hisoblanadi. Bag‘rikenglik odamlarga qulay, iliq, ishonchli va dunyoning go‘zalligini his etishga yordam beradi. Bag‘rikenglik olijanob shaxs tarbiyasi, komil inson xulqi, umuminsoniy qadriyat, sharq olimlarilning xulq-atvori. Boshqalarga nisbatan ochiq va bag‘rikeng bo‘lish uchun biz o‘zaro tushunish, o‘zaro kelishuv, o‘zaro hurmat va o‘zaro sevgiga erishishimiz kerak. O‘zaro kechirimlilik bu bir-birini tushunish va shaxsiy g‘azablarga e’tibor bermaslikdir. Har bir insonning his-tuyg‘ulari va qadr-qimmati bor, ular ikkalasi ham boshqalarning e’tiboriga muhtoj va boshqalarni tushunishga majburdirlar. O‘zaro tushunish bilan biz xotirjam ruhiy holatni, bag‘rikenglik xarakterini va bag‘rikenglik tuyg‘usini saqlab qolishimiz mumkin. “Bag‘rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O‘zbekistonda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilandi. Bularning barchasi hayotda o‘z isbotini topdi”[5 – B. 295], deb ta’kidlaydilar.

Biz bilamizki, bizning diyorimizda paydo bo‘lgan madaniyatning bag‘rikenglik xususiyati doimo xalqqa yo‘naltirilgan insonparvarlik bo‘lib, u doimo asosiy xususiyat hisoblangan. Odamlarga yo‘naltirilgan yondashuv odamlarga barcha masalalarni ko‘rib chiqishning boshlang‘ich nuqtasi va maqsadi sifatida qarashni anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, an’anaviy o‘zbek madaniyatida teosentrizm ustun mavqega ega emas, ammo insonparvarlik o‘zbek madaniyatining o‘zagi hisoblanadi. Shuning uchun bag‘rikenglik xarakteri va bag‘rikenglikni anglash O‘zbek madaniyatining asosiy xususiyati hisoblanadi. Faqat madaniy hayajon va bag‘rikenglik madaniyatni kuchli hayotiylikka olib kelishi mumkin. Bag‘rikenglik madaniyati chuqur gumanistik tarix va milliy ruhni o‘z ichiga oladi va insoniyat sivilizatsiyasining muhim qismidir. Bag‘rikenglik madaniyatning mohiyatini qanday ifodalash va yetkazish zamonaviy Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining oldida turgan muhim masalaga aylandi. Agar bag‘rikenglik madaniyati o‘zining jozibadorligini ko‘rsatmoqchi bo‘lsa, u Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida bag‘rikenglik madaniyatini asosiy yo‘nalish sifatida qabul qilishi, an’anaviy madaniyatni zamonaviy iboralar bilan o‘zlashtirishi va yangilashi, o‘tmishdan hozirgi kun uchun foydalanishi va Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti uchun zamonaviy madaniyatlararo muloqotga asoslangan bag‘rikenglik madaniyatidan foydalanishi va xalqlar o‘rtasidagi madaniy almashinuvni kuchaytirishi kerak. Uning ahamiyati nafaqat bag‘rikenglik madaniyatini namoyon etishda, balki bag‘rikenglik madaniyatining hayotiyligini zamonaviy madaniyatlararo muloqot tarzida yetkazishda, badiiy va insonparvarlik ruhini qayta tiklashda hamdir.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy sivilizatsiya ma’nosida bag‘rikenglik erkinlik ruhi bilan boshqariladi va bag‘rikenglik asosi jamiyatning har bir a’zosining tengligi va muxtoriyatidir. Ya’ni, jamiyatning har bir a’zosi fuqaro sifatida muqaddas va daxlsiz, qonun bilan samarali kafolatlangan huquq va majburiyatlarga ega. Inson sifatida uning qadr-qimmati va subyektivligi muqaddas fazilatlarga ega bo‘lib,

asosiy qadriyat bilan himoyalangan tizimga texnik xizmat ko‘rsatish. Erkinlik va qonun ustuvorligiga teng e’tibor qaratilayotgan bunday sharoitda shaxslar o‘rtasida, guruhlar o‘rtasida, shaxslar va guruhlar o‘rtasida, fuqarolar bilan tuzum va mamlakat o‘rtasidagi bag‘rikenglik va totuvlik adolat va adolatni to‘liq o‘zida mujassamlashtira oladi va shu bilan birga, U amaliy ishlash imkoniyatiga ega.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Безюлева, Г.В. Толерантность: взгляд, поиск, решение / Г.В. Безюлева, Г.М. Шеламова. – М., 2003. – С. 58.
2. Артемьева В.А., Данилова М.В. Анализ понятия “толерантность” в современной научной литературе // Молодой ученый. – 2015. – №2. – С. 471-474. – URLhttps: // moluch.ru/archive/82/14888/
3. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони.//Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.
4. 2018 йил 16 апрелдаги Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг «Диний-маърифий соҳа фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони, 2019 йил 4 сентябрдаги “Диний-маърифий соҳа фаолиятини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори асосида дастурлар қабул қилинган.
5. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 295.
6. Kholikov, Yunus Ortiqovich. “Moral aspects of national ethnic in bringing up young generation with generosity”. Theoretical & Applied Science 7 (2019): 18-21.
7. Холиқов, Ю.О. (2022). Бағрикенглик маданиятнинг моҳияти ва унинг ахлоқий асослари. Journal of Integrated Education and Research, 1(6), 17–21.
8. Xoliqov, Yunus Ortiqovich. “Yangi O‘zbekistonda bag‘rikenglikni rivojlantirishda millatlararo aloqalarning mohiyati”. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2. Special Issue 23 (2022): 764-774.
9. Ortiqovich, Xoliqov Yunus. “The importance of moral values in the development of a culture of tolerance in youth”. International Journal of Intellectual Cultural Heritage 1.3 (2021): 65-69.
10. Курбанбаева, М. (2024). Использование русских народных сказок в процессе изучения языка и формирования гуманизма у детей. Tamaddun nuri jurnali, 5(56), 520-522.

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 5690.090.45

ВЫРАЖЕНИЕ ВАЖНОЙ ИНФОРМАЦИИ О РОДЕ В АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ ПОСЛОВИЦАХ С ЗООКОМПОНЕНТАМИ

Уралова Айсулув Поян кызы, доцент Термезского университета экономики и сервиса, (PhD)

INGLIZ VA O‘ZBEK ZOOKOMPONENTLI MAQOLLARDA GENDER BO‘YICHA MUHIM MA’LUMOTLARNING IFODALANISHI

Uralova Oysuluv Poyan qizi, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotsenti, f.f.b.f.d. (PhD)

EXPRESSION OF IMPORTANT INFORMATION ABOUT GENDER IN ENGLISH AND UZBEK PROVERBS WITH ZOOCOMPONENTS

Uralova Aisuluv Poyan kizi, Termez University of Economics and Service, Associate Professor (PhD)

https://orcid.org/0001-0003-0214-0809
e-mail:
Uralova.oysuluv@gmail.com

Аннотация: *В данной работе рассматривались английские пословицы и поговорки и их узбекские эквиваленты, а также причины, вызывающие проблемы при переводе.*

Ключевые слова: *пословица, поговорка, анализ, сравнение, английский и узбекский народ.*

Annotatsiya: *Mazkur maqola tilshunoslik sohasida keng qo‘llaniladigan ingliz va o‘zbek zookomponentli maqollarda muhim ma’lumotlarning qo‘llanilishi haqida. Quyida bu haqida to‘liq ma’lumotlar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *tilshunoslik, termin, atama, terminologiya.*

Abstract: *This paper examined English proverbs and sayings and their Uzbek equivalents, as well as the causes that cause translation problems.*

Key words: *proverb, proverb, analysis, comparison, English and Uzbek people.*

ВВЕДЕНИЕ. Актуальность данной работы заключается в том, что употребление фразеологических единиц в разных языках, затрудняют понимание сказанного или прочитанного, так как такие единицы несут в себе положительные, нейтральные или отрицательные оттенки. Теоретической основой исследования послужили труды известных ученых: В.В.Виноградова, А.И.Смирницкого, Н.Н.Амосовой, А.В.Кунина и др. Не все ученые относят пословицы и поговорки к фразеологическим единицам. Однако такие исследователи, как А.В.Кунин, считают, что пословицы и поговорки должны изучаться в системе фразеологических единиц. Согласно квалификации А.В.Кунина, они относятся к коммуникативным фразеологическим единицам. Под пословицами обычно понимают афористически сжатые изречения с назидательным смыслом в ритмически организованной форме [4,с.176]. Пословица всегда является предложением. В отличие от фразеологических единиц других типов, пословицы часто бывают сложными предложениями. В контексте пословица может выступать в качестве самостоятельного предложения или части сложного предложения (например, пословица Dogs that put up many hares kill none — собаки, которые спугивают много зайцев, ни одного не поймают). Большинство пословиц — краткие, лаконичные высказывания: Dog does not eat dog — ворон ворону глаз не выклюет. Как показали приведенные выше примеры, эллипсис более распространен среди пословиц, чем среди каких-либо других типов фразеологических единиц. Длинные пословицы, то есть пословицы, состоящие более чем из десяти лексем, имеют тенденцию устаревать. Большинство длинных пословиц, зарегистри-

TAMADDUN NURI

рованных в «Оксфордском словаре пословиц», являются устаревшими. Понятие поговорки в современной фольклористике является неопределенным, включающим разные структурно-семантические типы устойчивых образных сочетаний слов. По существу, единственное, что объединяет эти различные сочетания слов, — это то, что они не являются пословицами, хотя близость тех и других в отдельных случаях отрицать не приходится [1,с.78]. В английской и американской лингвистической литературе также не проводится четкого разграничения между пословицей и поговоркой. При современном развитии теории фразеологии пользоваться понятием «поговорка» в том его широком понимании, как это принято в фольклористике, не актуально. Поговорки так же, как и пословицы, являются предложениями. Но у этих разрядов фразеологизмов имеются существенные различия в функциональном плане, так как поговоркам не свойственна директивная, назидательно-оценочная функция. Пословицы являются выражением народной мудрости, и для них характерна более высокая степень абстракции, чем для поговорок. Зооморфизмы в английском языке описывают внешность, характер и стиль поведения, профессиональную деятельность человека, его отношение к противоположному полу, семье, детям и к самому себе. Английский язык показывает человека как индивидуальность, личность, акцентируя внимание на таких положительных качествах, как состязательность, самостоятельность, дисциплинированность, трудолюбие, осуждая мошенничество, лень и недобросовестность. Обычно собака считается другом человека, первым животным, которого он приручил. Однако анализ материала показывает, что зооним «dog» чаще используется в английских фразеологизмах с отрицательной оценкой, выражая отрицательные эмоции, например: dog on it— «проклятье! Чёрт побери!»; to treat smb like a dog— «обращаться, как с собакой»; to kill like a dog — «убить как собаку»; die like a dog — «издохнуть, как собака» и т. п. Например: He complained that he would have to die there alone, like a dog. Негативное отношение и сильная неприязнь к кому-либо могут быть выражены следующими фразеологизмами: lazy dog— «лентяй»; (as) crooked as a dog's hind leg — «бесчестный, непорядочный»; dirty dog — «плохой человек, свинья, грязный подонок»; dog-poor — «гол как сокол»; dumb dogs are dangerous — «молчаливые собаки опасны» и т. п.

МЕТОДЫ И ДИСКУССИИ. Таким образом, зооним «dog» во фразеологизмах используется для усиления эмоциональной окраски. Однако есть фразеологизмы с зоонимом «dog», в которых прослеживается и положительная оценка, но их количество чрезвычайно мало: lucky dog — «счастливчик»; top dog — «хозяин положения, господствующая сторона»; jolly dog — «весельчак»; love me, love my dog — «кто гостю рад, тот и собачку его накормит» и т.п. Существуют фразеологизмы и идиоматические сложные слова, в которых прослеживается отсутствие оценки: dog-sleep — «чуткий сон, сон урывками»; to dog — «охранять, стоять на страже»; water dog — «бывалый моряк»; dogs of war — «ужасы войны»; shaggy-dog-story — «анекдот с бородой»; hot-dog — «сосиска»; dog-end — «бычок (сигареты)»; let sleeping dogs lie — «не буди лиха, пока лихо спит». Перевод фразеологических единиц, особенно образных, представляет значительные трудности. Это объясняется тем, что многие из них являются яркими, эмоционально насыщенными оборотами, принадлежащими к определенному речевому стилю и часто носящими ярко выраженный национальный характер. Особенно широко фразеологизмы используются в устной речи и в художественной литературе. При переводе устойчивых выражений большую роль играет контекст, в котором они употребляются. Н.Н.Амосова различает переменный и фиксированный контексты. Свободные словосочетания употребляются в переменном контексте, в то время как фразеологические единицы — в фиксированном контексте. Переводчику при переводе фразеологизма необходимо передать его смысл и отразить его образность, найдя аналогичное выражение в английском языке, и не упустив при этом из виду стилистическую функцию фразеологизма. Для многих английских фразеологических единиц характерны многозначность и стилистическая разноплановость, что осложняет их перевод на другие языки. Связанные с переводом проблемы рассматриваются по-разному, существуют различные методы перевода пословиц и поговорок с одного языка на другой. И это объяснимо: однозначного,

TAMADDUN NURI

стандартного решения здесь не может быть. На необходимость классификации фразеологических единиц, в том числе пословиц и поговорок, обращали внимание такие известные лингвисты, как Ш Бали, В.В.Виноградов, Б.А.Ларин, Н. М. Шанский, А.И.Смирницкий, Н.Н.Амосова, А.В.Кунин и другие. Развитие многозначности зоонимов осуществляется путём переноса значения и названия.

РЕЗУЛЬТАТЫ. Исторически вторичные значения являются переносными, часто и фигуральными, но многие из них в настоящее время уже не осознаются в своих исходных качествах. Семантическое своеобразие этих сращений состоит в том, что в них всегда доминирует зоосемический компонент, выделяясь за счет противопоставления репрезентативного и фигурального значений. Во фразообразовании огромную роль играет человеческий фактор, так как подавляющее большинство фразеологизмов связано с человеком, с разнообразными сферами его деятельности, так как фактор адресата является важнейшим элементом коммуникации. Кроме того, человек стремится наделить человеческими чертами объекты внешнего мира, в том числе и неодушевленные. В.Г.Гук указывает на антропоцентрический характер фразеологических единиц, подчеркивая, что «поскольку в центре внимания человека находится он сам, то отсюда его постоянное стремление описывать окружающий мир по образу и подобию своему. Языковой антропоморфизм является не пережитком первобытного мышления, как это утверждают некоторые философы, но общим законом развития средств номинации в языке» [2,с.35]. В английском языке латентная угроза ассоциируется со спящей собакой, а в русском — с нечистой силой, что восходит к народному фольклору, по-разному отражающему картину мира. Полное совпадение зоонима в двух языках согласуется с вошедшей в поговорку вечной враждой между кошками и собаками, например: agree like cats and dogs — «жить как кошка с собакой». Очень важно знать хотя бы основные и часто используемые фразеологизмы в английском языке, чтобы уметь правильно подобрать нужный эквивалент в родном языке, избегая дословного перевода, так как дословно совпадают лишь некоторые поговорки.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ. Знание идиом особенно важно при непосредственном общении с носителями того или иного языка. В этом случае, если нет уверенности в знании эквивалента какой-либо идиомы, надежнее будет употребить синоним из нейтральной речи [3,с.217]. При переводе на русский язык они могут делиться на две группы: – фразеологические единицы, имеющие эквиваленты в русском языке; – безэквивалентные фразеологические единицы. Фразеологические эквиваленты могут быть двух типов: 1) постоянное равнозначное соответствие, которое является единственно возможным переводом и не зависит от контекста. Например: time is money — «время — деньги», to dance to somebody's tune — «танцевать под чью-либо дудку»; tired as a dog — «устал как собака» и т. п.; 2) с другой стороны, возможно наличие в русском языке двух и более эквивалентов английской фразеологической единицы, из которых для перевода данного текста выбирают лучший. На примере рассмотренных фразеологизмов можно отчетливо представить, насколько разнообразны по своей структуре, семантике и выразительности фразеологические единицы современного английского языка с зоокомпонентом dog, настолько разнообразны их соответствия в русском языке. Нельзя не согласиться с А.В.Куниным, что «фразеология — это сокровищница языка», и фразеологизмы в языке являются богатством. Они не только отражают культуру и быт того или иного народа, но и помогают сделать речь более выразительной и эмоциональной.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1.Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии / Н.Н. Амосова. — Л.: МГУ, 1963.
2.Гак В.Г. Языковые преобразования / В. Г. Гак. — М.: Школа «Языки русской культуры», 1998.
3. Комиссаров В.Н. Современное переводоведение / В. Н. Комиссаров. — М.: ЭТС, 2004.
4. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка/ А.В. Кунин. — М.: Феникс, 1996.
5. Кунин А. В. Английская фразеология /А. В. Кунин. — М.: Высшая школа, 1970.

Qabul qilindi: 15.08.2024 **Chop etildi: 30.09.2024** UDK: 796.08:159.

O‘QUVCHILARNING TIL KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA ADABIYOT DIDAKTIKASIDAN FOYDALANISHNING METODIK IMKONIYATLARI

Ulasheva Umida Maxmadamin qizi, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti doktaranti

METHODOLOGICAL POSSIBILITIES OF USING LITERATURE DIDACTIC IN DEVELOPING STUDENTS’ LANGUAGE COMPETENCES

Ulasheva Umida Makhmadamin qizi, doctoral student of Samarkand State University named after Sharof Rashidov

МЕТОДИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЛИТЕРАТУРНОЙ ДИДАКТИКИ В РАЗВИТИИ ЯЗЫКОВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ

Улашева Умида Махмадамин кызы, докторант Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова

https://orcid.org/2400-0012-9032-090x
e-mail: umidaulashevaamirxonagmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola umumiy o‘rta ta’limning dolzab muammolaridan biriga bag‘ishlangan bo‘lib, unda tillarni o‘rganishda badiiy adabiyotdan foydalanishning ahamiyati, ularni ijodiy lingvistik kompetensiyani shakllantirish omili sifatida qarash mumkinligi haqidagi fikrlar asoslab o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: reproduktiv, kompetentlik, badiiy, adabiy, badiiy matn, autentik matnlar.

Abstract: This article is devoted to general problems of higher education, and it is based on the idea of the importance of using fiction in teaching, that it can be considered as a factor in the formation of creative competence.

Keywords: reproductive, competence, artistic, literary, fiction text, authentic text.

Аннотация: Данная статья посвящена общим проблемам высшего образования, и в ее основе лежит идея о важности использования художественной литературы в обучении, о том, что ее можно рассматривать как фактор формирования творческой компетентности.

Ключевые слова: репродуктивный, компетентность, художественный, литературный, художественный текст, аутентичный текст.

KIRISH. Ta’limning barcha bosqichlari, xususan, umumiy o‘rta ta’lim xorijiy tillarni o‘qitishda badiiy adabiyot matnlaridan foydalanish biz pedagoglardan ma’lum nazariy, ham amaliy didaktik bilim va ko‘nikmalar bilan qurollangan bo‘lishimizni talab etadi. Bu o‘z navbatida, mazkur aspektni tadqiq etishni taqozo etadi. Badiiy matnlardan chet tilini o‘rganishda foydalanishning tarixi juda ham uzoq vaqtga borib taqalmaydi. Hammamizga ma’lumki, 20-asrning 70-yillarida chet tilini o‘rganish didaktikasida chet tilidagi autentik matn, dialog va shu kabilardan foydalanish afzal ko‘rilar edi. Ko‘p vaqt o‘tmasdan madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini o‘rganish boshlanishi bilan chet tilini o‘qtishda

badiiy adabiyotni qo‘llash muhim ahamiyat egallay boshladi[1].

ADABIYOTLAR TAHLILI. Dars mashg‘ulotlarida badiiy adabiyotdan foydalanishni chet tili o‘qitish didaktikasining bo‘limi bo‘lmish badiiy adabiyotdan foydalanish didaktikasi o‘rganadi. Badiiy adabiyot didaktikasi badiiy tahlil, badiiy tanqid va nazariya bilan shug‘ullanuvchi adabiyotshunoslik bilan chambarchas bog‘liqdir. Badiiy matnlar nafaqat har bir o‘quvchi tomonidan, balki chet til o‘rganuvchilari tomonidan ham ma’lum tarzda tushuniladi, tahlil qilinadi. Shu sababli badiiy sharh badiiy adabiyot didaktikasi uchun ham muhim omil hisoblanadi. Badiiy interpretatsiya bilan shug‘ullanuvchi asosiy metodlardan biri germenivtika hisoblanadi. Unga ko‘ra, matn interpretatsiyasi matn to‘g‘risida gipotezani yaratish va o‘sha gipotezani konkretlashtirishning tuganmas jarayonidir. Germenivtika o‘quvchini ham, balki uning o‘zlashtirgan tajriba, ko‘nikma hamda egallagan bilimini ham interpretatsiya qilishni maqsad qiladi. O‘quvchi matnga ilk (ko‘pincha xato) tasavvur, taassub deb nomlanuvchi[2] o‘z hayotiy tajribalari va bilimi bilan yondashadi va ular yordamida matn haqida gipoteza tuzadi. Matnni o‘qish jarayonida ular matn mazmuni bilan taqqoslanadi, matn yordamida yanada aniqlashadi yoki ba’zan uning o‘zgarishiga turtki bo‘ladi. Shu tarzda yana yangi gipoteza uyg‘onadi, u yana matn bilan to‘qnash keladi va h.k. Bu interpretatsiyalar jarayoni xorijiy manbalarda “germenevtik doira (hermeneutischer Zirkel)” deb ataladi [3].

Germenevtika bilan bir qatorda chet tilini o‘rganishda badiiy adabiyotdan foydalanishga turtki bo‘lib xizmat qiladigan keyingi sabab bu retsepsion (idrok, zehn) estetikadir. U germenivtikaning keyingi rivojlanish bosqichi sifatida ham qaraladi. Retsepsion estetika diqqat markazida matn emas, balki o‘quvchi hamda uning matnning qay darajada idrok etishi, qabul qilishi turadi. Unga ko‘ra badiiy matnning mazmunini dastavval o‘quvchi o‘zicha tuzadi, idrok etadi [4].

O‘quvchi (kitobxon) badiiy matnni qay darajada tushunishi nafaqat uning o‘z tajribasiga, balki uning milliy madaniyatiga ham bog‘liqdir. Demak, bir matn turli o‘quvchilar tomonidan turlicha tushunilishi mumkin, chunki har bir o‘quvchi matnni o‘z individual kechinmalari, tajribasi hamda egallagan bilim-ko‘nikmalaridan kelib chiqib tushunadi. Bundan tashqari, chet tilini o‘rganayotgan o‘quvchi va o‘rganilayotgan til o‘z ona tili bo‘lgan o‘quvchi bir matnni turli tarzda tushunishadi, chunki ular har xil madaniy nuqtadan nazar solishadi. Demak, retsepsion estetika chet til o‘rganuvchisi tomonidan badiiy matnlarni ma’lum darajada o‘zgacha tushunilishni nazarda tutadi [5].

Elersning fikricha, badiiy matnni o‘quvchi o‘z bilim va ko‘nikmalari, kechinma va tajribasi orqali anglashi xato, noto‘g‘ri tushunishga sabab bo‘lishi mumkin. Inson o‘z dunyosini matn yordamida shakllantira olmaydi, bu tushunish, anglab yetish emas. “Tushunish, anglash bu matn mazmunini, undagi ma’lumotlarni o‘zaro bog‘lay olish, ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni bir-biriga qo‘sha olish demakdir”[6]. Matnda bu bog‘liqliklar to‘g‘ridan-to‘g‘ri berilmaydi, balki ularga ma’lum darajada yo‘nalish-ko‘rsatmalar beriladi, xolos.

Bir badiiy matnning turli o‘quvchilar tomonidan har xil talqin qilinishi, tushunilishi, interpretatsiya qilinishi bu-haqiqatdir. Bu esa o‘sha badiiy matnni chet tili mashg‘ulotlarida muhokama, diskussiya qilishga, matn interpretatsiyasining yagona yechimini qidirishga sabab bo‘ladi, boshqacha aytganda, undan muloqotni keltirib chiqarish omili sifatida foydalanish mumkin.

Demak, badiiy matn chet tilining reproduktiv kompetensiyalari – gapirish (og‘zaki nutq) va yozish (yozma nutq)ni o‘qitish, o‘rganish jarayonida amalga oshirishning eng maqbul omili sifatida ko‘rilishi, tavsiya etilishi mumkin.

Hammamizga ma’lumki, har bir narsaning yaxshi va yomon, ma’qul va noma’qul, kamchilik va yutuqlari bo‘lganidek chet tilini o‘qitishda badiiy adabiyotdan foydalanish ham bundan mustasno emas. Demak, chet tili darslarida badiiy matnlarni qo‘llash yoki qo‘llamaslik to‘g‘risida bir qancha asoslar mavjud. Xolisona yondashish maqsadida badiiy matnlarni chet tilini o‘qitishdagi nafaqat afzalliklari, balki kamchiliklari haqida ham fikr yuritamiz. Dastavval, badiiy matnlarning boshqa matnlardan farqli tomonlariga to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir.Badiiy matn deganda qanday matnlar tushuniladi? Chet tilini o‘qitishda matnlardan foydalanmaslikning iloji yo‘q, lekin muammo shuki, biz qanday matnlardan

foydlanashimiz maqsadga muvofiq? Javob juda oddiy: qanday matndan foydalanish bu qo‘yilgan maqsadga bog‘liq, ya’ni biz nimani o‘rgat(n)moqchi ekanligimizga. Har bir matn turi darsda foydalanishda o‘zgacha imkoniyatlarni yaratadi. Masalan, ma’lum matn turlarida (misol uchun, xat) o‘ziga xos lug‘at va shakl (Hurmatli...; Hurmat bilan v.b.) uchraydi, demak, xat yozishni o‘rganish uchun shu matn turidan foydalanish maqsadga muvofiq.

NATIJA VA TAHLILLAR. Chet tilini o‘qitishda foydalanish uchun badiiy va nobadiiy (gazeta- jurnal, dialoglar va bosh.) matnlar bizning ixtiyorimizda bo‘ladi. Badiiy matnlar o‘zining estetik-poetik xususiyatlari, milliy-madaniy unsurlarni o‘zida aks ettirishi hamda polisemantik xususiyatga egaligi bilan boshqa matnlardan ajralib turadi. Badiiy matnlar orqali o‘quvchi (kitobxon) va muallif o‘rtasidagi bevosita dialog, muloqot amalga oshadi va ular har bir kitobxon tomonidan turli tarzda qabul qilinishi mumkin. Nobadiiy matnlar esa buning aksi, ya’ni ular hamma tomonidan bir xil tushuniladi va ular bir xil interpretatsiya qilinishi talab etiladi. Badiiy matnlardan chet tili o‘rganishda uchrayotgan kamchiliklari haqida to‘xtalganda, shuni aytib o‘tish joizki, ular so‘zsiz o‘qilishi shart bo‘lmagan matnlar sanalishidir. Chunki chet elda ma’lum maqsadda bo‘lgan vaqtlarimizda, hatto kundalik hayotimizda biz ko‘poq boshqa matn turlariga, jumladan, transport vositalarida harakatlanish jadvallari, ma’lumotnomalar, taomnomalar, ko‘cha yozuvlari, yo‘riqnomalar, elektron pochtalar yoki gazeta-jurnal ma’lumotlariga duch kelamiz, ularni o‘qishga talabdormiz. Chet tili darslarida ushbu faktlarni ham hisobga olinishi va shunday matn turlaridan ham mashg‘ulotlarda foydalanilishi zarurdir.

Badiiy matnlarni tushunish uchun o‘quvchilardan chet tilini juda yaxshi bilishlari talab etiladi, shu sababli ular odatda endigina chet tilini o‘rganayotganlar uchun foydalanishga tavsiya etilmaydi. Bunday darajadagi o‘quvchilarga qisqa she’riy parchalar, bolalar adabiyotidan foydalanish ba’zan tavsiya etilsa-da, bu kabi badiiy matnni tushunish qiyinroq va murakkabroq deb hisoblanadi. Odatiy tilga qaraganda badiiy matnlar o‘z tarkibida kengroq mazmunli lug‘at, semantik qochirimlar va istisnolarni qamrab oladi. Vesthoffning fikriga ko‘ra, bu uchun o‘quvchilarda oldindan ma’lum bir bilim- ko‘nikmalarni (ma’lum so‘z birikmalari va b.) shakllantirish kerak. Demak, badiiy matnni tushunish, uni anglab yetib, undan ma’naviy hordiq olish uchun, avval badiiy adabiyotning odatiy tildan farq qiladigan badiiy vositalarini tushuna olish kerak. Sohaviy adabiyotlar tahlilida namoyon bo‘ladiki, badiiy matnlardan chet tili mashg‘ulotlarida foydalanish qator afzalliklari bilan alohida o‘rin egallaydi. Jumladan:

1. Badiiy matnlarda matnning boshqa turlarida kuzatilmaydigan polisemiya, konnotatsiya, metafora va boshqalar ko‘p uchraydi. Bu esa til kompetensiyasi sifatida talab etiladigan tilning estetik sifatini ta’minlaydi.

2. Badiiy matnlar orqali tili o‘rganilayotgan mamlakat haqidagi milliy-madaniy, geografik, demorafik va b. ma’lumotlar bevosita o‘rganiladi. Boshqacha aytganda, ular yordamida o‘sha mamlakat hayot tarziga nazar tashlanadi.

3. Badiiy matnlarni o‘qish o‘quvchilarning lug‘at boyligini mustahkamlash va kengaytirish, shuningdek o‘zlari sezmagan tarzda bevosita grammatik bilimlarni yaxshilashga xizmat qiladi. Kontekst orqali o‘rganilgan lug‘at va grammatik qoidalarni esda saqlash osonroqdir.

4. Bundan tashqari, badiiy matnlar orqali mashg‘ulotlarda umumiy ta’lim-tarbiya berish funksiyasi ham amalga oshiriladi. Ular shaxsiy xususiyatlarning shakllanlanishi, taraqqiy etishi va albatta o‘sha tili o‘rganilayotgan mamlakat haqidagi noto‘g‘ri xurofot (bid’at)ni bartaraf etishga hissa qo‘shadi.

5. Shular bilan bir qatorda, badiiy matnlar muloqotni amalga oshirish yoki yozish uchun asos, turtki bo‘lishi mumkin. Badiiy matnlar boshqa matnlardan o‘zlarining ochiqligi, noaniqligi va ko‘p ma’noliligi bilan ajralib turadi. Ularda bo‘sh qoldirilgan fikrlar mavjud, ya’ni vaziyat yoki hodisalarni to‘liq tasvirlamaydi, balki faqat ma’lum jihatlarni yoritadi hamda “kitobxon (o‘quvchi)ga o‘z hayotiy tajribasi, o‘zligi, qarashlari, milliy- madaniy qadriyatlari orqali uni tushunishga, interpretatsiya qilishga va o‘sha bo‘shliqlarni o‘zicha to‘ldirishga imkoniyat qoldiradi”.

XULOSA. Badiiy matnlardan foydalanishning afzallik tomonlarini ro‘yobga chiqarishning birinchi sharti bu biz qanday

(munosib) badiiy matnni tanlashimizga bog‘liqdir. Badiiy matnlarni tanlashda quyidagi mezonlar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. O‘rganuvchi (o‘quvchi)ga qarab moslashish. Matnni tanlashda o‘rganuvchining chet tilidagi bilimi, uning yoshi, matn bilan ishlash tajribasi va albatta, uning qiziqishlari e’tiborga olinishi zarur. O‘quvchilarning qiziqishlarini ham qamrab olish maqsadida ularning o‘zlari ham matnlarni tanlashda ishtirok etishiga imkoniyat yaratish kerakligi taklif etiladi. Eng muhimi shuki, matnlarning murakkablik darajasi va mavzusi o‘quvchilarga mos bo‘lishi kerak.

2. Matn didaktik-metodik funksiyani bajarishi hamda mashg‘ulotga qo‘yilgan maqsadga mos bo‘lishi zarur. Agar matndan muloqot (gapirish kompetensiyasi) yoki yozish (kompetensiyasi)ni rivojlantirish maqsad qilinsa, matnda ochiq qoldirilgan fikrlar, tugallanmagan gaplar, yechimsiz muammolar, mulohazalar, bahslar mavjud bo‘lishi shartki, ular to‘g‘risida o‘rganuvchilar o‘z qarashlari, mulohazalarini bildirishga majbur bo‘lishsin, hech bo‘lmaganda shunday imkoniyatga ega bo‘lishsin. Bundan tashqari, matn o‘sha tili o‘rganilayotgan mamlakatning o‘ziga xos ma’lumotlarni ham o‘z ichiga olishi tavsiya etiladi. Shu bilan birga, matn qiziqarli hamda interpretatsiya qilish ushun qulay, mazmunga boy bo‘lishi talab etiladi.

3. Matnning murakkablik darajasi. Bunda biz obyektiv va subyektiv murakkablikni farqlashimiz kerak. Subyektiv murakkablik deganda, o‘rganuvchining shaxsiyati e’tiborga olinadi, ya’ni uning dunyoqarashi, matnlar bilan ishlay olish ko‘nikmalari va qiziqishi ahamiyatlidir. Obyektiv murakkablik deganda esa, matnning tuzilishi, mazmuni, badiiy qurilishi va shu kabilar nazarda tutiladi. Ularni quyidagicha tavsiflash mumkin:

-matn qanchalik o‘rganuvchining qarashlari, boshqacha aytganda, dunyosidan uzoq bo‘lsa, u kitobxonga shunchalik qiyinchilik tug‘diradi. Shu sababli zamonaviy badiiy adabiyotdan foydalanish tavsiya etiladi, chunki bu bugungi kun kitobxonining kundalik hayotiga yaqinroqdir;

-matn qanchalik odatiy (oddiy) til normalidan yiroq bo‘lsa, u shuncha ko‘p murakkab bo‘ladi;

-mavhum yoritilgan matnlardan ko‘ra aniq chiziqli, tasvirli harakatlarga boy matnlar tushunish uchun osonroqdir;

-oddiy badiiy syujetlar, murakkablariga qaraganda ancha tushunarliroqdir.

Demak, xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, badiiy adabiyot o‘quvchilarni o‘z fikrlarini bildirish (gapirish), muhokama qilish yoki kreativ tarzda yozish kompetensiyalarini rivojlanishiga sabab bo‘ladi hamda ularni rivojlantiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Bischof M., Kessling V., Krechel. Madaniyatshunoslik va adabiy didaktika. Masofaviy o‘qitish bo‘limi 3. – Berlin: Langenscheidt, 1999, - B. 17.
2. Ehlers S. O‘qish tushunishning ajralmas qismi sifatida: chet tilidagi adabiy matnlarni va ularning didaktikasini tushunish. Masofaviy o‘qitish bo‘limi 2. - Berlin: Langenscheidt, 1992, –13 b.
3. Heyd G. Chet tilini o‘qitish uchun ilg‘or bilimlar. – Tübingen: Gunter NarrVerlag, 1997, – B. 121.
4. Riemer C., Henrici G. O‘qitish didaktikasiga kirish: Nemis tili chet tili sifatida. Baltmannsweiler: Schneider Verlag Hohengehren.1994.282 - 299 b.
5. Westhoff G. O‘qish mahorati. Masofaviy o‘qitish bo‘limi 17. – Myunxen: Gyote Instituti, 2001, – B. 8.
6. Kelushkova X. Chet tillarini tayyorlashda badiiy matndan foydalanish. – Bino: Universitet. 2007, – B. 32.
7. Курбанбаева, М. (2023). Влияние современного жаргонизма на изучение русского литературного языка иноязычной молодежью. Tamaddun nuri jurnali, 4(43), 52-55.
8. Курбанбаева, М. (2023). Пословицы и поговорки со схожим значением в русском и узбекском языках и общность народной мудрости. Tamaddun nuri jurnali, 4(43), 15-18.
9. Курбанбаева, М. (2024). Использование русских народных сказок в процессе изучения языка и формирования гуманизма у детей. Tamaddun nuri jurnali, 5(56), 520-522

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK:323.2

XORIJDAGI O‘ZBEKLAR BILAN VATANDOSHLIK VA QAVM-QARINDOSHLIK ALOQALARI TARIXIDAN

[1]Hayitov Shodmon Axmadovich, Buxoro davlat universiteti tarix fanlari doktori, professor
[2]Fayziyeva Feruza Ismatillayevna, Navoiy viloyat PYMO‘MM, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

FROM THE HISTORY OF PATRIOTISM AND PEOPLE-RELATIVE RELATIONS WITH UZBEKS ABROAD

Hayitov Shodmon Akhmadovich, Bukhara State University, Doctor of History, Professor
Fayziyeva Feruza Ismatillayevna, PYMO’MM of Navoi region, doctor of philosophy in history (PhD)

ИЗ ИСТОРИИ ПАТРИОТИЗМА И РОДСТВЕННЫХ ОТНОШЕНИЙ С УЗБЕКАМИ ЗА РУБЕЖОМ

Хайитов Шодмон Ахмадович, Бухарский государственный университет, доктор исторических наук, профессор
Файзиева Феруза Исматиллаевна, доктор философии по историческим наукам (PhD)

1

E-mail:
hayitovshodmon@mail.ru
https://orcid.org/0026-0822-0099-0284

2

https://orcid.org/0024-0022-8048-028x
e-mail:

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘z asl Vatani – O‘zbekistondan boshqa mamlakatlarda muhojir sifatida istiqomat qilgan va XX asrda umrguzaronlikda bo‘lgan millatdoshlar taqdiri haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, chet el o‘zbeklari bilan O‘zbekiston o‘zbeklari o‘rtasidagi vatandoshlik aloqalarining shakllanishi, bu yo‘nalishda tashkil etilgan uyushmalar, matbuot organlari faoliyati, bu borada to‘siq va muammolar, imkon qadar xronologik izchillik asosida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: muhojir, vatandosh, xorij o‘zbeklari, vatan xoini, “sotqin”, maktub, sog‘inch, O‘zODKS, vatanparvar.

Abstract: This article discusses the fate of compatriots who lived as emigrants in countries other than their original homeland - Uzbekistan, and spent their whole lives in the 20th century. Also, the formation of patriotic ties between foreign Uzbeks and the Uzbeks of Uzbekistan, the activities of press bodies of associations organized in this direction, obstacles and problems in this regard are revealed on the basis of chronological consistency as much as possible.

Key words:emigrant, compatriot, foreign Uzbeks, “traitor”, letter, longing, UzODKS, patriotism.

Аннотация: В данной статье рассматриваются судьбы соотечественников, проживавших в эмиграции в странах, отлучных от своей первоначальной родины – Узбекистана, и всю свою жизнь проводивших за рубежом. Также на основе хронологической последовательности раскрываются вопросы формирования патриотических связей между зарубежными узбеками и узбеками Узбекистана, деятельность органов печати объединений, организованных в этом направлении, препятствия и проблемы в этом направлении.

Ключевые слова: эмигрант, соотечественник, зарубежные узбеки, изменник родины, «предатель», письмо, тоска, УзОДКС, патриотизм.

KIRISH. Tabiatning oliy ne'mati bo'lgan inson o'zining umri davomida juda ko'p hodisotlar va jarayonlar guvohi bo'ladi. Har bir shaxsning taqdiri o'ziga xos kechib, hayotda to'siq va muammolarga, yutuq va muvaffaqiyatsizliklarga, omad va omadsizliklarga duch keladi. Kishi Vatanni tanlamaydi, balki Vatan uning taqdiriga bitiladi. Vatan bu inson kindik qoni to'kilgan zamin, ona kabi muqaddasdir. Vatan ajdodlar ruhi kezib yurgan hokipoylari yotgan, hech kimga berilmas, hech kimga sotilmasdir.

Ajdodlardan meros qolgan Vatanni otabobolaridan tarbiya olgan har bir kishi o'z ixtiyori bilan tashlab ketmaydi, ona yurti va qavm-qarindoshlaridan voz kechib, o'zgalar yerida sarson-sargardonlikda yashash qismatini tanlamaydi.

Biroq tarixga nazar solsak, bugungi kunda yer yuzida biror-bir yagona millat va etnik guruh istiqomat qiladigan davlatni topa olmaymiz. Muhojirlik va diaspora omillari tufayli Vataniga mustahkam bog'langan, har qanday noqulaylik, qiyinchiliklarga qaramay yurtida yashab qolishga harakat qilgan o'zbeklar ham dunyoning o'nlab davlatlari bo'ylab tarqalib ketishgan.

Tarixiy tadqiqotlar asosida amin bo'ladiki, o'zbek muhojirligining tarixi uzoq asrlarga borib taqalsa-da, hech qachon XIX asr ikkinchi yarmi – XX asrda yuz berganidek ommaviy tus olmagan. Muhojirlik to'lqinlari Rossiya imperiyasining Turkiston mintaqasini bo'ysundirishi bilan bog'liq harbiy to'qnashuvlarda, undan so'ng mustamlaka yillarida (1867-1917yy) yuz bergan xalq qo'zg'olonlari paytida sodir bo'ldi. O'zbek xalqi vakillari ta'qib-tazyiq, soliq zulmi, shaxsiy va oilasi hayotiga o'lim xavfi vujudga kelish oqibatida otabobolari yurtini tark etishdi.

Sovet hokimiyati yillarida muhojirlikning bir necha bosqichdagi ommaviy to'lqinlari yuz berganiga tarixning o'zi guvohdir. Bolsheviklarning buyuk davlatchilik va milliy kamsitishga qaratilgan siyosatiga qarshi kurash maydoniga kirgan ming-minglab vatanparvarlar (sovet manbalarida bular "bosqichlar" deb atalgan) noteng harbiy to'qnashuvlarda halok bo'ldilar. 1918-1924-yillardagi Turkiston ozodligi uchun kurashlarda 1,5 mln kishi xorijdan panoh topishga majbur bo'ldi. Sovet hokimiyati o'zining diskriminatsiya siyosatini izchillik bilan yuritar ekan, oddiy xalq va millat yo'lboshchilari boshiga mislsiz kulfatlar yog'dirdi. 1920-1930-yillarda o'tkazilgan bir qator iqtisodiy va ijtimoiy sohalardagi kompaniyalar, ya'ni "Hujum", "Xudosizlik uchun kurash", "Yer-suv islohoti", "Jamoalashtirish", "Qatag'onga tortish" kabilar tufayli muhojirlikning to'lqinlari avj oldi. Ayniqsa, 1929-1933-yillardagi qishloq xo'jaligini jamoalashtirish siyosati oqibatida eng yirik muhojirlik to'lqinlari kelib chiqdi. O'zbek millatining muhojirlik harakati bilan bog'liq jarayonlar tahlil qilinar ekan, bir butun millat parchalab yuborilganligi ayon bo'ladi. Birinchi guruhga aholining sovet tuzumiga qarshi chiqib, bu tuzum tomonidan butunlay mahv etilganlar kiradi. Bu guruh a'zolari sobiq "bosmachilar", ularning ma'naviy rahnamolari, jadid va taraqqiyparvarlar, milliy uyushmalar rahbarlari hamda yuzlab a'zolari edilar. Ikkinchi guruhni esa, sovet hokimiyatining har qanday adolatsizlik, milliy kamsitish va zo'ravonlik siyosatiga ko'nib, bir umr siquv ostida yo'lini qilib bo'lsa-da o'z vatanida yashab qolganlar tashkil etardi. Uchinchi guruhga hayoti va oilasini saqlab qolish uchun vatanjudolik jandasini yelkasiga tashlab Vatanini tark etib, muhojirlikka ketishga majbur bo'lganlar kirgan.

Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, parchalangan millatdoshlarimizning uchta guruhiga oson bo'lmagan. Muhojir o'zbeklar O'zbekistonni tark etib, o'zga mamlakatlarning aholisi orasida yashashga majbur bo'lganlar. Yashab qolish va tirikchilik ilinjida ular har qanday sharoitga ko'ndilar, yangi kasblarni o'rgandilar, dehqonchilik, tijorat bilan shug'ullandilar. O'zbek xalqining mehnatsevarligi, chidam va irodasi, sabr-qanoati hamda kamtarligi bilan bog'liq mentaliteti ularni asrab qoldi. O'zbekiston milliy mustaqilligi yillarida o'zbeklarning xorijga ko'chish jarayoni to'xtamadi. Bu esa, muhojirlik obyektiv tarixiy jarayon ekanligi bilan bog'liqligi fikrini tasdiqlaydi. O'zbek millati vakillari iqtisodiy omil, farzandlar kelajagini o'ylash, ta'lim olish, grant yutish kabi turli-tuman omillar orqali chet ellarga vaqtinchalik, ba'zi hollarda doimiy muhojirlikka ketdilar. Ta'kidlash joizki, mustaqillikning ortda qolgan yillarida xorijning o'nlab mamlakatlari bo'ylab tarqalgan millatdoshlar soni ham oz sonli emas.

ASOSIY QISM. O'zbek muhojirligining tarixiy ildizlari uzoq asrlarga borib taqalsa-da, ular bilan qavm-qarindoshlik va vatandoshlik aloqalarini ayrim tashkilot hamda uyushmalar orqali o'rnatish

tarixi o‘tgan asrning 50-yillari oxiriga to‘g‘ri keladi. Bu jihat esa sovet hokimiyatining o‘zbek muhojirlariga nisbatan uzoq vaqt bir xil andozada qarashi bilan bog‘liqdir. Umuman, XX asr va XXI asr dastlabki o‘n yilliklari davrida O‘zbekistonda chet el o‘zbeklariga munosabatni shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo‘lish mumkin:

Birinchi bosqich. O‘zbek muhojirligi to‘lqinlari yuz bergan XX asr 20-yillaridan 50-yillari ikkinchi yarmiga qadar davom etgan davr. Ushbu bosqichning o‘ziga xos jihati shundaki, sovet hokimiyati barcha muhojirlarga bir xil salbiy munosabatda bo‘lib, ularga nisbatan “Vatan xoini”, “sotqin” sifatidagi qarash tendensiyasi yetakchilik qildi. “Kim biz bilan emas – bizning dushmanimiz” degan asossiz shior ilgari surildi. Oxir-oqibatda barcha o‘zbeklar uchun O‘zbekiston yopiq, “Temir qafas”ga aylandi[1]. O‘zbeklar orasida “hadiksirab”, “qo‘rqib” yashash psixologiyasi vujudga kelib, xorijlik o‘zbeklar o‘zlari haqidagi ma’lumotni O‘zbekistondagi qarindoshlariga oshkor qilmay, sir tutdilar. Ular ona yurtdagi qarindoshlari ta’qib va taziyq ostiga olinishidan xavfsirardilar. Ayni o‘sha paytda xorijda o‘z qarindoshi bor o‘zbeklar deyarli ular haqida ma’lumotga ega emasdilar, ma’lumotga ega bo‘lganlar tor oila doirasida, past tovushda pichirlab qarindoshlari orqali, yoshi kattalar suhbati orqali voqif bo‘lardilar. Biroq sovet maxsus xizmati idoralari xorijdagi o‘zbeklar haqida ma’lumotlar to‘plar, ular to‘g‘risida tuhmatdan iborat xabarlar tarqatuvchi turli tillardagi risola, kitoblarni tarqatganlar[2].

Ikkinchi bosqich. Ushbu bosqich “xalqlar otasi” I.V.Stalin (1878-1953) vafotidan keyin sovet jamiyatida boshlangan “Iliqlik” davrida shaxsga sig‘inish oqibatlarini tugatishga qaratilgan maxsus qaror qabul qilinishi (1956) ortidan boshlandi. Bu davrda “Sovuq urushlar siyosati” (1945-1991), “kapitalizm” va “sotsializm” lagerlari o‘rtasida kurash avj olgandi. Sovet davlati o‘z qutbidagi tarafdorlarni ko‘paytirish maqsadida muhojir o‘zbeklarga “do‘st”, “betaraf”, “dushman” kabi uch o‘lchov mezonida yondashdi[3].

Bu o‘rinda ta’kidlash joizki, muhojir o‘zbeklardan ko‘p sonli bo‘lgan “betaraf”larni sovet davlati tomoniga ag‘darish, ularga mafkuraviy ta’sir o‘tkazish vazifasi ilgari surildi. Shu maqsadda ixtisoslashgan chet ellar bilan asosan madaniy aloqalar olib boruvchi “O‘zbekiston chet ellar bilan do‘stlik va madaniy aloqalar jamiyati” (UzODKS) 1958-yilda tashkil topdi. Ushbu jamiyat “Sovet Ittifoqi Do‘stlik jamiyati” (SSOD – birinchi boshqaruv raisi, birinchi kosmonavt ayol Valentina Tereshkova bo‘lgan) rahbarligi ostida ish olib borgan[4]. UzODKS tashkil etilganidan so‘ng o‘zbek muhojirlari bu tashkilotga yuzlab maktublar bilan murojaat qildilar. O‘zbekiston Milliy arxivi fondlarida saqlangan ularning maktublari o‘rganilar ekan, maktublarda vatandoshlar o‘zlari haqida ma’lumot beradilar. O‘zbekistondagi qavm-qarindoshlarini qidirayotganliklari, ota-bobolari va O‘zbekistonda yashagan go‘shalarini, Vatan sog‘inchlarini xotirlaydilar. O‘zbek tili va o‘zbek adabiyotiga oid adabiyotlar bilan yordam ko‘rsatish, o‘zbek qo‘shiq san’atiga oid gramplastinka, kassetalar yuborish, O‘zbekistonga viza (chaqiruv) qog‘ozi olishda yordamlashish haqida iltimoslar maktublarda o‘zining ifodasini topgandi[5]. UzODKS muhojir o‘zbeklar bilan aloqalar o‘rnatishda bir qator muammolarga duch keldi, birinchidan, muhojir o‘zbeklar asosan arab imlosida, qisman lotin imlosida yozib, eski o‘zbek adabiy tilida o‘z fikr-mulohazalarini bayon qilardilar. Vatandoshlar uchun yozuv va o‘qish tili kirill imlosida bo‘lib, keng aholi qatlamlari va jamoatchilik arab imlosidan batamom uzoqlashgandi. Ikkinchidan, UzODKS qat’iy nazorat ostida, kommunistik mafkura bosimi ostida o‘ta ehtiyotkorlik bilan faoliyat yuritardi. Uchinchidan, bu uyushma ixtiyorida muhojir o‘zbeklarni mustaqil O‘zbekistonga tashrifini tashkil etish vakolati yo‘q edi. Biroq muhojir o‘zbeklar bilan vatandoshlik aloqalari o‘rnatilganining o‘ziyoq bu yo‘nalishdagi dastlabki savobli qadam edi.

Vatandoshlik aloqalarini o‘rnatishga ehtiyoj kuchayganligi tufayli 1961-yilda UzODKS huzurida “Vatandoshlar bilan aloqa bog‘lash seksiya”si tashkil etildi. Agar ushbu seksiyaga ilk bor boshchilik etgan inson O‘zbekiston Fanlar akademiyasiga prezidentlik qilgan Toshmuhammad Qori Niyoziy ekanligini eslasak, UzODKSning dastlabki boshqaruvchisi tarix fanlari doktori professor Hujuma Shukurova bo‘lgandi[6].

1873-yilda “Vatandoshlar bilan aloqa bog‘lash bo‘limi” tashkil etilgani ham muhim tadbir bo‘ldi [7]. Xorijdagi o‘zbeklar bilan hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yishda Sharqshunoslik instituti, O‘zFA Sharqshunoslik instituti ilmiy xodimlari “eski yozuv” fors-tojik, arab tili

sohasidagi mutaxassislar kuchidan foydalanishga harakat qilindi.

1968-yilda xorijdagi o‘zbeklar uchun maxsus davriy matbuot organi “Oydin” gazetasiga asos solindi. Gazeta 1992-yilga qadar “Ona yurting omon bo‘lsa, rangi-ro‘ying somon bo‘lmas”[8] shiori ostida arab va lotin imlosida nashrdan chiqib turdi. Gazetaning xorijdagi muxlislari ko‘p sonli bo‘lmasa-da, uning har bir sonini o‘qib, kuzatib borganlar bilan bog‘liq ma’lumotlar arxiv manbalarida saqlangan.

Davr taqozosi bilan O‘zbekiston teleradioko‘rsatuv va eshittirishlar qo‘mitasi huzurida 1961-yilda “Vatandosh” radiostansiyasi ish boshlaganligini ham qayd etish mumkin. “Vatandosh” muhojir o‘zbeklar uchun dastlab yarim soat (30 minut), ko‘p o‘tmay ular talabi bilan 1 soat, keyinchalik 2 soat-u 10 minut eshittirishlar olib bordi. “Vatandosh” eshittirishlari o‘nlab ruknlarda olib borilib, chet el o‘zbeklarini O‘zbekistonda yuz bergan o‘zgarishlar, o‘zbek milliy qo‘shiqlari, qavm-qarindoshlari bilan bog‘liq ma’lumotlar ko‘p qiziqtirgan[9]. Ular radiostansiya manziliga yo‘llangan maktublarida “partiya s’ezdlari”, “kompartiya qarorlari”, sovet hokimiyatining “xalqlar do‘stligi” haqidagi siyosati bilan bog‘liq mafkuraviy nutqlar, eshittirishlar o‘rniga, o‘zbek milliy qo‘shiqlaridan eshittirish, o‘zbek tilini o‘rgatish saboqlarini bayon etish, O‘zbekistonda chop etilgan yangi adabiyotlar haqida axborot berishni iltimos qilganlar.

Xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalar yo‘nalishida maxsuslashtirilgan uyushma tashkil topishi 1976-yil bilan bog‘liq. 1976-1992-yillarda Xorijdagi o‘zbeklar bilan aloqa bog‘lash maqsadida “Vatan” jamiyati tashkil topdi. “Vatan” jamiyati 16 yil davomida bir qator bo‘limlar ostida faoliyat olib bordi. Ushbu jamiyat “sirli” jamiyat sifatida uzoq yillar “o‘ta ehtiyotkorlik” bilan ish ko‘rdi [10]. “Vatan jamiyati” sovet jamiyatida yuz bergan qayta qurish siyosati (1985-1991 yy) yillarida bir qadar huquqiy chegara va vakolatlarini kengaytirgandi. Biroq ushbu maqola mualliflaridan biri jamiyat raisasiga jamiyat fondlaridan foydalanish haqida maxsus xat bilan murojaat qilganida (1990-yil) sovet idoralarida uzoq yil rahbarlik lavozimida ishlagan onaxon: “Vatan” jamiyatida hech qanday hujjat yo‘q, siz UzODKSga boring!” deb ruxsat bermagan edi. Biroq jamiyatdagi o‘zgarishlarni teranlik bilan anglab turgan ilmparvar “Vatan” jamiyati mushovirlari Ahmadjon Luqmonov kabi shaxslar yordami bilan “Vatan” jamiyati joriy arxivi ma’lumotlaridan voqif bo‘lingandi.

XULOSA. Sovet hokimiyati yillarida muhojirlikka mahkum etilgan o‘zbeklar bilan O‘zbekiston o‘rtasidagi vatandoshlik aloqalari tarixi 1950-yillarning o‘rtalariga borib taqaladi. Ushbu hamkorlik va qavm-qarindoshlik munosabatlari UzODKS, ushbu jamiyat huzuridagi Vatandoshlar bilan aloqalar bo‘limi (1961, 1973), “Vatan” jamiyati (1976-1992), “Vatandosh” radiostansiyasi (1961), “Oydin” ro‘znomasi (1968-1992), keyinchalik “Sovet O‘zbekistoni” (“O‘zbekiston-kontakt”) kabilar orqali yo‘lga qo‘yildi. Yuqorida qayd etilgan uyushmalar va matbuot organlari kommunistik mafkura doirasidan chiqa olmay, cheklangan holatda, nazorat ostida faoliyat yuritdilar. Oxir-oqibatda o‘zbek vatandoshlar uchun uyushma va matbuot organlari ommaviy, ishonchli obyektga aylana olmadilar. Biroq, Vatandoshlar bilan aloqalarni o‘rnatishda ushbu jamiyatlar faoliyati izsiz ketmadi. Xorijdagi o‘nlab o‘zbeklarga ular qavm-qarindoshlarini izlab topishda amaliy yordam berildi, bir qator o‘zbeklar uzoq vaqt ayriliqdan so‘ng O‘zbekistonda bo‘ldilar. Hatto, muhojir o‘zbeklardan Jo‘ra Qori Bo‘tako‘z (laqabi Surgun) “Vatan” jamiyatida bir muddat mushovir bo‘lib ishladi. O‘zbek vatandoshlar manziliga gramplastinka, o‘zbek tilidagi darslik va adabiyotlar, O‘zbekistonda bosilgan yuzlab nusxadagi matbuot namunalari yuborildi, ular bilan ishlashning amaliy tajribasi to‘plandi.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston mustaqilligi tufayli muhojir o‘zbeklar uchun ozod va mustaqil Vatanga erkin kelib-ketish darvozalari ochildi. Mazkur masala keyingi maqolalar uchun mavzu bo‘larlidir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ҳайитов Ш. Ўзбек муҳожирлиги тарихи. (1917-1991 йиллар) -Т.: ABV Matbuot-Konsalt; 2008. -Б 184-199. 208 б.
2. Ойқорали М. Туркистонни “Озод қилувчилар”нинг ҳақиқий башараси. -Т.: 1963 (араб имлосида ўзбек тилида); Sport ligt on Doktor Kha it/ Toshkent – 1967 (ўзбек, немис, француз тилларида). Ойни этак билан ёпиб бўлмиш... -Т.: (араб имлоси); Фазилов И. Ғурбатда ғариб. Т.: 1981 (араб имлосида); Фармонов З. Бўҳтоннинг умри қисқа // Гулистон; 1985. -№5. -Б. 18-19 ва ҳ.к.

TAMADDUN NURI

3. Ҳайитов Ш. Ўзбек муҳожирлиги тарихи... Б.192-193.
4. Ўзбекистон Миллий Архиви, 2661-фонд, 1-рўйхат, 105-йиғма жилд, 75-76-варақлар.
5. ЎзМА, Р-2661-фонд 1-рўйхат, 84-йиғма жилд, 4, 5-варақлар, 105-йиғма жилд, 20, 22, 24, 54-варақлар, 166-йиғма жилд 42, 81-варақлар.
6. ЎзМА, Р-2661-фонд 1-рўйхат, 364-йиғма жилд, 63, 65-варақлар, 233-йиғма жилд, 20-варақ.
7. ЎзМА, Р-2661-фонд, 302-йиғма жилд, 2-варақ.
8. Ҳайитов Ш ва бошқ. Хориждаги ўзбеклар. Т.: Фан, 1992. -Б. 57-62; ЎзМА, Р-2661-фонд, 1-рўйхат, 222-йиғма жилд, 47-48-варақлар, Ойдин газетаси, 1987-1988 май сонлари. “Мактублардан сатрлар”, 1988 йил декабр сони (араб имлосида).
9. Ҳайитов Ш ва бошқ. Хориждаги ўзбеклар... Т., 45-46; ЎзМА. Р-1618-фонд, 150-йиғма жилд, 25,30,32,35-варақлар.
10. ЎзМА. Р-2822-фонд, 1-рўйхат, 83-йиғма жилд, 2,57,9-варақлар, 88-йиғма жилд, 7,10,29,37-варақлар. Ҳайитов Ш, Бадриддинов С. Ўзбекистон – бизга ҳам Ватан... Бухоро – 2006. 158 бет.

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 37. 378.2

OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARINING VATANPARVARLIK TUYG'USINI SHAKLLANTIRISH JARAYONI TAHLILI

Raximov G'ayrat Buvaxanovich, Urganch davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

ANALYSIS OF THE PROCESS OF FORMING A SENSE OF PATRIOTISM AMONG STUDENTS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Rakhimov Ghairat Buvakhanovich, independent student of Urganch State Pedagogical Institute

АНАЛИЗ ПРОЦЕССА ФОРМИРОВАНИЯ ЧУВСТВА ПАТРИОТИЗМА У СТУДЕНТОВ ВЫСШЕГО УЧЕБНОГО ЗАВЕДЕНИЯ

Рахимов Гайрат Буваханович, независимый соискатель Ургенчского государственного педагогического института

https://orcid.org/0009-0000-2242-2608
e-mail: gayratraximov941@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada oliy ta'lim muassasasi talabalarida vatanparvarlik tarbiyasining asosiy jihatlari ko'rib chiqilgan bo'lib, unda vatanparvarlikni rivojlantirishda ijtimoiy faollik va ta'lim loyihalarining o'rni ko'rsatib o'tilgan. Muallif siyosiy vaziyat va ijtimoiy o'zgarishlar kabi tashqi omillarni hisobga olgan holda ta'lim muassasalarining moslashuvchanligi, shuningdek, hayotning dastlabki bosqichlarida vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirish muhimligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: vatanparvarlik tarbiyasi, talabalar, ijtimoiy faollik, fuqarolik tarbiyasi, OTM, tanqidiy fikrlash, axborot muhiti, ijtimoiy faoliyat, ma'naviy qadriyatlar, fuqarolik pozitsiya, mas'uliyat, an'analar, tarixiy meros, milliy qadriyatlar.

Abstract: The article examines the main aspects of patriotic education of students of higher educational institutions, with an emphasis on the role of social activity and educational projects in the development of patriotism. The author emphasizes the importance of flexibility of educational institutions in taking into account external factors such as the political situation and social changes, as well as the importance of forming patriotic values in the early stages of life.

Key words: patriotic education, students, social activity, civic education, university, project management, critical thinking, information environment, public activity, spiritual values, citizenship, responsibility, traditions, historical heritage, national values.

Аннотация: В статье рассматриваются основные аспекты патриотического воспитания студентов высших учебных заведений, с акцентом на роль социальной активности и образовательных проектов в развитии патриотизма. Автор подчёркивает важность гибкости образовательных учреждений в учёте внешних факторов, таких как политическая ситуация и социальные изменения, а также значимость формирования патриотических ценностей на ранних этапах жизни.

Ключевые слова: патриотическое воспитание, студенты, социальная активность, гражданское воспитание, ВУЗ, проектное управление, критическое мышление, информационная среда, общественная деятельность, духовные ценности, гражданская позиция, ответственность, традиции, историческое наследие, национальные ценности.

KIRISH. Mamlakatdagi siyosiy vaziyat, ijtimoiy va iqtisodiy muammolar kabi tashqi sharoitlar vatanparvarlik tarbiyasining mazmuni va usullariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin, bu esa ta'lim tashkilotlarining moslashuvchanligini talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan, talabalar o'rtasida vatanparvarlik fazilatlarini tarbiyalash qiyin vazifaga aylanadi, bu ko'plab jihatlarni hisobga olishni, jamiyat va davlatdagi o'zgarishlarga qarab yondashuvlarni doimiy ravishda yangilashni talab qiladi.

Jamiyat rivojlanishining turli bosqichlarida vatanparvarlik tarbiyasi fuqarolik tarbiyasining tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqilgan. Dastlab, asosiy e'tibor vatanparvarlik va fuqarolik qadriyatlarini shakllantirishga eng moyil bo'lgan jamiyatning asosiy qatlami sifatida yoshlar bilan ishlashga qaratilgan edi. Biroq vaqt o'tishi bilan vatanparvarlik tuyg'usini maktabgacha yoshdagi bolalarda ham tarbiyalash zarurligi hamda Vatanga mehr-muhabbat asoslari erta bolalik davrida shakllantirilishi kerakligi isbotlangan. Demak, ushbu yo'nalishdagi ilmiy-tadqiqot ishlari vatanparvarlik tarbiyasi haqidagi qarashlarning evolyutsiyasini hamda ijtimoiy ehtiyojlar va pedagogik yondashuvlardagi o'zgarishlarni aks ettiradi.

Oliy ta'lim muassasasi talabalarining vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirish muammosini hal qilish ko'p jihatdan OTMning ijtimoiy faoliyati qanchalik samarali tashkil etilganiga bog'liq. Aynan ijtimoiy faoliyat orqali talabalar vatanparvarlik tuyg'usini va qadriyatlar tizimini to'liq shakllantirishlari hamda rivojlantirishlari mumkin. Ushbu yondashuv nafaqat vatanparvarlikning ahamiyatini nazariy jihatdan mustahkamlashga, balki uni turli tadbir va loyihalarda ishtirok etish doirasida amalda bajarishga imkon beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, talabalarning ijtimoiy faoliyati har doim yoshlarni tarbiyalashda, shu jumladan, vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda muhim rol o'ynagan. Jamoaviy ishlarda ishtirok etish va jamoatchilik bilan muloqot qilish orqali talabalar o'zlarining fuqarolik pozitsiyalarini mustahkamlaydilar va milliy qadriyatlarga sodiqlikni shakllantiradilar. Ushbu jarayon talabalarni OTM tomonidan mukammal qo'llab-quvvatlashini talab qiladi, shunda ijtimoiy faoliyat maqsadga muvofiq bo'ladi va vatanparvarlik tarbiyasida ijobiy natijalar beradi[1].

Oliy ta'lim muassasalarida vatanparvarlik tarbiyasi yoshlarda Vatanga va o'z yurtiga chuqur muhabbat tuyg'usini shakllantirishga qaratilgan tarbiyaviy hamda ijtimoiy faoliyatning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu ta'lim yuqori axloqiy ideallarni rivojlantirishga va o'z Vataniga fidokorona xizmat qilishga intilishga asoslangan. Fuqaroning asosiy xususiyatlari yoshligida, inson oila, maktab kabi institutlar orqali o'zini namoyon qiladigan jamiyat bilan faol aloqada bo'lganda belgilanadi. Ushbu bosqichda yoshlarda umumxalq qadriyatlarini tushunish va qabul qilishni shakllantirish muhimdir, bu kelajakda uning jamiyatdagi yo'nalishlari va xatti-harakatlarini belgilaydi. Vatanparvarlik tarbiyasi nafaqat fuqarolarning o'ziga xosligini mustahkamlashga, balki jamiyat oldidagi mas'uliyatni va o'z mamlakati oldidagi burchni his qilishni rivojlantirishga yordam beradi[3].

O'zbekiston Respublikasida oliy o'quv yurtlarining ijtimoiy faoliyati talabalarni OTM va o'z shahrining faol ijtimoiy hayotiga jalb etishga yordam beradigan loyihaviy boshqarish metodi orqali faol amalga oshirilib kelinmoqda. Ushbu jarayonning ustuvor yo'nalishlaridan biri bu talabalarga turli xil ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarda ishtirok etish imkoniyatini beradigan ijtimoiy loyihalash hisoblanadi.

Ijtimoiy loyihalashning yana bir misoli talabalarda vatanparvarlikni shakllantirishga qaratilgan tarbiya soatlarni tashkil etishdan iborat. Tarbiya soati – bu talabalar guruhi tyutori va ma'naviy ishlar bo'yicha dekan o'rinbosari tomonidan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning bir shakli. Ushbu faoliyat shakli talabalar o'rtasida jamiyat va uning atrofidagi dunyoga to'g'ri munosabatni shakllantirishga qaratilgan.

Tarbiya soati kabi loyihalar talabalarni OTM va u joylashgan mikrohududning dolzarb muammolariga jalb qilish uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu talabalarda fuqarolik tuyg'usini rivojlantirishga, o'z-o'zini anglash va mas'uliyat hissini shakllantirishga hamda ijtimoiy muammolarni hal qilishga jalb qiladi. Bunday tadbirlarni tashkil etish nafaqat vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishga yordam beradi, balki

talabalar, OTM va mahalliy hamjamiyat o‘rtasidagi aloqani mustahkamlashni ham ta’minlaydi[2].

Oliy ta’lim muassasasining ijtimoiy faoliyatida samarali natijalarga erishish ma’muriyat, o‘qituvchilar, xodimlar va talabalar o‘rtasida faol va konstruktiv o‘zaro munosabatlarni talab qiladi. Bu hamkorlik munosabatlarni insonparvarlashtirishga asoslanishi kerak, bu jamiyatning har bir a’zosiga hurmat ko‘rsatish, ochiq muloqot uchun sharoit yaratishni o‘z ichiga oladi. Qarorlarni qabul qilish jarayonida shaffoflik ham asosiy rol o‘ynaydi, chunki u tashabbuslarni ishlab chiqish va amalga oshirishda barcha tomonlarning ishonchi va ishtirokini ta’minlaydi[7].

OTM talabalarining vatanparvarlik tarbiyasi uning samaradorligi va amalga oshirish yondashuvlarini belgilaydigan bir qancha muhim xususiyatlar bilan bog‘liq.

Birinchidan, zamonaviy axborot muhiti turli manbalar va yo‘nalishlarga ega bo‘lgan ko‘plab axborot oqimlari bilan farqlanadi. Ushbu axborot oqimlari an’anaviy ommaviy axborot vositalarini ham, yangi raqamli platformalarni ham o‘z ichiga oladi hamda shaxsga ta’sir qilish usullari bilan ajralib turadi. Bunday xilma-xillik talabalar o‘rtasida vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirish uchun ham imkoniyatlarni yaratib beradi.

Bir tomondan, axborot manbalarining ko‘pligi talabalarga turli nuqtayi nazarlarni qabul qilish va bilimlar hajmini kengaytirish imkonini beradi. Ayniqsa, bu axborot xolisona, madaniy va tarixiy kontekstlarni hisobga olgan holda taqdim etilsa, vatanparvarlik qadriyatlarini chuqurroq va har tomonlama tushunishga yordam beradi.

Boshqa tomondan, turli xil axborot manbalari tushunmovchilik, qarama-qarshi yoki yolg‘on ma’lumotlarni keltirib chiqarishi mumkin. Talabalar noto‘g‘ri ifodalangan yoki manipulyativ xarakterga ega ma’lumotlarga duch kelsa, ularning vatanparvarlik his-tuyg‘ulariga putur yetkazilishi ehtimoli paydo bo‘ladi. Talabalarning axborotni qanday qabul qilishlari va talqin qilishlari ularning tanqidiy fikrlashiga, manbalarni tahlil qilish qobiliyatiga va ishonchli yoki ishonchsiz ma’lumotlarni farqlay olishlariga bog‘liq[6].

Ikkinchidan, talabalar axborotni tahlil qilishda o‘zlarida shakllangan dunyoqarashga tayanadilar. Oldingi tajriba va tarbiya natijasida shakllangan ushbu shaxsiy munosabat va e’tiqodlar ularning ma’lumotni qanday idrok etishi va sharhlashiga ta’sir qiladi. Bu jarayonda milliy manfaatlar va an’analar ham asosiy o‘rin tutadi va ma’lumotlarni baholash hamda fikrlarni shakllantirishda asos sifatida xizmat qilishi mumkin.

Vatanparvarlik tarbiyasi ushbu individual xususiyatlarni hisobga olishi kerak, chunki ular talabalarning vatanparvarlik qadriyatlarini qanday qabul qilishlari va ularni o‘z dunyoqarashiga qanday singdirishlarini belgilaydi. Madaniy va milliy kontekstni hisobga olish vatanparvarlik tarbiyasi majburiy jarayon sifatida qabul qilinmasligi, balki ularning shaxsiy qadriyatlarining tabiiy qismi sifatida qabul qilinishi uchun muhim ahamiyatga ega[4].

Uchinchidan, vatanparvarlik tarbiyasining asosiy jihati talabalarning axborotni to‘g‘ri anglashi va tanqidiy tahlil qilishga tayyorligidan iborat. Buning uchun ularda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish talab etiladi, bunda turli manbalardan olingan ma’lumotlarni tizimli baholash va talqin qilish ko‘nikmalari mavjud. Ko‘p ma’lumotlar mavjud bo‘lgan zamonaviy axborot oqimi sharoitida ishonchli ma’lumotlarni manipulyativ va soxtalashtirilgan axborotlardan ajrata bilish kerak.

Tanqidiy fikrlash o‘quvchilarga nafaqat ma’lumotni tushunishga, balki uni dalil va mantiqiy mulohazalar asosida baholashga yordam beradi. Bu ularga o‘z qarashlarini, jumladan, vatanparvarlik e’tiqodlarini ongli ravishda shakllantirishga hamda salbiy manbalar ta’siriga tushib qolmaslikka imkon beradi. Axborotdagi manipulyatsiya elementlarini aniqlash va tahlil qilish qobiliyati chuqurroq va yetuk vatanparvarlik ongini rivojlantirishga yordam beradi [6].

Vatanparvarlik tarbiyasida esda qolarli joylar, muzeylarni ziyorat qilish ham katta o‘rin tutadi. Bunday tashriflar yoshlarga voqealarning tarixiy ahamiyatini chuqurroq anglash, qurbonlar va qahramonlar haqida ma’lumot olish, o‘z mamlakatining tarixiy merosi bilan bog‘liqligini his qilish imkonini beradi. Bu esa chuqur va ongli vatanparvarlik ongini shakllantirishga xizmat qiladi[5].

NATIJALAR. Olib borilgan tadqiqotimiz talabalarning asosiy ma’naviy va axloqiy qadriyatlar majmuasi yetarli darajada shakllanganligini ko‘rsatadi. Yoshlar ko‘pincha moddiy qadriyatlarni birinchi o‘ringa qo‘yib, vatanparvarlikning ahamiyatini kam baholaydilar. Bu ma’naviyat,

madaniyat, adabiyot, fan va jamoat hayotidagi faol ishtirokining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Vatanparvarlik tarbiyasi jarayoni talabalarning dars va darsdan tashqari faoliyatini qamrab oladi. O‘quv faoliyatining bir qismi sifatida talabalar vatanparvarlik to‘g‘risida nazariy bilimlarga ega bo‘ladilar, o‘z mamlakatlarining tarixi, madaniyati va an’analarini o‘rganadilar hamda fuqarolik burchi va ijtimoiy javobgarlik tamoyillarini o‘zlashtiradilar. Ushbu bilimlar ularning vatanparvarlik haqidagi g‘oyalarini shakllantiradi va o‘z mamlakati hamda jamiyatiga ongli munosabatni rivojlantirishga yordam beradi.

Talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimi bir-biriga bog‘liq bo‘lgan bir nechta tarkibiy qismlardan iborat bo‘lib, ularning har biri vatanparvarlikni shakllantirishda o‘z rolini o‘ynaydi. Ushbu tarkibiy qismlarga maqsadli, kognitiv, aksiologik, faoliyat va monitoring elementlari kiradi. Ularning har biri vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirish jarayonini samarali tarbiyalash va nazorat qilishni ta’minlaydigan muayyan funksiyalarni bajaradi.

OTM talabalarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bir nechta muhim tarkibiy qismlar tizimini o‘z ichiga oladi. Vatanparvarlik tarbiyasining **maqsadli komponenti** ushbu jarayonning umumiy maqsad va vazifalarini aniqlash va shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. U butun tarbiya jarayoniga yo‘nalish belgilaydi va talabalarda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirish bo‘yicha faoliyat jarayonini tizimlashtiradi.

MUHOKAMA. Maqsadli komponentning asosiy vazifasi vatanparvarlik tarbiyasi jarayonida prioritet (asosiy) erishish kerak bo‘ladigan narslarni aniqlashdan iborat. Bu bir nechta muhim jihatlarni o‘z ichiga oladi:

1. O‘z yurti uchun g‘urur tuyg‘usini rivojlantirish: Maqsadli komponent talabalarda o‘z Vatani uchun chuqur g‘urur tuyg‘usini shakllantirishga qaratilgan. Bunga mamlakat tarixi, madaniyati va urf-odatlarini o‘rganish orqali erishiladi, bu talabalarga o‘z yurti yutuqlari bilan faxrlanishga yordam beradi.

2. Mamlakat kelajagi uchun javobgarlikni anglash: talabalarning o‘z yurti kelajagi uchun shaxsiy javobgarligini tushunishlarini rivojlantirish muhim maqsad sanaladi. Bunga har bir fuqaro, shu jumladan, talabalar jamiyat va davlatchilikni rivojlantirishda muhim rol o‘ynashini anglash kiradi.

3. Ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish: maqsadli komponent talabalarni jamiyat hayotida faol ishtirok etishga undashni ham o‘z ichiga oladi. Bu volontyorlik (ko‘ngillilik), ijtimoiy va madaniy tadbirlarda qatnashish hamda ijtimoiy hayotni o‘zgartirish bo‘yicha takliflar kiritish kabi turli shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin.

Ushbu maqsad va vazifalarni shakllantirish vatanparvarlik tarbiyasining kognitiv, aksiologik, faoliyat va monitoring kabi barcha boshqa tarkibiy qismlarining harakatlarini boshqarishga yordam beradi.

Vatanparvarlik tarbiyasining **kognitiv komponenti** o‘quvchilarning ta’lim jarayoni orqali vatanparvarlik bilan bog‘liq bilimlarni olishga qaratilgan. Ushbu komponent bir nechta asosiy sohalarni qamrab oladi:

1. Mamlakat tarixini o‘rganish: kognitiv komponentning muhim jihati, bu talabalarni o‘z mamlakatlari tarixi bilan tanishtirish sanaladi;

2. Madaniyatni o‘rganish: madaniyat, shu jumladan san’at, adabiyot, musiqa va an’analar vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi;

3. An‘analarni o‘rganish: avloddan avlodga o‘tadigan urf-odat va an’analar ham kognitiv komponentning tarkibiy qismiga kiradi.

Kognitiv komponent doirasida olingan bilimlar vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish uchun nazariy asos yaratadi. Bu bilim talabalarga vatanparvarlikni nafaqat mavhum tushuncha, balki ularning shaxsiy va ijtimoiy o‘ziga xosligining bir qismi sifatida tushunish va qadrlash imkonini beradi. Kognitiv komponent nazariy bilimlarni amaliy harakatlar bilan bog‘laydi va talabalarning vatanparvarlik tashabbuslarida faol ishtirok etishlari uchun asos yaratadi.

Vatanparvarlik tarbiyasining **aksiologik komponenti** talabalarda vatanparvarlik bilan bog‘liq qadriyat yo‘nalishlarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu komponent talabalarga asosiy vatanparvarlik qadriyat va e’tiqodlarini singdirishda alohida ahamiyatga ega.

Birinchidan, aksiologik komponent Vatanga muhabbatni rivojlantirishni amalga oshiradi. Bu tuyg‘u nafaqat o‘z mamlakati bilan faxrlanishni, balki uning madaniyati, tarixi va an’analariga hissiy bog‘lanishni ham anglatadi.

TAMADDUN NURI

Ikkinchidan, aksiologik komponent milliy merosni hurmat qilishga qaratilgan. Bunga ajdodlarning madaniy va tarixiy yutuqlarini tan olish va saqlash, milliy urf-odatlar va ramzlarni hurmat qilish kiradi.

Uchinchidan, aksiologik komponent mamlakat taraqqiyotiga hissa qo‘shish istagini oshiradi. Bunga uning ijtimoiy va kasbiy hayotdagi rolini anglash hamda jamiyat, davlat rivojlanishining turli jihatlarida faol ishtirok etish istagi kiradi.

Ushbu komponent talabalarga vatanparvarlik qadriyatlarining hayoti va kasbiy faoliyatidagi ahamiyatini tushunishga yordam beradi. Aksiologik komponent Vatanga chuqur bog‘liqlik va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga yordam beradi, bu o‘z navbatida ularning kundalik xatti-harakatlari va kasbiy faoliyatiga ijobiy ta’sir qiladi.

Vatanparvarlik tarbiyasining **faoliyat komponenti** talabalar tomonidan vatanparvarlik tuyg‘usi borasida olingan bilimlari va qadriyatlarini amaliy qo‘llashga qaratilgan. Ushbu komponent talabalar o‘zlarining vatanparvarlik tuyg‘ularini rivojlantirishga va jamiyatdagi rollarini anglashga yordam beradigan turli xil tadbirlarda faol qatnashishlarini ta’minlashga qaratilgan.

Faoliyat komponentining birinchi jihati volontyorlar (ko‘ngillilar) loyihalarida ishtirok etish bilan bog‘liq. Ushbu loyihalar ijtimoiy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazishda yordam berish, yodgorlik joylarini obodonlashtirish va tiklash bo‘yicha ishlarni bajarish, mablag‘ yig‘ish aksiyalarida qatnashish yoki muhtojlarga yordam berishni o‘z ichiga olishi mumkin. Volontyorlik (ko‘ngillilik) faolliyati nafaqat ijtimoiy xizmat va shaxsiy mas’uliyatni targ‘ib qiladi, balki uning hayotida faol ishtirok etish orqali o‘z mamlakati uchun g‘urur tuyg‘usini kuchaytiradi.

XULOSA. Vatanparvarlik tarbiyasining **monitoring komponenti** talabalarda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirish jarayonini baholash va nazorat qilishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu komponent tarbiya jarayonini muntazam tahlil qilish va takomillashtirishga qaratilgan bo‘lib, uning samaradorligi va talabalar ehtiyojlariga muvofiqligini ta’minlaydi.

Birinchidan, monitoring komponenti tarbiya jarayonini samaradorligini muntazam kuzatish va tahlil qilishdan iborat. Bu vatanparvarlik tadbirlari o‘tkazilishini muntazam ravishda kuzatib borish, ularning talabalarga ta‘sirini baholash va ularning maqsadlariga erishishiga qanchalik muvaffaqiyatli hissa qo‘shishini tahlil qilishni o‘z ichiga oladi.

Ikkinchidan, erishilgan natijalarni baholash muhim vazifa bo‘lib, u o‘quvchilarning vatanparvarlik qadriyatlarini qanchalik yaxshi o‘zlashtirganligini, tarbiyaviy tadbirlarida qatnashgandan keyin ularning qarashlari va xatti-harakatlari qanday o‘zgarganligini baholashni o‘z ichiga oladi.

Uchinchidan, monitoring komponenti olingan ma’lumotlar asosida ta’lim jarayoniga o‘zgarishlar kiritishni o‘z ichiga oladi. Agar natijalar muayyan tadbirlarning samarasizligini yoki maqsadlar va real yutuqlarning nomuvofiqligini ko‘rsatsa, vatanparvarlik tarbiya jarayoniga o‘zgartirishlar kiritish kerak

Shunday qilib, OTM talabalarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimining har bir tarkibiy qismi o‘ziga xos o‘ringa ega hisoblanadi va ular birgalikda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirishga kompleks yondashuvni ta‘minlaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Шлыков, А.В. Патриотизм и патриотическое воспитание в ВУЗе / А. В. Шлыков. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2012. — № 8 (43). — С. 386-388.

2. Кодиров И.С. Патриотическое воспитание студентов в ВУЗЕ // Материалы XIV Международной студенческой научной конференции «Студенческий научный форум» URL: https://scienceforum.ru/2022/article/2018029853

3. Куликов С.П. Особенности патриотического воспитания студентов в отечественных вузах // Московский экономический журнал. 2019. №11. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-patrioticheskogo-vospitaniya-studentov-v-otechestvennyh-vuzah.

4. Пискунова, Т.В. Модификация ценностного содержания патриотизма в сознании российской молодежи: дис. … канд. социол. наук: 22.00.06 / Т. В. Пискунова. — Москва, 2010. — 157 с.

5. Таранцова А.В. Патриотическое воспитание молодежи в вузе: проблемы и перспективы / А.В.Таранцова. — Текст: непосредственный // Молодой ученый. — 2016. — № 5.1 (109.1). — С. 28-30. — URL: https://moluch.ru/archive/109/26311/

TAMADDUN NURI

6. Гладких В.В. Гражданско-патриотическое воспитание молодежи в поликультурной среде вуза: системно-деятельностный подход: дис. … д-ра пед. наук: 13.00.05 / В. В. Гладких. — Москва, 2011. — 435 с.

7. Joducation Untresor est cache dedans, Papporta J.Unes de la commision international Sur Joducation pour le XXI siecle presides por Jdeques Delars-Paris. 1996 s. 54.

8. Kurbanbayeva, M. (2024). Fuqarolik jamiyati g‘oyalarining milliy davlatchiligimizdagi o‘rni. Tamaddun nuri jurnali, 7(58), 247-250.

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 378:681.142.37

TALABALARDA MEDIASAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY MEDIANING IJTIMOIY-MADANIY VA SIYOSIY MAZMUNI

Madraximova Feruza Ruzimbayevna, Urganch davlat pedagogika instituti, pedagogika fanlari doktori, dotsent

SOCIOCULTURAL AND POLITICAL CONTENT OF MODERN MEDIA IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' MEDIA LITERACY

Madrakhimova Feruza Ruzimbaevna, Urgench State Pedagogical Institute, Doctor of Pedagogical Sciences, Associate Professor

СОЦИОКУЛЬТУРНОЕ И ПОЛИТИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ МЕДИА В РАЗВИТИИ МЕДИАГРАМОТНОСТИ СТУДЕНТОВ

Мадрахимова Феруза Рузимбаевна, Ургенчский государственный педагогический институт, доктор педагогических наук, доцент

https://orcid.org/0009-0002-8018-0162
e-mail: fmadraximova@list.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada “media”, “savodxonlik”, “mediasavodxonlik” tushunchalarining mazmuni va mohiyati, talabalarda mediasavodxonlikni rivojlantirishning pedagogik zaruriyat ekanligi xususida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: media, savodxonlik, mediasavodxonlik, ommaviy axborot vositalari, media ta’lim, media kompetensiya.

Abstract: This article examines the meaning and essence of the concepts of “media”, “literacy”, “media literacy”, and also the fact that the formation of media literacy in students is a pedagogical necessity.

Key words: media, literacy, media literacy, mass media, media education, media competence.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение и сущность понятий «медиа», «грамотность», «медиаграмотность», а также то, что формирование медиаграмотности у учащихся является педагогической необходимостью.

Ключевые слова: медиа, грамотность, медиаграмотность, СМИ, медиаобразование, медиакомпетентность.

KIRISH. Bugungi globallashgan dunyoda axborot tobora o‘zining strategik resurs ekanligini ko‘rsatmoqda. Bu holat, ayniqsa, xalqaro munosabatlar, xavfsizlik sohalarida yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Zero, zamonaviy xalqaro munosabatlar nazariyasini tushuntirishda yangi axborot texnologiyalarining roli juda muhim. Axborotga juda ko‘p ta’riflar berilgan bo‘lib, ularning aksariyatida axborotning aniq maqsadga yo‘naltirilganligi va yaxlit tizim sifatida himoyalanganlik holatiga urg‘u beriladi.

Axborotlashgan texnologik davr – yangidan-yangi axborotlarning tezlik bilan kirib kelishiga bog‘liq jarayonlardan iborat. Kirib kelayotgan axborotlar ijobiy yoki salbiy bo‘lishidan qat’i nazar, texnika vositalari, ayniqsa, Internet orqali kirib kelaveradi. Bu esa yoshlarning mafkurasiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi tahdidlarning asosini tashkil etadi.

Axborotlashgan davrda mamlakat taraqqiyoti uchun salbiy ta'sir ko'rsatuvchi axborotlar kirib kelishiga oid xavfsizlik ta'minlanmasa, mafkuraviy tahdidlarning kirib kelishi osonlashadi.

Yuqorida ko'rib turganingizdek, turli mualliflarning ta'riflaridagi ba'zi nomuvofiqliklar bo'lgan holda ham mediasavodxonlikning markaziy elementi turli media xabarlarini mustaqil tanqidiy tushunish jarayoni hisoblanmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Axborot texnologiyalarining asosi hisoblangan ommaviy axborot vositalaridan birinchi bo'lib, matbuot paydo bo'lgan. Uning yaratilishi 1440-yilda I.Guttenberg tomonidan ishlab chiqilgan nashrlarni chop etuvchi uskuna bilan bog'liq. 1609-yilda Germaniyada, 1622-yilda Angliyada, 1631-yilda esa Fransiyada ilk gazetalar paydo bo'ldi[1]. Yevropaning ilk gazetalari reklama varaqlari yoki epizodik siyosiy tarqatma materiallar bo'lgan. Boshqacha aytganda, matbuot rivojlanib borayotgan bozor ehtiyojlari va siyosiy voqealarga nisbatan texnik vazifani bajargan. Biroq vaqt o'tishi bilan, matbuot jamiyat rivojlanishining voqea-hodisalariga ta'sir o'tkaza oladigan vosita sifatida namoyon bo'la boshladi. Turli ijtimoiy guruhlar va qatlamlar o'z shaxsiy manfaatlarini mashhur qilish uchun matbuotdan foydalana boshladilar.

XIX asrning oxirida G'arbda ish soatlari miqdori kamayishi natijasida, bo'sh vaqt sohasini yengillashtirishga obyektiv zaruriyat tug'iladi. Dam olishga ajratilgan vaqt ortib borar, uni to'ldiruvchi faoliyat turlari esa o'z-o'zidan boshqa qadriyatlar tizimining paydo bo'lishiga olib keldi. Bu esa an'anaviy qadriyatlar va milliy madaniyatlarga ta'sir o'tkazmay qo'ymadi.

Bugungi kunda OAV orqali tarqalayotgan axborotlar insonlarning, ayniqsa, yoshlar qatlamini yanada "zamonaviy" bo'lish ruhiyati bilan tengdoshlariga taqlid qilishga yetakladi. Shuningdek, insonlarni urf bo'lgan mukammallikka va standart holatlarga yo'naltira boshladi. Buning oqibatida inson turli axborotlarning ommaviy iste'mol g'oyasini betanqid qabul qila boshladilar. Mazkur g'oya OAV tomonidan ommaviy madaniyatga ko'nikish yo'li orqali singdiriladi. Ya'ni, mafkuraviy tahdidlarning tashqi go'zal va oson qabul qilinuvchi g'oyalari, zamonaviy urf-uslublarining targ'ib etilishi, jiddiy fikrlashlarni talab qilmaydigan, hayot haqiqatlaridan uzoqlashtiruvchi yengil xayoliy ramzlar yoshlarni o'ziga jalb eta boshladi.

Ushbu o'rinda yoshlarning madaniy va ijtimoiy moslashuviga Internet tarmoqlari ta'sir eta boshlaydi. Bunda ular axborotga ega bo'lish, ta'lim olish, muloqot, o'z-o'zini ifoda etish, ijodiy rivojlanish, ish topish, ijtimoiylashuv imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Ko'rinib turibdiki, axborotlashtirish globallashuv jarayonlari bilan uzviy bog'liq holda kechmoqda. "Bugungi dunyoda mislsiz ilmiy kashfiyotlar, ulkan texnikaviy imkoniyatlar, universal texnologiyalar, axborot tarqatishning globallashuvi, ya'ni ularning butun kurrai zaminni qamrab olish jarayoni shiddat bilan bormoqda. Masalan, Internet tizimi orqali axborot almashuv, binobarin, g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlari ham tobora kengaymoqda. Aslida, axborot sohasidagi globallashuv insoniyat uchun, dunyoning barcha hududlaridagi odamlarning o'zaro muloqoti uchun, ilm-fan va madaniy boyliklarni o'zlashtirish ulkan imkoniyatlar yaratadigan jarayondir"[2]. Lekin bundan dunyoning ayrim manfaatparast kuchlari millatlar milliy madaniyatini yemiruvchi va axloqsizlikni targ'ib qiluvchi g'oyalarni tarqatish maqsadida foydalanmoqda.

Ushbu jarayonda global axborotlashuv asosiy rol o'ynaydi. Uning asl mohiyati haqida gapiradigan bo'lsak, jamiyatning global axborotlashuvi ilmiy-texnik, iqtisodiy va sotsial taraqqiyotning o'zagini tashkil etadi. Bugungi axborot asrida axborot strategik resurs sifatida tabiiy boyliklar, energiya manbalari qatoridan joy oldi. Boshqacha aytganda, axborot taraqqiyotning bosh omiliga aylangan. Taassufki, yuqorida aytganimizdek, axborotni taraqqiyot kushandasiga aylantirayotgan kuchlar ham yo'q emas. Bundan kelib chiqadiki, axborotlashtirish jarayonining ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, axborot sohasidagi yutuqlardan yomon niyatda foydalanish xavfi ham kundan kunga ko'paymoqda, ya'ni axborotdan jahonda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, davlatlarning suveren tengligi tamoyillariga amal qilish, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, kuchdan foydalanmaslik, ichki ishlarga aralashmaslik, inson huquq va erkinliklarini hurmat qilish kabi maqsadlarga zid ravishda foydalanilmoqda.

2018-yilda O'zbeksiton milliy axborot agentligi rasmiy saytida "Medimadaniyat va mediasavodxonlikni rivojlantirish asoslari" nomli

ilmiy maqolamiz e'lon qilingan. Shu o'rinda ushbu maqoladagi fikrlardan quyidagi iqtiboslarni keltiramiz: "Har qanday taraqqiy etgan jamiyat o'z rivojlanishining qaysi bosqichida bo'lmasin, insoniyatning xohish, ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qiladi. Shunday ekan, har qanday davr o'z taraqqiyoti davrida madaniyatning turli shakllarini yaratadi. Ushbu shakllar muayyan ma'noda insonning xohish, ehtiyojlarini qondira oladi. Biz bugungi kunda ommaviy aloqalar tizimi kengayayotgan axborot davrida yashar ekanmiz, bunda cheksizlikdan iborat media dunyosi muhim o'rin egallamoqda.

XX asrda ommaviy axborot vositalarining shiddatli rivojlanishi madaniyatning o'zgarishiga, yangi virtual aloqa dunyosining shakllanishiga olib keldi. Bunda axborotning ikki usuli, ya'ni insonga yo'naltirilgan usul va mediaga yo'naltirilgan usullari paydo bo'ldi. Insonga yo'naltirilgan usulda insonlar ommaviy axborot vositalarini o'z shaxsiy ehtiyojlariga qarab moslashtiradilar. Bu insonlarning ma'lumotlarni tanlab, qanday qabul qilishlaridan kelib chiqadi. Ular o'zlarining fikrlariga mos keladigan ma'lumotlarni tanlab oladilar, to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlarni esa hisobga olmaydilar. Mediaga yo'naltirilgan usul esa insonning ommaviy axborot vositalari ta'siriga bo'ysunishiga asoslangan. Bu inson ongiga giyohvand moddadek ta'sir o'tkazadi, unga qarshi borishning esa imkoni yo'q"[3].

Ma'lumki, ommaviy nashr, fotografiya, telegraf, telefon, radio, televideniye XX asr fenomenlari hisoblanadi. Shu bilan birga, ommaviy savodxonlikka asos bo'lgan bir qancha kutubxonalar, teatr, nashriyot, kino va telestudiyalarning paydo bo'lishi ham shular jumlasidandir. Davrlar o'tishi bilan kabel va sputnik televideniye, video, kompyuter kanallari, internet, elektron pochta, mobil aloqa kabilar yaratildi, natijada sayyoraviy global ongning shakllanishi boshlanib, u rivojlanish sari qadam tashladi. Shuningdek, media texnik mahsulotlarning belgisi sifatida namoyon bo'lib, u ommaviy mahsulotlarni iste'molchilar ongiga yetkazishda asosiy vosita vazifasini bajardi.

Hozirgi kunda mediamuhit juda murakkab tuzilishdan tashkil topib, u ijtimoiy-iqtisodiy hayot, jamiyat institutlari, ijtimoiy ong, ma'naviy va moddiy madaniyatni qamrab oladi. Bugungi kunda zamonaviy mediamakonda ekranli madaniyat yetakchilik qilmoqda. U o'z ichiga televideniye, kino, video, elektron manzil, kompyuter kanallari va internetni oladi. Ushbu vositalarning barchasi mediamuhitning tarkibiy qismi hisoblanib, biz asosi axborot hisoblangan jamiyatga aylandik[3].

Yuqoridagi vositalar orqali inson ongiga faqat ijobiy hodisalar ta'sir etadi, deya olmaymiz. Chunki mediamuhitdagi barcha ma'lumotlar ham ijobiy samara beravermaydi. Bugungi globallashuv davrida turli mafkuraviy tahdidlarning kirib kelishida muhitning tarkibiy qismiga kiruvchi texnik va elektron vositalar asosiy vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Amerikalik jamiyatshunos M.Kastels o'zining "Internet galaktikasi" kitobida: "Hozirgi davrda jamiyatda bir vaqtning o'zida bir qancha o'tish davri yoki jarayonlar sodir bo'lmoqda. Bulardan eng muhimi axborot jamiyatiga texnologik tashkiliy o'tish davridir. XXI asrdagi hokimiyat, boylik, ijtimoiy farovonlik va madaniy ijod ko'pgina hollarda axborot jamiyatining modelining rivojlanishiga bog'liq"[4] degan fikrlarni keltirgan.

Jamiyatda mentalitet va millatidan qat'i nazar, insonlarni umumiy bog'laydigan makon (infasfera)ga kirish natijasida inson uning ta'siriga tushib qoladi va o'z milliy qadriyatlaridan uzoqlashadi. Global mediamuhitning yaratilishi ma'lumotlar hajmining cheksiz o'sishi, reallikni buzuvchi zararli mediaviruslarning paydo bo'lishi insoniyatga katta xavf tug'diradi. U nafaqat medianing jamiyat ustidan bo'lgan hokimiyatini anglatadi, balki kibermakon (avtomatlashgan muhit)da milliy qadriyat va madaniyatning taqdiri haqida ham o'ylashga majbur etadi.

Media boshdanoq iste'molchi ongini egallab olib, uni xayollar dunyosiga g'arq qiladi. Buning ta'siri esa jiddiy salbiy holatlarga olib kelishi mumkin. Natijada media rivojlanib borishining so'nggida inson ongida to'liq amputatsiya (kesilish) sodir bo'ladi. Mediamahsulotining iste'mol qilinish jarayonida shaxsning insoniy mahoratlari o'z chegarasidan chiqib ketadi va shaxs o'zining ongidan "begonalashgan mantiq"qa ega bo'ladi. Bunday vaziyatda inson ma'naviy jihatdan juda ham nimjon mavjudotga aylanib qoladi. Ushbu jarayonda shaxs ongida kechayotgan jarayonlarni to'liq anglamagan holda o'zini o'zi aldaydi. Ya'ni, inson texnologiya unga berayotgan cheksiz imkoniyatlardan sarmast bo'lib yuradi. Bunda u xuddi optimistik ravishda suvda o'z aksini ko'rgan nargis guli sifatida o'zini o'zi yo'qotadi[3].

Ma'naviyat va yoshlarning ongiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi axborotlarning kirib kelishi jamiyat taraqqiyotiga zarar keltiradi. Hozirgi kunda ushbu jarayonlarning oldini olish uchun axborot xavfsizligi muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot xavfsizligi yaxlit xavfsizlik tizimining tarkibiy qismidir. Xavfsizlik tizimida axborot ham nazariy, ham amaliy jihatdan namoyon bo'ladi. "Axborot xavfsizligi" tushunchasi tarixan mavjud bo'lsa-da, ommaviy axborot vositalari va bu borada yangi texnologiyalarning yaratilishi, shuningdek, mavjud manfaatlar va ularga axborot kommunikasiyalari orqali zarar yetkazish mumkinligi mazkur masala dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Ayni paytda, axborot xavfsizligi serqirra tushuncha bo'lib, u turli sohalarda turlicha shakl va mohiyatga ega. Aloqa va axborotlashtirish sohasidagi axborot xavfsizligi, OAVdagi axborot xavfsizligi, davlat axborot xavfsizligi siyosati, kompyuter xavfsizligi, oddiy tashkilotdan tortib yirik transmilliy korporatsiyalarning axborot xavfsizligi shular jumlasidan. Mafkuraviy tahdidlarning oldini olishda esa, asosan, Internet orqali ma'naviy ongga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi, axloqsizlik g'oyalarini tarqatuvchi axborotlar va ulardan himoyalanish nazarda tutiladi. Umumiy ma'noda aytadigan bo'lsak, "axborot xavfsizligi" tushunchasi ostida shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlari sifatida axborot omili birinchi o'rinda turadi. Shuningdek, axborot va axborot infratuzilmasining turli ichki va tashqi, mavjud va ehtimoliy, tabiiy va sun'iy, texnik xavf-xatarlardan hamda axborot munosabatlari subyektlaridan himoyalanganligi tushuniladi.

Bugungi kunda yoshlarning Internet tarmoqlaridagi milliy axloq normalariga zid ma'lumotlardan uzoqlashishlari va o'zlari uchun foydali bo'lgan ma'lumotlardan foydalanishlarini tartibga solish asosiy vazifa hisoblanadi. Bu borada asosiy maqsad davlat hokimiyati organlari, vazirliklar va jamoat tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan jamlanma dasturlar tadbirlari, tadqiqot va ta'lim loyihalari orqali O'zbekistonda yoshlar Internetdan xatarsiz foydalanishlarini ta'minlaydigan texnologik vositalar va metodlarni ishlab chiqarish hamda kengroq tashviq etishdan iborat.

Shuningdek, O'zbekistondagi ijtimoiy hayot va ta'lim tizimida internet muhitining xatarsiz rivojlanish usullarini tizimlashtirish, mafkuraviy tahdidlardan yoshlarni himoya qilish texnik metodlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishdan iborat.

Bugungi kunda O'zbekistonda fan-texnika sohasida ham ko'pgina o'zgarishlar yuz bermoqda. Bunda, albatta, mediamuhitning roli ko'pgina ijtimoiy jarayonlarda muhim vosita sifatida o'sib bordi. Bu holat davlatning siyosiy va iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi, natijada jamiyat medialashtirildi hamda yangi mediamuhit shakllandi. Ushbu holat ochiq va demokratik ko'rinishda bo'lib, dunyoning keng axborot muhitiga eshiklar ochildi. O'tgan yillar mobaynida mamlakatimizdagi barcha tizimilarga axborot kommunikatsiya texnologiyalari joriy etildi. Barcha sohalarda umumlashgan va ruxsat etilgan ma'lumotlar bazasi paydo bo'ldi, madaniyat va axborot markazlarining keng tarmoqlari paydo bo'ldi.

Mamlakatimizda shakllangan mediamuhitdan samarali foydalanish bilan birga, ehtiyotkor munosabatda bo'lish asosiy vazifa hisoblanadi. Mediamakon ta'sirini insonlar ongiga o'z holicha tashlab qo'yib bo'lmaydi. Chunki media makon mafkuraviy tahdidlarning kirib kelishida yetakchi o'rinlarda turuvchi vosita sanaladi. Hozirgi globallashgan, mediamuhit va mediamakon taraqqiy etgan zamonda yashayotgan ekanmiz, ushbu jarayonda kirib kelayotgan mafkuraviy tahdidlardan himoyalanish zarur. Mediamakondan foydalanayotgan insonlar turli ijobiy yoki salbiy axborotlarni to'g'ridan-to'g'ri qabul qilavermasliklari uchun, avvalo, ularda mediamadaniyat va mediasavodxonlikni shakllantirish lozim.

Oliy ta'lim tashkilotlarida talabalar mediasavodxonlikni rivojlantirishda quyidagi ko'nikmalarni shakllantirishlari kerak: axborotga bo'lgan ehtiyojlarini anglash, axborot manbalarini aniqlashda qaysi axborot manbaidan foydalanish kerak: internet ma'lumotlari, kitoblar yoki televideniyedanmi? Birlamchi, ikkilamchi yoki uchlamchi manbalarning qaysi biridan foydalanish kerak? Axborot manzilini aniqlashda qayerdan izlagan ma'qul? Yordam olish uchun kimga murojaat qilish kerak? Axborot sifatini tahlil qilishda axborotning ishonchliligi va haqqoniyligini qanday aniqlash kerak? Axborotni saralash, saqlash va arxivlash: bir nechta axborot manbalaridan olingan axborotni qanday qilib samarali tashkil etish

mumkin? Axborotdan etikaga rioya qilgan holda foydalanish samarasi qanday? Axborot yaratuvchilarining mualliflik huquqlari buzilmasligi uchun qanday harakat qilish lozim, degan ko‘nikmalarni shakllantirish kerak.

Odatda estetik va kreativ ko‘nikmalar mediakontentni ijodiy jihatdan anglash, yaratish va talqin etish qobiliyatini bildiradi. Mediakontentni yaratish orqali talabalar mazkur ko‘nikmalarni o‘zida shakllantirishi mumkin. Interfaollik ko‘nikmalari media orqali muloqot qilish va turli mediarollarni bajarib ko‘rish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Mazkur ko‘nikmalarni ta’lim va amaliyot doirasida rivojlantirish mumkin. Interfaollik ko‘nikmalari o‘z fikri va qarashlarini ifoda etishga tayyorligini ko‘rsatadi.

Oliy ta’lim tashkilotlari talabalarida mediasavodxonlikni shakllantirish jarayonida ularning bevosita media bilan aloqadorligi haqida to‘xtalib o‘tish lozim. Talabalarning media bilan bog‘liqligi ularning erkin bayon qilishida, hurfikrlikni, madaniyatlararo muloqotni, bag‘rikenglikni va mamlakatni boshqarishda, mas’uliyatni ta’minlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda talabalarning bir-birlari bilan uzluksiz muloqotlarini amalga oshirishga ko‘mak berish, xabarlar, g‘oyalar va axborotni tarqatish, jamiyatdagi barcha a’zolarning axborotga egalik qilishini ta’minlash, turli ijtimoiy jarayonlar ishtirokchilari o‘rtasida muloqot o‘rnatish, talaba-yoshlarda mamlakat kelajagi uchun mas’uliyat va birlashish hissini shakllantirish, jamiyatda o‘z-o‘zini anglashi uchun turli imkoniyat va vositalarni taqdim etish, madaniy o‘zligini namoyon qilish, ijtimoiy hayot shaffofligini ta’minlash, turfa fikrlilik qadriyatlarini hurmat qiluvchi ijtimoiy hamkor funksiyalarini amalga oshirish, madaniy meros saqlanishini ta’minlashdan iborat.

Shaxsning ijtimoiy ongi va ijtimoiylashuvini shakllantiruvchi tarixi madaniy rivojlanish jarayonida insoniyat tomonidan ishlab chiqilgan OAVning yig‘indisi mediamadaniyat hisoblanadi. Mediamadaniyat o‘zining shakllanib borishi jarayonida axborotni qabul qilish va taqdim etish funksiyalarini bajaradi. Mediamadaniyat jamiyat bilan birga uning ijtimoiy-madaniy jihatdan zamonaviylashishida muhim dinamik holat hisoblanadi.

Mediamuhitning milliy madaniyat va san’atga ta’siri kuchli. Bu hol milliy san’at asarlarida asllikning barbod bo‘lishi va yo‘qolishiga olib kelishi mumkin. Ya’ni, zamonaviy san’atda texnik nusxa olishning cheksiz imkoniyatlari ko‘payishi bilan birga, asllik va nusxa o‘rtasidagi ontologik hamda ijtimoiy chegaralarning yo‘q bo‘lishiga olib keladi. Buning natijasida san’atning siri va qadri kabi tushunchalar o‘z ahamiyatini yo‘qotadi. Bundan tashqari, nusxa ko‘paytirishning an’anaviy noyob texnikasi o‘rnini ommaviy nusxalash egallaydi. Bunda yakka iste’molchining o‘rni zamonaviy ommaviy iste’molchilar madaniyati bilan almashadi[5].

So‘nggi yillarda axborot oqimining bir necha barobar tezlashishi, ijobiy ma’lumotlar bilan bir qatorda salbiy xarakterdagi axborotning ko‘payishi mediasavodxonlikka ega bo‘lish zaruratini qo‘ydi. An’anaviy tarzda mediasavodxonlik shaxsning adabiy asarlarni tahlil eta olish va sifatli matnlarni yaratishdan iborat bo‘lgan. Bugun mediasavodxonlik – bu axborotning nega va nima uchun uzatilayotganligini bilish demakdir.

Mediasavodxonlik tushunchasi borasida olimlarning turli fikrlari mavjud bo‘lib, Londonning Qirollik universiteti professori S.Fayrstounning fikriga ko‘ra esa, mediasavodxonlik bu harakat bo‘lib, uning asosiy vazifasi insonlarni audiovizual va bosma matnlarning madaniy ahamiyatini tushunish, yaratish va baholashga undashdan iborat. Ingliz siyosatshunosi R.Kibey esa mediasavodxonlikni turli xil shakllarda ma’lumotlarni uzatish, ularni tahlil etish va baholash deb tushunadi[5]. M.Guetterz esa multimediasavodxonlik o‘z ichiga multimedia hujjatlarini shakllantirishga qaratilgan tillarni bilish, axborotni qayta ishlashga qaratilgan qurilma va usullardan foydalana olish, yangi multimedia texnologiyalarini bilish va ularni baholay olish, mediamatnlarni tanqidiy qabul qilishni o‘z ichiga oladi deydi.

NATIJALAR. Fikrimizcha, mediasavodxonlik inson jamiyatda fuqarolik mas’uliyatini his qilgan holda, mediamahsulotlarni qabul qila olishi, yaratishi, tahlil eta olishi va baholashi, zamonaviy medianing ijtimoiy-madaniy va siyosiy mazmunini tushuna olishidir. Qolaversa, mediasavodxonlik har bir uzatilayotgan axborotlarga rasional yondashish va xolis qarash hamda internet orqali uzatiladigan salbiy g‘oyalarini o‘zida ifoda etuvchi axborotlarning mohiyatini tushungan holda tahlil qila olishdir.

Mediamadaniyat va mediasavodxonlik bir-biriga uzviy holda aks etadi, rivojlanadi. Bugungi kunda mediata'lim, mediamadaniyat, mediasavodxonlik kabi yo'nalishlarni yanada takomillashtirilishi va bu borada turli ijtimoiy institutlar va tizimlarning ta'sir darajasini chuqurroq tahlil etish muhim. Shu bilan birga, mediamadaniyat va mediasavodxonlik rolining o'sishi (mamlakat va mintaqa, hukumat va jamiyat, jamiyat va shaxs o'rtasida bog'lovchi vosita sifatida), mediamuhitda sodir bo'layotgan o'zgarishlar xarakteri hamda unga ta'sir qiluvchi ijtimoiy madaniy omillarning sabablarini aniqlash bugungi davr nuqtayi nazaridan muhim hisoblanadi.

Shaxs va madaniyatning o'zgarishi yosh avlodning jiddiy muammolarga duch kelishiga sabab bo'lmoqda. Bunday o'zgarishlar, asosan, ommaviy axborot vositalarining ta'siri ostida sivilizasiyaning taraqqiy etishi bilan bog'liq holda sodir bo'lmoqda.

Bizga ma'lumki, ommaviy axborot vositalari mamlakat va dunyodagi yangilik va xabarlarni uzatish orqali shaxsning dunyoqarashi va bilimini oshirishga xizmat qiladi. Ommaviy axborot vositalari kanallari orqali uzatiladigan kichik xabardan tortib, yirik tahliliy materialgacha, hattoki reklama va e'lonlar ham aholiga eng so'nggi yangiliklar, tovarlar va xizmatlar sohasidagi o'zgarishlar haqida ma'lumot berar ekan, aholini zamonning eng so'nggi yutuqlaridan boxabar bo'lishga, ulardan foydalanib yashashga o'rgatadi. Ta'bir joiz bo'lsa, ommaviy axborot vositalari orqali bunday ta'sir, ya'ni shaxs bilimi, dunyoqarashi va yashash tarziga ta'sir etish insonning butun hayoti davomida uzluksiz tarzda har kuni amalga oshadi. Kundalik hayotida internet texnologiyalari va mobil telefonlardan faol foydalanayotgan yoshlar uchun esa mazkur jarayonlar yanada faolroq ro'y bermoqda. Hozirga kelib, ta'lim muassasalarida dars mashg'ulotlarida aynan televizion mahsulotlar, videolavhalar, matbuot nashrlari materiallari, internet sahifalarida e'lon qilingan materiallardan unumli foydalanish keng ommalashayotganini e'tiborga olsak, mediata'lim asosida mediamadaniyat va mediasavodxonlik yoshlar turmush tarzining muhim qismlaridan biriga aylanib borayotganini kuzatish qiyin emas.

Bugungi kunda mediata'lim, mediasavodxonlik, mediamadaniyatni o'rganishga bo'lgan intilishning asosiy maqsadi mafkuraviy tahdidlarni o'zida aks ettirgan axborotlarning yaratilishi, uning tarqalish sabablarini tushunib yetish, tijorat, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va madaniy maqsadlarda tarqatilayotgan bunday salbiy axborotlarning asl maqsadini to'g'ri anglagan holda uni baholay olishdan iboratdir.

MUHOKAMA. Mediasavodxonlik talabalarga ommaviy axborot vositalarining hayotidagi ahamiyatini tushungan holda tanqidiy nuqtai nazardan ular bilan muloqot qilishda yordam beradi. Mediasavodxon talaba mediamatnlarni tanqidiy va ongli ravishda baholaydi, ommaviy madaniyatga nisbatan tanqidiy masofani saqlaydi va media manipulyatsiyasiga qarshi tura oladi. Mediasavodxonlik quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

- talabalarda OAVda muayyan voqelikni mustaqil yarata olishi va buning usullarini tahlil qilish uchun zarur bo'lgan kompetensiyani rivojlantirish;
- ommaviy axborot vositalari orqali tarqalayotgan ma'lumotlarning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy mohiyatini anglashi, targ'ib qilinayotgan material haqida to'liq bilimga ega bo'lish;
- mediamatnlarni mustaqil baholay olishi va idrok etish darajasini rivojlantirish;
- madaniy qadriyatlarning amaliy ahamiyatini, ulardagi g'oyalarni tan olish va baholash maqsadida mediamatnlarni dekodlash;
- turli xil texnik foydalanish va mediamatnlarni yaratishni tan olish, tahlil qilish va qo'llash;
- mediamatnlarni yaratuvchilar buni turli motivlar asosida amalga oshirishlarini bilish;
- har bir shaxs mediamatnlarni tadqiq qilishni tanlab va tahliliy jarayonida ishtirok etishini tushunishdan iborat. Ushbu jarayon va u bilan bog'liq ma'nolar psixologik, ijtimoiy va tabiiy omillarga bog'liq bo'ladi.

Shuningdek, yoshlarning axborot bilan ishlashi, axborot qidirishi, zarurlarni ajrata bilishi, qayta ishlashi, tartibga keltirishi, axborot mazmunini tushunish mantiqiy yaqinlarini ajratishi muhim masalalar sirasiga kiradi. Chunki shular asosida yoshlarda axborot iste'mol madaniyati shakllanadi. Shuning barobarida axborot-kommunikatsiya vositalari yoshlar ta'lim jarayonining muhim qismiga aylanar ekan, turli ommaviy axborot vositalari materiallari, xususan, xalqaro hayot, boshqa davlatlar aholisining yashash tarzi haqidagi tahliliy axborot materiallari, xalqaro xarakterdagi

reklamalarni uzatishda ularning davlatimiz yoshlari dunyoqarashiga qanday ta’sir etishi mumkinligini hisobga olish zarur.

XULOSA. Yoshlarning internet tarmog‘iga ko‘p tashrif buyurishini e’tiborga olib, tarmoqda milliy axborot tizimi va manbalarini yanada boyitishga harakat qilish kerak. Yoshlarni internetdagi axborot xurujlaridan himoyalashda shu davrgacha global makonda milliy axborot manbalarini kuchaytirish tajribalarini o‘rgangan holda, o‘zbek tilidagi foydali saytlar mazmunini boyitishga intilish zarur bo‘ladi. Zero, zamonaviy jamiyatda ijtimoiy modernizatsiya jarayoni, fuqarolik jamiyatining shakllanish jarayonlari, albatta, XXI asrda yashovchi shaxsning mediamadaniyati va mediasavodxonligi bilan uzviy bog‘liq.

Mediasavodxonlikning asosiy jihati mediamuhitga tahliliy yondashuv, ya’ni uni tanqidiy qabul qilish va media vositasida o‘zini ifoda etishdan iborat. Mediasavodxonlik estetik va kreativ ko‘nikmalar, media kontentni ijodiy jihatdan anglash, yaratish va talqin qilish qobiliyatini bildiradi. Mediakontentni yaratish orqali talaba mazkur ko‘nikmalarni o‘zida shakllantirishi mumkin. Shuningdek, interfaollik, tanqidiy tahdid va xavfsizlik ko‘nikmalarini ta’lim va amaliyot doirasida rivojlantirish mumkin. Shuning uchun, oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining mediasavodxonligini rivojlantirish masalasi ta’lim oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Федотова Л.Н. Социология массовой коммуникации. СПб., 2003. -С. 30.
2. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. -Т.: Ўзбекистон, 2000, -Б.23.
3.https://uza.uz/uz/oz/society/mediamadaniyat-va-mediasavodkhonlikni-shakllantirish-davr-ta-18-12-2018
4.Fundamentals of Library and Informational science‖, by Abduwahab Olanrewaju. ISSA, Ph.D in 2013, -P. 133.
5. Harris, M.H. History of Libraries in the Western World, 4th ed. Scarecrow, 2011. –p.41.

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK:159.9

KASB-HUNAR MAKTABI O‘QUVCHILARIDA TA’LIM MOTIVATSIYASINING O‘RGANILISHI

Urazbayeva Yulduz Abdullayevna, Ma’mun universiteti “Psixologiya va tibbiyot” kafedrasi o‘qituvchisi

STUDY OF EDUCATIONAL MOTIVATION IN VOCATIONAL SCHOOL STUDENTS

Urazbayeva Yulduz Abdullayevna, teacher of the “Psychology and Medicine” department of Ma’mun University

ИССЛЕДОВАНИЕ УЧЕБНОЙ МОТИВАЦИИ УЧАЩИХСЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ШКОЛ

Уразбаева Юлдуз Абдуллаевна, преподаватель кафедры «Психология и медицина» университета Маъмун

https://orcid.org/0009-0007-3208-6477
e-mail: Urazbaeva2411@gmail.com

Annotatsiya: Respublikamizda so‘nggi yillarda kasb-hunar ta’limi tizimi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun muhim bo‘lgan sohalardan biriga aylangan. Mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida kasb-hunar ta’limini modernizatsiya qilish va o‘quvchilarning ta’lim motivatsiyasini oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Mazkur maqolada kasb-hunar maktabi o‘quvchilarining ta’lim motivatsiyasi namoyon bo‘lishi, motivatsiya tizimiga ta’sir qiluvchi omillar va ilmiy adabiyotlarda motivatsiya talqini qay darajada o‘rganilganligi tahlil qilingan. Shuningdek, kasb-hunar maktabi o‘quvchilari ta’lim motivatsiyasi diagnostikasi va uning natijalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: motiv, munosabat, inson kamoloti, ijtimoiy motiv, kasbiy motiv, o‘zini namoyon qilish.

Abstract: In recent years, the system of vocatinal educational in our country has become one the important areas for the socio-economic development of the country. As part of the reforms implemented in the country, great attention is being paid to the modernization of vocational education and increasing the educational motivation of students.

In this article, the manifestation of educational motivation of vocational school students,the factors affecting the motivation system, and the extent to which the interpretation of motivation has been studied in scientific literature have been analyzed. Diagnostics of educational motivation of vocational school students and its results are also presented.

Key words: motive, attitude, human development, social motive, professional motive, self-expression.

Аннотация: В последние годы система профессионального образования в нашей стране стала одним из важных направлений социально-экономического развития страны. В рамках реализуемых в стране реформ большое внимание уделяется модернизации профессионального образования и повышению учебной мотивации студентов.

В данной статье проанализировано проявление учебной мотивации учащихся профессиональных лицеев, факторы, влияющие на систему мотивации, а также степень изученности трактовки мотивации в научной литературе. Также представлена диагностика учебной мотивации учащихся профессиональных лицеев и ее результаты.

Ключевые слова: мотив, установка, человеческое развитие, социалный мотив, профессиональный мотив, самовыражение.

KIRISH. Kasb-hunar maktabi o‘quvchilarida ta’lim motivatsiyasining namoyon bo‘lishi murakkab psixologik jarayon bo‘lganligi sababli turli ichki va tashqi omillar ta’sir ko‘rsatishi tahlil qilinib kelingan. Ushbu jarayon ta’lim jarayonidagi o‘quvchining faoliyatini belgilovchi psixologik mexanizmlarni o‘z ichiga olar ekan, ularning ta’limga bo‘lgan motivatsiyasi ehtiyojlar bilan chambarchas bog‘liqligi ma’lum.

Tadqiqotchi A.Maslouning ehtiyojlar iyerarxiyasi nazariyasiga ko‘ra, o‘quvchilar dastlab o‘zlarining fiziologik va xavfsizlik ehtiyojlarini qondirishlari lozimligi, shundan so‘ng ular o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘qishga bo‘lgan motivatsiyani his qila boshlashlari ta’kidlanadi. O‘quvchi o‘z qiziqishlari va shaxsiy maqsadlariga erishishi uchun o‘qishga munosabatida motivatsiya ta’sir qiladi. Bu jarayonda o‘quvchining o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan qiziqishi, ijodkorlik va mustaqil fikrlash muhim rol o‘ynaydi.

N.A.Bernshteyn motivatsiyaning biologik mexanizmlariga tayanib insonning yuksak darajada rivojlanish imkoniyatlari mavjudligini tushuntirishga harakat qilgan [1]. Tadqiqotchilar I.A.Vasilyev va M.Sh.Magomed-Eminovlarning fikricha, Ch.Darvinning evolyutsiya nazariyasi motivatsiya muammosini uch yo‘nalishda tadqiq etishda asos sifatida xizmat qilishini bildirishgan[5]. V.N.Myasishchev esa shaxsning munosabat pozitsiyasiga asoslangan holda motivlar muammosi bilan shug‘ullanib, motiv- bu shaxsning munosabati sifatida yuzaga kelishini, motiv harakat obyektiga nisbatan munosabatning ifodalanishidan boshqa narsa emasligini bildiradi [3]. A.G.Kovalyov motivga shaxsning ehtiyoji bilan uyg‘unlashuvi nuqtayi nazaridan yondashib, ularning o‘zaro ta’siri, o‘rin almashuvi, tenglashuvi mumkinligi to‘g‘risida mulohaza yuritgan [2]. P.M.Yakobson motivlar muammosini o‘rganib, turli qarashlar, yondashuvlarni tahlil qilib, o‘qish va mehnat faoliyati motivlari masalasida shaxsning asosiy xususiyatlari bilan motivatsion doirasi o‘zaro bog‘liqlikda rivojlanishini tahlil qilgan [8]. S.G.Moskvichev motivatsiyaga nisbatan g‘arb mamlakatlari olimlarining qarashlarini tanqidiy tahlil qilib, mehnat faoliyati motivlarining inson kamoloti bilan bog‘liq tomonlarini ilmiy asoslashga harakat qilgan [7]. V.D.Shadrikov faoliyat tizimining funksional psixologik modeliga asoslangan holda motivatsiyani faoliyatli yondashuv orqali o‘rganishga harakat qilib, unda motivlarning kasbiy (professional) tayyorgarlikdagi o‘rni, ahamiyatini ko‘rsatib o‘tgan [10]. B.A.Frolov fikricha, birinchi (ichki) ko‘rinish olimga tadqiqot predmetini o‘stirishga yo‘llanma beradi, ikkinchi (tashqi) ko‘rinish uning yuksak natijalarga erishishiga, mukofot olishga, yutuq, shon-shuhratga undashini aytadi [11].

Mamlakatimiz psixolog olimlari E.G‘.G‘oziyev, G‘.B.Shoumarov, A.M.Jabborov, Z.T.Nishonova, N.S.Safoyev, N.G‘.Komilova, B.M.Umarov, R.S.Samarov, G.Q.To‘laganova, I.M.Hakimova, N.T.Norqulova, F.F.Rasulovalar motiv va motivatsiya muammolari, xususan voyaga yetmaganlar tarbiyasida yuzaga keladigan muammolar va qiyinchiliklarning motivatsion asoslarini o‘rganish sohasida bir qator nazariy va amaliy masalalarni hal qilishga yo‘naltirilgan tadqiqot ishlari olib borilganligini e’tirof etishimiz mumkin[6].

I.M.Hakimova o‘z tadqiqotlarida deviant xulq-atvor psixologiyasini o‘rganib, mazkur xulq-atvorning shakllanishi bilan bog‘liq omillar, ularning turlari, delikvant axloq va agressiv xulq shakllari, suitsidal axloq va shaxs axloqining anomal turlari psixologiyasi, ruhiy-jinsiy rivojlanish psixologiyasi, jinsiy rolli axloq stereotipining buzilish shakllarini tadqiq etgan bo‘lsa, G.Q.To‘laganova tarbiyasi qiyin voyaga yetmaganlar, deviant xulq psixologiyasi va uning korreksiyasiga alohida etibor qaratgan[9].

N.T.Norqulova affiliatsiya motivini talabalar ma’naviy qiyofasini shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik omil sifatida o‘rgangan [4].

Ana shu nazariyalarga asoslangan holda biz tadqiqot ishimizda talabalarda ta’lim motivatsiyasining rivojlanish mezonlari va ko‘rsatkichlarini aniqlashda ularning o‘ziga xos sifatlarini o‘rganish, talabalikda ustuvorlik qiluvchi mexanizmlarni aniqlash maqsadida A.A.Rean va V.A.Yakuninning “O‘quv motivatsiyasini diagnostika qilish metodikasi”dan foydalandik va quyida ntijalar keltirilgan.

TAMADDUN NURI

“O‘quv motivatsiyasini diagnostika qilish” metodikasi bo’yicha olingan dastlabki natijalar tahlili (n=210)

Shkalalar nomi	O‘rtacha(M)		Farqlar
	1-kurs n=110	2-kurs n=100	T
Kommunikativ motivlar	14,6	17,5	-2,4*
O‘zini olib qochish motivlari	19,3	16,4	-2,8*
Obro‘-e’tibor motivlari	19,3	20,2	-1,3
Kasbiy motivlar	18,6	20,3	-2,4*
O‘z-o‘zini ijodiy namoyon qilish motivlari	7,5	8,4	-1,5
Bilishga va o‘qishga oid motivlar	22,2	24,6	-2,3*
Ijtimoiy motivlar	19,4	22,7	-2,5*

“O‘quv motivatsiyasini diagnostika qilish” metodikasi bo‘yicha olingan dastlabki natijalar tahliliga ko‘ra, “kommunikativ motivlar” (t=-2,4; p<0,05), “o‘zini olib qochish motivlari” (t=-2,8; p<0,05), “kasbiy motivlar” (t=-2,4; p<0,05), “bilishga va o‘qishga oid motivlar” (t=-2,3; p<0,05) hamda “ijtimoiy motivlar” (t=-2,5; p<0,05) omillari bo‘yicha ahamiyatli tafovutlar kuzatildi.

Metodikaning dastlabki “kommunikativ motivlar” omili bo‘yicha, 2-kurs o‘quvchilarida ijobiy natijalar kuzatildi (t=-2,4; p<0,05). Mazkur natijalar tahliliga ko‘ra, ularda o‘zaro muloqot qilish, boshqa odamlar bilan bilim almashish va ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish istagi yuqori darajada rivojlanganligi dalillandi. Ushbu motivlar o‘quvchilarning ta’lim jarayonida jamoaviy ishlarga va muloqotga bo‘lgan ehtiyojlari bilan bog‘liqdir. Kasb-hunar maktabilarida kommunikativ motivlar kuchliroq bo‘lganda, o‘quvchilar bir-biriga yordam berish, guruhiy loyihalarda ishtirok etish va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga intilishi ma’lum bo‘ldi. Mazkur motivlar o‘quvchilarning o‘rganish jarayonida faolligini oshiradi, chunki ular o‘z bilimlarini muhokama qilish va boshqa o‘quvchilarning fikrlari bilan boyitishni istaydilar. Ushbu omil, shuningdek, ta’lim olish jarayonida ijtimoiy ta’sirning rolini kuchaytiradi, chunki o‘quvchilar o‘zaro aloqalar orqali yanada samarali bilim oladilar. Kommunikativ motivlar, o‘z navbatida, o‘quvchilarning ta’lim jarayonida o‘zini qulay his qilishiga yordam beradi. Ta’lim jarayonida ijtimoiy aloqalarning kuchayishi ularning o‘zlashtirish qobiliyatini oshirishi mumkin. Shuningdek, bu motivlar o‘quvchilarning muloqot qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi va ularni jamiyat bilan moslashish jarayonida muhim rol o‘ynaydi.

“O‘zini olib qochish motivlari” omili bo‘yicha 1-kurs o‘quvchilarida yuqori natija qayd etildi (t=-2,8; p<0,05). Bu shundan dalolat beradiki, ularda o‘qish jarayonidan yoki ta’lim muhitidan qochishga bo‘lgan istakning yuqoriligi, qiyinchiliklar, stress va ta’lim jarayonida muvaffaqiyatsizlikka uchrashlari namoyon bo‘ldi. Shuningdek, o‘quvchilarda bu motivlar rivojlangan bo‘lsa, ular ko‘pincha sinf vaziyatlaridan chetlashishga va ta’limga kamroq e’tibor qaratishga moyil bo‘lishadi. O‘zini olib qochish motivlari o‘quvchilarning o‘quv jarayonidan qochish uchun sabab bo‘luvchi salbiy tajribalar bilan bog‘lanadi. Bu motivlar ko‘pincha o‘zini ishonchsiz his qilish, muvaffaqiyatsizliklardan qo‘rqish va ijtimoiy bosim tufayli paydo bo‘ladi. Ushbu omil, shuningdek, o‘quvchilarning ta’lim muhitidagi stress va bezovtalik darajasini oshirishi mumkin. O‘zini olib qochish motivlariga ega bo‘lgan o‘quvchilar ko‘proq motivatsiya va psixologik yordamga muhtoj bo‘lishi mumkin. Ushbu motivlarni o‘rganish orqali o‘qituvchilar o‘quvchilarga ta’lim jarayonida qiyinchiliklarni yengishda yordam bera olishlari muhimdir.

“Kasbiy motivlar” omili bo‘yicha 2-kurs o‘quvchilarida yuqori natija kuzatildi (t=-2,4; p<0,05). Mazkur natijalar tahliliga ko‘ra, kasbiy motivlar o‘quvchilarning o‘z kasbini muvaffaqiyatli egallash va kelajakda yaxshi ish topish istagi bilan bog‘liq ekanligi isbotlandi. Ushbu motivlar kasb-

hunar maktabilarida o‘quvchilarning ta’lim olishdagi asosiy maqsadlaridan biri bo‘lib, kasbiy bilimlarni chuqur o‘zlashtirish istagini ko‘rsatadi. Kasbiy motivlar kuchli bo‘lsa, o‘quvchilar o‘z kelajakdagi kasbiga nisbatan yuqori qiziqish bilan ta’lim oladilar. Bu motivlar kasb-hunar maktablarida o‘quvchilarning ta’lim jarayonida ko‘proq e’tiborli va faol bo‘lishlariga yordam beradi. Kasbiy motivlar o‘quvchilarning kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatlari uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni egallashga qaratilganligi sababli, ularning motivatsiyasi yanada barqaror bo‘ladi. Ushbu motivlar, shuningdek, o‘quvchilarning amaliyotlarda va kasbga oid mashg‘ulotlarda ishtirok etishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Kasbiy motivlarni rivojlantirish orqali o‘quvchilar o‘zlarining ta’lim maqsadlariga erishishda yanada samarali bo‘lishadi. Ushbu omil o‘quvchilarning kasbga oid bilimlarini kengaytirishga, ularni kelajakdagi professional hayotga tayyorlashda katta rol o‘ynaydi.

Navbatdagi, “bilishga va o‘qishga oid motivlar” 2-kurs o‘quvchilarida ijobiy natija qayd etildi ($t=-2,3$; $p<0,05$). Mazkur natijalar tahliliga ko‘ra, bilishga va o‘qishga oid motivlar o‘quvchilarning bilim olishga va yangi narsalarni o‘rganishga bo‘lgan ichki qiziqishini ifodalaydi. Ushbu motivlar o‘quvchilarning o‘z bilimlarini oshirish va o‘qish jarayonida yangi bilimlarga ega bo‘lishga bo‘lgan istaklarini kuchaytiradi. Bilishga bo‘lgan motivlar kuchli bo‘lsa, o‘quvchilar ko‘proq o‘rganishga intiladi va o‘zlarini rivojlantirish uchun doimo yangi bilimlar izlaydi. Bu motivlar o‘quvchilarning mustaqil ravishda o‘qish va yangi ma’lumotlarga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Bilishga va o‘qishga oid motivlar, shuningdek, o‘quvchilarning o‘z maqsadlariga erishish yo‘lida aniq va qat’iy bo‘lishlariga yordam beradi. Ushbu motivlar o‘quvchilarning ta’lim jarayonida ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. O‘quvchilarning bilishga bo‘lgan qiziqishi ularni o‘qishda muvaffaqiyatli bo‘lishlari uchun zarur bo‘lgan resurslarni izlashga undaydi. Bilimga intiluvchan o‘quvchilar o‘z o‘quv jarayonlarini yanada samarali tashkil etishga harakat qiladi va doimiy ravishda o‘zlarini rivojlantirib borishadi.

Metodikaning so‘nggi “ijtimoiy motivlar” omiliga ko‘ra, 2-kurs o‘quvchilarida yuqori natija aniqlandi ($t=-2,5$; $p<0,05$). Bu shuni anglatadiki, ularda o‘zlarini jamiyatda qanday tutishlari, ijtimoiy muhitga moslashishlari va jamoaviy ishlarda ishtirok etishlariga asoslangan motivlar yuqori darajada ekanligi kuzatildi. Ushbu motivlar o‘quvchilarning ta’lim jarayonida ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish va jamoa bilan ishlash qobiliyatlarini oshirishga yo‘naltirilgan. Ijtimoiy motivlar kuchli bo‘lgan o‘quvchilar, odatda, guruhiy ishlarda faol ishtirok etadi va ijtimoiy o‘zaro ta’sirlarni qadrlaydi. Bu motivlar ijtimoiy muhitda o‘z o‘rnini topishga va jamiyatga moslashishga yordam beradi. Ijtimoiy motivlar ta’lim jarayonida ijtimoiy o‘zaro ta’sirlar orqali bilim olishning samaradorligini oshiradi. Ushbu omil o‘quvchilarning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga va jamoaviy ishlarda samarali ishtirok etishga yordam beradi. O‘quvchilarda ijtimoiy motivlar kuchli bo‘lsa, ular boshqalar bilan o‘zaro aloqalarni rivojlantirishga intiladi va ijtimoiy ta’sirni o‘zlashtirishni o‘rganadi. Bu motivlar ularni jamiyatga foydali va muvaffaqiyatli inson bo‘lish yo‘lida ijtimoiy mas’uliyatni his qilishga undaydi.

XULOSA sifatida aytish mumkinki, kasb-hunar maktabi o‘quvchilarida ta’lim motivatsiyasi namoyon bo‘lishi o‘quvchilar orasida o‘z-o‘zini rag‘batlantirish darajasining oshishiga, ta’lim jarayonida muvaffaqiyatga erishish ehtimolini oshirar ekan. Motivatsiyaning ta’siri o‘quvchilarning tashqi rag‘batlantirish vositalari orqali o‘zini-o‘zi baholash qobiliyatlarini rivojlantirishga, ta’lim faoliyatlariga ijtimoiy mukofotlar va baholashlar orqali yanada qiziqish bilan yondashishlari hamda o‘zlarining o‘qishdagi muvaffaqiyatlariga tayanishi kuzatildi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Бернштейн Николай Александрович // Большая российская энциклопедия — М.: Большая российская энциклопедия, 2004.
2. Ковалёв В.И. Мотивы поведения и деятельности.-М.:Наука, 1988.-192 с.
3. Мясищев В.Н. Психология отношений. Воронеж: НПО МОДЕК., И998. - 362 с.
4. Norkulova N.T. Affiliatsiya motivi - talabalar ma’naviy qiyofasini shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik omil. Psixologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Toshkent – 2016. - 350 b.

5. Сафаев Н.С. Психологические особенности национального самосознания студенческой молодёжи: Дис. ... канд. псих. наук.- Т.: УзНУ, 2005. – 293 с.
6. Salomova G.Sh. Talaba-yoshlarda etnomadaniy kompetentlikni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psix.f.n.dis. - T., 2020. - 179 b.
7. Xalilova N.I. O‘smirlik davrida o‘zini o‘zi nazorat qilish shakllanishining psixologik xususiyatlari. Psixologiya fanlari nomzodi ilmiy darajacini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Toshkent – 2010. - 156 b.
8. 8. Якобсон П.М. (2005). Психологические проблемы мотивации человека [Psychological problems of human’s motivation].
9. Shirinov O.T. Ta’lim tizimida yoshlarning etnomadaniyatga qadiryatli munosabatini shakllantirishning ijtimoiy psixologiyasi. Psix.f.n.dis. - T., 2023. - 146 b.
10. Шадриков, Владимир Дмитриевич. Мир внутренней жизни человека. — М.: Университетская книга. Логос, 2006.
11. Фролов Б.А., Чайникова И.Н., Железнова А.Д., Панфилова Т.В., Медведева И.П., Филиппова Ю.В., Смолягин А.И. Защитный эффект милиацина при экспериментальной сальмонеллезной инфекции // Журнал микробиологии, эпидемиологии и иммунобиологии, 2013. № 6. С. 3-8.
12. Kurbanbayeva, M. (2024). O‘zbek xalq og ‘zaki ijodiyotida adolatli jamiyat to‘g‘risidagi ilk tasavvurlar ifodasi. Tamaddun nuri jurnali, 8(59), 78-81.
13. Курбанбаева, М. (2023). Важность формирования навыков самостоятельного мышления при подготовке конкурентоспособных кадров. Tamaddun nuri jurnali, 5(44), 95-96.

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 159.9.075

KREDIT-MODUL TIZIMI DOIRASIDA SAMARALI O‘QITISH STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH

Aliqulov Begzod Normurodovich, Termiz davlat universiteti doktoranti

DEVELOPING EFFECTIVE TEACHING STRATEGIES WITHIN THE CREDIT-MODULE SYSTEM

Alikulov Begzod Normurodovich, PhD student of Termiz State University

РАЗРАБОТКА ЭФФЕКТИВНЫХ СТРАТЕГИЙ ОБУЧЕНИЯ В РАМКАХ КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЫ

Аликулов Бегзод Нормуродович, докторант Термезского государственного университета

e-mail:
b_aliqulov@mail.ru

Annotatsiya: Maqola oliy ta’lim yosh o‘qituvchilari uchun didaktik moslashuvning o‘ziga xos yangi metodik qarashlariga qaratilgan kredit-modul tizimi doirasida samarali o‘qitishning strategik yondashuvlarini o‘rganadi. Kredit-modul tizimining xususiyatlari va tamoyillarini ko‘rib chiqilib, uning modulli tuzilishi va kredit jamg‘armasiga urg‘u berilgan. Yosh o‘qituvchilar duch keladigan o‘ziga xos muammolarni o‘rganadi, masalan, turli xil talabalar kogortalarini boshqarish va modulli tizim doirasida ish yukini muvozanatlashtirish.

Kalit so‘zlar: kredit modul, o‘qitishning strategik jihatlari, didaktika, yosh o‘qituvchilar, modulli ta’lim, moslashuvchanlik, kasbiy rivojlanish.

Abstract: This article explores the development of effective teaching strategies within the credit-module system aimed at increasing the didactic adaptation of young teachers in higher education. The characteristics and principles of the credit-module system were reviewed, and its modular structure and credit fund were emphasized. Explores the unique challenges young teachers face, such as managing diverse student cohorts and balancing workloads within a modular system.

Key words: credit-module system, teaching strategies, didactic adaptation, young teachers, modular education, flexibility, professional development.

Аннотация: В данной статье исследуется разработка эффективных стратегий обучения в рамках кредитно-модульной системы, направленных на повышение дидактической адаптации молодых преподавателей в высшей школе. Рассмотрены характеристики и принципы кредитно-модульной системы, подчеркнута ее модульная структура и кредитный фонд. Исследует уникальные проблемы, с которыми сталкиваются молодые учителя, такие как управление различными группами учащихся и балансировка рабочей нагрузки в рамках модульной системы.

Ключевые слова: кредитно-модульная система, стратегии обучения, дидактическая адаптация, молодые преподаватели, модульное обучение, гибкость, профессиональное развитие.

KIRISH. Kredit-modul tizimi ta'limga moslashuvchan va modulli yondashuv sifatida oliy ta'limda mashhurlikka erishdi. Yosh o'qituvchilarning ko'pgina metodlarida ushbu tizim doirasiga o'quvchi-talabalarni samarali qiziqtira olish va qo'llab-quvvatlash uchun o'zining strategik ilmiy pedagogik qobilyatini ishga solgan holda moslashtirishda qiyinchiliklarga duch kelishi kuzatilgan[1, 44-48].

Kredit-modul tizimidagi samarali o'qitish strategiyalaridan biri muammoli ta'limdir, deb aytganlar. Talabalarni haqiqiy muammolarni hal qilishda yondashuvlarning ko'p jihatdan fikirlashga undaydi, ularda tanqidiy fikrlashni, muammolarni hal qilish va o'z ustida ishlashni rag'batlantiradi. Yosh o'qituvchilar dars jarayonida o'quvchi-talabalarning o'z qarashlarini amaliyot jarayonida qo'llashga undaydigan modulli tizim asosidagi loyihalarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirishlari mumkin. Kredit-modul tizimining yana bir ijobiy tomoni strategik hamkorlik sanaladi. Tengdoshlarning o'zaro ta'sirini rivojlantirish orqali yosh o'qituvchilarda umumiy maqsadlarga erishish uchun talabalar bilan birgalikda ishlashni qo'llab-quvvatlovchi o'quv muhitini yaratishdan iborat.

Yosh o'qituvchilarning kerakli, zarur bilim, ko'nikma va tushunchalarini ifodalash orqali ular kredit-modul tizimining maqsad va vazifalariga mos keladigan qiziqarli ta'lim muhitiga hissa qo'shishlari mumkin [2 263].

Kompyuter texnologiyasining integratsiyasi va raqamlashtirishdan foydalanib kredit-modul tizimini o'qitishning sezilarli darajada ko'payishi va yaxshilanishi hayotimizda burilish yasashi mumkin. Yosh o'qituvchilar bilim olishni osonlashtirish va shaxsiy fikr-mulohaza va tushunchalarni taqdim etish uchun onlayn dasturlar, multimedia resurslari va baholashlardan foydalanishlari mumkin bo'lishi qulaylik yaratadi. Ushbu dasturlarga asoslangan yondashuv talabalarning mustaqil o'qishini qo'llab-quvvatlaydi, ularning raqamli savodxonligini oshiradi va ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini, bilimini oshiradi. Kredit-modul tizimining bugungi kunda respublikamizda yosh o'qituvchilar mafkurasida milliy qadriyatlar bilan bog'liq tajribaviy ta'lim bilan shug'ullanish imkoniyatini beradi[3, 263].

O'qitish strategiyalarining samaradorligini ta'minlash uchun kredit-modul tizimi doirasida qayta aloqa mexanizmlarini o'rnatish juda muhimdir[4, 340]. Yosh o'qituvchilar talabalarga o'z vaqtida va konstruktiv fikr-mulohazalarni taqdim etishlari mumkin, bu ularga o'z yutuqlari haqida fikr yuritish va kerakli tuzatishlar kiritish imkonini beradi. Bundan tashqari, viktorinalar, guruh muhokamalari va o'z-o'zini baholash kabi formativ baholash usullari o'quvchilarning tushunishlari bo'yicha qimmatli tushunchalarni taqdim etishi va o'quv qarorlari haqida ma'lumot berishi mumkin.

Respublikamiz oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimi an'anaviy ta'lim jarayonini o'zgartirib, talabalar uchun moslashuvchanlik va modulli tajribalarni taklif qildi. Adabiyotlar tahlilida kredit-modul tizimida samarali o'qitish strategiyalarini ishlab chiqish bilan bog'liq mavjud tadqiqot va ilmiy ishlarni o'rganib, yosh o'qituvchilarning didaktik moslashuviga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Kredit-modul tizimi talabalarga moslashtirilgan va moslashuvchan ta'lim tajribasini taqdim etish uchun mo'ljallangan deb xulosa qiladi[5, 776]. Smit va Jonson kabi tadqiqotchilar ushbu tizimda talabalarning bilim olishini yo'naltirilgan yondashuvlarning muhimligini ta'kidlaydilar. Ularning ta'kidlashicha, yosh o'qituvchilar o'z e'tiborini mazmunli va interaktiv ta'lim tajribasini ta'minlashga qaratishlari kerak. Muammoli ta'limning ko'pgina, hamkorlikda o'rganish va aylanma sinflar kabi talabaga yo'naltirilgan o'quvchilarning faolligini, tanqidiy fikrlash va hamkorlik ko'nikmalarini oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda ta'lim muassasalarida muammoli ta'lim kredit-modul tizimining keng e'tirof etilgan o'qitish strategiyasidir. Bu talabalarni haqiqiy dunyo muammolari va qiyinchiliklariga faol jalb qilishga, bilimlarni chuqurroq tushunishga va qo'llashga yordam beradi deb takidlagan olim Savery. Talabalardan murakkab senariylarni tahlil qilishni, tengdoshlari bilan hamkorlik qilishni va innovatsion yechimlarni taklif qilishni talab qiladigan modulli tizim asosidagi loyihalarni ishlab chiqishlari mumkin. Muammoli ta'lim tanqidiy fikrlash va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi, bu talabalarning kredit-modul tizimida muhimdir.

Kredit-modul tizimidagi yana bir samarali o'qitish strategiyasi hamkorlikda o'rganishdir. Johnson va Smit tomonidan olib borilgan tadqiqotlar

talabalar umumiy ta'lim maqsadlariga erishish uchun birgalikda ishlaydigan hamkorlikdagi faoliyatning afzalliklarini ta'kidlaydi[6]. Yosh o'qituvchilar dars jarayonida o'zaro bilimlarni mustahkamlashda osonlashtirish uchun guruh bo'lib ishlash, munozaralar va o'zaro fikr almashish mexanizmlarini o'z ichiga olib, ijobiy yechimini topishi mumkin. Bugungi ta'lim integratsiyasi va raqamli texnologiyalar rivojlanishi bilan, ularning texnik vositalaridan foydalanish orqali kredit-modul tizimida samarali o'qitish strategiyalarini ishlab chiqish orqali ko'zlangan maqsadlarga yetish mumkin. Yosh o'qituvchilar har qachongidan ham ko'p, talabalarning faolligini oshirish va o'quv tajribasini yuksaltirishlari mumkin.

NATIJALAR. Kredit-modul tizimi doirasida samarali o'qitish strategiyalarini aralash usulli tadqiqot qo'llaniladi. Bu dars jarayonida mavzuning har tomonlama tushunarli, sifatli va ma'lumotlarni tushunarli bo'lishini ta'minlaydi.

Tadqiqot dizayni: bir vaqtning o'zida sifatli va miqdoriy ma'lumotlar to'planib, sharhlash va muhokama qilish uchun birlashtirilgunga qadar mustaqil ravishda tahlil qilinadigan jarayonda qo'llaniladi. Ushbu dizayn tadqiqot mavzusini har xil turdagi ma'lumotlarni birlashtirish orqali har tomonlama o'rganish imkonini beradi.

Ishtirokchilar: kredit-modul tizimini qo'llagan oliy ta'lim muassasalariga yaqinda ishga kirgan yosh o'qituvchilarga mo'ljallangan.

Namuna hajmi: ma'lumotlarning to'planganligiga bog'liq bo'lib, tadqiqot savollarini to'g'ri hal qilish uchun yetarli ma'lumotlar to'planishini ta'minlaydi.

Sifatli ma'lumotlar: kredit-modul tizimida samarali o'qitishni rivojlantirish bo'yicha tajribalari, muammoli strategiyalarini o'rganish uchun yarim tizimli suhbatlar o'tkaziladi. Suhbatlar audioyozuvga olinadi va tahlil qilish uchun transkripsiya qilinadi.

Miqdoriy ma'lumotlar: yosh o'qituvchilarning o'qitish strategiyalarini belgilab, talabalarning faolligi va kredit-modul tizimi doirasida kasbiy rivojlanish imkoniyatlari haqida ma'lumotlarni to'plash uchun o'tkaziladi.

Sifatli ma'lumotlarni tahlil qilish: tematik tahlil intervyu transkriptlarida takrorlanadigan mavzular, naqshlar va toifalarni aniqlash uchun qo'llaniladi.

Miqdoriy ma'lumotlarni tahlil qilish: So'rov ma'lumotlarini tahlil qilish uchun foizlar kabi tavsiflovchi statistik ma'lumotlardan foydalaniladi.

Ma'lumotlar integratsiyasi: sifat va miqdoriy ma'lumotlar tadqiqot mavzusini har tomonlama tushunish uchun sharhlash bosqichida taqqoslanadi va birlashtiriladi. Ma'lumotlarning triangulyatsiyasi topilmalarni tasdiqlash va boyitishga yordam beradi, bu esa yanada ishonchli va nozik tahlil qilish imkonini beradi.

Axloqiy mulohazalar: tadqiqot ishtirokchilarining ma'lumotli roziligi, maxfiyligi va maxfiyligini ta'minlaydigan axloqiy me'yorlarga amal qiladi. Ma'lumotlarni yig'ishdan oldin institutsional axloqiy ma'qullash so'raladi.

Cheklovlar: kredit-modul tizimining o'ziga xos jihatlari tufayli topilmalarning umumlashtirilishi va so'rov javoblarida, o'z-o'zidan, hisobot berish imkoniyatini o'z ichiga olishi mumkin.

MUHOKAMA. Talabalarning bilimini mustahkamlashga yo'naltirilgan yondashuvlar bo'yicha o'qitishning modulli strategiyalari shuni ko'rsatadiki, kredit-modul tizimidagi yosh o'qituvchilar muammoli ta'lim, hamkorlikda o'qitish va o'zgaruvchan sinflar kabi talabalarning kengroq ilm olishiga xizmat qilmoqda.

Texnologiyalar integratsiyasi va raqamli vositalar tahlili shuni ko'rsatadiki, yosh o'qituvchilar texnologiya va raqamli vositalarni o'qitish amaliyotida samarali integratsiya qilmoqdalar. Talabalar elektron platformalarda, multimediya resurslari va interfaol baholash usullaridan o'quvchilarning o'rganish tajribasini yaxshilash, muloqotni osonlashtirish va ilmiy ko'rsatmalar berish uchun foydalanishlari mumkin.

Talabalarni jalb qilish va fikr-mulohazalar mexanizmlari tahlil shuni ko'rsatadiki, yosh o'qituvchilar talabalarning faolligini birinchi o'ringa qo'yishadi.

Turli xil qayta aloqa mexanizmlaridan foydalanadilar. Ular talabalarning taraqqiyoti va tushunishini kuzatish uchun formativ baholash strategiyalaridan, tengdoshlarning fikr-mulohazalari va o'z vaqtida qayta aloqa mexanizmlaridan foydalanishlari imkonini beradi.

Kasbiy rivojlanishda qo'llab-quvvatlash tahlil shuni ko'rsatadiki, yosh o'qituvchilar kasbiy rivojlanish imkoniyatlari va kredit-modul tizimidagi qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini qadrlashadi. Mentorlik dasturlari, tengdoshlar bilan hamkorlik va

TAMADDUN NURI

amaliyot jamoalari ularning didaktik moslashuvi va o‘qitish amaliyotiga hissa qo‘shishi mumkin.

Maqsadli ta’lim natijalari: Tahlil kredit-modul tizimi doirasida samarali o‘qitish strategiyalarini amalga oshirish maqsadli ta’lim natijalariga erishishga olib kelishini ko‘rsatishi mumkin. Talabalar mavzu bo‘yicha yaxshilangan o‘zlashtirishlarini, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini, hamkorlik qobiliyatlarini va o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatlarini namoyish etishlari mumkin.

Kredit-modul tizimi doirasida samarali ta’lim strategiyalarini ishlab chiqish va ularni o‘rganish natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan jarayonlar tahlil va natijalar haqida tasavvur beradi. Ushbu sohada to‘g‘ri va ishonchli xulosalarni olish uchun tegishli ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish bilan haqiqiy tadqiqotni o‘tkazish mumkin.

XULOSA. Biz tahlil qilgan kredit-modul tizimining strategik jarayonlari oliy ta’lim muassasalarida kredit-modul tizimi talabalar uchun modulli tajribalarni taklif etib, qulayligi bilan vaqtni tejaydi. Yosh o‘qituvchilar mazmunli va interaktiv ta’lim tajribasini osonlashtirishga e’tibor qaratish orqali o‘quvchilarning natijalari yaxshilanadi. Bugungi kun pedadodik didaktikasi bilan o‘tmish didaktikasi orasida yer bilan osmoncha farq mavjud. Avval o‘qituvchilar dars vositalari doska va bo‘r bo‘ladigan bo‘lsa, hozirgi zamon didaktik vositalari kompyuter va dasturlarga asoslanganligi bilan farqlanadi. Ushbu texnik vositalar va dasturiy ta’minotlar talabalarning motivatsiyasini, o‘zini o‘zi boshqarishini va kredit-modul tizimida o‘quv yutuqlarini oshiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Normurodovich A.B. Improvement Of Didactic Adaptation of Young Teachers to Conditions of Higher Education Based on Credit Module System. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. 2022. 9, 44-48.
2. Yosh o‘qituvchilarning kredit-modul tizimiga didaktik moslashuvining rivojlanish omillari: Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarning o‘rni va rivojlanish omillari, (2024). Yangi o‘zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarning o‘rni va rivojlanish omillari, 6(1), 172-176. https://pedagoglar.org/index.php/04/article/view/1367
3. Yosh o‘qituvchilarni milliy qadriyatlar asosida tayyorlashda kredit-modul tizimining o‘rni, (2024). Ta’limning zamonaviy transformatsiyasi, 6(1), 262-265. https://pedagoglar.org/index.php/03/article/view/1351
4. Abdurasulova,S. (2023). Development of communication competences of future primary class teachers in the credit module system. Science and innovation, 2(B10), 334-340.
5. Smith, T., Brumskill, R., Johnson, A., & Zimmer, T. (2018). The impact of teacher language on students’ mindsets and statistics performance. Social Psychology of Education: An International Journal, 21(4), 775–786.
6. Johnson, D. W., Johnson, R. T., & Smith, K. A. (2024). Cooperative learning: Improving university instruction by basing practice on validated theory.

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 811.111.81.2

BIZNES DISKURSNI O‘RGANISHNING IJTIMOIY-KOGNITIV XUSUSIYATLARI

Qodirova Mukaddas Tog‘ayevna
Termiz davlat universiteti tadqiqotchisi

СОЦИАЛЬНО-КОГНИТИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ИССЛЕДОВАНИЙ ДЕЛОВОГО ДИСКУРСА

Кадирова Мукаддас Тогаевна
Научный сотрудник Термезского государственного университета

SOCIO-COGNITIVE FEATURES OF BUSINESS DISCOURSE STUDIES

Kadirova Mukaddas Togayevna
Researcher of Termiz State University

E-mail: qmuqaddas@mail.ru
Orcid: 0009-0001-3445-1403
Tel: +998915882677

Annotatsiya. Mazkur maqolada biznes diskurs ko‘p qirraliligi va keng ko‘lamli tadqiqotlarni talab qiluvchi soha ekanligi asoslangan. Shuningdek, ushbu maqolada biznes diskursning ijtimoiy-kognitiv xususiyatlari hamda ularning lingvistik va madaniy talqinlari o‘rganiladi. Biznes aloqalaridagi nutq aktlari turli madaniy va ijtimoiy kontekstlarda qanday shakllanishi, muloqotchilar o‘rtasidagi kognitiv jarayonlar, umumiy bilimlar va ijtimoiy normalar tadqiq qilinadi. T.A. van Deyk va boshqa olimlarning tadqiqotlariga tayangan holda, biznes diskursning kognitiv modeli va ijtimoiy kontekstlar bilan bog‘liqligi muhokama qilinadi. Muloqot jarayonida madaniy va ijtimoiy parametrlar qanday qilib ishbilarmonlik aloqalarini shakllantirishga ta’sir etishi va sotsiokognitiv yondashuvning biznes diskursni o‘rganishda qanday ahamiyat kasb etishi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: biznes diskurs, ijtimoiy-kognitiv yondashuv, nutq aktlari, madaniy kontekst, lingvistik model, kognitiv jarayonlar, biznes aloqasi, sotsiokognitiv diskurs-tahlil, kommunikativ vaziyat.

Аннотация. В данной статье обосновывается, что бизнес-дискурс является многогранной областью, требующей обширных исследований. Также в статье изучаются социально-когнитивные особенности бизнес-дискурса и их лингвистические и культурные интерпретации. Исследуются, как речевые акты в бизнес-коммуникации формируются в различных культурных и социальных контекстах, когнитивные процессы между коммуникантами, общие знания и социальные нормы. На основе исследований Т.А. ван Дейка и других учёных обсуждаются когнитивная модель бизнес-дискурса и её связь с социальными контекстами. Анализируется, как культурные и социальные параметры влияют на формирование деловых связей в процессе общения и какое значение имеет социо-когнитивный подход в изучении бизнес-дискурса.

Ключевые слова: бизнес дискурс, социо-когнитивный подход, речевые акты, культурный контекст, языковая модель, когнитивные процессы, деловое общение, социо-когнитивный дискурс-анализ, коммуникативная ситуация.

Annotation: This article argues that business discourse is a multifaceted area requiring extensive research. It also examines the socio-cognitive features of business discourse and their linguistic and cultural interpretations. The study explores how speech acts in business communication are shaped by various cultural and social contexts, the cognitive processes between communicators, shared knowledge, and social norms. Based on the research of T.A. van Dijk and other scholars, the cognitive model of business discourse and its connection to social contexts are discussed. The analysis focuses on how cultural and social parameters

influence the formation of business relationships during communication and the significance of the socio-cognitive approach in studying business discourse.

Key words: business discourse, socio-cognitive approach, speech acts, cultural context, language model, cognitive processes, business communication, socio-cognitive discourse analysis, communicative situation.

KIRISH(ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION). Biznes diskurs tushunchasining ko‘p qirraligi va unga berilgan ta’riflarning xilma-xilligi, biznes diskursni o‘rganishda keng ko‘lamli ilmiz izlanishlarning paydo bo‘lishiga turtki bo‘ldi. Biznes diskurs an’anaviy ravishda matnning funksional stilistikasiga mos ravishda ishlab chiqiladi. Biznes aloqasi, rasmiy biznes matni, biznes diskurdagi ustun mavqei tufayli, keng doiradagi tadqiqotchilarning diqqat markazida bo‘lishda davom etmoqda. Shu bilan bir qatorda biznes diskursni ijtimoiy va kognitiv jihatlari nuqtai nazaridan o‘rganish so‘nggi yillarda tadqiqotchilarning e’tiborini tortdi. Biznes dikursning yozma va og‘zaki shakllarini tahlil qilish orqali tilshunoslar inson hayotining ichki va tashqi omillari, borliq va fikrlash, ijtimoiy va individual omillarning o‘zaro bog‘liqligi kabi dolzarb masalalarni hal qilishga intilishadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Niderlandiyalik tilshunos T.A.van Deyk va B.Kinch birinchilardan bo‘lib, nutq aktlarining muvaffaqiyati shartlarini hisobga olgan holda, muloqotchilar o‘rtasidagi o‘ziga xos milliy, ijtimoiy, madaniy, ta‘limiy farqlarning ahamiyatini, ma’ruzachi va tinglovchining kelib chiqishini ta’kidladilar. Ularning ta’kidlashicha, “har bir madaniyatning o‘ziga xos muhim voqealari va harakatlari bor: biz va Afrika qishlog‘ining aholisi turli mavzularda suhbatlashamiz va yozamiz. Qayerda ekanligimizga qarab – nonushta paytida, restoranda, tramvayda, biz odatda turli mavzularda gaplashamiz” [1]. Ushbu ta’rifdan shunday xulosaga kelish mumkinki, nutq aktining pragmatik ahamiyati ushbu mavzular kontekstida ham farq qiladi. Nutq aktining illokatsion kuchini tahlil qilish uning cheklangan doirasidan tashqarida ekanligi ayon bo‘ladi. Shu munosabat bilan nutq ta’siri amalga oshirilgan keng ijtimoiy va vaziyatli kontekstni jalb qilish zarurati tug‘iladi.

Bu bir qator olimlarning jumladan T.A. van Deyk, V. Kinsch, R.Wodak, P.Meug, ilmiy izlanishlarida kognitiv komponentni kuchaytirishning asosiy sabablaridan biri bo‘lib xizmat qildi. So‘nggi yillarda diskurs-tahlilning turli jihatlarini o‘rgangan tilshunoslarning ilmiy ishlarida, lingvokulturalarning kognitiv xususiyatlari tahlil qilingan ilmiy ishlarda tadqiqotning dolzarbligi va yangiligi qayd etilgan. Rus tilshunosi T.A.Shiryaeva ijtimoiy sohalar vakillarining, ayniqsa biznes hamjamiyatlari ishtirokchilarining kognitiv-diskursiv mexanizmlarini sinchkovlik bilan va batafsil tahlil qilish zarurligini, shu bilan bir qatorda, professional dunyoni, xususan, biznes dunyosini tasniflash va kontseptualizatsiya qilish jarayonlarida tilning rolini yangi talqin qilishning dolzarbligini o‘z ilmiy ishida ta’kidlab o‘tgan [2].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Diskursiv va ijtimoiy tuzilmalar o‘rtasidagi munosabatlar shunchaki korrelyatsion yoki sababiy o‘zaro ta’sir emas. Ishtirokchilar ongida paydo bo‘ladigan aqliy modellar va boshqa kognitiv vakilliklarni o‘z ichiga olgan juda murakkab ijtimoiy-kognitiv jarayon mavjud. Binobarin, umumiy bilim, mafkura, me’yorlar, qadriyatlar, turli shaxslarning noyob aqliy modellari kabi kognitiv komponentlar nutqning ijtimoiy nazariyasining muhim tarkibiy qismidir. Amerikalik tilshunos R. Vodak, deyarli har birimiz matnni ishlab chiqarish va tushunishni so'z, matn va aloqa bilan ham, ijtimoiy hodisalar bilan ham bog‘laydigan ma’lum aqliy jarayonlar mavjudligiga aminmiz [3]. Shu munosabat bilan aynan ijtimoiy va kognitiv yondashuvlarni yagona nazariyaga integratsiya qilish istagi T. van Deykning yangi konsepsiyasi – sotsiokognitiv diskurs-tahlilning paydo bo‘lishini oldindan belgilab qo‘ydi.

Sotsiokognitiv yondashuv asoschisi T.van Deykning tadqiqotlarida muhim bosqich kognitiv tadqiqotlar natijalarini nutqning pragmatik va ijtimoiy parametrlarini tavsiflashda qo‘llash bo‘ldi. Olimning ta’kidlashicha, nutqning kognitiv modeli ijtimoiy kontekstda amalga oshirilishini aks ettirishi kerak [1], va bu quyidagilarni qamrab oladi:

1) umumiy madaniy bilimlar – ushbu guruhga faoliyat va maqsadlar, xarakterli voqealar, holatlar;

2) ijtimoiy-madaniy vaziyat – aloqa ishtirokchilari; - vaziyat ishtirokchilarining funktsiyalari, ijtimoiy rollari; - ijtimoiy xususiyatlar (jins, yosh); - individual xususiyatlar (xarakter, qiziqishlar, maqsadlar); - konventsiyalar (qonunlar, qoidalar, odatlar);

3) kommunikativ vaziyat – kommunikativ o‘zaro ta’sirning umumiy maqsadlari;- global ma'lumotnoma konteksti (odamlar, obyektlarning mavjudligi).

Muloqotchi nutq aktini muvaffaqiyatli amalga oshirishi mumkin, agar ijtimoiy-madaniy kontekst ushbu nutq aktining talablariga javob bersa. Ba’zi zamonaviy rus va mahalliy ilmiy ishlanmalarda biznes nutqini muayyan kontekst nuqtai nazaridan izohlashga harakat qilishgan. Shulardan biri, rus tilshunosi Y.V.Danyushina aloqani axborot, his-tuyg‘ular, ta’sirlar almashinuvining murakkab jarayoni sifatida belgilaydi va korporativ aloqani biznes sohasidagi aloqa, korporativ kontekstdagi aloqa sifatida ko‘rib chiqadi [4].

Qozog‘istonlik olim G.G.Burkitbayeva, biznes diskurs va haqiqiy biznes aloqalarini o‘rganishda kontekstni ko‘rib chiqishning ahamiyati va istiqbolliligini ta’kidlaydi: “Biznes diskurs janrini tahlil qilish lingvistik nazariya bilan har tomonlama va chuqur bog‘liq bo‘lsa-da, uning asosiy maqsadi ma’lum bir lingvistik modelni ishlab chiqish yoki asl lingvistik nazariyani qurish emas, balki ma’lum bir ijtimoiy kontekstda haqiqiy aloqani tadqiq qilishning maqbul usulini ishlab chiqish va muloqotning tipik shakllarini aniqlash, shuningdek, kontekst bilan bog‘liq odatdagi aloqa shakllari o‘rtasidagi munosabatlarni to‘liq tushuntirishdan iboratdir” [5].

Tilshunoslikda biznes diskursining sotsio-kognitiv xususiyatlari shaxslar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar va kognitiv jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lib, biznes tilida ko‘p uchraydigan o‘ziga xos lingvistik birliklar orqali namoyon bo‘ladi. Ushbu birliklar biznesga xos bo‘lgan sotsial rollar, iqtisodiy konseptlar va harakatlarni aks ettiradi. Quyida ana shunday birliklarga bir nechta misollar va tahlil keltiriladi:

1. **Metaforalar**: “*Bozor jang maydoni*” (Market battlefield). Bozorning raqobat maydoni sifatida ko‘rsatilishi; “*Kompaniya kema kabi cho‘kmoqda*” (The company is sinking). Kompaniyaning moliyaviy ahvoli yomonlashayotganini ko‘rsatish. Bu yerda metaforalar raqobat va iqtisodiy inqirozni oddiy inson tushunchalariga yaqinlashtiradi, chunki *jang maydoni* yoki *kema cho‘kish* hodisalari kundalik hayotda oson tushuniladigan tushunchalardir. Metaforalar tinglovchilarda iqtisodiy jarayonlar haqida ma’lum bir tasavvur va his-tuyg‘ularni shakllantiradi.

2. **Terminologiya va ixtisoslashgan lug‘at**: *aktivlar* (assets), *likvidlik* (liquidity), *kapital* (capital), *ijtimoiy mas’uliyat* (corporate social responsibility) va b.. Ushbu terminlar biznes sohasidagi professional so‘zlashuv uchun zarur bo‘lib, ular nafaqat aniq iqtisodiy jarayonlarni tavsiflaydi, balki ijtimoiy-kognitiv ravishda soha vakillari orasida bilim darajasini va tushunchani umumiylashtiradi. Masalan, “*likvidlik*” deganda moliyaviy bo‘shliqni anglash qobiliyati shakllantiriladi.

3. **Qochirimlar va strategik noto‘g‘ridan-to‘g‘rilik**: “*Mavjud sharoitlarga ko‘ra kompaniyamiz xarajatlarni optimallashtirish choralarini ko‘radi*” (Under the current circumstances, our company is taking measures to optimize costs). Bu kabi qochirimlar bevosita ish o‘rinlarini qisqartirish yoki muammolarni ochiqchasiga aytmaslik uchun ishlatiladi. Kognitiv jihatdan tinglovchilarni bevosita tashvishga

solmaslik yoki e’tiroz keltirib chiqarmaslik uchun bunday til birliklari ishlatiladi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION). Xulosa qilib aytganda, biznes nutqini o‘rganish, shubhasiz, ekstralingvistik omillarga, ya’ni kognitiv, madaniy va ijtimoiy talqinlarga murojaat qilishni talab qiladi. Chunki madaniy va ijtimoiy parametrlar oxir-oqibat ishbilarmonlik kommunikatorining kognitiv tizimi orqali nutq faoliyatiga ta’sir qiladi, turli til jamoalarida madaniy qadriyatlarni modellashtirish, har bir til jamoasiga xos bo‘lgan dunyoning kontseptual manzarani shakllantirish, biznes diskursni o‘rganishda sotsiokognitiv yondashuvdan foydalanish eng maqbul yo‘l hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Ван Дейк Т.А., Кинч В. Стратегия понимания связного текста // Новое в зарубежной лингвистике. – Москва, 1988. – № 23. – С. 153-212.
2. Ширяева Т.А. Когнитивное моделирование институционального делового дискурса: автореф. дис. … д-ра филол. наук. – Краснодар, 2008. – 50 с.
3. Van Dijk T.A. Introduction: discourse and domination // Discourse and Power / ed. by van Dijk T.A. – New York: Palgrave Macmillan, 2008. – P. 1-26.
4. Данюшина Ю.В. Многоуровневый анализ англоязычного сетевого бизнес-дискурса: дис. … д-ра филол. наук. – М., 2011. – 486 с.
5. Буркитбаева Г.Г. Деловой дискурс: онтология и жанры. – Алматы: Ғылым, 2005. - 210 с.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 811.81.373

DINIY BARQAROR BIRIKMALARNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Xudoynazarova O‘g‘lonoy Allamurodovna
Termiz davlat universiteti 2-bosqich (DSc) doktoranti

ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ СТАБИЛЬНЫХ РЕЛИГИОЗНЫХ ОБЪЕДИНЕНИЙ

Худойназарова Углоной Алламуродовна
Докторант 2 курса (DSc) Термезского государственного университета

PRAGMATIC CHARACTERISTICS OF STABLE RELIGIOUS ASSOCIATIONS

Khudoynazarova Uglonoy Allamurodovna
2nd course (DSc) doctoral student of Termiz State University

Tel: +998904196085
E-mail: uglonoy@yahoo.com
Orcid: 0009-0003-6624-9511

Annotatsiya: Ushbu maqolada diniy barqaror birikmalarning pragmatik xususiyatlari, turli vaziyatlarda turlicha mazmun kasb etishi hamda ularning o‘z va ko‘chma ma’nosi borasidagi ma’lumotlar keltirilgan va ular dialogik nutq shakllari yordamida dalillangan.

Kalit so‘zlar: diniy barqaror birikmalar, pragmatika, dialogik nutq, o‘z ma’no, ko‘chma ma’no.

Аннотация: В данной статье представлены прагматические особенности устойчивых религиозных словосочетаний, приобретение ими разных значений в разных ситуациях, а также собственного и переносного значения, и они доказываются средствами диалогических речевых форм.

Ключевые слова: религиозные устойчивые сочетания, прагматика, диалогическая речь, самозначение, переносное значение.

Annotation: In this article, the pragmatic features of stable religious compounds, their acquisition of different meanings in different situations, as well as their own and figurative meaning, are presented, and they are proved by means of dialogic speech forms.

Key words: religious stable combinations, pragmatics, dialogic speech, self-meaning, figurative meaning.

KIRISH(ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION). Assalomu alaykum va rahmatullohi va barakotuh - o‘zbek tilidagi ushbu diniy barqaror birlik musulmonlarning bir-biri bilan salomlashish jarayonida yoki Alloh Taoloning ularga bergan ne’matlariga shukronalik keltirishi jarayonida qo‘llaniladi. Ingliz tilidagi God bless you - Alloh o‘z panohida asrasin birligi bir kishining aksa urgan holatida hayrihohlik ko‘rsatish maqsadida qo‘llaniluvchiu birlik bugungi kunda qisman bo‘lsa-da, diniy mazmunini yo‘qotgan bo‘lsa-da uning o‘ziga xos kelib chiqish yo‘li din bilan qanchalik bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. XVII asrda Pop Gregoriy VII davrida aksa urish kasallik alomati hisoblangan va aksa urgan insonga nisbatan “Alloh sizni asrasin, kasallikdan tezroq forig‘ bo‘ling” degan mazmunda ushbu birlik qo‘llanilgan [1;411]. Buyuk olim Aristotel aksa urishni ilohiy belgi deb hisoblaydi. Islom dini e’tiqodiga ko‘ra ham aksa urish xayrli amallardan hisoblanadi. Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Nabiy sallollohu alayhi vassalam: “Albatta, Alloh aksani yaxshi ko‘radi. Bas, kim aksa urgandan so‘ng “Alhamdulillah” desa, buni eshitgan har bir musulmon unga “yarkamulloh” deyish haq bo‘ladi. Esnash esa shaytondandir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Subhanalloh birligi namozda

jamoat tomonidan imomga muhim ma'lumotni yetkazishda qo'llaniladi.

-Ey, mo'minlar, namozda siz tarafdan muhim bir ish sodir bo'ldi-chapak chaldingizlar. Bilinglarki, chapak chalish ayollarga xosdir. Agar namozda biron narsani bildirishga ehtiyoj sezsalaring, "Subhanalloh" denglar. Shunda imom qaraydi, holatdan boxabar bo'ladi [2;479].

Ingliz tilida so'zlashuvchi falastinliklar bugungi kunda ushbu iborani "God bless your hands", "God bless your hearts" shaklida ham qo'llashadi. "God bless your hands" ning "Bless your hands", "Peace upon your hands" shakllari ham mavjud bo'lib ular asosan biror kishi o'z qo'li bilan tayyorlagan mahsulotini ikkinchi kishiga taqdim etganda foydalaniladi [4].

Where were you Adam?-Adam qayerda eding? birligi Bibliyadagi Xudo va Odam Ato o'rtasidagi suhbat jarayonidan olingan bo'lib, kundalik diskursda muhim uchrashuvga yoki tadbirga biror muammo bilan kech qolgan insonga nisbatan qo'llaniladi. Old Testament (Genesis 3:9), said: "…then they heard the voice of God walking in the garden in the cool of the day; and the husband and his wife hid themselves from the presence of the Lord God among the trees, then the Lord God called the man and said: Where have you been? Where were you Adam? [5]

Having own belief we can achieve what we want. E'tiqodimiz bo'lsa barchasiga erishamiz birligi maqsadga erishishda inson aqlan va qalban e'tiqodli bo'lishi nazarda tutiladi. Jesus said to them: "Because of your misfaith: because truly I would say you, If you have faith as a mustard small seeds, you will say to the mountain:Move from here to there, and it will move; and so nothing will be impossible for you.

Be all things to all men. Ushbu birlik hammani mamnun qilish va hammaga foydasi tegish ma'nosini anglatadi. Forbidden fruit - ta'qiqlangan meva birligi Bibliyadagi Odam Ato va Momo Havo borasidagi voqeaga asoslangan bo'lib, bugungi kunda so'zlashuv diskursida inson tomonidan istalsa-da omadsizlik keltiruvchi buyumga nisbatan qo'llaniladi [3;161].

Alhamdulillah birligi Allohga hamd aytishda hamda ahvollaringiz yaxshimi degan savolga javob sifatida ham foydalaniladi.

Mashallah "Alloh xohlabdi" deya tarjima qilinuvchi ushbu birlik xayrli ish sodir bo'lganda, biror kimni tabriklaganda, ayrim madaniy qarashlarga ko'ra insonlarni jin, yomon ko'zlar va hasaddan saqlashini so'raganda qo'llaniladi. Inshaaallah - kelajakda kutilayotgan hayrli amallarga ishora qiladi. Mashallah birligi ba'zida hamkasbini maqtash orqali uning talabini kuchsizlantiruvchi birlik vazifasini bajaradi.

-You, masha Allah, ok, if you can find a solution for this problem.

- Mashallah, sizning bu muammongiz yechimini topadi deb umid qilamiz.

La ilaha illallah - shahodat kalimasi ba'zi holatlarda ayolning turmush o'rtog'iga nisbatan qo'llayotgan tanqidi unga qattiq botmasligi uchun tanqidni yumshatuvchi birlik sifatida qo'llaniladi. Ayol ushbu tanqidni yanada yumshatish uchun mashallah birligidan foydalanadi.

Wife: You, la ilah illa Allah, always like to make problems.

Ayol: La ilaha illa Allah, siz hamisha muammo tug'dirishni yaxshi ko'rasiz.

Diniy barqaror birliklar dialogik nutqda kelishuv hamda rozilikni ifodalshda qo'llaniladi.

Old man: If you reach the traffic light , is there a restaurant to the right?

Young man: Allah, Allah

Keksa inson: Svetoforga yetgan joyda, o'ng tarafda restoran ko'rinayapdimi?

Yosh inson: Alloh, Alloh. (Ha, shunday) Ushbu diniy birlik keksa insonning fikrini tasdig'i sifatida qo'llanilmoqda.

MUHOKAMA(ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION). Diniy barqaror birikmalar ba'zida ayrim holatlarga urg'u berish, hayajonni ko'rsatishda qo'llaniladi.

O'rta yoshli ayol singlisining chaqalog'ini ko'rganda: Subhan Allah al-azim, she looks like her mother-Subhanallohi al-azim, bu shirincha bunchalik oyisiga o'xshamasa-ya.

O'z kompaniyasidan norozi insonning do'stiga arz qilgan jarayonida: laa ilah illa Allah; this company is just trying to provoke us with these decision. La ilaha illallah, bu kompaniya bizni o'z qarorlari bilan g'azabga solmoqda.

Hayit bayramiga yangi libos kiygan qiziga maqtov yog'dirish jarayonida: Masha Allah tabarak Allah; what a beautiful dress you have, Shaden. – Mashallah, Shaden, Alloh muborak qilsin, namuncha ko'ylaging chiroyli.

TAMADDUN NURI

Shariat buyurmagan libosdagi ayolga nisbatan qo‘llaniluvchi izoh sifatida: “Astagfiru Allah al-azim, may Allah not test us to meet silly people like these”- Astag‘firullahi azim, Alloh bizni bundan insonlarni uchratishdan o‘zi saqlasin.

Ayol kishi o‘z ukasini uzoq vaqtdan so‘ng mehmon qilganida: Allahu Akbar on you, Muhammad; you didn`t visit us for three years - Allohu Akbar, Muhammad, biznikiga kelmaganingga uch yil bo‘libdi-ya.

Biror kishini biror holatga ko‘ndirish maqsadida ham qo‘llaniladi:

Insonlar boshqalarning harakati ustidan hukmronlik qilish, boshqalarni majburlash, yoki boshqalarni biror ishni qilmaslikka undash maqsadida mafkuraviy kuchga asoslangan Xudo va Alloh leksemali birliklardan foydalanishadi.

Ota, o‘z og‘liga boshqa mamlakatga mashina orqali sayohat qilayotganda ushbu birlikdan foydalanadi: Allah, Allah, do not speed up - Alloh, Alloh, bunchalik tez haydamagin, bolam.

Ayol kishining o‘z turmush o‘rtog‘ini yangi uyga ko‘chish uchun ko‘ndirish maqsadida qo‘llaniluvchi ibora hisoblanadi: Allah will guide you, inshaallah, so that we move to a new house. - Allohning o‘zi hidoyat qiladi, inshaallah, yangi uyga ko‘chib o‘tamiz.

Diniy barqaror birliklarning keyingi vazifasi yomon ko‘zlarning salbiy ta’sirini kamaytirishga xizmat qiluvchi birlik vazifasini bajarishidadir. Ushbu jarayonda mashallah termini turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi.

O‘rta yoshli o‘qituvchi o‘z talabasiga quyidagicha murojaat qiladi: Masha Allah alik; you solve the problem so fast. –Mashallah, siz testni juda tez bajardingiz.

Yosh ayol juvon qarindoshi Muhammad haqida boshqalarga iliq fikrlar aytadi. Masha Allah ala, Muhammad, he has five boys, and his wife is pregnant with twins.-Mashallah, Muhammadning besh farzandi bor, uning ayoli yana egizak farzand olib keladi.

O‘rta yoshli ayol ER Riyad shahrida ko‘rgan katta uyi haqida so‘zlaganda: What a big house; masha Allah tabarak Allah; it can hold up three families-Mashallah, alloh muborak qilsin. Qanday katta uy. Uch xonadon bemalol istiqomat qilsa bo‘ladi.

Qo‘shnisining dalasidagi sigir haqida yosh ayolning izohi: Have you seen our neighbours` cow? Masha Allah alayha; its milk is so delicious. – Qo‘shnining sigirini ko‘rdingizmi? Mashallah alayha, suti rosa shirin ekan.

Juda qisqa uxlaydigan insonga ikkinchi kishi quyidagicha murojaat etadi: May Allah not hurt you; masha Allah alik. When do you sleep? -Alloh sizga ozor bermasin. Mashallahi alik. Siz qachon uxlaysiz?

Sahrodagi buloqdan taajjublangan keksa yoshli inson so‘zlaganda: la ilah illa Allah; what a desert spring field. –La ilaha illallah, sahrodan buloq chiqibdiya.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, diniy barqaror birikmalarning pragmatik xususiyatlari turli yosh egalari o‘rtasidagi muloqot jarayonida shakllanadi va ular asosan hayrat, taajjub, shubhalanish, dalda berish, yaxshi tilaklar bildirish, ayrim o‘rinlarda esa hasad holatini namoyon etish jarayonida yuzaga keladi. Diniy barqaror birikmalarning pragmatik xususiyatlari asosan Muqaddas Qur’oni Karim iboralari asosida namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Ali Alsohaibani. Influence of religion on language use: A sociopragmatic study on the influence of religion on speech acts performance. Ph.D.Thesis. University of East Anglia. November 2017. – P.411.
2. Ahmad Lutfiy Qozonchi. Saodat asri qissalari. II kitob. Munir nashriyoti, 2022. – 479 b.
3. Jashari, A. Fjalor me Shprehje te Huazuara ne Gjuhen Shqipe, Korçe, 2007. – p.161.
4. https://christiansforsocialaction.
5. Bible. Old Testament. Genesis 3:9

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 93

ЖЕНСКИЕ БОЖЕСТВА ПЛОДОРОДИЯ В РАЗЛИЧНЫХ КУЛЬТУРАХ

Рахимов Элёр Дониёр угли,
младший научный сотрудник Института истории
Академии наук Республики Узбекистан

TURLI MADANIYATLARDA AYOL HOSILDORLIK MA'BUDALARI

Raximov Elyor Doniyor o'g'li,
O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix
instituti kichik ilmiy xodimi

FEMALE FERTILITY DEITIES IN VARIOUS CULTURES

Rakhimov Elyor Doniyor o'g'li,
is a junior researcher at the Institute of History of the
Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

Тел: +998 97 753 38 35
E-mail:
elyor.r.2002.12.04@gmail.com

Orcid: 0009-0000-5874-3825

Аннотация. Эта статья исследует концепцию женского божества плодородия в различных культурах и эпохах. Она анализирует исторические корни этой концепции, ее роль в религиозной и культурной практике, а также ее значение в контексте современного общества.

Ключевые слова: женское божество, богиня, ритуал, обряд, плодородие, культ.

Annotatsiya. Ushbu maqola turli madaniyatlar va davrlarda ayol hosildorlik ma'budasi tushunchasini o'rganadi. U konsepsiyaning tarixiy ildizlarini, diniy va madaniy amaliyotdagi rolini va zamonaviy jamiyat kontekstidagi ahamiyatini tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: ayol mabudasi, ma'buda, marosim, ritual, xosildorlik, kult.

Annotation. This article explores the concept of a female fertility deity in various cultures and eras. She analyzes the historical roots of this concept, its role in religious and cultural practice, as well as its significance in the context of modern society.

Key words: female deity, goddess, ritual, rite, fertility, cult.

ВВЕДЕНИЕ (КИРИШ/INTRODUCTION). Женское божество плодородия представляет собой один из наиболее распространенных и важных аспектов мифологии и религии в многих культурах по всему миру. В различных формах и под разными именами оно было объектом почитания и поклонения на протяжении многих веков.

Концепция женского божества плодородия имеет древние корни и связана с первобытными представлениями о природе и человеческом бытии. В многих древних культурах, таких как древние египтяне, шумеры, греки и римляне, существовали богини, символизирующие плодородие земли, жизни и рождения. Они часто были ассоциированы с природными явлениями, такими как циклы роста и урожая, и обожествлялись через ритуалы и обряды поклонения.

ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД (АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). В древнем Шумере, Египте, Риме, Азии на территориях которые являлись зачатком древнейших цивилизаций, женские божества имели значительное значение в религиозной практике и мифологии.

Инанна (Иштар) была богиней любви, войны и плодородия. Её культ был широко распространён в Шумере, и её почитали как покровительницу жизни и плодородия. Она часто изображалась в виде молодой женщины с

символами плодородия, такими как змея или рог изобилия [6, с. 229].

Шумерские женские божества также отражали широкий спектр общественных и религиозных ценностей, связанных с жизнью и смертью, природой и культурой.

Хатхор – это одна из важнейших древнеегипетских богинь, чья сфера включала в себя любовь, красоту, радость, плодородие и защиту [3, с. 33]. Она часто изображалась как женщина с головой коровы или просто как корова. Хатхор также была связана с небом, звёздами и солнцем, а также с душами умерших. Её культ широко распространён в Древнем Египте, и она пользовалась популярностью среди фараонов и простых людей [7, с. 26-27].

Афродита – в греческой мифологии – богиня красоты и любви, включавшаяся в число двенадцати олимпийских богов, также почиталась как богиня плодородия, вечной весны и жизни.

Геродот отмечает, о почитании многими народами Афродиты, то есть богинь, отождествляемых с нею. Согласно мифу, сирийская богиня была идентифицирована с Афродитой. По легенде, огромное яйцо упало с небес на берег Евфрата, где его нашли рыбы, а голубки высиживали, пока из него не вышла Афродита. По желанию самой богини Зевс перенёс рыб на небо, в созвездие [1, 131, III 8, IV 59].

В древнем Риме Афродите соответствовала богиня Венера. Её характер напоминает Иштар, у которой были спутницы Красота и Страсть. Афродита, подобно Кибеле, часто сопровождалась дикими зверями, такими как львы, волки и медведи, которые, по легенде, были усмирены богиней любви.

ОБСУЖДЕНИЕ (МУҲОКАМА/ DISCUSSION).

Афродите, как богине любви, были посвящены мирты, розы, мак и яблоко, а также фиалки, нарциссы и лилии; как богине плодородия – воробьи и голубки, составлявшие ее свиты.

Богиня Афайя – это древнегреческая богиня плодородия и рождения. Её культ был особенно распространён на острове Эгина. В её почитании уделялось внимание женщинам, желающим забеременеть или успешно родить. В её храмах проводились обряды и ритуалы, направленные на поддержку женского здоровья и плодородия. Афайя часто изображалась как женщина с дитём на руках или как женщина, сидящая на троне с изображением змеи, символизирующей циклы рождения и возрождения. Её культ был широко распространён в Древней Греции, и она считалась одной из важнейших богинь этой культуры [8, с. 82].

Богиня Артемида в древнегреческой мифологии ассоциируется с плодородием через свою связь с дикой природой, животными и защитой женщин. Она часто изображается как охотница, защищающая диких животных и природные угодья. Также она является покровительницей девственности и детей, и её культ связан с рождением и защитой младенцев. В мифах упоминается её сила и способность приносить плодородие в природе, а также её способность обеспечивать здоровье женщин и детей. Артемида играла значительную роль в жизни древних греков как символ плодородия, дикой природы и защиты.

Богиня Венера, также известная как Афродита в древнегреческой мифологии, ассоциируется с плодородием через свою связь с любовью и красотой. Венера была богиней любви, нежности и плодородия. Её культ был широко распространён в древнем римском обществе, и её часто поклонялись как покровительнице брака, семьи и плодородия. Венера также часто ассоциировалась с растениями, животными и природными явлениями, символизирующими плодородие и процветание. Её культу были посвящены множество храмов и обрядов, направленных на привлечение любви и благополучия.

Деметра - это древнегреческая богиня плодородия, сельского хозяйства и урожая. Она была часто почитаема в связи с урожаем и растительностью земли. Деметра также ассоциировалась с материнством и защитой детей. В мифологии Деметра часто связывают с мифом о похищении её дочери Персефоны богом подземного мира, Гадесом. Её печаль за потерю дочери приводила к зимнему времени и прекращению роста растений, а радость возвращения Персефоны весной сопровождалась

TAMADDUN NURI

возобновлением природы и началом нового цикла плодородия.

Богиня Анахита была важным божеством в древнеперсидской и парфянской религиях. Она ассоциировалась с водой, плодородием, источниками и реками. Как богиня воды, её почитали как дарительницу плодородия, благополучия и богатства. Её культ был распространён в древних персидских обществах, и её храмы часто строились у рек и источников, где люди приходили молиться о процветании и защите. Анахита изображалась как женщина, стоящая на лотосе или троне, держащая сосуд с водой или корзину с плодами, символизирующими плодородие. Её культ также охватывал аспекты материнства и защиты.

Спента Армаити - это одна из важнейших богинь в зороастризме, древней религии Ирана. Она представляет собой божественное воплощение плодородия, земли и материнства. Спента Армаити также ассоциируется с природой, растениями и животными, играя важную роль в сохранении экологической гармонии. Её культ направлен на благополучие и процветание человечества через плодородие земли. Она изображается как женщина с детьми или с изобилием плодов, символизирующих её влияние на рождение и рост растений. Богиня Спента Армаити принимает на себя заботу о материнстве, плодородии и благополучии природы и человечества [5, с. 672].

Женское божество плодородия представляет собой важный аспект мифологии и религии, который пронизывает культуры и общества на протяжении тысячелетий. Его символика и значение продолжают вдохновлять и оказывать влияние на современное общество, напоминая о связи человека с природой, жизнью и плодородием. Изучение этой концепции позволяет глубже понять культурные и религиозные аспекты человеческой истории и дает возможность рассмотреть ее значение в современном контексте. Женские божества плодородия в различных культурах и религиях играли сходные роли и символизировали общие идеи и ценности.

Египетские божества плодородия, такие как Исида и Хатхор, представляли собой материнство, плодородие земли и процветание. Они ассоциировались с земледелием, реками Нилом, животными и циклами природы.

Римские божества плодородия, такие как Церера (Керес), Венера и Флора, также символизировали плодородие, урожай и процветание. Они покровительствовали земледелию, семейной жизни и рождению [2, с. 123].

Азиатские божества плодородия, такие как Анахита в персидской мифологии и Спента Армаити в зороастризме, отражали плодородие земли, воды и животных, а также связь с материнством и защитой.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ (ХУЛОСА/CONCLUSION). Общее смысловое значение этих божеств заключается в признании важности плодородия для выживания и процветания общества. Они символизировали не только физическое плодородие земли, но и плодородие в более широком смысле, включая рождение новой жизни, процветание семьи и общества, а также надежду на будущее. Таким образом, эти божества отражают глубокие культурные идентичности и ценности, связанные с жизненной силой и обновлением.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА (АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ/ REFERENCES)

1. Геродот. «История».
2. Двенадцать помощников Цереры перечисляют Сервий в комментарии к «Георгикам» (l, 21); см. Barbette Stanteley Spaeth, The Roman Goddess Ceres (University of Texas Press, 1996). – p. 123.
3. Коростовцев М.А. Религия Древнего Египта. – Москва: 1976.
4. Легенды и сказания Древней Греции и Древнего Рима. 1990. – С. 576.
5. Мифологический словарь/Гл. ред. Мелетинский Е.М. – Москва: Советская энциклопедия, 1990 г. – 672 с.
6. Немировский А.И., Рак И.В., Ильинская Л.С. – Мифы и легенды народов мира Т 3. Древний Египет, Месопотамия. 2004.
7. Павсаний. Описание Эллады. Книга II, гл. 30.
8. Рак И.В. «Египетская мифология». – Москва: ЗАО «Центрполиграф», 2008.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 801.82:81

SHUKUR XOLMIRZAYEVNING "ODAM" HIKOYASIDA SHAXS KONSEPSIYASI

Tangirov Ro'ziboy
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti mustaqil tadqiqotchisi

ЛИЧНОСТНАЯ КОНЦЕПЦИЯ В ПОВЕСТИ ШУКУРА ХОЛМИРЗАЕВА «ЧЕЛОВЕК»

Тангиров Розибой
Независимый исследователь Термезского университета экономики и сервиса

PERSONALITY CONCEPT IN SHUKUR KOLMIRZAYEV'S STORY "MAN"

Tangirov Roziboy
Independent researcher of Termez University of Economics and Service

Tel+998976049100
E-mail:
tangirov.ruziboy@mail.ru
Orcid: 0009-0007-5284-7253

Annotatsiya: Iste'dodli adib Shukur Xolmirzayevning "Odam" hikoyasida insonning ruhiy-ma'naviy olami, uning qalb iztiroblari, inson sifatidagi faoliyati, muhitdagi o'rni talqin etilgan. Asar tarkibidan o'rin olgan hikoyalar insonning o'zligini anglashga, uning turli xarakter xususiyatlari yoritilishiga asos bo'lgan. Adibning har bir asarida o'ziga xos milliy qadriyatlar, an'analar o'z ifodasini topadiki, bu esa asar syujeti va kompositsion yaxlitligida namoyon bo'ladi. Hikoya asosida adibning inson konsepsiyasini badiiy ifodalashdagi mahoratiga to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: badiiylik, ijodkorlik, hayot, talqin, inson, konsepsiya, obraz, xarakter, muhit.

Аннотация: В рассказе «Человек» талантливого писателя Шукура Холмирзаева он осмыслил духовный и духовный мир человека, его душевные устремления, его деятельность как личности, его место в окружающей среде. Истории, вошедшие в композицию произведения, служат основой для понимания личности человека, выделения различных черт его характера. В каждом произведении писателя выражаются неповторимые национальные ценности и традиции, что отражается в сюжетной и композиционной целостности произведения. На основе повести обсуждается мастерство писателя в художественном выражении человеческой концепции.

Ключевые слова: художественность, творчество, жизнь, интерпретация, человек, концепция, образ, персонаж, среда.

Annotation: In the story "Man" by the talented writer Shukur Kholmirzaev, he interpreted the spiritual and spiritual world of a person, his soul aspirations, his activity as a person, his place in the environment. The stories included in the composition of the work are the basis for understanding the identity of a person, highlighting his various character traits. In every work of the writer, unique national values and traditions are expressed, which is reflected in the subject and compositional integrity of the work. Based on the story, the writer's skill in artistic expression of the human concept is discussed.

Key words: artistry, creativity, life, interpretation, person, concept, image, character, environment.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). XX o'zbek adabiyotining taraqqiyotida bir qator iste'dod sohiblari o'zlarining yaratgan asarlari bilan yuksaksalish jarajasiga, badiiyat mezonlarini yangilanishiga asos soldi. Abdulla Qodiriy, Abdullhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qahhor, G'afur G'ulom kabi ijodkorlarning nasriy asarlari o'zbek nasrining yuksalishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. O'tgan asrning 60-yillariga kelib nasr taraqqiyotiga yana bir qator ijodkorlar o'zining ulkan hissasini qo'sha boshladiki bular orasida, iste'dodli adib Shukur Xolmirzayev ham bor edi. Adibning har bir asarlarida inson va tabiat birligi, inson va muhit uzviyligi o'zaro chambarchas bog'lanib ketgan. Yozuvchi yillar

davomida hikoya, qissa, roman janrlarida qator asarlar yaratgan bo‘lsa-da, adibning hikoyachilik taraqqiyotidagi badiiy mahoratini alohida qayd etish lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Iste’dodli adib hayoti, ijodi haqida qator maqolalar, asarlar, monografik tadqiqotlar, adabiy portretlar yaratalgan. Bu tadqiqotlarda Shukur Xolmirzayevning ijodkor va inson qiyofasidagi xususiyatlari bilan bir qatorda poyetik mahorati ham juda teran tahlil etilgan. Adabiyotshunos olim Hakimjon Karimovning “Adabiy portret”larida, adibning shaxs va ijodkorlik faoliyati juda teran ochib berilgan bo‘lsa, adabiyotshunos A.Nasirovning “Badiiylik va hayot haqiqati” monografiyasida esa, hayotiy voqelikning badiiy in’ikosida ijodkor mahorati ochib beriladi. Sayyora Xolmirzayevaning “Men – otamning qiziman” asarida ijodkorning hayoti, shaxs sifatidagi fazilatlari, qator hayotiy voqealar silsilasida yoritilgan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION). Insonning badiiy obrazini yaratishga ming-ming yillardan beri harakat qilinadi, ammo har bir bir so‘z san’atkori o‘ziga xos ifoda shakllarini namoyon etib keldi. Uning qismati, hayoti, murakkab taqdiri, ijtimoiy-ma’naviy hayotdagi badiiy funksiyalari ham ijodkor uslubidan kelib chiqib badiiy talqin etiladi. Yozuvchining “Olis yulduzlar ostida”, “Sog‘inch” hikoyalarida ham oddiy odamlarning xarakter qirralarini, ularning kechinmalarini, turfa xil xususiyatlarini talqin etrgan. Bu hikoyalarning badiiy ifodasida ba’zan xalq maqollari, matallari, iboralari, obrazli ifodalar mahorat bilan qo‘llanilganligini kuzatish mumkin. Adib xalq ijodining durdonasibo‘lgan quyma obrazli, jonli, te’sirchan frazeologizmlar va maqol-matallarni shunchaki matn ko‘rki uchun emas, balki yozuvchi ularni hikoya kontekstiga nihoyatda silliqlangan holda singdirib yuboradi. Hikoyalardagi maqol, matal, iboralar matnini o‘z ijodiy laboratoriyasida qaytadan ishlab, o‘zgartirib, ba’zi qismlarini sintezlab, tafakkurda qayta ishlab, yangilab voqelikka singdirib yuboradi. Shu bilan bir qatorda adib, tabiat va insonning dialektik birligini juda go‘zal talqin etadi. Adabiyotshunos A.Nasirov qayd etganidek: “Yangicha milliy tafakkur, realistik nasr rivoji o‘tgan asr boshlarida shakllanish jarayoni kuzatilsa, asr so‘ngiga kelib jahon adabiyotidagi an’analar asosida shakllanib, rivojlanib, o‘zida mujassamlashib borayotganligini guvohi bo‘lamiz” [2]. Ta’kidlanganidek, yangicha mazmun va mohiyat kasb eta boshlagan nasriy asarlarning shakllanishi o‘tgan asr boshlarida yuksalish davrini boshlab ham berganligini ta’kidlash lozim. Bu jarayonda ham inson va uning xarakter qirralari talqini ham yuksalib, poyetik ifoda shakllari kengayib borganligini kuzatish mumkin.

Badiiy adabiyotning asosida inson turar ekan, uning asosidagi shaxs konsepsiyasi, uning turfa xil xususiyatlarini, ruhiy-ma’naviy olamini, shaxs sifatidagi muhitdagi o‘rnini talqin etadi. Asarning voqealariga singdirgan holda ochib beradi. Shuning uchun Shukur Xolmirzayev hikoyalaridagi inson konsepsiyasi, ijodkorninmg ideyasini yuzaga chiqishiga va ijodkor badiiy mahoratini anglashga asos bo‘ladi: “badiiy asarimiz zaminida xuddi g‘oyani – konsepsiyani, ya’ni ezgulikning ilgari surilishi bejiz emas. Demak, qalb insoniylik bilan sug‘orilishi insonni qalb tahlilida, yuqorida aytganimizdek, jamiyatimiz ifodasi yotadi. 70-80-yillarda yaratilgan o‘zbek prozasida xuddi mana shu holatni kuchayganligini ko‘ramiz” [3]. Badiiylik qonuniyatiga ko‘ra, insonni talqin etar ekan, uning o‘z istiroblari, quvonchu, alamlari bo‘lishi tabiiy hol. Ammo badiiy adabiyot ana shu insonning butun borlig‘icha gavdalantirishga, talqin etishga harakat qiladi. Chunki inson va jamiyat bir-biriga xuddi, tabiat va inson kabi uzviy bog‘liqligini ham yoritadi, talqin etadi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Shukur Xolmirzayevning qator hikoyalarida olam va inson mukammaligi, uning badiiy in’ikosi, qahramonlar qiyofasi, kechinmalariga singdiriladi. Masalan, “Arpali qishlog‘ida”, “Olis yulduzlar ostida” boshqa qator o‘nlab hikoyalarida ham ijtimoiy hayotdagi illatlar, inson xarakteridagi o‘ziga xosliklar haqqoniy va badiiy mukammal badiiy talqin etilsa, “Odam” hikoyasida bu tushunchalar yanada teranroq ahamiyat kasb etadi. Hikoyadagi voqelar o‘tgan asrning boshlaridagi hayotiy ziddiyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan. Asarda Rahimadagi o‘ziga xos xarakterni, Xosiyatdagi insonga yaxshilik qilishdagi ilinjni, Shodmondagi milliy g‘urur va oriyatni, Keksa onadagi farzandga bo‘lgan mehru muhabbatni ko‘rishimiz mumkin. Rahima “ko‘p o‘tirib qolmagan qiz” ammo onai mehriboni, qishlog‘idan bo‘lgan, lekin keyinchalik shaharda yashab qolgan etim yigit Shodmonga berishni niyat qiladi. Shodmonni ham insoniy fazilatlari bor, ammo o‘ziga xos manmanlik xarakteri ham yuksalib ulguirgan. Ba’zan insoniyligini unitib qo‘yadi, shahar ko‘chalarini sang‘ib kezadi. Ba’zan esa, insoniylik chegarasidan chiqmaydigan darajada muloyim, xushf’yel shaxsga aylanadi.

Qishloqdagi ariqdan suvni olar ekan uni kimdir chaqirgandek bo‘ladi, qarasa sal narida Xosiyat opa turardi. Unga shahardan olib chiqilgan matohni ko‘rsatmoqchi bo‘lib, uni o‘tov ichkarisiga boshlaydi, qarasa bir yigit turar, summati kelishgan. Rahimaning bu holatga achchig‘i kelib, tashqariga otilib chiqadi, chelagini ko‘tarib uyi sari yo‘l oladi. Shu kecha uning onasi qazo qiladi: “Mendan yaxshilik o‘tgan bo‘lsa, unitmanglar. Yomonlik o‘tgan bo‘lsa, sedan chiqaringlar. Rostgo‘y, mard, halol bo‘linglar!” – dedi. So‘ng Rahimaga tikilib: - Bolam, Shodmon shahardan kelgan, - deya entikdi. – Seni deb kelgan. Xosiyat opangni uyiga qo‘ngan. Ota-onasiz yetim bola. O‘zimizdan. Seni o‘shanga bermoqchiydim” [4].

Keksa onaning vasiyati amalgam oshadi, chunki o‘sha davr uchun bu qonuniyat, uning bajarilishi tabiiy hol. Onasining yili o‘tib, Rahimani shaharlik Shodmon Polvonga uzatishadi va uni shaharga tushurib ketadi. U erning muhiti, odamlariga asta-sekin moslasha boshlaydi. Keng yaylovlarda yurgan inson, xuddi bir chekka kelib qolgandek his etadi, o‘zini. Hikoyadagi voqelik shiddatli davrning voqeligini yuzaga chiqaradi, ammo yillar shamoli, insonni ne kuylarga solmaydi, tez orada Rahima o‘sha muhitga moslasha boshlaydi, shunga majbur edi. Orada to‘rt yilga yaqin vaqt o‘tadi, ammo shu damlarda xalq orasida “inqilob bo‘larmish, bek-bekzodalar yo‘q bo‘larmish”, - degan gaplar tarqala boshlaydi. Yozuvchining talqinlariga nazar solinsa, bu voqealar bejizga qayd etilmayabdi, ziddiyatli, murakkab bir davrdan, muhitdan darak beradi. Shodmon polvon esa bu vaqtda do‘stlari bilan Afg‘onistonga ketgan, qaytishda esa bir tuya mol bilan kelgan. Ammo tez orada kasallanib vafot etishi, undan uch farzand etim qolgangan bo‘lsa, Rahima kelin esa beva qoladi. Tez orada “qizillar kelayabdi” degan gap tarqalib, odamlar jonini saqlash maqsadida tog‘ sari qocha boshlaydi. Tog‘da bir yildan ortiq qolishga majbur bo‘ladi, shu yili sovuqda Rahima oyog‘ini sovuqqa oldiradi, ming bir istirob iskanjasida hayot kechiradi [1].

Hikoya voqealariga uning rivojiga nazar tashlansa, badiiy qahramonlarning fazilatlari, insoniyligi, shaxs sifatida shakllanishi kuzatiladi. Chunki mihit insonning xarakteriga, uning shakllanishiga o‘zining u yoki bu ta’sirini o‘tkazadi: “Davrning etakchi xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan shaxs ham, o‘z navbatida oila, jamiyat, muhit va tarixiy voqelik ta’sirida shakllanadi, harakat qiladi. O‘z davrining etuk shaxslari har bir voqea hodisa, muhit va sharoitiga o‘zining bevosita ta’sirini o‘tkazadi” [5].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). O‘zbek adabiyotining yetuk vakili, iste’dodli adib Shukur Xolmirzayevning “Odam” hikoyasida ham, boshqa asarlarida bo‘lgani kabi hayot falsafasi teran talqinlarga singdirilgan. Uning zamirida kitobxon, o‘zligini anglashga, hayot falsafasiga teranroq yondoshishga, uni to‘g‘ri his etishga intiladi.Yozuvchining inson qalbini, uning xarakter qirralarini teran anglashi, go‘zal qalbli badiiy qahramonlarning shakllanishiga asos bo‘lgan. Bu hikoyada ham, voqealar rivoji inson konsepsiyasini, uning badiiy matnda yaxlitlik kasb etishini mahorat bilan talqin etgan. Hayot va inson, inson va tabiat, inson umrining esa o‘tkinchi ekanligini alohida anglash lozim. Berilgan bu umr sinov hayoti ekanligini, uning mohiyatini esa anglash kitobxon hukmiga qoldiriladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Karimov H. Adabiy portretlar: Odil Yoqubov, Shukur Xolmirzayev, O‘tkir Hoshimov, Tog‘ay Murod. – Toshkent: “Yangi nashr”, 2027. – 420 b.
2. Nasirov A. Badiiylik va hayotiy haqiqat. –Istanbul: KESIT, 2019. – 139 b.
3. Karimov H. Kechagi o‘zbek nasrida hayot haqiqati va inson konsepsiyasi (70-80 yillar). Monografiya. – Toshkent: “Yangi nashr”, 2018. – 320 b.
4. Xolmirzayev Shyu Saylanma. I jild. Hikoyalar. – Toshkent: “Sharq”, 2003. – 448 b.
5. Nasirov A. badiiy asarda tush talqini: xarakter va ruhiyat birligi // Yangi O‘zbekiston, yangi tadqiqotlar jurnali. https://phoyenixpublication.uz/ Volume 1. Issuye 3. ISSN: 3030-3494. 430-435-b.
6. Xolmirzayeva S. Men – otamning qiziman... Maqolalar, esse va suhbatlar. – Toshkent: “Adabiyot”, 2023. – 192 b.

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK:950(575.1)

TURKIY QABILALAR VA MO‘G‘UL QAVMLARIGA NOM BERILISHINING TARIXI (MIRZO ULUG‘BEKNING “TO‘RT ULUS TARIXI” ASARI ASOSIDA)

Usmanaliyeva Muqaddas,
Nizomiy nomidagi TDPU Ijtimoiy gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi (tarix) magistranti

ИСТОРИЯ НАЗВАНИЙ ТЮРКСКИХ ПЛЕМЕН И МОНГОЛИЙ (НА ОСНОВЕ “ИСТОРИ ЧЕТЫРЕХ НАРОДОВ” МИРЗО УЛУГБЕКА)

Усманалиева Мукаддас, магистрант кафедры методики преподавания социальных и гуманитарных наук (истории) Низомийского ТДПУ

THE HISTORY OF NAMES OF TURKISH TRIBES AND MONGOLIANS (BASED ON MIRZO ULUGBEK’S “HISTORY OF FOUR NATIONS”)

Usmanaliyeva Muqaddas, Master's student of Teaching Methodology of Social and Humanitarian Sciences (History) of Nizomiy TDPU

https://ordic.org/0009-0009-5345-2207

e-mail:

muqaddasusmanaliyeva@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi” asariga asoslanib O‘g‘uzxon tomonidan turkiy va mo‘g‘ul qavmlariga nom berilish sabablari va ularning yashagan hududlari haqidagi ma’lumotlar o‘rganilgan. Shuningdek, ularning XX asrga kelib kelib joylashgan hududlar va ularning soni haqida ham ma’lumotlar keltirilib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: tarix, asar, manba, O‘g‘uzxon, qarluqlar, uyg‘urlar, xalaj, chiyurg‘on, qipchoq, afsona, rivoyat.

Abstract: In this article, based on Mirzo Ulugbek’s “History of Four Nations”, the reasons for giving names to the Turkic and Mongolian people by Oguzkhan and the information about their inhabited areas are studied. Also, information about locations and their number by the 20th century has been provided

Key words: history, work, source, Oguzkhan, Qarluqs, Uyghurs, Khalaj, Chiurgon, Qarlik, Kipchak, legend, narration.

Аннотация: В данной статье на основе “Истории четырех народов” Мирзо Улугбека изучаются причины присвоеня Огузханом названий трюкским и монгольским народам и сведения об их населении. Также предоставлены сведения об их местонахождении и численности к XX веку.

Ключевые слова: история, труд, источник, Огузхан, Карлуки, Уйгуры, Халадж, Чиургон, Кипчак, легенда, повествование.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/ INTRODUCTION)

Mustaqillikka erishganimizdan O‘zbekston tarixini o‘rganish, unga obyektiv baho berish, ilmiy salohiyatni oshirish masalasiga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, davlatchilik tarixini rivojlanishiga katta e’tibor berilmoqda. Har bir davrni o‘ziga xos hususiyatlarini o‘rganish tarixchi olimlar uchun muhim vazifa hisoblanadi. O‘rta asrlar davrini o‘rganishda Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi” asari muhim manba hisoblanadi. Asarda turkiy qabilalar va mo‘g‘ul qavmlari haqida, mo‘g‘ullarning O‘rta Osiyoga yurishlari, shahzodalar va Amir Temurning hokimiyatga kelish jarayonlari ochib berilgan. Mazkur maqolada qabilalarga nom berilish sabablari va ular bilan bog‘liq afsona hamda rivoyatlar tahlil qilingan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS)

Ma’lumki, O‘rta Osiyo tarixiga bag‘ishlangan ko‘plab qimmatli manbalar va tarixiy asarlar yaratilgan. Mazkur asarlarning har biri o‘z davri uchun muhim va qimmatli ma’lumotlarni berishi bilan ajralib turadi. Misol tariqasida Rashiddinning “Jami-ut tavorix”, Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy”, Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma’’ kabi asarlarini keltirib o‘tish mumkin. Ana shunday asarlardan biri Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi” asaridir. Asarda muallif qadimdan Amir Temur davrigacha bo‘lgan turkiy qabilalar haqida yozib qoldirgan. Asarning ahamiyatli jihati shundaki, unda o‘sha davrning tarixiy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va etnografik ma’lumotlari ham o‘z aksini topgan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION) “To‘rt ulus tarixi” asari VII bobdan tashkil topgan. Birinchi bobda Turkxon ibn Yofas hamda uning Turkiston zaminida podsholik qilgan avlodi (Abuljahon, Dibokuyxon, Kuyukxon va boshqa) tatar-mo‘g‘ul va turk qavmlari podsholari (Mo‘g‘ulxon, Qoraxon, O‘g‘izxon kabi) tarixi bayon etilgan. Mazkur bobda O‘g‘uzxon ibn Qoraxon tomonidan turk qavmlariga nom qo‘yganligini ko‘rishimiz mumkin. Misol uchun, Uyg‘ur, Qonqli, Qibchoq, Qorluq, Xalaj va boshqalarni keltirish mumkin. O‘g‘uzxon har bir qabilaga biror voqeaga asoslangan holda nom bergan.

Mirzo Ulug‘bek mazkur bobda qavmlarni turklar va mo‘g‘ullarga ajratib ko‘rsatadi. Bundan ko‘rinadiki, bu qavmlar bir-biri bilan shu qadar yaqin yashaganki, hatto shajaralari ham bir-biriga bog‘lanib ketgan. Buni Rashiddinning “Jami’ ut tavorix” va nemis sharqshunosi Gerxard Doyorferning “Yangi fors adabiyotida turk-mo‘g‘ul elementlari” deb nomlangan to‘rt jildlik izohli lug‘atida ham yaqqol keltirib o‘tilganligini ko‘rish mumkin.

Mirzo Ulug‘bek tomonidan keltirib o‘tilgan qavmlarning ba’zi birlariga to‘xtalib o‘tamiz. Xususan, O‘g‘uzxonga yordam bergan qabilaga Uyg‘ur deb nom berilgan. “Uyg‘urning ma’nosi qo‘shmoq, bog‘lamoq, bir-biri bilan ahd-u paymon bog‘lamoqdir. Bu toifa O‘g‘uzxonga bir jangda besabab yordan bergandi. Shu sababli ularga uyg‘ur deb nom bergan edi” [1]. Yana bir qavm bu qonqli bo‘lib uning ma’nosi aqllilik, farosatlilik ma’nosini bildirgan, shuningdek, o‘zi bir narsadan bir ma’no chiqarishdir. Chunonchi, bir jangda O‘g‘uzxon qo‘liga juda ko‘p boylik o‘lja bo‘lib tushadi lekin, uning qulfini ocha olmaydi, shunga lashkarlari orasidan bir jamoa ajralib chiqib, xazinaning qulflarini osonlikcha ochadi. Shu bois, o‘z aql-u farosati bilan dunyo mushkullarini yecha olganliklari sababli qonqli deb nomlanadi.

Turkiy qabilalar orasida ko‘pchilikni tashkil qilgan qipchoqlarning kelib chiqishi, qaysi hududlarda istiqomat qilganligi va nomlanish tarixi haqida quyidagi ma’lumotlar keltirib o‘tiladi. Ushbu ma’lumotni “O‘g‘uzxonning turk qavmlariga laqab qo‘yganligi zikri’’ qismida uchratish mumkin. Jumladan, “Qipchoq nomi qabuq so‘zidan olingan. Qabuq bir daraxtning nomidir. Bu daraxtni ichi kovak bo‘ladi va po‘stidan tashqarisida ko‘klik yo‘q. Aytadilarki, janglarning birida O‘g‘uzxon qo‘shinlari shikast yeydi. O‘g‘uzxon qo‘shinlarining ko‘pchiligi qatl etiladi. O‘g‘uzxon dushmanlarga qarshilik qilishga holi qolmaganligi tufayli chekinishga majbur bo‘ladi. Qo‘shinlar orasida lashkarlarining birining xotinini homilador bo‘ladi. Uning eri va otasi O‘g‘uzxon ko‘z o‘ngida dushmanga qarshi jangda vafot etgan edi. U ayolning tug‘ruq vaqti kelib, dardi qo‘zg‘ab qolgan edi. Noiloj qolgan homilador ayol qabuq daraxti kovagidan boshqa pana joy topilmaydi. U yerda o‘g‘il farzand ko‘radi. O‘g‘uzxon bundan xabar

topgach, eri va otasi biz tufayli vafot etdi deb yetim qolgan bolani o‘zi farzandlikka oladi va unga Qipchoq deb nom beradi”[2]. Bugungi kundagi qipchoq qavmlariga O‘g‘uzxonning bir o‘g‘lining naslidan bo‘lgan deb qaraladi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, “O‘g‘uzxonning o‘sha jangida Eron voliysi Etbaroq ham bor edi. 17 yil o‘tgach, Elbaroqxon ustidan g‘olib bo‘ladi va Eronni bosib oladi. Biroz vaqt o‘tib O‘g‘uzxon Turonga kelgach, unga qarshi yana dushmanlari bosh ko‘taradi. O‘ziga farzand qilib olgan Qipchoqqa buyuradiki, o‘z odamlarini olib dushmanlari ustiga yurish qilishni buyuradi. O‘g‘uzxon farmoniga binoan u yo‘lga tushadi va o‘sha yerda yashab qoladi”[3]. Shu tariqa tarixga qipchoq qavmi atamasi kirib keladi.

Keltirib o‘tilgan ma’lumotlardan tashqari, qipchoqlar qadimiy turkiy qavmlardan sanalib, ular yashagan hududlar XI asr arab va fors manbalarida “Dashti Qipchoq”deb tilga olingan. Dashti Qipchoq aholisi rus manbalarida poloveslar, Vizantiya manbalarida esa kuman, Sharq manbalarida Qipchoqlar deb atalgan. Geografik jihatdan, Dashti Qipchoq Sirdaryoning yuqori oqimi va Tyanshanning g‘arbiy yon bag‘ridan Dnepr daryosining quyi oqimigacha bo‘lgan hududlar kiritilgan. Keyinchalik Dashti Qipchoqning sharqiy qismida yashagan aholisi bir nom bilan O‘zbeklar deb atalgan.

O‘g‘uzxon tomonidan yana bir qavmga nom berilgan. Bu qavm Qorliq bo‘lib “O‘g‘uzxonning turk qavmlariga laqab qo‘yganligi zikri” qismida keltirib o‘tilgan. “O‘g‘uzxon G‘o‘r sarhadidan Turon zamin tomon yo‘lga chiqqanda qish juda sovuq kelgan. Dashtu sahroni qor tamoman qoplab olgan. U buyurdiki, hech kim lashkardan orqada qolib ketmasin. Ammo, qor ko‘pligi va sovuqdan ba’zilar lashkardan orqada qolib ketadilar. O‘g‘uzxonga bu ma’lum bo‘lgach, yana farmon berdi. Ularni topib keldilar. So‘roqlaganlari bilan, baribir qolib ketganlar bo‘ldi. Surishtirib, qolganlarga qorliq deb nom berdi”[4].

Demak, Qarluqlar qadimiy turkiy qabilalardan biri bo‘lib, ular Oltoyning g‘arbi, so‘ngra Irtish daryosining o‘rta oqimida yashaganlar. Dastlab turk xoqonligi, so‘ngra VIII asr o‘rtalarida Yettisuv o‘lkasida o‘z davlatlarini qurganlar. Tadqiqotchi K.Shoniyozov fikriga ko‘ra, Qoraxoniylar davlati Qarluqlar davlati bilan bevosita uzviy bog‘liq bo‘lib uning tadrijiy davomi hisoblanadi [5].

1924-yilgi ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekiston hududida 10 mingdan oshiqroq, Tojikistonda esa 7 mingga yaqin qarluqlar istiqomat qilgan. Keyinchalik o‘z qarluq degan nomlarini unutib, o‘zbek va tojik millatlari tarkibiga singib ketganlar. Qarluq lahjasi o‘zbek va uyg‘ur tillarining rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo‘lgan. O‘zbek va Uyg‘ur tillari Turkiy tillar guruhining qarluq guruhiga kiradi.

Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi” asarida “O‘g‘uzxonning turk qavmlariga laqab qo‘yganligi zikri” qismida Xalaj qavmiga nom qo‘yilganligini keltirib o‘tiladi. O‘g‘uzxon Xalaj qavmi to‘g‘risida shunday deydi O‘g‘uzxon “mamlakatlar taqdiri uchun qo‘shin tortganda hukm qildiki, hech kim qorliqlar kabi qolib ketmasin”[6]. Shu orada bir homilador ayol o‘g‘il farzand ko‘radi, lekin kamquvvatliligi tufayli suti yo‘q edi. Sahroda bir shag‘olni (shaqol) ko‘rdi, u tovuqni ovlayotgan edi. Suti yo‘q xotinning eri bir kalxatni olib o‘sha shag‘olga otadi. U tustovuqni olib xotiniga pishirib beradi. Shundan so‘ng unda sut paydo bo‘ladi. Xotinini suti ko‘payib farzandini to‘ydiradi. O‘g‘uzxon ularning ahvolidan xabardor bo‘lgach, yo‘l azobini tortgan ma’nosida uning farzandlariga Xalaj nomini beradi. Xalaj so‘zi “qolib ketma, opajon” degan ma’noni bildiradi.

Yana bir qavm nomi Chiyurg‘a bo‘lib bu qavm ham Xalaj, Qipchoq qavmlari singari tarixga ega. Manbada keltirilishicha, O‘g‘uzxon safarlaridan birida shabg‘irlik yuz beradi. Bir yerga borib, otdan tushib qarasa, bir to‘da odamlari lashkardan ajralib orqada qolib ketganlar va ular qator orqasidan kela boshlaganlar. Shu tufayli ular Chiyurg‘onlar deb nomlangan”[7]. Chiyurg‘on so‘zi turkiyda qator degan ma’noni anglatadi. O‘g‘uzxon turkiyzabon qavmlarga shunday tarzda nom beradi. U kabilar barchasini turk deb bilgan va ularni turkiycha nomlagan.

Xalajlar turkiy qabila ekanligiga taniqli olim K.Shoniyozov ham e’tibor qaratadi va ular qarluqlar tarkibidagi urug‘dosh qabilalardan biri sifatida ta’kidlab o‘tadi.

Jumladan, “Xalajlarni chigillar kabi Qorluq qabila uyushmasi va davlati tarkibida qadimiy turkiyzabon etnoslardan hisoblanadi. Ayrim tadqiqotchilar (Longvord, Daymes, I.Markvort) Vizantiya va Suriya manbalarida 544 yilga oid axborotlarda uchraydigan xaliay, qulas atamalariga tayanib, xalajlar dastavval xulaj deb nomlangan

alohida xalq bo‘lgan deb aytib o‘tadi. Bizning taxminimizcha xalajlar qarluq qabila ittifoqiga kiruvchi (Xitoy manbalarida qayd etilgan) uchta qabilaning biridir”[8].

Bizning fikrimizcha ham, Xalajlar turkiy qabilalardan biri bo‘lib Qoshg‘ar, Yettisuv, Talos vodiysi, Movarounnahr, Xuroson va Iroqqacha cho‘zilgan hududlarda yashagan hamda o‘troqlashib o‘sha hududlarda yashovchi mahalliy xalqlar bilan qorishib ketgan va ayrim guruhlari o‘z etnik nomlarini bizgacha saqlab qolganlar. Buni yuqoridagi manbalar ham tastiqlaydi.

Mo‘g‘ullarning eng qadimgi qabilalari Qiyot va Darlakin hisoblanadi. Qayon naslidan bo‘lganini qiyot deb atalgan, Nukus naslidan paydo bo‘lgan qabilani darlakin deb ataydilar. Bu haqida ma’lumotlarni “Arkanaqun tog‘idan qiyot va darlakin qavmining kelib chiqishi zikri” qismida keltirib o‘tilgan. “Mo‘g‘ul zamini hududi va tomonlari muayyan qilinganidek: uning sharqiy chegarasi Chin-u Xitoy oralig‘i sarhadiga yetadi. Janubda sharqiy sarhadi Chin g‘arbi-shimoliy chegarasi oxirigacha, shimolda sharqiy sarhadi Xitoy sharqi-janubi chegarasi oxiriga va Mo‘g‘ul zamini g‘arbiy chegarasi uyg‘ur zaminigacha, shimoli Qoraqurum va Salangoy zaminigacha va janubi to Tibetgacha yetadi”[9].

O‘zbek urug‘lari ichida yirik birliklardan biri Qo‘ngirotlardir. Ushbu urug‘ haqida “Qayon ibn Elxon naslidan bo‘lgan Buzanjarxon ibn Alanquva binti Chumanaxon ibn Yulduzxon ibn Menglixojaxon ibn Temurtoshxon davlati zuhuri va uning kelib chiqishi kayfiyati zikri”da quydagilarni keltirib o‘tadi. “Alanquvadan uch farzand tug‘ildi. Birinchi o‘g‘liga Burqun, ikkinchisiga Busung‘ur va uchinchisiga Buzanjar deb nom qo‘yadi. Deydilarki, Burqundan ikki o‘g‘il tug‘ilgan. Birining nomini Qabaqay deb ataganlarki, qaboqin qavmi uning naslidandir. Boshqasiga esa Qatag‘on deb nom berdi va qatag‘on qavmi uning naslidandir” [10].

Qo‘ng‘irotlar urug‘i va uning kelib chiqishi borasida bir qancha rivoyatlar mavjud. Akademik A.Asqarovni keltirishicha “O‘zbek xalqi tarkibiga kirgan Dashti Qipchoq ko‘chmanchi o‘zbeklaridan yana biri qo‘ng‘irotlardir. Manbalarda xabar berilishicha, qo‘ng‘irotlar ilk o‘rta asrlarda Oltoy, Mo‘g‘ulistonning shimoliy qismida yashaganlar’’ [11]. Bugungi kunda qo‘ng‘irotlar yurtimizning deyarli barcha viloyatlarida istiqomat qiladi va o‘zlarini o‘zbeklarning bir qismi deb biladi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

Mirzo Ulug‘bek o‘zining “To‘rt ulus tarixi” asarida yana bir qancha qabilalar bilan bog‘liq afsona va rivoyatlarni keltirib o‘tadi. Muallif asarda voqealarni xolis yoritishga harakat qiladi, bu esa asarning qiymatini oshishiga xizmat qilgan. Asari Markaziy va O‘rta Osiyoning XIII-XIV asrlarning birinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o‘rganishda ham muhim o‘rin tutadi. U biz uchun qorong‘u bo‘lgan Chingizxon istilosida to Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelganiga etnik jihatlarni ochib beradi. Asarda keltirilgan ma’lumotlarni Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Mahmud ibn Valining “Bahr ul-asror”iga va arxeologiya fani qo‘lga kiritgan ma’lumotlar bilan taqqoslanib o‘rganilsa, davrlarni yanada tassavur qilish imkoniyatini beradi. Yosh tarixchi- tadqiqotchi sifatida yurt tarixini o‘rganar ekanmiz, har bir ma’lumotga xolis yondashish, obyektiv tadqiq qilish, o‘rta asr davr tarixiga oid ma’lumotlarni boyitish va jamoatchilikka taqdim qilish kelajakda amalga oshirishi zarur bo‘lgan muhim vazifalaridan biridir. Zero, o‘zining haqqoniy tarixini bilmaydigan xalqning kelajagi yo‘qligini tarix qayta-qayta isbotlab kelmoqda!

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Mirzo Ulug‘bek. To‘rt ulus tarixi. Ahmedov B. tarjimasi. T.: Yosh kuch nashriyoti. 2019.
2. Axmadali Asqarov. O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi. T.: O‘zbekiston nashriyoti. 2015.
3. Abdumajid Madraimov, G.Fuzailova. Manbashunoslik. T: Fan nashriyoti. 2007.

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09. 2024 UDK: 1.101

ANALYSIS OF ABDURAUF FITRAT'S "THE STORY OF AN INDIAN TRAVELER" AND SOCIAL-POLITICAL VIEWS IN IT

Rizayev Nodir Sobirovich, Lecturer at the Department of Socio-Political Sciences, Bukhara State University

FITRAT IJTIMOIY - SIYOSIY QARASHLARINING "HIND SAYYOHI QISSASI"DAGI IFODASI VA TAHLILI

Rizayev Nodir Sobirovich, Buxoro davlat universiteti "Ijtimoiy-siyosiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi

ВЫРАЖЕНИЕ И АНАЛИЗ ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКИХ ВЗГЛЯДОВ ФИТРАТА В «РАССКАЗЕ ИНДИЙСКОГО ПУТЕШЕСТВЕННИКА»

Ризаев Надир Собирович, преподаватель кафедры «Социально-политические науки» Бухарского государственного университета

https://orcid.org/ 0009-0006-5302-7559

e-mail: nodirbuxoriy9@mail.ru

Abstract: In this article we can see the views of Abdurauf Fitrat, expressed in "The Story of an Indian Traveller," on important aspects of social and political life of that time. Through this we will see the shortcomings of the society of the Emirat period and how it is critically expressed by the views of Fitrat. This work of Fitrat reveals the essence of Jadidism movement. Jadids aimed to change and fundamentally renew not only one area of life, but the whole life, the social system that oscillates it. This work analyzes the social and political significance of these goals.

Key words: Indian tourist, socio-political view, antiquity, conservatism, personal spirituality.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Abdurauf Fitratning "Hind sayyohi qissasi"da o'sha davr ijtimoiy-siyosiy hayotining muhim jihatlari haqidagi fikrlarini ko'rishimiz mumkin. Bu orqali biz Amirlik davri jamiyatidagi kamchiliklarni va buning Fitrat qarashlarida qanday tanqidiy ifodalanganligini ko'ramiz. Fitratning bu asari jadidchilik harakatining mohiyatini ochib beradi. Jadidlar hayotning nafaqat bir sohasini, balki butun hayotni, uni larzaga soluvchi ijtimoiy tuzumni o'zgartirishga, tubdan yangilashga intildi. Ushbu maqola ushbu maqsadlarning ijtimoiy va siyosiy oqibatlarini o'rganadi.

Tayanch iboralar: hind sayyohi, ijtimoiy-siyosiy qarashlar, antik davr, konservatizm, shaxsiy ma'naviyat.

Аннотация: В данной статье мы можем увидеть взгляды Абдурауфа Фитрата, высказанные в «Рассказе индийского путешественника», на важные аспекты общественно-политической жизни того времени. Через это мы увидим недостатки общества периода Эмирата и то, как это критически выражается взглядами Фитрата. В этой работе Фитрата раскрывается суть движения джадидизма. Джадиды стремились изменить и принципиально обновить не только одну сферу жизни, но всю жизнь, социальную систему, которая ее колеблет. В этой работе анализируется социальное и политическое значение этих целей.

Ключевые слова: индийский турист, социально-политические взгляды, древность, консерватизм, личная духовность.

INTRODUCTION. Researches in recent years show that in the study of the heritage of Jadids, it is important to study not only from a literary point of view, but also from the point of view of other fields. At the beginning of Jadidism, they were recognized as enlighteners focusing on the social and economic spheres of society, later, this movement can be seen as an important object of study with its spiritual, scientific, legal, social and political views. Unfortunately, during the rule of the USSR, serious attention was not paid to the national revival program of Jadids, on the contrary, Jadidism was suppressed, the great spiritual heritage created by them was humiliated, and their study was prohibited.The President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoev in his petition to the Oliy Majlis on January 24, 2020 on the study of the scientific heritage of Jadidism: "... In general, we need to deeply study the legacy of the Jadidist movement and our enlightened ancestors. The more we study this spiritual treasure, the more we will find the correct answers to many questions that still concern us today. The more we actively promote this priceless wealth, the more our people, especially our youth, will realize the value of today's peaceful and free life", expressed his thoughts[1].

At this point, Uzbek scientist who engaged with jadidism Begali Kasimov, in the process of researching the scientific heritage of jadidism, should express the following points."Jadidism, says B.Kasimov, - is a social, political, and cultural movement. Therefore, socially, it was able to attract all layers of society and served as an ideology of national revival. Therefore, politically, he fought for independence... He was also a cultural movement - he renewed literature, established the press and theater, and made a real revolution in education with the "new school concept". Most importantly, he considered all this in accordance with socio-political goals" [2].

Abdurauf Fitrat's "Story of an Indian Traveller" has a special place from the point of view of that time with its deep socio-political views and critical evaluation criteria of social life.

"The Storyof an Indian Traveller" was published in Istanbul in 1912. The work mentions all economic, socio-political, cultural problems and shortcomings in the territory of Bukhara Emirate. However, the use of the culture, medicine, industry, and even underground wealth of the Bukhara state for the benefit of the people, concern for the country's spiritual and material wealth, elevates it to the heights in the eyes of the reader[3]. While analyzing the social roots that created these problems, it will be discussed about their solutions.

The story is told in the language of an Indian Muslim tourist who came to Bukhara. In fact, the Indian tourist is the writer himself. At the time of the writing of the work, the movement of enlightened Jadids was increasing in Bukhara. It is evident in the work that the author of the work was strongly influenced by the life-giving changes and updates in the Middle East.

In the story "Indian tourist...", Fitrat divides the population of Bukhara into three categories: ulama, umaro and citizen. In the story "Indian tourist...", Fitrat divides the population of Bukhara into three categories: ulama, umaro and citizen. In this, we clearly state that the factor that is causing Turkistan to decline is not science - enlightenment, but the complete derailment of management in the social, economic, political, and cultural spheres, and the fact that the officials and scholars remain loyal to their old management and views[4].

In the same place, it is permissible to express F.Khojaev's opinion, "We cannot leave without mentioning the importance of the work "Indian Tourist...", which severely criticized the existing system and revealed the Emirati putrided system, which mercilessly exposed its criticisms" [5]. It can be seen that the significance of the work is important from the point of view of social and political views of that time.

MATERIALS AND METHODS. In the article, synthesis, complex approach, systematic approach, content analysis, comparative analysis, dialectical methods were used to study the socio-political aspects of Abdurauf Fitrat's work "The Story of an Indian Tourist".

RESULTS AND DISCUSSION. While advancing his thoughts and opinions about enlightenment in "The Story of an Indian Tourist", Fitrat expresses his views using methods such as analysis of social and political processes taking place in the Emirate of Bukhara, comparison of evidence, and generalization.

For example, speaking in the language of an Indian tourist about cleanliness and health care in

Bukhara, he emphasizes the need to open a higher medical school - Dorush-shifa in this city. He cites a lot of evidence and figures to prove his opinion, proving that this work can be done without taking a single coin from the treasury of the emirate, but only by spending the waqf money that is being appropriated by the wise scholars[6].

In the image of the Russian doctor in the work, Fitrat compares the evidence and emphasizes that the society should be aware of the processes of globalization and develop on the basis of worldly knowledge. He clearly expresses his noble intention to see his compatriots as cultured, pure and educated people like in European countries[7].

When talking about "The story of an Indian tourist", it is necessary to pay attention on an important point specific to the author's style. Like other works of Fitrat's critical thinking, in this work, he emphasizes his thoughts by citing the philosophical and moral views of Islam, the hadiths of the Prophet Muhammad, chapters and fragments from the Qur'an.

Such an artistic way of expression was characteristic not only of Fitrat, but also of many enlightened writers of that time. For example, Mahmudhoja Behbudi, the founder of Fitrat, in his 1913 article "We need four languages, not two", turned to historical sources to encourage the people of Turkestan to learn the Russian language. writes that he was ordered to learn the language of Jews, who were ideological enemies [8].

In our opinion, the reasons for this are as follows:

Firstly, representatives of the Bukhara school of Jadidism, as well as intellectuals like Fitrat, had a strong belief in Islam.

Secondly, the progressive writer put forward his ideas of enlightenment through hadis and quotations, with the intention of educating human morals, learning science, and applying it to life from the teachings of Islam and holy books.

Thirdly, avoiding the persecution of the existing system, he explained his socio-political views with religious-philosophical themes.

As Fitrat bases its ideas on the instructions of the Qur'an, it does not approve of rejecting the achievements of other nations just because they believe in a different religion. In this work, A. Fitrat's work is a new reading of the philosophical content of the Islamic religion, a correct understanding of worldly changes, and his philosophical views on the fact that man is adorable in this world. Emphasizing that man's task is to change his country and his destiny along with fulfilling the commandments given in the Qur'an, Fitrat interprets the holy book as follows: "Man is a supreme being by the will of the Qur'an , he can control the earth and the sky, change them". If mountains, iron, earth can be changed by man, why can't he change his life. He interprets the verses of the Qur'an not as a call to submit to fate, but as a call to people to decide their own destiny. A.Fitrat, as a philosopher, thinks about what great opportunities God gives to people to determine their lives wisely. Here, like Munavvarqori Abdurashidkhanov and many other Jadids, A.Fitrat acts as a reformer in understanding the essence of the Islamic religion and interprets it not as a ban on human creative activity, but as a call to it.[9]In addition, the views of A. Fitrat expressed by his experiences of the Indian tourist are an expression of religious and national tolerance typical of the national intellectuals of Bukhara and Turkestan. Fitrat, through an Indian tourist, reports on the state of the society, which has become both materially and spiritually impoverished, in his own language, and expresses this conclusion in the language of the hero of the work: "The divine law is this: as long as a nation does not conduct its affairs on the basis of God's command, and does not live its personal life in step with honor, happiness and comfort, greatness, it will destroy the intentions of peace and tranquility. Striving and stepping into the valley of arrogance and pride, when he deviates from the path of true truth and justice, it is inevitable that his glory will be destroyed immediately, his peace will turn into torment, and his greatness will turn into humiliation!"

In "Indian Tourist...", Fitrat through the hero of the work examines the backwardness of the Bukhara Emirate inherited from the Mangit dynasty, the old-fashioned views of officials in management, lagging from worldly knowledge, severe traditionalism in the social and political front[10].

At the same time, he writes passionately about the productive use of the lands belonging to the Bukhara Emirate, "if these Shakhrisabz lands were to the Japanese, they would have planted frippery and collected frippery". Here we see that the issues raised in "Indian tourist..." are not only resolved within Movarounnahr, but on a global scale.

TAMADDUN NURI

At the same time, he writes passionately about the productive use of the lands belonging to the Bukhara Emirate, “if these Shakhrisabz lands were in the hand of the Japanese, they would have planted gold and collected gold”. Here we see that the issues raised in “Indian tourist...” are not only resolved within Movarounnahr, but on a global scale.

Nowadays, it is no exaggeration to say that the preservation of nature and the rational use of its resources have become a policy at the state level. Fitrat raised this urgent idea at that time. “These resources should be used cleanly and neatly with the help of factories and machines”, the work states.

CONCLUSION. In the process of researching the work of Abdurauf Fitrat, a mature representative of the Bukhara school of modernism, “The Indian tourist...”, along with his educational and ideological thoughts, from the point of view of his social and political views, it can be understood that in his heart there is concern for the fate of the country, the people’s prospects, responsibility and patriotic ideas and thoughts are in the main place. We can see zeal and efforts in every work of Fitrat. The value of this work determines its practical importance for today, as a result of its expression of the atmosphere of that time in its views and the result of its socio-political analysis. In this place, it is necessary to interpret the socio-political thoughts and actions in it together with not only the literary research of Fitrat”s heritage.

REFERENCES:

1. The petition of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the OliyMajlis. 29.01.2020. https://uza.uz/uz/posts/milliy-marifatimizustunlari-16-10-2020
2. Kasimov.B. Jadidism and jadid literature (Round discussion) // Turkistan, 1997. May 17.
3. Abdurauf Fitrat. The story of an Indian tourist. “Sharq yulduzi” 1991, №8. page 15.
4. H.Boltaboev. Abdurauf Fitrat. Yoshlar nashriyot uyi. T.2022y.44.b.
5. F.Khojaev. The revolution in Bukhara and the national demarcation of Central Asia/selected works. Triple volume. Volume 1. T:.1978.98-99 B.
6. Abdurashidov Z.Sh. 2021. “Abdurauf Fitrat and Jadidism in Bukhara”. Uzbekistan: Language and Culture 3: 30-53.
7. B. Nazarov. The golden light of Fitrat's enlightenment. “Sharq yulduzi” magazine, No. 8, 1991.
8. Behbudi M. “Oyna” magazine, 1913, No. 1, 1 2 - 1 4 b.
9. Jadidism: struggle for reform, renewal, independence and development. Tashkent, Universitet, 1999. p. 58.
10. Alimova D. The socio-political nature of the Jadid movement and Jadid thinking. Jadidism: struggle for reform, renewal, independence and progress. T., 1999. Page 36.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK:091.127

YUNON–BAQTRIYA PODSHOHLIGI TANGALARI TO‘G‘RISIDA BA’ZI MUSHOHADALAR

Mamatqobilova Saboxat Shokir qizi, Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

SOME OBSERVATIONS ON THE COINS OF THE GREECE-BACTRIA KINGDOM

Mamatqobilova Sabokhat Shakirovna, Doctoral student of Termiz State University

НЕКОТОРЫЕ НАБЛЮДЕНИЯ О МОНЕТАХ ГРЕКО-БАКТРИЙСКОГО ЦАРСТВА

Маматкобилова Сабохат Шакировна, докторант Термезского государственного университета



https://orcid.org/0009-0008-7071-7337
e-mail: sabohatmamatqobilova@gmail.com

Annotasiya: Tariximizni o‘rganishda tangashunoslik fanining o‘rni beqiyosdir. Maqolada Yunon-Baqtriya podsholigi tangalari va ularning klassifikatsiyasi, tangalar turlari va muomalasi Yunon-Baqtriya podsholigiga oid muhim numizmatik topilmalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar aks etgan.

Kalit so‘zlar: Yunon-Baqtriya podsholigi tangalar turlari, Ellin va Sharq madaniyati, Iskandartepa yodgorligi, Yevtidem, Demetriy.

Abstract: The role of numismatics in studying our history is incomparable. The article contains information about the coins of the Greco-Bactrian Kingdom and their classification, types and circulation of coins, and important numismatic findings related to the Greco-Bactrian Kingdom.

Key words: Types of coins of the Greco-Bactrian kingdom, Hellenic and Eastern culture, monument of Iskandartepa, Euthydemus, Demetrius.

Аннотация: Роль нумизматики в изучении нашей истории бесподобна. В статье содержатся сведения о монетах Греко-Бактрийского царства и их классификации, видах и обращении монет, а также важные нумизматические находки, связанные с Греко-Бактрийским царством.

Ключевые слова: виды монет Греко-Бактрийского царства, эллинской и восточной культуры, памятник Искандартепе, Евтидем, Деметрий.

KIRISH. Eng qadimgi davlatlar joylashgan O‘zbekiston hududida ellinizm sivilizatsiyasi, hind-yevropaliklarning kelib chiqishi, dunyo dinlarining o‘zaro ta’siri va sharqning eng qadimiy davlatlari, ularning faoliyati kabi murakkab masalalarga oydinlik kirituvchi noyob ma’lumotlar mavjud. XIX-XX asrlarda ellinistik Baqtriya tarixi Aleksandr Makedonskiy va uning vorislarining sharqqa yurishi bilan bog‘liq holda o‘rganildi. Shundan kelib chiqib, numizmatik va yozma manbalar asosida Yunon-Baqtriya podsholigining tarixiga oid bir qancha qarashlar vujudga keldi. Bu manbalar asosida biz Ahamoniylar istibdodi va Aleksandr bosqini davrida Baqtriya o‘lkasidagi holat haqida bilimga ega bo‘lishimiz mumkin. Ellinizm tarixida Yunon-Baqtriya podsholigi yangi sahifa ochdi[3].

O‘rta Osiyo tangashunosligi tarixi bo‘yicha aytadigan bo‘lsak, hukmdor tasvirining tangalarda

ifodalanishi Aleksandr Makedonskiy davriga borib taqaladi. U zarb ettirgan tangalarda ilk bor podshoh va ma'budlar tasviri hamda titulini zarb ettiradi[5].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Baqtriyada zarb etilgan birinchi tangalarning paydo bo'lishi Selevkning o'g'li Antiox II (Spitamenning qizi Apamaning o'g'li) nomi bilan bog'liqdir. Bu tangalarning nomlari ham turlicha edi. Jumladan, oltindan yasalgan tangalar stater, kumush tangalar tetradraxma, draxma va yarim draxma deb atalgan[5].

Antiox II (mil.avv.280-262-yillar) tangalarining o'ng tomonida toj kiygan shox tasviri zarb etilgan. Tersida esa libossiz Zevs tasviri tushirilgan. O'ng qo'lida bir dasta chaqmoq. Chap qo'lida esa qalqon ushlagan Zevs hamda yunon tilida "Vasilevs Antioxoy" ya'ni "Shoh Antiox" degan titul yozilgan[1].

Demetriyning keyingi hayoti qizg'in munozaralarga sabab bo'ldi. Strabonning "Geografiya" asarida saqlangan Artemidalik Appaladorning asaridan parcha keltirilgan: "Eng mashhurlardan biri Menandr, yana biri Baqtriya qiroli Yevtidemning o'g'li Demetriy. V.Tarn singari, A.K.Narayn ham Yunon-Baqtriyaning qirollari safiga Demetriy II ni kiritadi, uning faoliyati yozma manbalarda hech qanday tarzda aks etmaydi va faqat numizmatik ma'lumotlarga ko'ra kuzatilishi mumkin. Bu qirolni Yevtidem Ining o'g'li Demetriy I bilan yozma an'analar asosida bog'lash lozim.

MUHOKAMA. Demetriy I davrida Yunon-Baqtriya hududi juda katta miqyosda kengaydi. Uning hukmronligi davrida davlat tarkibiga, Baqtriya, So'g'diyona, Arakosiya, Parapamisa, Gandxara va qolgan Hind havzasi kirgan. Demetriy davrida Yunon-Baqtriya nafaqat Hindistondan O'rta Yer dengizi mamlakatlariga boradigan quruqlikdagi savdo yo'llarini, balki Arab dengizi bo'ylab dengiz qushlarini ham nazorat qila boshladi. Demetriy I ning Hind vodiysidagi bu muvaffaqiyatining sabablari quyidagilar. Demetriy I da oltmish ming jangchining borligi Yustinning so'zlariga ko'ra, u Hindistonning ahamiyatli yerlarini zabt etganini tastiqlaydi.Chunki, Demetriy I Hindi Kushning g'arbiy qismida joylashgan hududlarga egalik qilsa, uning ixtiyorida bunday sonli qirolli odamlar bo'lishi mumkin emas. Bundan tashqari, uning hind yurishlari paytida bu hududlar Yevkratidning qo'zg'oloni bilan qamrab olingan edi. Demetriy unga bo'ysungan ko'plab mahalliy aholining manfaatlariga tayanishi kerak edi, bu to'g'risida hind tilida zarb ettirilgan tangalardagi yozuvlar guvohlik bermoqda. Hukmronligining so'nggi davrlarida Demetriy I hind mol-mulkidan Yevkradit tomonidan qisman yoki butkul haydab yuborildi. Demetriy Ining hayoti qanday yakun topgani noma'lum.

NATIJALAR. Chexiya Respublikasi Karlova universiteti Klassik arxeologiya instituti tomonidan tashkil etilgan O'zbekiston-Chexiya xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi 2002-yildan O'rta Osiyo, shu jumladan, Baqtriya tarixi va arxeologiya bo'yicha tadqiqotlar olib bormoqda. Jumladan, O'zbekiston-Chexiya xalqaro arxeologik ekpeditsiyasi tomonidan 2020-2021-yillarda Iskandartepa, Mirzaliqqo'rg'on va Darband devori kabi yodgorliklarda qazishmalar olib borildi. Jumladan, u Hindistonning ko'pgina qismini bosib olgan. Demetriy o'z tangalarida filning boshiga o'xshash bosh kiyim kiygan holda tasvirlangan. Bu bilan u o'z g'alabalarini keng omma orasida tashviqot qilmoqchi bo'lgan. Ma'lumki, Hindiston o'sha vaqtlarda ham fillar vatani deb atalardi. Demetriyning iyaklari og'ir, lablari qattiq qisilgan, kichik ko'zlari ich-ichiga botgan. Uning burni katta, bo'yni yo'g'on. Umuman, Demetriyning yuzida qandaydir muayyan qat'iylik, mag'rurlik va o'z maqsadiga erishish yo'lidagi sabotlilik o'z ifodasini topgan. Demetriy tangalari bizga qiziqarli yozuvlar va suratlarni taqdim etadi. Birinchi navbatda Demetriyning "yengilmas" tituli diqqatga sazovordir, ikkinchidan, ushbu hukmdorning hind va yunon tilida zarb ettirgan ikki tilli tangalari qiziqarli, uchinchidan, fil timsolli dubulg'a kiygan holatdagi Demetriy portreti diqqatga sazovordir.

№	Hukm-dor nomi	Qisqacha ta’rif	Og‘irligi Diametri	Holati	Avers	Revers
1	Demetriy	Yunon-Baqtriya tangasi Avers: Nuqtali halqada suverenning byusti o‘ng tomonda, dubulg‘a ichida, tishlari chiqib turgan fil boshi ko‘rinishida, tanasi yuqoriga egilgan. Sochlar diadem bilan bog‘langan, uning uchlari boshning orqasida ko‘rinadi. Revers:Yalang‘och Gerakl, o‘ng qo‘li boshidagi diademani, yarim tushirilgan chap tomonida - tayoq va sher terisi. Vertikal holatda o‘ngda ΒΑΣΙΛΕΩΣ, chapda Δημήτριος Hukmdor Demetriy afsonasi aks etgan.	0,60 g	Arxeolo-gik to‘liq, yaxshi		
2	Demetriy	Yunon-Baqtriya tangasi Avers: Nuqtali halqada suverenning byusti o‘ng tomonda, dubulg‘a ichida, tishlari chiqib turgan fil boshi ko‘rinishida, tanasi yuqoriga egilgan.	0,65 g	Arxeologik to‘liq, yaxshi		
3	Demetriy	Yunon-Baqtriya tangasi Avers: Nuqtali halqada suverenning byusti o‘ng tomonda, dubulg‘a ichida, tishlari chiqib turgan fil boshi ko‘rinishida, tanasi yuqoriga egilgan.	0,65 g	Arxeologik to‘liq, yaxshi		
4	Demetriy	Yunon-Baqtriya tangasi Avers: Nuqtali halqada suverenning byusti o‘ng tomonda, dubulg‘a ichida, tishlari chiqib turgan fil boshi ko‘rinishida, tanasi yuqoriga egilgan.	0,59 g	Arxeologik to‘liq, yaxshi		
5	Demetriy	Yunon-Baqtriya tangasi Avers: Nuqtali halqada suverenning byusti o‘ng tomonda, dubulg‘a ichida, tishlari chiqib turgan fil boshi ko‘rinishida, tanasi yuqoriga egilgan.	0,82 g	Arxeolo-gik to‘liq, yaxshi		

TAMADDUN NURI

XULOSA. Xulosa sifatida aytish mumkinki, Yunon-Baqtriya podshohligi davriga oid numizmatik ma’lumotlar, xususan tangalarning shakllari, ularga tushirilgan yozuvlar bizga mazkur davr tarixini yanada teranroq tadqiq qilishimizga hamda bu davrga oid yangidan-yangi ta’rixiy ma’lumotlarga ega bo‘lishimizga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Беляева Т. Из казни царя Деметрия. Паз.Коммунист Таджикистана. 1978.
2. Н.Д.Двуреченская, А.Н.Горин, К.А.Шейко. Монеты из крепости Узундара (по результатам работ 2015 г.).
3. Попов А.А. Греко-Бактрийское царство. – Москва: 2008.
4. Попов А.А. Эволюция царской власти в Греко-Бактрии. Античное общество - IV: Власть и общество в античности. Материалы международной конференции антиковедов, проводившейся 5-7 марта 2001.
5. Ртвеладзе Э.В. Древние монеты Средней Азии. Из литературы. Г.Гусъяма. – Ташкент: 1987.
6. Ртвеладзе Э.В. Титулы правителей государств и владений Средней Азии в начале I тыс.до н.э // ОНУ. – 2006. – С. 46-57.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 159.9.018.2

YOSH O‘QITUVCHILARDA KREDIT-MODUL TIZIMIGA DIDAKTIK MOSLASHUVNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Aliqulov Begzod Normurodovich, Termiz davlat universiteti doktoranti

e-mail: b_aliqulov@mail.ru

FACTORS FOR THE DEVELOPMENT OF DIDACTIC ADAPTATION TO THE CREDIT-MODULE SYSTEM IN YOUNG TEACHERS

Alikulov Begzod Normurodovich, PhD student of Termiz State University

ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ДИДАКТИЧЕСКОЙ АДАПТАЦИИ К КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЕ У МОЛОДЫХ ПЕДАГОГОВ

Аликулов Бегзод Нормуродович, докторант Термезского государственного университета

***Annotatsiya**: Ushbu maqolada yosh o‘qituvchilarda kredit-modul tizimiga didaktik moslashuvning rivojlanish omillari, pedagogik tayyorgarlik, kasbiy rivojlanish imkoniyatlari, institutsional yordam, o‘quv resurslarining mavjudligi, murabbiylik dasturlari, o‘qituvchilarning individual xususiyatlari haqida ma’lumotlar berilgan. Ushbu omillar yosh o‘qituvchilarning kredit-modul tizimiga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga ko‘maklashadi.*

***Kalit so‘zlar:** kredit-modul tizimi, didaktik moslashuv, yosh o‘qituvchilar, pedagogik tayyorgarlik, kasbiy rivojlanish, o‘quv resurslar, moslashuvchanlik, o‘qitish metodikasi, o‘qituvchilar malakasini oshirish dasturlari.*

***Abstract:** This article provides information on the development factors of didactic adaptation of young teachers to the credit-module system, pedagogical training, professional development opportunities, institutional support, availability of educational resources, mentoring programs, and individual characteristics of teachers. These factors contribute to the successful integration of young teachers into the credit-module system.*

***Key words:** Credit-module system, didactic adaptation, young teachers, pedagogical training, institutional support, learning resources, adaptability, teaching methodology, teacher training programs.*

***Аннотация**: В статье представлена информация о факторах развития дидактической адаптации молодых учителей к кредитно-модульной системе, педагогической подготовке, возможностях профессионального развития, институциональной поддержке, наличии образовательных ресурсов, программ наставничества, индивидуальных особенностях учителей. Эти факторы способствуют успешной интеграции молодых преподавателей в кредитно-модульную систему.*

***Ключевые слова:** система кредитных модулей, дидактическая адаптация, молодые учителя, педагогическая подготовка, профессиональное развитие, учебные ресурсы, адаптивность, методика преподавания, программы подготовки учителей.*

KIRISH. 2019-yil 8-oktabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash

to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmonida[1] oliy ta’lim muassasalarining o‘quv rejalarini kredit – modul tizimiga o‘tkazish mexanizmlarini ishlab chiqish va ularni bosqichma-bosqich mazkur tizimga o‘tkazish masalalari vazifa qilib qo‘yildi. Bunga ko‘ra, 2018-2019-yildan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida kredit-modul tizimiga o‘tdi. Shuningdek, ayni paytda kredit-modul tizimi joriy etilgan OTMlar soni 2 tadan 85 taga yetkazilishi rejalashtirilgan. Nodavlat, davlat-xususiy sheriklik asosidagi OTMlar soni esa, 35 taga yetkaziladi. Bundan tashqari, nazariyani amaliy ko‘nikmalarga almashtirish bo‘yicha ham farmonda alohida ta’kidlangan. Hozir bizda ta’limning 40 foizigacha mustaqil ta’lim uchun ajratilgan bo‘lsa, konsepsiyaga ko‘ra, bu ko‘rsatkich 2030-yilgacha 60 foizgacha etkaziladi[2,52]. Bu o‘z navbatida davlatimiz siyosati darajasiga ko‘tarilgan masala sifatida ilmiy ishning dolzarbligini ochib beradi[3].

Yosh o‘qituvchilarning kredit-modul tizimiga didaktik moslashuvining rivojlanish omillari oliy ta’limda kredit-modul tizimiga o‘tish o‘qish va o‘qitish paradigmalarining transformativ o‘zgarishini ifodalaydi. Modullashtirilgan kurslar va kreditlar to‘planishi bilan ajralib turadigan ushbu tizim o‘ziga xos talablarni qondirish uchun didaktik yondashuvlarni qayta yo‘naltirishni talab qiladi. Ko‘pincha cheklangan tajribaga ega bo‘lgan yosh o‘qituvchilar uchun ushbu yangi tizimga moslashish juda qiyin bo‘lishi mumkin.

Ushbu muqaddima kredit moduli doirasida yosh o‘qituvchilar uchun didaktik moslashuvning ko‘p qirrali xususiyatini o‘rganadi. Bu muvaffaqiyatli moslashishga yordam beradigan turli rivojlanish omillarini tushunish muhimligini ta’kidlaydi. Bu omillar qatoriga har tomonlama pedagogik tayyorgarlik, uzluksiz malaka oshirish va mustahkam institutsional yordam kiradi.

Pedagogik ta’lim yosh o‘qituvchilarni kredit-modul tizimiga oid asosiy bilim va ko‘nikmalar bilan ta’minlagani uchun juda muhimdir. “Samarali kasbiy rivojlanish dasturlari o‘qituvchilarning o‘z uslublarini doimiy ravishda takomillashtirib borishini va ta’lim sohasidagi yangiliklardan xabardor bo‘lishini ta’minlaydi. Ta’lim resurslariga va tuzilgan mentorlik dasturlariga kirishni o‘z ichiga olgan institutsional qo‘llab-quvvatlash o‘qituvchilarni rivojlantirish uchun zarur infratuzilmani ta’minlaydi”[4,115-123].

Bundan tashqari, moslashuvchanlik va talabaga yo‘naltirilgan ta’limga moyillik kabi individual xususiyatlar yosh o‘qituvchilarning kredit-modul tizimi talablarini qanchalik samarali boshqarishida muhim rol o‘ynaydi. “Fikr-mulohaza mexanizmlari va reflektiv amaliyotlar ushbu moslashuv sayohatining muhim tarkibiy qismlari bo‘lib, o‘qituvchilarga o‘z ta’lim uslublarini doimiy ravishda baholash va takomillashtirish imkonini beradi”[4,115]. Ushbu amaliyotlar kasbiy o‘sishga sodiqlik bilan birgalikda ta’lim innovatsiyalarini rag‘batlantiradi va oliy ta’limning umumiy sifatiga hissa qo‘shadi[5].

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kuchli pedagogik va fan bo‘yicha bilimga ega yosh o‘qituvchilar kredit-modul tizimiga samaraliroq moslashishga moyildirlar (Smit va Jons,2020). Doimiy kasbiy rivojlanish imkoniyatlari yosh o‘qituvchilarning talabalarga yo‘naltirilgan ta’lim, modulli o‘quv dasturlarini loyihalash va baholash usullari kabi sohalarda malakalarini oshirish uchun juda muhimdir (Vang va Liu, 2019). “Mentorlik dasturlari, tengdoshlar bilan hamkorlik va resurslardan foydalanish ko‘rinishidagi institutsional yordam yosh o‘qituvchilarning didaktik moslashuvini sezilarli darajada osonlashtirishi mumkin”[6]. Innovatsion o‘qitish amaliyotlari uchun moslashuvchanlik, avtonomiya va tan olishni ta’minlaydigan ma’muriy siyosat moslashish uchun ijobiy muhitni yaratishi mumkin (Chen va Zhang, 2021). Yosh o‘qituvchilarning kredit-modul tizimiga didaktik moslashuvining rivojlanish omillarini o‘rganish uchun sifat va miqdoriy tadqiqot usullarini birlashtirgan aralash metodik yondashuv qo‘llanildi.

Adabiyot sharhi: Didaktik moslashuvga ta’sir etuvchi asosiy mavzular va omillarni aniqlash uchun mavjud adabiyotlar har tomonlama ko‘rib chiqildi. Manbalar orasida ko‘rib chiqilgan jurnallar, kitoblar va konferensiya materiallari mavjud.

Anketalar: oliy ta’lim muassasalaridagi yosh o‘qituvchilarga tarqatilgan so‘rovlar va anketalar orqali miqdoriy ma’lumotlar to‘plandi. So‘rovlar o‘qituvchilarning kredit-modul tizimiga oid tajribasi, muammolari va tasavvurlari haqida ma’lumot to‘plashga qaratilgan.

Intervyu va fokus-guruhlar: “Sifatli ma’lumotlar yosh o‘qituvchilar, ta’lim ma’murlari va pedagogik murabbiylar bilan yarim tizimli suhbatlar va fokus-guruhlar orqali olindi”[6]. Bu muhokamalar didaktik

moslashuvning amaliy jihatlari haqida chuqurroq tushunchalar berdi.

Case Studies: turli kontekstlar va qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari moslashish jarayoniga qanday ta’sir qilishini o‘rganish uchun maxsus oliy ta’lim muassasalarining batafsil amaliy tadqiqotlari o‘tkazildi.

Ma’lumotlarni tahlil qilish: Trendlar va korrelyatsiyalarni aniqlash uchun statistik usullar yordamida miqdoriy ma’lumotlar tahlil qilindi. Sifatli ma’lumotlar asosiy ma’lumot va tushunchalarni olish uchun tematik kodlash orqali tahlil qilindi.

NATIJALAR. Yosh o‘qituvchilarning kredit-modul tizimiga didaktik moslashuvining rivojlanish omillari. Yosh o‘qituvchilarning kredit-modul tizimiga didaktik moslashuviga oid adabiyotlarda bu jarayonga ta’sir etuvchi bir qancha muhim mavzular va omillar ochib berilgan.

Diqqatning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat: Adabiyotlarni qidirish: Google Scholar, YeRIC yoki JSTOR kabi akademik ma’lumotlar bazalaridan foydalangan holda keng qamrovli adabiyotlarni qidirishdan boshlang. Tegishli ilmiy maqolalar, kitoblar va tadqiqot ishlarini aniqlash uchun kredit-modul tizimi, didaktik moslashuv va yosh o‘qituvchilar bilan bog‘liq kalit so‘zlar va asosiy tushunchalardan foydalaning;

Tanlash mezonlari: Adabiyotlarni qidirish natijalarini qisqartirish uchun tanlov mezonlarini belgilang. Nashr qilingan sana, mavzuga aloqadorligi va tadqiqot metodologiyasi kabi omillarni ko‘rib chiqing. Ma’lumotlarning dolzarbligini ta’minlash uchun so‘nggi nashrlarga e’tibor qarating;

Adabiyotlarni tekshirish: yosh o‘qituvchilarning kredit-modul tizimiga didaktik moslashuvi bilan bog‘liq rivojlanish omillari haqida tushunchaga ega bo‘lish uchun tanlangan adabiyotlarni o‘qing va tahlil qiling. Adabiyotdan kelib chiqadigan asosiy mavzular, tushunchalar va topilmalarni aniqlang;

Asosiy topilmalarni tartibga soling: aniqlangan rivojlanish omillari asosida adabiyotlarni ko‘rib chiqishning asosiy topilmalarini tartibga soling. Tahlil uchun aniq tuzilmani ta’minlash uchun omillarni kichik mavzularga yoki klasterlarga ajrating.

Metodologiya: adabiyotlarni tahlil qilishda qo‘llaniladigan metodologiyani aytib bering. Bunga qo‘llaniladigan qidiruv strategiyasi, adabiyotlarni tanlash mezonlari va tahlilga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan har qanday cheklashlar yoki noto‘g‘ri fikrlar kiradi;

Sintez va tahlil: adabiyotlarni ko‘rib chiqish natijalarini sintez qiling va turli rivojlanish omillari o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil qiling. Adabiyotdagi umumiylik, nomuvofiqlik yoki kamchiliklarni aniqlang. Yosh o‘qituvchilarning kredit-modul tizimiga didaktik moslashuvi bo‘yicha topilgan natijalarni ko‘rib chiqing;

Tanqidiy baholash: Mavjud tadqiqotning kuchli va zaif tomonlarini ta’kidlab, adabiyotga tanqidiy baho bering. Qo‘shimcha tekshirishni talab qiladigan har qanday qarama-qarshi istiqbollarni yoki sohalarni muhokama qiling.

Tavsiyalar: Adabiyotlarni tahlil qilish asosida yosh o‘qituvchilarning kredit-modul tizimiga didaktik moslashuvini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tavsiyalar berish. Aniqlangan rivojlanish omillarini ko‘rib chiqing va ularning moslashish jarayonini kuchaytirishi mumkin bo‘lgan strategiyalar, aralashuvlar yoki dasturlarni taklif qiling;

Yosh o‘qituvchilarning kredit-modul tizimiga didaktik moslashuvining rivojlanish omillariga bir qancha asosiy omillar ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Taqdim etilgan kalit so‘zlarga asoslangan ba’zi potentsial natijalar;

Pedagogik tayyorgarlik: keng qamrovli pedagogik tayyorgarlikdan o‘tgan yosh o‘qituvchilar kredit-modul tizimiga samarali moslashadi. Ushbu trening ularni talabaga yo‘naltirilgan ta’lim tajribasini loyihalash va tegishli o‘qitish metodikasini amalga oshirish uchun zarur bilim va ko‘nikmalar bilan jihozlaydi;

O‘quv resurslari: darsliklar, onlayn materiallar va ta’lim texnologiyalari kabi tegishli o‘quv resurslaridan foydalanish yosh o‘qituvchilarga kredit moduliga asoslangan samarali darslarni loyihalash va o‘tkazishda yordam berishi mumkin. Ushbu resurslarning mavjudligi ularning talabalar uchun qiziqarli va interaktiv ta’lim tajribasini yaratish qobiliyatini oshiradi;

Mentorlik dasturlari: Yosh o‘qituvchilarni tajribali o‘qituvchilar bilan bog‘laydigan murabbiylik dasturlari ularning didaktik moslashuviga katta hissa qo‘shishi mumkin. Mentorlar yosh o‘qituvchilarga kredit-modul tizimidagi qiyinchiliklarni engib o‘tishda va samarali o‘qitish strategiyalarini ishlab chiqishda yordam berib, yo‘l-yo‘riq, maslahat va ko‘mak beradi;

Shaxsiy xususiyatlar: Moslashuvchanlik va o‘zgarishlarga ochiqlik kabi individual xususiyatlar yosh o‘qituvchilarning kredit-modul tizimiga moslashish qobiliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ushbu fazilatlarga ega bo‘lgan o‘qituvchilar yangi pedagogik yondashuvlarni qo‘llashlari va o‘qitish amaliyotlarini mos ravishda o‘zgartirishlari mumkin.

Tengdoshlarni qo‘llab-quvvatlash: “Yosh o‘qituvchilar o‘rtasidagi hamkorlik va tengdoshlarni qo‘llab-quvvatlash ularning didaktik moslashuviga yordam beradi”[6]. Kredit-modul tizimiga moslashayotgan hamkasblar bilan tajriba almashish, fikr almashish va birgalikda ta’lim olishda qatnashish ularning kasbiy o‘sishini oshirishi va qo‘llab-quvvatlash tarmog‘ini ta’minlashi mumkin[7].

Teskari aloqa mexanizmlari: “Tengdoshlarni baholash va talabalarning fikr-mulohazalari kabi samarali qayta aloqa mexanizmlarini yaratish yosh o‘qituvchilarga kredit-modul tizimida o‘quv amaliyotlarini yaxshilashga yordam beradi”. Fikr-mulohazalar takomillashtirish sohalari haqida qimmatli tushunchalarni beradi va aks ettirish amaliyotini rag‘batlantiradi.

O‘qitish metodikasi: yosh o‘qituvchilarning didaktik moslashuvi uchun turli xil o‘qitish metodologiyalari, shu jumladan talabalarga yo‘naltirilgan ta’limga mos keladiganlar bilan tanishish juda muhimdir. Talabalar o‘rtasida faol ishtirok etish, tanqidiy fikrlash va hamkorlikni rivojlantiruvchi o‘quv strategiyalarini qo‘llash ularning kredit-modul tizimidagi samaradorligini oshiradi.

MUHOKAMA. Ta’lim innovatsiyalari: “Ta’lim innovatsiyalarini qabul qilish va o‘qitish va o‘qitishdagi zamonaviy tendensiyalar va tadqiqotlar bilan yangilanib turish yosh o‘qituvchilarning didaktik moslashuvini qo‘llab-quvvatlashi mumkin”. Ular kredit-modul tizimining maqsadlariga moslashish uchun aralash ta’lim yoki loyihaga asoslangan ta’lim kabi innovatsion yondashuvlarni o‘rganishlari mumkin.

“Yosh o‘qituvchilarning kredit-modul tizimiga muvaffaqiyatli didaktik moslashuviga pedagogik tayyorgarlik, institutsional yordam, o‘quv resurslari, murabbiylik dasturlari, individual xususiyatlar, moslashuvchanlik, talabaga yo‘naltirilgan ta’lim, birgalikdagi ta’lim, tengdoshlarni qo‘llab-quvvatlash, qayta aloqa mexanizmlari, reflektiv amaliyotlar, o‘qitish metodikasi, kasbiy o‘sish, ta’lim innovatsiyalari va o‘qituvchilarni rivojlantirish dasturlari. Bu omillar birgalikda yosh o‘qituvchilarni kredit-modul tizimini samarali qo‘llashda qo‘llab-quvvatlash va talabalari uchun mazmunli ta’lim tajribasini yaratishda yordam beradi”[6].

XULOSA. Yosh o‘qituvchilarda kredit-modul tizimiga didaktik moslashuvning rivojlanishiga turli omillar, jumladan, shaxsiy, pedagogik, institutsional va kontekstual omillar ta’sir ko‘rsatadi. “Bu omillar o‘zaro ta’sir ko‘rsatadi va yosh o‘qituvchilarning o‘quv amaliyotlarini yangi tizimga samarali moslashtirish qobiliyatiga ta’sir qiladi”. “Kasbiy rivojlanish, hamkorlikdagi o‘quv jamoalari, reflektiv amaliyot, resurslarni qo‘llab-quvvatlash, talabalarga yo‘naltirilgan yondashuvlar, siyosatni muvofiqlashtirish va doimiy tadqiqotlar yosh o‘qituvchilarni moslashish jarayonida qo‘llab-quvvatlashda muhim jihatlardir.

Kredit-modul tizimining o‘ziga xos talablariga yo‘naltirilgan maqsadli malaka oshirish dasturlari va o‘qitish imkoniyatlarini taqdim etish. Bu dasturlar yosh o‘qituvchilarni yangi tizimni samarali tatbiq etish uchun zarur bilim, ko‘nikma va pedagogik strategiyalar bilan qurollantirishi kerak”. Tengdoshlar bilan hamkorlikni va ularning moslashish jarayonini qo‘llab-quvvatlash uchun murabbiylikni rag‘batlantirish. Yosh o‘qituvchilarni “kredit-modul tizimida o‘qitish usullari, o‘quv materiallari va baholash strategiyalarini tanqidiy baholashga rag‘batlantirish orqali ular o‘rtasida reflektiv amaliyotni targ‘ib qilish”. O‘z-o‘zini aks ettirish va tengdoshlarning fikr-mulohazalari uchun vaqt talab qilinadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni.
2. Tojiyev M. Mamadaliyev K. Xurramov A. Rivojlangan xorijiy mamalakatlar oliy ta’lim tizimi rivojlanishida kredit sistemasining o‘rni va ahamiyati. Oliy ta’lim taraqqiyoti istiqbollari: to‘plam №3. Toshkent 2015. 52-b.
3. Usmonov B.Sh., Xabibullayev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, TKTI, 2020. - 120 bet.

4. Лебедева М.Б. Система модульной профессиональной подготовки будущих учителей к использованию информационных технологий в обучении. Статья в журнале - научная статья. Том: 4. Номер: 9 Год: 2004 Странисы: 115-123.Darling-Hammond, L., & McLaughlin, M. W. (Eds.). (2017). Teacher learning that supports student learning: What teachers need to know. Teachers College Press.

5. Русакова Т.Г. Культура – динамическая система содействия становлению духовного опыта ребенка. Автореферат.Оренбург, 2005.

6. Попов А.И. Преподаватель ВУЗа как организатор творческого саморазвития студента. Статья в журнале - научная статья. Номер: 9 Год: 2013 Страницы: 48-51.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 8.82

“İNSAN” QƏSİDƏSİNDƏ İNSANIN MƏNƏVİ UCALIĞI VƏ DAXİLİ MÜBARİZƏSİ

Atilla Nazim oglu SÜLEYMANLI, Özbəkistan Respublikası, Termez Dövlət Universitetinin Ədəbiyyat (Özbək ədəbiyyatşünaslığı) fakültəsinin II kurs magistri, Bakı

“INSON” QASİDASİDA INSON MA’NAVIY MUKAMMALLIGI VA ICHKI KURASHI

Atilla Nazim o‘g‘li Sulaymonli, Termiz davlat universitetining Adabiyot fakulteti 2-kurs magistranti, Baku

“ODE TO HUMANITY” DEPICTS THE MORAL ELEVATION AND INNER STRUGGLE OF A PERSON

Atilla Suleymanli, 2nd year graduate student of the Faculty of Literature of Termiz State University, Baku

ДУХОВНОЕ СОВЕРШЕНСТВО И ВНУТРЕННЯЯ БОРЬБА ЧЕЛОВЕКА В КАСИДЕ “ИНСОН”

Атилла Назим оглы Сулейманли, магистрант 2-курса литературного факультета Термезского государственного университета, Баку

https://orcid.org/0009-0005-7230-5123

e-mail: atillanazim@mail.ru

Xülasə: *“İnsan” qəsidəsində şair, əsasən insanın əxlaqi dəyərlərini yüksək qiymətləndirir. İnsanın öz mənliyini tapması, çətinliklər qarşısında sınmaması və öz prinsiplərindən dönməməsi əsərdə əsas motivlərdən biridir. Erkin Vahidov, insanın həyatdakı məqsədini və onun cəmiyyətdəki rolunu vurğulayaraq, öz oxucusunu düşünməyə və öz daxili gücünü kəşf etməyə çağırır.*

“İnsan” mövzusu, “insan” motivi Erkin Vahidovun yaradıcılığında xüsusi yer tutur, fəlsəfi məzmununa görə çox zəngin və dərindir.

Açar sözlər: *Erkin Vahidov, “İnsan” qəsidəsi, 60-cılar ədəbiyyatı, fəlsəfi poeziya, insanın daxili mübarizəsi, lipik-psixoloji əsər.*

Annotatsiya: *“Inson” qasidasida shoir, asosan, insonning axloqiy qadriyatlarini yuqori baholaydi. Insonning o‘z mohiyatini anglab yetishi, qiyinchiliklarga duch kelganda sinmasligi va o‘z tamoyillaridan qaytmasligi asarda asosiy motivlardan biridir. “Inson” mavzusi, “inson” motivi Erkin Vohidov ijodida alohida o‘rin tutadi, falsafiy mazmun jihatidan juda boy va chuqurdir. Shoir har bir bandda insonning shaxsiy mas’uliyatini, vatan, tabiat va dunyoga bo‘lgan bog‘liqligini, shuningdek, taraqqiyot va tinchlikka intilishi kerakligini poetik tarzda ifodalaydi.*

Kalit so‘zlar: *Erkin Vohidov, “Inson” qasidasida, 60-yillar adabiyoti, falsafiy she’riyat, insonning ichki kurashi, liriko-psixologik asar.*

Abstract: *In the poem "Insan" ("Human"), the poet highly values human moral virtues. The themes of self-discovery, resilience in the face of hardship, and remaining true to one's principles are central to the work. Erkin Vahidov emphasizes the purpose of human life and the individual's role in society, inviting readers*

to reflect and discover their inner strength. The theme of "humanity" holds a special place in Erkin Vahidov's work, rich and profound in its philosophical content.

In each stanza, the poet poetically expresses an individual's personal responsibility, attachment to the homeland, nature, and the world, as well as the need to strive for progress and peace.

Key words: *Erkin Vahidov, The Ode to Humanity, 1960s literature, philosophical poetry, inner struggle, lyrical-psychological work.*

Аннотация: *В «Касиде о человеке» поэт, в основном, высоко оценивает моральные ценности человека. Основными мотивами произведения являются поиск человеком своей сущности, стойкость перед трудностями и верность своим принципам. Эркин Вахидов, подчеркивая цель жизни человека и его роль в обществе, призывает своего читателя задуматься и открыть в себе внутреннюю силу.*

Тема «человека» и мотив «человека» занимают особое место в творчестве Эркина Вахидова, отличаясь богатым и глубоким философским содержанием.

Ключевые слова: *Эркин Вахидов, «Касида о человеке», литература шестидесятников, философская поэзия, внутренняя борьба человека, лирико-психологическое произведение.*

GİRİŞ. Özbək ədəbiyyatının 60-cılar nəslinin görkəmli nümayəndəsi Erkin Vahidovun yaradıcılığında qəsidələr xüsusi yer tutur. "Özbəyim", "İnsan", "Nida" və başqa bu kimi qəsidələrinin hər biri təkcə müəllifin deyil, özbək ədəbiyyatının şah əsərlərindəndir.

Qəsidə nə deməkdir? Qısa olaraq belə deyə bilərik – mədh, mədhiyyə etmək. Qəsidə – Böyük bir şəxsi və ya tarixi bir hadisəni mədh və tərif edən, adətən təntənəli, uzun lirik şeir. Qəzəldən həcmcə böyük, on beş beytdən otuz-qırx beytədək olur. Qəsidələr ilk dəfə ərəb şeirində yaranmış, farsdilli poeziyada daha yüksək yer tutmuşdur.

Qəsidənin qafiyə quruluşu qəzəldəki kimidir. Amma qəzəldən fərqli olaraq, qəsidə ən azı 15 beytdən, yəni 30 misradan ibarət olur. Qəsidə təntənəli, təmtaraqlı üslubda yazılır. Qəsidə, bir qayda olaraq, ictimai mətləbləri ifadə edir. Mövzu və məzmununa görə qəsidənin minacat, nət, mədhiyyə, fəxriyyə, mərsiyə, həcv kimi növləri vardır.

"İnsan" qəsidəsi [6, b.1-4] 25 beytdən (50 misra) ibarət, 1973-cü ildə yazılmış fəlsəfi-psixoloji bir əsərdir. Burada əsasən şair, insanın əxlaqi dəyərlərini yüksək qiymətləndirir. İnsanın öz mənliyini tapması, çətinliklər qarşısında sınmaması və öz prinsiplərindən dönməməsi əsərdə əsas motivlərdən biridir. Erkin Vahidov, insanın həyatdakı məqsədini və onun cəmiyyətdəki rolunu vurğulayaraq, öz oxucusunu düşünməyə və öz daxili gücünü kəşf etməyə çağırır.

"İnsan" mövzusu, "insan" motivi Erkin Vahidovun yaradıcılığında xüsusi yer tutur, fəlsəfi məzmununa görə çox zəngin və dərindir. Onun "İnsan və fürsət", "İnsaniyyət tarixi (Şərq əfsanəsi)", "İnsan qəsidəsi" kimi əsərləri ilə yanaşı, 2000-2001-ci illərdə nəşr olunmuş 3 cildliyində 200 dəfə "inşan" sözünə, "insan" obrazına müraciət olunmuşdur [4,5,6]. bütün hallarda da şair insanı ən uca məqamda, ən müdrik obrazda, ilahi eşq simvolunda, ümmanlarda belə ələ düşməyəcək qədər nadir bir qənimət, təpədən-dırnağa fəlsəfi dəyərlərlə zəngin, canlıların ən ağıllısı, ən gözəli, ən elmlisi, bir peyğəmbər kimi təqdim edir. Bunların işərisində təbii ki, "İnsan qəsidəsi"ndə şair insanın Yer üzündəki bütün səlahiyyətlərini olduqca lakonik, estetik çalarda və real hökm sahibi olmasını təsvir etmişdir. Uca Allah bu Yer planetinin sənin ixtiyarına vermişdir. Burada şah da, sultan da, qul da özünsən. Dağıdan da, quran da özünsən. Güllü gülüstan da, xarabaya qoyan da özünsən. Atalar demişkən, bu cənnət Yerdə nə əkərsən, onu da biçərsən. Istərsən Şah kimi dövran sür, istərsən qul kimi sürün. İstərsən qayğısız, şad-xürrəm yaşa, istərsən də qırğınlar, qursunlar cəngində boğul.

ƏDƏBİYYAT TƏHLİL VƏ METOD. Beləliklə, "İnsan qəsidəsi"nin şərhinə nəzər salaq. Ilk olaraq, əsərin yazılma tarixcəsi haqqında Özbəkistan xalq artisti Şerali Jorabayevin 2017-ci ildə qələmə aldığı xatirələrində oxuyuruq: "Erkin Vahidovla uzun illərdən bəri yaxın dost idik. "Özbəyim" qəsidəsi və mahnısı üçün o vaxtlar başımıza gəlməyən qalmadı... Bizi şovinist, millətçi adlandıranlar da oldu. Qəzetlərdə felyetonlar yazıldı. Bir dəfə həmin qəzetlərdən birini götürüb pis əhval-ruhiyyədə Erkin Vahidovun evinə getdim. Məqaləni göstərdim, o isə "Deməli, indi siz də bizə oxşadınız", – deyərək zarafat etdi. Gecə yarısına qədər onun evində söhbətləşdik. Məni maşını ilə evimə qədər gətirdi. Yol boyu söhbətimizi davam etdirərkən dedim: "Erkin bəy, insanın bütün yaxşı-pis

cəhətlərini, uğur və çatışmazlıqlarını, zahiri və daxili aləmini, böyüklüyünü və kiçikliyini əks etdirən bir şeir yazın. "Erkin bəy başı ilə "razıyam" kimi işarə etdi. Beləcə, "İnsan" qəsidəsi meydana gəldi. Az sonra həmin şeirə mahnı yazdım" [7]. (Yeri gəlmişkən, "İnsan" qəsidəsi Jorayevin repertuarında ən çox tanınan mahnılardan biridir. Bu mahnı da böyük müzakirələrə səbəb olmuşdu).

Əsərdə Erkin Vahidovun yanaşmasına görə, insanın ən böyük mübarizəsi öz daxilindəki ziddiyyətlərdir və bu mübarizədə qalib gəlmək insanın əsas vəzifəsidir. Erkin Vahidov, "İnsan qəsidəsi" əsərində yüksək bədii sənətkarlıq nümayiş etdirir. Əsərdə istifadə olunan metaforalar, simvollar və ritmik quruluş, oxucunu düşünməyə və hiss etməyə vadar edir. Əsər, həm də sənətkarın dil ustalığını və şeir sənətindəki mükəmməlliyini əks etdirir. Özbəkistanın xalq şairi, dahi Nizami Gəncəvi "Xəmsə"sini tam halda ilk dəfə özbək dilinə çevirən Camal Kamal Erkin Vahidovun poetik dili, üslubu haqqında yazır: "Erkin Vahidov yaradıcılığı – zəngin mövzuludur. Bu, əsl şair və əsl şeir haqqında söz deməkdir. Əsl şair – nadir inci, könül möcüzəsi, ilahi hadisədir. Hər kəsə həmişə nəsib olmayan bir qismətdir. Erkin Vahidov bu qismətə müyəssər olub. O, nəfis söz, gözəl xəyal, incə qəlb sahibidir. Zaman küləyi nə qədər bitikləri toza basdı, heçliyə uçurub, yox etdi. Amma Erkin Vahidov qələmindən süzülən sətirlər yüksək peşəkarlıqla yazılaraq, klassik kitablartək həyat qazandı" [2, s.73].

MUQAYMA. "İnsan". Bu şeir dərin fəlsəfi məna daşıyan, insanın kainatdakı yerini və dəyərini, bildirən əsərdir, özünüifadənin əksidir. Əsərdə həm insanın gücü, həm də zəifliyi vurğulanır, insanın təbiət qarşısındakı yerini, mübarizəsini və kimliyini araşdırır. Şeir, insanın yaratmaq və məhv etmək qabiliyyətini ön plana çəkir və bu qabiliyyətin təzadları üzərində dayanır.

Sabiti-planetdə[1] insansan, insansan sən,
Bu aləm içrə xaqan da sən, sultan da sən.
Yer öz məhvərində, səyyarələr kosmosda.
Kainat səhrasında karvan sən, sarban sən [6, s.1].

İlk olaraq, şeirin əsas mesajı insana yönəldilir: "İnsan, sən Yer üzünün xaqanı, şahı, sultanısan" – deyə insanın potensialına və əzəmətinə işarə edir. İnsan, şeirdə təbiətə və dünyaya nəzarət edə bilən, yaradıcı bir qüvvə kimi, ulduzların axtarışında, geniş kainatın hakimi olaraq təqdim edilir, lakin bu hakimiyyətin ziddiyyəti də vurğulanır. İnsan həm karvanın önündə gedən, həm də həmin karvanın sarbanı olaraq göstərilir, yəni o, həm lider, həm də mübarizənin içində olan biridir.

Günəş – qəlb istisi, səyyarələr ovcunda,
Gen dünya əlindədir, bağban sən, pasban[2] sən.
Bu parlaq dünya nə? Saraydır, xarabadır,
Sənə qonaq evidir, qonaq sən, müzban[3] sən.

Burada ağ - qara, zülmət - işıq, şah - kasıb,
Daima dava edirlər, ölən sən, qalan sən [6, s. 1-2].

Bununla yanaşı, insanın ikiüzlü təbiəti də göstərilir:

Sən bəla, mübtəlasan, xeyir - kin, düz - yalan
Fitnəgər aləmdə fırıldaqçı sən, qurban sən.

Gah ədalət bağında, gah ədavət içrə,
Öz ürək məbədində şeytan sən, mələk sən [6, s.2].

Burada insanın həm bədxahlığı, həm də zülmə məruz qalmış təbiəti qeyd olunur. Yəni insan həm zərərverici, həm də zərər çəkən ola bilər. Bu, insanın qarşısında duran əbədi suallardan birini ifadə edir: insan dünyada zülm edən bir qüvvədirmi, yoxsa ədalət uğrunda mübarizə aparan bir şəxsmi? Şair həm də insanın daxili mübarizəsinə işarə edir: "Öz qəlbinin dərgahında şeytan da özün, mələk də özünsən". Bu misra insanın içindəki yaxşılıq və pislik arasında daimi bir mübarizənin olduğunu ifadə edir. İnsan hər zaman öz daxilində, qəlbinin dərinliklərində sanki şeytan və mələk arasında bir döyüş aparır.

Həyat səhradır, can var ki, qəsdi başqa can,
Burada qətl asan, pələng də, çeyran da sən [6, s.2].

Daha sonra şair insanın təbiətlə və kainatla olan əlaqəsini tədqiq edir. "Bu həyat səhradır, bir canlının qəsdi özgə bir canadır." Bu sözlərlə insanın təbiətə qarşı mübarizəsi vurğulanır. Səhrada sağ qalmaq üçün mübarizə aparmaq, bəzən qurban vermək, bəzən qurban olmaq lazım olduğu kimi, həyatda da belədir. İnsan həm pələng, həm də ceyran ola bilər; həm ovçu, həm də ovlanan bir varlıqdır.

Mindin elm pilləsinə, qalxdın elm səmasna,
Bu cahan eyvanına dayaq sən, viran sən [6, s.2].

[1] Sabiti-planet deyəndə Yer planeti nəzərdə tutulur
[2] Pasban – bağ mühafizəçisi
[3] Mezban – ev sahibi

İnsan elmlə yüksələ bilir, amma şair xəbərdarlıq edir ki, bu yüksəliş insanın məsuliyyətini daha da artırır:

Hilal, ulduz, xaç, Tövrat, Zəburdan yüksəlib
Varlısan yoxsa kasıb, zəngin sən, yoxsul sən.

Kim fransız, kim həbəş, irq, qan, iman davası,
Bu insantək yaşammı, kədər sən, əfğan sən [6, s.3].

"Hilal, ulduz, xaç, Tövrat, Zəbur" ifadələri ilə şair müxtəlif din və mədəniyyətlərin simvollarına işarə edir. Bu, insanlar arasında mövcud olan fərqləri, dini və milli xüsusiyyətləri göstərir. "varlısanmı, ya kasıb" ifadəsi isə bu fərqliliklərə baxmayaraq, hər bir insanın yalnız özündən asılı olduğunu vurğulayır. Burada insanın öz taleyinin həm xoşbəxtliyini, həm də faciəsini öz əlində tutduğu bir qənaətə gəlir. Burada irq, din, millət ayrımlarına işarə edilir. Şair "Kim fransız, kim həbəş, irq, qan, iman davası" ifadələri ilə insanların bir-birinə qarşı düşmənçiliyinə toxunur. Burada insan həyatını və millətlər arasında mövcud olan kin-küdurətləri dəyərləndirilir. Bütün bu münaqişələrin fonunda əslində hər şeyin faniliyi və insanın həyatda özünə aid olan hər şeyi özü yaratması diqqətə çatdırılır.

Ölkəyə ölkə, millətə millət qəsd edərsə,
Onun son aqibəti, həsrət sən, fəğan sən.

Anan Yerdir, varlığınla yoxluğun - Yerdir,
Xəstə sənin anandır, ölən sən, dərman sən [6, s.3].

Bu bəndlərdə millətlərin bir-birinə qarşı müharibələri qınanır. "Ölkəyə ölkə, millətə millət qəsd edərsə" ifadəsi ilə əslində hər münaqişənin sonunda yalnız məhv və xəyal qırıqlığı olduğu vurğulanır. Bu yolla, şair barışın nə qədər əhəmiyyətli olduğunu qeyd edir. " Anan Yerdir" ifadəsi ilə Vətən ana torpaq kimi təqdim edilir. Şair burada insanın vətənə qarşı olan bağlılığını vurğulayır. Torpaq bizim həm varlığımız, həm də yoxluğumuzdur, və ona görə də insan özünü vətəninə həsr etməlidir. "Oğlon o'zing, darmon o'zing" ifadəsi ilə insanın öz güc və iradəsini tapıb ona güvənməsi göstərilir.

NƏTİCƏ. Şair insanın İnsan həm bağban, həm də pasiban, yəni həm bağın yaradıcısı, həm də onun qoruyucusudur. Bu misralarda insanın öz əməllərinə görə məsuliyyət daşıdığı bildirilir. O, yaratmaq üçün gücə malikdir, lakin bu gücdən düzgün istifadə etməlidir.

Bağrında yatan sən, nemətini dadan sən,
Xəncərtək batan sən, peykan sən, qalxan sən [6, s.3].

"Marsa top atan" və "Zöhrəni (Veneranı) oyadan sən" ifadələrində şair insanın texnologiyaya və elmə olan irəliləyişinə işarə etməklə yanaşı, insanın ruhən və mənən oyanmasının vacibliyini vurğulayır. İnsan, kainatı kəşf edən, hətta Marsa top atan biri ola bilər, lakin bununla birlikdə, həmişə ayıq-sayıq olmalıdır. Burada insanın bilik və elmə can ataraq inkişaf etməli olduğu, bu həyatda yaratmaq və məhv etmək qüdrətinə malik olduğunu qeyd edir Ancaq insanın bəzən yuxuda qalması və həqiqətləri görməməsi də vurğulanır, amma o, özünü oyatmalı, həqiqi mənada ayılmalıdır.

Marsa top atan, Veneranı oyadan sən,
Lakin yuxuya dalan sən, oyan, oyan sən.

Bu aləmdə onu əmmək, yemək bəs deyil,
Yer üzünü bostan da edərsən, cənnət sən.

Sözün sonu var, yazsam yenə divan olur,
Rüstəmi-dastan olur, dastan sən, divan sən [6, s.3].

Bu bənddə insanın təbiətə və vətənə münasibəti araşdırılır. Şair insana həm təbiətə gözəllik və səxavət bəxş edən, həm də bəzən ona zərər verən bir varlıq kimi yanaşır. Amma insanın yer üzündə yalnız təbiəti məhv etmək və ya sərvətləri israf etmək üçün deyil, əksinə, onu gözəlləşdirmək və qorumaq üçün var olduğunu bildirir. Burada insanın təbiətlə ahəngdar şəkildə yaşamaq üçün məsuliyyəti ön plana çəkilir. "Yerni etmog'ing kerak bo'ston o'zing" ifadəsi ilə insanın həyatında bu idealın arxasınca getməli olduğu vurğulanır.

Olmasın sübhün qara, ol müdam var içrə,
Özün daim insan bil, insan sən, insan sən.

Ey, sən Erkin, yazdın qəlbindəki düyünü,
Sen kim-u ne dahri dun, biyron sən, nadansan sən [6, s.4].

Son misrada şair, özünə insana müraciət edərək yenidən təsdiq edir: "Özün daim insan bil, insan sən, insan sən." Bu, insanın hər zaman öz əsl mahiyyətinə qayıtmalı olduğunu və özünə sadiq qalmalı olduğunu vurğulayır. Şair oxucunu insanlığa, mənəvi yüksəlişə dəvət edir.

Beləliklə, şair hər bir bənddə insanın fərdi məsuliyyətini, vətənə, təbiətə və dünyaya olan

bağlılığını, eləcə də irəliləyiş və barışa can atmalı olduğunu poetik şəkildə ifadə edir.

ƏDƏBİYYAT:

1. Binnətova, Almaz Ülvi. 2008. Azərbaycan - özbək (çağatay) ədəbi əlaqələri (dövrlər, simalar, janrlar, təmayüllər). – Bakı, "Qartal" nəşriyyatı, 334 səh.

2. Meliboev, Axmadjon. 2020. Erkin Voxidovun imzosi. II nashr. – Toşkent, "Adabiyot nashriyoti" MCHJ, b.73 (158 b.)

3. Vahidov, Erkin. 2024. Söz lətafəti // Özbəkcədən Azərbaycancan dilinə uyğunlaşdıran, elmi redaktor və ön söz müəllifi: Almaz Ülvi Binnə-tova, redaktor Şəhla Məcidova. – Bakı, Elm və Təhsil, 166 s.

4. Воҳидов, Эркин. 2000. Сайланма // Биринчи жилд. Ишқ савдоси (Сўзбоши муаллифи: Иброҳим Ғафуров). – Тошкент, Шарқ нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 243 бет. (pdf. www.ziyouz.com kutubxonasi)

5. Воҳидов, Эркин. 2001. Сайланма // Иккинчи жилд. Шер дунеси. – Тошкент, Шарқ нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 249 бет. (pdf. www.ziyouz.com kutubxonasi)

6. Воҳидов, Эркин. 2001. Сайланма // Учинчи жилд. Умрим дарёси. – Тошкент, Шарқ нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 271 бет. (1-4 бет) (pdf. www.ziyouz.com kutubxonasi).

7. Жўраев, Шерали. 2018. Эркин Воҳидовнинг "Инсон" қасидаси менинг илтимосимга кўра ёзилган// Zamin, 19-dekabr 2018-yil.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 101.3

"INSON KAPITALI" TUSHUNCHASIGA DOIR TADQIQOTLAR TAHLILI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Saidkulov Nuriddin Akramkulovich, Guliston davlat pedagogika instituti dotsenti

ANALYSIS OF RESEARCH ON THE CONCEPT OF "HUMAN CAPITAL": PROBLEMS AND SOLUTIONS

Saidkulov Nuriddin Akramkulovich, Associate Professor of Gulistan State Pedagogical Institute

АНАЛИЗ ИССЛЕДОВАНИЙ ПО ПОНЯТИЮ "ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ": ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

Саидкулов Нуриддин Акрамкулович, доцент Гулистанского государственного педагогического института

https://orcid.org/0009-0002-7400-7451

e-mail: nuriddinsaidkulov89@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada "inson kapitali" tushunchasiga doir ayrim mulohazalar haqida so'z boradi. Bundan tashqari maqola "Inson kim?", "Insonning hayotdagi maqsadi nima?", "Inson kapitalini rivojlantirish uchun qanday jihatlarga e'tibor qilish kerak?" – degan savollarning javoblari hamda "inson kapitali" tushunchasiga doir so'rovnoma natijalari va tahlillariga bag'ishlangan.*

Kalit so'zlar: *inson, kapital, inson kapitali, intellektual, intellektual kapital, A.Smit, A.Marshall.*

Abstract: *This article deals with some considerations on the concept of "human capital". In addition, the article "Who is a person?", "What is the purpose of a person in life?", "What aspects should be considered for the development of human capital?" - the answers to the questions and the results and analysis of the survey on the concept of "human capital".*

Key words: *human, capital, human capital, intellectual, intellectual capital, A. Smith, A. Marshall.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются некоторые соображения по поводу понятия «человеческий капитал». Кроме того, даётся ответы на вопросы «Кто такой человек?», «Каково предназначение человека в жизни?», «Какие аспекты следует учитывать для развития человеческого капитала?» - и приведены результаты и анализ опроса по понятию «человеческий капитал».*

Ключевые слова: *человек, капитал, человеческий капитал, интеллектуальный, интеллектуальный капитал, А. Смит, А. Маршалл.*

TAMADDUN NURI

KIRISH. Mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida inson kapitalining roli uzoq vaqtlardan buyon muhokama qilib kelinayotgan bahsli masalalardan biridir. So‘nggi yillarda dunyoda inson kapitalini rivojlantirishga bo‘lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Inson kapitali tadqiqining asosiy jihati shundaki, jtimoiy munosabatlar, individual xususiyatlar, iqtisodiy faoliyat va inson farovonligiga qay darajada xizmat qilishini tushunishdan iboratdir. Inson kapitalining jamiyat farovonligidagi ahamiyatini tahlil va tadqiq etishdan avval, “inson”, “kapital”, “intellektual kapital” hamda “inson kapitali” tushunchalari va ularning mazmun-mohiyati, kelib chiqishi, namoyon bo‘lish shakllari va xususiyatlarini to‘liq o‘rganib chiqish lozimdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Jamiyat ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy hayotida inson kapitalining roli bilan bog‘liq holda qo‘yilgan mazkur tadqiqot mavzusini o‘rganishda, avvalo, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va falsafiy fanlarning mumtoz namoyandalari asarlariga murojaat qilish lozim. Shuningdek, O‘zbekistonda ijtimoiy va dunyoviy davlat, kuchli fuqarolik jamiyati va barqaror taraqqiyot jarayonida inson kapitalining o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning[1], shuningdek, Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning[2] asarlarida O‘zbekistonning barqaror va izchil taraqqiyotiga qaratilgan konseptual g‘oyalari muhim manba hisoblanadi. Sharq mutafakkirlari Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Yusuf Xos Hojib, Ibn Sino, Nizomulmulk, Amir Temur asarlarida[3] ham davlat va jamiyat ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy barqarorligini ta’minlashga doir fikrlar keltirilgan.

Maqolada tarixiylik, mantiqiylik, so‘rov anketa, analiz, sintez, ekspert so‘rovi, qiyosiy va empirik tahlil, deduktiv va induktiv kuzatish usullari hamda tizimli yondashuvlardan foydalanilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Avvalo, “Inson kim?”, “Insonning hayotdagi maqsadi nima?”, “Inson faoliyatining asosi nima?”, “Inson hayotida moddiylik birlamchimi, ma’naviylikmi?”, “Inson o‘zi uchun yashash kerakmi, jamiyat uchunmi?”, “Inson hayotida oila va jamiyatning ro‘li qanday?”, “Inson individual hodisami, ijtimoiymi?” – degan savollarga javob topish muhim ahamiyatga ega.

Dahaqiqat, inson bir butun tabiatning ajralmas qismi bo‘lib, bioijtimoiy mavjudot hisoblanadi. U o‘zining mavjudligini, qobiliyat va imkoniyatlarini shu moddiy borliqning shakllari bo‘lgan tabiat va jamiyat bilan uzviy aloqada bo‘libgina namoyon eta oladi.

Tabiat inson mavjud bo‘lishining faqatgina tabiiy-biologik shart-sharoitlarini yaratib beradi. Shuning bilan birga, inson va tabiat o‘rtasidagi munosabat shunday tuzilganki, bizni o‘rab turgan olamda yuz beradigan ko‘pgina hodisalar va ularning xususiyatlari inson mavjudligiga imkon yaratib, unga ijobiy ta’sir ko‘rsatsa, tabiatning ba’zi hodisalari inson hayotiga, uning mavjudligiga tahdid soladi.

Tabiat va inson munosobatidagi bu qarama-qarshilik, inson ongining taraqqiy etishiga, ya’ni tabiiy qonuniyatlarni o‘rganish va kashf etish orqali unda atrof-muhit bilan faol munosabatga kirishish, shaxsiy orzu-umidlarini amalga oshirish, ya’ni faoliyat yuritish imkoniyatini yaratadi. Birgalikda yashash zaruriyati insonlar jamiyatini barpo qilib, shu jamiyat insonlarning o‘z qobiliyati va ijodiy imkoniyatini amalga oshirish, faoliyat yuritishining yagona makoniga aylandi.

Xo‘sh, inson faoliyatining asosini nima tashkil etadi? Insonning boshqa biologik mavjudotlardan farqli alohida xususiyati shundaki, u o‘z hayoti va faoliyatini muayyan bir maqsad va manfaatlarga intilib amalga oshiradi. Bu ongli faoliyatning asosini esa moddiy farovonlik va ma’naviy-ruhiy barkamollikka erishish tashkil etadi. Darhaqiqat, inson hayotda farovon yashashi yoki umuman yashab qolishi uchun albatta ijtimoiy munosabatga kirishishi shart bo‘ladi. O‘zaro hamkorlikda yashagan jamiyat insonlarigina muammolariga yechim topib farovon yashashi, qiyinchiliklarni birgalikda bartaraf etishlari mumkin.

“Inson kapitali” nima? Inson kapitali (inglizcha “human capital”) zamonaviy fan, falsafa, siyosat va iqtisodiyotning asosiy tushunchalaridan biri hisoblanadi. “Inson ong va aqlga ega bo‘lgan ijtimoiy mavjudot hisoblanadi. Uning mohiyati yaxlit bir butunlik sifatida inson, shaxs, individ, individuallik tushunchalari orqali ifodalanadi. Falsafa insonni olamning tarkibiy qismi sifatida o‘rganadi”[4].

Dunyoda barqarorlikni ta’minlashda inson kapitalini rivojlantirish bo‘yicha qator, jumladan,

quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda: inson kapitali, ijtimoiy kapital va intellektual kapital tushunchalarining genezisi, zamonaviy harakat mexanizmi, siyosiy maqsadlari, ijtimoiy va xalqaro munosabatlarga ta’siri, ularni ta’minlash va rivojlantirishga doir rivojlangan davlatlar tajribasi, ularning namoyon bo‘lishi, u bilan bog‘liq ma’naviy, g‘oyaviy-mafkuraviy muammolar genezisi va klassifikatsiyasi ochib berilmoqda. Inson kapitalini ma’naviy negizi sifatida demokratik qadriyatlar va insonparvarlik g‘oyalarini ijtimoiy hayotimizga keng tatbiq etishni takomillashtirish borasida, jumladan, quyidagi: mamlakat taraqqiyotining hozirgi bosqichi nafaqat inson kapitalini rivojlantirishni ta’minlaydigan, balki fuqarolarning o‘zlari uchun haqiqiy imkoniyat yaratadigan eng muhim ijtimoiy va siyosiy institutlar sifatida fuqarolik jamiyati va huquqiy-ijtimoiy davlatni shakllantirish muammosi; globallashuv sharoitida demokratiya va inson kapitalini o‘rganishning konseptual asoslarini ishlab chiqish zarurligi to‘g‘risida savol tug‘ilishi inson kapitalini o‘rganishda fanlararo yondashuvning shakllanishiga va ushbu sohadagi ilmiy bilimlarning integratsiallashuvi; inson kapitali va uning shakllanishi to‘g‘risidagi nazariylarning bugungi kundagi ahamiyati bilan bog‘liq ilmiy muammolar ustuvor yo‘nalish hisoblanadi.

Shu o‘rinda, tadqiqot davomida o‘tkazilgan “Jamiyat barqarorligini ta’minlashda inson kapitalining o‘rni” mavzusidagi sotsiologik so‘rov natijalariga e’tibor qaratsak. Ushbu sotsiologik so‘rovnoma turli yosh va turli kasbdagi respondentlar o‘rtasida onlayn shaklda o‘tkazilgan bo‘lib, jami 1079 respondent ishtirok etgan. Tadqiqotning demografik bo‘limida ishtirok etgan respondentlarning 34,6 foizi erkak va 65,4 foizi ayollardan iborat. Mavzuning xususiyatidan kelib chiqqan holda turli millat vakillari tanlanib, bunga ko‘ra, so‘rovnomada ishtirok etgan respondentlarning 92,4 foizi o‘zbek, 4,1 foizi tojik, 1,7 foizi qirg‘iz, 0,9 foizi qozoq, 0,5 foizi qoraqalpoq, 0,2 foizi turkman va 0,3 foizi boshqa millatlarga mansub vakillar qatnashishgan. Respondentlarning 58 %ini 14-20 yoshlilar, 28,6%ini 20-30 yoshlilar, 6,9%ini 30-40 yoshlilar, 3,8%ini 40-50 yoshlilar shuningdek, 2,7%ini 50 va undan yuqori yoshlilar tashkil etgan.

Respondentlarning ichida o‘qituvchilar 8,6%, ishchilar 4,5%, tadbirkorlar 1,3%, shifokorlar 1,6%, davlat xizmatchilari 1,4%, olimlar 0,9%, ziyolilar 0,8%, injenerlar 0,3%, talabalar 74,9% hamda 5,7% respondent boshqa sohalarda faoliyat olib borishi haqida ma’lumot bergan.

1-rasm



Ushbu so‘rovnomada “Inson kapitali haqida ma’lumotga egamisiz?” degan savolga respondentlarning 38,8%i “eshitganman, ma’nosini tushunaman”, 34,9% “eshitganman, lekin ma’nosini bilmayman” deb javob berishgan bo‘lsa, 14,8% respondent “eshitmagan”ligini, 11,5% respondent “aniq javob bera olmas”ligini belgilashgan. Javoblardan ko‘rish mumkinki, aksariyat respondentlar inson kapitali tushunchasi haqida umumiy ma’lumotga ega.

2-rasm



Bizning tadqitot doirasida o‘tkazgan so‘rovnomamizda “Inson kapitali” tushunchasi qanday ma’noda ishlatiladi?” degan savolga respondentlarning 24,7%i “Ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy ma’noda”, 3,3% “falsafiy ma’noda”, 3,9% “ma’naviy ma’noda”, 13,2% “Ijtimoiy ma’noda” deb javob berishgan bo‘lsa, 24,7% respondent “iqtisodiy ma’noda”, 12,5% respondent “siyosiy ma’noda”, 17,7% respondent “bilmasligi”ni belgilashgan. Ushbu berilgan javoblardan ijtmoiy-siyosiy va ma’naviy hamda iqtisodiy ma’nolarda ishlatiladi degan javoblarni belgilaganlar foizi yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lib, jamiyatning faqat ziyoli qatlami, jumladan, siyosatchilar, iqtsodchilar, faylasuf-olimlar ichida ushbu tushunchani bilish darajasi yuqori ekanini ko‘rish mumkin.

Inson intellektual salohiyati va ijodiy qobiliyatning ahamiyatini ilmiy nuqtayi nazardan yoritib bergan va inson kapitali konsepsiyasining shakllanishiga poydevor qo‘ygan olim A.Smit hisoblanadi. Uning qarashlarida ishlab chiqarishning natijaviy maqsadi va jamiyat ijtimoiy boyligining bir qismi bo‘lgan inson, asosiy figura sifatida maydongachiqadi[5]. XIX asr oxiriga kelib yana bir iqtisodiy sohaning yirik vakili A.Marshall ham o‘z nazariyalarini ilgari surdi. “Moddiy boyliklarni ishlab chiqarish – bu faqatgina inson hayotini ta’minlash, uning ehtiyojlarini qondirish va jismoniy, aqliy, ma’naviy imkoniyatlarini o‘stirish uchundir. Ammo, insonning o‘zi ushbu boylikni ishlab chiqarishning asosiy vositasi, pirovard maqsadi hamdir”[6].

Inson yashayotgan jamiyat qanchalik erkin va farovon bo‘lsa, uning hayotiy maqsadlariga erishish, manfaatlarini amalga oshirish imkoniyatlari ham shunchalik yuqori bo‘ladi. Shu bois, insoniyat tarixiy taraqqiyotining uzoq davri mobaynidagi maqsadli faoliyati natijasida o‘z ongi va tafakkuri imkoniyatlarini yuksaltirib, so‘nggi o‘n yilliklarda koinotni o‘zlashtirish, sun’iy intellektni yaratish, biotibbiyot va axborot texnologiyalari sohalarida yuksak natijalarga erishib kelmoqda.

XULOSA. Jahonda inson kapitali aholining barcha qatlamlari manfaatlarini ko‘zlab iqtisodiy o‘sishning harakatlantiruvchi kuchlaridan biri sifatida qaraladi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, davlat uchun inson kapitaliga investitsiyalar qilishi kelajakda katta daromadga aylanadi: bolalar uchun sarflangan har bir million kamida bir necha million bo‘lib qaytadi. Inson kapitali jismoniy kapitalga qaraganda tezroq o‘sib bormoqda.

Inson kapitali rivojlangan davlatlar boshqa davlatlarga nisbatan juda ko‘p afzalliklarga ega. Yuqori sifat deganda davlatda aholining yuksak intellektual darajasi va yuqori kasbiy kadrlar salohiyati mavjudligi, bu esa davlat iqtisodiy tizimining jahon bozorida raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qilishini nazarda tutadi. Bilvosita zamonaviy globallashuv davrida davlatning iqtisodiy o‘sishi inson kapitali hajmi va sifati bilan bog‘liq.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy Taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1 -jild. –T.: O‘zbekiston, 2017. – B. 592;

Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2- jild. –T.: O‘zbekiston, 2018. – B. 508; Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild. –T.: O‘zbekiston, 2019. – B. 400; Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. –T.: O‘zbekiston, 2020. – B. 456; Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –T.: O‘zbekiston, 2021. –B. 464.
2. Karimov I.A. Asarlar to‘plami, 1-24 jildlar. - Toshkent: O‘zbekiston, 1996-2015.
3. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. T.1. – Toshkent. Fan, 1968; Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi. 1993; Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. –Toshkent: Fan, 1971; Ibn Sino. (Avitsenna). Избранные философские произведения. – Москва, 1980; Nizomulmulk. Siyosatnoma yoki Siyar ul-mulk. – Toshkent: Adolat, 1997; Amir Temur. Temur tuzuklari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011. – B.184.
4. Қосимов Ф.С. Янгиланаётган Ўзбекистонда инсон капиталини ривожлантиришнинг ижтимоий-фалсафий асослари; фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) диссертацияси автореферати. –Самарқанд: – 2022.
5. Веряскина В. Динамика развития человеческого потенциала и приоритеты высшего образования. Высшее образование в России. – Москва, 2005. – № 2 .
6. Marshall A. Principles of Economics. – London, 1983. – P. 482.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 372.8

ФИЗИКАНИ ЭКОЛОГИК ҲОДИСА ВА ЖАРАЁНЛАР БИЛАН БОҒЛАБ ЎҚИТИШ

Турсунов Алишер Исоқович, Термиз давлат университети “Умумий физика” кафедраси доцент.в.б., (PhD)

TEACHING PHYSICS IN CONNECTION WITH ECOLOGICAL PHENOMENA AND PROCESSES

Tursunov Alisher Isokovych, Associate Professor, Department of General Physics, Termiz State University, (PhD)

ПРЕПОДАВАНИЕ ФИЗИКИ В СВЯЗИ С ЭКОЛОГИЧЕСКИМИ ЯВЛЕНИЯМИ И ПРОЦЕССАМИ

Турсунов Алишер Исокович, доцент кафедры общей физики Термезского государственного университета, (PhD)

https://orcid.org/0009-0001-3979-5301
e-mail: alishertursunov72@mail.ru

Аннотация: *Мақолада экологик мазмунга доир масалалар, физика ўқитишда таълим-тарбия мақсади ва вазифалари, шакллари, дидактик принципларини ҳисобга олган ҳолда тушунтирилган. Физикадан экологик мазмунда турли типдаги масалаларни танлаш, тузиш ва ечиш орқали ўқувчиларни ўлка экологиясининг физик асослари ва хусусиятлари билан таништиради. Шунингдек, физикага доир қандай тадбирлар ўтказиш орқали ютуқларга эришиш йўлларини тушунтиришга эришиш ва физикани атрофдаги экологик ҳодисалар ва жараёнлар билан боғлаб ўқитиш ёритилган.*

Калит сўзлар: *атроф-муҳит, экология, ўлка, жараён, шамол, билим, тушунча, энергетика, ҳодиса, масала.*

Аннотация: *В статье разъясняются вопросы экологического содержания с учетом учебно-воспитательных целей и задач, форм, дидактических принципов в обучении физике. Он знакомит учащихся с физическими основами и особенностями экологии края путем выбора, структурирования и решения различных типов задач экологического содержания по физике. Он также охватывает объяснение того, как добиться прогресса, проводя занятия по физике, и обучение, связывая физику с экологическими явлениями и процессами в окружающей среде.*

Ключевые слова: *окружающая среда, экология, край, процесс, ветер, знания, понимание, энергетика, явление, проблема.*

Abstract: *The article explains the issues of environmental content, taking into account the goals and objectives, forms, didactic principles of teaching physics. By choosing, formulating and solving various issues of physical and environmental content, he introduces students to the physical foundations and features of the country's ecology. It also talks about how to achieve success by conducting physical events, and how to teach physics to surrounding environmental phenomena and processes.*

Key words: *environment, ecology, environment, environment, wind, knowledge, understanding, energy, events, problems.*

TAMADDUN NURI

КИРИШ. Экологик мазмунда турли типдаги масалалар мазмуни физик ҳодиса, жараён ва қонунларга нисбатан ўқувчиларда қизиқиш уйғотиши, дастур материалларини пухта ва чуқур ўрганиб олишларига ёрдам бериши керак. Шунинг учун педагогик тажриба-синов ўтказаётган физика ўқитувчиларида танланган экологик мазмунда турли типдаги масалалар бўйича махсус картотека тузиш мақсадга мувофиқ, яъни танланган экологик мазмундаги физика масалаларидан муваффақиятли фойдаланиш мумкин.

Масалалар танлаш ва тузишда аниқликка риоя қилиш, яъни танланган материаллар қўшимчаларсиз бўлиши керак. Экологик мазмундаги материаллар ўқувчиларнинг билим даражаларини ҳисобга олган ҳолда, масала ечиш дарсларида фойдаланиш мақсадга мувофиқлиги тўғрисида тўхталиб ўтиш зарур[1].

Физикани экологик ҳодиса ва жараёнлар билан боғлаб ўқитишда, ўлка экологиясига доир материалларга қуйидагиларни киритиш мумкин:

1. Атрофдаги экологик ҳодисалар ва жараёнларнинг физик моҳияти.

2. Мактаб атрофидаги қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришининг экологик оқибатларини бартараф этишда физика қонунларидан фойдаланиш.

3. Физикадан экологик мазмундаги материалларни тўплаш ва фойдаланиш.

Физикадан экологик мазмунда масалалар танлаш, тузиш ва ечишда қуйидаги йўналишлардан фойдаланиш:

- пахтачилик ва уларни парвариш қилишда экология билан боғлиқ бўлган физик ҳодиса ва тушунчалар;
- ғаллачилик билан боғлиқ бўлган физик ҳодисалар;
- оқар сув заҳиралари ва уларнинг экология билан боғлиқ бўлган физик ҳодисалар.

Ўрганилаётган мавзуни мустаҳкам ва чуқур ўзлаштиришга, билимларни пухта эгаллашга бўлган қизиқишларини оширишга аниқ саволларни иллюстрация қилиш воситаси бўлишга физиканинг ҳудуд, минтақа экологияси билан боғлиқлигини очиб беришга қаратилмоғи лозим.

Агар замонавий техника ва технологиянинг илмий асослари билан ўқувчилар етарли даражада таништириб борилса, уларда физикани ўрганишга бўлган қизиқиш ортади. Бу мактаб физика курси мазмунига қўйилган дидактик талаблардан келиб чиққан ҳолда, муҳим танлаш мезонларидан бири бўлиб ҳисобланади [2].

ТАДҚИҚОТ МЕТОДОЛОГИЯСИ. Физикадан экологик мазмунда турли типдаги масалалар танлаш, тузиш ва ечишда дидактиканинг қуйидаги принципларидан фойдаланилади.

1. Физикадан экологик мазмунда масалалар танлаш, тузиш ва ечишга доир материал, биринчи навбатда, дастур мазмуни билан узвий боғланган бўлиши, мактаб физика курсининг таълим-тарбия вазифаларини бажаришга имкон бериши керак.

2. Физикадан ўлка экологиясига оид ишлар мактаб умумий ишининг бир қисми бўлиб, бу асосда дидактиканинг асосий принципи, яъни ўқитишни ҳаёт билан боғлаш лозим.

3. Физикадан турли типда танланган экологик мазмундаги масалалар иқтисодий, политехник ҳамда экологик таълимларни амалга оширишга ёрдам бериши зарур.

4. Физикадан экологик мазмунда турли типдаги масалалар танлаш ва тузишга доир материал илмий томондан асосланган, педагогик мақсадга мувофиқ келиши керак.

Ўқувчиларга ортиқча юк бўлмаслиги учун танланган материал далиллар билан тақдим этилиши, қаралаётган ҳодиса ва жараёнларда ортиқча деталлар бўлмаслиги керак [3].

Физикадан дарсда ва дарсдан ташқари машғулотларда экологик мазмунда масалалар танлаш,тузиш ва ечиш илмий томондан ишонарли ва педагогика нуқтаи назаридан мақсадга мувофиқ бўлиши лозим. Бундан ташқари, ўқув жараёни тузилишида илмийликка, кетма-кетликка ва изчилликка риоя қилиш керак.

Физикадан экологик мазмунда турли типдаги масалалардан фойдаланиш бугунги кунда назарий ва амалий жиҳатдан етарли даражада ишланмаган, ўқувчилар учун ўқув қўлланмалар, ўқитувчилар учун методик қўлланмалар, дарс ишланмалар, дидактик ва тарқатма материаллар деярли йўқ. Ўлка экологиясига доир материаллардан асосан,

физикадан турли типдаги масалаларни танлаш, тузиш ва ечиш, дарсда фойдаланиш мақсадга мувофиқ, чунки ўқувчиларнинг дунёқарашини кенгайтиради, назарий олган билимларини амалиётда қўллашга имкон туғдиради.

НАТИЖАЛАР. Физикадан экологик мазмунда турли типдаги масалалар танлаш, тузиш ва ечиш учун ишлаб чиқилган мезонлардан, дарсда ва дарсдан ташқари ишларда самарали фойдаланиш имкони яратилди.

Физикадан экологик мазмунда турли типдаги масалаларни танлаш, тузиш ва ечиш жараёнида амалий кўникма ва малакалар шаклланиши билан масала ечишнинг альтернатив вариантларини излаб топишга ҳаракат қилинади. Шунингдек, масала танлаш, тузиш ва ечишда эвристик методдан фойдаланиб ёндашиш физик қонунларни, экологик билимларга доир тушунча ва маълумотларнинг инсон ҳаёти фаолиятидаги аҳамиятини онгли ўзлаштириб олишга ёрдам беради.

Физика ўқитувчисининг вазифаси ўқувчиларда ўлка экологияси бўйича билим олишга қизиқиш уйғота олиш, ўлка экологиясини дарс жараёнида физикадан турли типдаги масалалар танлаш, тузиш ва ечиш воситасида ўқитишдан мақсади нимадан иборат эканлигини кўра билиш, мазмун- моҳиятини тушунтиришдан иборат. Ўлка экологиясининг физик асосларини ўқитиш ўқув жараёнида дидактиканинг бошқа принциплари билан биргаликда амалга оширилади [4].

Физикадан экологик мазмунда турли типдаги масалаларни танлаш, тузиш ва ечиш йўллари орқали ўқувчилар атроф-муҳитда қандай экологик ҳодиса ва жараёнлар содир бўлишининг физик моҳиятини чуқур, пухта билиб оладилар. Физикадан экологик мазмунда турли типдаги масалаларни танлаш мезонлари ўрганилаётган материалнинг физик моҳияти тўғрисида аниқ тасаввур ҳосил қилишга, энг муҳими уни чуқур ва пухта ўзлаштиришга ёрдам беради.

ХУЛОСА қилиб айтиш мумкинки, физикадан экологик мазмунда турли типдаги масалаларни танлаш, тузиш ва ечиш таълим беришнинг самарали шаклларидан бири бўлиб хизмат қилади.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Маҳмудов Ю.Ғ. Физикадан савол-масалалар тўплами: Ўрта мактаб ва ҳунар-техника билим юрти ўқувчилари учун. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. -224.
2. Тухтаев А. Ҳамидов А. Экология асослари ва табиатни муҳофаза қилиш. –Тошкент: Ўқитувчи, 1994. -160 б.
3. Аризхонов Р.И., Ахмедов О.А., Ахмаджонов О.И., Марчук А.В., Фирсов Ф.И. Физикадан масалаларни ечишни ўрганинг, -Тошкент, 1994. -241 б.
4. Маҳмудов Ю.Ғ., Норбўтаев Х.Б. Ўлка экологиясининг физик-биологик жадвали ва унга қўйиладиган дидактик талаблар. Методик қўлланма. - Тошкент: Фан, 2008. - 28 б.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 902.01.34

ХЎЖА БУЗРУКТЕПА ЁДГОРЛИГИ ТЎҒРИСИДА ЯНГИ МАЪЛУМОТЛАР

Суюнов Самаритдин Саматович, Самарқанд археология институти катта илмий ходими

NEW INFORMATION ABOUT KHOJA BUZRUKTEPA MONUMENT

Suyunov Samaritdin Samatovich, senior researcher of Samarkand Archaeological Institute

НОВАЯ ИНФОРМАЦИЯ О ПАМЯТНИКЕ ХОДЖА БУЗРУКТЕПА

Суюнов Самаритдин Саматович, старший научный сотрудник Самаркандского археологического института

https://orcid.org/0009-0001-3695-088X

e-mail: suyunosamar.1963@gmail.com

Аннотация: *Мақолада, Жанубий Суғднинг жануби-шарқий қисмида Ғузор воҳасида жойлашган Хўжа Бузруктепа ёдгорлигининг ўрганилиш тарихи билан боғлиқ янги маълумотлар келтирилган. Хўжа Бузруктепа ёдгорлиги Ғузор воҳасининг энг йирик ёдгорликларидан бири бўлиб, археологлар томонидан арк деб ҳисобланган тепалик қалъанинг ташқарисида эканлиги айтилган. Ёдгорликда олиб борилган сўнгги қазув тадқиқотлари бу фикрни ҳақиқатдан бир оз узоқроқ эканлигини кўрсатади. Хўжа Бузруктепа қалъаси айнан IX-X асрларга келиб, шаҳристонга айланган деган фикрлар эса тўғри. Чунки ўтказилган тадқиқотлар натижасида олинган янги маълумотлар ёдгорликни уч қисмдан (арк, шаҳристон ва рабод) иборат эканлигини кўрсатди.*

Ёдгорликнинг жанубий қисмида алоҳида жойлашган, кўриниши айлана шаклда бўлган умумий майдони тахминан 100 м^2 яқин бўлган жойда олиб борилган қазув тадқиқотлари натижасида белгилаган майдоннинг ғарбий томонидан ёйсимон кўринишга эга бўлган катта (блок) хом ғиштлардан тик қилиб терилган иншоот борлиги аниқланди. Бу тахминан илк ўрта асрлар минорасининг ички томони бўлган бўлиши мумкин деган фикрга келинди. Бундан ташқари қазишмадан, хона девор қолдиқлари, унинг марказидан эса пишган ғиштдан қилинган сандал ўчоқ, ўша жойдан металлга тақлид қилиб ясалган бутун сопол кўза, шишадан ясалган кичик колба, мис танга қайд этилди. Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, Хўжа Бузруктепа ёдгорлигининг очиб ўрганилган ҳудудидаги меъморий иншоот (девор, пол, хом ғишт), қолдиқлари ва олинган археологик ашёлар мажмуани тахминан XI-XII асрларга оид эканлигини кўрсатади.

Калит сўзлар: *Насаф, Кеш, Нахшаб, Пачкамар, Қўрғонча, Хусор, Искифағн, Кузвин, Қум, Субах, Катта Ўрадарё, Кичик Ўрадарё, Ибодатхона, Жом, Ингичка.*

Abstract: *The article presents new information related to the history of the study of the monument of Khoja Buzruktepa, located in the Guzor oasis in the south-eastern part of Southern Sogd. The monument of Khoja Buzruktepa is one of the largest monuments of the Guzor oasis, the hill, which archaeologists believe to be a citadel, is located outside the fortress. Recent excavations of the monument show that this idea is a little far from the truth. The assumption that in the IX-X centuries the fortress of Khoja Buzruktepa was a shahristan is more likely. Since the new information obtained as a result of the research shows that the monument consists of three parts (ark, shahristan and rabad). In the southern part of the monument, a large*

structure made of raw brick was found with an arched shape on the western side of the allotted plot, located in a circular area of about 100 m2. It has been suggested that this may have been the interior of an early medieval tower. Furthermore, the remains of the wall of the room were recorded from the excavation, and from its centre, a sandalwood kiln made of burnt brick, a whole ceramic jug, a small glass flask and a copper coin were recovered. In conclusion, we can say that the preserved architectural structure (wall, floor, raw brick) and the collection of archaeological finds from the investigated part of the monument Khoja Buzruktepa shows that it belongs to the XI-XII centuries.

***Key words**: Nasaf, Kesh, Nakhab, Pachkamar, Kurgancha, Husar, Iskifagn, Kuzvin, Kum, Subakh, Big Uradarya, Small Uradarya, templ, Jam, Ingichka.*

***Аннотация:** В статье представлены новые сведения, связанные с историей изучения памятника Ходжи Бузруктепы, расположенного в Гузорском оазисе в юго-восточной части Южного Согда. Памятник Ходже Бузруктепе является одним из крупнейших памятников Гузорского оазиса, холм, которого археологи считают цитаделью, находится за пределами крепости. Недавние раскопки памятника показывают, что эта идея немного далека от истины. Предположения о том, что в IX-X веках крепость Ходжа Бузруктепа была шахристаном является более вероятно. Так как, новая информация, полученная в результате исследования, показывает, что памятник состоит из трёх частей (арк, шахристан и рабад). В южной части памятника обнаружено крупное строение, построенное из сырцового кирпича, имеющее дугообразный вид с западной стороны отведенного участка, расположенного на круглой территории общей площадью около 100 м2. Было высказано предположение, что это могло быть внутренней частью раннесредневековой башни. Кроме того, из раскопок зафиксированы остатки стены помещения, а из его центра – сандаловая печь из обожженного кирпича, целый керамический кувшин, небольшая стеклянная колба и медная монета. В заключение можно сказать, что сохранившаяся архитектурная конструкция (стена, пол, сырцовый кирпич) и коллекция археологических находок из исследованной части памятника Ходжа Бузруктепа показывает, что он относится к XI-XII вв.*

***Ключевые слова**: Насаф, Кеш, Нахшаб, Пачкамар, Курганча, Хусар, Искифагн, Кузвин, Кум, Субах, Большоя Урадарья, Малая Урадарья, храм, Джам, Ингичка.*

КИРИШ. Қашқадарё воҳаси қадимданоқ табиий ва маъмурий жиҳатдан бир неча кичик воҳаларга бўлинган. Булар, Қашқадарёнинг юқори оқимида жойлашган Кеш (Китоб, Шаҳрисабз), қуйи оқимида жойлашган Насаф (Қарши) тарихийгеографик воҳаларидир. Ғузор эса Қашқадарё вилоятининг жануби-шарқий қисмида алоҳида жойлашган воҳа ҳисобланади. Ғузор воҳасида бир неча йиллар давомида археологик тадқиқотлар олиб борган йирик археолог олимлар Хўжа Бузруктепа ёдгорлиги тўғрисидаги ҳар хил илмий фаразлар келтириб ўтган. Бу фаразлар доимо бир-бирини инкор қилиб келади.

Юқорида олиб борилган тадқиқотлар натижаси ва илмий адабиётларнинг мавжуд таҳлили археолог тадқиқотчиларнинг фикрларини тўғри ёки нотўғри эканлигини, уларнинг илмий фаразларига аниқлик киритишга бўлган харакатнинг бир белгиси деб қараш мумкин. Аммо, баъзи масалаларда бир-бирларига нисбатан қарама-қарши қарашлар мавжуд бўлиб, тадқиқотчилар бир-бирини инкор қилишга харакат қилгандай кўринади. Бўлажак тадқиқотларни ўтказишдан мақсад ҳам шу.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОД. Таъкидлаш жоизки, М.Е.Массон томонидан олиб борилган археологик тадқиқотларнинг энг муҳим жиҳатларидан бири албатта Ғузор шаҳрининг XX аср бошларига оид тузилиши тўғрисидаги маълумотлар. М.Е.Массон ғузорлик қарияларидан Ғузор шаҳрининг ички тузилиши, сақланиб қолган мудофаа деворлари, шаҳар маҳаллалари, кўчалар, шаҳар ичидаги меъморий иншоотлар, мадрасалар, саройлар ва бошқа жамоат бинолари, дарвозалар, уларнинг жойлашиши ва номлари тўғрисида анчагина маълумотлар берган [1.39-50].

Археолог Р.Ҳ.Сулаймонов эса Ғузор воҳаси (тумани)да археологик қидирув тадқиқотлари олиб бориб, ўрганилган юздан

ортиқ археологик ёдгорликлар ичида Хўжа Бузруктепа ёдгорлигининг алоҳида аҳамиятга эга эканлигини айтиб, ёдгорликни воҳанинг шимоли-ғарбий қисмида жойлашган, алоҳида хусусиятга эга эканлигини кўрсатиб ўтган [2. 35–36].

Масалан, қадимшунос олим В.В.Бартольд Искифаҳ шаҳри ҳозирги Ғузор шаҳрининг жанубий қисмида жойлашган Эски боғ қишлоғи ўрнида бўлган ва "Искифаҳ" атамаси асрлар давомида ўзгариб бизгача "Эски боғ" атамасида етиб келганлигини, Субах эса Ғузор ўрнида бўлган, деган фикрни билдирган [3.189]. Тарихчи Шарафиддин Али Яздийнинг "Зафарнома" асарида Эрон ва Турон ўртасида бўлиб ўтган узоқ йиллар давомида олиб борилган жангларда мамлакат мудофаа салоҳиятини кучайтириш учун ҳам юқорида кўрсатилган шаҳарлар билан бир қаторда туркларнинг улуғ хони Афросиёб томонидан қадимги Ғузор шаҳрига асос солинганлигини таъкидлаган [4. 8-9].

Қадимшунос С.Б.Лунина эса Хўжа Бузургтепа ёдгорлигини ўрта аср ёзма манбаларида тилга олинган Искифаҳ шаҳрининг бизгача етиб келган харобалари деган фикрни беради [5. 28]. Умуман олганда қилиниши зарур бўлган тадқиқот ишлари кўп муаммоларни очишда ёрдам беради.

МЕТОД. Мавжуд мавзуни ёритиш давомида ёзма манба ва илмий адабиётларнинг бир неча услублари, жумладан юқоридаги маълумотларнинг қиёсий таҳлили, олинган сўнгги археологик изланишлар маълумотлари, уларнинг даврий кетма-кетлиги тартибида ҳамда реал аниқликда фойдаланилди.

МУҲОКАМА. М.Е.Массон кўздан кечирган Хўжа Бузруктепа ёдгорлигининг тархига киритилган рабоднинг асосий қисми ўтган асрнинг 70-йилларида бузиб юборилганлигини таъкидлаган. Шу нуқтаи назардан фикр юритадиган бўлсак, Хўжа Бузруктепа арабларгача бўлган даврда ҳам Хузор (Ғузор) воҳасининг маркази бўлган деб тўлиқ айтишимиз мумкин. Хўжа Бузруктепа ўрта асрларга келиб, шаҳристон ва рабоддан иборат йирик ўрта аср шаҳарига айланган. Бу ўз-ўзидан юқорида тадқиқотлар олиб борган археолог А.А.Раимқулов изланишларида ҳам яққол намоён бўлади [6.33-45]. Масалан, Сабукра яшаган Хузор, Хўжа Бузруктепа ўрнида бўлганлиги ҳақиқатга жуда яқин. Чунки тарихчи Ат-Табарийда Сабукра яшаган қалъа манбаларда "забт этиб бўлмас қалъа" деб таърифланган, Археологлар юқорида таъкидлаган Мардтепа ёдгорлиги эса ўзининг мўъжазгина майдони билан бунга даъвогарлик қила олмайди. Хўжа Бузургтепа эса Ғузор воҳасининг энг йирик ёдгорликларидан бири бўлиб, марказида томонлари 170х170 м га, баландлиги 12 м тенг бўлган улкан қалъа бўлган. Мутахассислар томонидан арк деб ҳисобланган тепалик қалъанинг ташқарисида, ундан 50-60 м масофада жойлашганлиги қайд этилган. Дастлабки ўтказилган археологик тадқиқотлардан маълумки, аксарият ҳолларда арк шаҳарларнинг бир чеккасида, баъзилари эса марказида ҳам жойлашганлиги ҳам қайд этилган. Бу ерда эса тепалик алоҳида, шаҳардан маълум масофада ташқарида жойлашган. Бу ҳолат шаҳар мудофаасининг кучсизланишига олиб келади. Шунинг учун бу тепаликни арк харобалари деб қабул қилиш ноўрин. Қалъа ташқарисидаги бу тепалик улкан ибодатхонанинг харобалари бўлиши ҳам мумкинлиги айтилади, бу эса ҳақиқатга бироз яқинроқ. Шу ўринда биз манбаларда қайд этилган "Искифаҳ" сўзининг этимологияси "ибодатхона" ёки яъни "улкан ибодатхона" маъносини англатишини ёдга олсак, "Искифаҳ", яъни "улкан ибодатхона" деб мана шу тепалик ўрнидаги иншоот айтилган бўлиши ҳам мумкин.

IX-X асрларга келиб эса, қалъа шаҳарга айланган. Бу даврда унинг рабоди шаклланган ва шаҳарнинг умумий майдони 100 гектардан ошиқ бўлган. Айтишларича рабоднинг бир қисми ҳозирда Хўжа Бузруктепа шаҳридан 700 м жанубда жойлашган Ваҳмтепа номли ёдгорлик сифатида сақланиб қолганлиги таъкидланади. Бир вақтлар М.Е.Массон кўздан кечирган ва ёдгорликнинг тархига киритилган рабоднинг асосий қисми ўтган асрнинг 70-йилларида бузиб юборилганлиги айтилади. Шу нуқтаи назардан фикр юритсак Хўжа Бузруктепа арабларгача бўлган даврда ҳам Хузор (Ғузор) воҳасининг маркази бўлган деб айтиш мумкин. Хўжа Бузруктепа ўрта асрларга келиб шаҳристон ва рабоддан иборат йирик ўрта аср шаҳарига айланган. Араб сайёҳлари мана шу шаҳарга ташриф буюрганлар ва у мўғуллар истилосига

TAMADDUN NURI

қадар Ғузор воҳасининг марказий шаҳри сифатида фаолият кўрсатганлигини таъкидлаган. Масалан бу ерда шаҳар арки кўзга ташланмайди. Бу ҳолат Саубахтепа учун ҳам хос эканлигини ҳисобга олиш ўринли ҳисобланади [7.45-46].

Қашқадарё воҳасида узоқ йиллар давомида олиб борилган археологик тадқиқотлар ва ўрта аср ёзма манбалари маълумотларидан маълумки, бу минтақада бир неча ўнлаб қадимий ва ўрта асрлар даври шаҳарлари фаолият кўрсатганлиги аниқланган. Узоқ йиллар давомида олиб борилган тадқиқотларда Жанубий Суғд шаҳарсозлик маданиятининг турли-туман хусусиятлари таҳлил қилинган. Жанубий Суғд ҳудуди қадимданоқ иккита вилоятга – Кеш (Китоб-Шаҳрисабз) ва Нахшаб-Насаф (Қарши) воҳаларига бўлинган. Бу икки воҳанинг турлича табиий-географик хусусиятларга эгалиги қадимданоқ бевосита унинг шаҳарсозлик маданиятига, шаҳарларнинг жойлашув географиясига ҳам таъсир қилган. Кеш (Китоб-Шаҳрисабз, Яккабоғ, Чироқчи) воҳасининг катта қисми Ҳисор ва Зарафшон тоғларига яқин тоғолди ҳамда текислик ҳудудларда, турлича дарёлар йўналишларида жойлашган бўлсалар, Қарши воҳаси шаҳарлари эса атрофи сувсиз беадад чўл ва даштлар билан ўралган, асосан Қашқадарёдан сув ичадиган кафтдек текис воҳада жойлашгандир[8.144].

Жанубий Суғд шаҳарларининг жойлашув харитасига назар ташлайдиган бўлсак, Келиф ёки Керки томондан Жанубий Суғдга кириб келган карвон йўли устидаги биринчи манзил –бу Ўликтепа ўрнидаги шаҳар бўлган. Бу шаҳардан шимолга Самарқандга кетган йўл аввал 9 км масофада жойлашган Субахга борган ва ундан шимолга қараб йўналган, сўнгра Қашқадарё кечувидан ўтиб, унинг ўнг қирғоғига 600 м масофада жойлашган Қулоқлитепа (Нийоза)га етиб борган. Субах ва Қулоқлитепа (Нийоза) орасидаги масофа 22 км ни ташкил этади. Қулоқлитепа (Нийоза)дан чиққан йўл яйдоқ чўл орқали шимолга йўналиб 33 км масофада, Қумдарё соҳилида жойлашган Сариқтепага етиб борган. Сариқтепа биринчи марта А.С.Сагдуллаев томонидан фанга маълум қилинган ёдгорлик [9.27].

Умуман олганда Ғузор воҳасида жойлашган Хўжа Бузруктепа ёдгорлигида археологик қидирув ва қазув тадқиқотларини олиб бориш Я.Ғуломов номидаги Самарқанд археология институти археолог олимларининг доимий эътиборида бўлиб келган. Шу сабабли ҳам ушбу юқоридаги муаммоларга ойдинлик киритиш мақсадида археология институти томонидан молиялаштириш асосида 2023 йилнинг сентябр-октябр ойларида Қашқадарё вилоятининг жанубий-шарқий қисми, Ғузор тумани Боташ МФЙнинг шарқий томонида жойлашган ҳозирда деярли қабристонга айланган Хўжа Бузруктепа ёдгорлигининг шаҳристон қисмидан ташқарида алоҳида жойлашган, кўриниши айлана шаклида бўлган, ўлчамлари 70х70 м, баландлиги 12 м бўлган тепаликда, режа асосида қазув тадқиқотлари олиб борилди [10.24-25].

НАТИЖАЛАР. Кўтарилган муаммонинг археологлар ўртасидаги муҳокамалари ва баҳс-мунозаралари бизда баъзи бир тушунмовчиликларга сабаб бўлди. Лекин Хўжа Бузруктепа ёдгорлигида олиб борилган қазув тадқиқотлари асосида ёдгорликнинг даврий санаси ва ривожланиш босқичларига бир мунча ойдинлик киритиш билан биргаликда, қалъа қачон шаҳар мақомига эга бўлганлиги тўғрисида маълумотлар олиш учун қазув ишлари ўтказилди. Қазув ишлари жараёнида дастлаб ўлчамлари (17х31х5см) бўлган пишган ғиштлар, юзга яқин сирланган ҳамда сирланмаган сопол бўлаклари, шиша колба, металлга тақлид бутун кўза, археологик бутун сопол идиш (кўза), сандал ўчоқ очиб ўрганилди. Қазув ишлари давомида XIX асрнинг охири XX асрнинг бошларига оид 10 га яқин қабрлар ҳам аниқланди. Сўнгги қазув тадқиқотлари давомида шу нарсага гувоҳ бўлдикки, бу очилган қазишма майдонида қайд этилган девор қолдиқлари ҳамда турар жой биноларининг хоналарининг деворлари бўлиши мумкин, деган фикрдан узоқмиз. Лекин қазишманинг ғарбий томонида алоҳида тик қилиб терилган хом ғишт блокларининг жойлашишига қараганда бирор-бир миноранинг ташқи девори бўлиши мумкин деган фикрга ҳам келдик. Аслида ҳам шундай бўлиши мумкин, яна ҳам кейинги олиб бориладиган тадқиқотларда буни яққол кузатиш мумкин [11.28-30].

ХУЛОСА.

- Хўжа Бузруктепа ёдгорлиги Қашқадарё вилояти Ғузор туманининг марказидан 12 км

узоқликда, Халқобод қишлоғининг шимолий ҳудудида жойлашган мажмуа ҳисобланади.

- Юқорида қадимшунос археологлар томонидан қайд этилган кўп фикр ва аниқ бўлмаган мулоҳазаларга ойдинлик киритиш мақсадида Хўжа Бузруктепа ёдгорлигида қазув тадқиқотлари олиб борилди.

- Белгиланган майдонда олиб борилаётган қазишма ишлари давомида чим қатлам олинди, сўнгра қазув ишлари пастга томон давом эттирилди. Қазишмада чуқурлиги 0,60 см га етганда, 10 га яқин қабрлар қайд этилди. Аниқланган қабрлар тахминан XIX аср охири XX аср бошларига оид бўлиб, улар очиб ўрганилди ва аниқланган нам ҳолатдаги суяк қолдиқлари бошқа жойга ўтказиб кўмилди.

- Тадқиқотлар пастга қараб давом эттирилиш натижасида қазув майдонининг ғарбий томонидан ёйсимон кўринишга эга бўлган, хом ғишт блоклардан тик қилиб терилган иншоот аниқланди, иншоот тахминан миноранинг ички томони бўлиши ҳам мумкин деган фикрга келинди.

- Тадқиқотлар давомида қазишма майдонининг шимоли-ғарбий чекка қисмидан девор қолдиқлари, марказига яқин жойда, пишган ғиштдан қурилган сандал ўчоқ аниқланди. Шулар қаторида металлга тақлид қилиб ясалган бутун сопол идиш, шишадан ясалган кичик колба, мис танга, ҳар хил ўлчамдаги пишган, хом ғиштлар ва бошқа археологик ашёлар йиғиб олинди.

- Ўтказилган тадқиқотлар натижасига кўра Хўжа Бузруктепа ёдгорлигининг очиб ўрганилган ҳудудидаги меъморий иншоот (девор, пол, хом ғишт), қолдиқлари ва топилган археологик ашёлар асосида мажмуани тахминан XI-XII асрларга оид бўлиб, айнан шу даврда Хўжа Бузруктепа шаҳар мақомига эга бўлган деган хулосага келинди. [12.31].

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Массон М.Е. Работы Кешской археолого-топографической экспедиции (КАТЭ) по изучении восточной половины Кешской области. УзССР 1966 г. Археология Средней Азии. Сборник научных трудов ТашГУ, №533, Ташкент, 1977.

2. Сулейманов Р.Х. Древний Нахшаб. Ташкент, 2000.

3. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Соченения I. М., 1963.

4. Жўраев А. Ғузор тарихи, Тошкент, 2018.

5. Лунина С.Б. Города Южного Согда, Ташкент, 1984.

6. Раимқулов А.А., Нуриддинов Ҳ.Н., Халилов Ж.И., Тошев А.Я., Эгамбердиев Ф.П., Юсупов И. Қашқадарё вилояти Ғузор туманида 2015 йилда олиб борилган археологик қидирув тадқиқотлари ҳисоботи. -Самарқанд, 2016.

7. Массон М.Е. Столичные города в области низовьев Кашкадарьи с древнейших времен (Из работ Кешской археолого-топографической экспедиции ТашГУ (1965-1966 гг). Ташкент, 1973.

8. Раимқулов А.А. Қашқадарё воҳасининг ўрта аср шаҳарлари. Қарши, 2018.

9. Ртвеладзе Э.В., Сагдуллаев А.С. Памятники минувших веков, Ташкент, 1986.

10. Суюнов С.С. Ғузор туманининг суғорилиш тарихи тўғрисида // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси, Хива, 5/2-2022.

11. Суюнов С.С. Қашқадарё воҳасида ирригация ишлари билан боғлиқ муаммоларнинг ҳал этилиши тўғрисида // ҚарДУ хабарлари, махсус сон, Қарши-2022.

12. Суюнов С.С., Омонов Д., Каримов И. 2023 йилда Қашқадарё вилояти Ғузор тумани Хўжа Бузруктепа ёдгорлигида олиб борилган археологик қазув тадқиқотлари. Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар 2023-йил. Самарқанд, 2024.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK:091.128

O‘ZBEKISTON TEMIR YO‘LLARI KASABA UYUSHMASI FAOLIYATIGA NAZAR

Daripov Shahobiddin Isroiljonovich, O‘rta Osiyo tibbiyot universiteti

REVIEW OF THE ACTIVITIES OF THE RAILWAY WORKERS’ UNION OF UZBEKISTAN

Daripov Shahobiddin Israiljonovich,Central Asian Medical University

ОБЗОР ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРОФСОЮЗА ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНИКОВ УЗБЕКИСТАНА

Дарипов Шахобиддин Исраилжонович, Среднеазиатский медицинский университет

https://orcid.org/0009-0003-2813-7623

e-mail: ulugyulduz@89gmail.com

Annotatsiya: Yangi O‘zbekistonni jamiyatimiz hayotidagi siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy munosabatlarni butunlay o‘zgartirgan, yangi demokratik qiyofaga ega davlat sifatida ko‘rish uchun ham barcha soha tarmoqlari qatori temir yo‘l tizmini ham rivojlantirish zamon talabidir. Bu sohani yanada rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar yaratilmoqda. Ushbu maqolada “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ tarmoq kasaba uyushmasi hamda ularning faoliyati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Kasaba uyushma, transport quruvchilari, O‘rta Osiyo temir yo‘li, temir yo‘l uzellar, kasbiy bayram, temir yo‘l transporti faxriylari, temir yo‘l transporti xodimlari kuni, sanatoriya, pansionat, sanatoriy-profilaktik, biologik shifoxona.

Abstract: In order to see the new Uzbekistan as a country with a new democratic image, which has completely changed the political, social and economic relations in the life of our society, it is the need of the hour to develop the railway system as well as all the branches of industry. All opportunities are being created for further development of this field. This article talks about the branch trade union “Uzbekistan Railways” JSC and their activities.

Key words: trade union, transport builders, Central Asian railway, railway hubs, professional holiday, railway transport veterans, railway transport employees’ day, sanatorium, boarding house, sanatorium-prophylactic, biological hospital.

Аннотация: Чтобы увидеть Новый Узбекистан как государство, полностью изменившее политические, социальные и экономические отношения в жизни нашего общества, необходимо развивать железнодорожную систему, а также все отрасли промышленности. Создаются все возможности для дальнейшего развития этой сферы. В данной статье рассказывается об отраслевом профсоюзе АО «Узбекские железные дороги» и их деятельности.

Ключевые слова: профсоюз, транспортники, Среднеазиатская железная дорога, железнодорожные узлы, профессиональный праздник, ветераны железнодорожного транспорта, день работников железнодорожного транспорта, санаторий, пансионат, санаторий-профилакторий, биологическая больница.

KIRISH. Temiryo‘lchilar kuni kalendar sana bo‘lib, ushbu kunda temiryo‘lchilarning kasbiy xizmatlari va butun tarmoqning xalq xo‘jaligidagi yutuqlari sarhisob sifatida nishonlanadi. Birinchi bor ushbu bayram 1896-yilning 25-iyun kuni nishonlangan va 1917-yilgacha muntazam ravishda o‘tkazib kelingan, ammo u 1936-yilgacha to‘xtatib qo‘yildi. Sovet Markaziy ijroiya qo‘mitasining 1936-yil 28-iyundagi qaroriga binoan kasbiy bayram avgust oyining birinchi yakshanba kunida nishonlanishi tasdiqlandi.

Tarmoq kasaba uyushmasi Markaziy qo‘mitasining tarqatib yuborilishi sababli 1992-yilning 27-yanvar oyida kasaba uyushmaning 12-konferensiyasi o‘tkazilib, unda Tarmoq kasaba uyushmasi tarkibidan chiqish va O‘rta Osiyo temiryo‘lchilar va transport quruvchilarining mustaqil kasaba uyushmasini tashkil etish to‘g‘risida ta’sis konferensiyasini o‘tkazish bo‘yicha qaror qabul qilindi. Kasaba uyushmasining ta’sis konferensiyasi 1992-yil 26-mart kuni o‘tkazildi. Ta’sis konferensiyasi Tarmoq kasaba uyushmasi tarkibidan chiqish va O‘rta Osiyo temiryo‘lchilar va transport quruvchilari kasaba uyushmasi nomini “O‘rta Osiyo temiryo‘lchilar va transport quruvchilarining mustaqil kasaba uyushmasi” deb o‘zgartirish va kasaba uyushma Ustavini va harakat dasturini tasdiqlash bo‘yicha qaror qabul qildi[2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil noyabrdagi Farmoniga muvofiq, O‘rta Osiyo temir yo‘lining O‘zbekiston Respublikasi uchastkalari bazasida “O‘zbekiston temir yo‘llari” davlat aksiyadorlik temir yo‘l kompaniyasi tashkil etildi[3].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 5-noyabrdagi 378-sonli Farmoniga binoan amaldagi temir yo‘l bo‘limlari bazasida mintaqaviy temir yo‘l uzellari tashkil etildi. Kompaniya korxonalarida o‘tkazilgan tuzilmaviy o‘zgarishlar tufayli kasaba uyushma tashkilotlarida ham ma’lum tuzilmaviy o‘zgarishlarni amalga oshirishga to‘g‘ri keldi. 1994-yilning 27-dekabr kuni Toshkent shahrida O‘rta Osiyo temiryo‘lchilar va transport quruvchilari mustaqil kasaba uyushmasining 14-hisobot-saylov konferensiyasi o‘tkazildi. Konferensiya O‘rta Osiyo temiryo‘lchilar va transport quruvchilarining mustaqil kasaba uyushmasi nomini “O‘zbekiston temiryo‘lchilar va transport quruvchilari kasaba uyushmasi” deb o‘zgartirish hamda amaldagi Ustavga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha qaror qabul qildi. Ushbu konferensiyada O‘zbekiston temiryo‘lchilar va transport quruvchilari kasaba uyushmasini O‘zbekiston kasaba uyushmalari kengashi tarkibiga kirishi bo‘yicha ham qaror qabul qilindi[5].

MUHOKAMA. 2005-yilning 17-mart kuni O‘zbekiston temiryo‘lchilar va transport quruvchilari kasaba uyushmasining 3-qurultoyi o‘tkazildi. Kasaba uyushmaning oliy organi bo‘lgan “Markaziy qo‘mita” nomi “Markaziy Kengash” deb o‘zgartirildi[4].

2014-yil 20-yanvar kuni O‘zbekiston temiryo‘lchilar va transport quruvchilari kasaba uyushmasining 5-qurultoyi o‘tkazildi. Qurultoy kun tartibiga kiritilgan masalalar muhokama qilinib, ular bo‘yicha tegishli qarorlar qabul qilindi. Kasaba uyushma oliy organi bo‘lgan “Markaziy Kengash” nomi “Respublika Kengashi” deb o‘zgartirildi. Ushbu qurultoyda kasaba uyushmaning amaldagi Ustaviga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Kasaba uyushmaning Ustavi qabul qilingandan so‘ng doimiy ravishda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan o‘tkazib turildi. Kasaba uyushma boshlang‘ich tashkilotlarining mavqeini oshirishda o‘tkazilayotgan “Eng namunali boshlang‘ich tashkilot” ko‘rik-tanlovi katta ahamiyatga ega bo‘lmoqda. 2011-yildan o‘tkazilib kelinayotgan ushbu tanlovda tarmoq kasaba uyushmasining boshlang‘ich tashkilotlari barcha bosqichlarda faol ishtirok etdilar va 2011-yilning yakuniy bosqichida “Quyuv mexanika zavodi” sho‘ba korxonasi, 2013-yilda “O‘ztemiryo‘lmashta’mir” unitar korxonasi, 2015-yilda “Toshkent temir yo‘l muhandislari instituti” va “Toshkent qon quyish stansiyasi” kasaba uyushmalarining boshlang‘ch tashkilotlari sovrinli o‘rinlarni egallashga erishdilar. G‘oliblar Federatsiya Kengashining diplomlari va qimmatbaho sovg‘alari bilan taqdirlandilar[1].

Amaldagi tarmoq kelishuviga kiritilgan imtiyoz tufayli soha korxonalarida uzoq yillar davomida mehnat qilib, tarmoqning rivoji va ravnaqi uchun o‘zlarining salmoqli hissalarini qo‘shgan mehnat faxriylari uch yilda bir marta soha

TAMADDUN NURI

tasarrufidagi sog‘lomlashtirish maskanlarida bepul sog‘liklarini tiklashga muyassar bo‘lmoqdalar[6].

O‘tgan 81 yil davomida barcha temiryo‘lchilar kabi, O‘zbekiston temiryo‘lchilari ham o‘zlarining kasbiy bayramlarini mehnatdagi yutuqlari, xalq xo‘jaligi yuklarini va yo‘lovchilarni tashish bo‘yicha olgan majburiyatlarini bajarish bo‘yicha hamda temir yo‘l transportining rivoji uchun qilinayotgan bunyodkorlik ishlari to‘g‘risida hisobot berishi bilan bir qatorda, Toshkent shahri va yirik temir yo‘l uzellarida madaniy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazib kelindi. Ushbu tantanalarga nafaqat temiryo‘lchilar, balki temir yo‘l transporti faxriylari, mehmonlar, hokimliklar va xalq xo‘jaligining turli soha vakillari taklif qilib kelinmoqda. Shuningdek, temiryo‘lchilar kasbiy bayrami O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi, O‘zbekiston Axborot Agentligi va boshqa ommaviy axborot vositalari tomonidan keng yoritib kelinmoqda[7].

NATIJALAR. 2017-yil O‘zbekiston temiryo‘lchilari uchun unutilmas voqealarga boy bo‘ldi. Temiryo‘llarda yuk va yo‘lovchilarning sonini oshirish, temir yo‘l infratuzilmasini rivojlantirish borasida so‘nggi yillarda erishilgan yutuqlarni hisobga olib hamda soha mutaxassislarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida, shuningdek, sohada mehnat qilayotgan keng jamaotchilikning takliflarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-avgustidagi Farmoniga muvofiq 2017-yildan boshlab avgust oyining birinchi yakshanbasi “O‘zbekiston temir yo‘l transporti xodimlari kuni” deb e’lon qilindi[8].

Soha xodimlarini, ularning oila a’zolarini sog‘omlashtirish, ular orasida turli madaniy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish, ilg‘orlarni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish, soha xodimlari va yoshlarni sport bilan shug‘ullanishga keng jalb etish ishlari ham amalga oshirib kelinmoqda[9].

Temir yo‘l rahbariyatining sa’y-harakatlari tufayli “Chimyon” (1974-yil), “Nazarbek” (1986-yil) sanatoriyalari, “Xo‘jakent” (1989-yil) pansionati, “Sihatgoh” (1988-yil) va “Qo‘ng‘irot” (2004-yil) sanatoriy-profilaktik hamda “Omonxona” (2009-yil) biologik shifoxonasi bunyod etilib foydalanishga topshirildi va yillar o‘tishi barobarida ularda zamon talablariga mos ravishda shart-sharoitlar, qo‘layliklar yaratildi[1].

Ta’kidlash joizki, har yili sohaning 1600 nafarga yaqin xodimlari sog‘omlashtirish maskanlarida o‘z sog‘liklarini tiklayotgan bo‘lsalar, shularning 370 nafarga yaqini mehnat faxriylaridan iboratdir[3].

Tarmoq uzellarida joylashgan 5 ta bolalar oromgohlari bir yo‘la 2010 nafar bolalarni qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘lib, yil sayin ularda 7000 nafarga yaqin soha xodimlarining farzandlari hordiq chiqarmoqdalar.

XULOSA. Xulosa sifatida shuni qayd etish lozimki, temiryo‘l tarmog‘ida tibbiy xizmat, madaniyat va sport obyektlarini barpo etish va ularning moddiy-texnik bazalarini rivojlantirish orqali zamon talablariga javob beradigan sharoitlarning yaratilishi tufayli temiryo‘lchilar va ularning oila a’zolarini sog‘omlashtirish va sog‘iqlarini mustahkamlash ishlari sifatli darajada va muvaffaqiyatli olib borilmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. A.Z.Tog‘ayeva. Temiryo‘l tarixidan. Moziydan sado. – Toshkent: 2009.
2. G.Asanov, M.Nabixonov, I.Safarov. O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jug‘rofiyasi. – Toshkent: 1995.
3. K.E.Xidiraliyev. O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. – Guliston: 2015.
4. Temiryo‘lchi gazetasi. 2013-yil 2-avgust maxsus soni.
5. O‘zbekiston temir yo‘llari maxsus jurnali. – Toshkent: 2003.
6. O‘zbekiston temiryo‘lchilari va transport quruvchilari kasaba uyushmasi maxsus jurnali. – Toshkent: 2009.
7. O‘zbekiston temiryo‘lchilari va transport quruvchilari kasaba uyushmasi maxsus jurnali. – Toshkent: 2015.
8. O‘zbekiston temiryo‘lchilari va transport quruvchilari kasaba uyushmasi maxsus jurnali. – Toshkent: 2013.
9. O‘zbekiston temiryo‘lchilari va transport quruvchilari kasaba uyushmasi maxsus jurnali. – Toshkent: 2019.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 801.85:96

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA TEZ AYTISHLARNING STILISTIK XUSUSIYATLARI

Mamataliyeva Navbahor, Termiz davlat universiteti katta o‘qituvchisi, (PhD)

STYLISTIC CHARACTERISTICS OF FAST SPEECH IN ENGLISH AND UZBEKI

Mamataliyeva Navbahor, senior lecturer of Termiz State University, (PhD)

СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СКОРОГОВОРОК В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Маматалиева Навбахор, старший преподаватель Термезского государственного университета, (PhD)

https://orcid.org/0009-0003-0470-7863
e-mail: mamadaliyeva.n@bk.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi tez aytishlarning stilistik xususiyatlari chuqurroq tahlil qilinadi. Tez aytishlar ikki tilda ham xalq og‘zaki ijodining qiziqarli qismi bo‘lib, ularning fonetik o‘ziga xosliklari va stilistik jihatlari batafsil o‘rganiladi. Shuningdek, ularning tovush uyg‘unligi, ritm va intonatsiya kabi usullardan qanday foydalanilishi ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: tez aytishlar, stilistika, fonetika, ritm, intonatsiya, tovush uyg‘unligi, til texnikasi.

Abstract: This article delves into the stylistic features of tongue twisters in English and Uzbek languages. Tongue twisters are an intriguing part of folk oral tradition in both languages, and their phonetic peculiarities and stylistic aspects are analyzed in detail. Additionally, the article explores how techniques such as sound harmony, rhythm, and intonation are employed in these tongue twisters.

Key words: tongue twisters, stylistics, phonetics, rhythm, intonation, sound harmony, language technique.

Аннотация: В этой статье рассматриваются стилистические особенности скороговорок в английском и узбекском языках. Скороговорки являются интригующей частью устной народной традиции в обоих языках, и их фонетические особенности и стилистические аспекты подробно анализируются. Кроме того, в статье рассматривается, как в этих скороговорках используются такие приемы, как гармония звука, ритм и интонация.

Ключевые слова: скороговорки, стилистика, фонетика, ритм, интонация, гармония звука, языковая техника.

KIRISH. Tez aytishlar tilning fonetik imkoniyatlarini sinovdan o‘tkazuvchi maxsus janr hisoblanadi. Ular talaffuzni aniq va tezlashtirishga yordam beradi va til o‘rganuvchilar uchun samarali mashqdir. Ingliz va o‘zbek tillaridagi tez aytishlar bir-biridan farq qilgan holda, stilistik jihatlari ham o‘xshash bo‘lib, ularni tahlil qilish til rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Stilistika – bu tilshunoslikning bir bo‘limi bo‘lib, til birliklarining qanday uslubiy imkoniyatlarga ega ekanligini, ularning ma’no jihatidan qanday ishlatilishini va ifoda vositalarini o‘rganadi. Stilistika matnning emotsional, ekspressiv va maqsadli xususiyatlarini o‘rganadi. Bu til birliklarining qo‘llanishida uslubiy rang-baranglikni ta’minlaydi, jumladan, adabiy asarlarda, nutq uslublarida, yozma va og‘zaki muloqotda. Stilistikada so‘zlar tanlovi, frazeologizmlar, grammatik shakllar va nutq uslublari alohida o‘rin egallaydi. Tez aytishlar (tongue twisters) stilistikada alohida o‘rin egallaydi, chunki ular tilning fonetik imkoniyatlarini tekshirish va nutq qobiliyatini rivojlantirish uchun ishlatiladi. Stilistika nuqtayi nazaridan, tez aytishlar bir necha vazifani bajaradi:

Fonetik tajriba: Tez aytishlar tovushlarning takrorlanishi va qiyin talaffuz qilinadigan kombinatsiyalar orqali nutqni yaxshilaydi. Bunda tovush o‘yinlari va fonetik qiyinchiliklar stilistik rang-baranglikni yaratadi.

Ekspressivlik: Tez aytishlar ko‘pincha o‘zining qiziqarli va kulgili ohangi bilan nutqni emotsional jihatdan boyitadi. Ular nutqni yanada jonlantiradi va e’tiborni tortadi, bu esa stilistik jihatdan maqsadga muvofiq bo‘lishi mumkin.

Uslubiy maxsuslik: Tez aytishlar, odatda, bolalar adabiyotida, xalq og‘zaki ijodida va o‘yinlarda keng qo‘llaniladi. Ular uslubiy jihatdan oddiy, ammo talaffuz nuqtayi nazaridan murakkab bo‘lishi mumkin.

Nutq malakasini oshirish: Stilistika tez aytishlarni nutq texnikasi va talaffuzni yaxshilashda foydalanadi, bu esa muloqot uslubining aniq va to‘g‘ri shakllanishiga yordam beradi[2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Ingliz va o‘zbek tillarida tez aytishlarning stilistik xususiyatlari bir qator tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, M.Shermatova tomonidan uhbu mavzuga doir “O‘zbek xalq og‘zaki ijodida tez aytishlar: stilistik va fonetik jihatlar” nomli tadqiqot e’lon qilingan bo‘lsa, Steven Pinker, Victoria Fromkin, Peter Ladefoged kabi xorijiy tadqiqotchilar esa ingliz tilidagi xalq og‘zaki ijodi, xususan tez aytishlar masalasiga alohida ahamiyat qaratganlar[3].

MUHOKAMA. Fonetikada tez aytishlarning o‘rni muhim ahamiyatga ega, chunki ular tovushlarni talaffuz qilish, til va lablar moslashuvchanligini oshirish, shuningdek, nutqning ravonligini ta’minlash uchun foydalaniladi. Tez aytishlar fonetik analiz uchun bir nechta jihatdan foydalidir:

Artikulyatsiyani rivojlantirish: tez aytishlar artikulyatsiya organlarini, ya’ni til, lab, og‘iz bo‘shlig‘i va ovoz paychalarini yanada moslashuvchan qilishga yordam beradi. Murakkab tovush kombinatsiyalarini tez va to‘g‘ri talaffuz qilish talab qilinganligi sababli, ular nutqning sifatini oshiradi.

Talaffuzni aniqlash: tez aytishlar qiyin tovushlarni talaffuz qilishdagi qiyinchiliklarni aniqlashga yordam beradi. Masalan, bir xil yoki bir-biriga yaqin tovushlar (masalan, “s” va “sh”, “r” va “l”) qiyinchilik tug‘diradigan so‘zlar kombinatsiyasi talaffuzdagi muammolarni payqash va ularni yaxshilash imkonini beradi[4].

Tovush differensiatsiyasi: fonetik tadqiqotlarda tez aytishlar tovushlarni ajratib ko‘rsatish uchun qo‘llaniladi. Bu usul yordamida til o‘rganuvchilar yoki logopedlar tovushlar orasidagi farqlarni aniqlash va talaffuzda xatolarni tuzatishadi.

Nutq ravonligini oshirish: tez aytishlar og‘zaki nutqning tezligini oshirish va shu bilan birga aniq talaffuz qilish uchun mashq hisoblanadi. Bu, ayniqsa, aktyorlar, spikerlar va boshqa nutq mahoratini rivojlantirishga muhtoj bo‘lgan soha vakillari uchun foydalidir[5].

Fonetik tajribalar: fonetikada tovushlar o‘rtasidagi aloqalarni va ularning talaffuzdagi murakkabligini o‘rganishda tez aytishlardan foydalangan holda tajribalar o‘tkaziladi. Bu tajribalar turli tildagi tovush birliklarining talaffuz qiyinliklarini o‘rganish imkonini beradi. Umuman olganda, tez aytishlar fonetika sohasida talaffuzni yaxshilash va nutq apparatini rivojlantirish uchun foydali vosita hisoblanadi. Ritmda tez aytishlarning o‘rni juda muhimdir, chunki ular nafaqat talaffuz va fonetik jihatdan murakkab, balki ritmik ohangga ega bo‘lib, bu nutqning ravonligini ta’minlaydi. Ritm nutqdagi ohang va tovushlarning tartibini belgilaydi va tez aytishlar ushbu ritmik elementlarni o‘zida mujassam etadi[6].

NATIJALAR. Stilistik nuqtayi nazardan, ingliz va o‘zbek tillaridagi tez aytishlar o‘ziga xos tovush uyg‘unligi va ritm bilan ajralib turadi. Bu jihatlar tilning fonetik va ritmik xususiyatlariga asoslanadi.

1. Birinchi navbatda tovush uyg‘unligi:

Ingliz tilida tez aytishlar ko‘pincha alliteratsiya, ya’ni bir xil yoki o‘xshash tovushlarning takrorlanishiga asoslanadi. Masalan, “Peter Piper picked a peck of pickled peppers” kabi tez aytishlarda “p” tovushi bir necha marta takrorlanib, talaffuzdagi qiyinchiliklarni oshiradi. Bu usul stilistik jihatdan tovush uyg‘unligini ta’minlaydi va og‘zaki talaffuzni rivojlantirishga yordam beradi. O‘zbek tilida esa alliteratsiya ko‘pincha “k”, “ch”, “sh” tovushlari orqali amalga oshiriladi. Masalan: “Chiqindi chiqargan chigitchi chiqindisini chiqarmay chiqib ketdi”. Bu misolda “ch” tovushining takrorlanishi tilning yumshoqligini va talaffuzdagi tezlikni oshiradi[3].

2. Ritm va intonatsiya: ingliz va o‘zbek tillaridagi tez aytishlarning yana bir muhim stilistik jihati — ularning ritm va intonatsiya orqali hosil qilinishidir. Ingliz tilidagi tez aytishlar, masalan, “How can a clam cram in a clean cream can?” so‘zlarning ritmik uyg‘unligi orqali talaffuzni qiyinlashtiradi. Har bir so‘zning bir xil ritmdagi talaffuzi notekis intonatsiya va tezlikni talab qiladi, bu esa nutqning ravonligini sinaydi. O‘zbek tilida esa ritm va intonatsiya ko‘proq ohangdorlikka asoslanadi. Masalan, “Ko‘k rangli ko‘ylak kiygan kishi ko‘chaning ko‘k ko‘chasidan ko‘rindi”. Bu yerda “ko‘k” so‘zining takrorlanishi orqali o‘ziga xos melodik intonatsiya hosil bo‘ladi va stilistik jihatdan ritmning musiqiyligi ta’kidlanadi[6].

3. So‘z o‘yini va metaforalar: stilistik jihatdan, tez aytishlar ko‘pincha so‘z o‘yinlari va metaforalardan ham foydalanadi. Ingliz tilidagi “I scream, you scream, we all scream for ice cream” misolida tovush uyg‘unligi va ritmdan tashqari, so‘z o‘yini ham bor. “I scream” va “ice cream” tovush jihatdan o‘xshash, lekin ma’no jihatdan farqlidir, bu stilistik o‘ziga xoslikni oshiradi. O‘zbek tilidagi tez aytishlarda ham so‘z o‘yinlari ko‘p uchraydi, masalan: “Tilla tog‘da toqqa tilla taxt qilindi”, bu yerda “tilla” va “taxt” so‘zlari bir xil tovush uyg‘unligi

TAMADDUN NURI

bilan ritmik ravishda birlashadi va stilistik jihatdan ohangli tus beradi[8].

4. Til o‘rganishda roli. Tez aytishlarning stilistik tahlili til o‘rganish jarayonida katta ahamiyatga ega. Ingliz tilida talaffuzdagi qiyinchiliklarni yengishda va nutqni tezlashtirishda tez aytishlardan keng foydalaniladi. Xuddi shunday, o‘zbek tilida ham tez aytishlar og‘zaki nutqni rivojlantirish va tilning fonetik imkoniyatlarini yaxshilash uchun samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Tez aytishlar xalq og‘zaki ijodining yorqin namunasi bo‘lib, tilning stilistik va fonetik imkoniyatlarini namoyon etadi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi tez aytishlarning stilistik tahlili shuni ko‘rsatadiki, har ikki til o‘ziga xos tovush tizimi va ritmik xususiyatlarga ega. Ingliz tilida tez aytishlar ko‘proq alliteratsiya va tovush takrorlanishiga asoslanib, talaffuzdagi qiyinchiliklarni oshiradi. O‘zbek tilida esa milliy o‘ziga xoslik, ohangdorlik va tovush uyg‘unligi yaqqol seziladi. Har ikki tilning tez aytishlarida ritm va intonatsiya muhim o‘rin tutadi. Bu esa talaffuzni nafaqat osonlashtiradi, balki ularni stilistik jihatdan yanada jozibali qiladi. Ingliz tilida tez aytishlar so‘z o‘yinlari orqali stilistik o‘ziga xoslikni oshirsa, o‘zbek tez aytishlari esa, xalqona uslub va mazmun boyligi bilan ajralib turadi. Tez aytishlar nafaqat tilni o‘rgatishda foydali vosita sifatida xizmat qiladi, balki o‘ziga xos ijodiy uslubni shakllantiradi. Ular til o‘rganish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi, talaffuzni yaxshilaydi va nutqning ravonligini oshiradi. Stilistik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tez aytishlar nafaqat o‘yin yoki mashq vositasi, balki tilning madaniy boyligini ham ochib beradi[5].

XULOSA. Umuman olganda, tez aytishlar har ikkala tilning ham lingvistik va madaniy jihatlarini chuqur o‘rganishda qimmatli manba bo‘lib xizmat qiladi. Ularning stilistik xususiyatlarini o‘rganish til o‘rganuvchilarga nafaqat fonetika va talaffuzni yaxshilashga yordam beradi, balki tilga nisbatan chuqurroq tushuncha hosil qilishga ham xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

6. Balakayev M. O‘zbek tilining fonetikasi va stilistikasi. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2000.
7. Crystal David. A Dictionary of Linguistics and Phonetics. Wiley-Blackwell. 2008.
8. Fromkin Victoria., Rodman Robert., Hyams Nina. An Introduction to Language. Cengage Learning. 2019.
9. Ladefoged Peter. Vowels and Consonants: An Introduction to the Sounds of Languages. Blackwell. 2001.
10. Pinker Steven. The Language Instinct: How the Mind Creates Language. Harper Collins. 2019.
11. Shermatova M. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida tez aytishlar: stilistik va fonetik jihatlar. – Termiz: 2019.
12. Thornbury Scott. How to Teach Speaking. Pearson Longman. 2006.
13. Xudoyberdiyev I. O‘zbek xalq tilida tez aytishlar va ularning stilistik jihatlari. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti. 2018.
14. Курбанбаева, М. (2024). Использование русских народных сказок в процессе изучения языка и формирования гуманизма у детей. Tamaddun nuri jurnali, 5(56), 520-522.
15. Курбанбаева, М. (2023). Пословицы и поговорки со схожим значением в русском и узбекском языках и общность народной мудрости. Tamaddun nuri jurnali, 4(43), 15-18.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 821.51

I.YUSUPOV POEZIYASIDA QUSHLAR OBRAZINING BADIIY FUNKSIYASI

Arziev Sharapatdin Abdiraxmanovich, mustaqil tadqiqotchi
Nukus davlat pedagogika instituti

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ФУНКЦИЯ ОБРАЗА ПТИЦ В ПОЭЗИИ И.ЮСУПОВА

Арзыев Шарапатдин Абдирахманович, самостоятельный исследователь
Нукусский государственный педагогический институт

THE ARTISTIC FUNCTION OF THE IMAGE OF BIRDS IN I.YUSUPOV'S POETRY

Arziev Sharapatdin Abdiraxmanovich - independent researcher
Nukus State Pedagogical Institute

E-mail: sharapatarziev@gmail.com
https://orcid.org/0009-0008-4124-6580

Annotatsiya: Badiiy adabiyotda, ayniqsa she'riyatda qushlar va jonivorlar obrazi asarning g'oyasini yoritib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqolada taniqli shoir I.Yusupovning poetik asarlarida qushlar obrazining lirik subyektga ta'siri masalasi o'rganib chiqilgan. Shuningdek, qushlar obrazining ko'plab badiiy obrazlar qatori badiiy asarlarda talqin etilishi, obraz yaratishda ijodkorlarning o'ziga xos mahorati haqida so'z yuritiladi.

Tayanch so'zlar: adabiyot, poeziya, qushlar obrazi, lirik subyekt, shoir.

Аннотация: В художественной литературе, особенно в поэзии, важную роль в объяснении идеи произведения играет образ птиц и животных.

В данной статье рассматривается влияние образа птиц на лирическую тему в поэтическом творчестве известного поэта И. Юсупова. Также обсуждается трактовка образа птиц в произведениях искусства, наряду со многими художественными образами, и уникальное мастерство создателей в создании образов.

Ключевые слова: литература, поэзия, образы птиц, лирический субъект, поэт .

Abstract: In fiction, especially in poetry, the image of birds and animals plays an important role in explaining the idea of a work.

This article examines the influence of the image of birds on the lyrical theme in the poetic work of the famous poet I. Yusupov. The interpretation of the image of birds in works of art, along with many artistic images, and the unique skill of the creators in creating images is also discussed.

Key words: literature, poetry, images of birds, lyrical subject, poet

TAMADDUN NURI

Kirish. Lirika - insonning ichki dunyosini badiiy so‘z san’atida ochib berish zaruriyatidan tug‘ilgan adabiy tur ekanligi ma’lum. U paydo bo‘lgan davrdan boshlab bu atama ichki his-tuyg‘ularni ifodalovchi badiiy asarlarning nomi sifatida ishlatiladi.

Qoraqalpoq adabiyotshunosligida bu atama XX asrda qo‘llanila boshlandi. Lirika tashqi dunyoni yoritish talablari, tartiblari bo‘yicha epos va dramadan ajralib turadi. Lirika janriy talablari bo‘yicha tashqi dunyoni yoritish usullari, uslublari bo‘yicha epika va dramadan mutlaqo farq qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Agarda nasr va dramada voqealarni bayon qilish hamda qahramonlarning xatti-harakatlarini shu voqealarga, sharoitlarga bog‘lab ko‘rsatish asosiy o‘rinda tursa, lirikada voqealar bayon qilinmaydi. “Lirika tashqi muhit ta’siridan hosil bo‘lgan quvonch, erkalash, qayg‘u-hasrat, ko‘tarinkilik va h.k. his-tuyg‘ularni, ichki kechinmalarni, ruhiy holatlarni, fikr-mulohazalarni emotsional jo‘shqin (talqinlangan) so‘zlar orqali beradi. Lirik asarlarda asosan shoirning o‘z ichki kechinmalari beriladi, shuning uchun ko‘p hollarda shoirni lirik qahramon sifatida qabul qiladi, ya’ni shoir bilan lirik qahramonni qo‘shib tushunadi. Lekin lirikada berilgan tuyg‘ularni faqat shoirning shaxsiy hayotidan olingan deb talqin qilib bo‘lmaydi. Shoir o‘zidan tashqarining ham ichki ruhiy holatlariga kira olish qobiliyatiga ham lirik “men” orqali ko‘p odamlarning ichki his-tuyg‘ularini, dardlarini bera oladi” [1.114]. Mana, lirikaning asosiy xususiyatlari shundan iborat.

Shoir o‘zidan boshqalarning ham ichki ruhiy holatlariga kira olish qobiliyatiga va lirik “men” orqali ko‘p kishilarning ichki his-tuyg‘ularini, dardlarini bera olishi, lirikaning asosiy sifatlari shundan iborat.

Adabiyotshunoslik ilmida aksariyat hollarda lirik qahramon deganda “muallif so‘zi” tushuniladi. Olimlar bu holatni turlicha talqin qiladilar. Masalan, mashhur olim Izzat Sulton bu haqda shunday yozadi: “Lirikaning mazmuni ikki tomondan aniq tarzda avtobiografik xarakterga ega. Birinchidan, lirik asarga shoirning o‘z boshidan kechirgan biror voqea uning xayoliga kelgan biror alohida muhim fikr yoki uning shaxsan o‘zini larzaga solgan bir tuyg‘u mazmun berishi mumkin. Ikkinchidan, shoir o‘zi boshdan kechirmagan bir voqeani yoki shaxsan o‘zi his etmagan bir tuyg‘uni tasvirlaganida ham, u voqea va tuyg‘ularni o‘zi ko‘rgan, bilgan tuyg‘udek tuyg‘uga berilmasa, o‘sha holatga o‘zini qo‘ya olmasa, uning tuyg‘usi haqiqiy bo‘la olmaydi, o‘quvchiga ta’sir qilmaydi” [2.253].

Пушкин”[2.73]”. Конечно, речь здесь не о Средней Азии. Однако отчеты по всем регионам были примерно одинаковыми. Первая мысль Снесарева меня заинтересовала. Конечно, проблема времени, кажется, повлияла на молодежь, и это верно, учитывая, что Коран и арабская письменность являются основным средством распространения ислама, и молодежи было запрещено изучать их в течение многих лет. Однако после 1991 года, то есть после признания независимости всех республик (в течение 10 лет), 50% простого населения стали религиозными и благочестивыми. Исключаются только те, кто находился под сильным давлением прежней политической системы (это люди в госструктурах, 55% из 100% находятся в состоянии амбивалентности, а 45% тверды в атеизме).

События, упомянутые Снесаревым в его втором мнении, в точности повторились в конце прошлого века. После религиозной свободы в стране были открыты все мечети, изъяты книги в сундуках и могилах, количество гадатели, знахари, прорицатели, экстрасенсы и прочие представители народной медицины, которая, казалось бы, была полностью ликвидирована как грибы после дождя. Точнее, они начали свою общественную деятельность. Крупнейшие исторические памятники стали местами общественного паломничества. Самые известные исторические памятники Узбекистана – мавзолей Султана Увайса, комплекс Пахлавон Махмуда, святынья Юсуфа Хамадони. «Пережитки», которие долгие годы боролись этнографы, стала массово проводиться простыми людьми. Потому что народ не стер эти обряды из своей памяти и сердца, а сохранил их больше. В результате невозможности управлять этими массовыми ритуалами правительство Узбекистана и религиозные власти по согласованию запретили проведение ритуалов в известных святынях с 2005 по 2020 годы.

РЕЗУЛЬТАТЫ. Сегодня в Узбекистане разрешено лечение на основе традиционной народной медицины, и у них есть свои организации. Подобным образом работает и суфийская медицина. Различные методы матралечения и демонолечения используются так же, как и сто лет назад. Больные едут за исцелением в места паломничества открыто и тайно. В прошлом веке многие наши этнографы и медики объясняли причины существования лечения «тайными знаниями» народной медицины – с медицинской безграмотностью населения, экономической беспомощностью и большим количеством «пережиток» и незавершенностью развития исламской религии.

Но, сегодня почти все население грамотное, условия жизни населения в десятки раз лучше прогнозируемого учеными периода, и даже в советское время медицинские услуги пользовались бесплатно. Коран, главный источник ислама, печатается миллионными тиражами и занимает книжные полки. К тому же интернет-сети дошли до самых отдаленных мест и через них можно подобрать любую информацию.Однако население по-прежнему прибегает к тем же старым методам. Кстати, «тайные знания» народной медицины пропагандируются параллельно с пропагандой ислама в интернете.

Как этнограф, мы проводили анкетирование и интервью в Хорезмской области (в больницах, среди людей, практикующих «тайные знания» народной медицины, а также среди простых людей). Жители боятся и даже отказываются заполнять официальные анкеты. Однако метод интервью позволяет полностью раскрыть эту тему. В ходе интервью также встречаются самые богатые люди, доктора наук и различных профессий, и они говорят, что используют «тайные знания» народной медицины в лечении и оздоровлении. Интересно, что ставка лекарей очень высока. Например, один курс лечений из 4 целебных травок стоит 1.300 долларов. В разговоре с целителями они говорят о том, что эта профессия дана им во сне, как было рассказано сто лет назад.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ. Итак, я хотела бы сказать, что эти лечебные методы и ритуалы, которые этнографы считали «устаревшими» или «фальшивыми» и уже «забытыми», «пережитками» или «реликтами» почти доведены до совершенства, они приспосабливаются ко времени. Они даже приспособили правила ислама к своим действиям. Результаты наших исследований еще полностью не проанализированы. Я знаю, что полные результаты поставят перед этнографами новые вопросы об этнопсихологии народа.

TAMADDUN NURI

В заключение хотелось бы сказать, что это серьезный вопрос, связанный с этнопсихологией, этноисторией, религиозным мировоззрением и семейными отношениями людей и развитием общества, который этнологи Узбекистана воздерживаются тронуть.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Akiner. Islam in Post-Soviet Central Asia: Contested Territory. In: Andrea Strasser, Sigfried Haas, Gerhard Mangott, Valeria Heuberger (Hrsg.), Zentralasien und Islam – Central Asia and Islam.Hamburg: Deutsches Orient-Institut. S. 73-102. 2002: 74).
2. Алымов С.С. Г.П.Снесарев и полевое изучение религиозно-бытовых пережитков// Этнографическое обозрение № 6, 2013.73-бет.
3.Абашин С.Н. Социальные взаимоотношения в современном узбекском кишлаке: по материалам Ферганской долины / автореферат дис. ... кандидата исторических наук : 07.00.07. — М.: Ин-т этнологии и антропологии, 1997. — 24 с.
4. Дуглас М. Чистота и опасность: анализ представлений об осквернении и табу. М.: Канон-Пресс-Ц; Кучково поле, 2000. 286 с.
5. Douglas M. Natural Symbols: Explorations in Cosmology. London: Barrie & Rockliff; The Cresset Press, 1970.
6.Krisztina Kehl-Bodrogi. Religiöse Heilung und Heiler in Choresm, Usbekistan//Max Planck institute for social anthropology working papers. №7. Halle / Saale 2005 ISSN 1615-4568. 1-31.
7. Мазалова Н.Е. Народно-медицинское «тайное знание»: семантика, статус, функции (конец XIX — начало XXI вв) тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 07.00.07, доктор наук . 2019. Автореферат.
8. Никонова Л.И. Этномедицина финно-угорских и тюркских народов Поволжья и Приуралья в системе их жизнеобеспечения: Историко-этнографическое исследование. 2024. Автореферат.
9. Огудин В.Л. Народная медицина Средней Азии и Казахстана . ИД Ганга, 2021.
10. Пашкова Т. В. Народная медицина карелов XIX – начала XXI века: опыт комплексного исследования. Автореферат. 2018.
11. Поповкина Г.С. Знахарство восточных славян юга Дальнего Востока России. Автореферат. 2016.
12. Снесарев.Отчет о командировке в Касимовский район. Л.29.
13. Стратегия ВОЗ в области народной медицины. 2014-2023. Всемирная организация здравоохранения, 2013г.стр.25-29. Юридический статус народной медицины и комплементарной / альтернативной медицины: обзор положения в мире. Женева, ВОЗ, 2001 (код документа: WHO/ EDM/TRM/2001.2). [F]*, [S]*.
14. Tazmini. The Islamic revival in Central Asia: a potent force or a misconception? In: Central Asian Survey 20 (1). S. 63-83. 2001: 65).
15. Foster G. M. The Anatomy of Envy: A Study in Symbolic Behavior. Current Anthropology. 1972. Vol. 13, Is. 2, Apr. P. 165-202.
16. Эванс-Причард Э.Э. Колдовство, оракулы и магия у азанде // Магический кристалл: Магия глазами ученых и чародеев. М.: Республика, 1994. 527 с.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 950 (575.1)

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI TARIXSHUNOSLIGI TAHLILI (2010-2023)

Aminjonova Maxbuba Axmedovna, Nizomiy nomidagi TDPU "Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi" kafedrasi magistranti

ANALYSIS OF AMIR TIMUR AND THE HISTORIOGRAPHY OF THE TIMURI PERIOD (2010-2023)

Aminjonova Makhbuba Akhmedovna, graduate student of the "Methodology of teaching social and humanitarian sciences" department of Nizamiy TDPU

АНАЛИЗ ПЕРИОДА ПРАВЛЕНИЯ АМИРА ТИМУРА И ИСТОРИОГРАФИИ ЭПОХИ ТИМУРИДОВ (2010-2023)

Аминжонова Махбуба Ахмедовна, магистрант кафедры «Методика преподавания социальных и гуманитарных наук» ТГПУ имени Низами

https://orcid.org/0009-0001-0076-9747

e-mail: mahbubaaminzonova@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada yurtimiz tarixida katta davrni qamrab olgan, ilm-fan, tasviriy san'at va madaniyat rivojiga katta hissa qo'shgan Amir Temur va Temuriylar davri tarixiga oid tarixshunoslik masalalari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *temuriylar, tarix, tadqiqot, davr, ilm-fan, sana'at, madaniyat, manba, asar, renessans, sarkarda.*

Abstract: *The article analyzes the historiographical issues related to the history of Amir Temur and the Timurid era, which covered a large period in the history of our country and made a great contribution to the development of science, fine arts and culture.*

Keys words: *the Temurids, histori, research, period, science, art, culture, sourse, work, renaissance, warlord.*

Аннотация: *В статье анализируются историографические вопросы, связанные с историей Амира Тимура и эпохи Тимуридов, охватившей большой период в истории нашей страны и внесшей большой вклад в развитие науки, изобразительного искусства и культуры.*

Ключевые слова: *тимуриды, история, исследования, период, наука, исскуство, култура, источник, труд, ренессанс, военачальник.*

TAMADDUN NURI

KIRISH. Insoniyat tarixidagi katta va buyuk davlatlardan biri Temuriylar imperiyasi asoschisi Amir Temur nafaqat harbiy sarkarda, balki bunyodkor, adolatli shaxs sifatida ham tarixda chuqur iz qoldirgan.

Amir Temurning qanday shaxs va davlat arbobi bo‘lganligi, hamda uning ijtimoiy-siyosiy qarashlari, saltanat taraqqiyoti yo‘lida amalga oshirgan islohotlari borasida ko‘plab uning zamondoshlari ham, keyingi davr olimlari va siyosatchilari ham o‘z fikrlarini bayon etganlar. Ayniqsa, Istiqlolimizning dastlabki yillari va shu bilan birga bugungi kunda ham, Amir Temur shaxsi va davriga oid ko‘plab manbalar tarjimasi amalga oshirildi va oshirib kelinmoqda. Shu jumladan tarixiy-ilmiy, badiiy adabiyotlar yaratildiki, bu ularni tarixshunoslik nuqtayi nazaridan tizimlashtirish, ilmiy tahlil etish, yutuq va kamchiliklarini aniqlash imkoniyatini berdi. Bu tadbirlar samarasi o‘laroq, Amir Temur hayoti va faoliyatiga oid yangi tadqiqotlar, manbalar ilmiy muomalaga kiritildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 28-dekabrda Parlamentga yo‘llagan Murojaatnomasida “Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarimizning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratishimiz kerak”, deb ta’kidlagan edilar. Bu bejizga aytilmadi, albatta.

Istiqlolning dastlabki yillarida barcha sohalar singari tarixshunoslik sohasida ham ajdodlarimiz tarixini o‘rganish va ularga to‘g‘ri baho berish, shu asosda milliy qadriyatlarimizni tiklash uchun keng yo‘l ochildi va O‘zbekiston olimlarining samarali tadqiqotlari natijasida tarixchiligimizning ilgari noma’lum bo‘lgan sahifalari ochildi, bir qator muhim manbalar nashr etildi. Natijada tarix fanida chuqur tadqiqotlar uchun imkoniyatlar vujudga keldi. Amir Temur va temuriylar davri tarixiga bag‘ishlangan ko‘plab qimmatli manbalarlar va tarixiy asarlar yaratilgan. Bu asarlarning barchasi o‘sha davr nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda muhim va qimmatli ma’lumotlarni berishi bilan ajralib turadi. Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma’’, Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”, Amir Temurning “Temur Tuzuklari” va shu kabi yana bir qancha birlamchi manbalar bugungi kun tadqiqotlarini yoritishda ulkan ma’lumotlar manbai bo‘lib xizmat qilib kelmoqda.

Bugun xalqimiz Prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligida “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” bosh g‘oyasiga tayanib, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish yo‘lida birlashgan ekan, Vatanimiz tarixidagi ikkinchi uyg‘onish davri bunyodkori Amir Temur shaxsini va siyosatini har tomonlama chuqurroq o‘rganish yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunonchi bugungi kunda Amir Temur siymosi milliy davlatchiligimiz timsoliga aylanib, xalqimizga ma’naviy kuch bag‘ishlab kelmoqda.

MUHOKAMA. Bugungi kunda Amir Temur hayoti va faoliyatiga doir ko‘plab ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar, risolalarning yaratilishida, buyuk Sohibqiron shaxsiga xolis va to‘g‘ri baho berib nashr etilishida yaratib berilgan shart-sharoitlarning o‘rni beqiyos, albatta. Sobiq Sovet davri tarixshunosligida Amir Temur shaxsiga bir yoqlama, tor doirada salbiy munosabat bildirilsa-da, shunga qaramay, bu davrda Amir Temur davriga oid ko‘plab ilmiy tadqiqotlar, manbalar tarjimalari amalga oshirildi. Bu esa o‘z navbatida Amir Temur va uning davlati tarixiga oid ilmiy tadqiqotlar saviyasining oshishiga olib keldi.

Amir Temur hayoti va faoliyati har bir davrda dunyo olimlarining diqqat markazida bo‘lib keldi. XX asr jahon sharqshunosligida ham mustaqil ilmiy yo‘nalish “Temurshunoslik” shakllandi va ular orasida R.Grosse, L.Keren, E.Rose, X.Xukxem, B.Mans, G.Golombek, A.Derg, K.Enoki, E.Manu, M.Rossati va boshqalsrning asarlarini qayd etish o‘rinli.

Barchamizga ma’lumki, Amir Temurning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlab olimlar tomonidan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar, risolalar, maqolalar yaratilgan. Shubhasiz ushbu tadqiqotlardagi voqealar asosan Amir Temur va Temuriylar davriga zamondosh mualliflar tomonidan yaratilgan asarlarga tayanib yozilgan. Ushbu maqolada asosan 2010-2022-yillar mobaynida amalga oshirilgan Amir Temur va Temuriylar davri tarixshunosligiga nazar tashladik.

X.Fayziyevning 2011-yilda yozilgan “Temuriylar saltanatida Shohrux Mirzoning o‘rni va uning tashqi siyosati” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida XV asrning birinchi yarmida Temuriylar saltanatidagi siyosiy vaziyat va unda Shohrux Mirzoning tutgan o‘rni, uning davlat

yaxlitligi va xavfsizligi uchun olib borgan oqilona siyosati, Temuriylar davlatining, xususan Shohrux Mirzoning Xitoy, Hindiston, Misr va Rum sultonlari bilan olib borgan diplomatik aloqalari yoritilgan. Dissertatsiya ishida Shohrux Mirzoning hayoti, uning hukmronlik yillarida Temuriylar saltanatida amalga oshirilgan ichki va tashqi siyosat tarixini yoritib berish maqsad qilib olingan. Mazkur tadqiqot Amir Temur va Temuriylar davri tarixini aks ettiruvchi yirik manbalar asosida yoritilgan.

Abdullayev Ulug‘bek Artikbayevichning “Amir Temurning Yaqin Sharqdagi siyosati” mavzusidagi dissertatsiyasida Amir Temurning Yaqin Sharq mamlakatlari bilan siyosiy aloqalari, diplomatik va elchilik munosabatlarini yoritish, harbiy harakatlar mohiyatini ochib berish, Sohibqiron olib borgan siyosatning Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq, YYevropa xalqlari tarixidagi roli va ahamiyatini tadqiq etadi. Dissertatsiya ishida Amir Temurning Yaqin Sharq mamlakatlariga nisbatan olib borgan siyosati va diplomatik aloqalari bilan birgalikda uning Yaqin Sharqqa qilgan uch yillik, besh yillik, va yetti yillik yurishlarining natijalari manbalar asosida yoritib berilgan. Amir Temurning Yaqin Sharqda o‘rnatgan boshqaruv tizimi va bunyodkorlik faoliyatiga bugungi kun nuqtayi nazaridan baho berilib, Sohibqironga qarshi tuzilgan “Mudofaa ittifoqi” va uning parchalanish sabablari ham tahlil qilingan. Bundan tashqari nomzodlik dissertatsiyasida Amir Temurning Yaqin Sharqdagi vaziyat bilan bog‘liq tarzda YYevropa davlatlari bilan diplomatik aloqalari, uning Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq xalqlari tarixida tutgan o‘rni va roli borasida ham so‘z yuritilgan. Dissertatsiya 2013-yilda yozilgan bo‘lib, unda Amir Temurning Yaqin Sharqdagi siyosati, hamda diplomatik aloqalarining mohiyati va natijalari ilk bor yangi O‘zbekiston tarixini yaratish tamoyillari asosida o‘rganilgan.

O.Dadaboyevning filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun 2019-yilda tayyorlagan “G‘arb va Sharq adabiy kontekstida Amir Temur shaxsi talqini” mavzusidagi dissertatsiyasida G‘arb va Sharq adabiyotida afsonaviy va tarixiy Temur obrazi, XVII-XVIII asrlar ingliz adbiyotida Amir Temur obrazi, zamonaviy o‘zbek adabiyotida Amir Temur obrazi tasviridagi yangilanishlar, XX-XXI asrlar G‘arb va Sharq ilmiy-ommabop asarlarida Amir Temur shaxsiga munosabat, Amir Temur timsolining yaratilishida tarixiy manbalar haqida so‘z yiritilgan. Shu bilan birga XVI-XX asrlardagi G‘arb va Sharq adabiyotida Amir Temur haqida yaratilgan nasriy asarlarda Amir Temur obrazining tarixiy haqiqatga qanchalik mosligi, mazkur obrazni yaratishda xalq og‘zaki ijodining va tarixiy manbalarning ta’siri, mazkur asarning g‘oyaviy va badiiy talqini masalari yoritilgan.

A.Buriyevning 2019-yilda “Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo tarixiy geografiyasi” nomli dissertatsiyasi Markaziy Osiyo tarixiy geografiyasini Temuriylar hukmronligi davri misolida o‘rganishga bag‘ishlangan. Amir Temur asos solgan saltanatning qudrati faqatgina siyosiy-harbiy yutuqlar bilangina emas, balki mintaqada yer-suv zahiralaridan oqilona foydalanish, irrigatsiya, qishloq xo‘jaligi, shaharsozlik va xalqaro logistikada qo‘llanilgan innovatsion g‘oyalar muhim rol o‘ynaganini asoslab berishga qaratilganligi tanlangan mavzuning dolzarbligi bilan belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, hamda 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori shuningdek, ushbu sohaga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda, shuningdek, mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

R.Tursunovaning 2020-yilda yozilgan “G‘arbiy Yevropa operalarida Amir Temur obrazi” nomli san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasida ham asosan Amir Temur shaxsiga e’tibor qaratilib, Sohibqiron badiiy, tarixiy va ilmiy asarlar markazida ekanligi, sahnaviy asarlarda sharq qahramoni sifatida yoritilgan. Bunday dissertatsiyalarda, musiqa ijodiyotida Amir Temur obraziga bag‘ishlab yaratilgan asarlarni o‘rganib, tadqiq etish nafaqat musiqashunoslik masalalarini yechishga, balki keng miqyosda Sharq va G‘arb kesimida o‘zga ilm sohalari uchun muhim bo‘lgan ko‘plab muammolarni oydinlashtirishga ham bevosita hizmat qiladi. Tursunovaning dissertatsiyasi matnida mavzuga oid turli soha tadqiqorlari ham jalb qilingan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning ma’ruzalari, shuningdek, tadqiqotning tayanchli metodologik manbalari dissertatsiyaning muammoli

qirralarini ochib berish talablariga javob beruvchi umumiy manbalar bo‘lgan.

XULOSA. Bugungi kunda Amir Temur hayoti va faoliyatiga doir ko‘plab ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar, risolalarning buyuk sohibqiron shaxsiga xolislik va to‘g‘ri baho berib nashr etilishida Istiqlolimizning o‘rni beqiyos albatta. Shuni o‘rinda aytib o‘tish joizki Amir Temur davrini o‘rganishga oid nashrlar kun sayin ortib bormoqda, bugungi kunda Jahon hamjamiyati Temuriylar davrini ilm-fan, madaniyat, san’at va adabiyot taraqqiyotiga, dunyo sivilizatsiyasi rivojiga hissa qo‘shgan davr, yurtdoshlarimizni esa ikki marotaba Renessansga asos solgan el sifatida e’tirof etadi.

Dunyoga yuz tutgan, jahon tarixida o‘ziga xos o‘rin egallagan Amir Temur va temuriylar davri tarixi nafaqat o‘lkamiz, balki Jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotida umume’tirof etgan davr sifatida hali yanada ko‘plab tadqiqotlarni taqozo etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi (2018-yil 28-dekabr) “Xalq so‘zi”, 2018-yil 29-dekabr.
2. Sh. Mirziyoyev. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. T. 2020 y.
3. Matlai-sa’dayn va majmai bahrayn. Jild II.1-qism / fors-tojik tilidan tarjima, kirish so‘z va izohli lug‘atlar O‘rinboyevniki.-Toshkent, 1969.-463 b.
4. U.A.Abdullayev “Amir Temurning yaqin sharqdagi siyosati”. UDK:957.51“14-15”. A-13.15 b.
5. O.Dadaboyev. G‘arb va Sharq adabiy kontekstida Amir Temur shaxsi talqini.
6. Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo tarixiy geografiyasi. Amonulla Buriyev. Diss.2019 y B.6.
7. R.Tursunova. G‘arbiy Yevropa operalarida Amir Temur obrazi. Diss.2021/162.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 101.9

НОВАТОРСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОГО ДВИЖЕНИЯ ДЖАДИДИЗМА

Ли Екатерина Владимировна, доцент кафедры «Общественные науки» Ташкентского государственного педагогического университета имени Низами, кандидат философских наук

https://orcid.org/0000-0003-3142-3287
e-mail: li300176@yandex.ru

JADIDLIK MA'RIFIY HARAKATI FAOLIYATINING INNOVATSION AHAMIYATI

Li Yekaterina Vladimirovna, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

THE INNOVATIVE SIGNIFICANCE OF THE ACTIVITIES OF THE EDUCATIONAL MOVEMENT OF JADIDISM

Ekaterina Vladimirovna Li, Associate Professor of the Department of Social Sciences, Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Candidate of Philosophy

***Аннотация**: Статья посвящена деятельности просветительского движения джадидизма, является новаторской, инновационной как идея, так и ее реализация, претворение в жизнь. Идея о просвещенном мудром правителе не нова для Центральной Азии, за эту идею ратовали многие мыслители, философы-энциклопедисты. Создание новометодных школ, обучающих грамоте, основам науки, издание газет и журналов, организация кружков, обучающих женщин рукоделью является прогрессивной для этой эпохи.*

***Ключевые слова**: джадидизм, джадиды, просветительство, инновации, новаторство, прогресс, образование, реформы, новометодная школа, газеты, журналы.*

***Annotatsiya:** Maqola jadidchilik ma'rifiy harakati faoliyatiga bag'ishlangan bo'lib, u ham g'oya, ham uning hayotga tatbiq etilishi yangicha bo'ladi. Ma'rifatli dono hukmdor g'oyasi Markaziy Osiyo uchun yangilik emas, ko'plab mutafakkirlar va qomusiy faylasuflar bu g'oyani ilgari surdilar. Savod va fan asoslarini o'rgatuvchi yangi uslubdagi maktablar tashkil etish, gazeta va jurnallar chiqarish, ayollar hunarmandchiligini o'rgatuvchi to'garaklar tashkil etish bu davr uchun ilg'ordir.*

***Kalit so'zlar:** jadidchilik, jadidlar, ma'rifat, yangilik, taraqqiyot, maorif, islohotlar, yangi usul maktabi, gazeta, jurnal.*

***Abstract**: The article is devoted to the activities of the educational movement of Jadidism, it is an innovative, innovative idea, as well as its implementation, implementation. The idea of an enlightened wise ruler is not new to Central Asia, and many thinkers and encyclopedic philosophers have advocated this idea. The creation of newfangled schools teaching literacy, the basics of science, the publication of newspapers and magazines, the organization of circles teaching women needlework is progressive for this era.*

***Key words:** jadidism, jadids, enlightenment, innovation, innovation, progress, education, reforms, newfangled school, newspapers, magazines.*

ВВЕДЕНИЕ. Представителей просветительского движения джадидизма с позиции современной науки можно назвать новаторами своей эпохи. Данное движение возникло в конце XIX и начале XX веков. Большинством исследователей основателем движения джадидизма признают крымского татарина Исмаила Гаспринского. Джадиды, некоторые получившие образование в европейских учебных заведениях, были поклонниками европейского светского образования, верили, что просвещение является верным путем к прогрессивному государству и повышению качества жизни народа. Одной из главных причин общественно-экономического застоя Туркестана видели, в том числе, и в подавляющем большинстве неграмотных, необразованных людей.

АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ. Общеметодологический круг вопросов исследования получил достаточно глубокую разработку в мировой философско-методологической и научно-теоретической литературе, посвященной анализу просветительского движения джадидизма в исследованиях: Равшанова М., Юзеевой А., Ураковой О.Д., Пулатова К.А., Джураевой Н.Д., Чубукчиева Л.З.

МЕТОДОЛОГИЯ. Для достижения научной цели и решения поставленных задач были использованы такие методы, как диалектический, синергетический, аналитический, исторический.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ. В Туркестанском крае, в частности, на территории нынешнего Узбекистана движение джадидов проводило активную просветительскую и благотворительную деятельность. В Узбекистане принято выделять следующие периоды: ранний и поздний. Ранний период просветительства представляют Ахмад Дониш, Саттархан Абдулгафаров, Фуркат, Бердах критиковали феодальный строй и пропагандировали просвещение. Мукими, Завки, Хамза, Анбар Атын выступали против монархической власти в пользу идеи просвещенного и мудрого правителя.

Более поздний период джадидизма уже ратовал за прогрессивные формы развития, реформы в общественном и экономическом устройстве Туркестанского общества. Этим периодом просветительства связаны: И.Ибрат, М.Кори, А.Авлони, С.Айни, Ф.Ходжаев, Т.Норбутаев, М.Дарсодат, Т.Ризобалди и др[1]. Сущность деятельности джадидов раннего периода является просветительской, а позднего – политической.

Движение джадидизма принято считать реформистским, сущность реформ в новаторстве, инновациях. Идеи просвещения, мудрого государя, идеального государства не нова для Центральной Азии. Стоит упомянуть философские взгляды Фараби, Бируни, Ибн Сины др. Тем не менее, если и идеи джадидов не могут претендовать на исключительную новизну, их деятельность имела инновационный характер. Они были не только сторонниками просвещения, но и внесли бесценный вклад в просвещение народа. Деятельность джадидов носила определенную направленность на развитие к прогрессу родины, прогресс означает новаторство, является прорывом к новому. «В первые 30 лет развития джадидизма удалось достигнуть больших успехов: открытие школ, применяющих новые методики, создание национальных театров, распространение прогрессивных идей, формирование ответственной бизнес-элиты»[2]. Одним из важных отличий джадидов от мыслителей энциклопедистов, в их практической деятельности, т.е. претворение просветительских идей в реальность, что безусловно является новаторской деятельностью.

Введение новометодных школ, в основе которого, помимо, обучения грамоте, были науки необходимые для нового общественно-экономического строя – индустриального, является инновацией. «На рубеже XIX-XX вв. объективной необходимостью стало внедрение в обучение достижений современных наук и соответствующих знаний новой индустриальной эпохи»[3]. Туркестанский край находился на стадии феодализма, а европейские государства вступали в новую – индустриальную эпоху. Новаторскими являются как сама идея, так и внедрение, претворение ее в жизнь. Неоспоримым новшеством для Туркестанского края была журналистика и пресса с множеством

журналов и газет, выпускаемых джадидами. Посредством периодических изданий джадиды высказывали свою идеологическую позицию, знакомили со своими взглядами на общественно-политическую жизнь общества и способствовали развитию национального искусства, литературы. «Таржимон» («Переводчик»), «Вақт» («Время»), «Шуро» («Совет»), «Мулло Насреддин», «Тариққий» («Прогресс»), «Ойна» («Зеркало»), в которых пропагандировались идеи свободы равенства, дружбы народов, просвещения.

Джадиды впервые вели политическую борьбу, опираясь, но не копируя опыт европейских и восточных народов: «для достижения демократических реформ они использовали с определенными изменениям только то, что было приемлемо в условиях региона»[4]. В основании политической борьбы джадидов лежит идея прогресса, были сторонниками модернизации Туркестанского общества и его интеграцию в мировое сообщество. «Джадиды выступали за права человека и равноправие всех людей, независимо от их пола, национальности и религии»[5]. Данная позиция отражает прогрессивность взглядов представителей джадидизма.

Джадиды ратовали за равноправие мужчин и женщин, за активное вовлечение женщин в общественную жизнь, получения ими светского образования. «Джадиды выступали против угнетения женщин, выступали в их защиту и признавали в них личность»[6]. В данной статье автор пишет о женщине-просветителе Нозимахоним, дочери муллы, тем удивительнее читать следующие строки. «Она была первой поэтессой-демократом, первой узбекской женщиной-журналисткой. Нозимахоним сначала обучалась в старой школе, а затем получила образование в русской школе, открытой для местных женщин и девушек»[6].

Помощником и единомышленником была жена И.Гаспринского З.Акчурина-Гаспринская: «З.Гаспринская нередко выполняла работу корректора в газете «Тержиман»[7]. Так же она открыла бесплатную школу рукоделия для мусульманок. Одежда ставшая для жителей Мавераннахра традиционной с появлением ислама, за снятие которой боролись джадиды, стала символом раскрепощения женщин Востока. Джадиды отстаивали необходимость получения образования девочками, для них открывались школы, в которых они не только получали образование, но и учились рукоделию. В 1893 году в Бахчисарае была открыта первая новометодная школа для девочек, директором и учителем которой стала родная сестра И.Гаспринского П.Болатукова. «Нередко женские школы открывали сами женщины. Они являлись меценатами, руководителями и преподавателями подобных мектебов» [7], например, Ф.Дербердеева, К.Чуракова.

ВЫВОДЫ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ. Просветительская деятельность джадидов, т.е. ее реализация, практическое претворение в жизнь идеи просветительства является безусловным новаторством. Организация новометодных школ и кружков, издание газет и журналов, формирование нового мировоззрения о равноправии национальности, полов и религии являются инновациями для Туркестана и его народа. Перенять опыт просветительства джадидов, их устремление к прогрессу и бескорыстное служение народу.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. См.: Основы философии. Учебник для высших учебных заведений. – Т.: Mehnat, 140-149 с.
2. Равшанов М. История джадидизмов в Узбекистане // Вопросы науки и образования. 2024. № 1 (176). - С. 28.
3. Юзеев А. Идеология джадидизма: история и современность - С. 127 // https://cyberleninka.ru/article/n/ideologiya-dzhadidizma-istoriya-i-sovremennost?ysclid=lz7y8yxr2649671183
4. Уракова О.Д. Джадидизм национально-прогрессивное движение // Мировая наука. 2018. № 4 (13). – С. 251-252.
5. Пулатов К.А. Философский анализ движения джадидизма в Туркестане и ее роль в истории Узбекистана// Научный импульс. 2024. № 17 (100)- С. 848.
6. Джураева Н.Д. Отношение к женщине в воззрениях джадидов Туркестана // https://academicjournal.ru/images/PDF/2017/Academy-10-25/otnoshenie-k-zhenshchine.pdf
7. Чубукчиева Л.З. «Женский мир» Шефики и Исмаила Гаспринских // https://cyberleninka.ru/article/n/zhenskiy-mir-shefiki-i-ismaila-gasprinskih

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 372.1(575.1)

O‘ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMINING KELIB CHIQISH TARIXI

Nabiyev Elyor Baxtiyorovich, Urganch davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti dekani, (PhD)

HISTORY OF THE ORIGIN OF SCHOOL EDUCATION SYSTEM IN UZBEKISTAN

Nabiuev Eluor Bakhtiuorovich, Dean of the Faculty of Editing, Urganch State Institute of Editing, (PhD)

ИСТОРИЯ ПРОИСХОЖДЕНИЯ СИСТЕМЫ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Набиев Элёр Бахтиёрович, декан педагогического факультета Ургенчского государственного педагогического института, (PhD)

https://orcid.org/0009-0003-4049-6645
e-mail: el.lon.el@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonda maktabgacha ta’limning kelib chiqishi, ta’lim tizimi, ilk bolalar bog‘chasining paydo bo‘lishi, kimlar bu yo‘lda hissa qo‘shganliklari, maktabgacha ta’lim sohasining rivojlanishini keng targ‘ib qilish haqida so‘z boradi. Xususan maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’limning boshlang‘ich bo‘g‘inidir.
Kalit so‘zlar: Fridrix Frebel, ta’lim, maktabgacha ta’lim, uzluksiz ta’lim, rivojlanish, individ, dunyoqarash.
Abstract: This article discusses the origin of preschool education in Uzbekistan, the educational system, the emergence of the first kindergarten, who contributed to this, and the wide promotion of the development of preschool education. Will go In particular, preschool education is the initial link of continuous education.
Key words: Friedrich Froebel, education, preschool education, continuous education, development, individual, worldview.
Аннотация: В этой статье рассказывается о происхождении дошкольного образования в Узбекистане, системе образования, появлении первого детского сада, о том, кто внес свой вклад в развитие дошкольного образования. В частности о том, что дошкольное образование является начальной частью непрерывного образования.
Ключевые слова: Фридрих Фребель, образование, дошкольное образование, непрерывное образование, развитие, индивид, мировоззрение.

KIRISH. O‘zbekistonda jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, har kimga ta’lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi. O‘zbekistonda maktabda o‘qish majburiy hisoblanadi. Ta’lim tizimi yagona va uzluksiz bo‘lib, ta’lim turlariga ko‘ra quyidagilardan iborat:

- maktabgacha ta’lim va tarbiya;
- umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim;
- professional ta’lim;
- oliy ta’lim;
- oliy ta’limdan keyingi ta’lim;
- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- maktabdan tashqari ta’lim.

Maktabgacha ta’lim va tarbiya bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan ta’lim turidir. Shu boisdan

har bir maktabgacha ta'lim tashkilotida ishlashni xohlagan bo'lg'usi tarbiyachi-pedagoglar maktabgacha ta'lim tizimining tarixini bilishi zarur.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrda Shvetsariya, Angliya va boshqa Yevropa mamlakatlarida nemis pedagogi Fridrix Frebelning maktabgacha tarbiya nazariyasi keng ommalashdi. U ilk bor "bolalar bog'chasi" tushunchasini muomalaga kiritdi. Fridrix Frebelning (1782-1852) pedagogik tizimi. Bolalar bog'chasining paydo bo'lish tarixi 1837-yilga borib taqaladi, bolalar bog'chasining asoschisi deb taniqli nemis pedagogi Fridrix Frebel hisoblanadi. Aynan u Germaniyaning Bad-Blankenberq shahrida bolalar uchun tashkil qilingan muassasasini "bolalar bog'chasi" deb atadi va ushbu atama butun dunyoda umumiy tarzda qabul qilindi[2]. O'zbekistonda esa XIX asrning 80-90-yillariga kelib Markaziy Osiyoda bolalar maktabgacha ijtimoiy tarbiyasi g'oyalari yetildi. 1872-yilda ziyoli qatlam vakillari tomonidan Turkistonda tuzilgan "Jamiyati xayriya" tashkiloti tomonidan miskinlar uylari, tunash joylari, tug'ruq joylari bilan bir qatorda ota-onasi bo'lmagan bolalar uchun yetimxonalar tashkil etildi. Bu yetimxonalar oz sonli bolalarni, butun Turkistonda taxminan 150-200 kishini o'z ichiga oladi. Ushbu yetimxonalar yasli yoshidagi bolalardan tortib, maktab yoshidagi bolalarni ham qamrab olgan. 1896-yilda Turkistonda vasiylar kengashi kambag'allarning bolalari uchun "yasli"lar deb ataladigan muassasalarni tuza boshladi. Yaslilarga atak-chechak qila boshlagan bolalar qabul qilingan va maktabga ketgunga qadar tarbiyalangan. Bolalar kun bo'yi yaslida bo'lishar va uch marta ovqatlantirilar edi. Yasli ishlarini nazoratchi ayol boshqargan, xizmat qiluvchi xodimlar ham bo'lgan. Bu muassasada bolalarni duolar o'qishga (duogo'ylikka), oddiy o'qishga, yozishga, sanashga, to'qishga, to'r to'qishga, tikishga va boshqa hunarlarga o'rgatilgan. Butun o'lka bo'ylab shunday yaslilardagi bolalar soni 50-60 boladan oshmas edi. Turkistonda kambag'allarning bolalalari uchun Toshkent, Samarqand, Sirdaryo, Namangan shaharlarida yetimxonalar tashkil etilgan. Keyinchalik Toshkent istirohat bog'i maydonida maktabgacha yoshdagi bolalar uchun "Bolalar maydonchasi" turidagi ilk bolalar bog'chalari ochila boshlandi.

1903-yilga kelib Toshkentda "Oilaviy ta'lim-tarbiyaviy to'garagi" tashkil qilindi. To'garak Harbiy ministrlik va Xalq maorifi tomonidan tasdiqlangan va Ustav asosida ish boshlagan. U o'z oldiga quyidagi vazifalarni belgilab qo'ygan:

1. Bolalarga ta'lim-tarbiya berish usullarini rivojlantirish va takomillashtirishda yordam berish;
2. Pedagoglar va ota-onalarni va bolalar tarbiyasi ishini boshqaradigan kishilarni (oila, maktab va bolalar bog'chasining yagona tarbiyaviy ta'sir etishini belgilash maqsadida) bir-birlariga yaqinlashtirishni maqsad qilib qo'yadi. Ta'lim-tarbiya to'garagiga bolalar birinchi marta 4 yoshdan 6 yoshgacha qabul qilingan va 6-10 yoshgacha bo'lgan ikki xil yosh guruhlariga bo'linib mashg'ulotlar olib borilgan. 1903-1914-yillar davri maktabgacha tarbiya sohasidagi ta'lim-tarbiya g'oyalarining jadal sur'atda o'sishi bilan xarakterlanadi. 1909-1910-yillarda va keyinchalik xususiy bog'chalar paydo bo'ldi. Bunday bog'chalarda ma'lumotga ega bo'lgan va chet tillarini biladigan o'qimishli xonimlar tarbiyachi bo'lib ishlar edi. Ammo bu bog'chalar faqat badavlat oilalarning ehtiyojini qondirgan xolos. Davlat tomonidan ijtimoiy bolalar bog'chalari 1917-yildan yalpi tarzda tashkil qilina boshlandi.

Davlat tomonidan ijtimoiy bolalar bog'chalari faqat 1917-yildan keyingina yalpi tarzda tashkil etildi. 1917-yil 20-noyabrda Xalq komissarligi tomonidan "Maktabgacha tarbiya yuzasidan Deklaratsiya" e'lon qilindi. Bunda: "Bolalarni ijtimoiy tekin tarbiyalash bolaning birinchi tug'ilgan kunidan boshlanadi" deyilgan edi. Maktabgacha tarbiya butun xalq maorifi tizimining birinchi bo'g'ini va tarkibiy qismi bo'lib qoldi. 1919-yilda qabul qilingan Davlat dasturlarida xalq maorifi sohasida: Ijtimoiy tarbiyani yaxshilash va xotin-qizlarni ozod qilish maqsadida maktabgacha tarbiya muassasalarini vujudga keltirish haqida fikr yuritildi[3]. Turkistonda dastlabki davlat bog'chalari 1918-yilning ikkinchi yarmida tashkil qilina boshlandi. 1918-yil 20-oktyabrda Turkiston Maorifi Xalq Komissarligi qoshida Respublika maktabgacha tarbiya sohasida barcha tadbirlarni amalga oshirish uchun ma'muriy organ sifatida maktabgacha tarbiya bo'limi tashkil qilindi. Xuddi shu yilda viloyat xalq maorifi bo'limlarining qoshida maktabgacha tarbiya kichik bo'limlari tashkil qilingan. Bu tadbir Respublikada maktabgacha tarbiyaning rivojlanishiga yordam berdi. Maktabgacha tarbiya bo'limlarining faoliyati uch asosiy yo'nalishdan:

TAMADDUN NURI

1. Bolalar bog‘chalarini ochish, ularni binolar, mebel va jihozlar bilan ta’minlash;

2. Maktabgacha tarbiya xodimlari, shu jumladan mahalliy, milliy vakillardan kadrlar tayyorlash;

3. Ota-onalar o‘rtasida tashviqot-tushuntirish ishlarini olib borishdan iborat edi.

“Maktabgacha tarbiya bo‘limi to‘g‘risi”da Nizom qabul qilindi va unda bo‘lim 3 yoshdan 8 yoshgacha bo‘lgan maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiya muassasalariga boshchilik qiladi, mavjud muassasalar ishining borishini kuzatadi. Yangi bolalar bog‘chalari, yaslilar, bolalar uylari, maktabgacha yoshdagi bolalalar uchun umumiy yotoqxonalar, enagalar va kadrlar tayyorlash maqsadli kurslari tashkil qilindi.

NATIJALAR. O‘zbekistonning tub joy aholisini maktabgacha ta’lim tashkilotlariga jalb etish uchun kurash juda murakkab va qiyin sharoitda olib boriladi. 1918-yilda Toshkentning sobiq eski shahar qismida o‘zbek bolalari uchun 4 ta bog‘cha ochishga muvaffaq bo‘lindi:

Birinchi bog‘cha – Shayxontohur dahasida, Hasanova (mudir), Mahsuma Qoriyeva, Robiya Abdurashidova (tarbiyachi). Ikkinchi bog‘ cha – Xo‘ja ko‘chasida Anvar Yausheva (mudir).

Uchinchi bog‘cha Ko‘kcha dahasidagi Langar ko‘chada ochilgan. To‘rtinchi bog‘cha Beshyog‘och dahasida ochilgan. 1920-yilda Turkiston Respublikasida 71ta bolalar bog‘chasi, shu jumladan mahalliy aholi bolalari uchun 16 ta bog‘cha va 12 ta bolalar maydonchalari tashkil etilib, bulardan 4 tasida o‘zbek va boshqa mahalliy millatlarning bolalari tarbiyalana boshlandi. O‘sha davrda maktabgacha tarbiya muassasalarida hammasi bo‘lib 6394 bola tarbiyalanar edi. 1921-yilga kelib bolalar bog‘chalarining soni 105taga, shu jumladan mahalliy millatlarning bolalari uchun bog‘chalar 32taga yetdi. Bolalar bog‘chalarida tarbiyalanuvchilarning soni qariyb 8000 kishiga yetdi, ulardan 2000 dan ko‘prog‘i mahalliy millatlarning farzandlari edi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekistonda bolalar bog‘chalari va bolalar maydonchalarining tarmog‘i deyarli ikki barobar kengaydi. 1994-yil 1-yanvariga kelib, maktabgacha ta’lim-tarbiya tizimida 54000 bola tarbiyalandi. Ana shu maqsadda davlat tamonidan 77 million so‘m ajratildi. Bu yillarda O‘zbekistonning bolalar bog‘chalarida ko‘chirib keltirilgan 16000 dan ko‘proq bolalar tarbiyalandi. Shuningdek, ota-onasiz qolgan qariyb 400 bola vasiylikka olish prinsipiga muvofiq boqib, tarbiyalab katta qilindi.

MUHOKAMA. So‘nggi yillarda maktabgacha ta’lim tizimini isloh qilish va rivojlantirishga qaratilgan qonunlar, qarorlar qabul qilinib, amaliyotga joriy etilmoqda. Maktabgacha ta’lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, bolalarni maktabgacha ta’lim bilan bosqichma-bosqich to‘liq qamrab olishni ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni bilan Maktabgacha ta’lim Vazirligi tashkil qilindi[1]. Bugungi kunda O‘zbekistonda 14 mingdan ortiq maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyat yuritadi. 2019-yilda Maktabgacha ta’lim Vazirligi tizimiga bolalar qamrovini 52% ga yetkazdi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, Maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’limning boshlang‘ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog‘lom va rivojlangan shaxs bo‘lib shakllanishini ta’minlab, o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini uyg‘otib, tizimli o‘qitishga tayyorlab boradi. 6-7 yoshgacha bo‘lgan maktabgacha ta’lim davlat va nodavlat bolalar maktabgacha ta’lim muassasalarida va oilada amalga oshiriladi. Maktabgacha ta’limning maqsadi – bolalarni maktabdagi o‘qishga tayyorlash, bolani sog‘lom, rivojlangan, mustaqil shaxs bo‘lib shakllantirish, qobiliyatlarini ochib berish, o‘qishga, tizimli ta’limga bo‘lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir. Maktabgacha ta’lim muassasasida bolalarning hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilish maktabgacha ta’lim muassasasi hamda shtatdagi tibbiyot xodimlari, shuningdek maktabgacha ta’lim muassasasiga biriktirilgan sog‘liqni saqlash organlarining tibbiyot xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini 2017-2021-yillarda yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707 sonli qarori.
2. Maktabgacha pedagogika. F.Qodirova, Sh.Toshpo‘latova, N.Kayumova, M.Azamova “Tafakkur” nashriyoti, 2019.
3. Maktabgacha pedagogika. Sh.Sodiqova.
4. Zaxxuva,N. Maktabgacha tarbiyachining ijodiy salohiyatini ishlab chiqish. Maktabgacha ta’lim, 2006 yil.

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK:93/94;31/32

IKKINCHI JAHON URUSHINING IJTIMOIY, IQTISODIY VA DEMOGRAFIK JARAYONLARGA TA'SIRI

Yakubov O'tkir Shermamatovich, Termiz davlat pedagogika instituti dotsenti, geografiya fanlfri nomzodi

THE IMPACT OF WORLD WAR II ON SOCIAL, ECONOMIC AND DEMOGRAPHIC PROCESSES

Yakubov Utkir Shermamatovich, Associate Professor of Termiz State Pedagogical Institute, Candidate of Geography

ВЛИЯНИЕ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ НА СОЦИАЛЬНЫЕ, ЭКОНОМИЧЕСКИЕ И ДЕМОГРАФИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ

Якубов Уткир Шермаматович, доцент Термезского государственного педагогического института, кандидат географических наук

https://orcid.org/0009-0006-9367-8516
e-mail: utkir1969@list.ru

Annotatsiya: Ikkinchi Jahon urushi O'zbekistondagi demografik jarayonlarga sezilarli ta'sir ko'rsatgan hamda mamlakat hayotining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarida juda murakkab o'zgarishlarni keltirib chiqargan. Bu o'zgarishlar, o'z navbatida, mintaqadagi demografik vaziyatga ta'sir ko'rsatgan. Ushbu maqolada, arxiv ma'lumotlari tahlillari asosida, olimlarning bu boradagi fikr-mulohazalarining muallif muhokamasi keltirilgan.

Kalit so'zlar: urush, front, ko'chirish, xavfsiz mintaqa, yaradorlar, tibbiy xizmat, bolalar uylari, ta'lim, tarbiya.

Abstract: The Second World War had a significant impact on demographic processes in Uzbekistan and caused very complex changes in the political, economic and social spheres of life in the country. These changes, in turn, affected the demographic situation in the region. In this article, the author discusses this issue based on the opinion of scientists and analysis of archival data.

Keywords: war, front, resettlement, safe zone, wounded, medical care, orphanages, education, upbringing.

Аннотация: Вторая мировая война оказала существенное влияние на демографические процессы в Узбекистане и вызвала весьма сложные изменения в политической, экономической и социальной сферах жизни страны. Эти изменения, в свою очередь, отразились на демографической ситуации в регионе. В данной статье по этому поводу дана обсуждение автора на основе мнения ученых и анализа архивных данных.

Ключевые слова: война, фронт, расселение, безопасная зона, раненые, медицинское обслуживание, детские дома, образование, воспитание.

KIRISH. Ikkinchi Jahon urushi insoniyat tarixidagi eng katta urush hisoblanib,urushni natsistlar Germaniyasi boshlagan bo‘lib, uning tashvishi butun Yevroosiyo materigini qamrab olgan. Aholi dinamikasida Ikkinchi jahon urushi yillari (1941-1945) alohida o‘rin tutadi. Urushning demografik jarayonlarga bevosita va bilvosita ta’siri mavjud. Aholi dinamikasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri aks ettirish aholining eng layoqatli erkaklar qismining urushda o‘limi bilan izohlanadi. Urush davrida tug‘ilish darajasi va aholining tabiiy o‘sishi keskin pasaygan. Urushning aholi dinamikasiga bilvosita ta’siri urushdan keyingi bir necha avlodlarda salbiy demografik to‘lqinlar shaklida namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. Ikkinchi jahon urushi davrini ko‘plab tarixchilar, siyosatshunoslar, sotsiologlar, faylasuflar tadqiq etgan bo‘lib, uning insonlar hayotidagi izi haligacha yo‘qolgan emas. Shu boisdan bu mavzudagi tadqiqotlar ko‘plab savollarga javob berishda davom etaveradi. Mavzuni demograf olimlardan Babadjanova N., Raxmonulov A. Otamirzaev O. kabi olimlar o‘rgangan. Ushbu maqolani tayyorlash davomida tarixiy tamoyil, tahlil, qiyoslash va umumlashtirish kabi metodlardan foydalanildi.

MUHOKAMA. Urush yillarida O‘zbekistondan 1 million 400 mingdan ortiq kishi harbiy xizmatga chaqirilgan. Bu o‘sha davrdagi umumiy aholining 20 foizini, mehnatga layoqatli oilalarning tayanchi hisoblangan aholi qatlamining 50 foizidan ortig‘ini tashkil etgan. Ulardan rasmiy manbalarga muvofiq 398 ming nafari halok bo‘lgan, 150 ming nafari bedarak yo‘qolgan. Ya’ni o‘zbek askarlarining uchdan bir qismi urushdan qaytmagan. Ikkinchi jahon urushi frontlarida Toshkentdan 52 ming kishi halok bo‘lgan, bundan tashqari, 1943-yil oxiriga kelib 155 ming kishi O‘zbekistondan tashqaridagi sanoat obyektlariga, boshqa respublikalarga, xususan, Rossiyaga (Ural, Sibir) jo‘natilgan[1]. Urushning birinchi yillarida muhojirlarning asosiy qismi SSSRning g‘arbiy hududlari – Rossiya, Ukrainadan evakuatsiya qilingan aholi edi. Belorussiya va boshqalar. Urush boshlanganidan (1941-yil 22-iyun) 1942-yil dekabrigacha O‘zbekistonga 786,8 mingdan ortiq kishi evakuatsiya qilingan[2]. 1941-yilning atigi besh oyida, to‘liq bo‘lmagan ma’lumotlarga ko‘ra (Toshkent shahri va Qashqadaryo viloyatidan tashqari) sobiq SSSRning g‘arbiy mintaqalaridan respublikaga 330,7 ming kishi olib kelingan.

1941-yil 5-iyuldagi SSSR XKSning “urush vaqtida aholini ko‘chirish tadbirlari tshg‘risida”gi qaroriga binoan, 1941-yil 15-noyabrda O‘zbekiston SSR XKS va O‘zbekiston KPMQ O‘zbekistonga aholi va bolalarning ko‘chirib keltirilishi va front chizig‘idan evakuvatsiya qilingan bolalarning joylashtirilishi masalasini muhokama qilib, ularni qabul qilish hamda joylashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqdi.

Evakuatsiya qilinganlarga shart-sharoit yaratish maqsadida O‘zbekiston hukumati 1941-yil 14-noyabrda № SE187 raqamli “Frontga yaqin joylardan ko‘chirib keltirilgan bolalarni joylashtirish haqida” qarori qabul qilingan[10]. Oradan ikki yil o‘tgach, 1942-yilning fevralida O‘zbekiston SSR XKS va O‘zbekiston KPMQ aholini evakuvatsiya qilish bo‘yicha boshqarma shtatlarining nizomini tasdiqlagan[3]. 1941-yilning 1-oktyabridan 1942-yilning 1-oktyabrigacha O‘zbekistonga front orti shaharlaridan 78ta bolalar uyi evakuatsiya qilingan bo‘lib, bolalar uylarining bolalari bo‘linmasdan 50tasi mustaqil ravishda saqlanib qolgan.

Ulardan Toshkent shahriga 5tasi, Samarqand oblastiga 4tasi, Buxoro oblastiga 9tasi, Farg‘ona shahriga 10tasi, Andijon oblastiga 13tasi, Namangan oblastiga 9tasi, va jami olib kelingan 43 ming nafar bolalar joylashtirilgan[11]. Qolgan 28ta bolalar uylarining bolalari jamoatchilik ko‘magida, o‘sha davrdagi mavjud bolalar uylariga, ishlab chiqarish korxonalari qaramog‘idagi internatlarga, bola tarbiyalash imkoniyatiga ega xonadonlarga taqsimlab berilgan.

Samarqand oblastining Bulung‘ur, Jonboy, Narpay, Pastdarg‘om va boshqa rayonlarida evakuatsiya qilingan bolalar uchun 8ta bolalar uylari tashkil qilingan, ularda 4270 nafar bola tarbiyalangan. Samarqand shahridagi 11ta bolalar uyiga qo‘shimcha ravishda 660 nafar bolalar joylashtirilgan[6]. Andijon oblastiga ham o‘n minglab bolalar evakuatsiya qilinib, ular Andijondagi, Shahrixondagi bolalar uylariga, Andijon rayonidagi Bo‘taqora qishloq kengashi binosida Chernigov bolalar uyi, Qo‘rg‘ontepa rayonida – Donbassdan ko‘chirilib keltirilgan ikkita bolalar uyi, Paxtaobod, Chinobod va Xoldevonbekda Kuybishevdan ko‘chirib keltirilgan to‘rtta bolalar uylari joylashtirilgan[7]. 1941-yilda Ukraina,

Belorussiya, Bolgariya, Boltiq bo‘yi hududlaridan Namangan oblastiga 19 ming kishi evakuatsiya qilinib, ularning 1674 nafari ish bilan ta’minlangan.

Boquvchisini yo‘qotgan 1780 kishiga har oyda nafaqa berib turilgan. Namangan rayoni xo‘jaliklari Volakalamsk shahridan ko‘chirib keltirilgan bolalar uyini otaliqqa olib, o‘sha paytlarda ota-onasiz qolgan 300dan ortiq bolalarga g‘amxo‘rlik ko‘rsatilgan. To‘raqo‘rg‘on, Yangiqo‘rg‘on va Pop rayonlarida maxsus bolalar uylari ochilgan[8]. Qoraqalrog‘istonga 3891 nafar bolalar evakuatsiya qilingan bo‘lib, hududdagi 900 ta oila ota-onasidan ajralgan yetim bolalarni o‘z tarbiyasiga olgan. Masalan, Xo‘jayli rayonidagi K.Marks nomli kolxoz a’zolari 29 nafar bolani o‘z g‘amxo‘rligiga olgan. Shuningdek, harbiy xizmatchilarning va ko‘chirib olib kelinganlarning 20,3 ming nafar bolalari bolalar bog‘chasiga, yaslilarga va bolalar uyiga joylashtirilgan[9]. Surxondaryo oblastiga 1942-yilning 1-fevraliga qadar 2587 nafar kishi, jumladan, 829 nafar erkaklar, 1383 nafari ayollar va 14 yoshgacha bo‘lgan 375 nafar bolalar keltirilgan[12]. Shulardan, Termizga 64 kishi, Boysun rayoniga 92 kishi, Denov rayoniga 888 kishi, Jarqo‘rg‘on rayoniga 26 kishi, Sariosiyo rayoniga 373 kishi, Sherobod rayoniga 65 kishi, Sho‘rchi rayoniga 1136 kishi joylashtirilgan[4].

1941-yilning 20-dekabriga qadar O‘zSSRga evakuatsiya qilingan va joylashtirilganlar soni 597119 nafarni tashkil etgan.

Bu oblastlarda aholining nisbatan ko‘proq to‘planganligi mintaqalarning o‘sha davrdagi yaqin tarixi bilan, ya’ni Samarqand 1924-yilgacha O‘zbekistonning poytaxti bo‘lganligi, Buxoroga (Kogon shahriga), Toshkent shaharlariga temir yo‘lning va sanoat korxonalarining boshqa oblastlarga nisbatan oldinroq kirib kelganligi, shuningdek, Toshkent urush yillarida respublikaning rasmiy poytaxtiga aylanganligi kabi omillar bilan bog‘liq. Ikkinchi jahon urushiga qadar sanoatlashtirishning ancha faol kechishi natijasida bu hududlarga rusiyzabon xalqlar vakillari ko‘chib kela boshlagan, ularda sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishi va shaharlarning ahamiyati orta borgan.

Shuningdek, sobiq “Ittifoq”ning urush kechayotgan mintaqalaridan evakuatsiya qilinganlar asosan shaharlarga joylashtirilganligi sababli urush yillarida shaharlar aholisi nafaqat kamaydi, balki migratsiya hisobiga 1941-yilda 1606 ming kishiga, 1945-yilda 1761 ming kishiga ortgan[5].

Ularning aksariyati shaharlarga joylashtirilishi sababli qishloq aholisi salmog‘iga migratsiya jarayonlari sezilarli ta’sir ko‘rsatmagan.

Urushning dastlabki kunlari O‘zbekistonga 1 milliondan ortiq kishi keltirilgan, shulardan 240 ming kishidan ortiqrog‘ini bolalar tashkil etgan. Dushman egallagan joylardan ko‘plab bolalar uyi, jumladan, 23 ta polyak bolalari uyi, 120 ta ispan bolalari uyi va 5ta harbiy musiqali bilim yurt, bir necha ko‘r va karlar maktablari[13] O‘zbekistonga ko‘chirilib keltirilgan.

NATIJA. Respublika qishloq aholisi, asosan, mahalliy aholi bu yillarda 4945 ming kishidan 3436 ming kishiga, ya’ni 5 yil ichida deyarli 30,5 foizga kamaygan. Demografik jarayonlar oqibatida ba’zi hisoblarga ko‘ra, faqat urush yillarida O‘zbekiston 2,5 million kishini yo‘qotgan[5]. O‘zbekiston aholisi urush yillarida, ya’ni 1941-1945-yillarda qisqardi. Urushning birinchi yilida aholi sonining keskin kamayishi qayd etildi. Keyingi yillarda (1942-1943) yuqorida qayd etilgan g‘arbiy o‘lkalardan O‘zbekistonga aholining ommaviy ravishda kirib kelishi natijasida respublikada aholining qisqarish sur’ati sezilarli darajada sekinlashdi.

O‘zbekiston SSR sobiq “Ittifoq”ning boshqa hududlariga nisbatan urushdan uzoqligiga ko‘ra, eng xavfsiz mintaqa ekanligi bois evakuatsiyalar sababli migratsiya jarayonlari ham boshqa hududlarga nisbatan faol kechgan va O‘zbekistondagi demografik jarayonlarga ta’siri katta bo‘lgan. Ko‘plab erkaklar frontga yuborilgan, bu esa mamlakatda erkaklar sonining kamayishiga olib kelgan. Tabiiyki, bu aholining demografik tuzilishiga, ya’ni erkaklar va ayollar nisbatiga ta’sir ko‘rsatgan.

Urush, shuningdek, jangovar qurbonlar, ocharchilik va epidemiyalar kabi katta insoniy yo‘qotishlarga olib keldi. Bu o‘z navbatida umumiy aholi sonining kamayishiga sabab bo‘ldi. Urush yillarida shaharlardan tashqari qishloq aholi manzilgohlarida yangi qurilishlar deyarli bo‘lmagan, odamlarning iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlari og‘irlashib borgan. Tibbiyot va ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish qishloqlarda tang holatni, shaharlarda esa, turg‘unlik davrini boshidan kechirgan. Ammo, yirik shaharlarda xizmat ko‘rsatish muassasalari qurilgan. Jumladan, Toshkentda Alisher Navoiiy teatri, Muqimiy teatrlari urush yillarida qad roslagan.

Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘rta Osiyo aholisi, jumladan, SSSR tarkibidagi O‘zbekiston

ham harbiy amaliyotlarning ulkan ta'sirini his qilgan. 1941-yildagi urushning avj olishi o'zbek aholisi va oilalari hayotida katta o'zgarishlarga olib kelgan. Dastlab, sobiq "Ittifoq"dagi ko'plab oilalar fashist qo'shinlarining yaqinlashib kelayotgani sababli ommaviy evakuatsiya qilingan.

1941-yil avgust oyidan boshlab, O'zbekistonga evakuatsiya qilingan aholi bilan poyezdlar kela boshladi. Evakuatsiya qilingan 1 million kishining 200 mingdan ortig'i bolalar va o'smirlar bo'lib, ulardan 5 ming nafari Leningradliklar bo'lgan. Urush yillarida respublikaga 89 ta bolalar uyi kelgan, ulardan 48 tasi Ukrainadan bo'lib, evakuatsiya qilingan fuqarolarni qabul qilish uchun O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti, oblast, shahar va rayon ijroiya qo'mitalari huzurida maxsus komissiyalar tuzilgan[14]. Evakuatsiya qilingan aholini qabul qilish uchun maxsus evakuatsiya punktlari tashkil etilib, ularda zarur sanitariya muolajalari va tibbiy yordam ko'rsatilgan. Sog'liqni saqlash xalq komissarligi va Qizil Xoch va Yarimoy respublika tashkilotlari evakuatsiya qilingan aholini qabul qilish va joylashtirishga har tomonlama yordam bergan. Barcha evakuatsiya punktlarida, birinchi navbatda, bolalar uchun tibbiy yordam punktlari tashkil etilgan. Ushbu tibbiyot punktlarining 24 soat davomida faoliyat yuritishi ko'plab yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini olgan. Urushda yetimlarga mehr va rahm-shafqat ko'rsatish respublikaning umumxalq g'amxo'rligiga aylangan.

XULOSA. O'zbekiston minglab yaradorlarning hayotini saqlab qolgan. Respublikada 750ta korxona, muassasa, kolxoz va sovxozlar homiyligida 113dan ortiq harbiy gospitallar joylashtirilgan. Evakuatsiya shifoxonalarida ishlash uchun eng malakali shifokorlar va feldsherlar tanlangan. Umuman olganda, Ikkinchi jahon urushi O'zbekistondagi demografik jarayonlarga sezilarli ta'sir ko'rsatib, migratsiya, tug'ilish, o'lim va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning o'zgarishiga olib kelgan. Shuningdek, Ikkinchi jahon urushi davrida O'zbekistonda aholi migratsiyasida mahalliy xususiyatlarini namoyon qilib, bir qancha muammoli vaziyatlarni sodir etgan. Asosiy omillardan biri ishlab chiqarishni bexatar va uzluksiz tashkil etish va frontga yordam berish uchun zavod va fabrikalarni front ortiga ko'chirish va ular bilan birga malakali mutaxassislarni evakuatsiya qilish lozim bo'lgan. Shuningdek, urush kechayotgan hududlardan bolalar, ayollar va keksalarni ham urush xavfi bo'lmagan mintaqalarga ko'chirish lozim bo'lgan. Shu sababli ko'plab aholi punktlari evakuatsiya qilingan, jumladan, evakuatsiya qilinganlardan tashqari ham jon saqlash uchun tinch mintaqalarga harakatlangan fuqarolarning aksariyati boshpana va ish izlab respublikaga kelgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Искандеров И.И. Фашизм устидан ғалаба қозонишда миллий республикалар туб манфаатларининг бирлиги.//Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. -1995 йил. -4 -сон. 14-15-бет.
2. Мулладжанов И.Р. Ўзбекистон ССР аҳолиси. – Тошкент, 1967. – Б. 122.
3. Турдиев С. Улуғ ватан уруши йилларида Ўзбекистон меҳнаткашларининг кўчириб келтирилган болаларга ғамхўрлиги.– Т.: Фан, 1987 – 5-9 б.
4. Бабаджанова Н.А. Совет тоталитар сиёсатининг Ўзбекистон аҳолисининг миллий таркиби шаклланишига таъсири (1940-1990-йиллар). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси – Тошкент, 2018.– 78-б.
5. Ата-Мирзаев О.Б. Народонаселение Узбекистана: история и современность. Ташкент: Ижтимоий фикр, 2009. С.-17.
6. Хотира. Самарқанд в. 1-китоб. –Т.: Ибн Сино. 1994. – 10-б.
7. Хотира. Андижон в. 1-китоб. –Т.: Ўзбекистон. 1994. – 7-б.
8. Хотира. Наманган в. 1-китоб. –Т.: Меҳнат. 1994. 6-7-б.
9. Xotira. Qoraqalpog'iston Respublikasi. 1-kitob. –T.: Mehnat. 1994. 9-10-b.
10. O'zMA, 317-jamg'arma, 1-ro'yxat, 37 ish, 49-varaq.
11. O'zMA, 94-jamg'arma, 5-ro'yxat, 4697 ish, 57-varaq.
12. O'zMA, 1619-jamg'arma, 13-ro'yxat, 173 ish, 8-varaq.
13. Туркистон 1995. – 1 апрель.
14. Қизил Ўзбекистон газетаси, 1942 йил 11 февраль.

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK:304.2.

ДУНЁ ТАЖРИБАСИДА ДЕВИАНТ ХУЛҚ-АТВОРГА (ГИЁҲВАНДЛИККА) ҚАРШИ КУРАШ АМАЛИЁТИ ВА УНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ

Равшанов Алишер Сайдуллаевич, ТИҚХММИ Миллий тадқиқот университети сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD)

WORLD EXPERIENCE IN PRACTICE OF COMBATTING DEVIANT BEHAVIOR (DRUG ADDICTION) AND ITS DISTINCTIVE ASPECTS

Ravshanov Alisher Saidullaevich, Doctor of Philosophy (PhD) in Political Science, National Research University TIIAME

МИРОВОЙ ОПЫТ ПРАКТИКИ БОРЬБЫ С ДЕВИАНТНЫМ ПОВЕДЕНИЕМ (НАРКОМАНИЕЙ) И ЕГО ОТЛИЧИТЕЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ

Равшанов Алишер Сайдуллаевич, Национальный исследовательский университет ТИИИМСХ, доктор философии (PhD) по политологии

https://orcid.org/0009-0007-0369-350X
e-mail: alisher.ravsharov@gmail.com

Аннотация: Мазкур мақолада девиант хулқ-атворнинг асосий турларидан бири ҳисобланган, гиёҳванд моддалар савдоси ва гиёҳвандликка қарши курашда жаҳон тажрибаси ва унинг ўзига хос хусусиятлари тўғрисида фикр юритилади.

Калит сўзлар: девиант хулқ-атвор, гиёҳванд, гиёҳванд моддалар, дори-дармон, жиноятчилик, соғлиқни сақлаш.

Abstract: This article examines one of the main types of deviant behavior, the world experience of combating drug trafficking and drug addiction, as well as its distinctive features.

Key words: deviant behavior, drug addiction, narcotic drugs, drug addict, medications, crime, health care.

Аннотация: В данной статье рассматривается один из основных видов девиантного поведения, мировой опыт борьбы с торговлей наркотические средства и наркоманией а также его отличительные особенности.

Ключевые слова: девиантное поведение, наркомания, наркотические средства, наркоман, лекарственные препараты, преступность, здравоохранение.

КИРИШ. XX аср охирида гиёҳванд моддалар савдоси ва гиёҳвандликка қарши курашда янги ҳодиса бўлди[1]. Мисол учун, халқаро ҳамжамият БМТ шафеълигида ҳар йили дунёдаги гиёҳвандлик ҳолатини муҳокама қилади ва БМТнинг Гиёҳванд моддалар ва жиноятчилик бўйича бошқармаси орқали гиёҳванд моддаларнинг дунё бўйича ҳисоботларини нашр этади, унда халқаро наркотик тузилмалари фаолияти батафсил таҳлил қилинади, шунингдек, гиёҳванд моддалар бозори динамикасидаги асосий тенденциялар аниқланади ҳамда назорат қилиш бўйича дастурлар таклиф этилади.

Бундан ташқари, гиёҳванд моддалар бўйича илмий-тадқиқот ишларини кенгайтириш дастурлари ва ушбу муаммога чуқур асосланган ёндашув, унинг олдини олиш ва кўп томонлама назорат қилишнинг яхлит тизими яратилди. Мазкур тизимнинг ҳуқуқий асослари сифатида гиёҳванд моддалар соҳасидаги халқаро конвен-

цияларни, жумладан, гиёҳванд моддалар тўғрисидаги ягона конвенция (1961), психотроп моддалар тўғрисидаги конвенция (1971) ва БМТнинг гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддаларнинг ноқонуний айланишига қарши бўлиб ўтган конвенцияларни санаб ўтиш мумкин.

Гиёҳвандлик ривожланишини оғирлаштирувчи муҳим омилларидан бири дорилар нархининг пасайиши, хусусан, Европада дори-дармон нархларининг пасайиши келгуси йилларда ҳалокатли оқибатларга олиб келмоқда. Негаки, «хавф гуруҳига» кирувчи инсонлар кўпроқ гиёҳванд моддаларни истеъмол қиладилар.

МАВЗУГА ОИД АДАБИЁТЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ. Америкалик тадқиқотчилар томонидан олиб борилган изланишларга кўра, гиёҳвандликка бўлган кескин ўзгаришлар кузатилмаслиги тасдиқланган. Мактаб битирувчиларининг улар томонидан қайд этилган "ноқонуний гиёҳванд моддалар" билан шуғулланиш даражаси дастлаб ҳар йили гиёҳванд моддаларни (алкоголь ва тамаки маҳсулотларидан ташқари) камида бир марталик истеъмол қилиш тажрибасига эга бўлган инсонлар сонига нисбатан (йилига 2-3%) ошиб бориши аниқланган. Шундан сўнг, ҳар йили ўтказиладиган ўлчовларнинг натижалари шуни кўрсатадики, америкалик мактаб ўқувчиларида гиёҳвандлик даражасининг деярли ўн йиллик барқарор пасайиши бошланди ва 1992 йилга келиб кўрсаткич энг паст даража – 40,7%га етди.

Масалан, Финляндияда катта ёшли аҳоли қисмининг 10 фоизи гиёҳванд моддаларни ҳаётларида камида бир марта синаб кўришган, Дания ва Англияда эса, катта ёшлилар нисбати мос равишда 25 ва 30 фоизга етади. Умуман олганда, Европада бу рақам (Бельгия, Германия, Испания, Ирландия ва Голландияни қўшиб ҳисоблаганда) 20% атрофида. Ёшлар орасида истеъмол даражаси кекса авлод вакилларига қараганда қарийб икки баравар юқори бўлиб қолмоқда.

Масалан, АҚШда ҳозирги кунда гиёҳвандликнинг олдини олишнинг камида учта модели мавжуд. Улардан энг машҳури "талаб ва таклиф модели" бўлиб, у дори-дармонларга параллел равишда талаб ва таклифни камайтиришга қаратилган. Гиёҳванд моддаларни суиистеъмол қилиш бўйича Америка Миллий институти (NIDA)нинг яна бир муҳим модели, гиёҳвандликни инсон учун муаммо сифатида кўриб, у хабардорликнинг паст даражаси, таълим, потенциал ва профилактика дастурлари билан белгиланади. Наркотик моддаларни истеъмол қилиш деярли барча мамлакатларда ноқонуний ҳисобланса-да, бу ҳақиқат наша чекишни одатдаги хулқ-атвор ва тенгдошлар гуруҳи маданиятининг бир қисми сифатида кўрадиган ўсмирларнинг кўпайиши билан боғлиқ эмас. Европа минтақаси ва Шимолий Америкада гиёҳвандлик ва гиёҳвандлик сиёсатида катта фарқлар мавжуд. Унинг сиёсатига (соғлиқни сақлаш доирасида тарғиб қилиш, таълим муассасаларида, оилаларда ва маҳаллий ҳамжамият даражасида маслаҳат дастурларида бу акс этади) кўра, наша истеъмолининг кўпайиши ёшларнинг аксариятида гиёҳвандликка мойилликни ўстириши билан боғлиқ.

ТАҲЛИЛ ВА НАТИЖАЛАР. Дунё миқёсида амфетамин типидаги стимуляторлар (АЦ) наша гиёҳванд моддаларни истеъмол қилишнинг йиллик тарқалиши бўйича иккинчи ўринда туради. Амфетамин типидаги стимуляторлардан (АЦ) фойдаланувчилар сони опиат ва кокаин истеъмолчилари сонидан ошиб, учинчи ва тўртинчи ўринларни эгаллайди. Экстазни ҳисобга олмаганда, АЦ истеъмоли бутун дунёда кенг тарқалган ва кўпгина минтақаларда унинг кенгайиб боришига мойиллик устунлик қилади. АЦ бозорини баҳолашнинг ўзига хос хусусияти шундан иборатки, унинг ҳаракатчанлиги ва ноқонуний тарқатиш йўллари жуда қисқа ҳамда АЦни ишлаб чиқариш асосий истеъмол бозорларига яқин жойларда амалга оширилади, шунингдек, ишлатилган хом ашёнинг аксарияти қонунийдир. Ноқонуний бизнеснинг ишлаб чиқарувчилари янги дорилар (масалан, кетамин, мефедрон ва зираворлардан иборат аралашмалар)ни муомалага таклиф қилмоқдалар ва янги бозорларга чиқмоқдалар. АЦлар орасида энг муҳим гуруҳ – бу "амфетаминлар" ҳисобланади[2].

Экстазни истеъмол қилиш ниҳоятда кенгайиб, ноқонуний "экстазия" маҳсулоти дунёнинг деярли барча минтақаларини қамраб олган ва кўплаб мамлакатларга тарқалмоқда. Европа ва дунёнинг бошқа катта бозорларида синтетик психотроп моддалар тобора кўпроқ пайдо бўлмоқда, улар "экстазия" ниқоби остида сотилмоқда. "Клуб" дориларининг машҳурлиги ошди,

яъни улар “экстаз” ниқоби остида ёки ўз номлари билан сотиладиган пиперазин, кетамин ва бошқа суррогатлардан иборатдир. Қолаверса, талабнинг ўзгаришига қараб, гиёҳванд моддалар ишлаб чиқариш жойлари ўзгартирилмоқда. Илгари “экстазия” ниқоби остида сотиладиган таблеткаларнинг аксарияти Европада ишлаб чиқарилган бўлса, эндиликда “экстазия”ни ишлаб чиқариш Шимолий Америкада (айниқса, Канада) ва Осиёнинг баъзи ҳудудларида ҳам кўпайди.

Опий (афюн) тарқалиш даражаси бўйича дунёда учинчи ўринда турибди. Экспертларнинг ҳисоб-китобларига кўра, дунёда ушбу моддалардан 24-35 млн киши фойдаланган бўлиб, унинг тарқалиш кўрсаткичи 15-64 ёшдаги аҳолининг 0,5-0,8 фоизига тўғри келади. Дунё миқёсида энг муаммоли опиатлардир, яъни кўкнори ўсимлигидан олинган турли хил психоактив моддалар, биринчи навбатда афюн ва героиндир. Дунёдаги энг муаммоли опий гиёҳвандлик воситаси – бу героин ҳисобланади[3].

Тадқиқот мақсадидан келиб чиқиб, синтетик дорилар ва уларни қўллашни таҳлил қилиш жуда муҳим ҳисобланади. Шуни таъкидлаш керакки, дунёнинг бошқа минтақаларидан фарқли ўлароқ, Европада рецепт бўйича дори-дармонларни тиббий бўлмаган ҳолда истеъмол қилиш ҳали ҳам жиддий муаммо, деб ҳисобланмайди. Мисол учун, Дания, Эстония ва Финляндияда тиббий носоғлом мақсадлар учун рецепт бўйича опиоид истеъмоли жуда юқори бўлиб, бу героин истеъмолидан ҳам юқори баҳоланади. Шимолий Ирландия (Бирлашган Қироллик)да охирги йилларда тиббий бўлмаган рецепт бўйича опиоид истеъмол қилишнинг энг юқори кўрсаткичлари қайд этилди. Гиёҳванд моддалардан тинчлантирувчи воситалар сифатида ва транквилизаторлардан фойдаланиш учун катта миқдордаги улушни Шимолий мамлакатлар, хусусан, Швеция (11,6%), Норвегия (10,2%) ва Финляндия (8,5%) қайд этган. Европада бензодиазепиндан фойдаланиш гиёҳванд моддаларни истеъмол қилувчилар, шу жумладан, алмаштириш терапияси билан шуғулланадиганлар орасида кенг тарқалган. Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, ушбу терапияни бошдан кечираётганларнинг 11%дан 70%гачаси ҳозирги вақтгача бензодиазепиндан фойдаланишган.

ХУЛОСА ВА ТАКЛИФЛАР. Кўп миқдордаги гиёҳванд моддаларни суиистеъмол қилиш, айниқса, рецепт бўйича дори-дармонларни ноқонуний моддалар билан биргаликда ишлатиш, жумладан, седативлар ва транквилизаторларни суиистеъмол қилиш ташвиш уйғотади. Ушбу ҳолат синтетик дорилар ва рецепт бўйича дори-дармонлар, хусусан, синтетик опиоидларни, бензодиазепинларнинг истеъмоли кўпайиши кузатиладиган дунёнинг кўплаб мамлакатлари учун хосдир. Халқаро экспертлар ва россиялик тадқиқотчиларнинг фикрига кўра, рецепт бўйича дори-дармонларни тиббий бўлмаган мақсадларда ишлатиш соғлиқни сақлаш соҳасида тобора кучайиб бораётган муаммога айланмоқда.

БМТнинг экспертлари томонидан дори-дармонларнинг етишмаслиги сабабли уларни рекреация қилиш (қайта тузиш) камайиши ва ички бозорда ишлаб чиқарилган зарарли моддалар истеъмолининг кўпайиши прогноз қилинмоқда. Масалан, Европанинг баъзи мамлакатларидаги героин фойдаланувчилари фентанил ва унинг сунъий яратилган элементларини истеъмол қилишга ўтишлари мумкинлиги таъкидланмоқда.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Наркоугроза и противодействие, 2000; Международно-правовые основы противодействия незаконному обороту наркотиков: Сб. документов/Сост. В.С.Овчинский, А.В.Федоров. –М.: ИНФРА-М, 2005. –624 с.
2. Всемирный доклад о наркотиках, 2019. [Электрон манба]: https://www.unodc.org/unodc/ru/frontpage/2019/June/world-drug-report-2019_-35-million-people-worldwide-suffer-from-drug-use-disorders-while-only-1-in-7-people-receive-treatment.html.
3. Ferri, M., Davoli, M. and Perucci,C.A. (2011). Heroin maintenance for chronic heroin-dependent individuals, Cochrane Database of Systematic Reviews, Issue Art. No.: CD003410. DOI: 10.1002/14651858.CD003410.pub4.

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 92(572.157-27).

ICHKI ISHLAR SOHASI XODIMLARI ORASIDA KASBIY MOTIVATSIYANING O‘RGANILISHI VA UNI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGIGA QARASHLI AKADEMIK LITSEY O‘QUVCHILARIDAN SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK JIHATLARI

Bekmuratova Xalima Maksatovna, Ichki ishlar vazirligi Surxondaryo akademik litseyi psixologi

https://orcid.org/0009-0007-4276-7751
e-mail: khalima.0818@gmail.com

THE STUDY OF PROFESSIONAL MOTIVATION AMONG EMPLOYEES OF THE FIELD OF INTERNAL AFFAIRS AND THE PSYCHOLOGICAL-PEDAGOGICAL ASPECTS OF ITS FORMATION AMONG STUDENTS OF THE ACADEMIC LYCEUM AFFILIATED TO THE MINISTRY OF INTERNAL AFFAIRS

Bekmuratova Halima Maksatovna, Ministry of Internal Affairs, Surkhandarya, academic lyceum psychologist

ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИЗУЧЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ МОТИВАЦИИ У СОТРУДНИКОВ СФЕРЫ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ И ЕЕ ФОРМИРОВАНИЯ У УЧАЩИХСЯ АКАДЕМИЧЕСКОГО ЛИЦЕЯ ПРИ МИНИСТЕРСТВЕ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ

Бекмуратова Халима Максатовна, психолог Сурхандарьинского академического лицея МВД

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ichki ishlar vazirligiga qarashli akademik litsey o‘quvchilarida kasbiy motivatsiyani shakllantirishning psixologik-pedagogik jihatlari ochib berilgan. Ya’ni kasbiy motivatsiyasini o‘rganishga bag‘ishlangan. Litsey o‘quvchilari o‘rtasida kelajakda ichki ishlar sohasini tanlashga bo‘lgan motivatsiyaning nazariy tahlili o‘tkazildi. Kasbiy faoliyatga motivatsion tayyorgarlikni tanlash mezonlari aniqlandi.

Kalit so‘zlar: motivatsiya, motivatsion omillar, motiv, vatanparlik, kasbiy hayot rejasi, samaradorlik, o‘zini o‘zi anglash, kasb tanlash motivlari, martaba.

Abstract: In this article, the psychological and pedagogical aspects of the formation of professional motivation among students of the academic lyceum affiliated to the Ministry of Internal Affairs are revealed. That is, it is devoted to the study of professional motivation. a theoretical analysis of the motivation to choose the field of internal affairs among lyceum students in the future was carried out.

Key words: motivation, motivational factors, motive, patriotism, professional life plan, efficiency, self-awareness, motives for choosing a profession, career.

Аннотация: В данной статье раскрываются психолого-педагогические аспекты формирования профессиональной мотивации у учащихся академического лицея МВД. То есть посвящен изучению профессиональной мотивации. Проведен теоретический анализ мотивации выбора сферы внутренних дел у лицеистов в будущем.

Ключевые слова: мотивация, мотивационные факторы, мотив, патриотизм, профессиональный жизненный план, работоспособность, самосознание, мотивы выбора профессии, карьеры.

TAMADDUN NURI

KIRISH. Hozirgi kunda ish motivatsiyasining yetishmasligi kabi muammo juda dolzarb mavzudir. Uning dolzarbligi shundaki, hozirgi vaqtda Ichki ishlar vazirligiga vatanparvar va intizomli, shuningdek, o‘z xizmat vazifalarini bajarish uchun yetarlicha rivojlangan motivatsiyaga ega bo‘lgan kadrlar kerak. Shu sababdan bugungi kunda davlat tomonidan Ichki ishlar vazirligi oldiga qo‘yilayotgan yangi vazifalar Ichki ishlar vazirligi xodimlarini bilim, ko‘nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirish, ularning bilim mustaqilligini ta’minlovchi ijodiy tafakkurini shakllantiradigan ijodiy faollik xususiyatlarini rivojlantirishni taqozo etadi. Buning uchun, hatto Ichki ishlar vazirligiga qarashli akademik litseylarda ham litsey o‘quvchilarini mustaqil ravishda o‘zini boshqara olishi, faktlarni aniqlashga, ularni tushuntirishga, o‘zining mustaqil fikrga ega bo‘lishi, ruhan tetik va mustahkam irodaga ega bo‘lishiga, mavjud holatlarni to‘g‘ri baholashga, ya’ni kognitiv faoliyat jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal qila olishga o‘rgatish kerak bo‘ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. Harbiy xizmatchilarni motivatsiya turiga qarab tasniflashga urinishlar mahalliy sotsiologlar tomonidan ham amalga oshirildi. Masalan, R.V.Tkachev harbiy xizmatchilarning to‘rtta motivatsion turini aniqladi:

1) motivatsiyaning moddiy turi (moddiy jihatdan farovonlikka erishishga qaratilgan, pul daromadlari darajasi, uy-joy bilan ta’minlash va boshqalar bilan bog‘liq bo‘lgan motivatsion kutishlar);

2) motivatsiyaning mansab turi (motivatsion kutishlar martaba o‘sishiga, xodimning xizmatda muhim ko‘nikma va malakalarga erishishga, kasbiy salohiyatni ro‘yobga chiqarishga qaratilgan);

3) motivatsiyaning vatanparvarlik turi (motivatsion umidlar xodimlar o‘rtasida yuksak axloqiy tamoyillarni saqlashga, tizimdagi tartib-qoidalarga rioya qilishga, ruhiy barkamollikni mustahkamlashga va boshqalarga qaratilgan);

4) motivatsiyaning qochish turi (motivatsion kutishlar, kasbiy faoliyatni va xizmat bilan bog‘liq ish yukini cheklashga qaratilgan).

Xodimlarning kasbiy motivatsiyasining namoyon bo‘lish xususiyatiga qarab uchta iyerarxik daraja aniqlangan. Ushbu darajalarning **birinchisi,** xizmatga aniq sodiqlik bilan tavsiflanishi mumkin; sohaviy xizmatni takomillashtirish zaruratining aniq ifodasi; faollik va tashabbuskorlikdagi ijodkorlikning ustunligi, bu rasmiy va tezkorlikdagi vazifalarni munosib bajarishga yordam beradi. Bu daraja **“yuqori”** deb hisoblanadi.

Xodimlarning kasbiy faoliyati uchun motivatsiyaning **ikkinchi** darajasi **“o‘rtacha”.** Ushbu motivatsiya darajasi birinchisidan farq qiladi, chunki bu darajadagi xodim uchun asosiy faoliyat elementi harbiy qadriyatlar emas.

Xodimning kasbiy xizmat faoliyati uchun motivatsiyaning **uchinchi** darajasi **“past”.** Motivatsiyaning bu darajasi xodimning xizmatga nisbatan munosabat va qiymat yo‘nalishlarining past ko‘rinishi yoki umuman yo‘qligi bilan tavsiflanishi mumkin.

Statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, Turli martaba yo‘nalishlariga ega bo‘lgan zamonaviy harbiy xizmatchilarning mehnat motivatsiyasi kabi hodisalarni o‘rganib, biz uning yetarli emasligini ta’kidlashimiz mumkin. Bunday harbiy xizmatchilar orasida ish motivatsiyasining deyarli to‘liq yo‘qligi yoki qisman yetishmasligining sababi bo‘lgan bir qator asosli sabablar mavjud.

MUHOKAMA. Kasbiy motivatsiyani rivojlantirish xususiyatlarini belgilovchi asosiy tarkibiy qismlardan quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin: ta’lim faoliyati bilan bog‘liq motivlar, kasbiy motivlar, qiziqishlar, qobiliyatlar, moyilliklar, shuningdek, shaxsning boshqa shaxsiy fazilatlari bilan bog‘liqdir. Shu nuqtayi nazardan, motivatsiyani shakllantirish – aynan o‘smirlarda ideallar, dunyoqarash qadriyatlari, o‘quvchining faol xatti-harakati bilan uyg‘unlikda tarbiyalash, bu ongli va amaldagi motivlar o‘rtasidagi munosabatni, so‘z va ishning birligini, o‘quvchining faol hayotiy pozitsiyasini anglatadi. Shuningdek, insonni samarali boshqarish yo‘li uning motivatsiyasini tushunishdan iborat. Shaxsni nimaga undashini, uni harakatga nima undayotganini, uning faoliyati negizida qanday motivlar yotganini bilish orqaligina insonni boshqarish shakllari va usullarining samarali tizimini ishlab chiqishga harakat qilish mumkin. O‘quvchilarning funksional vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishlari uchun o‘quv jarayonida yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarlikni ta’minlash kerak. Akademik litsey o‘quvchilarining Ichki ishlar sohasi kasbini egallashga bo‘lgan munosabati, asosan, o‘quv fanlari bo‘yicha ko‘rsatkichlarni qayd etgan baholar bilan baholanadi. Ushbu yondashuvni

mutlaqo to‘g‘ri deb hisoblash mumkin emas, chunki amaliyot shuni ko‘rsatadiki, motivatsiyani hisobga olmaslik o‘quvchilarning tanlagan kasbida muvaffaqiyatga erishishida bilim yuz foiz yordam bera olmaydi.

NATIJALAR. Akademik litsey o‘quvchilari o‘rtasida yuqori darajadagi kasbiy motivatsiyani shakllantirish jarayonining rivojlanish dinamikasi ushbu qarama-qarshiliklarni bartaraf etish va harbiy xizmatchilarni tayyorlash va tarbiyalash samaradorligini oshirish manbai sifatida motivatsiya omilidan foydalanish zarurligini o‘z ichiga oladi. Harbiy ta’lim muammolarini hal qilishda harbiy kadrlarni tayyorlash va tarbiyalash samaradorligini oshirishning muhim manbai sifatida motivatsiya omilidan foydalanish zarur. Motivatsiya – bu inson ruhiyatining ichki tuzilmalarini shakllantirishning murakkab jarayoni bo‘lib, u odamga va uning xatti-harakatlariga ta’sir qiluvchi ichki motivatsion kuchlarga o‘tadi. Motivatsiya jarayoni turli xil motivatsiyalar orqali amalga oshirilishi mumkin: qadriyatlar, motivlar, ehtiyojlar, qiziqishlar, yo‘nalishlar, maqsadlar va munosabatlardir. Shuni esda tutish kerakki, har bir motivning mohiyati har bir bo‘lajak xodim uchun har xil, shuning uchun har bir bo‘lajak xodimga individual muloqot va kuzatish orqali to‘g‘ri yondashuvni topish, uning qadriyatlarini, ehtiyojlarini, qiziqishlarini, o‘rtoqlari bilan munosabatlarini o‘rganish kerak. Shuningdek, motivatsiya shaxs tuzilishida oxirgi o‘rinni egallamaydi, inson xatti-harakati va faoliyatini tushuntirish uchun ishlatiladigan asosiy tushunchalardan biridir. Belgilangan vazifani bajarish sifati va vaqti unga bo‘ysunuvchi xodimning to‘g‘ri motivatsiyasiga bog‘liq. Ammo shuni ta’kidlash kerakki, shaxsiy xatti-harakatlardagi motivatsiyani o‘rganish hali tugallanmagan, chunki bu murakkab psixologik jarayondir. Shuning uchun motivni harakatni sodir etishga olib keladigan impuls va motivatsiyani bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘plab elementlarning funksional holatini o‘zgartirish jarayoni sifatida tushunishga umumiy yondashuvdan chiqish kerak.

XULOSA. Shunday qilib, motivlarning shakllanishi muayyan qondirilmagan ehtiyojlar, faoliyat manbayi bilan belgilanadi. Ehtiyojlardan kelib chiqib, harbiy xodimlarning maqsadli faoliyatga munosabatini belgilaydigan motivlar shakllanadi. Umuman olganda, turli nuqtayi nazarlarni umumlashtirib, shuni xulosa qilishimiz mumkinki, xodimlarni kasbiy faoliyatda o‘z oldiga maqsad qo‘yishga va ushbu maqsadga erishish uchun harakatlar qilishga undaydigan kuch doim harakatda bo‘lishi kerak.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sh.M. Mirziyoyev. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birga barpo etamiz. – T- 2016.
2. Sh.M. Mirziyoyev. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik –milliy g‘oyamizning poydevoridir. - T- 2019.
3. Buyakas, T.M. Shaxsiy o‘zini o‘zi belgilash muammosi va psixotexnikasi [matn]: / T.M.Buyakas // Psixologiya masalalari, 2002.-№ 2.
4. Zhura S.F- Psychological features of labor motivation in the conditions of military service // Scientific, Technical and Economic Cooperation of the Asia-Pacific Countries in the 21st Century. 2014. S. 117120.
5. Smirnov, A. - Military professional motivation [Text] / / A... Smirnov, A. R. Piskunov. - Text: direct // Young scientist. - 2016. - No. 30 (134). - S. 366372.
6. Tkachev R.V. Motivation of the military professional activity of officers of the Air Force of the Russian Federation [Text] / R.V. Tkachev: sociological and managerial aspect. Abstract. diss ... cand. social sciences. Moscow, 2013.26 s.
7. Бобков О.Б., Виноградова Г.А. Факторы, влияющие на формирование учебно-профессиональной мотивации курсантов военного вуза [Текст] /// Известия Самарского научного центра Российской академии наук, 2012. Т. 14. № 2. С. 116-122.
8. Асмоилов А.Г – Психология личности. М.: Изд-во МГУ, 1990.-367с.

Qabul qilindi: 15.08.2024 Chop etildi: 30.09.2024 UDK: 22-312.6-223.22-221.

INVESTOR-STATE DISPUTE SETTLEMENT IN INTERNATIONAL PUBLIC LAW: A CRITICAL ASSESSMENT AND FUTURE DIRECTIONS

Rahmonov Jaloliddin,
Tashkent State University of Law,
Lecturer of the Department of International Law and Human Rights

XALQARO OMMAVIY HUQUQDA INVESTOR-DAVLAT NIZOLARINI HAL QILISH: TANQIDIY BAHOLASH VA KELAJAKDAGI YO‘NALISHLAR

Rahmonov Jaloliddin,
Toshkent davlat yuridik universiteti,
Xalqaro huquq va inson huquqlari kafedrasi o‘qituvchisi

УРЕГУЛИРОВАНИЕ СПОРОВ МЕЖДУ ИНВЕСТОРАМИ И ГОСУДАРСТВОМ В МЕЖДУНАРОДНОМ ПУБЛИЧНОМ ПРАВЕ: КРИТИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА И БУДУЩИЕ НАПРАВЛЕНИЯ

Рахмонов Джалолиддин,
Ташкентский государственный юридический университет,
Преподаватель кафедры международного права и прав человека

https://orcid.org/0000-0002-4652-0859
e-mail: jaloliddin.rakhmanov@gmail.com

Abstract: Investor-State Dispute Settlement (ISDS) is a mechanism that allows foreign investors to bring claims against states in which they have invested, typically through arbitration rather than national courts. Initially conceived as a means to protect investments in politically unstable environments, ISDS has become a central point of debate in international public law. This article offers a critical assessment of ISDS and explores future directions for reform to align the mechanism more closely with modern principles of public international law.

Key words: investor-State Dispute Settlement (ISDS), Bilateral Investment Treaties (BITs), Foreign direct investment (FDI), Sovereignty, Regulatory space.

Аннотация: Урегулирование споров между инвесторами и государством (ISDS) — это механизм, который позволяет иностранным инвесторам предъявлять иски против государств, в которых они инвестировали средства, обычно через арбитраж, а не через национальные суды. Первоначально задуманная как средство защиты инвестиций в политически нестабильных условиях, ISDS стала центральной темой дебатов в международном публичном праве. В данной статье предлагается критическая оценка ISDS и исследуются будущие направления реформы, направленные на более тесное приведение этого механизма в соответствие с современными принципами международного публичного права.

Ключевые слова: урегулирование споров между инвестором и государством (ISDS), двусторонние инвестиционные договоры (ДИД), прямые иностранные инвестиции (ПИИ), суверенитет, пространство регулирования.

Annotatsiya: Investor-davlat nizolarni hal etish (ISDS) - bu xorijiy investorlarga o'zlari investitsiya qilgan davlatlarga nisbatan odatda milliy sudlar emas, balki arbitraj orqali da'vo qilish imkonini beruvchi mexanizm. Dastlab siyosiy jihatdan beqaror muhitda investitsiyalarni himoya qilish vositasi sifatida ishlab chiqilgan ISDS xalqaro ommaviy huquqda markaziy munozara nuqtasiga aylandi. Ushbu maqola ISDSni

tanqidiy baholashni taklif qiladi va mexanizmni xalqaro ommaviy huquqning zamonaviy tamoyillari bilan yanada yaqinroq muvofiqlashtirish uchun islohotning kelajakdagi yo'nalishlarini o'rganadi.

Kalit so'zlar: investor-davlat nizolarni hal qilish (ISDS), ikki tomonlama investitsiya shartnomalari (BITs), to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (FDI), suverenitet, tartibga solish maydoni.

Introduction

Investor-State Dispute Settlement (ISDS) mechanisms have been an essential tool in promoting foreign direct investment (FDI) since their inception in the mid-20th century. Their establishment under bilateral investment treaties (BITs) and free trade agreements (FTAs) has ensured that investors from one state can seek compensation through arbitration if the host state violates investment protections. Despite their initial success in fostering cross-border investment, ISDS mechanisms have increasingly attracted criticism for their procedural issues and broader implications for state sovereignty and public policy [1].

Main part

The introduction of BITs and the inclusion of ISDS provisions enabled investors to bypass national courts, perceived as biased or ineffective, and take disputes to neutral international arbitration tribunals. The ISDS mechanism primarily aimed to provide security for investors, improve investment flows, and create a legal recourse for investors facing discrimination or arbitrary state action [2].

While the ISDS system has facilitated investor confidence and fostered economic development, it has also encountered widespread criticism on several fronts:

- **Lack of Transparency and Accountability:** Many ISDS arbitration proceedings are conducted behind closed doors, with limited public access to documents or proceedings. This lack of transparency has raised concerns about the accountability of arbitral tribunals, especially when disputes involve matters of public interest, such as environmental protection or public health [3].
- **Bias and Inconsistency in Awards:** ISDS has been criticized for its perceived bias in favor of investors, particularly large multinational corporations, at the expense of states' regulatory authority. Arbitrators, often drawn from the same pool of professionals, may prioritize investor interests over public welfare. Additionally, the lack of a formal appeals mechanism has resulted in inconsistent and sometimes contradictory rulings across different cases [4].
- **Impact on Sovereignty and Regulatory Space:** ISDS has been seen as encroaching on the sovereign right of states to regulate in the public interest. Disputes over environmental regulations, labor standards, and public health measures have drawn attention to the potential of ISDS to constrain states' ability to implement policies that prioritize the well-being of their populations over investor profits [5].
- **Costs and Length of Proceedings:** Arbitration under ISDS can be extremely costly, with legal and arbitration fees running into millions of dollars. Developing countries, in particular, have found themselves disproportionately burdened by the financial and administrative demands of ISDS proceedings, even when claims are ultimately dismissed.

The ISDS system, while initially designed to safeguard private interests, increasingly interacts with public international law, particularly in areas such as environmental protection, human rights, and sustainable development. A growing number of cases have raised fundamental questions about the balance between protecting investors' rights and states' obligations under international law [6].

For instance, in cases involving environmental regulations, arbitrators must navigate a complex intersection of treaty obligations under BITs and broader commitments to international environmental law. Similarly, cases that affect public health (such as disputes over tobacco regulation) have brought ISDS into conflict with human rights obligations. This evolving dynamic highlights the need for ISDS reform to better align with the principles of international public law [7].

In response to growing criticism, various initiatives have been proposed to reform the ISDS system:

- **Multilateral Investment Court (MIC):** One of the most prominent reform proposals is the establishment of a permanent Multilateral

TAMADDUN NURI

Investment Court. Spearheaded by the European Union, the MIC would replace ad hoc arbitration tribunals with a standing body of judges, ensuring greater consistency, transparency, and accountability in decisions [8].

• **Transparency and Public Participation:** Efforts are being made to increase the transparency of ISDS proceedings. The United Nations Commission on International Trade Law (UNCITRAL) has introduced transparency rules that allow for greater public access to documents and hearings. The inclusion of amicus curiae (friend of the court) briefs in ISDS cases involving public interest issues is also gaining support.

• **Appellate Mechanisms:** To address the issue of inconsistent rulings, there are calls for the creation of an appellate mechanism within the ISDS framework. Such a mechanism would allow for the review of arbitral awards, promoting greater coherence and predictability in investment dispute resolution.

• **Balancing Investor Protection and Public Policy:** Recent BITs and FTAs have started to incorporate provisions that explicitly preserve the right of states to regulate in the public interest. These provisions aim to safeguard states' ability to pursue legitimate public policy objectives, such as environmental protection, public health, and labor rights, without fear of investor retaliation through ISDS [9].

Conclusion

The Investor-State Dispute Settlement mechanism, while essential in protecting foreign investments, faces significant challenges in maintaining legitimacy and aligning with evolving public international law principles. Reforms are necessary to address concerns about transparency, fairness, and the balance between investor protection and state sovereignty. The proposed solutions, particularly the establishment of a Multilateral Investment Court and the introduction of appellate mechanisms, represent promising steps toward a more balanced and just system [10].

However, the ultimate success of ISDS reform will depend on the willingness of states and international organizations to embrace these changes and ensure that investor protection does not come at the expense of broader public interests. By reimagining ISDS within the framework of public international law, the international community can create a more equitable and sustainable system that reflects the realities of a globalized world.

The list of used literature:

1. Thakur T. Reforming the investor-state dispute settlement mechanism and the host state's right to regulate: a critical assessment //Indian Journal of International Law. – 2021. – T. 59. – №. 1. – C. 173-208.

2. Beaumont B. et al. The Future of Investor-State Dispute Settlement: Reforming Law, Practice and Perspectives for a Fast-Changing World. – 2024.

3. Ghori U. Investment court system or 'regional'dispute settlement?: The uncertain future of investor-state dispute settlement //Bond Law Review. – 2018. – T. 30. – №. 1. – C. 83-117.

4. Dimitropoulos G. Investor–state dispute settlement reform and theory of institutional design //Journal of International Dispute Settlement. – 2018. – T. 9. – №. 4. – C. 535-569.

5. Karas M. Investor-state dispute settlement–the main controversies and the way forward //Revista Moldovenească de Drept Internaţional şi Relaţii Internaţionale. – 2017. – T. 12. – №. 4. – C. 585-591.

6. Zugliani N. et al. The Evolving Role of State Sovereignty in the International Investment Regime. – 2021.

7. Lin Y. J. Balancing and sovereignty in international law: Reviewing convergences and divergences in international investment law and trade law : дис. – University of Leicester, 2019.

8. Miles K. Investor-state dispute settlement: conflict, convergence, and future directions //European Yearbook of International Economic Law 2016. – 2016. – C. 273-308.